O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI
M. LAFASOV
JAHON TARIXI
(1918—2008)
Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik
To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr
TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2010
Mas’ul muharrir:
E. Z. Nuriddinov — Nizomiy nomli TDPU «Xorijiy mamlakatlar tarixi» kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori.
Taqrizchilar:
S. X. Nosirxo‘jayev — tarix fanlari doktori, professor.
E. X. Xoliqov — tarix fanlari doktori, professor.
A. Qirg‘izboyev — tarix fanlari doktori.
Sh. Ergashev — tarix fanlari nomzodi.
S. J. Suvonova — Mirobod akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi.
D. G. Jo‘raboyeva — Toshkent Islom universiteti qoshidagi akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi.
I. Muqumova — Toshkent bank kolleji tarix fani o‘qituvchisi.
© «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2008.
© «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2009.
© «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010.
ISBN 978-9943-14-082-0
Lafasov M.
Jahon tarixi: Akad. litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ M. Lafasov; Mas’ul muharrir E. Z. Nuriddinov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «Turon-Iqbol», 2010. — 368 b.
O‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni qayta ko‘rib chiqish va yangilarini yaratish bo‘yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tarix fani guruhi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun uzluksizligi va uzviyligi ta’minlangan «Jahon tarixi» o‘quv dasturi asosida yozilgan ushbu darslikda jahondagi asosiy davlatlarning XX—XXI asr boshlaridagi tarixi, xalqaro munosabatlar, fan, madaniyat tarixi yoritilgan.
63.3(0)
L25
ББК 63.3(0)ya722
3
Zamon talabi shuki, professorlar va o‘qituvchilar o‘zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o‘rganib, mag‘zini chaqib, undan keyin o‘z talabalariga saboq berishlari zarur.
Islom Karimov

KIRISH
Dunyo XX—XXI asr boshlarida
Aziz o‘quvchilar!
Siz o‘rta umumta’lim maktabini tugallab, endi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji quchog‘iga keldingiz. O‘rta umumta’lim maktabida jahon tarixining qadimgi davridan tortib, to 1918-yilgacha bo‘lgan davrni o‘rgandingiz. Qo‘lingizdagi kitob esa siz o‘qigan tarixiy davrlarning bevosita davomi bo‘lib, bugungi kungacha jahon mamlakatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar bilan tanishtiradi. Eng muhimi, bu o‘zgarishlarni, tarixiy voqealarni chuqur idrok qilib, tafakkur tegirmonidan o‘tkazib, undan mamlakatimizda yangi, qudratli demokratik jamiyat qurishda foydalanish hamda uni milliy istiqlolga xizmat qildirish zarur.

Insoniyat tarixida XXI asr ham boshlandi. Bu asrda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tarixiy jarayonlar, hodisalar va voqealar Sizning ko‘z o‘ngingizda ro‘y berishi shubhasiz. Hamma gap ijtimoiy fanlar, shu jumladan, tarix fani ham bu jarayon, hodisa va voqealarning sabablari va mohiyatini qanchalik haqqoniy va tushunarli tarzda yoritib berishida.
XX asr tarixi bilan tanishish Sizga insoniyat bu asrni qanday boshlagan edi, uni qanday tugalladi va yangi — XXI asrga, yangi ming yillikka dunyo nima bilan kirib keldi, degan savollarga baholi qudrat javob beradi.
Dunyo XX asrga ikkinchi sanoat inqilobi boshlanishi bilan kirib keldi. Bu asrda insoniyat ilm-fan va texnika taraqqiyotida ulkan yutuqlarga erishdi. Ertaklardagi «uchar gilamlar» hayotiy reallikka aylandi. Inson bolasi dastlab samolyotlarda, keyinchalik esa kosmik raketalarda fazoga parvoz qildi. Hatto, uning oyog‘i Oyga ham yetdi.
XX asr boshlaridan davlatning jamiyatda tutgan o‘rnida tub o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu hodisa keyinchalik davlatning iqtisodga aralashuvi, iqtisodda davlat sektorining vujudga keltirilishi, davlatning iqtisodiy islohotlarga bosh bo‘lishi, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi masalasiga chuqur e’tibor berishi bilan izohlanadi. Bu hodisa mehnat bilan kapital o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatishni, oxir-oqibatda ijtimoiy inqiloblarning oldini olishni, keyinroq esa ularning butunlay keraksiz bo‘lib qolishini ta’minladi. Insoniyatning ilg‘or qismi ijtimoiy inqiloblar mislsiz qon to‘kishlarga, vayrongarchiliklarga olib kelishini tushunib yetdi.

Ular mehnat ahlining insoniy huquqlari uchun kurashda birinchi o‘ringa ijtimoiy islohotlarni qo‘ydilar. Sanoatlashgan davlatlar bu borada juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.
XX asr tarixga inson huquqlari uchun kurash asri bo‘lib ham kirdi. Bu o‘rinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1948-yilda qabul qilgan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Buning natijasi o‘laroq mustamlaka va yarim mustamlaka xalqlarga mustaqillik berish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib qoldi. To‘g‘ri, mustamlaka zulmidan xalos bo‘lish birgina hujjatning kuchi bilan amalga oshgani yo‘q. Mustamlaka va yarim mustamlaka xalqlar ayni paytda milliy-ozodlik kurashi ham olib bordilar. Oxir-oqibat ular o‘z ozodliklarini qo‘lga kiritdilar. O‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu asrda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya, Usmonli Turklar, Portugaliya kabi davlatlar o‘z mustamlakalaridan ajraldilar, shuningdek, mustamlakachi imperiya — sobiq Sovet davlati quladi. Natijada, dunyo siyosiy xaritasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Ko‘plab mustaqil davlatlar tashkil topdi. XX asr oxiriga kelib mustamlakada yashayotgan xalqlar deyarli qolmadi. Binobarin, XX asr mustamlakachi imperiyalarning yemirilishi va qulashi asri bo‘lib ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi.
Bugun dunyoda 200 dan ortiq yaqin davlat mavjud. Ularning ko‘pchiligida respublika tuzumi mustahkam qaror topdi. To‘g‘ri, monarxiya davlatlari ham mavjud. Biroq monarxlar avvalgidek cheklanmagan huquqlarini yo‘qotgan. Ularning aksariyati real hokimiyatga ega emas. Monarxlari real hokimiyatga ega bo‘lgan davlatlarda despotizm emas, ma’rifatli monarxiya qaror topdi. XX asrda dunyo nisbatan adolatli va demokratik bo‘lib qoldi. Dunyo aholisining turmush darajasi o‘sdi. Natijada, uning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi ortdi. Insonlar nisbatan erkin bo‘lib qoldilar.
Ayni paytda, XX asrda insoniyat uchun eng ko‘p darajada kulfat va azob-uqubatlar keltirgan hodisalar ham ro‘y berdi. Ularning ichida eng dahshatlisi birinchi va ikkinchi jahon urushlari edi. Bu urushlarda o‘nlab million odamlar halok bo‘ldi. O‘nlab million odamlar esa mayib-majruh bo‘lib qoldilar. Konsentratsion lagerlarda odamlar ustidan dahshatli tajribalar o‘tkazildi, ular tiriklay yondirildi. Insoniyatga qarshi birinchi bor yadro quroli ishlatildi. Bularning bari insonlarni urushga nisbatan nafrat bilan qarashga o‘rgatdi. Ayni paytda dunyoda yangi jahon urushiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tinchliksevar kuchlarning qudratli harakati vujudga keldi. Buning natijasi o‘laroq yangi jahon urushining oldi olindi. Yangi jahon urushining ro‘y berish imkoni bor edimi? Ha, bor edi. Chunki ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo bir-biriga dushman bo‘lgan ikki qutbga bo‘lindi. Ularning

biriga sobiq Sovet davlati, ikkinchisiga Amerika Qo‘shma Shtatlari bosh bo‘ldi. Natijada, xalqaro maydonda «sovuq urush» davri boshlandi. Misli ko‘rilmagan darajada qurollanish poygasi avj oldi. Qator davlatlar dahshatli, ommaviy qirg‘in qurollariga ega bo‘ldi. Shu tariqa ular insoniyat
5
sivilizatsiyasini bir necha bor yo‘q qilib tashlashga qodir bo‘lgan qurollar zaxirasini yaratdilar. To‘g‘ri, 1991-yilda Sovet davlatining qulashi bilan dunyoning bir-biriga dushman bo‘lgan ikki qutbga bo‘linishi barham topdi. Biroq, afsuski, bu hodisa dunyoda tinchlikning mustahkam asoslari yaratilishiga olib kelmadi.

Prezident Islom Karimov so‘zlari bilan aytganda, dunyo hamon mo‘rtligicha qolmoqda, ayni paytda bu mo‘rtlikning sabablari quyidagilardir:

— bir qancha mamlakatlarda borayotgan keskin siyosiy kurashlar;

— milliy o‘zlikni anglashning faol jamlanganligi hamda millatlar va ayrim elatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashiga intilayotganligi;

— etnik va millatlararo ziddiyatlar saqlanib qolayotganligi;

— siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

— dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

— mamlakatlar, xalqlar o‘rtasida, ayrim bir mamlakat ichida, shuningdek, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi.

Ayni paytda insoniyatni qator global muammolar — mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va aqidaparastlik, xalqaro terrorchilik, narkobiznes, ekologiyadagi tanglik, dunyoning turli burchaklarida hamon davom etayotgan ocharchilik va to‘yib ovqat yemaslik, turli yuqumli kasalliklarning tez tarqalishi va shu kabilar tashvishga solmoqda. Insoniyat XXI asrda bu muammolarning hal etilishi zarurligini teran anglab yetmoqda. Nufuzli xalqaro tashkilotlar va buyuk davlatlar bu muammolarni hal etishda jahon hamjamiyatiga bosh bo‘lmoqlari bugungi kunning talabidir.

Mustaqil O‘zbekiston davlati ham bu kabi muammolarni hal etishdek umuminsoniy oliyjanob ishga o‘zining munosib hissasini qo‘shish borasida baholi qudrat harakat qilmoqda.

Darslikda ushbu voqealar, chunonchi, dunyo davlatlarining deyarli bir asrlik tarixi izchil bayon etilgan. Darslik mualliflarning 2005 va 2006-yillarda nashr etilgan, tajriba-sinov natijalari hamda amaliyotchi o‘qituvchilar fikrlari bo‘yicha qayta ishlangan va to‘ldirilgan «Jahon tarixi» o‘quv qo‘llanmasi va yangi takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida yaratildi. Har bir mamlakat tarixida ibrat olsa arziydigan voqea-hodisalar ko‘p. Siz ularni chuqur o‘rganing, mushohada qiling, erkin fikr yuritib, xulosa chiqaring. Umuminsoniy qadriyatlardan, ibratli voqealardan, davlatlar taraqqiyotidan jonajon O‘zbekistonimizning ravnaqi uchun foydalanishga harakat qiling. Har qanday yaxshi voqea-hodisalardan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini mustahkamlashga intiling. O‘z turmushingizni, millatimiz ravnaqini, Vatanimiz qudratini, yurt tinchligini, xalqimiz farovonligini yanada yaxshilashga harakat qiling. Zero, «ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos.
6
Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi — ularning barchasi odamning intellektual kamolga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega» (Islom Karimov).

Darslikni tayyorlashda tarix fanlari doktori, prof essor G. A. Hidoyatovning shaxsan roziligi bilan uning materiallaridan foydalanildi.

Darslikning 34—35-paragraflari tarix fanlari nomzodi Hamza Kichkilov bilan hamkorlikda, uning materiallari asosida yozilgan.

Darslik ba’zi kamchiliklardan xoli bo‘lmasligi tabiiy. Shu sababli darslik haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan mutaxassislarga muallif minnatdorchilik bildiradi. Fikr-mulohazalar quyidagi manzilga yuborilishi mumkin:

100100, Toshkent shahri, 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar

ta’limi markazi.

BIRINCHI BO‘LIM
DUNYO IKKI JAHON URUSHI ORALIG‘IDA
1-bob. G‘ARB MAMLAKATLARI
1—2-§. Xalqaro munosabatlar

Sizga 9-sinf darsligidan ma’lumki, Birinchi jahon urushi 1918-yil 11-noyabrda Germaniyaning Antantaga taslim bo‘lishi bilan tugadi. Shundan so‘ng urush aybdori bo‘lgan German bloki davlatlari bilan yetkazilgan zararni qoplash va shartnoma tuzish uchun tayyorgarlik boshlandi. Ko‘p asrlardan beri urush g‘olibi bo‘lgan davlat yoki davlatlar guruhi bilan yengilgan davlat yoki davlatlar o‘rtasida shartnoma imzolangan. G‘olib tomon yengilgan tomonga o‘z xohish-istagini o‘tkaza olgan, albatta. Birinchi jahon urushi ham bundan mustasno bo‘lmadi. G‘olib Antanta bilan mag‘lub To‘rtlar ittifoqi o‘rtasida imzolanadigan tinchlik shartnomasining matnini tuzish uchun Fransiya poytaxti Parij shahriga 27 davlat delegatsiyasi to‘plandi. Ular Versal saroyida imzolangan tinchlik shartnomasini ishlab chiqish ustida bir yil ishladilar. V. Vilsonning «14 moddasi» asosida Versal saroyida 5 ta davlat (Germaniya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya va Turkiya) bilan imzolanadigan 5 ta shartnoma matni tayyorlandi. Shu 5 ta shartnoma birgalikda «Versal tizimi» deb ataldi.

Buyuk davlatlarning Osiyo va Tinch okean havzasidagi munosabatlarini tartibga solish maqsadida 1921—1922-yillarda Vashington shahrida 9 ta davlat ishtirokida konferensiya o‘tkazildi. Bu konferensiyada uchta shartnoma imzolandi. Shu tariqa Versal — Vashington tizimi nomi tarixda qoldi.

Fransiya Bosh vaziri Jorj Klemanso tinchlik shartnomasi shartlarini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro konferensiyaning Parij shahrida o‘tkazilishini qattiq turib himoya qildi, va nihoyat, u o‘z maqsadiga erishdi. Parij konferensiyasi 1919-yilning 18-yanvar kuni o‘z ishini boshladi. Konferensiya ochilishining aynan shu kunga belgilanganligi bejiz emas edi. 1870—1871-yilgi Fransiya—Prussiya urushida g‘olib Prussiya bilan yengilgan Fransiya o‘rtasidagi shartnoma aynan shu saroyda imzolangan va 18-yanvar kuni shu saroyda Germaniya imperiya deb e’lon qilingan edi. G‘oliblar Germaniyani tahqirlash uchun aynan shu kuni konferensiya ishini boshladilar. Germaniyani tahqirlashdan Fransiya ayniqsa manfaatdor edi. Shuning uchun ham konferensiyani kirish so‘zi bilan ochgan Fransiya Prezidenti A. Puankare o‘z so‘zida, jumladan, bunday degan edi: «Adolatsizlik bilan vujudga kelgan Germaniya imperiyasi o‘z hayotini baxtsizlikda tugatdi».

Versal — Vashington tizimi nima?

Parij tinchlik konferensiyasi

Tinchlik konferensiyasida 27 davlat vakillari qatnashgan bo‘lsa-da, amalda barcha asosiy masalalar «katta uchlik» deb atalgan (AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya) davlat rahbarlari tomonidan hal etildi. Ularning ichida Fransiya Bosh vaziri Jorj Klemanso o‘zining jo‘shqin nutqlari bilan ajralib turar va o‘ta qiziqqonligi tufayli «yo‘lbars» degan laqab olgan edi.

Konferensiyaga to‘rtlar ittifoqi davlatlari hamda Sovet Rossiyasi taklif etilmadi.

Katta uchlik davlatlari garchand To‘rtlar ittifoqiga qarshi urushda ittifoqchi bo‘lgan bo‘lsalar-da, ularning har biri Parij konferensiyasi qarorlari aynan o‘zlarining maqsadlariga mos kelishini istar edilar.

Xususan, AQSH o‘zini dunyoning yetakchi davlati, Yevropa davlatlariga bergan qarzi hamda Birinchi jahon urushining Antanta foydasiga hal bo‘lishiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, Vilson ilgari surgan tinchlik dasturi AQSHga jahonni ma’naviy idora qilish huquqini beradi, deb hisoblar edi.

AQSH Buyuk Britaniya va Fransiya Yevropa siyosatini belgilovchi davlatlar

bo‘lib qolishini istamas, shuning uchun Germaniya butunlay kuchsizlantirilgan holatga tushirib qo‘yilishiga qarshi edi.
Buyuk Britaniya Germaniyaning dengiz va iqtisodiy qudratini sindirganligini o‘zining katta yutug‘i deb hisoblardi. Germaniyaning sobiq mustamlakalarini o‘z imperiyasi tarkibiga qo‘shib olishga intilardi. Ayni paytda Fransiyaning Germaniya hisobiga kuchayishini ham istamas edi.
Parij tinchlik konferensiyasi.
Chapdan o‘ngga: D. Lloyd-Jorj, V. Orlando, J. Klemanso, V. Vilson.
«Katta uchlik»
o‘rtasidagi
ziddiyatlar
9
Shuning uchun Fransiya Bosh vaziri J. Klemansoning Buyuk Britaniya Bosh vaziri D. Lloyd-Jorjga: «G‘alabadan keyin darhol Britaniya bizning dushmanimiz bo‘lib qoldi»,— deb ta’na qilganligi bejiz emas. Bunga javoban Lloyd-Jorj Klemansoga qarab kulib turib: «Britaniyaning siyosati shunday emasmi?» — deb javob qaytarganligini tarix unutgan emas. Lloyd-Jorj Fransiya kuchayib ketishining hamda bolsheviklar solishi mumkin bo‘lgan xavfning oldini olish maqsadida kuchli Germaniyaning saqlanib qolishidan manfaatdor edi.
Bundan tashqari, Buyuk Britaniya AQSHning jahon siyosatida tutgan o‘rni, shuningdek, harbiy-dengiz qudrati tobora oshib borayotganligidan tashvishda edi. Biroq bu jarayonning oldini olishga qodir emas edi. Chunki AQSH Buyuk Britaniyani qarz beruvchi davlatdan qarzdor davlatga aylantirib qo‘ygan edi. Buning ustiga iqtisodi tobora kuchsizlanib, moliyasi va savdosi izdan chiqib bormoqda edi.
Fransiya katta uchlik ichida eng ko‘p zarar ko‘rgan davlat edi. Chunki urush harakatlari uning hududlarida olib borilgan edi. Ayni paytda u ham qarz beruvchi davlatdan qarzdor davlatga aylanib qoldi. Bu ham yetmaganidek, Sovet hukumati podsho Rossiyasining chet davlatlardan olgan qarzini to‘lashdan bosh tortganligi Fransiya uchun qattiq zarba bo‘ldi. Chunki chor Rossiyasi eng ko‘p qarzni Fransiyadan olgan edi.
Shuning uchun ham u barcha yo‘qolgan boyliklari o‘rnini Germaniya hisobidan qoplashni istar edi. Bundan tashqari, Fransiya Germaniyaning nihoyatda kuchsizlantirilishi tarafdori edi. Fransiya nafaqat Germaniya bir vaqtlar undan tortib olgan hududlarini qaytarib olishni, ayni paytda Germaniyaning Saar ko‘mir havzasi va Reyn daryosining so‘l sohilidagi yerlarni ham qo‘shib olishni istar edi. Shuningdek, Fransiya Yevropaning Ruminiya, Chexoslovakiya va Polsha kabi davlatlaridan kelgusida Germaniyaga qarshi o‘ziga xos bir ittifoq tuzish niyatida ham edi. Ayni paytda Fransiya hukmron doiralarining rejasiga ko‘ra, bu davlatlar Sovet Rossiyasiga qarshi kurashda ham asqotishi lozim edi. «Katta uchlik» esa Sovet Rossiyasiga qarshi kurash masalasida yagona fikrda edi.
1919-yilning 28-iyunida Versal saroyida yengilgan Germaniya bilan g‘olib Antanta davlatlari o‘rtasida shartnoma imzolandi.
Bu shartnoma tarixga Versal tinchlik shartnomasi nomi bilan kirdi. Versal shartnomasi Germaniya va uning ittifoqchilarini urushning aybdorlari deb e’lon qildi. Shartnomaga ko‘ra, Fransiya Elzas va Lotaringiyani o‘ziga qaytarib oldi.
Germaniyaning Saar viloyati 15 yil muddatga Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. 15 yildan so‘ng bu viloyat taqdiri plebitsey yordamida hal etiladigan bo‘ldi. Uning ko‘mir havzasi shaxtalari Fransiyaning mulki bo‘lib qoldi. Reyn daryosining chap sohilini 15 yil muddatga Antanta okkupatsiya qildi. Reyndan sharqqa qarab 50 km hudud to‘la demilitari-
Versal tinchlik
shartnomasining
imzolanishi
10
zatsiyalashtirildi. Germaniya Polsha va Chexoslovakiyaning mustaqilligini tan oldi. Bir paytlar Prussiya bosib olgan hududlar, Sharqiy Pomore Polshaga berildi. Buning natijasida Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega

bo‘ldi. Eypen, Malmedi va Morelle okruglarida plebitsey o‘tkazildi, natijada bu okruglar Belgiyaga o‘tdi. Klaypeda esa Litvaga o‘tkazildi. Shlezvigning shimoliy qismi Daniyaga, Sileziyaning bir qismi Chexoslovakiyaga berildi. Gdansk shahri esa Millatlar Ittifoqi boshqaruvidagi «erkin shahar» deb tan olindi. Shu tariqa Germaniya 1914-yilning 1-avgustiga qadar bo‘lgan o‘z hududining 1/8 qismini yo‘qotdi. Germaniya Avstriyaga bo‘lgan da’volaridan voz kechishga majbur etildi.

Avstriyaning mustaqilligi Antanta davlatlari tomonidan kafolatlanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, Germaniya dunyodagi barcha mustamlakalaridan mahrum etildi va ular g‘oliblar o‘rtasida taqsimlandi. Chunonchi, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Togo va Kamerun Buyuk Britaniya va Fransiyaga o‘tdi. Shuningdek, Buyuk Britaniyaga Tanganika (Germaniya Sharqiy Afrikasi); Belgiyaga Ruanda va Urundi; Janubiy Afrika Ittifoqiga — Janubi-g‘arbiy Afrika (Namibiya); Yaponiyaga Tinch okeanidagi Marshall, Marian va Karolina orollari, Xitoyning Szyaochjou viloyati, Shandun yarim oroli berildi. Germaniyaga Antanta davlatlari foydasiga katta miqdorda reparatsiya to‘lovi majburiyati yuklandi.

Komissiya reparatsiya miqdorini 1921-yilning 1-mayigacha belgilaydigan, Germaniya esa ungacha Antantaga 20 mlrd markani oltin, mahsulotlar, kemalar va qimmatbaho qog‘ozlar bilan to‘lashi zarur edi. Reparatsiya muammosi 1921-yilning aprel — may oylarida London konferensiyasida hal etildi. Unga ko‘ra, reparatsiya 132 mlrd oltin marka miqdorida belgilanadi. Uning 52 foizi Fransiyaga; 22 foizi Buyuk Britaniyaga; 10 foizi Italiyaga; 8 foizi Belgiyaga; Gretsiya, Ruminiya va Yugoslaviyaga birgalikda 6,5 foizi; 0,75 foizi Yaponiyaga to‘lanishi kerak edi.

Bu ochiqcha talonchilik Antanta davlatlarining Versal shartnomasida yozib qo‘ygan quyidagi fikrlari bilan oqlanar edi: «Germaniya va uning ittifoqchilari tajovuzi tufayli ro‘y bergan urushda ittifoqchilar (Antantani nazarda tutishayotir) va ularga qo‘shilgan davlatlar fuqarolariga yetkazilgan talafot va zarar uchun butun mas’uliyatni Germaniya o‘z zimmasiga oladi». Germaniya uchun bunday katta miqdorda reparatsiya to‘lash nihoyatda og‘ir edi. Biroq uning rozi bo‘lishdan boshqa iloji yo‘q edi. Hayot Germaniya oldiga ikki imkoniyatni ko‘ndalang qilib qo‘ydi: yo qo‘yilgan shartga rozi bo‘lib, tinchlikka erishish, yoki yana urushga kirishib butunlay xonavayron bo‘lish. Versal shartnomasi Germaniyada umumiy harbiy majburiyatni taqiqladi. Ayni paytda Germaniya suv osti flotiga, katta harbiy kemalarga, harbiy va dengiz aviatsiyasi va tank qo‘shinlariga ega bo‘lish huquqidan mahrum etildi.

11

Shunday bo‘lsa-da, Germaniyaga 100 ming kishilik qo‘shinga ega bo‘lish (bu qo‘shin faqat ko‘ngillilar asosidagina tashkil etilishi mumkin edi) huquqi berildi. Vudro Vilsonning fikricha, bu qo‘shin Germaniyaga ichki tartibni saqlash va bolshevizm xavfiga qarshi turish uchun zarur edi.

Millatlar Ittifoqi (Millatlar Ligasi ham deyishadi) — bu, dunyo davlatlarining xalqaro tashkiloti edi. Tashkilotning asosiy vazifasi — tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta’minlashdan iborat bo‘lishi kerak edi. Bunday tashkilotni tuzish tashabbusi bilan AQSH Prezidenti V. Vilson chiqdi va bu uning 14 moddali tinchlik dasturida o‘z ifodasini topgan edi. Antantaning yetakchi davlatlari (Buyuk Britaniya va Fransiya) bu tashabbusni qo‘llab-quvvatladi. 1919-yilning 14-fevral kuni dunyoning 44 davlati tashkilotning Nizomi (4 ustavi)ni tasdiqladilar. Tashkilotning oliy organi Assambleya edi. Uning ishida barcha a’zo davlatlar ishtirok etardi.

Assambleyalar oralig‘ida Ittifoqning ishiga Ittifoq Kengashi rahbarlik qilardi. Unga katta vakolatlar berishgan edi. Besh davlat (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya) Kengashning doimiy a’zolari edi. Nizom agressor davlatga nisbatan birgalikda harbiy va iqtisodiy sanksiyalar (choralar) qo‘llashni ham ko‘zda tutardi. Biroq Nizomda qanday davlat agressor davlat deyiladi, degan savolga aniq javob yo‘q. Bu esa har bir davlatga xalqaro nizomlar xarakterini o‘zicha talqin etish imkonini beradi. Millatlar Ittifoqi o‘zi faoliyat ko‘rsatgan 1946-yilgacha amalda biror marta ham jazo choralarini qo‘llay olmadi. Bunga Ittifoqning amalda Buyuk

Britaniya va Fransiya siyosatining quroliga aylanib qolganligi sabab bo‘ldi. (AQSH kongressi Versal shartnomasini tasdiqlamaganligi uchun Ittifoq a’zoligidan chiqqan edi.)
Nizomda uning a’zolari zimmasiga «barcha a’zolarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish va asrash» vazifasi ham yuklatilgan edi. Biroq amaldagi Ittifoqning hech bir a’zosi bu vazifani bajarishga astoydil intilgan emas.
Millatlar Ittifoqining Nizomida «Mandat tizimi» deb atalgan xalqaro huquqning yangi bir normasi belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra, Millatlar Ittifoqi mustamlaka bo‘lib kelgan yoki bo‘lib qolayotgan hududni boshqarish huquqini u yoki bu davlatga topshirishi mumkin edi. Bunday huquqni olgan davlat o‘sha mustamlakani mustaqillikka tayyorlashi lozim edi. Aslida bu ayyorona tizim mustamlakalarni bo‘lib olish siyosatini niqoblovchi mash’um vosita vazifasini o‘tadi.
Fransiyada, Germaniyadan tashqari, urushda mag‘lub bo‘lgan boshqa davlatlar bilan ham alohida-alohida shartnomalar imzolandi.
Chunonchi, Avstriya bilan bunday shartnoma 1919-yilning 10-sentabr kuni Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida imzolandi. Shartnoma sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi tugatilganligini e’lon qildi.
Tinchlik shartnomalari
Millatlar Ittifoqining tuzilishi
12
Avstriya hududi esa sezilarli darajada o‘zgartirildi. Xususan, Janubiy Tirolning bir qismi Italiya ixtiyoriga o‘tkazildi. Chexiya va Moraviya yangi tuzilgan Chexoslovakiya davlatiga qo‘shildi. Bukovina esa Ruminiyaga nasib etdi.
Avstriya qo‘shinlarining soni 30 ming kishidan oshmasligi belgilab qo‘yildi. Floti esa Antanta ixtiyoriga o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bundan tashqari Avstriyaning Germaniya bilan qo‘shilishi batamom taqiqlab qo‘yildi.
1919-yilning 27-oktabrida Parijga yaqin Neyi shahrida Bolgariya bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko‘ra, Bolgariya hududining katta qismi Yugoslaviya, Gretsiya va Ruminiyaga o‘tdi. Ayni paytda unga 2,5 mlrd oltin frank kontributsiya to‘lash majburiyati yuklandi. Bolgariya qurolli kuchlarining soni 20000 kishidan oshmasligi belgilandi.
1920-yilning 4-iyulida Versal saroyining Trianon zalida Vengriya bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko‘ra, Vengriya o‘z hududining ancha qismidan mahrum etildi. Chunonchi, Xorvatiya, Bachka va Banatning g‘arbiy qismi Yugoslaviyaga o‘tdi. Ruminiyaga Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi berildi.
Chexoslovakiya ham esdan chiqarilmadi. Unga Slovakiya va Karpatorti Ukrainasi nasib etdi. Vengriyaga berilgan og‘ir zarbadan biri — bu uning dengizga chiqish imkoniyatidan mahrum etilganligi bo‘ldi. Vengriya 30 ming kishidan ortiq qurolli kuchga ega bo‘la olmas edi.
Antanta davlatlari 1920-yilning 10-avgustida Fransiyaning Sevr shaharchasida Turkiya bilan shartnoma imzolashdi. Shartnomaga ko‘ra, Turkiyaga 1914-yilning 1-avgustigacha qaram bo‘lgan hududlar to‘rtdan uch qismga kamaydi.
Turkiya hududi Kichik Osiyo va Istambul shahrini o‘z ichiga olgan Yevropadagi ozgina joy bilan cheklab qo‘yildi. Istambul shahri poytaxt sifatida qoldirildi. Biroq g‘olib davlatlar, agar Turkiya Sevr shartnomasi talablarini bajarishdan bosh torta boshlasa, bu qarorni qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega edilar. Qora dengiz bo‘g‘ozlarining barcha davlatlar savdo va harbiy kemalari uchun ochiq ekanligi belgilab qo‘yildi. Turkiyani bo‘g‘ozlardan o‘z harbiy kuchlarini olib chiqib ketishga majbur etishdi. Aslida bu shartlar bo‘g‘ozlar ustidan Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya nazorati o‘rnatilishiga imkon berdi. Turkiya o‘z flotini Antanta ixtiyoriga topshirishi zarur edi. Bu ham yetmaganidek, Sevr shartnomasi g‘olib davlatlarga Turkiyaning moliyasi va butun iqtisodiyoti ustidan nazorat o‘rnatish huquqini berdi. Turkiya armiyasining soni 50 ming kishidan

oshmasligi belgilandi. Sevr shartnomasi Turkiyaga Antanta davlatlarining yarim mustamlaka tartibini o‘rnatdi. Birinchi jahon urushi tugagandan keyin Yevropada xalqaro kuchlarning yangi nisbati belgilangan Versal tizimi shu tariqa shakllandi. Bu tizim Yevropa siyosiy xaritasini qayta qurish va dunyoni qayta bo‘lib olishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirishning o‘ziga xos shakli edi.

13

AQSH Kongressining yuqori palatasi (Senat)
Versal shartnomasida AQSHning manfaatlari
hisobga olinmagan, degan vaj bilan bu shartnomani
ratifikatsiya qilmadi.

Jahon urushidan qudratli bo‘lib chiqqan AQSH Osiyo — Tinch okean mintaqasida yangi tartiblar o‘rnatilishidan eng ko‘p darajada manfaatdor davlat edi. Tabiiyki, o‘rnatiladigan bu yangi tartiblar AQSHning manfaatlariga to‘la mos kelishi shart edi. Chunki yer kurrasining bu mintaqasidagi davlatlararo munosabatlar Buyuk Britaniya va Yaponiya o‘rtasida 1902-yilda imzolangan shartnomaga asoslanib kelmoqda edi. Birinchi jahon urushi yillarida qudratli harbiy-dengiz floti yarata olgan va flotning katta qismini Tinch okeanga joylashtirgan AQSHni bu holat mutlaqo qoniqtirmas edi.

Endi, AQSH bu qudratli floti yordamida ushbu mintaqaning yetakchi davlati bo‘lib olishni astoydil xohlar edi. Buyuk Britaniya–Yaponiya mavqeyiga shu yo‘l bilangina putur yetkazishi va ularning ittifoqini yo‘qqa chiqarishi mumkin edi. Shu niyatni ro‘yobga chiqarish maqsadida AQSH yangi konferensiya chaqirilishiga erishdi.

Bu konferensiya Vashington shahrida 1921-yilning 12-noyabridan 1922-yilning 6-fevraligacha ish olib bordi. Konferensiya ishida Tinch okean havzasida shakllantiriladigan yangi tartiblar bevosita o‘z manfaatlariga daxldor bo‘lgan 9 davlat (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy) vakillari qatnashdi. Sovet Rossiyasi bu konferensiyaga ham taklif etilmadi. Vashington konferensiyasida 3 ta muhim shartnoma imzolandi. Ularning birinchisi 1921-yil 13-dekabrda imzolangan «To‘rtlar shartnomasi» (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya) edi. Bu shartnoma Tinch okeandagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolati hamda bu joylarga nisbatan manfaatlarni birgalikda himoya qilish masalasiga oid edi. 1922-yilning 6-fevralida «Beshlar shartnomasi» (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya va Italiya) deb nomlangan shartnoma imzolangan. Bu shartnoma xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni cheklovchi birinchi shartnoma edi.

Shartnoma bo‘yicha AQSH va Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining umumiy suv sig‘imi 525 ming, Yaponiya flotiniki 315 ming, Fransiya va Italiya flotlariniki (har biriniki) 175 ming tonnadan oshmasligi kerak edi. Bundan tashqari, tomonlar suv sig‘imi 35000 tonnadan ortiq bo‘lgan kema qurmaslik yoki sotib olmaslik majburiyatini oldilar. Shunday qilib, AQSH o‘zining dengizdagi asosiy raqibi Buyuk Britaniyaning dunyoning eng qudratli harbiy-dengiz floti miqdoriga ega bo‘lish maqsadini yo‘qqa chiqarishga erisha oldi.

Ayni paytda, bu shartnoma suv osti floti xususida hech qanday cheklashni belgilamadi. Bu shartnoma matnida Yaponiya AQSH va Buyuk Britaniya-
Vashington
konferensiyasi

14

ning Yaponiya sohillariga 5 ming km dan yaqin masofada harbiy dengiz qarorgohi qurmaslik majburiyatini qayd eta oldi.

6-fevral kuni uchinchi shartnoma — «To‘qqizlar shartnomasi» — imzolandi. Bu shartnoma Xitoyga oid edi. Ma’lumki, Xitoy ham Versal shartnomasini imzolamagan. Buning sababi — Germaniyaning Xitoydagi mustamlakalari Xitoyga qaytarib berilmay, Yaponiyaga berib yuborilganligi edi. Germaniya mustamlakalarining Yaponiyaga o‘tishi va uning yanada qudratli davlatga aylanishi AQSHni xavotirga solmay qolmadi. Shuning uchun Vashington konferensiyasida AQSH bu mustamlakalar Xitoyga

qaytarib berilishiga erishdi.
Bundan tashqari, «To‘qqizlar shartnomasi» Xitoy suvereniteti va hududiy yaxlitligi tan olinishini e’lon qildi hamda bu 9 davlat Xitoyni ta’sir doiralariga bo‘lib olishga intilmaslik majburiyatini oldilar. Ayni paytda shartnomada Xitoy bilan munosabat o‘rnatishda ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar tamoyili barcha davlatlar uchun barobar ekanligi ta’kidlandi. Chunki bu tamoyillar AQSH uchun ham Xitoy eshiklarini ochar va kelgusida u yerda o‘z raqiblarini siqib chiqarish imkoniyatini tug‘dirar edi. Vashington konferensiyasi qarorlari Versal shartnomasiga qo‘shimcha sifatida Osiyo — Tinch okean mintaqasidagi kuchlarning yangi nisbati uchun asos bo‘ldi va Versal — Vashington tizimini nihoyasiga yetkazdi.
Versal — Vashington tizimi urushdan keyingi keskinlikni yumshatishga ma’lum darajada xizmat qildi. Uning bu xizmati xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi huquqining hamda urushga nizoli masalalarni hal etish vositasi sifatida qaramaslik tamoyillarining tan olinishida o‘z ifodasini topdi.
Bundan tashqari, Millatlar Ittifoqining tuzilishi hamda qator Yevropa davlatlari mustaqilligining tan olinishi katta ahamiyatga molik tarixiy voqealar edi. Biroq Versal — Vashington tizimi mustahkam tinchlikning qaror topishiga asos bo‘la olmadi. Xo‘sh, nega?
Birinchidan, Antanta davlatlari urushdan keyingi qayta qurishlarning barcha og‘irliklarini yengilgan davlatlar hisobidan hal etishga urindilar. Ular yengilgan davlatlar xalqlarining urush chiqarishda aybdor bo‘lgan hukmron sulolalari va hukumatlarini ag‘darib tashlaganliklarini inobatga olmadilar. Bular, o‘z navbatida, yengilgan davlatlar fuqarolari ongida milliy xo‘rlanish tuyg‘usini qo‘zg‘atdi. Bu esa shovinizm va milliy mustaqillik g‘oyalarining keng ildiz otishiga yo‘l ochdi.
Ikkinchidan, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi qoidasidan kelib chiqib, milliy davlatlar tuzishda tuzatib bo‘lmas suiiste’molliklarga yo‘l qo‘yildi. Yangi davlatlar chegaralari shunday belgilandiki, natijada 19 mln ga yaqin kishi o‘zi mansub bo‘lgan millat nomi bilan atalgan davlat fuqarosi bo‘la olmay qoldi. Ular boshqa davlatlarda «milliy kam sonli xalqlar» atamasi ostida yashay boshladilar. Binobarin, bu 19 mln ga yaqin kishining mavjud ahvoldan noroziligi tinchlikka tahdid solmay qolmas edi.
Versal — Vashington tizimining mustahkam emasligi
15
Uchinchidan, yangi tashkil etilgan davlatlar chegarasi shunday belgilandiki, ular bir-biriga chegara da’vosi bilan istalgan paytda chiqishi mumkin edi. Bu omil ham tinchlikni xavf ostida qoldirardi.
To‘rtinchidan, Versal — Vashington tizimi shartnomalarining amalda bajarilishini ta’minlovchi kuchli mexanizm (vositalar) vujudga keltirilmagan edi.
Tuzilgan yangi xalqaro tashkilot — Millatlar Ittifoqiga bunday vakolat berilmagan edi. Antanta davlatlari ham bunda qodir emas edilar. Chunki kecha ittifoqchi bo‘lgan bu davlatlar o‘rtasida urushdan keyin vujudga kelgan ziddiyatlar amalda ittifoqchilik majburiyatlarini yo‘qqa chiqargan edi.
Beshinchidan, sobiq Germaniya va Turkiya imperiyalari xalqlariga mustaqillik amalda mandat tizimining vasiylik tamoyili bilan niqoblandi, xolos. Yirik mustamlakachi asosiy davlatlar Buyuk Britaniya va Fransiya «buyuk vasiy»lar ham bo‘lib oldilar. Mustamlaka xalqlar milliy-ozodlik kurashini davom ettirdilar.
Oltinchidan, Versal — Vashington tizimi Sovet Rossiyasining ishtirokisiz yaratildi. Antanta sovet davlatiga dushman Germaniya bilan separat sulh tuzgan sotqin deb, bolshevizmga esa dushmanlik ko‘zi bilan qaradi.
Versal — Vashington tizimiga kiruvchi birorta ham shartnomani imzolamagan Sovet davlati bu tizimga nisbatan muxolifat bo‘lib qoldi.
Ma’lumki, 20-yillar tarixga «patsifizm erasi» nomi bilan kirdi. Bu hodisa xalqaro munosabatlarda ham o‘z aksini topdi. Shuning uchun ham katta

kamchilik va adolatsizliklarga qaramay, Versal — Vashington tizimi o‘zida patsifizm ruhini aks ettirgan edi va bu tizim 20-yillarda xalqaro munosabatlarda vaqtinchalik bo‘lsa-da, nisbatan barqarorlikni ta’minlay oldi.

Biroq Versal — Vashington tizimi g‘olib davlatlar o‘rtasidagi hamda g‘oliblar va yengilgan davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etmadi. Aksincha, bu ziddiyatlar tez orada o‘zini to‘la namoyon eta boshladi.

AQSH 20-yillarning oxiriga kelib barcha buyuk G‘arb va Sharq davlatlari — Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya birgalikda ishlab chiqargan sanoat mahsulotlaridan ko‘p mahsulot ishlab chiqara boshladi. Chetga sarmoya joylashtirish miqdori bo‘yicha Buyuk Britaniyaga yetib oldi.

AQSHning maqsadi xalqaro maydonda Buyuk Britaniya gegemonligiga chek qo‘yish, Germaniyaning Fransiya tomonidan asoratga solinishiga yo‘l qo‘ymaslik, uni Yevropada Fransiyaga bas keluvchi raqibga aylantirish edi. O‘z navbatida, yengilgan davlatlar va urush natijasida kam o‘lja tekkan mamlakatlar o‘ch olish ishtiyoqida yonmoqda edi. Biroq 20-yillarda ham Yevropada patsifistik kayfiyat va urushga qarshi harakat hali kuchli edi. Buyuk davlatlar hukmron doiralari istaydilarmi, yo‘qmi, bu omil bilan hisoblashishga majbur edilar.

20-yillarda xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari

16

Fransiya Yevropada yagona qudratli davlat bo‘lish uchun kurashardi. Shuning uchun ham u eng ko‘p sonli armiya tuzdi. Biroq uning qudrati bundan keyin qanday bo‘lishi Germaniyaning unga to‘lashi lozim bo‘lgan reparatsiyaga ham bog‘liq edi. Xuddi shu muammo uni xavotirga solar edi.

Binobarin, Fransiyaning Yevropa qit’asida yetakchi davlat bo‘lish orzusi mustahkam iqtisodiy tayanchga ega emas edi. Tabiiyki, bunday sharoitda Fransiya xalqaro munosabatlarda qudratli siyosiy omil vazifasini bajara olmas edi.

Germaniyadan reparatsiya olish masalasini Fransiyaning yakka o‘zi hal eta olmaganligi buning tasdig‘idir. Shuning uchun ham bu muammoni hal etish tashabbusi AQSH qo‘liga o‘tgan edi. Reparatsiya va Yevropa davlatlarining AQSHga qarzini to‘lashi masalasi bilan shug‘ullanuvchi maxsus Xalqaro qo‘mitaning bu masala borasida 1924-yilda Amerika bankiri Daues rejasini qabul qilganligi shu bilan izohlandi.

Daues rejasiga ko‘ra, Germaniya dastlab yiliga 1 mlrd markadan reparatsiya to‘lashi, keyinchalik esa bu raqam 3 mlrd markaga chiqarilishi lozim edi.

1929-yilda bo‘lib o‘tgan Gaaga xalqaro konferensiyasi bu masalada Amerika vakili Yung rejasini qabul qildi. Unga ko‘ra, Germaniya to‘laydigan har yilgi reparatsiya miqdori 2 mlrd marka hajmida chegaralanib qo‘yildi. Reparatsiyaning umumiy miqdori esa kamaytirildi.

Jahon iqtisodiy inqirozi boshlangach esa, 1931-yildan Fransiyaning raqiblari taklifi bilan Germaniyaning reparatsiya to‘lash majburiyati to‘xtatib qo‘yildi.

Germaniya to‘laydigan reparatsiya miqdorining kamaytirilishi Fransiyani tashvishga solib qo‘ydi. Buning ustiga AQSH Germaniya qudratini tiklash yo‘lida unga katta yordam ko‘rsatmoqda edi.

Shuning uchun ham 1927-yilning aprel oyida Fransiya tashqi ishlar vaziri A. Brian AQSHga urushdan milliy siyosat quroli sifatida voz kechish haqida shartnoma imzolash haqidagi taklif bilan murojaat qildi. Patsifistik kayfiyat hukmron bo‘lgan bir sharoitda AQSH va boshqa davlatlar bu taklifni qabul qilmay ilojlari yo‘q edi. Natijada, 1928-yil davlat vakillari Brian – Kellog (AQSH davlat kotibi) pakti deb atalgan paktni imzoladi. Biroq muhim xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan bu hujjat bajarilmadi.

Sovet davlati buyuk davlatlar o‘rtasidagi va ular bilan boshqa davlatlar

oʻrtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalana oldi. Gʻarb davlatlari Sovet davlatini yakkalab qoʻyishga intilsalar-da, u 1922-yilning aprel oyida Genuyaga yaqin joy — Rapalloda Germaniya bilan shartnoma imzolashga muvaffaq boʻldi. Shartnomaga koʻra, tomonlar bir-biriga nisbatan barcha da'volardan, jumladan, qarz va tovonlardan ham voz kechdilar. 1924-yil Sovet davlatini Yevropaning barcha mamlakatlari tan oldilar. Sovet davlati Gʻarb davlatlari

Davlatlararo munosabatlarning yanada keskinlashuvi

Reparatsiya muammosi

17

bilan tinch-totuv yashash masalasiga sinfiy kurashning xalqaro maydondagi shakli sifatida qarar edi. Shuning uchun ham bu munosabat doimiy emas, Gʻarb davlatlari ertami-kechmi harbiy intervensiya uyushtirishi mumkin, deb hisoblardi. Gʻarb esa, oʻz navbatida Rossiya va Komintern tomonidan inqilobning eksport qilinishi mumkinligidan choʻchir edi.

Shuning uchun ham ularning oʻzaro munosabatlarida hadiksirash mavjud edi. 1925-yilda Lokarno konferensiyasida imzolangan «Reyn kafolat pakti»ga Sovet davlati keskin norozilik bildirdi. Chunki, bu paktga koʻra, buyuk davlatlar Belgiya va Gollandiya chegaralari daxlsizligini kafolatlaganlari holda, bunday kafolat Sharqiy Yevropa davlatlari uchun joriy etilmadi. Sovet davlati esa, oʻz chegaralari xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Germaniya, Turkiya, Litva va Afgʻoniston bilan betaraflik toʻgʻrisida shartnoma imzoladi.

30-yillarda xalqaro munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri Versal — Vashington tizimining barbod boʻlishi hamda Gʻarb va Sharqda urush oʻchoqlarining vujudga kelishi, dunyoning yangi urush sari qadam bosishidan iborat.

Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida (1929—1933) Versal — Vashington tizimining barbod boʻlish jarayoni yanada tezlashdi. Yevropada kuchlar nisbatida keskin oʻzgarishlar yuz berdi, davlatlar oʻrtasida raqobat yanada kuchaydi. Bu raqobat, ayniqsa, qurollanish poygasida yaqqol namoyon boʻldi. AQSHning qoʻllab-quvvatlashi bilan Germaniya xavfsizlik tizimi doirasida tenglik huquqini qoʻlga kiritdi.

Bu tenglik huquqi amalda Germaniyaning harbiy qudratini tiklash huquqini tan olish bilan barobar edi. Versal tinchlik shartnomasining shu tarzda taftish qilinishi sobiq gʻoliblar va magʻlublar ahvolini oʻzgartirib yubordi. Ayniqsa, Fransiyaning ahvoli yomonlashdi. 30-yillarning boshidayoq Germaniya tomonidan uning xavfsizligiga tahdid solinayotganligi sezila boshladi. Shunday sharoitda 1932-yilda Fransiya Sovet davlati bilan oʻzaro hujum qilmaslik toʻgʻrisida shartnoma imzoladi.

Uzoq Sharqda ham vaziyat keskinlashdi. Xitoy Buyuk Britaniya, AQSH va Yaponiya munosabatlari keskinlashgan maydonga aylanib qoldi. Yaponiya «Buyuk Osiyo» imperiyasini yaratish ishtiyoqi bilan yonmoqda va shu niyatda u 1931-yilda Xitoyga hujum qildi va Manjuriyani bosib oldi. Shu tariqa yangi jahon urushining birinchi oʻchogʻi vujudga keldi. Germaniyada fashizm doiralari qalbini birinchi jahon urushi natijalari boʻyicha oʻch olish orzusi egallab olgan edi. Ayni paytda ular dunyoga hukmron boʻlish da'vosi bilan chiqdilar. Versal shartnomasi amalda inkor etildi. 1935-yilda umumiy harbiy majburiyat joriy etildi va Saar viloyati qoʻshib olindi. 1936-yilning mart oyida Germaniya qoʻshinlari demilitarizatsiyalashtirilgan zonani egalladi va qurollanish poygasini avj oldirdi. Shu tariqa yangi jahon urushining ikkinchi oʻchogʻi vujudga keldi.

30-yillarda xalqaro munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlari

Bu davrda fashistik Italiya ham qoʻl qovushtirib oʻtirmadi. 1935-yilning

oktabr oyida uning qo‘shinlari Efiopiyaga bostirib kirdi. 1936-yil bahoriga kelib bu davlat Italiya mustamlakasiga aylandi. Bu urush Yevropa fashist davlatlarining ochiqdan-ochiq qurolli agressiyaga o‘tishi edi.
1936-yil iyun oyida Germaniya va Italiya fashistlari Ispaniya fashizmiga qurolli yordam ko‘rsatdilar. Buyuk Britaniya va Fransiya esa Ispaniya ishlariga aralashmaslik siyosatini e’lon qildi. Bu bilan ular amalda Ispaniya Respublikasining ag‘darilishiga ko‘maklashdilar. 1939-yilda Ispaniyada general Frankoning fashistik tartibi o‘rnatildi.
Ayni paytda yangi jahon urushi tashabbuskori bo‘lgan davlatlar ittifoqi qaror topdi. Xususan, 1936-yil noyabrida Germaniya va Yaponiya «Antikomintern pakti» deb atalgan paktni imzoladilar. 1937-yilda bu paktga Italiya ham qo‘shildi. Shu tariqa Berlin — Rim — Tokio uchburchagi — dunyoni kuch ishlatish yo‘li bilan qayta bo‘lishga intilayotgan 3 davlat agressiv ittifoqi vujudga keldi. Bundan ruhlangan Yaponiya Xitoyda yanada yirik bosqinchilik harakatlarini boshladi. Germaniya esa Avstriyani bosib oldi.
30-yillarda xalqaro munosabatlarga xos yana bir xususiyat shu ediki, jahon jamoatchiligining katta qismi urushni xohlamas, urushga faqat ba’zi davlatlargina intilmoqda edi.
Xo‘sh, shunday bo‘lsa, nega ikkinchi jahon urushining oldini olib bo‘lmadi?
Birinchidan, G‘arb davlatlari jahon iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etish bilan band bo‘lib qoldilar. Natijada, bu omil G‘arbning urush xavfiga jamoa bo‘lib kurashish qobiliyatini pasaytirib yubordi.
Ikkinchidan, jamoaviy xavfsizlik tizimi kuch ishlatishni inkor etmas edi. Binobarin, tinchlikni saqlab qolish jasoratni, har qanday qurbonlarga tayyor turishni, irodani talab etardi. Biroq yaqindagina tugagan birinchi jahon urushining qonli oqibatlari kishilarni dahshatga solib qo‘ygan edi. Shuning uchun ham jamoatchilik fikri bunday yangi qurbonlar berishga tayyor emas edi.
Bu holat, o‘z navbatida, yangi urushning oldini olishga qodir davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya) siyosatida passivlik, ehtiyotkorlik va noizchillikni yuzaga keltirdi. AQSHda esa aralashmaslik kayfiyati kuchli edi. Shuning uchun ham urush xavfi kundan-kunga kuchayib borayotgan bir sharoitda AQSH hukmron doiralari o‘z qobiqlariga o‘ralib olishni lozim topdilar. Bu esa yangi urush olovini yoqishga intilayotganlarga juda qo‘l keldi.
Uchinchidan, G‘arb Gitlerning hokimiyat tepasiga kelganligi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga o‘z vaqtida to‘g‘ri baho bera olmadi. Buyuk Britaniya va Fransiya «tinchlantirish» siyosatini yuritdi.
To‘rtinchidan, bir tomondan, Buyuk Britaniya va Fransiya o‘z xavfsizliklarini Germaniya agressiyasini Sharqqa, Moskvaga qarshi burib yuborish yo‘li bilan saqlab qolishga intilgan bo‘lsalar, Sovet davlati, o‘z navbatida,

Nega yangi jahon urushining oldini olish mumkin bo‘lmadi?

xavfsizligini har qanday vositalar bilan bo‘lsa-da, saqlab qolishga intildi. Binobarin, yangi jahon urushining oldi olinmay qolishida ularning mas’uliyati bab-baravar edi.
1934-yilda Fransiya va Sovet davlati jamoaviy xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqqanlarida Buyuk Britaniya uni qabul qilmaganligiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Ikki tomonlama yoki uch tomonlama shartnomalar imzolash yo‘li bilan ham jamoaviy xavfsizlik tizimini vujudga keltirish mumkin edi.
Shu maqsadda Fransiya va Sovet davlati 1935-yilda o‘zaro yordam to‘g‘risida shartnoma imzoladilar. Bunday shartnoma ikkala davlat tomonidan Chexoslovakiya bilan ham imzolandi.
Bu orada Gitlerning ishtahasi kun sayin o‘sib bordi. 1938-yilda u Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini talab qildi. Bu masala 1938-yilning 29-sentabrida Myunxenda Yevropa buyuk davlatlari rahbarlari o‘rtasida muhokama etilib, Sudetni Germaniyaga berishga qaror qilindi.
Gitler 1939-yilning 15-martida Chexoslovakiyani to‘la bosib oldi. 1939-

yilning 21-martida Polshadan Gdansk shahrini talab qildi. 22-martda Litvaga qarashli Klaypedani egalladi.
Aprel oyida Italiya armiyasi Albaniyaga bostirib kirdi. Shu tariqa, tinchlantirish siyosati butunlay halokatga uchradi. Fashist davlatlarining bejazo g‘olibona harakatlari jamoatchilikda bundan buyon agressiyaga yon bosish mumkin emasligi fikrini keltirib chiqardi. Sovet rahbariyati Germaniya va Yaponiya solayotgan xavfdan cho‘chiy boshladi.
1939-yilning mart oyida Buyuk Britaniya Sovet davlatiga Fransiya va Polsha bilan o‘zaro hamkorlik haqida deklaratsiya imzolashni taklif etdi. I. Stalin esa o‘zaro aniq majburiyatlar qayd etilgan uch tomonlama shartnoma imzolashni va Germaniyaning bo‘lajak agressiyasini qaytarish uchun Polsha va Ruminiya hududiga Sovet armiyasini kiritish huquqi berilishi shartini qo‘ydi.
Polsha va Ruminiya hukmron doiralari bu shartni sovetlarning Sharqiy Yevropada o‘z nazoratini o‘rnatishga intilishi, deb qabul qilmadilar. Buyuk Britaniya va Fransiya Polsha va Ruminiyani Sovetlar taklifiga ko‘ndirish choralarini izlamadilar.
Natijada Moskva Buyuk Britaniya va Fransiya Sovet davlati bilan muzokaralarni Gitlerga tazyiq o‘tkazish uchungina olib bormoqda, aslida ularning maqsadi sovetlarga qarshi Gitler bilan kelishish, deb hisobladi. Shunday qilib, uch buyuk davlat — Sovet davlati, Buyuk Britaniya va Fransiya — bir-biriga ishonmas edi. Shuning uchun ham 1939-yilning 12-avgustida Moskvada boshlangan ingliz-sovet-fransuz muzokaralari natijasiz tugadi.
Gitlerning asosiy maqsadi Sovet davlati, Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasida shartnoma tuzilishini barbod etish, Polshaga hujum qilish oldidan sovetlarning betaraf qolishiga erishish edi. Natijada 1939-yil 23-avgustda

Sovet davlati bilan Germaniya o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Shartnoma 10 yil muddatga tuzildi. Unda tomonlarning biri boshqa davlat bilan urushga tortilganda, ikkinchi tomon betaraf qolishi yozib qo‘yilgan va, ayni paytda, shartnomaga yashirin ahdnomalar ham ilova qilingan edi. Bu yashirin ahdnomalarda Sharqiy Yevropani Sovet davlati va Germaniyaning ta’sir doiralariga bo‘lib olish nazarda tutilgan edi.
Gitler Finlyandiya, Latviya, Estoniya va Bessarabiyani Moskvaning ta’sir doirasida deb, o‘z navbatida, I. Stalin Litvani Germaniya ta’sir doirasida deb tan oldilar.
Shuningdek, yashirin ahdnomada kelgusida Polshani ham bo‘lib olish ko‘zda tutilgan edi. Polshaga hujum qilish haqida uzil-kesil bir qarorga kelgan Germaniya esa 1939-yil 1-sentabr tongida polyak yerlariga bostirib keldi. 3-sentabr kuni Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e’lon qildilar. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.
Xulosa qilib aytish mumkinki, ikki jahon urushi oralig‘idagi xalqaro munosabatlarda kuchli davlatlar dunyoga o‘z hukmini o‘tkazdilar. Urushga qarshi kuchlarning zaifligi natijasida fashizmning oldini olish mumkin bo‘lmadi. Vaholanki, bir qator davlatlar o‘z manfaatlari yo‘lida ular bilan til biriktirdilar. Ma’naviyat qashshoqligi va nafs balosi navbatdagi urushni keltirib chiqardi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Versal — Vashington tizimi iborasining mazmunini izohlab bering.
2. Parij konferensiyasining 18-yanvar kuni ochilishida qanday ramziy ma’no bor edi?
3. «Katta uchlik» davlatlari o‘rtasida vujudga kelgan ziddiyatlarning mohiyatini nima tashkil etadi?
4. Germaniya bilan imzolangan Versal tinchlik shartnomasining mazmunini so‘zlab bering.
5. Reparatsiya muammosi qay tariqa hal etildi?
6. Millatlar Ittifoqi nima va u qay maqsadda tashkil etilgan edi?
7. Sen Jermen, Neyi va Trianon shartnomalari mazmuni haqida so‘zlab bering.
8. Sevr shartnomasi Turkiya davlatini qay ahvolga solib qo‘ydi?
9. Nega Vashington konferensiyasi chaqirildi?

10. Vashingtonda imzolangan «To‘rtlar» shartnomasi, «Beshlar» va «To‘qqizlar» mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
11. 20-yillardagi xalqaro munosabatlar xususiyatlarini qayd eting.
12. Nima uchun Versal — Vashington tizimi g‘olib davlatlar o‘rtasidagi hamda g‘oliblar bilan mag‘lublar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal eta olmagan?
13. Nima uchun AQSH Germaniyaning iqtisodiy qudratini tiklashga urinib kelgan edi?
14. «Brian — Kellog pakti» haqida nimalarni bilib oldingiz?
15. Genuya xalqaro konferensiyasi qanday maqsadda chaqirilgan edi?
16. Lokarno konferensiyasidan ko‘zlangan maqsad qanday edi?
17. 30-yillarda xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
?
21
18.Qanday omillar Versal — Vashington tizimini barbod eta boshladi?
19. 30-yillarda Yevropada qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
20. Yaponiyaning Uzoq Sharqdagi agressiv harakatlari haqida so‘zlab bering.
21. Gitlerni tinchlantirish siyosatining mohiyati nimadan iborat edi?
22. Nega Ikkinchi jahon urushining oldini olib bo‘lmadi?
23. Sovet-german shartnomasining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
JADVALNI TO‘LDIRING. DARSLIK MATNI BILAN ISHLASH
1 2 3
Versal — Vashington tizimi
iborasining mazmuni
Versal tinchlik shartnomasining
Germaniya uchun
oqibatlari
Reparatsiya muammosi qay
tarzda hal etildi?
4 5 6
Millatlar Ittifoqi qanday
tashkilot va nima maqsadda
tuzildi?
Birinchi jahon urushining
Avstriya uchun oqibatlari
Birinchi jahon urushining
Bolgariya va Vengriya
uchun oqibatlari
7 8 9
Sevr shartnomasining Turkiya
uchun oqibatlari
Nega Vashington konferensiyasi
chaqirildi?
«To‘rtlar shartnomasi»ning
mazmuni
10 11 12
«Beshlar shartnomasi»ning
mazmuni
«To‘qqizlar
shartnomasi»ning mazmuni
Daues va Yung rejalari
mazmuni
13 14 15
Rim—Berlin — Tokio
uchburchagi
Germaniya — Sovet
shartnomasi mazmuni
Nega urush boshlandi?
QO‘SHIMCHA MATERIAL
Vudro Vilsonning tinchlik dasturi:
— Tinchlik shartnomalarining yashirin bo‘lmasligi.
— Ham tinchlik, ham urush davrida dengiz savdosining erkin bo‘lishi.

— Xalqaro savdodagi barcha to‘siqlarni yo‘q qilish.
— Davlatlarning qurolli kuchlarini davlat xavfsizligini ta’minlashga imkon beruvchi darajagacha qisqartirish.
— Mustamlakalar bilan bog‘liq barcha muammolarni va nizolarni erkin, samimiylik va xolislik ruhida hal etish.
— Germaniya bosib olgan barcha hududlarning ozod etilishi.
— Belgiyaning ozod etilishi va mustaqilligining tiklanishi.
— Elzas va Lotaringiyaning Fransiyaga qaytarilishi. Fransiyaning bosib olingan boshqa hududlarining ozod etilishi.
— Italiya chegarasining aniq ajralib turuvchi milliy chegaralar asosida o‘zgartirilishi.
— Avstriya-Vengriya tarkibiga kiruvchi xalqlarga muxtoriyat berilishi.
— Germaniyaning o‘z qo‘shinlarini Ruminiya, Serbiya va Chernogoriyadan olib chiqib ketishi hamda Serbiyaning dengizga erkin chiqa olishini ta’minlash.
— Turkiya hududidagi xalqlarga muxtoriyat berilishi.
— Dardanell bo‘g‘ozining hamma davlatlar kemalari uchun ochiqligi.
— Dengizga chiqa oladigan mustaqil Polsha davlatining tiklanishi. Polyaklar yashaydigan hududlarning Polshaga berilishi. Millatlar Ittifoqining tuzilishi. Uning ham katta, ham kichik davlatlarning siyosiy mustaqilligini va hududiy yaxlitligini kafolatlash maqomiga ega bo‘lishi.

3-§. Sovet davlati

Bolsheviklar o‘zlari qurmoqchi bo‘lgan yangi jamiyatni kommunistik jamiyat deb ataganlar. Ularning fikricha: bu jamiyat o‘z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o‘tishi kerak edi. Birinchi bosqichni sotsializm, ikkinchi bosqichni esa kommunizm deb ataganlar. Sotsializm — kommunistik jamiyatning quyi bosqichi, kommunizm esa yuqori bosqichi edi. U sotsializmning yuksak tarixiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelar edi.

1917-yilning 14-noyabrida Sovet hukumati xususiy zavod va fabrikalarda ishchi nazoratini o‘rnatish to‘g‘risida qaror chiqardi.

Noyabr oxirida yirik sanoatni milliylashtirish (davlat ixtiyoriga olish) boshlandi. 14-dekabrda esa xususiy banklarni, temiryo‘l transportini milliylashtirish, tashqi savdoga davlat monopoliyasini o‘rnatish, ichki va tashqi qarzlarni bekor qilish haqida dekret qabul qilindi. Shu tariqa 1918-yil bahoriga kelib yirik xususiy sanoatning talaygina qismi: ko‘mir, metallurgiya, neft, kimyo, mashinasozlik, to‘qimachilik va qand sanoati, transport, savdo floti va tashqi savdo ham milliylashtirildi va Sovet davlati xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlarini o‘z qo‘liga oldi.

Bu tadbirlar shunday shiddatkorlik va murosasizlik, terror yo‘li bilan amalga oshirildiki, bolsheviklar rahbari V. I. Lenin bu hodisani «kapitalga qizil gvardiyachasiga hujum qilish», deb mag‘rurona baholagan edi. Mulkdorlar jon saqlash uchun chet ellarga qochib ketdilar.

Xalq xo‘jaligi davlat sektorini boshqarish maqsadida 1917-yilning 1-dekabrida Xalq xo‘jaligi Oliy Kengashi tuzildi. Bu Kengashga juda katta vakolatlar berildi. Jumladan, u istagan korxonani musodara qila olar, egallab olar, shuningdek, yopib qo‘yar edi.

1918-yilning bahoridan boshlab «Yer to‘g‘risida»gi dekretni amalga oshirish boshlandi. Barcha yer davlat mulki deb e’lon qilindi. Pomeshchik yer egaligi tugatildi. Yerni dehqonlarga taqsimlab berish boshlandi. Yerga ishlov berishda yollanma mehnatdan foydalanish taqiqlandi.

Yerni taqsimlab berish jarayonida Sovet hokimiyati faqat kambag‘al dehqonlar manfaatini ko‘zlab ish tutdi. Bu esa o‘rtahol (o‘ziga to‘q) va boy dehqonlar (quloqlar — yerga ishlov berishda yollanma mehnatdan foydalanuvchilar)ning keskin noroziligiga sabab bo‘ldi. Bolsheviklar quloqlarni qishloq burjuaziyasi, deb ham atashardi. Tovar g‘allaning asosiy qismi quloq xo‘jaliklarida yetishtirilardi.

Sovet hukumati siyosatidan norozi bo‘lgan quloqlar o‘z g‘allalarini davlat belgilagan narxda davlatga sotishdan bosh tortdilar. Natijada, mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi ro‘y berdi. Barcha markaziy sanoat gubernalarida ochlik boshlandi. Petrograd va Moskvada ishchilarga 50 grammdan non beriladigan

bo‘ldi.

Bolsheviklar qanday jamiyat qurmoqchi bo‘lgan edilar?

23

Shunday sharoitda Sovet hukumati g‘alla yetishtiruvchi asosiy tabaqa — quloqlar bilan sog‘lom aql nuqtayi nazaridan til topishish o‘rniga zo‘ravonlik siyosatini qo‘llashga o‘tdi. 1918-yilning mayidan boshlab mamlakatda oziqovqat diktaturasi o‘rnatildi. Oziq-ovqat komissarligiga (vazirligiga) favqulodda vakolatlar berildi. Mamlakatda don bilan erkin savdo qilish taqiqlandi. Donga qat’iy baho belgilandi. Dehqonlar o‘zlariga iste’mol va urug‘ uchun belgilangan normada g‘alla qoldira olar, qolganini esa davlatga topshirishga majbur edilar. G‘allani yashirganlar «xalq dushmani» deb e’lon qilinardi va ularni 10 yillik ozodlikdan mahrum etish hamda mol-mulkini musodara qilish jazosi kutardi.

1918-yilning o‘zidayoq quloqlardan 13 mln pud don va 50 mln gektar yer tortib olinadi. Davlat, ayni paytda, dehqonlarga bo‘lib berilganidan ortib qolgan yerda sovet xo‘jaligi (sovxoz), ya’ni sovet davlatining qishloq xo‘jalik korxonasini tuza boshladi. Sovxozlarda ishlovchilar qishloq xo‘jaligi ishchilari hisoblanardi. 1918-yilning oxiriga kelganda sovxozlar soni 3 mingdan ortiq bo‘lib, ularning yer maydoni 2 mln desyatinaga yaqin edi. Sovxozlardan tashqari, dastlabki jamoa xo‘jaligi — yerni birgalashib ishlovchi shirkatlar ham tuzila boshlandi. Bu shirkatlarga asosan hech narsasi yo‘q dehqonlar va batraklar birlashgan edilar.

Sovet davlati o‘zining 74 yillik umrining eng gullab-yashnagan davrida ham aholisini chet eldan g‘alla sotib olib ta’minlashga majbur bo‘lgan edi. Buning ildizi 1918-yilga borib taqaladi. Chunki xuddi shu yildan boshlab g‘alla yetishtiruvchi asosiy qatlam — boy dehqonlar yo‘qotila boshlangan edi. Bu boy dehqonlar, aslida, bugungi rivojlangan davlatlardagi ishbilarmon, tadbirkor fermerlar kabi edi.

Umumiy ko‘lamdagi fuqarolar urushi 1918-yilning yozidan boshlandi va 1920-yilning oxirigacha davom etdi. Ayni shu yillar davomida Antanta davlatlari bosqinchilik yurishlari ham uyushtirdi. Shuning uchun 1918-yilning yozidan 1920-yilning oxirigacha bo‘lgan davr Sovet davlati tarixiga fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi davri sifatida kirdi. Xo‘sh, fuqarolar urushi va chet el intervensiyasining sabablari nima edi?

1918-yilning yanvar oyida Ruminiya Sovet hukumatining og‘ir ahvolidan foydalanib, Bessarabiyani bosib oldi. Mart-aprel oylarida Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSH Murmansk va Arxangelskka, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya Uzoq Sharqqa qo‘shin tashladi. Turkiya esa Armanistonni va Ozarbayjonning katta qismini bosib oldi. Buyuk Britaniya qo‘shinlari esa Turkmanistonning bir qismini egalladi.

Antanta rahbarlari birinchi jahon urushi yillarida Avstriya — Vengriyaning asir olingan Rossiyadagi chex va slovak millatiga mansub askarlaridan foydalanishga ham qaror qildilar. Antanta Muvaqqat hukumat bilan kelishgan holda ulardan alohida chexoslovak korpusi deb atalgan korpus tuzdi va qurollantirildi. 45 ming kishilik bu korpus Antanta qo‘mondonligiga bo‘ysunar edi.

Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi

24

Biroq sovet hukumati urushdan chiqqach, bu harbiy korpusning urush harakatlarida qatnashishiga yo‘l qo‘ymadi va bu korpusni mamlakat hududidan chiqarib yuborishni istadi hamda uning Vladivostok orqali Fransiyaga jo‘nab ketishiga ruxsat berdi. Korpusning eshelonlari Volgadan to butun Transsibir temir yo‘l magistrali bo‘ylab cho‘zilib ketgan edi. 1918-yilning may oyi oxirida korpus Sovet hokimiyatiga qarshi isyon ko‘tardi. Aslida bu sovet davlatiga qarshi Antanta uyushtirgan ochiq harbiy hujum edi. Ularga Sovet hokimiyatining barcha ichki dushmanlari qo‘shildi. Isyonchilar qisqa vaqt ichida Volgabo‘yi, Ural, Sibir va Uzoq Sharqni egalladilar

va u yerlarda Sovet hokimiyatini ag‘darib tashladilar.
Shu tariqa Sovet Rossiyasi tarixida fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi davri boshlandi. Bolsheviklar armiyasi qizil armiya deb, ularning ichki dushmanlari armiyasi esa oq gvardiyachilar, deb atala boshlandi.
1918-yilning yozi oxiriga kelganda Sovet hokimiyati ahvoli nihoyatda og‘irlashdi. Ana shunday sharoitda Sovet hokimiyati o‘zini saqlab qolish uchun qator qat’iy va favqulodda choralar ko‘rdi. Qizil armiyada mustahkam tartib o‘rnatdi. 1918-yil oxiriga kelib qizil armiya soni 1 mln kishiga yetkazildi. Sobiq podsho Rossiyasining 75000 general va zobitini o‘z tomoniga tortishga erishdi. Ularsiz zamonaviy muntazam armiyani tuzib bo‘lmas edi. Armiyadan qochganlar uchun eng og‘ir jazo belgilandi. Bundan tashqari, Sovet hukumati Sovet davlatini «yagona harbiy lager» deb e’lon qildi.
1918-yilning sentabr oyida V. I. Leninga uyushtirilgan suiqasddan so‘ng mamlakatda qizil terror tartibi joriy etildi. 80 mingdan ortiq kishi konsentratsion lagerlarga tashlandi.
Ayni paytda Sovet hokimiyati 1919-yildan boshlab mamlakatda «harbiy kommunizm» siyosatini joriy etdi. Uning mazmunini oziq-ovqat razvyorstkasi deb atalgan tartib joriy etilganligi tashkil etdi. Oziq-ovqat razvyorstkasi — bu dehqonlarning o‘zlaridan ortiqcha qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hammasini davlatga majburiy tartibda topshirishidir. Davlatga g‘alla och qolayotgan shahar aholisini (Sovet hokimiyatining asosiy tayanchi bo‘lgan ishchilarni) va qizil armiyani non bilan ta’minlash uchun zarur edi.
Bundan tashqari, «harbiy kommunizm» — bu xususiy savdoning batamom taqiqlanishi, pulning bekor qilinishi, oziq-ovqat mahsulotlarini tenglik tamoyili asosida taqsimlash, faqat yirik va o‘rta sanoatgina emas, hatto mayda sanoatni ham milliylashtirish, boshqaruvning o‘ta markazlashtirilishi ham edi.
Xo‘sh, nega bu siyosat «harbiy kommunizm» siyosati deb atalgan?
Bu iboradagi «harbiy» so‘zi — bu siyosatning fuqarolar urushi va harbiy intervensiya davrida qo‘llanilganligini anglatadi.
«Kommunizm» so‘zi esa 1919—1921-yillarda Sovet Rossiyasida marksizm-leninizm ta’limoti tasavvuridagi kommunizmga xos quyidagi

xususiyatlar amal qilganligini anglatadi: savdoning tugatilganligi; pulning bekor qilinganligi, binobarin, mehnat uchun pul to‘lanmasligi; aholiga iste’mol mollarini taqsimlab berishning amal qilishi; barcha xizmat turlarining tekinligi.
To‘rtlar ittifoqining yengilishi Antantaga Sovet Rossiyasi hududiga kiritilgan qo‘shinlarining sonini ko‘paytirishga imkon berdi. Chunonchi, 1919-yilning fevral oyida Antantaning Rossiya janubiy hududiga tashlangan qo‘shinining soni 130 ming, Uzoq Sharq va Sibirdagi qo‘shini esa 20 ming kishiga yetkazildi. Ayni paytda, Antanta oq gvardiyachilarni qo‘llabquvvatlay boshladi.
1918-yilning 18-noyabrida Sibirda hokimiyat oq gvardiyachi admiral A. V. Kolchak qo‘liga o‘tdi. U o‘zini Rossiyaning Oliy hukmdori deb e’lon qildi. 1919-yilning yanvarida Shimolda general Ye. K. Miller, shimoli-g‘arbda general N. N. Yudenich, janubida A. I. Denikin diktaturasi o‘rnatildi.
Biroq Antanta o‘z niyatiga erisha olmadi. Uning qo‘shinlari mahalliy aholi, qizil armiya qismlarining qattiq qarshiligiga duch keldi. Bundan tashqari, ularga bolsheviklarning tinimsiz tashviqotlari ham qattiq ta’sir ko‘rsatdi. Natijada ular Sovet hokimiyatiga qarshi kurashdan bosh torta boshladilar. Ish hatto ularning o‘z hukumatlari intervensiya siyosatiga qarshi isyon ko‘tarishlarigacha borib yetdi. Isyonning eng yirigi Odessa va Sevastopol shaharlari portlarida turgan fransuz harbiy kemalarida yuz berdi. Jangchilarning to‘la bolsheviklashuvidan xavfsirab qolgan Antanta Oliy kengashi 1919-yilning aprelidan boshlab o‘z qo‘shinlarini Sovet Rossiyasi hududidan olib chiqib ketdi.
Endi ularning asosiy umidi oq gvardiyachilar edi. Antanta davlatlari ularga har tomonlama yordam ko‘rsatdilar. 1919-yilning mart oyida

A. V. Kolchak qo‘mondonligidagi yaxshi qurollangan 300 ming kishilik armiya hujumga o‘tdi. S. S. Kamenev va M. V. Frunze qo‘mondonligidagi sovet armiyasi 1920-yil boshida A.V. Kolchak armiyasini tor-mor etdi. Uning o‘zi asir olindi va otib tashlandi.

1919-yilning yozida Janubiy frontda hal qiluvchi janglar boshlandi. 3-iyul kuni general A. I. Denikin armiyasi hujum boshladi. Biroq u ham maqsadiga erisha olmadi. A. I. Yegorov qo‘mondonligidagi Janubiy front qo‘shinlari oktabr oyida A. I. Denikin armiyasining asosiy qismini tor-mor etdi. Uning qolgan qismiga qo‘mondonlik qilish 1920-yilning aprel oyida general P. N. Vrangel qo‘liga o‘tdi va ular Qrimda mustahkamlanib oldilar.

1920-yilning iyun oyida P.N. Vrangel armiyasi hujumga o‘tdi. Biroq M. V. Frunze qo‘mondonligidagi Janubiy front qo‘shinlari uning hujumini to‘xtatdi. 28-oktabrda esa qarshi hujumga o‘tib, Qrimni to‘la egalladi. Oq gvardiyachilarning qolgan-qutganlari va ularga tarafdor fuqaro qochoqlar kemalarda chet ellarga jo‘nab ketdilar.

Frontlardagi
o‘zgarishlar

Shunday qilib, sovet Rossiyasining Yevropa qismida oq gvardiyachilar to‘la tor-mor etildi.

Fransiyaning mablag‘iga qurollantirilgan Polsha armiyasi 1920-yilning 25-aprelida Sovet Ukrainasiga hujum qildi va 6-mayda Kiyev shahrini bosib oldi. Polsha hukmron doiralarining maqsadi Boltiq dengizidan Qora dengizgacha cho‘ziladigan Buyuk Polsha davlatini vujudga keltirish edi. Biroq bu maqsad amalga oshgani yo‘q. 1920-yil 14-may kuni M. N. Tuxachevskiy qo‘mondonligidagi G‘arbiy front va A. I. Yegorov qo‘mondonligidagi Janubi-G‘arbiy front qo‘shinlari qarshi hujumga o‘tdilar. Iyul oyida Polsha armiyasi mamlakat hududidan surib chiqarildi. Shunday bo‘lsa-da, Sovet davlati rahbariyati urush harakatlarini to‘xtatmadi.

Hukumat Qizil Armiya oldiga hujumni davom ettirish, Polsha poytaxtini egallash va Polshada sovet hokimiyatini e’lon qilish uchun barcha zarur harbiy-siyosiy sharoit yaratish vazifasini qo‘ydi. Hujum davom etayotgan bir sharoitda hatto F. E. Dzerjinskiy (Butunrossiya favqulodda komissiyasi raisi) boshchiligida bo‘lajak Sovet Polshasi hukumati tuzildi. Biroq barcha zarur ta’minotdan ajralib qolgan sovet davlatining G‘arbiy front qo‘shinlari Varshava shahri ostonalarida mag‘lubiyatga uchradi va, shu tariqa, Polshani sovetlashtirish siyosati barbod bo‘ldi. 1920-yilning oktabr oyida Polsha—Rossiya yarash bitimi, 1921-yilning mart oyida esa tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, Ukraina va Belorussiyaning g‘arbiy qismlari Polshaga o‘tdi.

Polshani «sovetlashtirish» siyosati barbod bo‘lgan bo‘lsa-da, Sovet hukumati bu siyosatni boshqa chekka o‘lkalardagi xalqlarning milliy-ozodlik harakatini qonga botirish orqali amalga oshirdi. Chunonchi, 1920-yilning aprel oyida Ozarbayjonda, noyabr oyida esa Armanistonda, 1920-yilning fevral-mart oylarida Gruziyada shunday qilindi.

O‘rta Osiyoni sovetlashtirish maqsadida Turkiston ASSR tuzildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rnida 1920-yilning fevralida Xorazm, oktabr oyida esa Buxoro Xalq Respublikalari tuzilganligi e’lon qilindi.

A. B. Kolchak armiyasi tor-mor etilgach, Qizil Armiya 1920-yilning bahorida Uzoq Sharq tomon yurish boshladi. Uzoq Sharqni bu davrda Yaponiya egallab olgan edi. 1922-yilda Qizil Armiya Vladivostok shahrini egalladi va Uzoq Sharq oq gvardiyachilar hamda interventlardan to‘la tozalandi.

Shu tariqa fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi bolsheviklar g‘alabasi bilan tugadi. Bolsheviklar g‘alabasining asosiy sababi — ularning mamlakat aholisi asosiy qismi bo‘lgan mayda va o‘rtahol dehqonlar tomonidan qo‘llabquvvatlanishiga erishganliklari edi. Ayni paytda milliy chekka o‘lkalarda ham ularni qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar bo‘lgan edi.

Sovet—Polsha urushi.
Chet el intervensiyasi

va fuqarolar
urushining tugashi
27
Oq gvardiyachi hukumatlar esa Rossiya hududining bo‘linmasligi va davlatning yagonaligini e’lon qilganlar. Bu esa, tabiiyki, ularning milliy chekka o‘lkalarda qo‘llab-quvvatlanmasligiga sabab bo‘lgan.
1919-yildan Sovet hokimiyati o‘rtahol dehqonlarga nisbatan siyosatni o‘zgartirdi. Agar avvalgi yillarda u o‘rtahol dehqonlarni betaraf qoldirish siyosatini yuritgan bo‘lsa, endi uni o‘z tomoniga og‘dirish siyosatini yurita boshladi. Ayni paytda Sovet davlati Antanta davlatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalana oldi. Chunonchi, o‘ziga qo‘shni davlatlar — Finlandiya, Estoniya, Latviya va Litva bilan tinchlik shartnomalari, Shvetsiya va Daniya bilan o‘zaro manfaatli savdo shartnomalari imzolay oldi.
Bolsheviklar ilgari surgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaq yot tushuncha edi. Shuning uchun ham mahalliy aholi bu mafkurani avval boshdanoq o‘ziga singdira olmadi. Ikkinchidan, Sovet hukumati o‘rnatilgan dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi vakillari jalb etilmadi. Bu bilan bobolarimiz milliy g‘ururi va haq-huquqi inkor qilindi. Shu tariqa, Turkistonda o‘rnatilgan sovet tuzumi podsho Rossiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi dastlabki kunlardanoq oshkor bo‘lib qolgan edi.
Uchinchidan, Sovet hokimiyati mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, milliy qadriyatlarini toptagan, oyoqosti qilgan edi. Shuning uchun ham millatparvar, erksevar kuchlar 1917-yilda Turkiston Muxtoriyatini tuzdi. Biroq u Sovet hokimiyati tomonidan qonga botirilganligi sizga avvalgi darslardan ma’lum.
Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi bilan farg‘onaliklar Turkistonda birinchi bo‘lib bolsheviklar hokimiyatiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Turkistonda milliy-ozodlik harakati 1918-yilning fevral oyida boshlandi. Katta Ergash, Kichik Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom pahlavon va Yormat Maxsum kabilar bu harakat yo‘lboshchilari bo‘ldilar. Sovet hokimiyati Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatini bosmachilik harakati, deb tahqirladi.
«Bosmachi» deyilganda xalq o‘rtasida harbiy sohaga aloqasi bo‘lmagan jinoyatchi unsurlar, o‘g‘rilar va bezorilar to‘dasi tushunilgan. Xo‘sh, Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining harakatlantiruvchi kuchlari ana shunday jinoyatchi to‘dalar edimi? Aslo unday emas. Ular Turkistonni bosqinchi bolsheviklar armiyasidan tozalash, Sovet hokimiyatini tugatish, milliy mustaqil davlatga ega bo‘lish uchun kurashganlar. Bu kurash 1935-yilgacha davom etdi. Biroq bu harakat Sovet hokimiyati tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.
Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi natijasida Sovet Rossiyasi katta talafot ko‘rdi.
Chunonchi, xalq xo‘jaligiga yetkazilgan zarar 50 mlrd oltin so‘mni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi 1920-yilda 1913-
Yangi iqtisodiy siyosat
Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatining tor-mor etilishi
28
yilga nisbatan 7 baravar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 3 foizga kamaydi. Urush maydonlarida, shuningdek, ochlik va kasallik, oq va qizil terror natijasida 8 mln kishi halok bo‘ldi. 2 mln kishi siyosiy boshpana izlab mamlakatdan chiqib ketdi. Ularning 75 mingdan ortig‘i ilg‘or va talantli ziyolilar edi.
Ishchilarning soni 2 baravar kamaydi. Ularning ma’lum qismi sinfiy qiyofasini yo‘qotdi. Ishsizlik kuchaydi, bu hol ularda afsuslanish, loqaydlik, tushkunlik kayfiyatini kuchaytirdi. Ayni paytda, ishchilar orasida sovet hokimiyati siyosatidan norozilik ham kuchayib bordi. Ishchilar madadidan

ayrilish sovet hokimiyati uchun hayot-mamot masalasi edi. 1920-yilning oxiriga kelganda dehqonlar oziq-ovqat razvyorstkasi siyosatiga ochiqdanochiq qarshi chiqa boshladi.
Bu tahdid sovet hokimiyati uchun qanday oqibatga olib kelishi mumkinligini 3,5 millionli Qizil Armiyaning 77 foizini dehqonlar tashkil etganligidan bilsa ham bo‘lar edi. Ahvol shaharlarda ish tashlashga, qishloqlarda esa dehqonlarning isyoni kuchayishigacha borib yetdi. Norozilik armiyaga ham kirib bordi. Chunonchi, 1921-yilning fevral oyida Kronshtadt harbiy-dengiz qal’asida isyon ko‘tarildi. Sovet hukumati isyonni kuch bilan bostirdi. Sovet hukumati «harbiy kommunizm» siyosatini bekor qilishga, 1921-yil bahorida uning o‘rniga yangi iqtisodiy siyosat (nep)ni joriy etish yo‘lini tutishga majbur bo‘ldi. Yangi iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini mashhur iqtisodchi M. A. Lorin ishlab chiqqan.
Xo‘sh, yangi iqtisodiy siyosat «harbiy kommunizm» siyosatidan qanday asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi?
1. Razvyorstka o‘rniga oziq-ovqat solig‘i joriy etildi. Bu soliq, birinchidan, razvyorstkadan 2 baravar kam edi. Ikkinchidan, u oldin e’lon qilib qo‘yildi. Ayni paytda, uning miqdori qat’iy va o‘zgarmas edi. Bu hol, o‘z navbatida, dehqonga soliq uchun to‘langan miqdordan ortib qolgan donni o‘ziga olishga imkon berardi. Endi, dehqon uni bozor narxida erkin sotish imkoniga ega bo‘ldi. Yakka hol dehqonlar qishloq xo‘jalik mahsulotining 98,5 foizini ishlab chiqaradigan bo‘ldi.
2. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida milliylashtirilgan mayda va o‘rta korxonalar egalariga qaytarib berildi. Xususiy shaxslarga bunday korxonalarni ochishga ruxsat etildi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish vositalari ijarasi joriy etildi.
3. Chet el kapitali kirib kelishiga ruxsat etildi. Ular Sovet davlati korxonalarini ijaraga ola boshladilar. Ayni paytda qo‘shma korxonalar qurishga ruxsat etildi. 20-yillarning o‘rtalariga kelganda, kapitalistik sektor sanoat mahsulotining 27 foizini ishlab chiqara boshladi. Chakana savdoning 75 foizi, ulgurji savdoning esa 18 foizi xususiy soha qo‘lida to‘plandi.
4. Korxonalarning xo‘jalik hisobi asosida ishlashi joriy etildi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonalarning asta-sekin o‘z xarajatlarini o‘zi qoplash, o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlash imkonini berar edi.

5. Mehnatga qarab ish haqi to‘lash qayta tiklandi.
Yangi iqtisodiy siyosat tez orada o‘z samarasini ko‘rsata boshladi. Chunonchi, 1922-yilda mahsulotlarni taqsimot asosida berish bekor qilindi. 1925-yilga kelib don yetishtirish 1909—1913-yillar oralig‘idagi yillik ko‘rsatkich darajasidan oshdi. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha 1926-yilda 1913-yilgi ko‘rsatkichga erishildi. Sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishda 1913-yil ko‘rsatkichiga 1926—1927-yillarda erishildi. Iste’mol buyumlari ishlab chiqarish esa 1913-yildagi ko‘rsatkichning 72 foizini tashkil etdi.
Bolsheviklar partiyasi har bir millatga o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini berish haqidagi va’dasidan tez orada voz kechdi.
Sovet davlati (RSFSR) rahbarlari sobiq Rossiya imperiyasi hududini mumkin qadar yana avvalgi chegaralarda saqlab qolishga urindilar. Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi? Bolsheviklar fikricha, birinchidan, yagona imperiya saqlanmasa, Rossiya jahon inqilobi tayanchi va harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishdek strategik vazifaning uddasidan chiqa olmas edi.
Ikkinchidan, dunyoda faqatgina mehnatkashlar davlati bo‘lgan bolsheviklar davlati, ularning o‘z so‘zlari bilan aytganda, kapitalistik qurshov siquviga bardosh bera olmaydi. Bolsheviklar o‘zlarining bu maqsadlari yo‘lida hech narsadan qaytmadilar.
1922-yilning 30-dekabrida to‘rtta respublika yagona davlat — SSSRga — Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqiga birlashdilar. Bular: RSFSR, Ukraina, Belorussiya va Zakavkaze Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyani birlashtirgan edi. Ularning vakolatli vakillari syezdi (SSSR sovetlarining I syezdi) 1922-yilning 30-dekabrida SSSR tuzilganligi haqida Deklaratsiya va Shartnoma qabul qildi.

1924-yilda esa bu yangi davlatning Konstitutsiyasi qabul qilindi.
Sobiq SSSRdan tashqari boshqa davlatlar tarixshunosligida bu davlat Qizil imperiya deb ataladi. Sovet davlati qon to‘kish hisobiga vujudga kelganligi uchun ular o‘z bayroqlarini qizil rangda tanlagan edilar. Qon rangi bolsheviklar tuzgan imperiyaga nisbatan ham ishlatilgan.
Bu imperiya 1940-yilgacha boshqa millatlar haq-huquqlarini poymol qilish hisobiga kengaya bordi. Ular Turkistonni 5 ta «davlat»ga bo‘lib yubordilar. Bu yerda O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni tuzdilar. 1925—1936-yillar oralig‘ida ular birin-ketin «ixtiyoriy ravishda» qizil imperiya tarkibiga kiritildi. Bu imperiya 15 ta «mustaqil», «tenglar ichida teng» respublikalardan iborat edi. Aslida esa ular Rossiya tarkibidagi mustamlakalar edi.
Bolsheviklar (kommunistlar) Qizil imperiya hududida yashayotgan millatlar o‘zligini unutishlari uchun barcha yovuz ishlarni amalga oshirishdi. Biroq bu imperiya tarkibiga kiruvchi hech bir millat, shu jumladan o‘zbek millati bolsheviklar o‘ylab topgan yangi birlik — sovet xalqi bo‘lib shakllanmadi.
SSSRning tashkil etilishi
30
Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish
Sovet hukumati 20-yillarda sotsializm qurish deb nomlangan rejani amalga oshirishga kirishdi.
Sobiq Sovet davri tarix kitoblarida bu reja «sotsializm qurishning lenincha plani» deb ataladi va uch qismdan, ya’ni mamlakatni industrlashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va madaniy inqilobni amalga oshirishdan iborat edi.
Bolsheviklar (kommunistlar) partiyasining 1925-yilda bo‘lib o‘tgan XIV syezdi industrlashtirish yo‘lini e’lon qildi. Industrlashtirish, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni yaratish jarayoni degani edi. Bu jarayon, eng avvalo, og‘ir sanoatni (energetika, metallurgiya, mashinasozlik, neft kimyosi va boshqalar) rivojlantirishni ko‘zda tutardi. Chunki, davlat rahbarlari fikricha, bu sohalarni rivojlantirmay turib «kapitalistik qurshov»ga qarshi turib bo‘lmas edi. Bu maqsadga erishish yo‘lida yangi iqtisodiy siyosatdan ham voz kechildi. Xo‘jalikni boshqarish o‘ta markazlashtirildi.
Xalq xo‘jaligi «besh yillik planlar» deb atalgan direktiv rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi. Hukumat o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarishni qattiq repressiya siyosati bilan qo‘shib olib bordi. Mamlakatda amalda qullik mehnati joriy etildi. Bu tadbirlar o‘z samarasini bermay qolmadi.
1929—1937-yillar oralig‘ida jami 6 mingga yaqin yirik sanoat korxonasi (yiliga 600—700) qurildi. 1937-yilga kelib Sovet davlati sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda AQSH dan so‘ng ikkinchi o‘ringa chiqib oldi. Chetdan 100 turdan ortiq mahsulot sotib olinmaydigan bo‘ldi va texnikiqtisodiy jihatdan boshqa davlatlarga qaramlikdan qutuldi.
Biroq shuni ham ta’kidlash adolatli bo‘ladiki, Sovet davlati sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 2-o‘ringa chiqqan bo‘lsa-da, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishda boshqa buyuk davlatlardan ancha orqada qolgan edi. Qizil imperiya o‘zining butun umri davomida ana shu qoloqlikni bartaraf eta olmadi.
Bolsheviklar partiyasining XV syezdi 1927-yilda qishloq xo‘jaligini to‘la kollektivlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qishloq 30-yillarning oxirigacha to‘la kollektivlashtirildi. Ular o‘zlarining bu siyosatini qishloqni sotsialistik asosda qayta qurish, deb atadilar. Xo‘sh, kollektivlashtirish nima edi?
Kollektivlashtirish natijasida qishloqda yakka tartibda faoliyat yurituvchi o‘rtahol dehqon xo‘jaliklarini tugatib, ularning o‘rnida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kollektiv (jamoa) mehnat asosida yetishtiruvchi xo‘jalik (kolxoz deb atalgan) vujudga keltirildi.
Jamoa xo‘jaligining yeri davlatniki edi. Davlat yerni kollektiv xo‘jaliklarga tekinga ijaraga berdi. Jamoa xo‘jaligi xo‘jalik hisobi asosida faoliyat yuritdi. Davlat yeridan foydalanganligi uchun hamda topgan daromadlari yuzasidan

davlatga soliq to‘lagan. Aholi biror-bir tabaqasining xususiy mulk shaklida yeri bo‘lmagan.
Industrlashtirish
31
Kolxoz o‘ziga berilgan yerda davlat rejasiga ko‘ra mahsulot yetishtirgan. Mahsulot davlat tomonidan qat’iy belgilangan narxda sotib olingan. Soliq to‘lovidan hamda mahsulot yetishtirish uchun yil davomida qilgan xarajatlaridan ortgan mablag‘ kolxozning mulki bo‘lgan.
Kolxoz o‘z ixtiyori bilan mahsulot yetishtira olmagan. O‘z ixtiyori bilan mahsulot sota olmagan. Shuning uchun ham sobiq qizil imperiya o‘z aholisini sifatli, zarur qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘la ta’minlay olmadi va chetdan sotib olishga majbur bo‘ldi. Kollektivlashtirish shafqatsiz jazo qo‘llash yo‘li bilan olib borildi. Mulkdorlar o‘z mulklarini kolxozga topshirishni istamaganliklari uchun ular qatag‘on qilindi. Mol-mulklari esa tortib olindi. Qishloq aholisi o‘z chorva mollarini kolxozga topshirmaslik uchun ko‘plab miqdorda so‘yib yubordi. Bu esa chorvachilikka o‘nglab bo‘lmas darajada ziyon yetkazdi. Dehqonlar majburan kolxozlarga birlashtirila boshlandi. Bunga qarshi dehqonlarning 1930-yilda 1600 marta qurolli chiqishlari bo‘lib o‘tdi. Kollektivlashtirish jarayonida jami 9 mln kishi quloq qilindi.
Xususan, O‘zbekistonda quloq qilinganlarning katta qismi Ukrainaning Xerson viloyatiga surgun qilindi. U yerda ular paxta yetishtirishga majbur etildi. Qolgan dehqonlar jon saqlash maqsadida kolxozlarga kirishga majbur bo‘ldilar.
Majburiy kollektivlashtirish oqibatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish keskin ravishda kamayib ketdi. Natijada 1932—1933-yillarda ocharchilik bo‘ldi va 5 mln dan ortiq kishi ochlikdan qirilib ketdi. Kollektivlashtirish natijasida dehqonlar soni uchdan bir qismga kamaydi, jami g‘alla yetishtirish amalda ko‘paymagan bo‘lsa-da, davlatga g‘alla sotish 1937-yilga kelib 1928-yilga nisbatan 3 baravar ko‘paydi. Bunga qishloq aholisini xonavayron qilish hisobiga erishildi. O‘zbekistonda paxta yetishtirishni ko‘paytirish hisobiga Sovet davlatining paxta mustaqilligi ta’minlandi.
Madaniy inqilobning asosiy vazifasi eski tuzumdan
meros qolgan madaniy qoloqlikni tugatish,
sotsialistik ziyolilarni shakllantirish, madaniyatni partiya siyosatiga bo‘ysundirish va jamiyatda yagona mafkura — kommunistik mafkura hukmronligini qaror toptirishdan iborat bo‘ldi.
Bolsheviklar yangi sotsialistik madaniyat asosini marksistik mafkura tashkil etadi, deb hisoblardilar. Binobarin, sotsialistik madaniyat proletariatning (ishchilarning) sinfiy kurashi vazifalariga xizmat qilishi zarur edi.
Bolsheviklarning madaniyat sohasidagi siyosatiga ziyolilar qarshi turdilar. Ular aholining 2,2 foizini tashkil etardi. 1917-yilda ziyolilarning 10 foizdan kamrog‘i bolsheviklar partiyasi, bir qismi kadetlar va liberal sotsialistlar partiyalari safida bo‘lsa, asosiy qismi esa betaraf pozitsiyada turdi. Sovet davlati o‘zining jazo organi BFK — (Butunrossiya favqulodda komissiyasi) 1922-yildan DSB (Davlat siyosiy boshqarmasi), 1923-yildan BDSB
Madaniy inqilob
32
(Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi) yordamida ziyolilarni ta’qib etish siyosatini yuritdi.
NEPga o‘tish ziyolilarning bir qismi sovetlar tarafiga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Ziyolilarning bir guruhi Rossiyaning iqtisodiy va madaniy jihatdan qayta uyg‘onishi uchun Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishni afzal deb bilganlar. Ayni paytda, marksistik mafkuraga tarafdor bo‘lmagan ziyolilar egallab turgan vazifalaridan ozod etilgan.
1922-yilda alohida senzura organi — Glavlit tashkil etildi. Uning ruxsatisiz gazeta, jurnal chiqarish va kitoblar chop etish mumkin emas edi. Bolsheviklar partiyasi hokimiyat tepasida mustahkamlanib olgach, sotsialistik ziyolilarni shakllantirish siyosatini yurita boshladi. Bu ziyolilar yangi tuzumga sadoqat bilan xizmat qilishga da’vat etildi. 1927-yilga kelib mamlakatda 148 ta institut va universitet ishlay boshladi (1917-yilda ularning

soni 95 ta bo‘lgan).
Mafkura kadrlarini tayyorlash uchun 1918-yilda kommunistik universitet; 1921-yilda esa K. Marks va F. Engels instituti, Qizil professorlar instituti, Sharq mehnatkashlarining kommunistik universiteti; 1923-yilda V. I. Lenin instituti ochildi.
Madaniy inqilob siyosatida umumta’lim maktablarini qayta qurish masalasi alohida e’tiborda turdi. O‘quv dasturlari va darsliklari, o‘tmish va hozirgi tarix sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqildi. Madaniy inqilob natijasida, bolsheviklar so‘zi bilan aytganda, «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» adabiyot shakllantirildi.
Ijodkorlar «sotsialistik realizm» ruhida asar bitishlari zarur edi. Bunday asarlar o‘zining inqilobiy ruhi, asar qahramoni mafkurasini tubdan o‘zgartirib borish hamda mehnatkashlarni sotsialistik ruhda tarbiyalashga xizmat qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim edi.
Milliy adabiyotlarda proletar internatsionalizmi g‘oyalari ustun turishi zarur edi. Milliy o‘ziga xoslikni saqlashga uringan ijodkorlar qatag‘on qilindilar. Chunonchi, O‘zbekistonda Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar qatl etildi.
Bolsheviklar partiyasi tarixi bo‘yicha o‘quv darsligi va qo‘llanmalari o‘ziga xos «yo‘lchi yulduz» vazifasini o‘tay boshladi. Tabiiy, aniq va texnika fanlarini ham imkoni boricha kommunistik mafkuraga xizmat qildirishga harakat qilindi.
Sovet davlati 30-yillarning oxiriga kelib xalq xo‘jaligi uchun o‘zining sof mutaxassislarini kerakli miqdorda tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi va 1930-yilda umumiy majburiy boshlang‘ich ta’lim joriy etildi. 1932-yilda 8—11 yoshli bolalarning 98 foizi maktablarga qatnay boshladi. 1934-yilda esa 10 yillik ta’lim joriy etildi. 1939-yilga kelib, SSSR aholisining 81,2 foizi savodli edi.
33
Bolsheviklar partiyasi omma o‘rtasida ateistik targ‘ibot ishini zo‘r kuch bilan olib bordi. Cherkov va masjidlar mol-mulkdan mahrum etildi. Dinning jamiyat hayotidagi ijobiy o‘rni butunlay inkor etildi hamda din va dindorlarga qarshi kurash avj oldirildi. Ko‘plab din arboblari qatag‘on qilindi.
Sovet jamiyatining har bir a’zosi mafkuralashtirilgan biror-bir tashkilotga jalb etilgan edi. Masalan, eng ishonchli kishilar kompartiya safiga (2 mln kishi), ongli yoshlar komsomolga (9 mln kishi), bolalar — pioner tashkilotiga, ishchi va xizmatchilar kasaba uyushmalariga (22,5 mln kishi), adabiy va badiiy ijodkorlar uyushmalariga birlashtirilgan edi. Ular sovet davlatining navbatdagi har qanday vazifalariga safarbar etilishga tayyor edilar.
Xulosa qilib aytganda, 30-yillar oxiriga kelib jamiyatda yagona mafkura — marksizm-leninizm (kommunistik) mafkurasining to‘la hukmronligi qaror toptirildi. Boshqa barcha mafkuralar to‘la inkor etildi.
1921-yilda sovet davlati o‘zining janubiy qo‘shnilari — Turkiya, Eron va Afg‘oniston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga erishdi. 1922-yilda Germaniya amalda sovet davlatini tan oldi va ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlana boshladi.
1924-yilda Buyuk Britaniya Sovet davlatini tan oldi. Buyuk davlatlardan faqat AQSH qizil imperiyani tan olishni paysalga sola boshladi. Sovet davlati o‘z tashqi siyosatining strategik yo‘nalishini belgilashda o‘z xavfsizligiga sobiq Antanta davlatlari tahdid solishi mumkinligini hisobga oldi va shuning uchun ham u g‘arb davlatlari, birinchi navbatda, Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatini diqqat bilan kuzatib bordi. Ayni paytda g‘arb davlatlari o‘rtasida imzolangan Lokarno shartnomasiga qarshi chiqdi. Lokarno shartnomasi Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Chexoslovakiya va Polsha o‘rtasida imzolangan va Germaniyani Millatlar Ligasiga qabul qilishga kelishilgan edi. 1925—1927-yillarda Sovet hukumati Turkiya, Litva, Eron va Afg‘oniston bilan betaraflik va bir-biriga hujum qilmaslik haqida shartnomalarni imzolashga muvaffaq bo‘ldi.
1928-yilda buyuk davlatlar o‘rtasida «Siyosatda urushdan voz kechish va barcha kelishmovchilik hamda nizolarni tinch vositalar yordamida hal

etish to‘g‘risida» shartnoma imzolandi. Sovet hukumatining qat’iy talabi bilan g‘arb davlatlari shartnomani uning ham imzolashiga rozilik berishga majbur bo‘ldilar. 1932-yilda Sovet davlati Finlandiya, Estoniya, Polsha va Fransiya bilan o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolanishiga muvaffaq bo‘ldi.

1931-yilda Uzoq Sharqda Yaponiya harbiy harakatlarni boshlab yubordi. 1933-yilda Germaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi xalqaro ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Endi, Sovet davlati Germaniya va Yaponiya bilan munosabatlarni ehtiyotkorlik, ehtiroslarga berilmaslik tamoyili asosida qurish lozim, deb hisoblardi.

20—30-yillarda SSSRning tashqi siyosati

Sovet hukumati 1935-yilda Italiyaning Efiopiyaga qarshi agressiyasini qoraladi. General F. Frankoning Ispaniyada fashistik diktaturasini o‘rnatishiga qarshi kurashayotgan kuchlarga harbiy va moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Ularga yordam uchun ko‘ngillilarni jo‘natdi.

Fashizm xavfi kuchayib borayotgan bir davrda, Fransiya kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirish taklifi bilan chiqqan edi. Sovet davlati 1933-yildan boshlaboq bu g‘oyaning faol tarafdorlaridan biriga aylandi. Chunki Germaniya fashizmining antikommunistik tig‘i, uning nemis kommunistlariga nisbatan tutayotgan siyosati Sovet hukumatini befarq qoldirmadi.

Xavfsizlik tizimi uchun kurash Sovet davlati xalqaro ahvolining yaxshilanishiga xizmat qildi. Chunonchi, 1933-yilda AQSH Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi. 1934-yilda esa Qizil imperiya Millatlar Ligasiga qabul qilindi.

Biroq, kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirish ishiga qo‘shilgan real hissa 1935-yilda Sovet davlatining Fransiya va Chexoslovakiya bilan o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomani imzolashi bilan cheklanib qolgan. Vaholanki, qudratli siyosiy doiralar bu shartnomalarning amalda bajarilishiga ishonmas edilar. Fransiya Buyuk Britaniyaning Germaniyaga nisbatan qo‘llayotgan «tinchlantirish» siyosatiga qo‘shildi (qarang 1—2-§). 1938-yilda Myunxen shartnomasi imzolangach, Sovet davlati kollektiv xavfsizlik tizimini yaratib bo‘lmasligiga qat’iy ishondi. Myunxen shartnomasi 1935-yilda Sovet davlatining Fransiya va Chexoslovakiya bilan imzolagan shartnomalarini amalda quruq qog‘ozga aylantirib qo‘ydi. Buning ustiga, Fransiya tez orada Germaniya bilan shartnoma imzoladi. Moskvada «imperialistik davlatlar» o‘zaro nizolarini Sovetlar hisobidan hal etmoqchi, degan qat’iy fikr paydo bo‘ldi.

Kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirish muammosi

1938-yilda Yaponiya bilan yuz bergan harbiy to‘qnashuv Sovet davlatining bu fikrini yanada mustahkamladi. Moskva endi ikki frontda — G‘arbda Germaniya bilan, Sharqda esa Yaponiya bilan urushga tortilishdan xavfsirab qoldi. Bu xavfsizlik Sovet davlati rahbariyatini o‘z tashqi siyosati yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqishga undadi.

1939-yilda Yaponiyaning Mo‘g‘ulistonga hujum qilishi Moskvaning Germaniya bilan yaqinlashishga bo‘lgan moyilligini yanada kuchaytirdi. Chunki Yaponiya bilan to‘qnashish muqarrar edi. Holbuki, Moskva ikki frontda urushga tortilishni aslo istamas edi. Sovetlarning Germaniya bilan yaqinlashuvi shu tariqa ro‘y berdi.

1939-yilning 23-avgustida Sovet davlati bilan Germaniya o‘rtasida 10 yil muddatga o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi (qarang 1—2-§).

Bu shartnoma Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sovetlar hisobiga Germaniya bilan kelishishdek mash’um niyatlarini puchga chiqardi. Ayni

35
paytda bu shartnoma Germaniyaga urush harakatlarini boshlashga yo‘l ochib berdi.
Shunday qilib, ikki jahon urushi oralig‘ida Sovet davlati tashkil topdi, mustahkamlandi. Bolsheviklar yangi jamiyat qurdilar. Lekin bu jamiyat qilich va qon bilan qurildi. Dunyoda inqilob qilmoqchi bo‘ldi. Qatag‘onlarni amalga oshirdi. Ma’naviy tubanlikka ketib, fashizm bilan til biriktirdi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Bolsheviklar qurmoqchi bo‘lgan jamiyatni ta’riflab bering. O‘ylab ko‘ringchi, ularning qaysi g‘oyalari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga zid edi?
2. Bolsheviklar «eng adolatli jamiyat» qurish ishini nimadan boshlaganlar?
3. Sovet hokimiyati masalasi qanday hal etildi?
4. Rossiyada fuqarolar urushi va chet el intervensiyasining boshlanishiga nimalar sabab bo‘ldi?
5. «Harbiy kommunizm» siyosatining mazmunini ta’riflab bering.
6. Qanday sabablarga ko‘ra bolsheviklar fuqarolar urushida g‘alabaga erishdilar?
7. Sovet hukumati sobiq Rossiya imperiyasi milliy chekka o‘lkalarini sovetlashtirish siyosatini qanday usullarda amalga oshirdi?
8. Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakati haqida nimalarni bilib oldingiz?
9. Sovet hukumati nega «harbiy kommunizm» siyosatini bekor qilishga majbur bo‘lgan?
10.Yangi iqtisodiy siyosatning mazmunini tushuntirib bering.
11.Sovet davlati nima uchun imperiya hisoblanadi?
12.SSSR tashkil topishining Turkiston xalqlari taqdirida o‘ynagan mash’um oqibatlari haqidagi Sizning fikringiz?
13.Sotsializm qurishning lenincha rejasi haqida nimalarni bilasiz?
14.Industrlashtirish nima?
15.Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishning fojiaviy oqibatlari haqida so‘zlab bering.
16.Madaniy inqilobdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima edi?
17.Lokarno shartnomasida qanday masalalar ko‘rilgan edi?
18.Nima uchun Yevropada kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirib bo‘lmadi?
19.Nega Sovet davlati, Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniya agressiyasi boshlanishining oldini ololmadilar?
20.1939-yil 23-avgustda imzolangan sovet — german shartnomasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
JADVALNI TO‘LDIRING. SOVET DAVLATINING BOSHQA DAVLATLAR BILAN TUZGAN SHARTNOMASINI IZOHLANG
T.r. Shartnoma tuzgan davlatlar Shartnomalar izohi
?
36
4-§. Germaniya
Germaniya va uning ittifoqchilari Birinchi jahon urushida mag‘lubiyatga uchradi (bu haqda avvalgi mavzularda batafsil ma’lumot olgansiz). Germaniya urushda 2 mln dan ortiq qurbon berdi. Yarador bo‘lganlar, asirlar va bedarak yo‘qolganlarni qo‘shganda, jami yo‘qotish 7,5 mln kishini tashkil etdi. Ayni paytda hukmron doiralar, monopoliya egalari urushdan juda katta foyda ko‘rdilar. (Masalan, birgina Krupp konsernining daromadi 15 baravar ortdi.) Natijada yirik mulkdorlar mamlakat hayotida qudratli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchga aylandilar va hukumat siyosatiga katta ta’sir ko‘rsata boshladilar.
Urush mehnatkash tabaqalarga katta salbiy oqibatlar keltirdi. Umumiy mehnat majburiyati ishchilar uchun amalda katorgaga teng edi. Urush qishloq xo‘jaligiga ham katta talafotlar keltirdi. 1918-yilning kuziga kelganda ekin maydonlari amalda 2 baravar kamaygan edi. Ochlik, epidemiyalar va cho‘zilib ketgan urush azoblari aholining boshiga juda katta kulfatlar keltirdi. Aholining bunday qismati mamlakatda inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. Ayni paytda Rossiya inqilobi ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

Germaniya inqilobi 1918-yil 3-noyabr kuni boshlandi. Shu kuni Kil shahrida joylashgan harbiy dengizchilar urush davom etishiga qarshi qo‘zg‘alon ko‘tardilar. Kil ishchilari esa qo‘zg‘alonni qo‘llab-quvvatladilar va umumiy ish tashlash e’lon qildilar. Shaharda ishchilar va soldatlar Sovetlari tashkil etildi. Inqilob to‘lqini 9-noyabrda Berlingacha yetib keldi va u butun Germaniyaga yoyildi. Qo‘rqib ketgan imperator Vilgelm II mamlakatdan qochib ketdi. Shu tariqa Germaniyada monarxiya quladi. Mamlakatda hokimiyat xalq vakillari Soveti qo‘liga o‘tdi.

10-noyabrda tuzilgan yangi hukumatga Germaniya sotsial-demokratik partiyasining yirik arboblaridan biri — F. Ebert rahbarlik qilgan. Bu hukumat Germaniyani Respublika deb e’lon qildi va u 11-noyabr kuni Antanta bilan dastlabki yarash bitimi imzoladi. Bu bitimning imzolanishi yangi hukumatning xalqaro maydonda tan olinishi degani edi. Unga ko‘ra, mamlakatda qamal holati bekor qilindi, so‘z, yig‘ilish o‘tkazish, uyushmalarga birlashish erkinligi e’lon qilindi. Shuningdek, siyosiy mahbuslarga amnistiya e’lon qilindi. Birinchi marta umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylov o‘tkazish joriy etildi.

Ayni paytda hukumat demobilizatsiya qilingan soldatlarni, ishsizlarni ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish tadbirlarni ko‘ra boshladi. 15-noyabrda Kasaba uyushmalari bilan ish beruvchilar o‘rtasida kelishuvga erishildi. Unga ko‘ra, Kasaba uyushmalari, ularning jamoaviy shartnoma tuzish va korxonalarda ishchi nazoratini olib boruvchi qo‘mitalar tuza olish huquqlari tan olindi. Bundan tashqari, hukumat eng yirik korxonalarni

Birinchi jahon urushining Germaniya uchun oqibatlari

davlat ixtiyoriga o‘tkaza olish huquqiga ega bo‘ldi. Shuningdek, hukumat Konstitutsiyani ishlab chiqish uchun Ta’sis yig‘ilishi chaqirishga va’da berdi. Bularning bari Germaniya mehnatkashlarining katta ijtimoiy yutuqlari edi.

Germaniyada eng ommaviy va nufuzli partiya Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP) edi. Biroq bu partiyada hech qachon yagona birlik bo‘lmagan. Partiya amalda o‘nglar, markazchilar va so‘llar deb atalgan 3 oqimga bo‘lingan edi.

O‘ng oqim (yirik namoyandalari F. Ebert, Sheydeman, Bernshteyn, Noskelar)ning maqsadi burjua tartiblarini saqlab qolish, islohotlar o‘tkazib, aholini ijtimoiy himoya qilish va mamlakatda parlament respublikasini to‘la qaror toptirish edi.

So‘llar esa (yirik namoyandalari K. Libknext va R. Lyuksemburg) monarxiyaga inqilobiy yo‘l bilan to‘la barham berish, Rossiyadagidek sotsialistik jamiyat qurish uchun kurashdilar. So‘llar «spartakchilar» degan guruhga birlashganlar. Keyinchalik shu guruh asosida Germaniya kommunistik partiyasi tuzildi.

Markazchilar (yirik namoyandalari K. Kautskiy va Gaaze) 1917-yilning bahorida Germaniya mustaqil sotsial-demokratik partiyasini tuzdilar va partiya vakillari Ebert hukumati tarkibiga kirdilar.

«Spartakchilar» guruhi sotsialistik inqilobni amalga oshirish, sovet hokimiyatini o‘rnatish va barcha ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish uchun kurash boshladilar. Biroq 1918-yilning dekabr oyida o‘tkazilgan Sovetlarning I Umumgerman syezdi «Butun hokimiyat sovetlarga!» shiorini rad etdi. Ayni paytda u 1919-yilning 19-yanvarida Ta’sis majlisiga saylov o‘tkazishga qaror qildi.

«Spartakchilar» 1918-yilning 30-dekabrida Germaniya kommunistik partiyasini tuzdilar. 5-yanvarda Berlinda ishchilarning stixiyali qurolli chiqishi ro‘y berdi. Ularning maqsadi Ebert hukumatini ag‘darish edi. Bu chiqish 12-yanvar kuni hukumat tomonidan bostirildi. 15-yanvarda esa K. Libknext va R. Lyuksemburglar o‘ldirildilar. Shu tariqa o‘ng sotsial-demokratlar o‘z hokimiyatini ochiq shaklda terrorchilik yo‘li bilan yanada mustahkam qaror

toptirdilar. Kommunistlar kurashni parlamentdan tashqarida davom ettirdilar. 13-aprelda ular Germaniyaning Bavariya o‘lkasida sovet hokimiyatini o‘rnatdilar va Bavariya Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qildilar. Biroq bu respublika atigi 3 hafta yashadi. Lekin Sovet Rossiyasi hukumati andozasi asosida qator tadbirlarni (ishchi nazoratini tashkil etish, Qizil Armiya va BFQ tuzish, ishlab chiqarish vositalarini davlat mulki deb e’lon qilish va boshqalarni) amalga oshirdi.

19-yanvar kuni Ta’sis majlisiga bo‘lib o‘tgan saylovlarda o‘nglar va markazchilar g‘alaba qozondilar. Kommunistlar esa saylovda ishtirok etmadilar.

Germaniya ijtimoiy harakatidagi bo‘linish

38

Ta’sis majlisi osoyishta Veymar shahrida o‘z ishini boshladi. Shuning uchun ham Ta’sis Majlisida qabul qilingan Konstitutsiya va uning asosida tuzilgan Respublika Germaniya tarixiga Veymar Konstitutsiyasi va Veymar Respublikasi nomi bilan kirdi. Konstitutsiya Germaniyani kuchli prezidentlik hokimiyatiga ega bo‘lgan federativ respublika deb e’lon qildi. Ayni paytda hukumatning prezident oldida emas, parlament (reyxstag) oldida javobgar ekanligi belgilab qo‘yildi. Fridrix Ebert Germaniyaning birinchi prezidenti etib saylandi. Konstitutsiyada xususiy mulkning muqaddas va daxlsiz ekanligi qayd etildi hamda 20 yoshdan boshlab erkak va ayollar uchun yalpi saylov huquqi berildi. So‘z, yig‘ilish, matbuot erkinligi e’lon qilindi va referendum o‘tkazish mumkinligi belgilab qo‘yildi.

Hukumat reyxstagda ko‘p o‘rin olgan partiya yoki partiyalar ittifoqi tomonidan tuziladigan bo‘ldi. Bosh vazir (kansler) Prezident tomonidan tayinlansa-da, u reyxstagga hisob berardi. Ikki palatadan iborat qonun chiqaruvchi hokimiyat ta’sis etildi. Quyi palata (reyxstag) butun Germaniya bo‘yicha yalpi ovoz berish yo‘li bilan saylanar edi. Yuqori palata (reyxsrat) esa belgilangan normalarda o‘lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo‘lardi. Reyxsrat veto huquqiga ega edi.

Davlat boshlig‘i — Prezidentga juda katta vakolatlar berilgan edi. U bir vaqtning o‘zida Respublika qurolli kuchlarining oliy bosh qo‘mondoni hisoblanar edi. Prezident reyxstagni tarqatib yuborish va unga yalpi saylov belgilash huquqiga ham ega bo‘ldi. Shuningdek, Prezidentga lozim bo‘lganda favqulodda dekretlar chiqarish yo‘li bilan mamlakatni boshqarish, majburlash choralarini qo‘llash huquqi ham berildi.

Bundan tashqari, Prezident Konstitutsiyaning u yoki bu moddalarining amal qilishini to‘xtatib ham qo‘ya olardi. Prezidentning yalpi ovoz berish yo‘li bilan 7 yil muddatga saylanishi belgilab qo‘yildi. Veymar Konstitutsiyasi demokratik kuchlarning muhim yutug‘i edi.

Germaniyada demokratik respublika tuzumining qaror topishi va yangi siyosiy tizimning barqarorlashuvi juda qiyin kechdi. 1919-yildan 1923-yil oxirigacha mamlakatda keskin siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Buning sababi, bir tomondan, Versal shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasiga qarshi kuchlarning bosh ko‘targanligi edi. Bu kuchlar Versal shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasini tan olmadilar.

Ayni paytda bu kuchlar mamlakatda monarxiyani qayta tiklash orzusida edilar. Bu kuchlar 1920-yilning 13-mart kuni monarxist V. Kapp va general E. Lyudendorf boshchiligida davlat to‘ntarishi o‘tkazish uchun isyon ko‘tardilar. V. Kapp o‘zini kansler (bosh vazir) deb e’lon qildi va parlamentni tarqatib yubordi. Qo‘rqib ketgan hukumat Berlindan qochib ketdi.

Ana shunday sharoitda Germaniyada 12 mln ishchi va xizmatchi isyonga qarshi norozilik belgisi sifatida ish tashladi. Bu hodisa isyonchilarni

Veymar Respublikasi

Veymar Respublikasi inqirozining boshlanishi

39

chekinishga majbur etdi. 1922-yilda V. Kuno boshchiligidagi hukumat

mamlakatda millatchilik g‘oyalarini avj oldirdi. Shuningdek, Antanta davlatlariga tovon to‘lamaslikni zo‘r berib targ‘ib eta boshladi. Bunga javoban Fransiya va Belgiya armiyasi Rur viloyatini ishg‘ol etdi. Bu voqea mamlakatda uningsiz ham og‘ir ahvolni yanada og‘irlashtirib yubordi. Natijada V. Kuno hukumati iste’fo berishga majbur bo‘ldi.

1923-yilda Germaniya kommunistik partiyasi E. Telman boshchiligida Gamburgda qo‘zg‘alon ko‘tardi. Bu qo‘zg‘alonni Komintern moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan edi. So‘llarning bu avantyurasi tezda bostirildi.

Shu yilning 8-dekabr kuni Myunxen shahrida bir guruh fashistlar fashistik diktatura o‘rnatish talabi bilan mitingga to‘plandilar. A. Gitler boshchiligidagi bu isyon ham bostirildi.

1924-yilga kelgandagina Germaniyada vaziyat barqarorlasha boshladi. Bu barqarorlikning iqtisodiy asosi «Daues rejasi» deb nom olgan reja edi.

AQSH Germaniyaning butunlay zaiflashtirib qo‘yilishini aslo istamas edi. Chunki Germaniyaning butunlay zaiflashuvi AQSHning doimiy raqiblari Buyuk Britaniya va Fransiyani yanada kuchaytirgan bo‘lardi. Bundan tashqari, AQSHga yangi raqibi — Sovet davlatini jilovlashda qudratli Germaniya zarur edi. Shuning uchun AQSH Germaniyaga iqtisodiy va moliyaviy yordam ko‘rsatishga qaror qildi. Bu yordam rejasi tarixga «Daues rejasi» nomi bilan kirgan. Oxir-oqibatda esa, bu reja Germaniya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishiga, uning harbiy qudrati qayta tiklanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Rejani AQSHlik bankir, general Daues boshchiligidagi maxsus komissiya ishlab chiqqan edi. Mazkur reja 1924-yil 16-iyulda Londonda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada qabul qilindi.

Rejada Germaniya sanoatini, birinchidan, chet el sarmoyasi yordamida, ikkinchidan, Germaniya va Rossiya o‘rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish yo‘li bilan tiklash ko‘zda tutildi. Rejada Germaniyaning 1925-yilda Antanta davlatlariga oltin hisobida 1 mlrd marka tovon to‘lashi ko‘zda tutilgan. 1929-yilda esa bu ko‘rsatkich yiliga 2,5 mlrd markani tashkil etishi kerak edi. Keyinchalik bu to‘lovlar miqdori kamayar va Germaniya iqtisodi imkoniyati darajasiga qarab to‘lanar edi.

«Daues rejasi»ning qabul qilinishiga Fransiya rozi bo‘lsa, AQSH Fransiyaning qarzlarini kechib yuborish majburiyatini olgan edi. Shuning uchun ham u «Daues rejasi»ni qabul qildi va 1925-yilda Rur viloyatidan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketdi.

Buyuk Britaniya esa Fransiyaning Yevropa qit’asida yetakchi davlat bo‘lib qolishini xohlamas edi. Kuchli Germaniyaning mavjud bo‘lishi Fransiyani Buyuk Britaniya bilan hisoblashishga majbur etar edi. Qolaversa, kuchli Germaniya Buyuk Britaniya uchun Sovet davlatiga qarshi turishi ham zarur edi.

«Daues rejasi»

40

1924—1929-yillar oralig‘ida chet davlatlarning Germaniyaga bergan qarzlari, kiritgan sarmoyalari 21 mlrd markani tashkil etdi. AQSHning o‘zi 10 mlrd dollarlik sarmoya kiritdi. Bu qarz o‘z samarasini ko‘rsatdi. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotida katta muvaffaqiyatlarga erishdi va 1927—1928-yillarga kelib bu davlat sanoat ishlab chiqarish va tashqi savdo hajmi bo‘yicha urushdan oldingi darajaga chiqib oldi. 1929-yil esa undan oshib ham ketdi. Sanoat taraqqiyotida u Buyuk Britaniya va Fransiyani orqada qoldirdi. 1929-yilda «Daues rejasi» «Yung rejasi» bilan almashtirildi (qarang 1—2-§).

Iqtisodiyotning yuksalish yillarida (1924—1929) sanoatning deyarli barcha sohalarida monopoliyalar yanada kuchaydi. Yangi sarmoyadorlar ko‘paydi.

1930-yilda ularning soni 2100 taga yetdi hamda iqtisodiyot va siyosatga tobora katta ta’sir ko‘rsata boshladilar, shuningdek, jamoatchilik fikrini belgilashda hal qiluvchi mavqega erisha bordilar. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda millatchi revanshchi kuchlarning ta’siri kuchayishiga olib keldi. Bu kuchlarning yirik namoyandalaridan biri sobiq kayzer, Germaniya qurolli kuchlarining bosh qo‘mondoni

feldmarshal P. Gindenburg edi (1874—1934). U 1925-yilda mamlakat prezidenti lavozimiga saylandi. Uning prezidentligi davrida Germaniya armiyasi qayta qurollantirila boshlandi. Harbiy-dengiz floti ham tiklana boshlandi. Sanoatning harbiy maqsadlarga mo‘ljallangan tarmoqlari rivojiga katta mablag‘ sarflandi.

Germaniya endi Versal shartnomasini ochiqdan-ochiq inkor etish yo‘liga o‘tdi. Xususan, armiya soni 350 ming kishiga yetkazildi. Mamlakat aholisi, asosan yoshlar ongi g‘oyaviy jihatdan yangi urushga tayyorlana boshlandi. Veymar Respublikasi hukumati xalqaro maydonda G‘arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yurita boshladi.

1925-yilda Germaniya Lokarno shahrida Reyn paktini imzolashga erishdi. Unga ko‘ra, Germaniyaning Fransiya va Belgiya bilan mavjud chegarasi tan olindi. Ayni paytda Fransiya va Germaniya bir-biriga hech qachon hujum qilmaslik majburiyatini oldilar. Buyuk Britaniya va Italiya esa bu paktning xalqaro kafillari deb belgilanadi.

Biroq Germaniyaning sharqiy qo‘shnilari bilan mavjud chegaralar buzilmasligi masalasi ochiq qoldi. Buning nima oqibatlarga olib kelganligi avvalgi mavzulardan ma’lum.

1926-yilda Germaniya Millatlar Ligasiga qabul qilindi va unga Liga Kengashining doimiy a’zosi maqomi berildi. Bu amalda Germaniyaning buyuk davlat sifatida tan olinishi edi.

Mamlakat siyosiy hayotida revanshchi kuchlarning kuchayishi

41

1929-yilda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi Germaniyani ayanchli ahvolga solib qo‘ydi. Uch yil davomida ishlab chiqarish tinimsiz pasayib bordi. Xususan, ishlab chiqarish 40 foizga, real ish haqi esa 50 foizga kamaydi. Mamlakatda ishsizlar soni 9 mln dan oshdi. Ularning faqat 20 foizigina ishsizlik nafaqasini olardi. Xizmatchilarning ahvoli nihoyatda yomonlashdi. Mayda va o‘rta tadbirkorlar, sotuvchilar bankrotga uchradilar. Qator banklarning bankrotga uchrashi moliya-kredit tizimini larzaga soldi.

Iqtisodiyotning chet el moliyaviy yordamiga qaramligi, ayni paytda inqiroz davrida chet el sarmoyasining qaytarib olina boshlanishi, ichki bozorning torligi, sobiq Antanta davlatlariga tovon to‘lash, moddiy resurslar manbayi bo‘lish, mustamlakalarning yo‘qligi kabi omillar buning sababi edi.

Iqtisodiyotning keskin beqarorlashuvi siyosiy inqirozni ham muqarrar qilib qo‘ydi. 1928-yilda reyxstagga o‘tkazilgan saylovda hech bir siyosiy partiya mutlaq ko‘pchilik ovoz ola olmagan edi. Shuning uchun GSDP (153 o‘ringa ega edi), Katolik Markaz partiyasi (78 o‘ringa ega edi) hamda Nemis milliy partiyasi (73 o‘ringa ega edi) vakillaridan iborat koalitsion hukumat tuzilgan va katta koalitsiya nomi bilan faoliyat yurita boshlagan edi. Biroq koalitsiya 1930-yilning martida tarqalib ketdi. G. Myuller hukumati iste’fo berishga majbur bo‘ldi.

Prezident Gindenburg Katolik markazi partiyasi arbobi G. Bryuningni kansler etib tayinladi. Biroq GSDP oppozitsiyaga o‘tgach, G. Bryuning hukumati faol harakat qila olmay qoldi. Natijada mamlakat Prezidentning favqulodda dekretlari kuchi bilan boshqarila boshlandi. Bu hol, o‘z navbatida, reyxstagni obro‘sizlantirdi. 1932-yilda u faqat 5 tagina qonun qabul qildi, xolos.

Yangi hukumat yirik sarmoyadorlar manfaatiga xizmat qildi. Inqiroz yillarida aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan ularni amalda bankrot bo‘lishdan saqlab qoldi. Ayni paytda hukumat ishsizlik uchun to‘lanadigan nafaqani, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini, davlat xizmatchilarining ish haqini kamaytirdi. Soliqlar miqdorini esa oshirdi. Inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Yuz minglab ishchi o‘rinlari qisqara bordi. Non va xayriya yordamlariga muhtojlar soni to‘xtovsiz o‘sa boshladi. Mamlakatda davom etayotgan ham iqtisodiy, ham siyosiy inqiroz, o‘z navbatida, fashizmning kuchayishiga va uning hokimiyat tepasiga kelishiga zamin tayyorladi. Mamlakatda siyosiy kuchlar joylashuvida

tub o‘zgarishlar ro‘y berdi.
Garchand so‘l kuchlar (GKP va GSDP) siyosiy hayotda o‘z ta’sirlarini saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, o‘zini «Nemis milliy-sotsialistik ishchi partiyasi» degan nom bilan atagan fashistlar partiyasining ta’siri tobora kuchaya boshladi. Chunki inqiroz aholi ko‘z o‘ngida boshqaruvning respublika tartibini butunlay obro‘sizlantirib qo‘ydi. Endi, aholining aksariyat qismi

Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi

42

boshqaruvning respublika tartibiga barcha kulfatlarning manbayi, deb qaray boshladi. Ayni paytda ular ongida kuchli tartib o‘rnatishga qodir totalitar rejim tomon xayrixohlik kuchaya bordi. Ularning ko‘z o‘ngida A. Gitler boshchiligidagi fashistik partiya shunday tartib o‘rnatishga qodir kuch sifatida gavdalana boshladi. Fashistlar o‘z targ‘ibotlarida ijtimoiy adolat, mehnatsiz daromadni tugatish, jamiyat hayotining barcha sohalarida qattiq davlat tartibini o‘rnatish haqida zo‘r ehtiroslar bilan so‘zlay boshladilar. Ular ishchilarga ishsizlikni tugatishni, o‘rtahol qatlamni sog‘lom o‘rta tabaqaga aylantirishni, sudxo‘rlik foizlaridan ozod etishni, yersiz yoki kam yerli dehqonlarga esa Sharqdagi unumdor yerlarni berishni va’da qildilar.
Fashistlar dasturiga hatto ayrim ziyolilar ham xayrixohlik bildira boshladilar. Fashistlarning «Yo‘qolsin Versal shartnomasi», «Yo‘qolsin chayqovchilar!», «Yo‘qolsin chirik hukumat» kabi talablari ham omma ongida fashistlarga xayrixohlik tuyg‘usini uyg‘otdi. Fashistlarning bunday ehtirosli targ‘ibotlari chorasizlikdan sillasi qurigan ishsizlarni va Versal shartnomasini nemis millati uchun haqorat deb hisoblovchi fuqarolarni ular tomon og‘dirdi.
Ayni paytda fashistlar hukmron millat, irqiy ustunlik, antisemitizm, kuch oldida sajda qilish g‘oyalarini omma ongiga zo‘r berib singdira boshladilar. Ularning fikricha, dunyoga hukmronlikka faqat nemis millati loyiq edi.
Bu omillarning bari fashistlar partiyasi va uning rahbari A. Gitlerning obro‘sini oshirib bordi. Hatto uni yirik sarmoyadorlar ham qo‘llab-quvvatlay boshladi.
Bunga, bir tomondan, mamlakatda Germaniya Kommunistik partiyasining ham ta’siri o‘sib borayotganligi sabab bo‘ldi. Chunonchi, GKP 1928-yilda reyxstagga o‘tkazilgan saylovda 11 foiz ovoz olgan bo‘lsa, 1932-yilda 17 foiz ovoz olishga muvaffaq bo‘ldi. Bu GKPni yoqlab 6 mln saylovchi ovoz berdi, degani edi. GKPning saylovdagi muvaffaqiyatlari hukmron doiralarni tashvishga solib qo‘ydi. Hukmron doiralar so‘l kuchlar ta’sirini yo‘qqa chiqarishning birdan-bir yo‘li fashizm diktaturasi o‘rnatilishidir, deb hisoblay boshladilar.
Ikkinchidan, Veymar davrida vujudga kelgan Germaniya yirik sarmoyadorlariga jahon bozori, behisob xomashyo manbalari zarur edi. Bularga yangiyangi mustamlakalarni bosib olmay turib, bu yo‘lda ularga g‘ov bo‘lishi mumkin bo‘lgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Sovet davlati kabi davlatlarning qarshiligini sindirmay turib erishib bo‘lmas edi. Hukmron doiralar, yirik sarmoyadorlar fikricha, Germaniyaning dunyoda hukmronlik mavqeyini tiklashga faqat A. Gitler qodir edi. Shuning uchun ham ular nemis fashizmini qo‘llab-quvvatlay boshlagan va unga moliyaviy yordam ham ko‘rsata boshlagan edilar.
Gitlerning yirik sarmoyadorlar bilan birinchi uchrashuvi 1932-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tdi. Shu kuni «Po‘lat tresti»ning rahbari Tissen uni

43

Germaniya sanoatchilariga tanishtirdi. Uchrashuv 4 soat davom etdi. Gitler nutqining asosiy mazmuni «Oq irq (aslida nemislar nazarda tutiladi) Yer sharida yashovchi boshqa xalqlarni o‘ziga bo‘ysundirishi lozim», degan iborada mujassamlangan edi. Uchrashuvda sanoatchi sarmoyadorlardan birining: «Buning uchun nima kerak?» — degan savoliga A. Gitler: «8 mln kishilik armiya», — deb javob bergan.
Sarmoyadorlar Gitler timsolida o‘z niyatlarini amalga oshiruvchi shaxsni ko‘rdilar. Shundan so‘ng ular A. Gitlerni fyurer, ya’ni dohiy, deb atab, Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishi uchun juda qattiq kurash boshladilar.

Ayni paytda AQSH sarmoyadorlari ham A. Gitlerni mablag‘ bilan ta’minlab, unga homiylik qildilar. Ularning nazarida Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishi Yevropada urushni muqarrar qilib qo‘yadi. Aynan shu urush — AQSH sarmoyadorlari uchun bo‘lg‘usi daromad manbayi hisoblanardi. Xo‘sh, Germaniyada fashizm hokimiyat tepasiga kelishining oldini olish mumkin edimi?

Ha, mumkin edi. Biroq oldini olib bo‘lmadi. Bunga Germaniyadagi antifashistik kuchlarning birlasha olmaganligi sabab bo‘ldi. Bu kuchlar asosan GSDP va GKP edi.

1932-yilda reyxstagga o‘tkazilgan saylovda A. Gitler partiyasi 33 foiz ovoz olgan bo‘lsa, GSDP 20 foiz va GKP 17 foiz — ikkalasi birgalikda 37 foiz ovoz olgan.

Bu ikki so‘l partiya ittifoq tuza olganda, fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishining oldi olingan bo‘lardi. Afsuski, ular birlasha olmadilar. Bunga, birinchidan, Komintern ko‘rsatmasi bilan (sotsial-demokratlar bilan hamkorlik qilmaslik to‘g‘risidagi) ular o‘rtasida paydo bo‘lgan dushmanlik munosabati sabab bo‘ldi. Ikkinchidan esa, ular fashizm xavfini yetarlicha baholay olmadilar.

1932-yil 6-noyabrdagi saylovdan so‘ng yirik monopoliyalar, bankirlar va generallar uzil-kesil fashistlar tomoniga o‘tdilar. Ular so‘l kuchlarning ittifoqi tuzilib qolishidan cho‘chib, Gindenburgga maxsus xat jo‘natganlar. Xatda Gitlerni darhol reyxkansler (imperiya bosh vaziri) etib tayinlash talab etilgan edi.

1933-yilning 4-yanvarida Gitler Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchilari, sarmoyadorlari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda Gitler kansler bo‘lishi kerak, degan qarorga kelindi. 1933-yilning 30-yanvarida Gindenburg A. Gitlerni Germaniyaning reyxkansleri etib tayinladi. Aslida esa, 1933-yilda Germaniyada davlat boshqaruvining bir (burjua demokratik) shaklining boshqa bir shakli, ya’ni totalitar diktatura bilan almashinuvi yuz berdi.

Fashizmning mohiyati

Fashizm — bu, davlat boshqaruvining terrorchi totalitar shakli, hukmron doiralarning eng reaksion va agressiv kuchlari manfaatini ifodalovchi oqim. U dastlab Yevropada (Italiyada) vujudga kelgan. «Fashizm» atamasi «fashio» so‘zidan olingan bo‘lib, «to‘da», «uyushma» degan ma’nolarni

anglatadi. 1919-yilda Italiyada birinchi jahon urushining sobiq askarlari o‘z manfaatlarini, haq-huquqini himoya qilish uchun kurashuvchi tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot «Fashi di kombattimento» («Kurash uyushmasi», «Quroldoshlar kurash uyushmasi») deb atalgan. Tashkilot a’zolari «fashistlar», harakat esa «fashizm» nomini olgan, u turli joyda turli nom bilan, masalan, Germaniyada «natsistlar», deb atalgan.

Fashizmning mohiyatini uning quyidagi belgilari yaqqol tasvirlab beradi.

Uning birinchi belgisini o‘ta millatchilik tashkil etadi. Fashistlar uchun millat manfaati boshqa har qanday manfaatdan ustun turadi. Ular jamiyatni sinflarga bo‘lmaydi. Xo‘sh, nima uchun millatchilik Germaniya va Italiyada boshqa davlatlardagiga nisbatan kuchli bo‘lgan edi?

Ular birinchi jahon urushi oqibatlarini o‘zlari uchun qattiq haqorat, milliy tuyg‘uning mislsiz tahqirlanishi, deb qabul qilgan edilar. Nemis millati Versal shartnomasi shartlariga toqat qila olmayotgan edi.

Italyan millati esa o‘zini «g‘oliblar ichidagi mag‘lub», deb hisoblardi. Chunki Antanta tarafida urushda ishtirok etgan g‘olib Italiya urushda ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmagan edi.

Germaniyada millatchilik irqchilik bilan qo‘shilib ketgan edi. Natsistlar fikricha, butun insoniyat tarixi — bu, turli millatlar va irqlar kurashi tarixi edi. Bu kurashda faqat kuchlilargina g‘olib chiqadi. Mag‘lublar qismati yo o‘lim, yo g‘oliblarga bo‘ysunishdir. Qudratli irq — bu nemis millatiga mansub bo‘lgan oriy, nordik irqdir. Ularning tarixiy missiyasi butun dunyoga hukmron bo‘lishdir.

Fashizmning yana bir belgisi uning o‘ta agressivligidir. O‘ta millatchilik va irqchilik sharoitida shunday bo‘lishi tabiiy edi. Fashizmga xos bo‘lgan

yana bir belgi davlat hokimiyati oldida sig‘inish, unga sajda qilish edi. Fashizm uchun bu milliy ruhni mujassamlashtiradigan qudrat, barqarorlik va tartibning kafolati edi.

Fashistlar — totalitar tartib, ya’ni jamiyat hayotining barcha sohalari to‘la davlat nazoratiga olingan tartib tarafdori edilar. Germaniya fashizmining ommaviy asosini Birinchi jahon urushida eng ko‘p jabr ko‘rgan tabaqalar — hunarmandlar, dehqonlar, urush faxriylari, ishsizlar, ertangi hayoti qanday bo‘lishidan cho‘chib qolgan ishchilar tashkil etdi. Yirik kapital esa fashizmni qo‘llab-quvvatladi.

Fashistlar ichki siyosatining asosiy yo‘nalishini fashizmning mohiyati belgilab berdi. Binobarin, fashizm hokimiyat tepasiga kelgach, A. Gitler hukumati birinchi navbatda siyosiy demokratiyani yo‘q qilishga kirishdi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun har qanday jirkanch vositalarni ishga soldi. Xususan, siyosiy partiyalar faoliyatiga barham berish uchun 1933-yil 23-fevralda Reyxstag binosiga o‘t qo‘yishni uyushtirdi va aybni kommunistlarga ag‘darib, bolgariyalik G. Dimitrovni sud qildi. Lekin uni oqlashga majbur bo‘ldi. Fashistlar ochiq terror yo‘liga o‘tdilar.

Fashistlarning ichki siyosati

45

Fashistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. A. Gitler sotsial-demokratlarni Birinchi jahon urushida Germaniya taqdiri hal bo‘layotgan kezlarda noyabr inqilobini keltirib chiqarganlikda, kommunistlarni esa «qizil diktaturani» o‘rnatmoqchi bo‘lganlikda va sovetlarning josuslari sifatida aybladi.

Gitler prezident Gindenburgga «Xalq va davlatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi dekretni imzolatishga erishdi. Bu dekret A. Gitlerga favqulodda vakolatlar berdi. Endi Reyxstag boshlig‘i Gitler o‘z dekretlari bilan mamlakatni boshqarish huquqiga ega bo‘ldi.

1934-yil 2-avgust kuni prezident Gindenburg vafot etdi. A. Gitler prezidentlik lavozimini ham egalladi. Shu tariqa, butun hokimiyat A. Gitler qo‘lida to‘plandi. Endi u Germaniyaning Federativ Davlat maqomini bekor qildi, barcha darajadagi ma’muriy organlar rahbarlari tayinlanadigan bo‘ldi. Davlat hokimiyatining bo‘linishi tamoyili harakatdan to‘xtatildi va Reyxstagga saylov bekor qilindi hamda qonun chiqaruvchi hokimiyat funksiyasi hukumatga topshirildi. Shu tariqa Veymar Respublikasi amalda barham topdi.

Taqiqlangan kasaba uyushmalari o‘rniga natsistlar partiyasiga to‘liq bo‘ysunuvchi «Germaniya mehnat fronti» tuzildi. Barcha matbuot nashrlari yopildi yoki fashistlar nazorati ostiga olindi.

Fashizmning kelajagini tarbiyalash maqsadida «Gitleryugen» deb ataluvchi yoshlar tashkiloti tuzildi. Davlat apparatida puxta tozalash o‘tkazildi. Natsizmga ozgina bo‘lsa-da, muxoliflikda shubha qilinganlar xizmat vazifalaridan bo‘shatildi. Ularning o‘rnini natsistlar partiyasi a’zolari egalladilar.

Qurolli kuchlarning barcha zobitlari natsistlar partiyasi a’zosi bo‘lishi shart qilib qo‘yildi. 1933-yilning oxiridayoq muxolif marralarda turuvchi barcha tashkilotlar amalda yo‘q qilindi. Ayni paytda A. Gitler o‘z partiyasi ichidagi muxoliflarni ham qatag‘on qildi.

Bu mash’um reja 1934-yil 30-iyun kuni tunda amalga oshirildi. Bu tun Germaniya tarixiga «uzun pichoqlar kechasi» nomi bilan kirgan. Shu tariqa A. Gitler Germaniyaning yagona hukmdori, partiya rahbari, fyurer, ya’ni Germaniya xalqining cheksiz huquqqa ega bo‘lgan dohiysiga aylandi. Uning hokimiyatini mustahkamlash asosi terror edi. A. Gitlerning fikricha, terror — bu siyosiy raqiblarini yo‘q qilish vositasigina emas, ayni paytda butun nemis xalqini qo‘rqitish omili, fuqarolarda qarshilik ko‘rsatish muqarrar halokatga olib boradi, degan aqidani qaror toptirish vositasi ham bo‘lishi kerak edi. Albatta, Gitler yalpi terror va qatag‘on siyosatini bu siyosatni amalga oshirishga qodir bo‘lgan qudratli terrorchi tashkilotlarsiz amalga oshira olmas edi.

Shuning uchun ham u bunday tashkilotlarni vujudga keltira oldi. Tez

orada natsistlar o‘zlarining bosh jazo idorasi — xavfsizlik otryadlarini (qo‘riqlash qo‘shini) — SSni tuzdilar. Unga A. Gitlerning ishongan odami G. Gimmler rahbarlik qildi.
46
SS otryadlarining vazifasi — o‘zgacha fikrlovchi odamlarni ta’qib etish, ommaviy qirg‘in uyushtirish, pechlarda yoqib yuborish, gaz kameralarida zaharlab o‘ldirishdan iborat edi. Shuningdek, o‘lim lagerlari (konslager)ga olib kelingan asirlar ustidan turli tajribalar (muzlatish, zaharli o‘t ta’siri, turli tibbiy sinovlar) o‘tkazilishini tashkil etdi.
SSning tarkibiy qismini gestapo (maxfiy politsiya) va SD (razvedka va kontrrazvedka) tashkil etgan. Ularning asosiy vazifasi mavjud tuzumga qarshi paydo bo‘lgan har qanday muxolifatni joyida yo‘q qilishdan iborat edi. Ayni paytda ular zimmasiga yahudiylarni ommaviy qirg‘in qilish vazifasi ham yuklatilgan.
Fashistlar o‘zgacha fikrlovchilar, demokratik tashkilotlar vakillari va harbiy asirlarni ommaviy qirg‘in qilish maqsadida 15 ta o‘lim lagerlari barpo etdilar, bu lagerlarda 10 mln ga yaqin kishi yo‘q qilindi.
Asir ayollar sochlaridan kema machtalariga iplar to‘qilgan, odam bolasi terisidan ayollar sumkachalari, qo‘lqoplar tayyorlangan, yog‘idan sovun ishlab chiqarishda foydalanilgan, yoqilgan murdalarning kullari o‘g‘it sifatida ekin maydoniga sepilgan.
Asirlarning tilla tishlari sug‘urib olinib, fashistlar davlati manfaatlari yo‘lida ishlatilgan. Davlatda oziq-ovqat tanqisligi ro‘kach qilinib, yaratuvchilik mehnatiga noqobil bo‘lgan barcha kishilar, qariyalar, telbalar, ruhiy bemorlar, tutqanoq kasali bilan og‘rigan bemorlarni qirib yuborishga buyruq berilgan. Germaniyaning 275 ming aholisi o‘ldirilgan.
Natsistlar yahudiy aholini to‘liq qirib tashlash bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqqanlar. Bu — insoniyat tarixida eng shafqatsiz irqiy ta’qib edi. Xususan, Yevropada 6 mln dan ortiq yahudiy qirib tashlangan.
Fashistlar o‘z ichki siyosatlarida maktab tarbiyasiga katta e’tibor berganlar. Maktabga qadam qo‘yilgan davrdan boshlaboq «irqiy dunyoqarash», «irqiy ustunlik» va german qonunini sof saqlashga e’tiqod tarbiyalana boshlagan. Maktablarda faqat natsizmga xizmat qiluvchi o‘qituvchilargina ishlagan. 1933-yilning may oyidan boshlab 18—25 yoshlilar uchun ichki mehnat majburiyati joriy etildi. 1935-yil mart oyidan boshlab esa umumiy harbiy majburiyat to‘g‘risidagi qonun kuchga kirdi.
Germaniya iqtisodiyotini harbiy izga ko‘chirish uchun zarur chora amalga oshirildi. Shu maqsadda 1934-yil 20-yanvarda «Milliy mehnatni tartibga solish to‘g‘risida» qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, fuqaro uchun mehnatni erkin tanlash huquqi bekor qilindi. 1936-yilning yozida iqtisodiyotni harbiy yo‘nalishga o‘tkazishning 4 yillik rejasi rasman tasdiqlandi. Shu 4 yil ichida dunyoda eng qudratli zamonaviy armiya tashkil etilishi lozim edi. Shu yillar davomida harbiy xarajat 10 baravar oshdi. 1939-yilga kelib Buyuk Britaniya harbiy xarajati 5 mlrd, Fransiyaniki 2,3 mlrd markani tashkil etgani holda Germaniya harbiy xarajatlari 18 mlrd markani tashkil etdi. 1939-yilda Germaniyada diviziyalar soni 1914-yilgi darajaga yetkazildi va ular eng zamonaviy qurol-yarog‘lar bilan qurollantirildi. Harbiy-dengiz floti modernizatsiya qilindi.
47
Shunday qilib, Germaniya ikki jahon urushi oralig‘ida vayronalikdan g‘arb mamlakatlari yordamida tiklandi, taraqqiy qildi. Lekin fashizm tinchliksevar kuchlardan ustun kelib, ikki yuzlamachi siyosat yuritdi. Dunyoga hukmron bo‘lishga intildi. Bu yo‘lda tajovuzkor davlatlar bilan til biriktirdi. Dunyoni bo‘ysundirishga intilgan Germaniya urush olib borishga tayyorgarlikni nihoyasiga yetkazdi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. 1918-yildagi inqilobning shart-sharoitlari va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Veymar Respublikasi va Konstitutsiya haqida so‘zlab bering.
3. Nima uchun Germaniyada 1919—1923-yil davomida keskin siyosiy vaziyat saqlanib turgan va shiddatli siyosiy kurashlar davom etgan?
4. «Daues rejasi»dan kuzatilgan maqsad nima edi? Fransiya qanday sabablarga

ko‘ra «Daues rejasi»ning qabul qilinishiga rozi bo‘lgan?
5. 1924—1929-yillar oralig‘ida Germaniya iqtisodiy taraqqiyotida qanday natijalarga erishdi?
6. Qanday omillar Germaniyada o‘ta millatchi revanshchi kuchlar roli oshishiga sabab bo‘ldi?
7. Fashizm haqida nimalarni bilib oldingiz?
8. Germaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishining sabablari haqida so‘zlab bering.
9. Germaniya fashistlarining ichki siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?
10. Fashizm insoniyatga qarshi qanday mash’um jinoyatlar sodir etgan?

JADVALNI TO‘LDIRING. GERMANIYA PREZIDENTLARI FAOLIYATI

T.r.	Prezidentlar nomi	Hokimiyatga kelgan vaqti	Faoliyati

5-§. Fransiya

Fransiya jahon urushida g‘olib chiqqan davlatlardan biri edi. Biroq bu g‘oliblik Fransiya uchun juda katta yo‘qotishlar evaziga qo‘lga kiritildi.

Chunonchi, urush tufayli 1,4 mln nafar fransiyalik halok bo‘ldi, 750 mingi yarador, mayib-majruh bo‘lib qoldi. Urush harakatlari oqibatida sanoati taraqqiy etgan viloyatlar vayronaga aylandi. 3 mln 250 ming gektar haydaladigan yer foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Fransiya qarz beruvchi davlatdan qarzdor davlatga aylandi. 1920-yilga kelganda Fransiyaning davlat qarzi 300 mlrd frankka yetdi. (O‘sha davrdagi hisoblarda AQSH dan 300 mlrd dollar, Buyuk Britaniyadan esa 650 mln funt sterling qarz bo‘ldi.)

Birinchi jahon urushining oqibatlari ?

Ayni paytda urush Fransiyani G‘arbiy Yevropaning birinchi davlatiga ham aylantirdi. Elzas va Lotaringiyaning qaytarilishi, Saar viloyati ustidan Fransiya nazoratining o‘rnatilishi mamlakatning bundan keyingi taraqqiyotida juda katta ijobiy rol o‘ynadi. Yangi iqtisodiy hududlar Fransiya metallurgiya sanoati qudratini 75 foizga oshirdi.

Bundan tashqari, Fransiya hukumati vayron bo‘lgan xo‘jalikni tiklash masalasiga ham jiddiy e’tibor berdi. Bu maqsad uchun to‘langan 100 mlrd markaga yaqin tovon sanoatni texnologiya jihatidan qayta qurish imkonini berdi. Bularning bari mamlakatni yanada industrlashtirish uchun qudratli omil bo‘lib xizmat qildi, oxir-oqibatda Fransiya agrar-industrial davlatdan industrial-agrar davlatga aylandi.

Temir rudasi qazib chiqarish bo‘yicha Fransiya Yevropada birinchi o‘ringa chiqdi. Qudratli banklar («Mirabo», Rotshildlar oilasi, aka-uka Lazarlar, Malle kabi) paydo bo‘ldi. Sanoatning yetakchi tarmoqlarida «Reno», «Sitroyen», «Pejo», «Simka» kabi ulkan kompaniyalar tashkil topdi.

Shu bilan barobar mamlakatdagi katta miqdordagi mayda korxonalar ham saqlanib qoldi. Ular barcha sanoat mahsulotining deyarli 50 foizini ishlab chiqardilar. Qishloq xo‘jaligida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, katta yer egaligi salmog‘i kuchaydi. Masalan, jami xo‘jaliklarning 3,3 foizini tashkil etgan 40 gektardan ortiq yerga egalik qiluvchi xo‘jaliklar qo‘lida ekin maydonlarining 45,6 foizi to‘plandi. Ular urushdan oldin atigi 2,6 foiz ekin maydoniga egalik qilardilar, xolos.

Urush tufayli Fransiya mustamlakachi imperiyasi yanada kengaydi. Suriya va Livanda Fransiya nazorati o‘rnatildi (Ular sobiq Turkiya imperiyasi mulklari edi). Shuningdek, Fransiya Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari — Togoning bir qismi va Kamerunga ega bo‘ldi.

Fransiya jamiyati ichki hayotida shovinizm kayfiyati nihoyatda kuchaydi. Vaqtli matbuot «Nemislar hamma narsa uchun haq to‘lashlari kerak» shiorini

keng targ‘ib etdi va mamlakatdagi millatchi kuchlar Germaniyani mumkin qadar kuchsizlantirishga urindilar.
Ayni paytda Fransiya Sovet Rossiyasiga qarshi chet el imperiyasining eng faol tashabbuskorlaridan biri bo‘ldi. Chunki Rossiyaga bergan qarzlari taqdiridan nihoyatda tashvishga tushib qolgan edi.
Fransiya hukmron doiralarining bosh maqsadi Fransiyani Yevropaning eng qudratli, Yevropa mamlakatlari orasida hal qiluvchi so‘zni aytuvchi davlatga aylantirish edi.
1919-yil noyabr oyida urushdan keyin birinchi marta parlamentga saylov o‘tkazildi. Saylovgacha o‘ng partiyalar «Milliy blok» deb ataluvchi ittifoqqa birlashdi. Blokni o‘ta o‘ng partiyalar — «Milliy respublikachilik partiyasi», «Respublikachi-demokratik partiya» — tuzgan edilar. Radikallar va Respublikachilar partiyalari ularga qo‘shilgan.
«Milliy blok» hukumati. Uning ichki va tashqi siyosati
49
Versal shartnomasi Fransiyaga juda katta foyda keltirgan bo‘lsa-da, o‘ta o‘ng kuchlarni u qanoatlantirmas edi. Shuning uchun ular Versal shartnomasini Fransiya diplomatiyasining muvaffaqiyatsizligi deb hisobladilar. Shu bois saylov oldidan o‘ta o‘ng partiyalar mamlakatda millatchilik g‘oyalarini zo‘r berib avj oldirdilar. Ayni paytda ular aholining ma’lum qismini «bolshevizm xavfi» bilan ham cho‘chitishga erishdilar.
Bu omillar «Milliy blok»ning saylovda g‘alaba qozonishini ta’minladi. Ular Millat Majlisidagi jami o‘rinlarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Bu o‘ng kuchlar g‘alabasining rekord darajasi edi. «Milliy blok» hukumatini A. Milyeran (1859—1943) boshqardi.
«Milliy blok»ning ichki siyosatdagi asosiy vazifasi mamlakatda inqilob ro‘y berishiga yo‘l qo‘ymaslik va ijtimoiy harakat to‘lqinini pasaytirish edi. Shuning uchun ham u saylovchilarga ishchilarning daromadidan o‘z ulushlarini olishlariga imkoniyat yaratish, ularga korxonalarni boshqarishda qatnashish huquqini berish kabi chuqur ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga va’da berdi.
Biroq tez orada boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi bu va’dalarni bajarishga imkon bermadi. Aksincha, A. Milyeran hukumati, yirik kapital xohishi o‘laroq, 8 soatlik ish vaqti joriy etish to‘g‘risidagi qonunni amalda joriy etishga to‘sqinlik ham qildi. Soliqlar yukini kamaytirmadi. Ish haqi oshirilishi haqidagi talablarga qarshilik ko‘rsatdi. Bunday siyosat mamlakatda kuchli ish tashlash harakati avj olishiga olib keldi. 1919-yilda bu harakatlarda 1,2 mln dan ortiq ishchi qatnashdi.
O‘ta o‘ng partiyalar siyosatiga qarshi pozitsiyada turadigan yirik siyosiy kuch Fransiya sotsialistik partiyasi (FSP) edi. Biroq uning safida ham birlik yo‘q edi. Bu partiyada o‘ng, markaz va so‘l qanot deb ataluvchi guruhlar o‘rtasida o‘zaro ichki kurash davom etmoqda edi.
1920-yilning dekabr oyida FSPda bo‘linish yuz berdi. Bo‘linib chiqqan qism yangi siyosiy partiya — Fransiya Kommunistik partiyasini (FKP) tuzdi. Ijtimoiy harakatda ana shunday bo‘linishlar, shuningdek, kasaba uyushmalarida hukumat bilan kelishishga intiluvchi tomon kuchli mavqega egaligi hukumatni mamlakatda tub ijtimoiy islohotlarni o‘tkazishga majbur etish imkonini bermadi.
«Milliy blok» tashqi siyosatida Fransiyaning Yevropada yetakchi davlat bo‘lib qolishi uchun qo‘lidan kelgan barcha choralarni ko‘rdi. Chunonchi, u Germaniyani mumkin qadar kuchsizlantirishga intildi. 1920—1921-yillarda Fransiya ta’siri ostida Chexoslovakiya — Ruminiya — Yugoslaviya ittifoqi tuzildi. U tarixda «Kichik Antanta» nomi bilan ham ma’lum. Bundan tashqari, 1921-yilda ham Sovet Rossiyasi, ham Germaniyaga qarshi qaratilgan Fransiya — Polsha harbiy ittifoqi tuzildi.
Bunga javoban Germaniya va Rossiya 1922-yilda Rapallo shartnomasi deb atalgan savdo-iqtisodiy shartnomani imzoladilar. Shartnoma har ikkala mamlakatning xalqaro mavqeyini mustahkamladi.

Fransiyaning Yevropada o‘z gegemonligini butun choralar bilan qaror toptirishga urinishi uning Buyuk Britaniya va AQSH bilan munosabatlarini sovuqlashtirdi. Buyuk Britaniya Yevropada Fransiyaning gegemon bo‘lishini aslo istamas, aksincha, bu mavqega o‘zi da’vogarlik qilardi.
Xalqaro maydonda gegemonlikka da’vogar AQSH ham Fransiyaning yanada kuchayib ketishini xohlamas edi. Shuning uchun Buyuk Britaniya va AQSH Germaniya Fransiyaga to‘lashi lozim bo‘lgan tovon miqdorini mumkin qadar kamaytirishga intilganlar. Buning ustiga, Germaniya tovonni hamisha ham vaqtida va belgilangan miqdorda to‘lash qobiliyatiga ega bo‘lmagan. Germaniya tovonning bir qismini ko‘mir bilan to‘lash majburiyatini ham olgan edi. 1922-yilda Rur viloyatidan Fransiyaga ko‘mir yuborishni to‘xtatdi.
Bu hodisa Fransiya metallurgiya sanoati rivojiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Buning oldini olish maqsadida «Milliy blok» hukumati (bu vaqtda uni ashaddiy militarist va shovinist R. Puankare boshqarar edi) 1923-yil yanvarda Rur viloyatiga qo‘shin kiritdi va uni bosib oldi. Biroq Fransiya o‘z maqsadiga erisha olmadi. Rur ko‘mir konlari ishchilari (nemislar) Germaniya hukumatining chaqirig‘i bilan ko‘mir qazib chiqarish va uni vagonlarga ortishdan bosh tortdilar. Natijada Fransiyaning o‘nlab metallurgiya zavodlarida ish to‘xtab qoldi. Ayni paytda istilochi qo‘shinni saqlab turish hukumatni ma’nosiz katta xarajat qilishga majbur etdi. Bu xarajat soliqlarni yanada oshirish evaziga amalga oshirildi. Mamlakatda pul qadrsizlandi. Bu esa Fransiyada ichki siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubordi. Rur istilosi xalqaro munosabatlarda tanglik yuz berishiga olib keldi. Buyuk Britaniya Germaniyaning yonini ola boshladi. AQSH va Buyuk Britaniya Fransiyaning Yevropa qit’asida gegemonlik o‘rnatish xomxayolini butunlay chippakka chiqarish yo‘llarini qidira boshladilar. Bu yo‘lni topdilar ham.
Bu yo‘l Germaniya iqtisodiyotini tiklash va bu bilan Germaniyaning Yevropa siyosiy hayotidagi rolini oshirishga xizmat qiluvchi Daues rejasini hayotga tatbiq etish edi.
Shu tariqa Rur istilosi aslida hukumatning kaltabin siyosati bo‘lib chiqdi. Bu istilo Fransiyaning ichki va tashqi ahvolini yomonlashtirib yubordi. Bu esa oxir-oqibatda «Milliy blok»ning 1924-yildagi saylovda mag‘lubiyatga uchrashiga olib keldi.
1919—1924-yillarda Fransiyaning «Milliy blok» hukumati siyosatidan norozi ichki va tashqi so‘l kuchlar «So‘l blok» tuzishga qaror qildilar. 1924-yilda bunday blokning tuzilishiga erishildi. Radikallar partiyasi va sotsialistik partiya bu blokka birlashdilar. Ular saylovchilarga chuqur ijtimoiy islohot o‘tkazish, «Milliy blok»ning xalqqa qarshi qaratilgan tadbirlarini bekor qilish, Sovet davlati bilan diplomatik munosabat o‘rnatish, Germaniyadan Fransiya qo‘shinini olib chiqib ketish kabi va’dalarni berdilar va 1924-yilning may oyida parlamentga o‘tkazilgan saylovda g‘alaba qozondilar hamda «So‘l blok» hukumatini tuzdilar. Hukumatni Radikallar partiyasi rahbari E. Errio

(1872—1957) boshqardi va Rur viloyatidan Fransiya qo‘shinlarini olib chiqib ketdi. Oktabr oyiga kelib Sovet davlatini tan oldi va diplomatik munosabat o‘rnatdi. Uy-joy muammosini hal etish maqsadida 300 mln frank mablag‘ ajratdi.
1925-yilda og‘ir sanoatda ishlab chiqarish urushdan oldingi darajadan oshib ketdi. Biroq «So‘l blok» hukumati milliy pulning qadrini ta’minlay olmadi. Inflatsiya o‘sib bordi. Masalan, 1915-yilda 1 dollar 5,5 frankka teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1926-yilda 47 frankni tashkil etdi. Hukumat mamlakatda chuqur ijtimoiy islohotlar o‘tkazilishini istamayotgan yirik kapital qarshiligini yenga olmadi.
Buning ustiga bu hukumat Fransiya mustamlakalarida (Marokash va Suriyada) boshlangan milliy-ozodlik harakatlarini qonga botirdi. Germaniya masalasida hukumat AQSH va Buyuk Britaniya oldida to‘la taslimchilik yo‘lini tutdi. E. Errio hukumatini «Daues rejasi»ni qo‘llab-quvvatlashga majbur etdilar. Bu Fransiyaning Yevropada gegemon bo‘lish orzusiga xotima berilganligini anglatar edi. Bu ham yetmagandek, Fransiya 1925-yilda Lokarno shartnomasini imzoladi. Bu shartnomaning imzolanishi aslida

Fransiyaning o‘z ittifoqchilari bo‘lgan Polsha va Chexoslovakiyaga nisbatan xiyonati edi. Chunki mazkur shartnomada bu ikki davlatning Germaniya bilan chegaralari buzilmasligiga xalqaro kafolat berish ko‘zda tutilmagan edi. Bunday riyokorona shartnomaning imzolanishiga Fransiyaning Germaniyaning bo‘lajak agressiyasi tig‘ini Sharqqa burib yuborishdek mash’um niyati sabab bo‘ldi. Bu omillarning bari o‘ng kuchlarga so‘llarni Fransiya manfaatiga xiyonat qilishda ayblashlariga imkoniyat tug‘dirdi. Ayni paytda Fransiyada moliyaviy inqiroz kuchayib bordi. Moliya-sanoat doiralari frankni barqarorlashtirish uchun favqulodda soliqlar joriy etish rejasini ilgari surdilar. Biroq Sotsialistik partiya bu rejani qo‘llab-quvvatlamadi. Natijada 1926-yilning iyun oyida «So‘l blok» barham topdi.

Sotsialistik partiya bilan orani ochiq qilgan Radikallar partiyasi o‘nglar bilan hamkorlik yo‘liga o‘tdi. O‘ng kuchlar radikallar bilan koalitsion hukumat tuzdilar. Bu hukumat «Milliy blok» hukumati deb ataldi va unga yana R. Puankare (1860 — 1934) boshchilik qildi. Parlament R. Puankarega moliyaviy islohot uchun cheklanmagan vakolatlar berdi. Chunonchi, hukumat soliqlarni 9 mlrd frankka ko‘paytirdi. Davlat xarajatlarini qisqartirdi. Urush nogironlariga to‘lanadigan nafaqalar kamaytirildi. 1926-yilda frankning barqarorlashuviga erishildi (1 dollar avvalgi 47 frank o‘rniga 24,8 frankka teng bo‘ldi). Inflatsiyadan eng ko‘p zarar ko‘rgan mayda mulkdorlar R. Puankarega frank xaloskori deb qaray boshladi. Bundan tashqari, shu yilning o‘zida davlat budjeti daromadlari ilk bor urushdan keyingi xarajatlardan ortiq bo‘ldi.

Moliyaviy barqarorlik, o‘z navbatida, iqtisodiyotning umumiy yuksalishi boshlanganini anglatar edi. Fransiya sanoati mahsuloti hajmi birinchi bor urushdan oldingi darajadan ortiq bo‘ldi. 1930-yilga kelganda Fransiyada

ikki jahon urushi oralig‘idagi eng yuqori sanoat ishlab chiqarishiga va savdo aylanmasiga erishildi. U sanoat taraqqiyotining o‘sish surati bo‘yicha Buyuk Britaniya va Germaniyani ortda qoldirdi. Iqtisodiyotda davom etgan barqaror taraqqiyot aholi turmush darajasi o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Chunonchi, 1926-yildan boshlab ishsizlik, keksalik nafaqalari hamda kasallik, nogironlik va homiladorlik yordam pullari joriy etildi.

Jahon iqtisodiy inqirozi Fransiyaga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. 1930-yilning oxirida Fransiya iqtisodiyotida inqiroz boshlandi va u uzoq — 1936-yilgacha davom etdi. Ayni paytda u juda og‘ir kechdi. Chunonchi, 1931—1935-yillarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va milliy daromad hajmi 30 foizdan ortiqqa kamaydi.

Inqirozdan ayniqsa yengil sanoat katta talafot ko‘rdi. 1934-yilda to‘qimachilikda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 65 foizga kamaydi. 135 ta ip-gazlama fabrikasi yopildi. Sanoatda ishsizlar soni 1,5 mln kishini tashkil etdi. Ish soati 10—12 soat davom etadigan bo‘lib qoldi. Ish haqi 40 foizgacha kamaytirildi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 40 foizgacha kamaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxi ko‘tarildi. Soliqlar miqdori oshirildi.

Iqtisodiy inqiroz mamlakat tashqi savdosiga ham juda katta zarba berdi. Uning hajmi 60 foizga kamaydi. Inqiroz Fransiya mustamlakalariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Hindixitoyda mustamlakachilik zulmiga qarshi qo‘zg‘alon ko‘tarildi. Marokash va Jazoirda milliy-ozodlik kurashi kuchaydi. Xalqaro ahvol ham Fransiya uchun qulay emas edi. 1933-yilda Germaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi Fransiyaning biqinida urush o‘chog‘i vujudga kelganligini anglatar edi.

Bir tomondan, iqtisodiy inqirozni vujudga keltirgan iqtisodiy qiyinchiliklar va hukumatning ularni bartaraf etishdagi ojizligi, ikkinchi tomondan, Germaniyaning Versal shartnomasini buzishga urinishi va uning keng miqyosda qurollana boshlashiga qarshi tura olmaslik mamlakatda o‘ta o‘ng hamda fashistik kuchlar faollashuviga olib keldi. Ular parlament tuzumiga ishonchsizlik bilan qaray boshladilar va jamiyat hayotida davlatning rolini oshirish talabi bilan chiqa boshladilar.

1932-yilda parfyumeriya sanoati yirik magnati Koti «Fransuz hamkorligi» deb ataluvchi fashistlar partiyasini tuzdi. Shuningdek, mamlakatda «Jangovar

xochlar» va boshqa qator fashistik tashkilotlar faoliyat yurita boshladi. Ularning maqsadi Fransiyada ham fashistik diktatura o‘rnatish edi. Fashistik tashkilotlarning faoliyati kuchayib bordi.

Fransiya fashistlari hokimiyatni egallashga ochiqdan-ochiq harakat qila boshladilar. Shu maqsadda ular 1934-yil 6-fevralda qurolli isyon uyushtirdilar.

Fashistlar isyoni

Bu isyonga «Stavisskiy ishi» bahona bo‘lgan. Rossiyalik emigrant, xalqaro firibgar, tovlamachi Stavisskiy firibgarlik orqasidan juda katta boylik

Iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari

53

to‘plagandi. U Fransiyada aholiga juda katta miqdorda qalbaki aksiyalar sotishga ulgurgan va bu qalbaki aksiyalar uni sotib olganlarni xonavayron qilgandi. 1934-yil yanvar oyida Stavisskiy fosh etildi. Tekshiruvlarda qator siyosiy arboblarning ham qalbakichilikda qo‘li borligi aniqlandi. Fashistlar bu ishda mamlakat parlamentini aybdor deb e’lon qildilar va 6-fevral kuni qurolli isyon ko‘tardilar. Garchand, isyon muvaffaqiyatsiz tugagan bo‘lsada, fashistlar hukumatning iste’fo berishiga erishdilar.

Fashistlar isyoni Fransiya jamiyatining sog‘lom kuchlarini qattiq qayg‘uga soldi. Ularning chaqirig‘i bilan kuchli antifashistik harakat oyoqqa turdi.

12-fevral kuni ularning (sotsialistlar, kommunistlar, radikallar va partiyasizlar) chaqirig‘i bilan mamlakatda umummilliy namoyishi o‘tkazildi. Unda 4,5 mln kishi qatnashdi. Shu tariqa, mamlakatda antifashistik kuchlar ittifoqini vujudga keltirish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Fashizm xavfi sotsialistlar va kommunistlarni o‘rtadagi o‘zaro ginalarni unutishga undadi. Natijada 1934-yil 27-iyulda Fransiya Sotsialistik partiyasi va Fransiya Kommunistik partiyasi o‘rtasida «Harakat birligi to‘g‘risida pakt» imzolandi. Bu ikki partiyaning antifashistik harakatiga tez orada radikallar partiyasi ham qo‘shildi. 1935-yil 14-iyulda sotsialistlar, kommunistlar va radikallar partiyasi birgalikda katta namoyish o‘tkazdilar. Shu tariqa Fransiyada «Xalq fronti» vujudga keldi. 1936-yil aprel—may oylarida o‘tkazilgan parlament saylovlarida xalq fronti g‘alaba qozondi. U parlamentda umumiy o‘rinning deyarli uchdan ikki qismini egalladi. Sotsialist Leon Blyum boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Bu hukumat ish haqini oshirish, 40 soatli ish haftasi, korxonalarda jamoa shartnomalari tuzish, kasaba uyushmalari huquqini himoya qilish, haq to‘lanadigan ta’til berish kabi qator qarorlar qabul qildi. Parlament fashistik tashkilotlar faoliyatini taqiqlash haqida muhim qonun qabul qildi. Biroq bu qonun fashistlarga qonuniy faoliyat yurituvchi partiya tuzishga ruxsat etgan. Shunday qilib, Fransiyada fashizm hokimiyatni egallay olmadi. Bunga Fransiyada fashizmning ijtimoiy tayanchi yo‘qligi hamda so‘l kuchlarning xalq fronti tuzishga erishganligi sabab bo‘ldi va mamlakatni fashizm diktaturasidan saqlab qolishda Xalq fronti hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Xalq frontining tuzilishi

Biroq tez orada «Xalq fronti» ichida kelishmovchilik yuzaga keldi. Buning sababi xalqaro va ichki siyosatda yagona fikrga kela olmaganlikda edi. 1936-yil iyul oyida Ispaniyada boshlangan Franko isyoni Fransiya uchun fashist davlatlari qurshovida qolish xavfini vujudga keltirdi. Shunday sharoitda hukumat Buyuk Britaniya qistovi bilan Ispaniya ishlariga «aralashmaslik» siyosatini yurita boshladi. Kommunistlar bu siyosatga qarshi chiqdilar. Bundan tashqari, mamlakatda fashistlar partiyasining faoliyati man etilmaganligi hukumat bilan so‘l kuchlar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilikni yanada kuchaytirdi.

54

Ayni paytda hukumat budjet tanqisligini bartaraf etolmaganligi ham munosabatlarni yanada sovutdi. Bularning bari 1938-yil aprel oyida L. Blyum hukumatini iste’fo berishga majbur etdi. Radikallar partiyasi rahbari Ye. Dalad’e yangi hukumat tuzdi. Uning 30-sentabrda Myunxen shartnomasini imzolashi Xalq frontida qattiq tanqidga sabab bo‘ldi. Myunxen

shartnomasiga koʻra, Chexoslovakiyaning Sudet viloyati Germaniyaga olib berilgan edi. Bu shartnoma tez orada Gitlerga Chexoslovakiyani toʻla bosib olish uchun yoʻl ochgandi. Natijada Radikallar partiyasi noyabr oyida «Xalq fronti» tarkibidan chiqdi. Shu tariqa Xalq fronti tarqab ketdi.
Ye. Dalad'e oʻng partiyalarga tayanib faoliyat yurita boshladi. 1938-yil 6-dekabrda Fransiya Germaniya bilan oʻzaro hujum qilmaslik toʻgʻrisidagi bitimdan hech farq qilmaydigan qoʻshma deklaratsiyani imzoladi va shu oyda Italiyaning Efiopiyani bosib olganligini ham tan oldi.
1939-yil mart oyida Germaniyaning Chexoslovakiyani bosib olishiga hech qanday toʻsqinlik qilmadi. Uning niyati Germaniya agressiyasi tigʻini Sharqqa — Rossiyaga burib yuborish edi. Ayni paytda 1939-yilning mart oyida Fransiya hukumati har ehtimolga qarshi Buyuk Britaniya bilan harbiy ittifoq tuzdi. Biroq tashqi siyosatdagi bu nayranglar Fransiyani saqlab qola olmadi va u 1940-yilda Germaniya hujumi natijasida tiz choʻkishga majbur boʻldi.
Shunday qilib, Fransiya Birinchi jahon urushida gʻolib boʻlsa-da, iqtisodiy taraqqiyoti tezlashmadi. Buyuk davlatlar ta'siridan chiqolmadi. Ikki yuzlamachi siyosat yuritdi. Fashizm qurboni boʻldi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Birinchi jahon urushining Fransiya uchun oqibatlari jadvalini tuzing. «Milliy blok» hukumatining ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. AQSH va Buyuk Britaniyaning Fransiyaga nisbatan tutgan siyosatidan qanday xulosa chiqargan boʻlardingiz?
3. «Soʻl blok» qay tariqa yuzaga keldi? Bu ittifoq ichki va tashqi siyosatining mazmunini tahlil eting va uni «Milliy blok» ichki va tashqi siyosati bilan taqqoslang.
4. «Soʻl blok»ning barham topishi sabablarini qayd eting.
5. «Milliy birlik» hukumati qay tariqa tuzildi?
6. Jahon iqtisodiy inqirozining Fransiya uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
7. Fransiyada fashizm hokimiyat tepasiga kela olmaganligini izohlab bering.
8. Xalq fronti qay tariqa vujudga kelgan edi? Uning Fransiya tarixida tutgan oʻrniga baho bering.
9. Germaniya agressiyasining oldi olinmaganligida Fransiya ham aybdor ekanligini faktlar asosida izohlab bering.
?
55
JADVALNI TOʻLDIRING. 1918—1939-YILLARDA FRANSIYA SIYOSATI
T.r.
Mamlakat hukumati rahbari
Hukmronlik yillari
Ichki siyosati
Tashqi siyosati
6-§. Buyuk Britaniya
Birinchi jahon urushining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari, avvalo, uning bu urushda gʻolib chiqqan davlatlardan biri boʻlganligi bilan belgilanadi.
Gʻalaba tufayli Buyuk Britaniya koʻp narsalarga erishdi. Chunonchi, Germaniyaning Buyuk Britaniyaga xavfi barham topdi.
Buyuk Britaniyaning harbiy qudrati va xalqaro maydondagi ta'siri yanada oʻsdi hamda u Millatlar Ligasida hukmron mavqega ega boʻlgan davlatga aylandi. Millatlar Ligasi joriy etgan mandat tizimi eng koʻp darajada Buyuk Britaniyaga foyda keltirdi. Chunonchi, magʻlub Germaniya va Turkiya sobiq mustamlakalarining eng koʻp qismi Buyuk Britaniyaga tegdi. Masalan, Buyuk Britaniya Yaqin Sharqda Falastin, Transiordaniya va Iroqni boshqarish huquqini qoʻlga kiritdi. Afrikada Tanganika, Togo va Kamerunning bir qismida ham Buyuk Britaniyaning shunday huquqi qaror topdi. Shuningdek, Buyuk

Britaniya dominionlari ham quruq qolmadi. Millatlar Ligasi, xususan, Janubiy Afrika Ittifoqiga Germaniyaning Janubi-G‘arbiy Afrikasini, Avstraliyaga Yangi Gvineyadagi Germaniya mustamlakalarini, Yangi Zelandiyaga esa G‘arbiy Samoa orollarini boshqarish huquqini berdi.

Biroq shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, urush Buyuk Britaniyaga faqat muvaffaqiyat keltiribgina qolmadi. Urush uning dunyodagi mavqeyiga katta putur yetkazib, jahon bozorida hukmronlik mavqeyini pasaytirdi. Moliyaviy yetakchiligi ham barham topdi. Natijada u qarz beruvchi davlatdan qarz oluvchi davlatga aylanib qoldi. Chunonchi, Buyuk Britaniyaning ichki davlat qarzi 1914-yildagi 650 mln funt sterlingdan 8 mlrd funt sterlingga yetgan. AQSHdan esa 5 mlrd dollardan ortiq miqdorda qarz bo‘lib qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi keskin darajada pasaydi. Ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligi pasayishi oqibatida mamlakat tashqi savdosi hajmi 2 baravardan ortiq kamaydi.

Buyuk Britaniya shundan so‘ng o‘zining «dengiz malikasi» maqomini tiklay olmadi. Germaniya harbiy-dengiz floti qudrati sindirilgan bo‘lsa-da, endilikda AQSH harbiy-dengiz flotining qudrati shitob bilan o‘sib bordi. Natijada 1920-yilga kelib Buyuk Britaniya hukumati ikki davlat harbiydengiz flotiga teng keladigan flot saqlash an’anasidan voz kechishga majbur

Birinchi jahon urushining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari

56

bo‘ldi. Bu omillar va Buyuk Britaniya mustamlakalaridagi milliy-ozodlik kurashi oqibatida Britaniya mustamlakachilik tizimining inqirozi boshlandi.

Buyuk Britaniya hukmron doiralari butun choralar bilan mavjud ahvolni o‘zgartirishga harakat qildi.

1918-yilning oxirida mamlakatda iqtisodiy o‘sish boshlandi. Bu 1920-yilning o‘rtalarigacha davom etdi. Bunga keng iste’mol tovarlariga aholi talabining o‘sishi hamda urush vayronalarini tiklash ehtiyoji hisobiga erishildi.

Bu o‘sish tashqi savdo o‘sishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Chunonchi, shu davr oralig‘ida eksport 38,1 foiz o‘sdi. Biroq bu o‘sish uzoqqa cho‘zilmadi. 1920-yilning kuzidayoq mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini qamrab olgan iqtisodiy tanglik boshlandi. 1921-yilda sanoat ishlab chiqarishi uchdan birga qisqardi va u urushdan oldingi darajaning 68 foizini tashkil etdi. Ko‘mir qazib chiqarish 30 foiz, tashqi savdo hajmi esa urushdan oldingi darajadan 2 baravarga kamaydi.

Ishlab chiqarishning keskin kamayishi ishsizlar sonining o‘sishiga sabab bo‘ldi. Masalan, ishsiz sifatida ro‘yxatga olinganlar soni 1920-yilda 375 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1921-yil o‘rtalarida bu ko‘rsatkich 2,2 mln ga yaqin kishini tashkil etdi. 1922—1923-yil mobaynida mamlakat iqtisodiyotida turg‘unlik saqlanib qoldi.

1924—1929-yillar davlatlar iqtisodiyotida qisman barqarorlashuvning qaror topishi davri bo‘ldi. Biroq Buyuk Britaniya iqtisodiyoti amalda bir joyda depsinib turdi. Masalan, 1929-yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1913-yil darajasiga arang yetdi. Faqat sanoatning yangi turlari (mashinasozlik, kimyo, samolyotsozlik va avtomobil) hisobigagina bunga erishildi.

1913-yilda rivojlangan davlatlar orasida Buyuk Britaniyaning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 14,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1926—1929-yillarda 9,8 foizga tushib qoldi.

Buyuk Britaniyaning iqtisodiy jihatdan tobora orqada qolayotganligining asosiy sababi kapitalni yangilashga kam mablag‘ sarflanayotgani, investitsiya ko‘proq «dengiz orti davlatlari»ga qo‘yilayotgani va sanoatda ishlatilayotgan texnika sifat jihatidan raqobatbardosh emasligi edi. Angliya hukmron doiralari bu omillar ahamiyatini o‘z vaqtida va to‘g‘ri anglay olmadilar. Texnika jihatidan qoloqligi tufayli Buyuk Britaniya jahon bozorida birin-ketin o‘z mavqeyini boy bera boshladi. Eksport tobora qisqara bordi. Tashqi savdo hajmi urushdan oldingi darajaning 87 foizini tashkil etdi, xolos. Importning hissasi tobora ortib bordi. Bu holat oddiy xalqning turmush darajasiga ta’sir etmay qolmadi. Xalq turmush darajasi ancha pasaydi va real

ish haqi kamaydi.
Bu davrda mamlakat hayotini uchta partiya —
Liberallar, Konservativ va Leyboristlar partiyalari
o‘rtasidagi kurash belgilar edi. Birinchi jahon
urushi yillarida hokimiyat tepasida turgan Liberal partiya yuqorida qayd
Mamlakatning
siyosiy hayoti
Mamlakat iqtisodiy
hayotidagi
o‘zgarishlar
57
etilgan omillar ta’siri ostida tobora o‘z mavqeyini yo‘qotib bordi. Liberal partiya rahbari, mamlakat bosh vaziri D. Lloyd-Jorj (1863—1945) o‘z partiyasining mavqeyini saqlab qolish niyatida 1918-yil dekabr oyida parlament saylovini o‘tkazdi. Birinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi tufayli Liberal partiya harbiylar orasida salmoqli mavqega ega bo‘ldi. Liberallar va Konservatorlar partiyasi saylovda birgalikda ishtirok etdilar.
Ular saylovda mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qayta qurish shiori bilan ishtirok etdilar. Saylovchilarga yalpi ish o‘rni, mehnatni adolatli taqdirlash, arzon uy-joy, tinchlik, chuqur ijtimoiy islohotlarni o‘tkazishni va’da qildilar. Leyboristlar saylovchilarga ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy egalik qilishga imkon beruvchi yangi jamiyat qurishni, ishchilar hukumati tuzishni, milliy transport, energiya manbalari va banklarni egalaridan sotib olish yo‘li bilan milliylashtirishni va’da qildilar.
Saylovda Liberal-Konservatorlar ittifoqi g‘alaba qozondi. Ular parlamentdagi 707 o‘rindan 477 tasiga ega bo‘ldilar (undan 136 tasi Liberal partiyaga tegishli edi). Leyboristlar 62 o‘ringa ega bo‘lgan bo‘lsalarda, 1910-yildagi saylovga nisbatan 5 baravar ko‘p (2,5 mln) ovoz oldilar. Shu tariqa bu partiya borgan sari Liberal partiyani siyosiy kurash maydonidan siqib chiqara boradi.
Lloyd-Jorj yana bosh vazir lavozimini egalladi va 1922-yilgacha hukumatni boshqardi. Bu davr ichida koalitsion hukumat ham ichki, ham tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Hukumat saylovchilarga bergan va’dasi ustidan chiqa olmadi. Natijada, birinchi navbatda ishchilarning kuchli zabastovka harakatlari boshlandi. 1919-yilda bu harakatda 2,5 mln dan ortiq ishchilar qatnashdilar.
Ishchilar 40 soatlik ish haftasi joriy etilishini, ish haqi kamaytirilmasligini talab etdilar. Ayniqsa, konchi ishchilar harakati to‘lqini kuchli bo‘ldi. Ular ish haqini 30 foiz oshirishni, 6 soatlik ish kuni belgilanishini talab eta boshladilar.
Shunday sharoitda hukumat ishchilar harakati to‘lqinini yo‘qqa chiqarish yo‘lini tutdi. 1920-yil oktabr oyida mamlakat parlamenti hukumatga ishchilar harakatini bostirish uchun favqulodda vakolatlar berdi. Konchilar talabini qondirishni istamagan kon egalari 1921-yil 1-aprelda lokaut e’lon qildilar. Hukumat esa favqulodda holat e’lon qildi va ko‘mir konlariga armiya qismlarini jo‘natdi.
Temir yo‘l va transport ishchilari ularga birdamlik ramzi sifatida zabastovka boshladilar. Biroq hukumat ishchilar harakatini bostirishga muvaffaq bo‘ldi.
Yuqorida qayd etilgandek, Lloyd-Jorj hukumati tashqi siyosatda ham qator muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Milliy-ozodlik harakati Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasini larzaga sola boshladi. Chunonchi, 1919-yilda Hindistonda mustaqillik uchun kurash kuchaydi. 1919—1921-
58
yillarda Misrda mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘alon bo‘lib o‘tdi. 1919-yilda Afg‘onistonda Buyuk Britaniyaga qarshi mustaqillik urushi boshlandi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari mustamlakachi imperiyani halokatdan saqlab qolish uchun qator yon berishlarga majbur bo‘ldi. Xususan, 1918-yilda Hindistonda mahalliy kadrlarga davlat ishlarini boshqarishda qatnashish imkonini beruvchi Konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazildi. Dominionlarga Parij tinchlik konferensiyasida mustaqil subyekt sifatida qatnashish huquqi berildi.

Afg‘onistonning mustaqilligini tan olishga majbur bo‘lindi. Misr esa nomiga bo‘lsa-da, mustaqil davlat deb tan olindi. Buyuk Britaniya hukumati Irlandiya masalasida juda katta qiyinchiliklarga uchradi.
Buyuk Britaniya hukmron doiralari o‘zlarining –«bo‘lib tashla, hukmronlik qil», degan an’anaviy shiorlariga bu safar ham sodiq qoldilar. Irlandiya milliy-ozodlik harakatida bo‘linish yuz berdi. Uning o‘ng qanoti Buyuk Britaniya bilan muzokaralarga kirishdi. 1921-yilda Buyuk Britaniya — Irlandiya shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra Irlandiya ikkiga bo‘lindi. Poytaxti Dublin shahri bo‘lgan Janubiy Irlandiyaga dominion huquqi berildi. Shimoliy Irlandiya esa Buyuk Britaniya tarkibida qoldi. Shu vaqtdan boshlab mamlakat rasman «Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo‘shma qirolligi» deb ataladigan bo‘ldi.
Buyuk Britaniya hukumatining Sovet Rossiyasiga qarshi kurashi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Buning ustiga u 1921-yilning 16-martida Rossiya bilan savdo shartnomasini imzolashga majbur bo‘ldi. Bu shartnoma amalda Sovet Rossiyasining tan olinganligini ham anglatar edi.
Bundan tashqari Buyuk Britaniyaning Gretsiya bilan birgalikda Turkiyaga qarshi uyushtirgan agressiyasi mag‘lubiyatga uchradi. Vatanparvar kuchlar Kamol Otaturk boshchiligida Turkiya mustaqilligini saqlab qoldilar. Tashqi siyosatdagi bunday muvaffaqiyatsizlik Konservatorlar partiyasini qattiq larzaga soldi. Endi bu partiya koalitsion hukumat tarkibidan chiqishga qaror qildi. 1922-yil 19-oktabrda Lloyd-Jorj ham bosh vazir lavozimidan iste’fo berishga majbur bo‘ldi. Bosh vazir lavozimini oldin konservatorlar partiyasi rahbari bo‘lgan B. Lou, birozdan so‘ng esa S. Bolduin egalladi.
S. Bolduin hukumatining asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotini inqirozdan olib chiqish edi. Shundagina jamiyatning asosiy ijtimoiy xastaligi — ishsizlikka barham berish va ayni paytda korxonalar to‘la quvvat bilan ishlashini ta’minlash mumkin edi.
Shu maqsadda hukumat iqtisodda proteksionizm usulini qo‘llashga o‘tdi. Biroq bu ko‘zlangan natijani bermadi. Aksincha, 1923-yil oxiriga kelib Buyuk Britaniya iqtisodiyoti boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Natijada mamlakatda norozilik uyg‘otdi. Ana shu sharoitda, 1923-yili parlamentga saylov o‘tkazildi. Unda garchand Konservatorlar partiyasi g‘alaba qilgan bo‘lsa-da (258 o‘rin), Leyboristlar partiyasi (191 o‘rin) ham katta yutuqqa erishdi. Bu partiya saylovchilarga ko‘mir sanoatini milliylashtirishga va’da bergan edi.

Leyboristlar va Liberallar partiyasi (158 o‘rin) birgalikda S. Bolduin hukumatiga ishonchsizlik bildirdi. Natijada hukumat iste’fo berishga majbur bo‘ldi.
Endi Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta Leyboristlar partiyasiga hukumat tuzish topshirildi. 1924-yil yanvarda bu partiya rahbari R. Makdonald (1866—1937) boshchiligida yangi hukumat tuzildi. R. Makdonald hukumati uzoq yashamadi. Bunga bu hukumatning yirik kapital tazyiqi ostida saylovchilarga bergan va’dasini (ko‘mir sanoatini milliylashtirish, ishsizlikni bartaraf etish, ishchilar uchun uy-joy qurish va h.k.) bajara olmaganligi sabab bo‘ldi.
1924-yil 8-oktabrda Konservatorlar partiyasi deputatlari parlamentda ko‘pchilikka ega bo‘lmagan leyboristlar hukumatiga ishonchsizlik bildirishga muvaffaq bo‘ldilar. R. Makdonald iste’fo berishga majbur bo‘ldi. 29-oktabrda bo‘lib o‘tgan yangi parlament saylovida Konservatorlar partiyasi g‘alaba qozondi (415 o‘rin). Noyabr oyida S. Bolduin yana bosh vazir lavozimini egalladi.
S. Bolduin bosh vazirligi davrida ham (1924—1929) Buyuk Britaniya iqtisodiyotida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lmadi. Garchand avtomobil, elektrotexnika va kimyo sanoati jadal sur’atda rivojlangan bo‘lsa-da, sanoatning an’anaviy tarmoqlari bo‘lgan kemasozlik, ko‘mir sanoati hamon turg‘unlik holatida edi.
Ingliz sarmoyadorlari o‘z kapitalini mamlakat sanoatini zamon ruhida rekonstruksiya qilishga sarflashdan ko‘ra xorijga chiqarishni afzal bildi. Buning oqibatida Buyuk Britaniya urushgacha bo‘lgan mavqeyini qayta tiklay ololmadi. Dominion va mustamlakalarda o‘z milliy sanoatlari taraqqiy

etdi. Buyuk Britaniya imperiyasiga AQSH kapitalining kirib kelishi kuchaydi.
Buyuk Britaniyada bir vaqtlar gullab rivojlangan ko‘mir sanoati ayniqsa og‘ir ahvolda edi. Urushgacha sanoatning bu tarmog‘ida 1 mln 200 ming ishchi mehnat qilgan va mamlakatda yiliga 290 mln tonna ko‘mir qazib olingan. Urushdan keyin esa ahvol keskin yomonlashib, bu sanoat eng qoloq tarmoqqa aylandi. Bunga kichik-kichik shaxtalarning ko‘pligi hamda ular jihozlarining eskirib qolganligi asosiy sabab bo‘lgan.
Bundan tashqari, yerlaridan ko‘mir koni topilgan yer egalariga to‘lanadigan katta to‘lov ham bu soha rivojining asosiy to‘siqlaridan biri edi. Bu omillar, o‘z navbatida, Buyuk Britaniya ko‘miri tannarxini oshirib yubordi. Natijada ingliz ko‘miri arzon nemis va polyak ko‘miri bilan raqobat qila olmay qoldi. Kon egalari o‘z foydalari darajasini ishchilarga to‘lanadigan ish haqini kamaytirish va ish kunini uzaytirish hisobiga qoplashga urinar, ishchilar esa bunga qattiq qarshilik ko‘rsatar edilar. 1925-yilning yozida kon egalari ish haqini kamaytirishga urindilar.
1925-yil 31-iyulda konchilar ish haqi pasaytirilgan taqdirda ish tashlashni boshlashga qaror qildilar. Transportchilar va temiryo‘lchilar konchi-
1926-yil voqealari
60
larga o‘z birdamliklarini ma’lum qildilar. S. Bolduin hukumati bu umumiy ish tashlashga aylanib ketishining oldini olish maqsadida kon egalariga subsidiya to‘lashga qaror qildi. Ammo hukumatning bu subsidiyasi 9 oyga yetdi, xolos.
1926-yil aprelda kon egalari konchi ishchilar oldiga ultimatum qo‘ydilar. Unda ishchilardan ish haqining pasaytirilishiga, ish kuni bir soatga oshirilishiga hamda shaxta egalari bilan tred-yunionlar o‘rtasida mamlakat miqyosida jamoaviy shartnomalar imzolanishining bekor qilinishiga rozi bo‘lish talab etilgan edi. Ayni paytda, agar ishchilar bu talabni rad etsalar, lokaut e’lon qilinishi bilan dag‘dag‘a qildilar. Ultimatum mamlakatda keskin norozilikka sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, kon egalari 1926-yilning 1-may kuni ish haqi kamaytirilishini e’lon qildilar.
Bunga javoban 4-may kuni Buyuk Britaniyada ishchilarning umumiy ish tashlashi boshlandi. Unda jami 6 mln ishchi qatnashdi. Tred-yunionlar umumiy ish tashlash sof iqtisodiy talablar ostida o‘tishini istar edi. Biroq ish tashlashlar iqtisodiy doiradan chiqib, siyosiy nizoga aylanishi xavfi tug‘ildi. Chet davlatlar ishchilari Buyuk Britaniya ishchilari bilan birdam ekanliklarini bildirdilar. Ular Buyuk Britaniyaga jo‘natilishi mo‘ljallangan yuklarni ortishni to‘xtatib qo‘ydilar. Ish tashlaganlarga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida mablag‘ to‘plab, Buyuk Britaniya ishchilariga jo‘natdilar.
Siyosiy nizo kelib chiqishidan cho‘chigan tred-yunionlar Bosh kengashi 12-may kuni umumiy ish tashlashni to‘xtatish haqida qaror qabul qildi. Ayni paytda hukumat bilan muzokaraga kirishildi. Ishchilar o‘zlari xohlamasalar-da, tred-yunionlar Bosh kengashi qaroriga bo‘ysunishga majbur bo‘ldilar. Konchilar esa kurashni dekabr oyigacha davom ettirdilar va oxiroqibatda ular ham ish tashlashni to‘xtatishga majbur bo‘ldilar. Shunday qilib, 1926-yilgi umumiy ish tashlash mag‘lubiyatga uchradi.
Tred-yunionlar rahbariyati Buyuk Britaniyadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni saqlab qolish tarafdori ekanligi tufayli shunday bo‘ldi. Hukmron doiralar o‘z mavqelarini yanada mustahkamlashga qaror qildilar. Chunonchi, ish tashlashni taqiqlovchi qonun qabul qilindi. Bunga ko‘ra, ish tashlash ayrim olingan bir korxona yoki sanoatning ayrim olingan bir tarmog‘idagina o‘tkazilishi mumkin edi.
1929-yilning may oyida Buyuk Britaniyada navbatdagi parlament saylovi bo‘lib o‘tdi. Unda Leyboristlar, kichik farq bilan bo‘lsa-da, g‘alaba qozondi (287 o‘ringa ega bo‘ldi. Konservatorlar partiyasi 260 o‘ringa ega bo‘ldi).
Leyboristlar bu g‘alabaga ko‘mir sanoatini, transport va banklarni milliylashtirish, ishsizlikni tugatish, 7 soatlik ish kunini tiklash, 1927-yilgi tred-yunionlar haqidagi bergan va’dasi tufayli erishdi. Iyun oyida R. Makdonald

leyboristlarning ikkinchi hukumatini tuzdi.

Leyboristlarning
ikkinchi hukumati

61

1929-yilning kuzida boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi hukumat va’dalarining bajarilishini qiyinlashtirib qo‘ydi. 1930-yil boshlarida Buyuk Britaniyada ham iqtisodiy inqiroz boshlandi va u 1932-yilda o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Shu yili sanoat ishlab chiqarishi 1929-yilga nisbatan 20 foizga qisqardi. Ishsizlar soni 3—3,5 mln kishini tashkil etdi. Funt sterling qiymati uchdan birga qadrsizlandi. Real ish haqi kamaydi. Qishloq xo‘jaligida ham ishlab chiqarish qisqardi.

Tashqi savdo hajmi keskin kamaydi. Buyuk Britaniyani an’anaviy bozorlardan siqib chiqarish jarayoni kuchaydi. Shunday sharoitda ham hukumat qator va’dalarni bajardi. Chunonchi, ko‘mir konlarida 7 soatlik ish kuni joriy etildi. Ishsizlik bo‘yicha, sug‘urta to‘g‘risida yangi qonun qabul qilindi. Ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish muddati 3 oydan bir yilga uzaytirildi.

Ishsizlikka qarshi kurash bo‘yicha yangi vazirlik va ishsizlar uchun ish qidirish bo‘yicha maxsus qo‘mita tashkil etildi. Bu tadbirlar ishsizlarning ahvolini ma’lum darajada yaxshilashga xizmat qildi. Biroq yirik kapital tazyiqi ostida kun tartibida ish haqini, ishsizlik nafaqalarini kamaytirish, bilvosita soliqlarni oshirish masalasi ko‘ndalang bo‘lib qoldi. Bu hol Leyboristlar partiyasining bo‘linib ketishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilgan masala tarafdori bo‘lgan R. Makdonald 1931-yil 25-avgustda «Milliy hukumat» deb atalgan koalitsion hukumat tuzdi (uning tarkibiga milliy-leyboristlar, milliy-liberallar va konservatorlar partiyasi vakillari kirdi).

Shunday sharoitda, 1931-yil oktabr oyida parlamentga navbatdan tashqari saylov o‘tkazildi. Unda konservatorlar partiyasi g‘alaba qozondi (740 o‘rin). Yana milliy hukumat (1931—1935) tuzildi. Uni yana R. Makdonald boshqardi. Hukumat ish haqini va ijtimoiy sohalarga ajratiladigan xarajatlarni kamaytirish hisobiga inqirozdan chiqish dasturini amalga oshira boshladi. Ingliz kapitalining chetga ko‘plab chiqib ketishidan qo‘rqqan hukumat funt sterlingning oltinga nisbatan qiymatini bekor qildi. Binobarin, endilikda funt sterling oltinga almashtirilmaydigan bo‘ldi. Ayni paytda AQSH va Fransiya banklari Buyuk Britaniyaga 80 mln funt sterling miqdorda qarz berdi.

Hukumat tashqi savdoda erkin savdodan voz kechish va proteksionizm (milliy iqtisodiyotni himoya qilish) yo‘lidan bordi. Unga ko‘ra, imperiya tarkibiga kiruvchi hududlarda ingliz tovarlaridan olinadigan boj chet davlatlar tovarlarinikidan 10 foiz kam miqdorda belgilandi. Bu tadbir Buyuk Britaniyaning imperiya bozorlaridagi mavqeyini mustahkamladi.

Hukumat ko‘rgan chora-tadbirlar o‘z samarasini berdi. 1932-yil oxiridan boshlab iqtisodiyotda biroz bo‘lsa-da, sog‘lomlashish boshlandi. 1934-yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1929-yil darajasiga yetdi.

1935-yil oxirida parlamentga bo‘lib o‘tgan saylovlarda Konservatorlar partiyasi g‘alaba qozondi (385 o‘rin). Bu partiya rahbari S. Bolduin ikkinchi

62

milliy hukumatni tuzdi. Hukumat iqtisodiyotni to‘la sog‘lomlashtirish siyosatini davom ettirdi. Chunonchi, proteksionizm davom ettirildi. Bu siyosat avtomobil, aviatsiya, elektrotexnika va kimyo sanoatiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Funt sterlingni oltinga almashtirish bekor qilinishining davom ettirilishi ham ijobiy samara bermay qolmadi. Bu yo‘l ingliz sarmoyasini chetga chiqarishning oldini oldi. Chunki funt sterlingning oltinga almashtirilmasligi sarmoyani chetga chiqarishni foydasiz yoki samarasiz qilib qo‘ydi. Endi sarmoyadorlar o‘z sarmoyalarini asosan mamlakat ichida joylashtira boshladi. Masalan, 1936-yilda Buyuk Britaniya chetga 61 mln funt sterling sarmoya chiqargan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich mamlakat ichkarisida 217 mln funt sterlingni tashkil etdi. Bu esa sanoatning yanada taraqqiy etishiga olib keldi.

Xususiy sarmoyalarning ichki bozorga joylashtirilishiga hukumat olib borgan moliyaviy siyosat ham katta yordam berdi. Xususan, hukumat banklarning

tadbirkorlarga eng arzon — 2 foiz miqdorida kredit berishi tartibini joriy etdi. (Avval 10—12 foiz edi.)
Biroq Buyuk Britaniya iqtisodiy inqiroz iskanjasidan to‘la qutula olmadi. 1937-yilning kuzidan boshlab ishlab chiqarish yana pasaya boshladi. Chunonchi, 1938-yilda sanoat ishlab chiqarishi 1937-yilga nisbatan 12 foizga kamaydi. Ishsizlar soni yuqoriligicha qolaverdi. Shu tariqa 30-yillarning oxiriga kelib Buyuk Britaniyaning jahondagi iqtisodiy mavqeyi sezilarli darajada pasaydi. Endilikda nafaqat AQSH, balki Germaniya, Italiya va Yaponiya uning raqiblariga aylangan edi.
R. Makdonald realist siyosatchi edi. U o‘z siyosiy faoliyatini Buyuk Britaniya qudratli davlat bo‘lgan paytdan boshlab, uning bu qudratidan faqat alamli xotira qolgan paytda yakunladi. R. Makdonald realist bo‘lganligi uchun ham Buyuk Britaniyaning sobiq buyukligini, qudratini qayta tiklab bo‘lmasligini yaxshi tushunar edi. Biroq u Buyuk Britaniyani bundan keyin ham jahon siyosatida o‘z so‘zi bor davlat holatida ko‘rishni xohlar va shunga astoydil intilar edi. Garchand u sovetlarga qarshi bo‘lsa-da, real voqelikdan kelib chiqib, 1924-yilda Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.
Buyuk Britaniya 1925-yilda o‘tkazilgan Lokarno konferensiyasi tashabbuskorlaridan biri edi. Bu konferensiya Germaniyani G‘arb davlatlari bilan yarashtirishga xizmat qildi. Ayni paytda G‘arb davlatlari Germaniyaning Yevropa Sharqidagi erkin harakatiga to‘siq bo‘luvchi kafolatlar tizimini yaratmadi.
1927-yil 24-martda Buyuk Britaniya Xitoyga qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi. Uning maqsadi Xitoyda Chan Kayshi hokimiyatini to‘la qaror toptirish edi. 18-aprelda Nankinda Chan Kayshi hukumati qaror topdi.
30-yillarda Buyuk Britaniya tashqi siyosati ikki asosiy muammoga duch keldi. Bular, bir tomondan, fashistlar Germaniyasining Yevropadagi agressiv

tashqi siyosati, ikkinchi tomondan esa, imperiya mustamlakalarida kuchaygan milliy-ozodlik harakati muammolari edi.
Buyuk Britaniya Fransiyaning Yevropadagi ta’sirini zaiflashtirishda Germaniyadan foydalanishga intildi. Buning natijasi o‘laroq, 1935-yil 30-iyunda Buyuk Britaniya — Germaniya dengiz bitimi imzolandi. Bu bitimga muvofiq Germaniya Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining uchdan bir qismiga teng miqdorda dengiz floti tuzish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Bu Versal shartnomasining ochiqdan-ochiq buzilishi edi.
Fashistlar Germaniyasi Reyn viloyatiga qo‘shin kiritganda ham Buyuk Britaniya jim kuzatuvchiga aylandi. Bu jim kuzatuvchilik amalda Germaniyaga kelgusida ham shunday tajovuzlarni davom ettirishga ruxsat berish bilan barobar edi. 1936-yilda Ispaniyada Franko fashistik diktaturasi o‘rnatilishiga Germaniya yordam qo‘lini cho‘zgan paytda Buyuk Britaniya Ispaniya ishlariga aralashmaslik siyosatini yuritdi. Bu siyosat Ispaniyaning qonuniy hukumatiga qurol-yarog‘ eksport qilishni amalda to‘xtatib qo‘ydi va bu bilan Buyuk Britaniya Ispaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga ko‘maklashdi.
1937-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Konservatorlar partiyasi rahbari N. Chemberlen (1869—1940) o‘zining 3 yillik bosh vazirlik faoliyati davomida Gitlerni «tinchlantirish» siyosatining tashabbuskori bo‘lib maydonga chiqdi.
Shuning uchun ham Buyuk Britaniya Germaniyaning Avstriya, Chexoslovakiyani bosib olishiga amalda yordamlashdi. U bunday «kichik» yon berishlar bilan butun bir avlod uchun tinchlikni saqlab qolmoqdaman, deb qayta-qayta uqtirardi.
Biroq Germaniya birinchi navbatda Sovet davlatiga emas, G‘arb davlatlariga qarshi urush boshlashi to‘g‘risidagi rejasi haqidagi ma’lumotlar tez orada Buyuk Britaniyaga ma’lum bo‘lib qoldi. Endi Buyuk Britaniya zo‘r berib urushga tayyorlana boshladi. Harbiy xarajatlar ikki baravar oshirildi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya harbiy doktrinani faqat o‘zini emas,

balki Fransiyani ham himoya qilishga mo‘ljallab qayta tuzdi. 1939-yil 15-aprelda Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta tinch davrda umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Agar Germaniya Polshaga hujum qilsa, Buyuk Britaniya unga harbiy kuch bilan ham yordam beradigan bo‘ldi. Bunday kafolatlar Gretsiya, Ruminiyaga ham berildi.

Biroq N. Chemberlen hanuz Germaniya bilan til topishish umididan voz kechmagan edi. Uning maqsadi Germaniya agressiyasi tig‘ini Sovet davlatiga burib yuborish edi. Germaniya armiyasi Pragani egallagach, N. Chemberlen umidlari puchga chiqdi. Endi urush bo‘lishi muqarrar edi. Bu hol Buyuk Britaniyani Moskva bilan muzokaralar boshlashga majbur etdi. Biroq har ikki tomonning aybi bilan bu muzokaralar natijasiz tugadi. Xususan, Buyuk Britaniya va Fransiyaning maqsadi Sovet davlatiga bir tomon64lama majburiyat yuklash, uni Germaniyaga qarshi urushga tortish, o‘zlari esa chetda qolish edi.

Moskva esa bu orada Buyuk Britaniyaning Germaniya bilan dunyoni o‘z ta’sir doiralariga bo‘lib olish to‘g‘risida yashirin muzokaralar olib borayotganligi haqidagi ma’lumotlarni qo‘lga kiritdi. Natijada Sovet hukumati bunga javoban Germaniya bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi. Va 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan Sovet davlati o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma tuzildi. Sharqda o‘z mavqeyini mustahkamlab olgan Germaniya 1939-yil sentabrda Polshaga hujum qildi. 2—3-sentabr kunlari esa Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e’lon qildilar. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. Endi Buyuk Britaniya doiralari N. Chemberlenning «tinchlantirish» siyosatining mevasini tatib ko‘rishga majbur bo‘ldilar.

Buyuk Britaniyaning mustamlakalarida milliyozodlik kurashi hech vaqt to‘xtagan emas.

Dominionlar esa o‘z huquqlarining yanada kengaytirilishi uchun kurashganlar. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya mustamlaka va dominionlarda juda katta qo‘shin saqlashga majbur bo‘ldi. 1930-yil aprel oyida Hindiston Milliy Kongressi hind xalqini yana fuqaroviy bo‘ysunmaslikka chaqirdi. (Birinchi bosqich 1919—1922-yillar.) Bu narsa kuchli ommaviy namoyishni keltirib chiqardi. Ingliz ma’murlari bu namoyish rahbarlarini juda og‘ir jazolarga mubtalo etdi.

1931-yilda Buyuk Britaniya o‘z dominionlarining huquqlaridagi cheklashlarni bekor qilish haqidagi hujjatni joriy etishga majbur bo‘ldi. Bu hujjat Buyuk Britaniya tarixiga «Vestminster nizomi» nomi bilan kirgan. Hujjat dominionlarining ichki va tashqi siyosatda to‘la mustaqilligini e’lon qildi.

Endi dominionlar (Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya) qabul qilgan qarorlar Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan tasdiqlanmaydigan bo‘ldi. Shu tariqa shu vaqtgacha davom etgan qoida, ya’ni Buyuk Britaniya parlamentining dominionlarda qabul qilingan istalgan qonunni bekor qilish huquqi barham topdi. Biroq Buyuk Britaniya hukmron doiralari Hindistonga dominion huquqi berishga shoshilmadi. Ayni paytda hukumat dominionlarni mumkin qadar o‘z ta’sir doirasida saqlashga harakat qildi.

«Vestminster nizomi»ga ko‘ra, dominionlar Buyuk Britaniya bilan birgalikda «Britaniya Millatlar Hamdo‘stligi»ga birlashdilar. (Bu hamdo‘stlik hozirgi kunda ham mavjud. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi sobiq dominionlarda hamon davlat boshlig‘i Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadi.) 30-yillarda Irlandiya masalasi yana keskinlashdi. 1937-yilda Janubiy Irlandiya Mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Shimoliy Irlandiya esa imperiya tarkibida qolaverdi.

Mustamlaka va dominionlardagi ahvol

65

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi Buyuk Britaniya uchun qanday oqibatlar keltirdi?
2. 1918—1929-yillardagi Buyuk Britaniya iqtisodiy taraqqiyoti haqida nimalarni bilib oldingiz?

3. Buyuk Britaniya ichki siyosiy hayoti qay yo‘nalishda davom etdi?
4. 1918—1923-yillardagi Buyuk Britaniya tashqi siyosati asosiy yo‘nalishlari haqida so‘zlab bering.
5. Jahon iqtisodiy inqirozining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari nimalardan iborat bo‘ldi va hukumat inqirozdan chiqish uchun qanday favqulodda choralarni ko‘rdi?
6. 1924—1939-yillarda Buyuk Britaniya tashqi siyosatida ro‘y bergan asosiy voqealar haqida nimalarni bilib oldingiz?
7. N. Chemberlenning Germaniyani tinchlantirish siyosati qanday oqibatlarga olib kelgan edi?
8. Buyuk Britaniya o‘z mustamlakalari va dominionlariga nisbatan tutgan siyosatining mohiyatini nima belgilar edi?

DARSLIK MATNI BILAN ISHLASH

Fransiya va Buyuk Britaniyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz, uning oqibatlari va inqirozni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan choralarni qiyoslash jadvalini to‘ldiring

Fransiyada	Buyuk Britaniyada

7-§. Italiya va Ispaniya

Italiya ham urushda g‘olib davlatlardan biri edi. Biroq bu g‘oliblik unga juda qimmatga tushgan. Italiya urushda 650 ming fuqarosini yo‘qotdi. 800 mingdan ortiq kishi mayib-majruh bo‘lib qoldi. Mamlakat harbiy xarajatlari 46 mlrd lirni tashkil etdi. Urush mamlakatni moliyaviy jihatdan holdan toydirdi. Ayni paytda Italiya Buyuk Britaniyadan 2,5 mlrd, AQSHdan esa 1,5 mlrd dollar qarz bo‘lib qoldi. Shu tariqa Italiyaning chet el mahsulotlariga, kreditlarga qaramligi yanada kuchaydi.

Urushgacha ham qishloq xo‘jaligi Italiya iqtisodiyotining nihoyatda qoloq sohasi edi. Urush esa bu sohani yanada xarob qildi. Yer egaligida o‘rta asrchilik qoldiqlari hamon davom etardi. Chunonchi, 40 ming yirik yer egalari 10 mln gektar yerga egalik qilgani holda, 2,5 mln dehqon atigi 6 mln gektar yerga egalik qilardi. Dehqon oilalarining deyarli yarmida hech qanday yer yo‘q edi. Ular og‘ir shartlar asosida ijaraga yer olib hayot kechirganlar. Italiyaning janubida (Sitsiliya va Sardiniyada) ahvol undan ham og‘ir edi.

Birinchi jahon urushining Italiya uchun oqibatlari ?

Davlat qarzining ko‘pligi soliqlarni keskin oshirishga olib keldi. Pul qadrsizlandi, natijada narx-navo dahshatli tarzda o‘sib bordi. Mamlakatda ocharchilik ro‘y berdi. Buning ustiga urush natijalari Italiyani g‘oliblar ichida mag‘lub davlatga aylantirib qo‘ydi. Ma’lumki, Italiya dastlab «Uchlar ittifoqi»ning a’zosi bo‘lgan edi. Jahon urushi boshlangach Italiya kutib turish yo‘lini tutdi. Bundan foydalangan Antanta, katta va’dalar berib, Italiyani o‘z tomoniga og‘dirishga muvaffaq bo‘lgan edi.

Ammo Parij sulh konferensiyasida Buyuk Britaniya va Fransiya o‘z va’dalari ustidan chiqmadi. Ya’ni, ular va’da qilingan hududlarni Italiyaga bermadi. To‘g‘ri, Italiya nasibadan quruq qoldirilmadi. Chunonchi, sobiq Avstriya — Vengriya imperiyasiga qarashli Janubiy Tirol va Adriatika sohilidagi Triyest porti, Yugoslaviyaning ba’zi hududlari, shuningdek, Turkiyaga qarashli Dodekanes oroli Italiyaga berildi. Ayni paytda Italiya Millatlar Ligasining doimiy a’zosi maqomiga ega bo‘ldi. Shuningdek, unga Fransiya harbiy-dengiz floti qudratiga teng flotga ega bo‘lish huquqi berildi. Biroq hukmron doiralar uchun bular oz bo‘lib ko‘rindi. Oz ulush tekkanidan arazlagan Italiya bosh vaziri Orlando Parij tinchlik konferensiyasidan ketib qolgan edi. G‘oliblar ichidagi bunday mag‘lubiyat Italiya aholisi ruhiyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Urushning Italiya uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan bunday oqibatlari mamlakatda siyosiy inqirozni yanada chuqurlashtirib yubordi.

Shunday bir sharoitda Italiyada chuqur islohotlar o‘tkazish yo‘li bilan jamiyatni iqtisodiy va siyosiy inqirozdan chiqarib keta olishga qodir bo‘lgan biror-bir yetakchi siyosiy partiya yo‘q edi. Binobarin, Italiyada kuchli parlamentarizm an’analari bo‘lmagan. Bu omil, o‘z navbatida, Italiyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga yo‘l ochdi.

Italiyaning yirik siyosiy arboblaridan biri Orlando 1917-yilning oktabrida bosh vazir lavozimini egallagan. Orlando hukumati Italiyaning jahon urushida qatnashishini davom ettirdi. Bu hukumat Antantaning Sovet Rossiyasiga qarshi kurashida Italiya ishtirokining tarafdori bo‘ldi. Shuning uchun ham 1918-yili o‘z qo‘shinlarini Odessa, Murmansk va Vladivostokka yubordi.

Antantaning Sovet hukumatini harbiy yo‘l bilan bo‘g‘ib tashlashga urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchraganligi avvalgi mavzulardan ma’lum. Chunonchi, Italiyaning g‘oliblar ichida mag‘lub bo‘lib qolishi Orlando hukumatining katta yo‘qotishi edi va uning obro‘sini tushirib yubordi. Chunki Italiya o‘zi da’vo qilgan Dalmatsiya, Valoniya, Simernadan birortasini ham ololmadi. Buning ustiga, Turkiyaga qarashli Simernani bosib olish uchun 1919-yilning may oyida hujum boshladi va mag‘lubiyatga uchradi.

Bundan tashqari, Italiya Albaniyani ham tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. Hukumat tashqi savdo bozorlarining qo‘ldan ketishi hamda tashqi kredit uzilib qolishining oldini ololmadi. Natijada urushdan biroz keyin mamla-

Orlando hukumatining ichki va tashqi siyosati

katda iqtisodiy inqiroz boshlandi. Oqibatda ish haqi keskin pasaydi, inflatsiya kuchaydi. Armiya safidan bo‘shatilgan harbiylar ishsiz qoldilar. Ana shunday sharoitda (1919-yil iyun oyida) Orlando hukumati iste’fo berishga majbur bo‘lgan.

1919-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan parlament saylovida Italiya Sotsialistik partiyasi g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, bu mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatni yumshatishga olib kelmadi.

1919—1920-yillar Italiya tarixiga ham «Qizil ikki yillik» nomi bilan kirdi. Bu ibora shuni bildiradiki, shu ikki yil ichida Italiyada ham Sovet Rossiyasida (bolsheviklar qizil deb ham atalardi) amalda oshirilgan ba’zi tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi, Shimoliy Italiyada ishchilar zavod va fabrikalarni egallab oldilar va ishlab chiqarish ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatdilar. Zavod va fabrikalarni qo‘riqlash uchun qizil gvardiya tuzdilar.

Italiya armiyasi mamlakat ichkarisidagi siyosiy voqealarga nisbatan o‘z betarafligini e’lon qilganligi uchun hukumat ishchilarning bunday «o‘zboshimcha»ligini bostirish uchun armiyani yubora olmadi. Natijada hukumat va korxona egalari yon berishga majbur bo‘ldilar. Xususan, 8 soatlik ish vaqti belgilandi. Narxlar o‘sishining aholiga ko‘rsatadigan oqibatini pasaytirish maqsadida ish haqiga qo‘shimcha to‘lov (kompensatsiya) to‘lanishi e’lon qilindi.

Yer egalariga yollanib ishlovchilar, ijaraga yer olib ishlovchilar uchun shartlar nisbatan yengillashtirildi. Mamlakat janubida dehqonlar yer egalaridan tortib olgan yerlarning bir qismi ularga qonunlashtirilib berildi.

1920-yilda Italiya mehnatkashlari hokimiyatni egallab olish imkoniga ega bo‘ldilar. Biroq ularning harakatini uyushtirishga qodir, bu ishni parlament yo‘li bilan amalga oshirish tomon yetaklaydigan jiddiy siyosiy partiya yo‘q edi.

1892-yildan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Italiya Sotsialistik partiyasi uch oqimga bo‘linib ketgan edi. Partiya mehnatkashlarning hokimiyatni egallashlariga qarshi edi. 1919-yilda tashkil topgan hamda o‘z dasturiga kirgan ikki muhim va’da bilan (1. Yer egalaridan haq to‘lab bir qism yerlarni olish va uni dehqonlarga bo‘lib berish. 2. Mehnat uchun adolatli haq to‘lash) omma orasida obro‘-e’tibor qozonib borayotgan «Xalq partiyasi» ham mustahkam emas edi. O‘z navbatida, bu partiya ham noqonuniy yo‘l bilan

hokimiyatni egallashga qarshi edi. 1920-yilda Italiyada inqilobiy harakatning yanada kuchayishi Orlandodan keyin bosh vazirlik lavozimini egallagan Nitti hukumatini ham bir yil o‘tmay iste’fo berishga majbur etdi (1920-yil iyun). Yangi tuzilgan Jolitti hukumati inqilobiy harakat to‘lqinini pasaytirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari narxini 50 foizga kamaytirdi. Oxir-oqibatda ishchilarning kasaba uyushmasi va hukumat inqilobiy harakatni chuqur islohotlar o‘tkazishga va’da berish yo‘li bilan pasaytirishga

Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi

erishdilar. Biroq mamlakatda ro‘y bergan «qizil ikki yillik» hukmron doiralarni cho‘chitib qo‘ydi. Ular kommunistik — qizil to‘ntarish xavfidan dahshatga tushdilar va mamlakatda kuchli diktatura o‘rnatishga intila boshladilar.

Bu, o‘z navbatida, Italiyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga yo‘l ochdi. Avvalgi sahifalarda aytib o‘tilganidek, 1919-yilda Italiyada frontdan qaytgan sobiq askarlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun «Quroldoshlar uyushmasi» (Fashi di kombattimento) deb atalgan tashkilot tuzgan edilar. Bu tashkilotni Benito Mussolini (1883—1945) boshqargan. Bu tashkilot Italiyada fashizm g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. Benito Mussolini dastlab sotsialist edi. Burjua parlamentarizmining mamlakatda tartib o‘rnatishdagi ojizligi, urushdan keyin o‘z turmush darajasining yaxshilanishiga umid qilgan millionlab fuqarolar orzu-umidlari puchga chiqqanligi, shuningdek, Italiya hukmron doiralarining urush natijalaridan qanoatlanmaganligi fashizmni yuzaga chiqargan omillar edi. Xuddi shu omillar ko‘pchilik italyanlarning fashistlar mafkurasi tomon og‘ishiga sabab bo‘ldi.

Shu tariqa Italiyada boshqaruvning qattiqqo‘llik shaklini o‘rnatishga chaqirayotgan yangi yo‘lboshchi — Mussolini siyosiy kurash maydonida paydo bo‘ldi. Italiyada fashizmning tezda muvaffaqiyat qozonishida Mussolinining shaxsiy sifatlari ham juda katta rol o‘ynagan. U kuchli notiqlik qobiliyatiga ega edi. Mussolini fashizmni o‘ziga xos dinga aylantira olgan shaxs sifatida mashhur. U ko‘p ming kishilik mitinglarda yirik mulkdorlarning mehnatsiz daromadlarini, amaldorlarning suiiste’mollarini, birorta ham muammoni hal etishga qodir bo‘lmagan Italiya parlamentini ayovsiz tanqid qilar edi. Ayni paytda u Italiyaning Qadimgi Rim imperiyasi davridagi qudratini tiklashga va’da berar edi. O‘zini esa bo‘lajak imperiyaning dohiysi deb bilar, shuning uchun ham qadimgi rimliklarning «duche» (dohiy) so‘zini o‘ziga laqab qilib olgan edi. Uning otashin, jozibador so‘zlari sehrlab qo‘ygan miting qatnashchilari «boshla bizni, duche» deb xitob qilar edilar.

Mussolini fikricha: «Italiyada yangi tartib — milliy sotsializm» hukmron bo‘lishi kerak edi. Bunday sotsializmda davlat har qanday sinfiy manfaatdan ustun turadi. Va u nihoyatda kuchli bo‘ladi hamda mehnat bilan sarmoyaning hamkorligini ta’minlaydi.

Ayni paytda davlat mehnat va sarmoya yagona hamkorligi birlashmasi (korporatsiya) ni tashkil etadi. Binobarin, Italiya yagona korporatsiyaga, ya’ni butun Italiya jamiyati manfaatlarini himoya qiluvchi birlashmaga aylanadi.

Bu korporatsiyada barcha — sarmoyadorlar va ishchilar, yer egalari va dehqonlar, aholining qolgan qatlamlari bir oila a’zolariga birlashadilar va mehnat qiladilar. Davlat esa bu oila barcha a’zolarining manfaatlari va

maqsadlari birligini kafolatlaydi. Ana shunday jamiyatdagina uning a’zolari barcha og‘ir muammolardan tezda xalos etiladi. Italiya aholisining katta qismi Mussolinining va’dalariga ishondi va uni qo‘llab-quvvatlay boshladi. 1920-yildan boshlab fashistlar yanada faollashdilar va ular o‘zlarining harbiy otryadlarini tuza boshladilar. Italiya Sotsialistik partiyasi va Umumiy Mehnat Konfederatsiyasi fashizmga qarshi kurash o‘rniga, 1921-yilning 3-avgustida Mussolini bilan «totuvlik pakti»ni imzoladilar. Ishchilar tashkilotlarining bunday yo‘l tutishi fashizmni yanada kuchaytirdi va u yetakchi

siyosiy kuchga aylana bordi.
1922-yilgi parlament saylovlarida ular 35 o‘ringa ega bo‘lsalar-da, mahalliy saylovlarda katta muvaffaqiyatga erishdilar. 1922-yil oktabr oyida ular bir necha vazirlik lavozimlarini talab qilib Rimga yurish uyushtirdilar. Bu amalda mavjud Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi isyon edi. Hukumat isyonni bostirish chorasini ko‘rmadi. Buning sababi — yirik sarmoyadorlar asosiy ko‘pchiligining hukumatga tazyiq o‘tkazganligi edi. Yirik sarmoyadorlar hokimiyatni Mussoliniga topshirish tarafdori edilar.
Masalan, mamlakat hayotida eng katta ta’sirga ega bo‘lgan «Sanoat bosh konfederatsiyasi» rahbarlari qirol Viktor-Emmanuel III ga telegramma yuborib, undan hokimiyat Mussoliniga berilishini talab etdilar. Qirol bunga javoban Mussolinini Bosh vazir etib tayinladi va 1922-yil 30-oktabr kuni Mussolini koalitsion hukumat tuzdi. Shu tariqa Italiyada fashizm qonuniy yo‘l bilan hokimiyat tepasiga keldi.
Parlamentda (420 o‘rinli) atigi 35 o‘ringa ega bo‘lgan fashistlar yetakchisi Mussolini dastlab boshqa siyosiy kuchlar bilan murosa qilishga majbur bo‘lgan. Ayni paytda yirik sarmoya egalarining qo‘llab-quvvatlashi orqali u o‘z hokimiyatini tobora mustahkamlab bordi. Chunonchi, qirol va parlament 1922-yilning 23-noyabrida Mussoliniga cheklanmagan huquq berdi. Endi u o‘z partiyasi a’zolaridan tuzilgan «Katta fashist kengashi» deb atalgan kengash orqali hukumat faoliyatini nazorat ostiga oldi. Tayyorlanayotgan qonun loyihalari shu kengash nazoratidan o‘tar edi. Barcha lavozimlarga Mussolini partiyasi a’zolari tayinlanadigan bo‘ldi.
1924-yil oxirida Mussolinining tazyiqi ostida saylov to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritildi. Unga ko‘ra, saylovda eng ko‘p ovoz olgan partiya parlamentdagi deputatlar o‘rnining uchdan ikki qismini egallar edi. Yangi qonun bo‘yicha 1924-yildagi parlament saylovida Mussolini partiyasi g‘alaba qozongan. Shu tariqa mamlakatda Mussolinining fashistik diktaturasi qaror topdi.
1926-yildan boshqa siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi. Endi Italiya bir partiyali diktatorlik davlatiga aylandi. 1929-yili Mussolini Vatikan bilan shartnoma imzoladi. Unga ko‘ra, Rim (Vatikan) papasi diniy hukmdor deb tan olindi va katoliklik milliy din deb e’tirof etildi, cherkov mulki soliqlardan ozod etildi.

Ichki siyosatda iqtisodiyot masalasiga alohida e’tibor berildi. Mussolinining maqsadi iqtisodiyotda korporativ tartibni to‘la qaror toptirish edi. Shu maqsadda 1927-yilda «Mehnat xartiyasi» deb nomlangan hujjat qabul qilindi.
Iqtisodda joriy etilgan korporativ tartibga ko‘ra, ishlab chiqarish muammolarini birgalikda hal etish uchun ishchilar va sarmoyadorlar yagona Kasaba uyushmasining teng huquqli a’zosiga aylandi. Xalq xo‘jaligi bo‘yicha turli sohalarda 22 ta korporatsiya tuzildi va ular Korporatsiyalar Milliy Kengashiga birlashtirildi. Milliy Kengash tarkibi ishbilarmonlardan va fashistlar partiyasi vakillaridan iborat edi. Korporatsiyalar yirik mulkdorlar mavqeyiga putur yetkazgani yo‘q.
Ayni paytda Italiya iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi ortib bordi. Bu Italiya fashizmining o‘ziga xos belgilaridan biri edi.
Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishni davlat qo‘liga olib berishni ta’minlaydigan ikkita muassasa tuzildi. Uning biri Sanoatni tiklash instituti deb atalardi. U davlatning yirik trestiga aylanadi. Masalan, cho‘yan eritishning 90 foizi, po‘lat ishlab chiqarishning 70 foizi, mashinasozlikning 25 foizi shu trestga qarashli edi. Bundan tashqari, butun savdo floti, fuqaro aviatsiyasi, telefon, aloqa, avtomobil yo‘llari ham shu trestga qaraydigan bo‘ldi.
Ikkinchi muassasa Suyuq yoqilg‘i bo‘yicha Milliy boshqarma deb atalgan. Unga gaz qazib olishning 75 foizi, sun’iy kauchuk ishlab chiqarishning 100 foizi, neftni qayta ishlash zavodlarining 30 foizi qaragan.
Hukumat yirik monopoliyalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lidan bordi. Ularni inqiroz oqibatlaridan saqlab qolish va moliyaviy yordam ko‘rsatishni tashkil etdi, kasodga uchrashi mumkin bo‘lgan banklarning aksiyalarini davlat sotib oldi va shu tariqa ularni sinishdan saqlab qoldi.
1929-yilda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi kam taraqqiy etgan Italiya

iqtisodiyotini nihoyatda og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Inqiroz 1932-yilda o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Shu yili sanoat ishlab chiqarishi 1929-yilga nisbatan 33 foizga qisqardi.
Tashqi savdo 3 baravar kamaydi. 12 mingga yaqin mayda va o‘rta korxona bankrot bo‘ldi. Ishsizlar soni 1 mln kishidan ortdi. Oylik ish haqi 50—60 foizga kamaydi. Inqiroz dehqon xo‘jaliklarini ham xonavayron qildi. O‘n ming gektarlab yer maydonlari sudlarning hukmi bilan qarz berganlarga o‘tkazildi. 1933-yilga kelibgina ishlab chiqarishning pasayishi to‘xtatildi. 1937-yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1929-yil darajasiga yetdi.
Davlat xo‘jalik hayotini tashkil etar ekan, avtarkiya xo‘jaligi yo‘lini tanladi. Avtarkiya xo‘jaligi — bu, barcha zarur mahsulot turlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlaydigan xo‘jalik. Bunday xo‘jalikda importga ko‘z tikilmaydi. 1934—1935-yillarda Italiyada tashqi savdoda davlat monopoliyasi joriy etilganligi ham shu bilan izohlanadi.
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari importiga qaram bo‘lib qolmaslik maqsadida davlat qat’iy belgilangan narxlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib

oladigan bo‘ldi. Bu esa dehqonlarni mahsulot sotishning kafolatlangan bozori bilan ta’minladi. Ayni paytda o‘n minglab dehqon xo‘jaliklarini inqirozdan saqlab qoldi.
1937-yilga kelib Italiya industrial-agrar davlatga aylandi. Biroq, baribir, u iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha boshqa rivojlangan davlatlar — AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyadan orqada qolaverdi.
30-yillar davomida siyosiy hayotda ham totalitar diktatura to‘la qaror topdi. Demokratiyaning barcha ko‘rinishlari, jumladan, parlament ham tugatildi.
Parlament o‘rniga fashistlar partiyasi va korporatsiya vakillari palatasi tuzildi. Uning deputatlari davlat tomonidan tayinlanadigan bo‘ldi va fashist partiyasi davlat tizimi bilan qo‘shilib ketdi. Partiya davlat xizmatini bajaruvchi fuqaro militsiyasiga aylandi.
Ommaviy axborot vositalari to‘la fashist davlati xizmatiga bo‘ysundirildi. Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari B. Mussoliniga — Duchega sodiqlikka qasamyod qildirildi. Barcha vositalar yordamida fashist mafkurasi ommaga singdirildi.
B. Mussolini ilohiylashtirildi. U o‘zining nutqlarida fashizm demokratiya tufayli buzilgan Yevropani yangilaydi va sog‘lomlashtiradi, deb qayta-qayta uqtirar edi. Yosh avlod fashistlarning bolalar va o‘smirlar tashkilotlariga jalb etildi.
Mussolini tashqi siyosatining asosiy maqsadi Buyuk Italiya davlatini barpo etish orzusiga bo‘ysundirilgan edi. Bu davlat butun O‘rta dengiz bo‘ylarini o‘z ichiga olishi va u Buyuk Italiyaning ichki dengiziga aylanishi hamda Qadimgi Rim imperiyasi tarkibiga kirgan barcha hududlarni birlashtirishi lozim edi.
1923-yilda Italiya Gretsiyaga qarashli Korfu orolini bosib oldi. Biroq Buyuk Britaniyaning talabi bilan orolni tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. 1924-yilda Yugoslaviyaga qarashli Fiuma porti Italiyaga o‘tdi. Italiya shu yili Sovet Rossiyasini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.
1927-yilda Albaniya ustidan amalda o‘z protektoratini o‘rnatdi. 1935-yil 3-oktabrda 600 ming kishilik Italiya armiyasi Efiopiyaga bostirib kirdi. 1936-yil may oyiga kelib Efiopiyani bosib olish nihoyasiga yetdi. Shu yil yozida Italiya armiyasi Ispaniyada fashistik diktatura o‘rnatish uchun general Frankoga yordamga yuborildi. Chunki Gitler Frankoni qo‘llab-quvvatlar edi. Shu tariqa Germaniya bilan yaqinlashuv boshlandi.
1937-yilda u Germaniya va Yaponiya o‘rtasida imzolangan «Antikomintern pakti» ga qo‘shildi. B. Mussolini bu paktni butun Yevropa uning atrofida birlashsa arziydigan ahdnoma, deb atadi. Ushbu bitimga ko‘ra, Germaniya Italiyaning Efiopiyani bosib olganligini tan oldi. 1939-yil aprelda Italiya Albaniyani butunlay bosib oldi.
Mamlakatda totalitar

diktaturaning qaror
topishi
Mussolinining tashqi
siyosati
72
Shu tariqa fashistik davlatlar o‘zlarining bosqinchilik siyosatlari bilan Ikkinchi jahon urushini tobora muqarrar qilib qo‘ydilar.
Ispaniya
Ispaniya Birinchi jahon urushida betaraf qoldi. Bu hol unga urushayotgan har ikki harbiy-siyosiy ittifoqqa kiruvchi davlatlar bilan muvaffaqiyatli savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirishga imkon berdi. Eksport hajmi import hajmidan yuqori bo‘ldi. Buning natijasida mamlakat oltin zaxirasi 4 baravar ko‘paydi.
Urush yillarida harbiy buyurtmalar salmog‘ining oshishi, o‘z navbatida, sanoatdagi ayrim tarmoqlarning gurkirab rivojlanishini ta’minladi. Shunday bo‘lsa-da, Ispaniya, baribir, kam taraqqiy etgan, agrar-industrial davlat bo‘lib qolaverdi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida o‘rta asrchilik munosabatlarining qoldiqlari hamon kuchli edi. Barcha yer maydonining uchdan ikki qismi yirik yer egalari va mamlakat hayotida katta ta’sirga ega bo‘lgan katolik cherkovi ixtiyorida edi. Millionlarcha dehqon xo‘jaliklariga esa atigi uchdan bir qism yer tegishli edi.
Yersizlar ham ko‘p bo‘lib, ular asoratli shartlar asosida yerni ijaraga olardilar. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi juda past bo‘lgan.
Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli chet el kapitali kiritilishiga sezilarli darajada bog‘liq edi. Chunonchi, sanoatga joylashtirilgan chet el kapitalining 54 foizi ingliz, 34,5 foizi fransuz kapitali edi. Ispaniya taraqqiyotining bunday orqada qolishi o‘rta asrchilik tartiblari hamon kuchli darajada saqlanib qolayotganligi bilan izohlanar edi.
Katta yer egalari hamda ularning tayanchi bo‘lgan armiya va katolik cherkovi o‘zlarini asrlar davomida qaror topgan tartiblar qo‘riqchisi, deb hisoblardi. Shuning uchun ham yangilikka bo‘lgan har qanday intilishlarni mamlakat milliy manfaatiga solinayotgan tahdid, deb qabul qildilar. Ayni paytda ularni yo‘qotish uchun barcha vositalarni ishga soldilar. Mamlakatda harbiylarning o‘rni tobora ortib bormoqda edi. Vujudga kelgan «harbiy xuntalar» (harbiylar to‘dasi) XX asrda mamlakat siyosiy hayotiga tez-tez aralashib turish quroliga aylangan.
Ispaniya urush harakatlarida qatnashmagan bo‘lsa-da, urush mamlakat aholisi turmush darajasini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Chunonchi, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 65 foizga ortdi. Inflatsiya kuchaydi va real ish haqi kamaydi. Buning oqibatida 1917-yil 13-avgustda mamlakatda yalpi siyosiy ish tashlash ro‘y berdi. Namoyishchilar monarxiyani tugatishni, Ta’sis Majlisi chaqirishni va Respublika hukumatini tuzishni talab qildilar. Ish tashlash shiddatli ko‘cha janglariga aylanib ketdi. Hukumat mamlakatda qamal e’lon qildi va armiyaning kuchi bilan tartib o‘rnatdi.
Birinchi jahon
urushining
Ispaniyaga ta’siri
Harbiy fashistik
diktatura o‘rnatilishi
73
1918—1920-yillarda Ispaniyada inqilobiy harakat to‘lqini yanada kuchaydi. Bu hol hukmron doiralarni sarosimaga solib qo‘ydi. Shu yillar davomida hukumat 8 marta almashdi. Hukumat yetilgan dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga ojizlik qildi. Vujudga kelgan bu ahvol mamlakatda harbiy diktatura o‘rnatilishi xavfini tug‘dirdi.
Hukumat ijtimoiy harakatni bostirish uchun qanchalik harakat qilmasin, baribir, qator talablarni bajarishga majbur bo‘ldi. Chunonchi, 1920-yilning aprel oyidan boshlab 8 soatlik ish kuni joriy etildi. Ish haqi oshirildi, bolalar mehnati taqiqlandi. Qarilik va nogironlik sug‘urtalari joriy etildi.
Ayni paytda hukmron doiralarning qo‘llab-quvvatlashi natijasida ispan

fashistlari o‘z qurolli tashkilotlarini tuza boshladilar. Ularning asosiy vazifasi xalq harakatini bostirish edi. Hukumatning shafqatsiz terrori tufayli 1921-yilga kelib ijtimoiy harakatning pasayishiga erishildi. Biroq bu hol ko‘pga cho‘zilmadi. Mustamlakalarda ham harakat kuchaydi. 1921-yilning iyunida hukumat Ispaniyaning mustamlakasi — Marokashda boshlangan milliyozodlik harakatini bostirish uchun armiya yubordi. Biroq Ispaniya armiyasi tor-mor etildi hamda 25000 jangchi asirga tushib qoldi. Bu mag‘lubiyat mamlakatda urushga qarshi harakat boshlanishiga turtki bo‘ldi. Norozilik hatto armiya ayrim qismlarida ham ro‘y berdi.

1922—1923-yillarda ish tashlash harakati yana kuchaydi, hukumat terrorni to‘xtatishga hamda xuntalarni tarqatib yuborish to‘g‘risida qonun qabul qilishga majbur bo‘ldi.

Ayni paytda, 1923-yil aprelida parlamentga qayta o‘tkazilgan saylovda Liberal partiya g‘alaba qozondi. Siyosiy voqealarning bu tarzda rivojlanishi qirol saroyini, hukmron doiralarni tashvishga solib qo‘ydi va ular o‘z hokimiyatini mamlakatda harbiy diktatura o‘rnatish yo‘li bilan saqlab qolishga qaror qildilar.

Natijada 1923-yilning 13-sentabrida Kataloniya harbiy okrugi qo‘mondoni general Primo de Rivera tomonidan davlat to‘ntarishi amalga oshirildi. Hokimiyat harbiy direktoriya qo‘liga o‘tdi. Shu tariqa Ispaniyada harbiyfashistik diktatura o‘rnatildi (1923—1930).

Primo de Rivera 1924-yilda «Vatanparvarlik ittifoqi» deb nomlangan fashistik partiyani tuzdi. Bundan ko‘zlangan maqsad diktaturaning ijtimoiy tarkibini kengaytirish edi. Bunga partiya safiga mayda va o‘rta mulkdorlarni jalb etish orqali erishish ko‘zda tutilgandi. Bundan tashqari, Primo de Rivera mehnat bilan sarmoyaning hamkorligini ta’minlash maqsadida «Baravarlik komissiyasi» tuzdi va komissiyaga har ikki tomondan teng miqdorda vakillar kiritildi.

Bu komissiya mehnat sharoiti va ish haqi masalasini hal etishi kerak edi. 1926-yilda ijtimoiy sug‘urta va ishsizlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi korporatsiya tuzildi. Ayni paytda diktatura ijtimoiy harakatni shafqatsizlik bilan bostirish yo‘lini tutdi.

Primo de Rivera o‘z diktaturasiga qonuniy tus berishga harakat qildi. Shu maqsadda 1925-yil dekabrda direktoriyani Ministrlar kabineti bilan almashtirdi va mamlakatda yangi Konstitutsiyani ishlab chiqishga kirishildi. Primo de Rivera Italiya fashizmi bilan yaqinlasha boshladi. 1926-yilning 7-avgustida u bilan do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzoladi.

U tashqi siyosatda mustamlakalarni qanday bo‘lmasin saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda milliy-ozodlik harakatini bostirish yo‘lini tutdi. Xususan, Fransiya bilan birgalikda 1927-yilda Marokash xalqining milliyozodlik harakatini qonga botirdi. Biroq ichki va tashqi siyosatda qo‘llangan usullar Primo de Rivera diktaturasini saqlab qola olmadi.

1929-yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi og‘ir ahvolda bo‘lgan Ispaniya iqtisodiyotini izdan chiqardi. Davlat qarzi keskin ko‘paydi. Keng miqyosda korrupsiya avj oldi.

Mamlakatda inqilobiy portlash ro‘y berishining oldini olish maqsadida harbiy generalitet yanvar oyida Primo de Riverani iste’fo berishga majbur etdi. Ispaniya jamiyati bu davrda mamlakatni rivojlantirish uchun monarxiyani tugatish va respublika o‘rnatish, agrar islohot o‘tkazish, katolik cherkovi hukmronligiga barham berish, armiyani demokratlashtirish, aholi turmush darajasini oshirish, milliy masalani hal etish kabi muammolarni yechishga muhtoj edi, chunki bu muammolarni hal etmay turib Ispaniyada siyosiy barqarorlikni ta’minlab bo‘lmas edi. Iqtisodiy inqiroz bu muammolarni yanada chuqurlashtirib yubordi.

Mamlakatda ish tashlash harakati yangi kuch bilan quloch yoydi. 1930-yilda bu tadbirda 1 mln dan ortiq ishchi qatnashdi. Bunday sharoitda, hatto yirik sarmoyadorlar ham, 1876-yilgi Konstitutsiyani qayta ko‘rib chiqish tarafdori bo‘ldilar. Ularning maqsadi kortes (parlament)ning huquqi oshirilishiga erishish edi. Sarmoyadorlar o‘z mavqelarini saqlab qolishning yo‘li monarxiyaga barham berish ekanligini tobora chuqur angladilar.

Mamlakatda respublikachilik harakati kuchaydi.
1931-yil 12-aprelda bo‘lib o‘tgan mahalliy saylovlarda respublikachilar g‘alaba qozondi. Saylov yakuni haqidagi xabar siyosiy kurashning rivojlanishiga turtki berdi. Mamlakatda burjua-demokratik inqilobi yuz berdi. 14-aprel kuni inqilobchilar qirol hokimiyati ag‘darilganligini e’lon qildilar. Buni eshitgan va yengilishiga iqror bo‘lgan qirol Alfonso XIII shu kuni taxtdan voz kechdi va mamlakatdan qochib ketdi.
1931-yil iyun oyida Ta’sis Majlisiga saylov bo‘lib o‘tdi. Unda respublikachi partiyalar va sotsialistlar g‘alaba qozonishdi. Mamlakatda sotsialistlar va so‘l respublikachilarning M. Asanya boshliq koalitsion hukumati tuzildi. 9-dekabrda mamlakatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya Ispaniyani «barcha mehnatkashlar respublikasi» deb e’lon qildi. Mamlakatda chuqur islohotlar o‘tkazilishi belgilandi. Chunonchi, agrar islohot haqida qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, yirik yer egalarining yerlari
1931-yil inqilobi.
Monarxiyaning
qulashi
75
uning haqini to‘lash evaziga musodara qilinishi ko‘zda tutildi. Bundan tashqari, eng og‘ir majburiyatlar bekor qilindi. Ijara haqi kamaytirildi. Milliy masala qisman hal etildi, ya’ni faqat Kataloniyaga cheklangan avtonomiya berildi, xolos. Koalitsion hukumat ishchilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan ba’zi tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 8 soatlik ish kuni belgilandi. Ijtimoiy sug‘urta haqida qonun qabul qilindi.
Tashqi siyosatda Ispaniya Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Italiya bilan tuzilgan do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomani bekor qildi. 1933-yilda Sovet davlati bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.
So‘l kuchlar koalitsion hukumatining ichki va tashqi siyosatdagi tadbirlari o‘ng kuchlarni tashvishga solib qo‘ydi. Ular qanday bo‘lmasin hokimiyatni egallashga bel bog‘ladilar. Shu maqsadda 1932-yilda «Ispaniya avtonom o‘nglar konferensiyasi» (SEDA)ga birlashdilar. Bu tashkilotda sarmoyadorlar, cherkov va harbiy doiralar bilan hamkorlik qilayotgan katta yer egalari yetakchilik qilardilar. Bu tashkilotni ayni paytda dehqonlarning o‘ziga to‘q qismi ham qo‘llabquvvatlay boshladi.
Fashistlar esa 1933-yilda «Ispan falangasi» deb atalgan partiya tuzdilar.
O‘ng kuchlar faollashuviga xalq ommasining so‘l kuchlar hukumati (Asanya hukumati) siyosatidan noroziligi ham sabab bo‘lgan. Hukumatning islohotlarni o‘tkazishdagi qat’iyatsizligi xalq ommasi ko‘z o‘ngida uning obro‘sini to‘ka boshladi. Xususan, agrar islohot nihoyatda sustkashlik bilan hayotga yarim-yorti tatbiq etila boshladi. Masalan, 2 yil davomida atigi 7 mingdan ortiq dehqon xo‘jaligi yer ololgan, xolos.
Buning ustiga iqtisodiy inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Natijada ishsizlar soni 1,5 mln kishini tashkil etdi. Hukumat milliy masalada ham jiddiy o‘zgarishlar qila olmadi. Armiyani demokratlashtirish haqidagi va’dalar qog‘ozda qoldi. Katolik cherkov qudratli kuch bo‘lib qola berdi.
1933-yilning oxirida o‘tkazilgan parlament saylovlarida o‘ng partiyalar g‘alaba qozondilar. Shu tariqa, Ispaniyada fashistik to‘ntarish bo‘lishi tobora oydinlasha bordi. O‘nglar hukumati avvalgi islohotlarga qarshi tadbirlar o‘tkaza boshladi. Chunonchi, cherkovga qarshi qonun bekor qilindi va ruhoniylarga beriladigan davlat subsidiyasi tiklandi. Bu oddiy ruhoniylarni xonavayron bo‘lish va qashshoqlikdan saqlab qoldi. Minnatdorchilik ramzi sifatida, ruhoniylar o‘nglar hukumatining ashaddiy tarafdoriga aylandilar.
Agrar islohot to‘xtatildi. Davlat to‘ntarishida qatnashgan harbiylar jazodan ozod etildi. Ayni paytda fashistlarning faoliyatiga qarshi kurashilmadi. Bu esa fashistik tashkilotlarning yanada o‘sishiga imkon yaratib berdi. Fashistik partiyalar («Ispan falangasi» va XONS) 1934-yil noyabrda «Ispaniyani inqilobiy yangilash» deb nomlangan demagogiyadan iborat dasturni e’lon qildi.
O‘ng kuchlarning

hokimiyat tepasiga
kelishi
76
«26 modda» deb nomlangan bu dastur Buyuk Ispan imperiyasini tuzish orqali yangi tartib o‘rnatishni targ‘ib etadi. Shu tariqa mamlakatda siyosiy totalitarizm va kuchli davlat mashinasiga sig‘inish qaror toptirildi.
Fashizm tobora chuqur ildiz ota boshlagan bir sharoitda so‘l kuchlar birlashish zarurligini anglab yetdilar. 1936-yil 15-yanvarda ular xalq fronti haqida bitim imzoladilar. Xalq fronti o‘zining saylov oldi dasturida saylovchilarga siyosiy mahbuslarni afv etishga, ishdan bo‘shatilganlarni ishga tiklashga, repressiya aybdorlarini jazolashga, armiya va davlat apparatini demokratlashtirishga, dehqonlarga soliq va ijara haqini kamaytirishga, ishsizlikni tugatish uchun jamoat ishlarini tashkil etishga, ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risidagi qonunni tiklashga va’da berdilar.
1936-yil 16-fevralda parlamentga bo‘lib o‘tgan saylovda Xalq fronti g‘alaba qozondi. Xalq fronti hukumati o‘z va’dalarini bajarishga kirishdi. Masalan, agrar islohot bo‘yicha 1936-yilning iyuligacha dehqonlar 700 ming gektardan ortiq yer oldilar. Xalq fronti hukumatining chuqur islohotlari yirik sarmoyadorlarni, cherkovni, katta yer egalarini, harbiy generalitetni tashvishga solib qo‘ydi. Ular mamlakatda harbiy to‘ntarish o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rdilar. Gitler va Mussolini ularni qo‘llab-quvvatlashga va’da berdilar.
1936-yilning 17-iyul kuni harbiylar Marokashda isyon boshladilar. 18-iyulda isyon Ispaniya hududiga ko‘chdi. Shu tariqa, Ispaniyada fuqarolar urushi boshlandi. Armiyaning 80 foizi isyonchi fashistlar tarafiga o‘tdi. Isyonga general F. Franko (1892—1975) rahbarlik qildi. Ispaniya qonuniy hukumati respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yuzasidan shoshilinch choralar ko‘ra boshladi. 300 ming kishilik respublikachilar armiyasi tuzildi. Fuqarolar urushi taqdirini Germaniya va Italiyaning aralashuvi hal etdi. Ular o‘z harbiy kuchlarini F. Frankoga yordamga yubordilar (jami 365 ming kishi). AQSH «betaraflik», Buyuk Britaniya va Fransiya Ispaniya ishlariga «aralashmaslik» yo‘lini tutdilar. Natijada respublikachilar chetdan qurol sotib olish imkonidan mahrum bo‘ldilar. Yevropa davlatlaridan, shu jumladan Sovet davlatidan ko‘ngilli qismlar kelib, Ispaniyaning qonuniy hukumati tomonida turib urush harakatlarida qatnashdilar.
Shunday og‘ir sharoitda ham hukumat (Largo Kabalero) islohotlarini davom ettirdi. Birgina 1936-yilning 7-oktabridan, dekretga ko‘ra, dehqonlar va chorakorlarga 5,5 mln ga yer berildi, basklarga milliy avtonomiya e’lon qilindi, oziq-ovqat mahsulotlariga qat’iy narx belgilandi.
1936-yil sentabrda isyonchi fashistlar mamlakat poytaxti Madridga hujum boshladilar. Fashistlar harbiy aslaha sifati va miqdori jihatidan katta ustunlikka ega edi. Respublikachilar ularga qarshi mardonavor jang qildilar. Biroq kuchlar teng emas edi. Fashizm g‘alaba qozondi. 1939-yil 28-martda Madrid egallandi. G‘arb davlatlari F. Franko hukumatini darhol tan oldilar.
Fashistik diktatura
o‘rnatilishi
Xalq fronti g‘alabasi
77
Buyuk Britaniya va Fransiya hali qonuniy hukumat qulamagan paytdayoq isyonchi fashist hukumatini tan olgan bo‘lsalar, AQSH 1939-yilning 1-aprelida tan oldi. Shu tariqa fashistik davlatlar soni yana bittaga ko‘paydi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Birinchi jahon urushi Italiya va Ispaniya uchun qanday oqibatlar keltirganligini faktlar asosida taqqoslang.
2. Italiya va Ispaniya iqtisodiyotidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ajrating.
3. Yevropaning bu ikki davlatida fashizm qay tariqa hokimiyat tepasiga kelganini tahlil qiling.
4. B. Mussolini joriy etgan korporativ davlatning mohiyati haqida so‘zlab bering.
5. B. Mussolini hamda Primo de Riveraning ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. Totalitarizmning mohiyatini izohlab bering.
7. Fashizmning Italiyada qonuniy yo‘l bilan, Ispaniyada esa davlat to‘ntarishi yo‘li bilan hokimiyat tepasiga kelganligini qanday izohlaysiz?
8. Nega G‘arb davlatlari Ispaniya ishlariga aralashmaslik siyosatini yuritgan edilar?

JADVALNI TO‘LDIRING. ITALIYA VA ISPANIYA HUKUMAT RAHBARLARI FAOLIYATI (1918—1939)

T.r.	Hukumat rahbarlari nomi	Faoliyat ko‘rsatgan yili	Ichki va tashqi siyosati

8-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari

AQSH jahon urushi natijasida dunyoning qudratli davlatiga aylandi. Xo‘sh, qanday omillar bunga sabab bo‘ldi? Ma’lumki, AQSH Birinchi jahon urushiga 1917-yilning aprel oyida kirgan edi. Yevropadagi harbiy harakatlarda esa 1918-yilning yozidan ishtirok etdi. AQSH monopoliyalari Yevropa davlatlariga ulkan miqdorda qurolyarog‘ va oziq-ovqat mahsulotlari sotdi. Urush yillarida Qo‘shma Shtatlar monopoliyalari 35 mlrd dollar miqdorida sof daromad ko‘rdilar. Ayni paytda Yevropa davlatlari AQSHdan katta miqdorda qarz olishga majbur bo‘ldilar.

Chunonchi, Yevropaning 20 davlati (jumladan, Buyuk Britaniya va Fransiya ham) 10 mlrd dollar miqdorida qarz bo‘lib qoldi. Bu qarz uchun yiliga to‘laydigan foizning o‘zi 1 mlrd dollarni tashkil etgan. Vaholanki, AQSH urushgacha Yevropa davlatlaridan 6 mlrd dollar qarz edi. Urush yillarida AQSHning chetga sarmoya joylashtirishi 6 baravar ko‘paydi.

Birinchi jahon urushining AQSH uchun oqibatlari ?

AQSH tashqi savdo aylanmasi 1914-yilda 2,3 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1920-yilda 8 mlrd dollarga yetdi. Eksport importdan 4 mlrd. dollar ortiq bo‘ldi. AQSH xazinasida dunyo oltin zaxirasining deyarli 50 foizi to‘plandi. 1914—1920-yillar mobaynida AQSH milliy boyligi 2,5 baravar ortdi.

1920-yilga kelib butun dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotning 47 foizi AQSH hissasiga to‘g‘ri keldi. Ayni paytda AQSH sanoatining turli tarmoqlari ham gurkirab rivojlandi. Masalan, dunyo bo‘yicha avtomobilning 80 foizi, neftning 67 foizi AQSHda ishlab chiqarildi.

Shu tariqa AQSH jahonning yetakchi davlatiga, moliyaviy markaziga va jahon bozorining qudratli tayanchiga aylandi.

Yuqorida qayd etilganidek, urush AQSHni nihoyatda boyitdi. Biroq bu narsa Amerika jamiyatidagi ijtimoiy muammolarni butunlay hal etgani yo‘q. Aksincha, bu ijtimoiy muammolar keskinlashib bordi. Chunonchi, 1918-yilning oxirida ishsizlar soni 3 mln dan ortiq kishini tashkil etdi. Urush yillarida kundalik xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarish kamaydi. AQSH monopoliyalari to‘plagan boylik yildan yilga o‘sdi. Biroq mehnat ahli turmush darajasi boylik bilan teng o‘smadi. Natijada ishchilar o‘z haqhuquqlari uchun kurasha boshladilar. Bu kurashda qatnashganlarning soni 1919-yilda 4 mln dan ortiq kishini tashkil etdi va ular 44—48 soatlik ish haftasini talab qildilar.

AQSH hukmron doiralari ishchilar harakatiga va ularning so‘l tashkilotlari faoliyatiga mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi suiqasd deb qaradilar. Shu tufayli mamlakatda o‘zgacha fikrlovchilarga qarshi eng shafqatsiz va mislsiz qatag‘on avj oldirildi. Xususan, AQSH hukumati 1918-yilda «Da’vatkorlik to‘g‘risidagi hujjat»ni qabul qildi. Hujjat mamlakatdagi

mavjud tuzum to‘g‘risida bildiriladigan har qanday salbiy fikrlarni jinoyat, deb e’lon qildi. Bunday ayblovga uchraganlar yo 10 ming dollar jarima to‘lardi, yoki 20 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilardi.
2 mingdan ortiq kishi shunday jazolarga mahkum etildi. 1919-yilda sanoatda xususiy mulkdorlikni qoralovchi har qanday da’vat man etildi. 1920-yilda o‘zgacha fikrlashda shubha qilinganlikda ayblanib, 10 mingga yaqin taraqqiyparvar arboblar hibsga olindi. Kasaba uyushmalari ichida Amerika Mehnat Federatsiyasi (AMF) faollari va rasmiy rahbariyatning siyosatiga qarshi chiquvchilar ham quvg‘in ostiga olindi. Jumladan, 1920-yilda kasaba uyushmalari harakatining faollari, italiyalik muhojirlar Sakko va Vansetti bankini talash va politsiyachini o‘ldirishda ayblanib qamoqqa olindilar. Sud ularni o‘lim jazosiga hukm qildi va 1927-yilda ular elektr stulga o‘tqazilib qatl etildi. Bu mudhish voqeaning atayin uyushtirilganligi faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoga ma’lum bo‘ldi.
Shu tariqa AQSHda 20-yillarning 2-yarmida o‘zgacha fikrlovchi va so‘l tashkilotlar tugatildi. AMF 1923-yilda ishchi tashkilotlar «Baltimor-Ogayo» Amerika jamiyatidagi
muammolar
79
deb nomlangan rejani qabul qilishlariga erishdi. Unga ko‘ra, mulkdorlar ishchilar maoshini oshirish majburiyatini oldilar. Amerika ishchilar harakatida ish tashlash 1926-yilda barham topdi.
Kasaba uyushmalari esa, o‘z navbatida, korxona egalari bilan kelishib, ish tashlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ish kunini uzaytirishga rozilik berish majburiyatini oldilar.
1922-yilning oxirida AQSH iqtisodiyotida yangi
yuksalish boshlandi. 1928—1929-yillarga kelib
AQSH sanoati Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya,
Italiya va Yaponiya sanoati birgalikda ishlab chiqargandan ko‘p mahsulot ishlab chiqardi. Chetga sarmoya chiqarish 1929-yilda 4 baravar ortdi. 1919—1929-yillar davomida AQSHning chet davlatlarga bergan qarzi boshqa barcha rivojlangan davlatlar bergan qarzdan ko‘p bo‘ldi. Bu qarzlar evaziga AQSH 1922—1932-yillar davomida 9,2 mlrd dollar foyda oldi. AQSH sudxo‘r davlatga aylandi.
AQSHda iqtisodiy yuksalish yangi texnikaviy asosda eng yangi texnika uskunalarini qo‘llash, konveyer tizimi, standartlashtirish va modernizatsiyalash kabi usullarni keng tatbiq etish yo‘li bilan amalga oshirildi. Buning natijasi o‘laroq, birgina avtomobilsozlik sanoatida 1927-yilda 7 mln dona avtomobil ishlab chiqarildi. Shu tariqa ishlab chiqarish Amerika jamiyati taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchga aylandi.
Ishlab chiqarishning tinimsiz o‘sishi orqali katta boylik yaratilishi rejalashtirildi va bu boylikning bir qismi qashshoqlikka barham berishga sarflanishi lozim edi. Shu tariqa, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishning Yevropa yo‘lidan farq qiluvchi Amerika yo‘li vujudga keldi. Yevropa yo‘li — ijtimoiy muammolarni ijtimoiy islohotlar yo‘li bilan hal etish yo‘li. Amerika yo‘li esa tadbirkorlik faoliyatini yanada o‘stirish orqali mulkdorlarni yanada boyitish va bu boylikning bir qismini ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflash yo‘li edi. Bu hodisa tarixda «yangi ijtimoiy falsafa», deb nom olgan.
AQSHda yangi ijtimoiy falsafa hayotda ma’lum darajada o‘z ifodasini topdi. 20-yillar oxirida avtomobillar soni 28 mln ni tashkil etdi. Bu — Amerika deyarli har bir oila avtomobilga egalik qilishi imkoniyatini qo‘lga kiritdi, degani edi. Boshqa iste’mol tovarlari ham ko‘plab ishlab chiqarildi. Tovarlarni kreditga sotish keng yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada o‘sishiga olib keldi. Mamlakat to‘la telefonlashtirildi.
Biroq bu aytilganlar Amerika jamiyatida muammolar tugatildi, degani emas edi. Xususan, 1928-yilda jamiyatda ishsizlar soni 3 mln kishini tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi og‘ir ahvolda qoldi. 1920—1930-yillarda fermer xo‘jaliklari soni kamaydi. Ularning qarzi 15 mlrd dollarga yetdi. Buning asosiy sababi mamlakatda qishloq xo‘jalik mahsulotlari asosan chet davlatlardan keltirilishi edi.
20-yillarda AQSHning

iqtisodiy ahvoli
80
AQSHdek qudratli rivojlangan davlat ham iqtisodiy inqirozni chetlab o‘ta olmadi. 1929-yilning kuzida AQSHda iqtisodiy inqiroz boshlandi. Bu inqiroz boshqa davlatlarga ham keng yoyildi va u jahon iqtisodiy inqiroziga aylandi. Inqirozga ortiqcha ishlab chiqarish sabab bo‘ldi. Iqtisodiy inqiroz AQSH uchun eng ko‘p talafot keltirdi. Shuning uchun ham u «Buyuk depressiya » deb nom oldi. Chunonchi, inqiroz tufayli AQSHda sanoat ishlab chiqarishi deyarli 50 foizga qisqardi. 10 ming bank sindi. 130 mingga yaqin savdo va sanoat firmalari bankrot bo‘ldi. Ishlab chiqarilgan tovarlar sotilmay qoldi. Natijada ular yo‘q qilina boshlandi.

Ishchilarga to‘lab kelinayotgan yillik ish haqining umumiy summasi 15 mlrd dollardan 6 mlrd dollarga tushib qoldi. 1933-yilning boshida mamlakatda ishsizlar soni 17 mln kishini tashkil etdi. Bu AQSH tarixida eng yuqori ko‘rsatkich edi. Mamlakatda ishsizlikni sug‘urtalash haqida qonun yo‘q edi. Natijada ochdan o‘lish hollari ham yuz berdi. Inqiroz AQSH qishloq xo‘jaligi uchun ham ayanchli bo‘ldi. Xarid narxining pasayishi fermer xo‘jaliklarini halokat yoqasiga olib keldi.

Prezident Guver (1928—1932) hukumat korxonalari sinishining oldini olish maqsadida 3,5 mlrd dollarlik kapitalga ega bo‘lgan moliyaviy qayta qurish korporatsiyasini tashkil etdi. Hukumat Federal fermer kengashiga 500 mln dollar mablag‘ ajratdi. Uning maqsadi tovarlarning bozordagi narxini tushirmasdan saqlashni ta’minlash edi. Biroq bu tadbirlar yetarli samara bermadi.

«Buyuk depressiya» ommaviy stachka harakatining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Ishsizlar Vashington shahriga yurish boshladilar. Bu yurishlar «ochlar yurishlari» deb nom oldi. Hukumat ommaviy harakatlarni shafqatsizlik bilan bostirdi.

1932-yilda AQSHda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovida Demokratlar partiyasi nomzodi Franklin Delano Ruzvelt g‘alaba qozondi.

U AQSH tarixida eng mashhur prezident sifatida nom qoldirdi. AQSH Konstitutsiyasiga ko‘ra, bir kishi ketma-ket ikki marta prezident etib saylanishi mumkin bo‘lgan holda F. Ruzveltga kelganda, davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Konstitutsiyaning bu talabini buzishga to‘g‘ri keldi. U to‘rt marta ketma-ket prezidentlikka saylandi.

Xo‘sh, F. Ruzvelt (1882—1945) qanday xizmatlari evaziga bunday buyuklikka erishgan? U AQSHni iqtisodiy inqirozdan qutqarish va uning buyukligini saqlab qolishning har tomonlama puxta ishlangan rejasini yarata oldi va uni hayotga to‘la tatbiq qildi. Bu AQSH tarixiga F. Ruzveltning «yangi yo‘li» nomi bilan kirdi. Yangi yo‘l — Amerika iqtisodiyotida keng miqyosli islohotlar o‘tkazish yo‘li edi.

Uning mohiyati ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni to‘liq saqlab qolgan holda, davlat boshqaruvini iqtisodiyotga va ijtimoiy muno-

F. Ruzveltning «yangi yo‘li» 30-yillarda iqtisodiy ahvol
81
sabatlarga keng joriy etishni tashkil etadi. F. Ruzveltning «yangi yo‘li» bo‘yicha davlat mamlakat iqtisodiyotini boshqarishga faol aralashdi. Mehnat huquqi jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqildi. Ishsizlikka qarshi kurash uchun katta miqdorda mablag‘ ajratildi. Ayni paytda ijtimoiy sug‘urta asoslari — pensiya, nafaqa, sog‘liqni saqlash va xalq ta’limini takomillashtirish ko‘zda tutildi.

F. Ruzvelt ishni birinchi navbatda banklarni saqlab qolishdan boshladi. Shu maqsadda Favqulodda bank qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, faqat eng yirik banklarga davlat qarzi olishga ruxsat etildi. Oqibatda 25 mingta bankdan 15 mingtasi qoldi. Ular davlatdan qarz olib, omonatchilar ko‘z o‘ngida o‘z obro‘larini saqlab qola oldi. 1933-yilda «Sanoatni qayta tiklash haqida» qonun qabul qilingan. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan

boshqarilishi tizimini joriy etdi.
Bu tizim sanoatning har bir sohasi uchun ishlab chiqilgan «Halol raqobat kodeksi» deb nomlangan hujjatda o‘z ifodasini topgan. Bu kodekslarda har bir korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot narxi, savdo bozori belgilab qo‘yildi.
Ayni paytda qonun ish haqi eng kam miqdori hamda ish haftasining maksimal vaqti kodekslarda qat’iy belgilanishini talab etadi. Bundan tashqari, qonunda korxona ma’muriyati bilan jamoaviy shartnoma tuzilishi, ishsizlarga yordam berilishi ko‘zda tutildi.
Davlat ishsizlikka qarshi kurash maqsadida ijtimoiy ishlar maxsus qo‘mitasini tuzdi. Bu qo‘mitaga yo‘l qurish, maktablarni ta’mirlash, sport
Franklin Delano Ruzvelt.
6 — Jahon tarixi
82
majmualari barpo etish kabilar yuklatildi. Shu orqali 8 mln ishsiz ish bilan ta’minlandi. Kambag‘al oilalardagi 18—25 yoshli ishsiz fuqarolar uchun maxsus lagerlar barpo etilgan. Ularda tekin ta’lim berilib, bu ishsizlar sanoatning yangi tarmoqlari uchun zarur ixtisosliklarga o‘rgatildi.
Har bir shtatga ishsizlarga yordam ko‘rsatish uchun dotatsiyalar ajratildi. Natijada bu tadbirlar AQSHni ijtimoiy larzalardan saqlab qoldi.
«Yangi yo‘l» AQSH qishloq xo‘jaligini ham qamrab oldi. Chunki inqiroz AQSH qishloq xo‘jaligiga juda katta ziyon yetkazgan edi. Buning oqibatida ko‘plab fermer xo‘jaliklari halokatga uchradi. AQSH Kongressi 1933-yilning 12-mayida «Fermerlarga yordam haqida» qonun qabul qildi. Qonunga ko‘ra, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining xarid narxlari oshirildi. O‘z navbatida, fermerlar ekin maydoni va chorva mollari sonini qisqartirish haqida davlat bilan shartnoma tuzishlari lozim edi. Shunday qilgan fermerlarga mukofot belgilandi. Fermerlarning qarzi davlat hisobiga o‘tkazildi yoki uni to‘lash noma’lum muddatga to‘xtatib qo‘yildi.
Ayni paytda fermerlarga kredit berildi va nihoyatda nochor fermer xo‘jaliklari tugatildi. Bular jami fermer xo‘jaliklarining 10 foizini tashkil etgan. Bu tadbirlar Amerika qishloq xo‘jaligini halokatdan saqlab qoldi.
«Yangi yo‘l» siyosati ijtimoiy himoyani ham e’tibordan chetda qoldirmadi. Chunonchi, 1935-yilda Kongress «Vagner qonuni»ni qabul qildi.
Unga ko‘ra, ishchilar jamoaviy shartnoma tuzish huquqiga ega bo‘ldilar. Ayni paytda ishchilarga ish tashlash huquqi ham berildi. Ish tashlashda qatnashganlik uchun ta’qib etish taqiqlandi.
Shu yili AQSH tarixida birinchi marta ijtimoiy sug‘urtalash haqida qonun qabul qilindi. Unda keksalarni ta’minlash; ishsizlik bo‘yicha yordam puli to‘lash; nogironlarga, yolg‘iz oilalarga va yetim bolalarga nafaqa to‘lash ko‘zda tutildi. Bu hodisa adolatli jamiyat qurilishi yo‘lidagi katta qadam edi.
«Yangi yo‘l» keng ommaning ahvolini yaxshilash uchun eng boy oilalarning daromadlariga qo‘shimcha soliq solishni izchillik bilan amalga oshirdi. Shu tariqa, F. Ruzveltning «yangi yo‘li» dunyoda eng ko‘lamli inson huquqlari va konstitutsiyaviy kafolatlar tizimini vujudga keltirdi.
Oqibatda AQSHda dunyoda eng yuqori turmush darajasi ta’minlandi. «Yangi yo‘l» AQSHga buyuk, gullab-yashnayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mukammal davlat shuhratini keltirdi.
AQSH tashqi siyosatida ikki oqim, ya’ni izolatsionizm va internatsionalizm tarafdorlari o‘rtasida kurash ketdi. Izolatsionizm tarafdorlari AQSHning faol tashqi siyosatiga qarshi edilar. Ular asosan ichki muammolar bilan shug‘ullanishni afzal bildilar. Internatsionalizm tarafdorlari esa, AQSH jahon siyosatining faol ishtirokchisi bo‘lishi kerak, deb hisoblardilar. Oxir-oqibatda bu oqim g‘alaba qozondi.
Ijtimoiy himoya borasidagi tadbirlar
Tashqi siyosat
83
AQSH dunyodagi eng buyuk davlatga aylangan bir davrda, tabiiyki, u

dunyo siyosatidan chetda tura olmas ham edi. AQSHning Birinchi jahon urushida qatnashishi izolatsionizmga uzil-kesil chek qo‘ydi. Birinchi jahon urushi tugagach, AQSH jahon siyosiy xaritasini qayta qurishning faol ishtirokchisi bo‘lishga urinib ko‘rdi. Chunonchi, u Versal — Vashington tizimini yaratishda faol qatnashdi. Uning qat’iy talabi bilan Millatlar Ligasi ustaviga Versal shartnomasi matni qo‘shildi.

Ayni paytda Buyuk Britaniya va Fransiya AQSHning dunyoda, xususan, Yevropada gegemonligi o‘rnatilmasligi uchun barcha choralarni ko‘rdilar. Xususan, Versal shartnomasi, Buyuk Britaniya va Fransiya manfaatlarini ko‘proq aks ettirganligi shu bilan ham izohlanadi.

Bundan tashqari, Parij sulh konferensiyasi Uzoq Sharqda Yaponiya mavqeyini ham mustahkamladi. Bular AQSH tashqi siyosatining amaldagi muvaffaqiyatsizligi edi. Shuning uchun ham AQSH Kongressi Versal shartnomasini tasdiqlamadi. AQSH Yevropadagi ta’sirini saqlab qolish uchun 1921-yilda Germaniya bilan alohida tinchlik shartnomasini imzolashga muvaffaq bo‘ldi.

AQSH Tinch okean havzalarida o‘z mavqeyini mustahkamlash niyatida prezident U. Garding (1921—1923) talabi bilan 1921-yilda Vashington konferensiyasini chaqirishga erishdi. Bu konferensiya qarorlari haqidagi 1—2-paragrafda aytib o‘tildi.

AQSH kuchaya borgan sari, boshqa buyuk davlatlarni jahon bozorlarida ta’qib eta boshladi. Xususan, Buyuk Britaniyaning Markaziy va Janubiy Amerika bozoridagi o‘rniga zarba berdi. Masalan, 1913—1927-yillar oralig‘ida Buyuk Britaniyaning bu mintaqa davlatlari importida ulushi 25% dan 16% ga tushib qoldi. AQSHning ulushi 24% dan 38% ga ortdi. AQSHning Janubiy Amerika davlatlariga joylashtirgan sarmoyasi esa 13 baravar ko‘paydi.

To‘g‘ri, Lotin Amerikasi davlatlarining Vatanparvar kuchlari AQSHning bu mamlakatlarni asoratga solishiga befarq qarab turmadilar. Ular imkoniyatlari darajasida qarshilik ko‘rsatdilar.

Prezident K. Kulij (1923—1929) davrida Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashlari ayovsiz bostirildi. 1928-yilga kelganda Lotin Amerikasining 20 davlatidan 14 tasi AQSHga moliyaviy qaram bo‘lib qoldilar. Shu tariqa g‘arbiy yarim sharda AQSH sarmoyasi tanho hukmronlik qila boshladi.

AQSH hukmron doiralari faqat Lotin Amerikasi davlatlarini asoratga solish yoki ularning ichki ishlariga aralashish bilan cheklanib qolmadi. AQSH G‘arbiy Yevropani ham o‘z moliyaviy ta’sirida saqlab turishga zo‘r berib urindi. Bunda «Daues rejasi» ga (1924-y.) katta umid bog‘ladi. Bu reja Germaniya harbiy qudratini amalda qayta tikladi. Germaniya qudratini qayta tiklashdan maqsad Buyuk Britaniya va Fransiyaning Yevropada haddan tashqari qudratli davlatga aylanishlariga yo‘l qo‘ymaslik edi.

1927-yilning mart oyida AQSH harbiy-dengiz kuchlari Xitoyga qarshi harbiy intervensiyada ishtirok etdi va shu yilning aprelida Chan Kayshi amalga oshirgan davlat to‘ntarishini qo‘llab-quvvatladi.

Prezident G. Guver davrida (1929—1932) AQSHning harbiy xarajatlari yildan yilga o‘sib bordi. Xususan, 1929-yilda AQSHning harbiy xarajatlari Fransiya va Yaponiyaning birgalikdagi harbiy xarajatlaridan ko‘p bo‘ldi. Sovet davlatini tan olmaslik siyosati davom ettirildi. AQSH Germaniya iqtisodiy qudratini yanada tiklash siyosatini davom ettirdi. Chunonchi, 1929-yilda Daues rejasini «Yung rejasi» bilan almashtirishga erishdi. Bu reja Germaniyaning reparatsiya to‘lash shartlarini yanada yengillashtirdi.

Uzoq Sharq va Tinch okean havzasida AQSH — Yaponiya munosabatlari keskinlashib bordi. AQSH Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining yetakchi mavqeyini yo‘qqa chiqarish uchun hamma choralarni ko‘rdi. 1930-yilga kelib amalda bunga erishdi ham. Shu yil Londonda o‘tkazilgan va dengiz masalasini muhokama qilgan konferensiya ikki davlat harbiy-dengiz floti bir xil qudratga ega bo‘lishi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1930-yilda AQSH tashqi savdoda import tovarlar uchun katta boj to‘lovi joriy etdi. Bu esa uning boshqa buyuk davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarini yanada sovuqlashtirdi. 1932-yilda bo‘lib o‘tgan Lozanna konferensiyasi

AQSHning qat’iy qo‘llab-quvvatlashi tufayli Germaniyani reparatsiya to‘lashdan amalda ozod etdi. Bu esa Germaniya harbiy qudratining tiklanishiga xizmat qildi.

F. Ruzvelt davrida (1932—1945) AQSHning xalqaro mavqeyi yanada mustahkamlandi. 1933-yil 16-noyabrda AQSH Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik munosabat o‘rnatdi. Lotin Amerikasi xalqlari ko‘z o‘ngida AQSH o‘zining bu mintaqadagi tashqi siyosatining tub mohiyatini niqoblash maqsadida «yaxshi qo‘shnichilik» shiorini e’lon qildi.

AQSH Germaniya va Yaponiyaning agressiv rejalariga qarshi xalqaro to‘siq qo‘yish borasida amalda jiddiy harakat qilmadi. Aksincha, 1935-yilda AQSH Kongressi «Betaraflik to‘g‘risida» qonun qabul qildi. Qonun prezidentga urushda qatnashayotgan tomonlarga qurol sotishni taqiqlash huquqini berdi. Biroq Germaniya va Italiya urushuvchi davlatlar ro‘yxatiga kiritilmagan edi. Shuning uchun ham ular AQSHdan qurol sotib olishlari mumkin edi. Aksincha, agressiya qurbonlari bo‘lgan Efiopiya va Ispaniya AQSHdan qurol sotib olish va qarz olish huquqlaridan mahrum etilgan edi.

AQSHning betaraflik siyosati amalda Germaniyaning kuchayishini va yangi urush o‘chog‘iga aylanishini ta’minladi.

Shunday qilib, ikki jahon urushi oralig‘ida AQSH dunyodagi eng boy davlatga aylandi. «Ford», «Jeneral Motors», «Dyupon», «Po‘lat tresti» kabi gigant kompaniyalar yanada kuchaydi. Dunyoning ko‘p joylarida o‘z ta’sirini o‘tkazdi. «Bo‘lib tashla, hukmronlik qil» prinsipiga amal qildi. Boylik orttirish maqsadida urushlarni qo‘llab-quvvatladi. Ma’naviy tubanlikka ketdi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushining AQSH uchun oqibatlari jadvalini tuzing.
2. 20-yillarda Amerika jamiyati oldida qanday muammolar mavjud edi?
3. AQSHning 20-yillardagi iqtisodiy ahvolini baholang va uni 30-yil iqtisodiy ahvoli bilan taqqoslang.
4. F. Ruzvelt «yangi yo‘l» siyosatining mohiyati nimadan iborat edi?
5. «Yangi yo‘l» siyosati AQSH uchun nimalar berdi?
6. AQSHning 1918—1939-yillardagi tashqi siyosati bilan Buyuk Britaniya hamda Fransiya tashqi siyosatini taqqoslang va undan mustaqil xulosa chiqaring.

JADVALNI TO‘LDIRING. AQSH PREZIDENTLARI FAOLIYATINI YORITING

T.r.	Prezidentlar nomi	Hukmronlik yillari	Ichki va tashqi siyosati

9-§. Lotin Amerikasi davlatlari

Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi davlatlari hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Chunonchi, bu mamlakatlar iqtisodiyoti tez sur’atlar bilan o‘sa boshladi. Bunga Birinchi jahon urushida qatnashayotgan davlatlarda Lotin Amerikasi mamlakatlari xomashyosi va qishloq xo‘jalik mahsulotlariga nisbatan talabning ortib ketganligi sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, urush tufayli Yevropadan keltiriladigan tayyor mahsulotlar keskin kamaygan. Bu hol Lotin Amerikasi davlatlarida qayta ishlash sanoatini kuchaytirdi.

Uchinchidan, jahon bozorida xomashyo va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi ham ko‘tarilgan edi. Masalan, Kuba eksport qiladigan qandning narxi 11 baravar ko‘tarildi. Bu omillar, o‘z navbatida, kapital jamg‘arilishiga va milliy ishlab chiqarishning o‘sishiga olib keldi. Xususan, Braziliyada 6 mingga yaqin yangi sanoat korxonasi qurildi. Bu Braziliya tarixida undan avvalgi 25 yil ichida qurilgan sanoat korxonalari sonidan ko‘p edi.

Ayni paytda buyuk davlatlar Lotin Amerikasida o‘zlarining iqtisodiymoliyaviy

ta’sirlarini saqlab qolishga urindilar. Bu AQSH — Buyuk Britaniya munosabatlarini keskinlashtirdi.
Birinchi jahon urushigacha yer yuzining bu nuqtasida Buyuk Britaniya kapitali yetakchi mavqega ega bo‘lgan bo‘lsa, AQSH uni endi tobora iskanjaga oldi va AQSH kapitali yildan-yilga o‘z mavqeyini mustahkamlay bordi.
?
Birinchi jahon urushining Lotin Amerikasi davlatlariga ta’siri
86
20-yillarda jahon bozorida Lotin Amerikasi tovarlariga qulay narx-navo saqlanib turdi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyotning taraqqiyotiga xizmat qildi.
Biroq bu iqtisodiy taraqqiyot asosan ekstensiv omillar hisobiga ta’minlana bordi.
Shuningdek, bu qit’a davlatlari iqtisodiyotiga qishloqda latifundiyachilar zo‘ravonligi, ishlab chiqarishning asosan tashqi bozor ehtiyojlariga moslashib qolganligi hamda chet el kapitaliga qaramlik xususiyatlari ham xos edi. Bular iqtisodiyotni tobora qiyin ahvolga tushirib qo‘ymoqda edi.
Bundan foydalangan buyuk davlatlar bu qit’a davlatlari iqtisodiyotiga o‘z ekspansiyalarini yanada kuchaytirdilar.
Agar 20-yillarga qadar Lotin Amerikasiga sarmoya joylashtirishda Buyuk Britaniya birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, 20-yillarning oxiriga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Endi AQSH bu borada Buyuk Britaniyani ortda qoldirdi. 30-yillarning oxiriga kelib esa AQSHning yirik kompaniyalari bu yerda o‘z hukmronlik mavqeyini o‘rnatdilar. Xususan, elektr stansiyalar, temir yo‘llar, pochta-telegraf, port va tog‘ sanoati AQSH sarmoyasiga qaram bo‘lib qoldi.
Xorijiy sarmoyaning bunday tazyiqi Lotin Amerikasining jahon ijtimoiy taraqqiyotidan orqada qolishiga olib keldi. Shu tariqa, Lotin Amerikasi davlatlari rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining xomashyo bazasiga aylanib qoldi.
Lotin Amerikasi davlatlarida siyosiy hayot turlicha edi. Iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarda rasman respublika tuzumi e’lon qilingan bo‘lsa-da, amalda ularda avtoritar va diktatorlik tartiblari o‘rnatilgan edi. Ayrim davlatlar konstitutsiyasida hokimiyatning oliy vakillik organi huquqlari kafolatlanishi qayd etilgan bo‘lsa-da, hokimiyat u yoki bu soha oligarxiyasi qo‘lida to‘plangan edi. Masalan, Braziliyada butun hokimiyatni amalda qahva oligarxiyasi qo‘lga olgan edi.
Iqtisodiy jihatdan nisbatan taraqqiy etgan davlatlarda (Argentina, Chili va Urugvay) urushdan keyin konservativ-oligarxiya tartibi o‘z o‘rnini liberal-demokratik kuchlarga bo‘shatib berishga majbur bo‘ldi. Ular mamlakatda liberal islohotlarni amalga oshirdilar. Bu islohotlar Lotin Amerikasi tarixida yangi hodisa edi. O‘z mazmuniga ko‘ra Yevropa islohotiga yaqin bo‘lgan bu islohotlar natijasida qator ijtimoiy muammolar bartaraf etildi.
Bu o‘rinda Argentinada prezident I. Irigoyen davrida 1928—1930-yillarda amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, diqqatga sazovor. U davlat vositachiligi yo‘li bilan sarmoya va mehnat o‘rtasida hamkorlikni ta’minlay oldi. Bu mamlakatda 8 soatlik ish kuni, yakshanbada dam olish, ijtimoiy sug‘urta kabi ijtimoiy muammolar ijobiy hal etildi.
Iqtisodiy va ijtimoiysiyosiy ahvoli
87
Jahon iqtisodiy inqirozi (1929—1933) Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiyotiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunga bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti chet el bozoriga bog‘liq bo‘lib qolganligi, shuningdek, xorijiy kapitalga qaramligi sabab bo‘ldi.
Inqiroz tufayli Lotin Amerikasi davlatlari eksporti keskin darajada pasaydi.

Natijada minglab zavod va fabrikalar, plantatsiyalar to‘la ishlamay qo‘ydi. O‘z xaridorini topa olmagan millionlab tonna kofe, don va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yo‘q qilindi. Ishsizlar soni ko‘paydi.

Bular, o‘z navbatida, davlatlarning ichki siyosiy barqarorligini izdan chiqardi va keskin siyosiy o‘zgarishlar yuz berishga olib keldi. Bu o‘zgarishlar, bir tomondan, ba’zi davlatlarda hokimiyat tepasida turgan liberal islohotchilarni, ikkinchi tomondan esa, ba’zi davlatlarda hokimiyat tepasida turgan avtoritar va diktatorlik tartiblarini qulatganligi bilan ajralib turadi.

Masalan, 1930-yilda Argentinada harbiy to‘ntarish o‘tkazilib, islohotchi prezident I. Irigoyen hukumati ag‘darilgan bo‘lsa, Braziliyada qahva oligarxiyasi tartibi hokimiyati quladi. Chili va Kubada ham diktatorlik boshqaruvi barham topdi. Kolumbiyada 1930-yilda konservator oligarxiya tartibi o‘rniga hokimiyatga liberal islohotchilar keldi.

Bu faktlar iqtisodiy inqirozning ham konservator, ham diktator, ham liberal islohotchilar obro‘sining xalq ommasi ko‘z o‘ngida birday to‘kilishiga sabab bo‘lganligining isbotidir.

Iqtisodiy inqiroz davlatning iqtisodiyotga aralashuviga sabab bo‘ldi. Davlat inqirozdan chiqish uchun iqtisodiyotni tartibga sola boshladi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uni tartibga solishi, birinchi navbatda, import mahsulotlarga yuqori boj to‘lovlarini joriy etishda yaqqol ko‘zga tashlandi. Ikkinchidan, davlat milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mahalliy tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish va imtiyozli soliq tartibini qo‘llashni joriy etdi. Uchinchidan, iqtisodiyotda davlat sektorini rivojlantirish va mustahkamlash yo‘lini tutdi.

Ayni paytda mamlakatda ichki siyosiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida qator ijtimoiy islohotlar ham o‘tkazildi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi milliy ishlab chiqarishning o‘sishiga va milliy sarmoyaning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, urushgacha Buyuk Britaniya Lotin Amerikasida yetakchi mavqeni egallar edi. Birinchi jahon urushi vaziyatni tubdan o‘zgartirib, Yevropa davlatlarining Lotin Amerikasidagi faolligini pasaytirib yubordi. Bundan foydalangan AQSH bu mintaqada o‘z ekspansiyasini kuchaytirdi. Natijada AQSHning Lotin Amerikasi davlatlariga joylashtirgan sarmoyasi 1929-yilga kelib 1913-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,5 baravar ortdi.

Buyuk davlatlarning Lotin Amerikasi uchun kurashi

Jahon iqtisodiy inqirozining Lotin Amerikasiga ta’siri

Lotin Amerikasi xalqlari orasida Amerikaga qarshi kayfiyat kuchayishining oldini olish hamda AQSHning bu mintaqadagi mavqeyini mustahkamlash maqsadida prezident F. Ruzvelt 1933-yilda AQSH intervensiyadan voz kechganligi hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligi haqida bayonot berdi.

Ayni paytda Lotin Amerikasi davlatlari bilan «yaxshi qo‘shnichilik» siyosatini e’lon qildi. Bu siyosat AQSH ekspansiyachilik siyosatining yangi davrdagi o‘ziga xos shakldagi davomi edi.

30-yillardan boshlab Lotin Amerikasida fashist blokiga kiruvchi davlatlar — Germaniya, Italiya va Yaponiya ham o‘z ta’sirini qaror toptirishga urindilar. Ular strategik xomashyoga muhtoj bo‘lganliklari tufayli bu qit’a davlatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirdilar va o‘z sarmoyalarini joylashtirishga urindilar.

Xususan, Germaniya sarmoyasi Argentina, Braziliya, Chili va Paragvay iqtisodiyotiga joylashtirildi. Biroq Germaniya fashistlari savdo-iqtisodiy aloqalar bilan cheklanib qolmadilar. Ular bu mintaqada ham fashistik tashkilotlar tuzishga urindilar. Bu niyatni amalga oshirishda Lotin Amerikasida yashayotgan nemis muhojirlariga tayandilar. Eng yirik davlatlar — Argentina va Braziliya fashizm ekspansiyasining Lotin Amerikasidagi

tayanchlari bo‘lishi kerak edi. Tashkil etilgan fashistik tashkilotlar hokimiyatni egallash uchun ham harakat qildilar.
Bundan tashqari, Germaniya va Italiya Lotin Amerikasi davlatlarida fashistlarning hokimiyatni Ispaniya usulida egallashlariga umid bog‘ladilar va ularni qo‘llab-quvvatladilar. Biroq fashistlar o‘z maqsadlariga erisha olmadilar. Buning sababi Germaniya va uning ittifoqchilarining bu mintaqada AQSH va G‘arbiy yevropalik boshqa raqiblarini siqib chiqarishga iqtisodiy qudratlari yetmaganligida edi.
Ikkinchidan, Lotin Amerikasining u yoki bu davlatida ichki fashistik kuchlarning hokimiyatni egallash yo‘lidagi urinishlari liberal-demokratik kuchlar boshchiligidagi antifashistlarning qudratli qarshiligiga uchragan edi. Shu tariqa, Lotin Amerikasi xalqlari qit’ada fashizm qaror topishiga yo‘l qo‘ymadilar.
Braziliya — Birinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlardan biri. Xususan, u 1917-yilning 26-oktabrida AQSHdan so‘ng Germaniyaga urush e’lon qildi.
Biroq Braziliyaning bu urushdagi ishtiroki keng ko‘lamli bo‘lmadi. Chunonchi, Braziliya Buyuk Britaniyaning bir qator harbiy-dengiz tadbirlarida qatnashdi. Shuningdek, uning harbiy kemalari Janubiy Atlantikada patrul xizmatini bajargan, xolos. Shu ma’noda olganda, Braziliyaning jahon urushidagi ishtiroki ko‘proq ramziy ma’no kasb etdi. Shunday bo‘lsa-da, Braziliya Versal shartnomasini g‘olib davlatlar qatorida imzoladi. Urush ayni paytda Braziliya iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta’sir
Braziliya
89
ko‘rsatgan. Bunga urush tufayli Yevropa eksporti kamayganligi sabab bo‘lgan. Biroq, baribir, Braziliya agrar davlat bo‘lib qola berdi. Ishga yaroqli aholining 72% qishloq xo‘jaligida band bo‘lgandi. Qishloq xo‘jaligining asosini kofe va qand yetishtirish tashkil etgan va mamlakat moliyaviy ahvoli ayni shu kofe eksporti darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan.
Braziliya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishi uzoqqa cho‘zilmadi. 1920—1921-yillarda uning iqtisodiyotida inqiroz yuz berdi. Eksport mahsulotlarining narxi keskin pasaydi. Masalan, 1919-yilda 1 qop (60 kg) kofe 27 sentga sotilgan bo‘lsa, 1921-yilda bu ko‘rsatkich 9,5 sentni tashkil etdi. Inqiroz Braziliya iqtisodiyotining chet el sarmoyasiga qaramligini yanada kuchaytirdi. 1923—1928-yillarda Braziliya iqtisodiyotining qisman barqarorlashuvi asosan chet el sarmoyasi hisobiga amalga oshirildi. Chunonchi, 1929-yilga kelib AQSHning bu davlat iqtisodiyotiga joylash-tirgan sarmoyasi 476 mln dollarni, Buyuk Britaniya joylashtirgan sarmoya esa 1 mlrd dollarni tashkil etdi.
Ayni paytda mamlakatda ichki siyosiy vaziyat ham keskinlashib bordi. Prezident S. Bernardis (1922—1926) davrida mamlakatda diktatorlik tartibi qaror topa boshladi. Mamlakatda siyosiy josuslik va ayg‘oqchilik tizimi keng quloch yoydi va bu hodisa mamlakatda keskin norozilikni keltirib chiqardi. Norozilik hatto armiyaga ham ta’sir ko‘rsatdi.
1924-yilning 5-iyulida San-Paulo shahrida joylashgan harbiy qismda qo‘zg‘alon ko‘tarildi. Hukumatga sodiq qo‘shinlar qo‘zg‘alonchilarga qarshi 3 hafta davomida kurash olib borishga majbur bo‘ldi. 1924-yilning 28-oktabrida esa Santo-Anjelu shahrida kapitan K. Prestes boshchiligida harbiylar qo‘zg‘aloni boshlandi. Hukumat qo‘shinlari qo‘zg‘alonchilarga qarshi og‘ir janglar olib borishga majbur bo‘ldi va, nihoyat, 1927-yilning 13-fevralida qo‘zg‘alonchilarning so‘nggi otryadlarini Boliviya hududiga surib chiqara oldi.
1929-yilda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi Braziliya iqtisodiyotini yanada og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Inqirozdan mamlakat qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, katta talafot ko‘rdi. Xususan, mamlakat omborxonalarida 37 mln qop kofe yig‘ilib qoldi. 3 yil ichida 40 ming qop kofe dengizga oqizildi yoki yoqib tashlandi. Eksport keskin kamaydi.
Mamlakat aholisining turmush darajasi nihoyatda yomonlashdi. Bu omillar, o‘z navbatida, demokratik va ijtimoiy harakatni kuchaytirdi. Shunday bir sharoitda hukmron doiralar mavjud tartibni saqlab qolish maqsadida davlat to‘ntarishi o‘tkazishga qaror qildilar. Uni 1930-yilning

oktabrida hukmron doiralar bilan mustahkam aloqada bo‘lgan harbiylar amalga oshirdilar. Mamlakatda J. Vargas diktaturasi o‘rnatildi va diktatura 1891-yilgi mamlakat Konstitutsiyasini bekor qildi.
Hatto qonun chiqaruvchi barcha vakolatni ham hukumatning o‘zi amalga oshira boshladi. Lekin diktatura mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtira olmadi. Hukmron doiralar turli tabaqalari o‘rtasida hoki90 miyat uchun kurash davom etdi. Natijada 1934-yilning 16-iyulida mamlakatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ichki iqtisodiy va siyosiy barqarorlik ayni paytda mamlakatda fashizm harakatini vujudga keltirdi. Fashizm siyosiy hayotga tobora jiddiy xavf sola boshladi.
Mamlakatning taraqqiyparvar kuchlari 1935-yilda fashizmga qarshi yagona xalq frontini tuzishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu front — «Xalq fronti umumbraziliya tashkiloti milliy ozodlik Alyansi» deb ataldi. Alyans tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish dasturini ilgari surdi. Alyansning obro‘-e’tibori tobora o‘sib bordi. Bundan cho‘chigan hukumat 1935-yilning 11-iyulida uning faoliyatini taqiqladi.
Mamlakatda terror va repressiya kuchaydi. Bunga javoban 1935-yilning noyabr oyida harbiylarning bir qismi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Biroq Vargasga sodiq harbiy qismlar bu qo‘zg‘olonni bostirdi. Endi mamlakatda reaksiya avj oldi.
1937-yilning 10-noyabrida J. Vargas Kongressni tarqatib yubordi. 1934-yilgi Konstitutsiyani bekor qildi va mamlakatda uning shaxsiy diktaturasi o‘rnatildi. Shu kuni J. Vargas butun hokimiyatning Prezident qo‘lida to‘planishini qonunlashtirgan yangi Konstitutsiyaga ham imzo chekdi. 1937-yilning 2-dekabrida barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi.
Shunday bo‘lsa-da, J. Vargas hukumati mamlakatda xalq harakatining yangidan vujudga kelishining oldini olish maqsadida qator yon berishlarga ham bordi. Jumladan, eng kam ish haqi haqida, ish kunini tartibga solish haqida dekretlar chiqardi. Ayni paytda davlatning iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar ham qabul qilindi. Vargas hokimiyati 1945-yilgacha hukm surdi.
Birinchi jahon urushi natijasida Yevropa eksporti kamayganligi tufayli Argentina milliy iqtisodiyoti gurkirab rivojlana boshladi. Bu hodisa, o‘z navbatida, mamlakat eksportining o‘sishiga xizmat qildi. Chunonchi, Argentina bug‘doy eksport qilish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘ringa (Kanadadan so‘ng), go‘sht mahsulotlari eksporti bo‘yicha esa birinchi o‘ringa chiqdi. Uning asosiy savdo hamkorlari Buyuk Britaniya va AQSH edi. Xususan, 1920-yilda Buyuk Britaniya va Argentina o‘rtasida savdo ayirboshlashi 817 mln pesoni, AQSH bilan esa 726 mln pesoni tashkil etdi.
Biroq Braziliyada bo‘lganidek, Argentina iqtisodiyotidagi o‘sish ham uzoq davom etmadi. 1920—1921-yillardagi iqtisodiy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga katta talafot yetkazdi. Davlat subsidiyasi asosida ishlayotgan korxonalarda ishlab chiqarish to‘xtab qoldi.
Ayni paytda inqiroz Argentinada ish yuritayotgan chet el korxonalari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmadi. Chunki ularning moliyaviy ahvoli yaxshi edi. Bu hodisa 1920—1921-yillardagi iqtisodiy inqirozning o‘ziga xos xarakterli belgisi edi. Inqiroz ichki siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Radikal-fuqaro ittifoqi partiyasi vakili Prezident I. Irigoyen hukumati (1916—1922) islohotlar

yo‘li bilan siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga urindi. Xususan, talabalar tashabbusi qondirilib, universitetlar faoliyati demokratik asosda qayta qurila boshlandi. Bundan tashqari, yirik yer egalarining qudratini cheklashga kirishildi.
Hukumat mehnat qonunchiligi sohasida, ayniqsa, jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 8 soatlik ish kuni, haftada 1 kunlik dam olish kuni, ishchilarga ta’til berish, ish haqining eng kam miqdori joriy etildi.
I. Irigoyen hukumati o‘tkazgan islohotlarda izchillik ta’minlanmagan bo‘lsa-da, islohotlar ko‘lami va mazmuni hukmron tabaqalarni tashvishga solib qo‘ydi. Ular mamlakat armiyasi orasida hukumatga qarshi tashviqotni kuchaytirdilar.

1922-yilda o‘tkazilgan prezident saylovida radikal partiyaning boshqa bir vakili M. Alveor (1922—1928) g‘alaba qozondi. U yangi tuzgan hukumati tarkibiga harbiylar vakillarini ham kiritdi. 1923-yilda Argentina iqtisodiyotida yana jonlanish yuz berdi. Biroq iqtisodiyotda ko‘zlangan maqsadga erishilmadi. Buning sababi mamlakat qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining jahon bozoriga qaramligi edi. 1925-yildan boshlab jahon bozorida narx-navoning pasayishi mamlakat moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.
1927-yilda o‘tkazilgan prezidentlik saylovida yana I. Irigoyen (1928—1930) g‘alaba qozondi. Hukumat amalga oshirgan eng katta tadbir neft sanoatining milliylashtirilishi bo‘ldi. Bu hodisa yirik sarmoyadorlar hamda chet el monopoliyalari manfaatiga berilgan katta zarba edi.
Ular endi davlat to‘ntarishi o‘tkazishga qaror qildilar. 1930-yilning 6-sentabr kuni general Xose F. Uriburu boshchiligida davlat to‘ntarishi o‘tkazildi. F. Uriburu o‘zini vaqtincha Prezident deb e’lon qildi. Yangi hukumat mamlakat Kongressini tarqatib yubordi, 8 soatlik ish kunini bekor qildi. Mamlakatda qamal holatini joriy etadi. Matbuot uchun qattiq senzura tartibi o‘rnatildi. Mamlakat neft sanoatini milliylashtirish haqidagi qaror bekor qilindi.
General F. Uriburu mamlakatni noqonuniy ravishda uzoq boshqarishi mumkin emas edi. Biroq u prezident saylovida g‘alaba qozona olmas ham edi. Chunki uning obro‘si yo‘q edi. Shuning uchun ham 1931-yilning noyabr oyida prezidentlikka boshqa general — P. Xusto (1932—1938) nomzodi qo‘yildi va u g‘alaba qildi. Yangi hukumat mamlakatda ish tashlashni man etish hamda qamal holati e’lon qilish haqidagi qonunlarni amalda joriy ettirdi. Iqtisodiyotda davlatning aralashuvi siyosati yuritildi.
Tashqi siyosatda esa Buyuk Britaniya bilan yanada yaqinlashish yo‘li qo‘llanildi. Ayni paytda AQSHga qaram bo‘lib qolmaslik, Lotin Amerikasida AQSHning ta’siri kuchayib ketishining oldini olishga intildi. Shu maqsadda Argentina tashabbusi bilan Lotin Amerikasi davlatlari o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik va yarashuv to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning mohiyatini to‘g‘ri anglab yetgan AQSH prezidenti F. Ruzvelt 1933-yilda Lotin Amerikasi davlatlari bilan munosabatda «yaxshi qo‘shnichilik» ta92 moyilini e’lon qildi. Ayni paytda AQSH ham yuqorida nomi tilga olingan shartnomani imzoladi. Bu shartnoma tarixga «Savedro Lamas pakti» nomi bilan kirdi. S. Lamas Argentina tashqi ishlar vaziri edi. Bu Argentina diplomatiyasining katta yutug‘i bo‘lgandi.
Prezident P. Xusto davrida ham mamlakat ichki siyosiy hayotida barqarorlik ta’minlanmadi. Aksincha, fashizm xavfi vujudga keldi. 1938-yilgi prezident saylovida so‘l kuchlar birlikka erisha olmadilar. Natijada o‘ng kuchlar vakili Roberto Ortis (1938—1940) g‘alaba qozondi.
R. Ortis ichki siyosatda qisman bo‘lsa-da, konstitutsiyaviy tartiblarni tiklashga harakat qildi. Repressiya va terror to‘lqini pasaydi. Fashizm jilovlandi. Tashqi siyosatda esa AQSH bilan yaqinlashish yo‘li to‘sildi.
1917-yilning 5-fevralida Meksikada demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi. Xususan,
Konstitutsiya yerni, yer osti boyliklarini va suvni davlat mulki deb e’lon qildi. Chet davlatlar va chet el monopoliyalari bilan tuzilgan ijara shartnomalarining qayta ko‘rib chiqilishi belgilandi.
Har bir shtatda egalik qilinadigan yerning miqdori belgilab qo‘yilishi, ortiqcha yerlar esa dehqonlar va batraklarga bo‘lib berilishi kerak edi. Konstitutsiya ayni paytda cherkovning o‘zgarmas mulkka ega bo‘lish huquqini bekor qildi. Cherkovning barcha mulkini davlat mulki deb e’lon qildi. 1926-yilda ruhoniylarning siyosatga aralashuvini taqiqlovchi qonun kuchga kirdi.
Konstitutsiya 8 soatlik ish kunini, minimal ish haqi miqdori belgilanishini, kasaba uyushmalariga birlashish va ish tashlash huquqini e’lon qildi.
Endi hamma gap konstitutsiya e’lon qilgan tadbirlarni bajarishda qolgan edi. Biroq bu oson vazifa emas edi. Chunki konstitutsiya talablari bajarilishiga ham ichki, ham tashqi kuchlar qarshilik ko‘rsatishi muqarrar edi. Buyuk Britaniya va AQSH monopoliyalari Meksika iqtisodiyotida mustahkamlanib olgan edilar. Ular o‘zlari bilan imzolangan ijara shartnomalarini qayta ko‘rib chiqishga aslo rozi bo‘lmas edilar. Vatikan esa cherkovning mulkdan mahrum

etilishiga aslo toqat qila olmas edi. Shuning uchun ham Meksika ruhoniylarining hukumat siyosatiga qattiq qarshilik koʻrsatishi muqarrar edi. Tez orada shunday boʻldi ham. Vatikan koʻrsatmasi bilan Meksika ruhoniylari ibodatlarni toʻxtatdi.

Meksika hukumatining neft sohasidagi siyosatiga javoban AQSH Meksikaga nisbatan iqtisodiy taqiq siyosatini qoʻlladi. Ichki yirik sarmoyadorlarning ham qarshiligi kuchaydi. Bu hol Konstitutsiya qoidalarini hayotga tatbiq etish vazifasini nihoyatda qiyinlashtirdi. Hukumat yon berishga majbur boʻldi. Faqat reaksiyaning qattiq qarshiligini yengish hisobiga qator jiddiy oʻzgarishlar amalga oshirildi. Chunonchi, 1934-yilda «Agrar kodeks» kuchga kiritildi.

L. Kardenas (1934—1940) hukumati davrida latifundiyachilar va chet el kompaniyalariga qarashli 18 mln ga yer ekspropriatsiya qilindi va deh-

qonlarga berildi, ungacha boʻlgan 17 yillik davrda dehqonlarga 8 mln ga yer berilgan edi, xolos. Hukumat dehqonlarga yordam koʻrsatish maqsadida 1935-yilda maxsus bank tashkil etdi.

Chet el kompaniyalarining Meksika qonunlarini oyoqosti qilishlariga qarshi hukumat 1938-yilning mart oyida neft sanoatini milliylashtirish haqida qaror qabul qildi. AQSH, Buyuk Britaniya va Gollandiya sarmoyadorlariga qarashli 17 ta neft kompaniyasi ekspropriatsiya qilindi.

Bunga qarshi ular Meksika neftini boykot qilish siyosatini qoʻllay boshladilar. Natijada Meksika nefti eksporti 1938-yilda ikki baravar kamaydi.

Bu ham yetmagandek, AQSH hukumati Meksika kumushiga embargo joriy etdi.

Buyuk Britaniya Meksika hukumatiga keskin ruhdagi notalar joʻnatdi. Bunga javoban Meksika 1938-yilning may oyida Buyuk Britaniya bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Endi ichki va tashqi reaksiya L. Kardanes hukumatini agʻdarishni rejalashtira boshladi. 1938-yilning may oyida ichki kuchlar hukumatga qarshi isyon koʻtardilar. Ularni chet ellik reaksiya kuchlari qoʻllab-quvvatladi. Biroq isyonchilar yengildi.

L. Kardanes mamlakatdagi turli tabaqa vakillarini birlashtirgan yangi partiya — Meksika inqilobi partiyasini tuzishga muvaffaq boʻldi.

Kuba Birinchi jahon urushida qatnashgan davlatlardan biri. U 1917-yilning 17-aprelida Germaniyaga qarshi urush e’lon qildi. Biroq uning ham jahon urushidagi ishtiroki ramziy ma’noga ega boʻldi. Xususan, Kubaning bu urushdagi ishtiroki Yevropaga tibbiy xizmat guruhlarini joʻnatishdan iborat boʻldi, xolos.

Urush yillarida Kuba iqtisodiyoti ham rivojlandi. Bunga urush tufayli Yevropada qand ishlab chiqarishning kamayishi sabab boʻldi. Bu hodisa Kubada qand ishlab chiqarish va uni eksport qilishning koʻpayishiga olib keldi. Agar 1913-yilda 2,4 mln tonna qand ishlab chiqarilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 1919-yilda 4 mln tonnani tashkil etdi.

Biroq 1920-yildan boshlab vaziyat keskin oʻzgardi. Yevropada qand ishlab chiqarishning koʻpayishi Kuba qandiga talabni keskin pasaytirdi. Masalan, 1920-yilda 1 mlrd 22 mln pesolik qand sotilgan boʻlsa, 1921-yilda bu koʻrsatkich atigi 292 mln pesoni tashkil etdi, xolos. Natijada qand sanoati halokati boshlandi. Oʻsha davrda mamlakat eksportining 90 foizi qandga toʻgʻri kelishi hisobga olinsa, bu halokat darajasi yanada oydinroq namoyon boʻladi.

Bu hol mamlakat moliyaviy ahvolini izdan chiqardi va ichki siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Hokimiyat uchun kurashuvchi hukmron kuchlarning ikki guruhi (liberallar va konservatorlar) oʻrtasidagi munosabat yanada keskinlashdi. Amerikaparast konservatorlar hukmronligiga qarshi liberallar qoʻzgʻolon koʻtardilar. AQSH hukumati oʻz tarafdori prezident Menokalga (1916—1920) harbiy yordam koʻrsatdi.

Chunonchi, AQSH 1917-yilning fevral oyida Guantanamo, Santyago va boshqa muhim strategik obyektlarga oʻz harbiy kuchlarini joylashtirdi. 1917-yilning iyul oyida qoʻzgʻolon bostirildi.

Shu tariqa, Kuba amalda AQSH tomonidan okkupatsiya qilindi va bu 1922-yilgacha davom etdi. Ayni paytda Kubaning AQSHga moliyaviy qaramligi tobora ortib bordi. Xususan, 1929-yilda AQSHning Kubaga joylashtirgan sarmoyasi 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi. Uning 800 mln dollari qand sanoatiga joylashtirildi.

1929-yilda ro‘y bergan jahon iqtisodiy inqirozi Kuba iqtisodiyotini xonavayron qildi. Jahon iqtisodiy inqirozining bunday katta zarar keltirishiga Kuba iqtisodiyotining qand yakkahokimligiga ixtisoslashganligi va uning asosan AQSH bozoriga qaramligi sabab bo‘ldi. Natijada Kubaning AQSHga eksporti keskin kamaydi. Masalan, bu eksport 1929-yilda 137,6 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 1932-yilda atigi 38 mln dollar bo‘ldi. Qand ishlab chiqarish esa 5,1 mln tonnadan 1,9 mln tonnaga tushib qoldi.

Korxonalarning sinishi Kuba tarixida misli ko‘rilmagan darajaga yetdi. Ishsizlar soni 600 ming kishini tashkil etdi (4 mln aholiga nisbatan). Bir so‘z bilan aytganda, aholining turmushi keskin darajada pasaydi. Mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashdi va 1930-yil noyabrda harbiy tartib o‘rnatildi. Siyosiy kurashning oldingi safida talabalar bordilar. Bunga javoban hukumat 1931-yilda Gavana universitetini yopib qo‘ydi. Hatto umumta’lim maktablari ham yopildi.

1933-yilda prezident X. Machado (1924—1933) o‘z diktatorligini yanada mustahkamlash maqsadida Kongressdan favqulodda vakolat olishga erishadi. Konstitutsiyaning amal qilishi 30 kunga to‘xtatildi. Biroq bu choralar ko‘zlangan natija bermadi va mamlakatda umumiy ish tashlash davom etdi. Endi hukmron doiralar oldida ikki yo‘l turardi: yo xalq inqilobi, yoki diktator Machadoni almashtirish. Ular ikkinchi yo‘lni tanladilar va Machadoga qarshi harbiylar fitna uyushtirishdi. Ular 11-avgust kuni Machado oldiga 48 soat ichida mamlakatdan chiqib ketish talabini qo‘ydilar. Shu tariqa, Machado iste’fosiga erishildi.

Kubaning AQSHdagi sobiq elchisi Karlos de Sespedes vaqtinchalik prezident deb e’lon qilindi. Machado va uning yaqinlari AQSHga jo‘nab ketishga majbur bo‘ldilar. K. Sespedes hukumati mamlakatdagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtira olmadi. Harbiylar ichida mamlakatda qattiq tartib o‘rnatish tarafdorlari kuchayib bordi.

Ularga F. Batista rahbarlik qilardi. 1933-yil 5-sentabr kechasi F. Batista davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. U mamlakat harbiy kuchlari shtabining boshlig‘i etib tayinlandi. Gavana universiteti professori San Martin prezidentlik lavozimini egallagan bo‘lsa-da, amalda hokimiyat F. Batista qo‘lida to‘plandi.

Shunday bo‘lsa-da, S. Martin hukumati qator ijobiy tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1901-yilda qabul qilingan reaksion xarakterdagi Konstitutsiyani bekor qildi. 8 soatlik ish kuni joriy etdi. Mehnat vazirligi tashkil etildi. Yashash joyi uchun to‘lanadigan haq kamaytirildi. Ishchilar uchun ish haqi minimumi belgilandi. Gavana universitetining muxtor huquqi tiklandi.

Tashqi siyosatda esa avvalgi hukumatning AQSH bilan tuzgan shartnomalari bajarilishi ma’lum qilindi. Dekabr oyida S. Martin hukumati elektr energiya, gaz, telefondan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqni 45 foizga kamaytirdi. 2 ta yirik Kuba-Amerika qand kompaniyasi ustidan davlat nazoratini o‘rnatdi.

S. Martin hukumatining bunday qat’iy xatti-harakatlari ichki va tashqi sarmoyadorlarni qattiq tashvishga solib qo‘ydi. Ular F. Batistani qo‘llabquvvatlay boshladilar.

1934-yilning 14-yanvarida F. Batista S. Martindan iste’fo berishni talab etdi. 18-yanvar kuni polkovnik Mendteta Kubaning vaqtinchalik prezidenti deb e’lon qilindi. AQSH 26-yanvar kuni yangi prezident va uning hukumatini tan oldi. Yangi hukumat S. Martin amalga oshirgan tadbirlarning barini bekor qildi. Shu tariqa, mamlakatda AQSH manfaatiga xizmat qiluvchi F. Batista diktaturasi to‘la qaror topdi.

Shunday qilib, Lotin Amerikasi davlatlari o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan borgan bo‘lsalar-da, AQSH va boshqa buyuk davlatlarga iqtisodiy va siyosiy

jihatdan qaram bo‘lib qoldilar. Lekin ularning jahon hamjamiyatidagi roli o‘sdi. Bir qator ijtimoiy tadbirlar o‘tkazildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi davlatlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Urushdan keyingi yillarda Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga xos bo‘lgan xususiyatlarni qayd eting.
3. Jahon iqtisodiy inqirozining Lotin Amerikasi uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Buyuk davlatlar Lotin Amerikasi iqtisodiy va siyosiy hayotida qanday o‘rin tutgan?
5. Braziliyaning o‘ziga xos taraqqiyoti qanday kechdi?
6. Argentinada qishloq xo‘jaligining ahvoli qanday edi?
7. Meksika — AQSH munosabatlari qanday bo‘ldi?
8. Kubaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida AQSH qanday rol o‘ynadi?

?

DARSLIK MATNI BILAN ISHLASH

LOTIN AMERIKASI DAVLATLARINI TAVSIFLANG

Davlatlar	Birinchi jahon urushidagi ishtiroki	Birinchi jahon urushining ta’siri	1920—1921-yillar iqtisodiy inqiroz oqibatlari	1929—1933-yillardagi islohot iqtisodiy inqiroz oqibatlari
1	2	3	4	5
Braziliya, Argentina, Meksika, Kuba				
6	7	8	9	
Iqtisodiyotlariga xos umumiy xususiyatlari				
Hukmron tabaqalar				
Qurolli kuchlarning mamlakat hayotidagi o‘rni				
Lotin Amerikasida o‘z ta’sirini kuchaytirishga uringan davlatlar				

2-bob. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

10-§. Xitoy va Hindiston

Birinchi jahon urushigacha Osiyo va Afrika asosan mustamlaka davlatlardan iborat edi. Birinchi jahon urushi yillarida Osiyo va Afrika davlatlarida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berdi. Antanta qurolli kuchlari saflarida mustamlaka davlatlar aholisi ham

ishtirok etdi. Mustamlaka xalqlarning ilg‘or qatlami urushdan keyin mustaqillik berilishiga umid bilan qaramoqda edi. Biroq Parij tinchlik konferensiyasi bu umidni oqlamadi. Aksincha, konferensiya mustamlakachilikning eski shaklini yangisi bilan almashtirdi. Mustamlakachilikning bu yangi shakli avvalgi darslarda siz tanishgan Millatlar Ligasining mandat tizimi edi. Shunday bo‘lsa-da, Osiyo va Afrika davlatlarida vaziyat asr boshidagiga nisbatan o‘zgardi. Bu o‘zgarish jahon siyosiy xaritasida Sovet Rossiyasi (keyinchalik SSSRning) vujudga kelishi bilan ham bog‘liq edi. Mustamlakachi davlatlar xohlaydilarmi, yo‘qmi, endi bu omil bilan hisoblashishga majbur edilar.

Ikkinchi tomondan, Rossiyada yuz bergan chuqur ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar milliy-ozodlik harakatlariga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Osiyo va Afrika davlatlari rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar

97

Mustamlakalarda milliy-ozodlik kuchlari o‘sdi. Stixiyali milliy-ozodlik kurashi ongli kurashga aylana bordi. Shunday bo‘lsa-da, mustamlakachi davlatlar o‘z mustamlakalaridagi mavqelarini deyarli saqlab qola oldilar.

Buning sababi, birinchidan, mustamlakachilik tizimining yemirilishi uchun zarur xalqaro shart-sharoitlar hali to‘la yetilmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan, mustamlakalarda mustamlakachilarga qarshi kurashuvchi kuchlarning qaror topish jarayoni hali davom etayotganligi edi.

Biroq bu milliy-ozodlik kurashi ma’lum vaqtga to‘xtab qoldi, degani emas edi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, Xitoy va Hindistonda milliyozodlik kurashi shiddat bilan davom etdi. Chunonchi, 1918—1923-yillarda Turkiyada ozodlik kurashi g‘alaba bilan yakunlandi. Dunyoviy Turkiya Respublikasi tashkil topdi.

Sovet Rossiyasi 1921-yilda Turkiya bilan do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzoladi hamda Turkiyaga 10 mln oltin so‘m hisobida moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Xuddi shunga o‘xshash shartnoma 1921-yilda Eron bilan ham imzolandi. Eron Buyuk Britaniya qo‘shinlarining mamlakatdan chiqib ketishiga erishdi.

Afg‘on xalqining Buyuk Britaniya mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashi 1919-yilda g‘alaba bilan yakunlandi. Afg‘oniston mustaqil davlatga aylandi. 1921-yilda sovet-afg‘on do‘stlik shartnomasi imzolandi.

1918—1921-yillarda Sovet Rossiyasi Mo‘g‘ulistonning milliy-ozodlik kurashiga yordam ko‘rsatdi. Bu yordam Mo‘g‘uliston mustaqilligini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. To‘g‘ri, Sovet Rossiyasi yuqorida nomlari tilga olingan davlatlarga bekorga yordam bermagan. Uning maqsadi o‘zining janubiy chegaralari xavfsizligini ta’minlashdan iborat edi.

Ayni paytda Sovet davlati qo‘shni davlatlar bilan aloqani yaxshilash masalasiga «bo‘lajak jahon inqilobi»ning tarkibiy qismi, deb ham qarar edi.

Mustamlakachi davlatlar ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadilar, albatta. Ular Vashington konferensiyasida mustamlakalarning daxlsizligiga kelishib oldilar. Biroq tez orada bu kelishuvni Osiyoda Yaponiya (1931-yilda), Afrikada esa Italiya buzib yubordi.

Birinchi jahon urushidan so‘ng ham Xitoy qoloq, yarim mustamlaka davlat edi va unda 450 mln dan ortiq xalq yashardi. Uni buyuk davlatlar ta’sir doirasiga bo‘lib olgan edilar. Mamlakat sanoati, transporti, banklari va tashqi savdosining asosiy qismi chet el kompaniyalari qo‘lida edi.

Bu omillar Xitoyni rivojlangan davlatlar ekspansiyasiga qarshi kurashda ojiz qilib qo‘ygan edi. 1911—1913-yillarda bo‘lib o‘tgan inqilob asosiy masalalardan biri — Xitoyni yagona davlatga birlashtirish masalasini hal eta olmadi. Bu masalani hal etmay turib Xitoyni yarim mustamlaka sirtmog‘idan qutqarish nihoyatda og‘ir edi.

1918-yilda Xitoyda inqilobiy kurashning ikki yirik kuchi mavjud edi.

Xitoyning urushdan keyingi ahvoli

Ularning biri milliy-ozodlik kurashining yirik vakili, tan olingan yo‘lboshchi Sun Yatsen (1867—1925) boshchiligidagi Gomindan (Xitoy milliy partiyasi) bo‘lsa, ikkinchisi Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) edi.
Versal shartnomasi qarorlariga qarshi mamlakatda «4-may harakatlari» nomli xalq noroziligi bo‘lib o‘tdi.
1921-yilda Sun Yatsen mamlakat prezidenti lavozimiga saylandi. Biroq buyuk davlatlar bu saylovni va Sun Yatsen hukumatini tan olmadilar. Sun Yatsen «Xitoyni qutqarish» dasturini ilgari surdi. Bu dasturni chet davlatlarning yordamisiz amalga oshirib bo‘lmas edi. Buyuk davlatlar esa yordam berishdan voz kechdilar. Vashington konferensiyasida qabul qilingan «9 davlat kelishuvi» bo‘yicha, Xitoyda o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar. Shunday sharoitda Sun Yatsen moddiy va harbiy yordam so‘rab Sovet Rossiyasiga murojaat qildi va muzokara uchun general Chan Kayshini Moskvaga jo‘natdi. 1923-yilda Sun Yatsen Xitoy Kommunistik partiyasi bilan hamkorlik yo‘liga o‘tdi. Shunday qilinganda Sovet Rossiyasidan yordam olish oson kechishini u yaxshi bilardi. 1924-yil yanvarda Gomindan va XKP umummilliy birlashgan inqilobiy front tuzdilar.
Frontning maqsadi Xitoyning shimolida joylashib olib, xorijiy bosqinchi davlatlar bilan hamkorlik yo‘lini tutayotgan ichki kuchlarga hamda Xitoyni yarim mustamlaka holatiga tushirgan imperiyachi buyuk davlatlar ta’siriga qarshi kurash edi. Bunda Sun Yatsenning uch tamoyili: «milliylik, demokratiya va xalq farovonligi» katta rol o‘ynadi.
1925-yil bahorida Shanxay shahrida talabalar namoyishga chiqdilar. Biroq ingliz politsiyasi bu namoyishni o‘qqa tutdi. Bu hodisa Xitoyda xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakat boshlanishiga turtki bo‘ldi. Bu harakat Xitoy tarixiga «30-may harakati» nomi bilan kirgan.
Shu tariqa Xitoyda chet el bosqinchilariga qarshi milliy inqilob boshlandi. Ularning asosiy shiorlari — Xitoy suverenitetini tiklash, mustamlakachi davlatlar bilan hamkorlik qilayotgan militaristik katta yer egalari hukmronligini ag‘darish va Xitoyning demokratik milliy harakat hokimiyati ostida siyosiy butunligini ta’minlash edi.
Inqilob rahbarligi Gomindan qo‘lida edi. 1925-yilda Sun Yatsen vafot etgach, bu partiya rahbarligi Chan Kayshi qo‘liga o‘tdi. Inqilobda Xitoy jamiyatining barcha tabaqalari ishtirok etdi. 1925-yilning oktabr-dekabr oylarida Chan Kayshi hukumati mamlakat shimoliy qismining Guandun provinsiyasida joylashgan militaristlar hukumatiga qarshi harbiy yurish boshladi. Shu tariqa Xitoyda fuqarolar urushi boshlandi. 1926-yilda 7 ta provinsiya egallab olindi. 1927-yil martda Angliya va AQSH Chan Kayshiga yordam berish uchun Xitoyga qurolli kuch yubordi. 18-aprelda Nankinda Chan Kayshi hukumati to‘la qaror topdi.
Yurishning birinchi bosqichi 1928-yilda yakunlandi. Buning oqibatida shimoldagi militaristik kuchlarga qattiq zarba berildi. Jumladan, Shanxay

va Nankin shaharlari bosib olindi. Chan Kayshi hukumati qarorgohi Nankin shahriga ko‘chirildi. Barcha buyuk davlatlar bu hukumatni tan oldilar.
Markaziy hokimiyat qo‘lga kiritilgach, inqilobning asosiy yetakchi kuchlari — Gomindan va XKP o‘rtasida bo‘linish yuz berdi. Bunga Xitoy inqilobiy vazifalariga Gomindan va XKP ning turlicha qarashlari sabab bo‘ldi. Chunonchi, Gomindan markaziy hokimiyat egallanishi bilan inqilob o‘z vazifasini bajardi, deb hisobladi. Endigi vazifa mo‘tadil islohotni zo‘ravonliksiz o‘tkazishdan iboratligini e’lon qildi.
XKP esa inqilobni davom ettirish, hali Xitoyda kam sonli bo‘lgan proletariat gegemonligini o‘rnatish, agrar inqilobni avj oldirish, mulkdorlarning mulkini musodara qilish, barcha banklarni, konlarni, temir yo‘llarni, yirik korxonalarni milliylashtirishni talab etdi.
Bu ikki siyosiy kuch o‘rtasidagi nizo 20 yil davom etgan fuqarolar urushini (1949-yilgacha) keltirib chiqardi va shu tariqa birlashgan umummilliy inqilobiy front barham topdi.
Milliy buyuk inqilob natijasida Gomindanning

yakka partiyaviy hokimiyati qaror topdi. Gomindan Xitoyda iqtisodiyot bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish tarafdori edi. Shuning uchun ham Gomindan hukumati xususiy mulkni himoya qildi va bunday mulkni tugatishni targ‘ib etuvchi XKP ga qarshi kurashdi. Milliy bozor rivojiga g‘ov bo‘layotgan ichki boj to‘siqlari bekor qilindi. Chet el sarmoyadorlariga ijaraga berilgan 33 ta korxonadan 20 tasi qaytarib olindi.

Gomindan markaziy hokimiyatni kuchaytirishga urindi, iqtisodiyotga davlat aralashuvini joriy etdi. Iqtisodiyotda davlat sektorini vujudga keltirdi. Bundan tashqari, ichki siyosiy barqarorlikka erishish maqsadida qator ijtimoiy islohotlar o‘tkazildi. Mehnat to‘g‘risida qabul qilingan ijobiy ruhdagi qonun kam sonli ishchilar sinfining ahvoli yaxshilanishiga xizmat qildi. Biroq agrar masala hal etilmadi. Qishloqda yirik yer egalari hukmronligi saqlanib qola berdi.

Tashqi siyosatda esa Xitoyning chet davlatlar bilan imzolangan noteng shartnomalarini bekor qilish yo‘li tutildi. 1928-yilda chet el tovarlari uchun boj to‘lovi tartibi tiklandi. Bu bilan ichki bozor ham himoya qilindi.

Gomindan bilan XKP o‘rtasidagi umummilliy birlashgan front barham topgach, Xitoyda fuqarolar urushining ikkinchi bosqichi boshlandi. Gomindan «XKP ga qarshi urushga tayyorlana boshladi» va ko‘p o‘tmay uning qurolli kuchlariga qarshi hujum boshlandi. 1930—1934-yillarda 5 marta yurish qilindi. AQSH 90 mln dollar yordam berdi. 300 ta samolyotdan foydalandi. Xitoyga nemis generali Fon Sekt keldi va harbiy operatsiyalarga boshchilik qildi. Bu davrda XKP qurolli kuchlarining soni 300 mingni tashkil etardi (XKP qurolli kuchlari Qizil Armiya deb atalgan). XKP 1927-yildan 1936-yilgacha Xitoyda sovetlar shaklidagi proletariat va dehqonlar inqilobiy diktaturasini o‘rnatish uchun

Chan Kayshi hukmronligining kuchayishi 1927—1937-yillardagi fuqarolar urushi

kurash olib bordi va o‘zi egallagan provinsiyalarda hokimiyatning shunday shaklini o‘rnatdi.

1931-yilning noyabr oyida Szyansi provinsiyasida o‘tkazilgan sovet tumanlari vakillarining 1-Butunxitoy syezdi Xitoy Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi. Davlat boshlig‘i etib Mao Szedun saylandi. Shunday qilib Xitoy uchga bo‘linib ketdi. 1934-yilda Gomindan hukumati XKP armiyasiga qattiq zarba berdi. Biroq uni tor-mor eta olmadi. Armiyaning bir qismi qurshovni yorib chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

1931-yilning sentabrida Yaponiya armiyasi Xitoyga hujum qildi. Bu hujum Chan Kayshining Xitoyni birlashtirish yo‘lidagi harakatini to‘xtatib qo‘ydi. Uch oy ichida Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqida 1 mln kv km maydonni egalladi va u yerda 1932-yil 1-martda Man’chjou-Go deb atalgan davlat tuzdi. Uni manjurlar sulolasining so‘nggi imperatori Pu I boshchiligidagi qo‘g‘irchoq hukumat boshqarardi (manjurlar sulolasi hukmronligi 1912-yil Sun Yatsen boshchiligidagi inqilob natijasida ag‘darilgan edi). 30 mln aholi, 37 foiz temir ruda zaxirasi, 95 foiz neft, 4 foiz savdo va temir yo‘l yaponlar qo‘liga o‘tdi.

1936-yil Chan Kayshi Sianga kelganida armiya qo‘zg‘alon ko‘tarib, uni asir oldi. Lekin undan fuqarolar urushini boshlamaslikka va’da olinib, qo‘yib yuborildi.

Chan Kayshi 1935-yilda Yaponiya agressiyasiga qarshi kurashda yordam so‘rab Sovet davlatiga murojaat qildi.

Sovet davlati yordam berishga tayyorligini bildirdi, biroq buning uchun fuqarolar urushini to‘xtatish va Xitoy kommunistlariga qarshi jazo operatsiyalari o‘tkazmaslik shartini qo‘ydi. 1937-yilning iyun oyida Gomindan va XKP o‘rtasida harbiy harakatlarni to‘xtatish haqida shartnoma imzolandi. Shu tariqa Xitoyda yagona antiyapon milliy fronti vujudga keldi.

1937-yilning yozidan 1945-yil kuzigacha davom etgan yapon-xitoy urushi boshlandi. Yaponlar 1937-yil avgustda Pekin, noyabrda Shanxay, dekabrda Nankin shaharlarini bosib oldi.

1937-yil 21-avgustda SSSR bilan Xitoy o‘rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma imzolandi. Xitoy 1938-yil 100 mln dollar, 1939-yilda esa 150 mln dollar zayom oldi. 1938-yildagi Hasan ko‘lida, 1939-yildagi Xalxin Golda bo‘lib o‘tgan janglar yapon kuchlarini zaiflashtirdi.

Yaponiya 1941-yil 9-dekabrda Xitoyga qarshi urushni rasmiy e’lon qildi va bu yerda urush oxirigacha o‘z hukmronligini saqlab qoldi.

Urush yillarida Buyuk Britaniya hukumati Hindistonga urushdan keyin o‘zini o‘zi boshqarish huquqini berishni va’da qilgan edi. Aslida Buyuk Britaniya imperiyaning eng boy qismi bo‘lgan Hindistondan ajralishni xohlamas edi. Bu hol hind xalqining milliy-ozodlik kurashini yanada kuchaytirdi. Hindistonda bu davrda 320 mln aholi

Birinchi jahon urushidan keyin Hindistondagi ahvol Yaponiya agressiyasi

bor edi. Urush yillarida qora metallurgiya 30 foiz o‘sgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi orqaga ketdi. 12 mln kishi ochdan o‘ldi.

1919-yilning 13-aprelida Panjob shtati poytaxti Amritsar shahrida ingliz qo‘shinlari aholining norozilik yig‘ilishini o‘qqa tutdi. Buning natijasida 1000 dan ortiq kishi o‘ldirildi, 2000 dan ortiq kishi yaralandi. Shu tariqa hamma joyda politsiya bilan to‘qnashuv boshlanib ketdi.

Buyuk Britaniya 1919-yili Hindistonni boshqarish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bunga binoan 2 palatali boshqarish tizimi tashkil qilindi. Deputatlarning 50 foizini vitse-qirol tayinlardi. 1,5 foiz hind saylov huquqi oldi.

Bu qonun bilan birga «anarxizm va inqilobiy chiqishlarga qarshi» Rouletta qonuni ham qabul qilindi va politsiyaga cheklanmagan huquqlar berdi.

Hind xalqi milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi qudratli siyosiy tashkilot — Hindiston Milliy Kongressi (HMK) partiyasi kurashning kuch ishlatish usuliga qarshi chiqdi. HMK ga 1915-yildan boshlab hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandi (1869—1948) boshchilik qiladi. Uning rahbarligi davrida HMK da kurashning kuch ishlatmaslik, faqat tinch, zo‘rliksiz shakliga tayanadigan yo‘li g‘alaba qozondi. Bu yo‘l tarixga kurashning gandicha yo‘li nomi bilan kirgan. M. Gandining tinch kurash yo‘li hind xalqi keng qatlamini milliy-ozodlik kurashiga jalb etish imkonini berdi. Gandizm — diniy-falsafiy tizim bo‘lib, idealizm, induizm, jaynizm va xristianlik elementlarini o‘zida birlashtirgan. Uning asosida «haqiqat, ishonch, hech kimga yomonlik qilmaslik» yotadi.

Xo‘sh, kurashning tinch, kuch ishlatmaslik yo‘li — «satyagraxi» deyilganda nima nazarda tutilgan? Bu tushuncha ingliz ma’murlari tadbirlarini boykot qilishni, o‘z noroziligini tinch namoyishlar yo‘li bilan bildirishni, mustamlakachi ma’muriyat bilan hamkorlik qilishdan bosh tortishni, zo‘ravonliksiz fuqaroviy bo‘ysunmaslikni anglatadi. Kurashning bu yo‘li asrlar davomida sabr-toqat ruhiga singib ketgan va milliy-ozodlik kurashining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan dehqonlar psixologiyasiga, xarakteriga mos yo‘l edi.

Hindiston jamiyatining asosini dehqonlar tashkil etgan bir sharoitda M. Gandi tanlagan yo‘l birdan-bir to‘g‘ri yo‘l edi. M. Gandining zo‘ravonliksiz hamkorlik qilmaslik, fuqaroviy bo‘ysunmaslik harakatining birinchi bosqichini 1919—1922-yillar tashkil etadi.

Rouletta qonuniga javoban M. Gandi 1919-yilning 6-aprelida hind xalqini do‘konlarini

yopib qo‘yishga va har qanday amaliy faoliyatni
to‘xtatishga chaqirdi. Mustamlakachi Moxandas Gandi.
102
ma’muriyat bunga kuch ishlatish bilan javob berdi. 1919-yilning kuzida HMK syezdi ingliz ma’murlari joriy etgan qonun bo‘yicha saylovni boykot qilish haqida qaror qabul qildi. Natijada saylov amalda barbod bo‘ldi. Bu davrda HMK saflarida 10 mln kishi bor edi.
Boykot, shuningdek, ingliz tovarlarini sotib olmaslikni, inglizlar joriy etgan faxriy unvonlar va mansablardan voz kechishni, rasmiy qabullarga bormaslikni, ingliz maktablarida o‘qimaslikni, ingliz sudlarini rad etishni, davlat soliqlarini to‘lamaslikni ham nazarda tutar edi.
Shu bilan birga Panjobning turli joylarida qo‘zg‘alonlar ham bo‘lib o‘tdi. Lohur shahrida qo‘zg‘alonga askarlar ham qo‘shildi. Bu yerda «Armiya kaltagi» degan tashkilot shuhrat qozondi. Gujaratdagi qo‘zg‘alon samolyotlar yordamida bostirildi. Amritsarda ingliz ma’murlari haqoratli buyruq chiqardi. Mahalliy aholi ingliz missioner ayoli o‘ldirilgan ko‘chadan boshdan-oxir qurbaqaga o‘xshab emaklab o‘tishga majbur qilindi. Kim bu tartibni buzsa, otib tashlandi. Bu davrning xarakterli xususiyatlaridan biri Musulmonlar ligasi bilan Milliy kongressning yaqinlashuvi bo‘ldi.
1919—1922-yillardagi ozodlik harakatlariga Kalkutta jut korxonalari ishchilari, Bombey to‘qimachilari, Madras ishchilari, Jamshedpur temir yo‘lchilari qo‘shildilar. Bu harakatlarning bir qismi oz bo‘lsa-da, g‘alabaga olib keldi. Bombey to‘qimachilarining ish kuni 12 soatdan 10 soatga tushirildi. Metallurglarning mukofot haqi 15—20 foizga oshirildi. 1920-yil oxirida Umum Hindiston kasaba uyushmalari kongressi tashkil etildi.
1922-yil noyabrda Umum Hindiston kasaba uyushmalari kongressining 2-syezdi bo‘lib o‘tdi. Syezd Buyuk Britaniya shahzodasi Uelsning kelishiga 80 ming kishilik «qo‘zg‘alondan ham kuchliroq» namoyish uyushtirdi. Oradan ko‘p o‘tmay Milliy kongress kuch ishlatmasdan qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatdi. Bunga sabab Chauri-Chauradagi voqealar edi. Chunki bu yerda politsiya dehqonlarni ommaviy o‘qqa tutdi, dehqonlar ham bir necha politsiyachini o‘ldirdilar. Bombey va Garaxpurdagi vahshiyliklar takrorlanmasligi uchun Gandi harakatni to‘xtatishga ko‘rsatma berdi.
Ozodlik harakatini vaqtincha bostirgan inglizlar 1923—1928-yilda o‘zlarining zaiflashayotgan ahvolini biroz yaxshilab oldilar. Bu davrda Hindiston iqtisodiyoti urush yillaridagidan ham tez o‘sdi. Fabrikalar soni 1,5 baravar ko‘payib, 7515 taga yetdi. Buyuk Britaniyaning Hindistondagi kapitali 1 mlrd funt sterlingga yetdi. 1928-yilda u Hindistondagi faqat irrigatsiya inshootlaridan 74 mln rupiy foyda oldi.
Jahon iqtisodiy inqirozi Hindistonga katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk Britaniya inqiroz og‘irligini metropoliyaga yuklamoqchi bo‘ldi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bahosi pasaydi. Ekin maydonlari qisqardi. Mayda kapitalistlar, hunarmandlar xonavayron bo‘ldi, ocharchilik avj oldi. Ishsizlar ko‘paydi. Ish haqi kamaydi.
103
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan sanoat mahsulotlari o‘rtasidagi «qaychi» monopolistlarga ko‘plab foyda olishga imkon berdi. Ozodlik harakati kuchaydi. Saymon komissiyasi bilan birgalikda M. Neru, J. Neru guruhlari Hindiston Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqdilar. Unga to‘la mustaqillik so‘zlari kiritildi. Inglizlar oldiga bir qancha radikal talablar qo‘yildi, lekin ular buni bajarishmadi. Natijada mustaqillik uchun kurash kuchayib, qonli to‘qnashuvlar avj ola boshlagan bir sharoitda M. Gandi barcha chiqishlar oqimini fuqaroviy bo‘ysunmaslik o‘zaniga burishga harakat qildi. Bunga mustamlakachi hukumatning 1865-yilda joriy etilgan tuz solig‘ini bekor qilish haqidagi M. Gandi talabini inkor etishi sabab bo‘ldi.
Inglizlar tuzga davlat monopoliyasi joriy etgan edi. Natijada tuz narxi hindlarning uni sotib olishga qurbi yetmas darajada oshib ketdi. Hindlar tuzsiz ovqat yeyishga mahkum edilar. Bu esa aholini jismonan tanazzulga uchratish bilan barobar edi. Gandi ham dengizdan, odamlar bilan tuz ola boshladi. Inglizlar bu harakatni to‘xtatmoqchi bo‘lishdi. Unga qarshi 1930-yilda Hindistonda bo‘ysunmaslik harakatining ikkinchi bosqichi boshlandi.

Bunga javoban mustamlakachi ma’muriyat 60 mingdan ortiq kishini (M. Gandi va uning yaqin safdoshlarini ham) qamoqqa tashladi. HMK ni esa qonundan tashqari, deb e’lon qildi. Lekin bular natija bermagach, 1931-yilning 5-martida ingliz mustamlakachi ma’muriyati HMK bilan bitim imzolashga majbur bo‘ldi. Unga ko‘ra, ingliz ma’murlari repressiyani to‘xtatish va siyosiy mahbuslarni ozod etish majburiyatini oldi. HMK esa fuqaroviy bo‘ysunmaslik harakatini to‘xtatadigan bo‘ldi.

M. Gandi rasmiy London bilan «dumaloq stol» atrofida muzokara boshlashga rozilik berdi. Londonda hind muammosiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiyaga HMK «Hindiston fuqarolarining asosiy huquq va burchlari haqida» deb nomlangan hujjatni taqdim etdi. Amalda bu hujjat bo‘lajak mustaqil Hindiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosi edi.

Hujjatda Hindistonda demokratik erkinliklarni joriy etish; kastalar va dinlarning tengligini tan olish; diniy omilni hisobga olgan holda Hindistonni ma’muriy qismlarga qayta bo‘lish; ish haqining eng kam miqdorini joriy etish; yer uchun to‘lanadigan ijara haqini cheklash; soliqlarni kamaytirish va shu kabi boshqa talablar ilgari surilgan edi. Tabiiyki, ingliz mustamlakachilari bu talablarni qabul qilmadilar. Natijada konferensiya ishi barbod bo‘ldi.

Inglizlar ozodlik kurashini bostirishda bir guruh vatanparvarlar ustidan 1933-yilda sud jarayonini o‘tkazdi. Muzaffar Ahmad o‘lim jazosiga hukm qilindi, lekin xalqning talabi bilan ozod etildi.

1934—1939-yillarda Hindiston iqtisodiy jihatdan biroz yuksalsa-da, Angliyaning olgan foydasi tez o‘sib bordi. 1935-yilda Boshqaruv agentligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Zaxira bank hind kapitalini nazorat qiladigan bo‘ldi. Ish haqi 25 foizga kamaydi. Hindlar buni «qullik konstitutsiyasi» deb atadilar. Ozodlik harakati kuchaydi.

Biroq Buyuk Britaniya Hindistonda yangi saylov qonunini joriy etishga majbur bo‘ldi. 1937-yilda o‘tkazilgan saylovda HMK jami 11 shtatdan 8 tasida g‘alaba qozondi va ularda o‘z hukumatini tuzdi. Bu hodisa mustaqillik yo‘lidagi yirik qadam edi. 1939-yil sentabr oyida ikkinchi jahon urushi boshlangach, Hindiston vitse-qiroli Hindistonni urushuvchi tomon, deb e’lon qildi.

Urush yillarida hind xalqining ahvoli yanada yomonlashdi. Guruch 5 baravar qimmatlashdi. Ish kuni 12 soatga uzaytirildi. 2 mln hind armiya va flotda xizmat qildi. Hindiston 0,5 mln ingliz-amerika askarlarini boqdi.

ESDA TUTING!

Moxandas Karamchand GANDI (2.10.1869—30.01.1948) savdogar kastasiga mansub gujarat oilasida dunyoga keldi. Buyuk Britaniyada oliy yuridik ma’lumot oldi. 1899—1933-yillarda Janubiy Afrikadagi Hindiston savdo firmasida ishladi. U yerda uning irqchilikka qarshi nafrati shakllandi. U gumanist va vatanparvar edi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Osiyo va Afrika davlatlari rivojida qanday o‘ziga xos jihatlar mavjud edi?
2. Qanday sabablarga ko‘ra birinchi jahon urushidan keyin ham imperialistik davlatlar o‘z mustamlakachilik imperiyalarini saqlab qola olgan edilar?
3. Urushdan keyingi yillarda Xitoy davlati taraqqiyotiga xos xususiyatlarni aniqlang.
4. Gomindan va XKP kurash hamda maqsad dasturlarining o‘xshash va o‘ziga xos jihatlarini taqqoslang.
5. Nima uchun 1925-yilgi Xitoy inqilobi «buyuk milliy inqilob» deb ataladi?
6. Xitoyda 1927—1937-yillardagi fuqarolar urushining sabablarini aniqlang.
7. 1937-yilda Xitoyda yagona antiyapon milliy fronti qay tariqa vujudga keldi?
8. Hind xalqi milliy-ozodlik kurashi yo‘lboshchisi M. Gandining mustamlakachilik zulmiga qarshi tanlagan o‘ziga xos yo‘lining mazmunini tushuntirib bering.
9. Kurashning «fuqaroviy bo‘ysunmaslik» usuli mazmunini izohlab bering.
10. Nima uchun Buyuk Britaniya hukumati HMK taqdim etgan «Hindiston

fuqarolarining asosiy huquq va burchlari haqida»gi hujjatni rad etdi?
JADVALNI TO‘LDIRING.
XITOY VA HINDISTONNING AHVOLINI SOLISHTIRING
Xitoy Hindiston
ichki siyosat tashqi siyosat ichki siyosat tashqi siyosat
?
105
11-§. Turkiya. Eron. Afg‘oniston
Turkiya birinchi jahon urushidan mag‘lub davlat sifatida chiqdi va katta zarar ko‘rdi. 4 yil mobaynida 500 ming kishi o‘ldi, 800 mingdan ortiq kishi mayib-majruh bo‘lib qoldi. Antanta armiyasi 1918-yil noyabr oyidayoq mamlakat poytaxti Istambul shahrini ishg‘ol etgan edi. 1919-yilning oxirida Turkiya Buyuk Millat Majlisiga (TBMM) saylov o‘tkazildi va unda kamolchilar g‘alaba qozonishdi.
TBMM mamlakat hududida chet el nazoratiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida qaror qildi. Bunga javoban, ingliz harbiy ma’muriyati TBMM ni tarqatib yubordi. TBMM o‘z majlisini Mustafo Kamol (Otaturk) qo‘shini egallab turgan Anqara shahrida o‘tkaza boshladi. TBMM 1920-yilning 23-aprelida Mustafo Kamol Otaturkni davlat boshlig‘i etib sayladi. Shu tariqa ikki hokimiyatchilik Istambul shahrida sulton hokimiyati, Anqarada esa kamolchilar hokimiyati vujudga keldi.
1920-yilning 10-avgustida sulton hukumati bilan Antanta davlatlari Sevr shartnomasini imzoladilar. Shartnoma mustaqil Turkiya davlati amalda tugatilganligini anglatar edi. 1921-yilning 20-yanvarida kamolchilar Turkiyaning vaqtinchalik Konstitutsiyasini qabul qildilar. Kamolchilar Turkiya uchun og‘ir sharoitda — 1921-yilning 16-martida Sovet Rossiyasi bilan Do‘stlik va birodarlik haqida shartnoma tuzishga muvaffaq bo‘ldilar va yordam oldilar. 1921-yilning bahorida Buyuk Britaniya va Gretsiya Turkiyaga qarshi intervensiya uyushtirdilar. Intervensiya turk xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Va, nihoyat, 1922-yilning 26-avgustida Turkiya armiyasi hujumga o‘tdi.
Milliy-ozodlik urushi 1922-yil oktabr oyida g‘alaba bilan tugadi. 1-noyabrida sultonlik hokimiyati tugatildi. 1923-yilning 29-oktabrida Turkiya Respublika deb e’lon qilindi. Kamol Otaturk birinchi Prezident etib saylandi. Shu tariqa milliy-ozodlik inqilobi (kamolchilar inqilobi ham deyiladi) suveren Turkiya davlatining tashkil etilishi bilan yakunlandi. 1923-yilning 24-iyulida Antanta davlatlari Lozanna konferensiyasida mustaqil Turkiya Respublikasini tan oldilar. 1924-yilda xalifalik tugatildi.
Birinchi jahon urushi
va Turkiya
Mustafo Kamol (Otaturk).
106
Turkiya Respublikasi
ichki siyosati
Tashqi siyosat
Turkiya hukumati mamlakatdagi chet el mulklarini sotib olish yo‘li bilan ularni davlat mulkiga aylantirish hamda iqtisodiyotga davlat mablag‘ini joylashtirish siyosatini yurita boshladi. Milliy bank tashkil etildi. Iqtisodiyotga davlat mablag‘ining joylashtirilishi chet el kapitali harakatini cheklab qo‘ydi. Hukumat, ayni paytda, milliy sarmoyalarning xususiy tashabbuslarini ham keng qo‘llab-quvvatladi. 1923-yilning oktabrida poytaxt Istambul shahridan Anqaraga ko‘chirildi. Din davlatdan ajratildi. Vaqf mulki bekor qilindi.

Ta’limga sof dunyoviy tus berildi. Diniy o‘quv yurtlari yopildi. Dunyoviy sud joriy etildi. Davlat hududi yangidan viloyatlarga bo‘lib chiqildi. 1924-yilning 20-aprelida Respublikaning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Dunyoviy qonunlar joriy etildi. Konstitutsiya va qonunlarda yevropacha hayot tarziga ruxsat etildi. Arab alifbosi lotin alifbosiga almashtirildi. 1928-yilda Konstitutsiyadan islom davlat dini ekanligi haqidagi qoidalar olib tashlandi. Shu tariqa Turkiya dunyoviy davlatga aylandi. 1931-yilda kamolchilar yangi dastur qabul qildi. Bunda partiya emblemasi 6 qanotli, ya’ni Turkiya — respublikachi, milliy, xalq, etatist, dunyoviy, inqilobiy davlat sifatida tasvirlandi. Antanta davlatlari uzoq vaqt Turkiya Respublikasini itoatda tutishga urindilar. Fransiya va Buyuk Britaniyaning yangi hukumatga sultonlik davridagi qarzlarini yuklashga muvaffaq bo‘lganligi ham shu bilan izohlanadi. 1928-yilda Turkiya ularga 86,5 mln lira qarz to‘laydigan bo‘ldi. Bu davrdan boshlab Turkiya tashqi siyosatida buyuk davlatlar bilan yaqinlashish an’anasi kuchaydi. Xususan, 1926-yilda Italiya bilan, 1930-yilda Germaniya bilan savdo shartnomasi imzolandi. AQSH ham tashqi savdoda Turkiyaga katta e’tibor bera boshladi. 1932-yilning iyul oyida Turkiya Millatlar Ligasiga qabul qilindi. Fashistlar Germaniyasi Turkiyaga katta qiziqish bilan qaray boshladi. Bu hodisa va Italiyaning Efiopiyaga hujumi Buyuk Britaniyani Turkiyaga munosabatini o‘zgartirishga majbur etdi.

1935-yilda ikki tomon ingliz-italyan nizosi kelib chiqqan taqdirda Turkiyaning Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilishiga kelishib oldilar. Buning evaziga hamda Sovet davlatining qo‘llab-quvvatlashi tufayli Turkiya Qora dengiz bo‘g‘ozlari (Bosfor va Dardanell) ustidan olib boriladigan xalqaro nazoratning bekor qilinishiga erishdi.

1936-yil iyulida Montryo shartnomasiga ko‘ra bo‘g‘ozlar nazorati yana Turkiya ixtiyoriga o‘tdi. Buyuk Britaniya Germaniya ta’sirining kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Turkiyaga ko‘p miqdorda harbiy texnika va qurolyarog‘ sota boshladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiya betaraf qoldi.

Biroq bu hol uning 1941-yil 18-iyun kuni Germaniya bilan do‘stlik to‘g‘risida shartnoma tuzishiga xalal bermadi.

1943-yilning 2-fevralida Germaniya armiyasining Stalingrad ostonalaridagi mag‘lubiyati Turkiyaning bundan keyingi siyosatiga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi.

Chunonchi, 1944-yil avgustda Turkiya Germaniya bilan diplomatik munosabatlarini uzdi. Ayni paytda u AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Bu yaqinlashuv 1945-yilning fevralida Germaniyaga qarshi urush e’lon qilishga olib keldi. Biroq Turkiya urush harakatlarida qatnashmadi.

Bu davrda Eron amalda Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasining yarim mustamlakasi edi. Sovet davlati 1917-yilning 3-dekabrida podsho hukumatining Eronga majburan qabul qildirgan shartnomalaridan voz kechdi. Rus qo‘shinlari evakuatsiya qilindi. Buyuk Britaniya esa 1918-yilning boshlarida Eronni butunlay ishg‘ol etishga kirishdi. Inglizlarni birinchi navbatda Eron nefti va O‘rta Osiyo paxtasi qiziqtirardi. Bundan ko‘zlangan maqsad Eronni yarim qaram holatda saqlashni davom ettirish va milliy-ozodlik harakatlarining Hindistonga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Buyuk Britaniya 1919-yilning 9-avgustida Eron hukumatini tengsiz shartnoma imzolashga majbur etdi. Vosiq ud-davla bunga qarshilik qilolmadi. Unga ko‘ra, armiya, moliya, tashqi savdo, yo‘l qurilishi nazorati ingliz maslahatchilari qo‘liga o‘tdi.

Biroq Eron xalqi yarim mustamlaka holatiga ko‘nikmagan, albatta. 1919-yildan mamlakatda milliy-ozodlik kurashi boshlandi. Muhammad Xiyoboniy boshchiligida Tabrizda katta qo‘zg‘alon bo‘lib o‘tdi va hokimiyatni egallab, «Ozodiston»ni tuzdi. Resht shahrida G‘ilon Sovet Respublikasi tuzildi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya o‘ziga xayrixoh guruhlarning hokimiyatga kelishiga harakat qildi. Bunga davlat to‘ntarishini uyushtirish yo‘li bilan erishdi. 1921-yil 21-fevral kuni Rizoxon boshchiligidagi harbiylar Tehronda davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Rizoxon harbiy ishlar vaziri bo‘lib qolsa-da, amalda hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Yangi hukumat mamlakatdagi siyosiy kayfiyat ta’sirida 1919-yilgi ingliz-eron shartnomasini bekor

qilishga majbur bo‘ldi. Biroq Buyuk Britaniya mavqei saqlab qolindi. Ayni paytda, yangi hukumat 1921-yilning 26-fevralida Sovet Rossiyasi bilan ham shartnoma imzoladi.
Eron xalqining 1919—1922-yillardagi milliy-ozodlik harakati izsiz ketgani yo‘q. Buning natijasida Buyuk Britaniya Erondan o‘z armiyasini olib ketishga majbur bo‘ldi. Eron armiyasi va moliya tizimida ingliz maslahatchilarining ishlashi taqiqlandi. Biroq inglizlar o‘z ta’sirini saqlab qolaverdi. Lekin 1922-yildan boshlab Eron AQSH bilan yaqinlasha boshladi. 5 ta viloyatda neft qazish ishlarini ijaraga berdi. Lekin ko‘p o‘tmay bekor qilindi. Chunki ingliz-eron neft kompaniyasida ularning ta’siri kuchli edi.
1920—1922-yillarda mamlakatda markaziy hokimiyatni kuchaytirish borasida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Chunonchi, separatchi kuchlar qarshiligi bostirildi. Turli ko‘rinishdagi qurolli kuchlar yagona armiyaga birlashtirildi. Bu o‘zgarishlar Rizoxon nomi bilan bog‘liq edi. 1923-yil oktabrida u bosh vazir lavozimini egalladi. 1925-yilning 31-oktabrida Eron parlamenti (majlis) Kojarlar sulolasi ag‘darilganligini va hokimiyat Rizoxon-
Eronning ichki va
tashqi siyosati

ga topshirilganligini e’lon qildi. 12-dekabr kuni esa Rizoxon Eron shohi deb e’lon qilindi.
1929—1933-yilgi jahon iqtisodiy inqirozi davrida ishlab chiqarish 30—40 foizga tushdi, gilam narxi 75 foizga arzonlashdi. Mamlakatda qator islohotlar o‘tkazildi. «Xolisa» yerlarni sotishga ruxsat etildi. Pul solig‘i joriy etildi. Davlat yerlari ijaraga beriladigan bo‘ldi. Dunyoviy maktablar ham ochildi. 1934-yilda Tehron universiteti ochildi. 1935-yilda ayollarning paranjisiz yurishi haqida qonun chiqarildi. Yevropacha turmush tarziga ruxsat etildi. Ayni paytda shoh hokimiyati tobora kuchayib bordi. Parlament huquqi cheklandi.
1933-yilda ingliz-eron neft kompaniyasi bilan yangi shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, kompaniyaning davlatga to‘laydigan to‘lovi miqdori oshirildi. Buning evaziga Kompaniya ijara muddatini 1993-yilgacha uzaytirib oldi.
Rizoxon Sovet davlati bilan munosabatlarni tobora cheklab qo‘yish siyosatini yuritdi. 30-yillar oxirida Eron va Sovet davlati o‘rtasidagi savdo munosabatlari to‘xtab qoldi. Ayni paytda Germaniya bilan yaqinlashuv kengaya bordi. Eron tashqi savdosining 40—45 foizi Germaniyaga to‘g‘ri keldi. Eron strategik jihatdan Germaniya uchun nihoyatda zarur edi.
Birinchi jahon urushi oxirida Afg‘oniston mustaqil davlat hisoblansa-da, amalda Buyuk Britaniyaga qaram davlat edi. Mamlakat hukmdori amir Habibullaxon inglizlar tayanchi edi. Mamlakatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartiblarga qarshi kuchlar ham vujudga keldi. Bu kuch «Yosh afg‘onlar harakati» deb atalgan. Ularning maqsadi davlat mustaqilligiga erishish va erkin tadbirkorlik munosabatlarini qaror toptirish edi. Ana shunday sharoitda, 1919-yilning fevralida saroy fitnasi uyushtirildi. Uning natijasida amir Habibullaxon o‘ldirildi. Taxtni Habibullaxonning o‘g‘li Omonullaxon egalladi. U yosh afg‘onlar harakati bilan mahkam bog‘langan edi. 1919-yilning 28-fevralida Omonullaxon Afg‘onistonni mustaqil davlat deb e’lon qildi.
Sovet Rossiyasi o‘z janubiy chegaralarida Buyuk Britaniyaning mustahkamlanib olishini va uning Afg‘oniston bilan birga Turkistondagi milliyozodlik kurashi tayanchi bo‘lib qolishini istamas edi. Shuning uchun ham Afg‘onistonning davlat mustaqilligini birinchi bo‘lib Sovet Rossiyasi tan oldi. Ayni paytda, Afg‘onistonga zarur bo‘lib qolsa, harbiy yordam berishini ham ma’lum qildi. 1921-yilda sovet-afg‘on shartnomasi imzolandi.
Buyuk Britaniya Afg‘oniston davlatining mustaqil siyosat yuritishiga aslo chiday olmadi. Afg‘onistonni itoatkor davlatga aylantirish maqsadida 1919-yilning 3-mayida unga hujum qildi, shu tariqa uchinchi ingliz-afg‘on urushi boshlandi. Inglizlar 300 ming qo‘shin bilan hujum boshladi. Afg‘on armiyasi 60 ming kishi edi. Lekin 200 mingdan ortiq jangchisi bo‘lgan afg‘on qabilalari chegara bo‘ylab joylashgan edi. Shu sababli ingliz armiyasining hujumi

muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 8-avgust kuni Ravalpindi shahrida ingliz-afg‘on shartnomasi imzolandi. Bu voqea mustaqil Afg‘on davlatining tan olinishini ham anglatar edi. Lekin 3 mln aholini o‘z ichiga olgan afg‘on qabilalari hamon Hindiston hisobida qoldi. Omonullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Bu o‘rinda 1923-yilda qabul qilingan Afg‘oniston davlatining birinchi Konstitutsiyasi muhim rol o‘ynadi. Qabila boshliqlari hokimiyati cheklab qo‘yildi va ular davlat soliqlarini yig‘ish huquqidan mahrum etildi. Ruhoniylarning sud va ta’lim tizimidagi mavqei ma’lum darajada cheklab qo‘yildi. Yosh afg‘onlar hukumati milliy sanoatni rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Chet el mollariga boj ko‘paytirildi.

1923-yilda yerga xususiy mulkchilikni joriy etish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Dunyoviy o‘quv yurtlari kengaytirildi. Xotin-qizlar gimnaziyasi ochildi. Nikoh haqida qonun qabul qilindi. Ko‘p xotinlilik cheklandi. Yer solig‘i natural emas, pul bilan olinadigan bo‘ldi. Bu ijobiy o‘zgarishlar, tabiiyki, aholi kambag‘al qismining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada aholining bu qatlami orasida hukumat siyosatidan norozilik vujudga keldi.

Yosh afg‘onlar hukumatiga qarshi hukmron tabaqalar bundan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalandilar. 1924-yilda Xostda reaksion g‘alayon ko‘tarildi. Podshohni «dindan qaytgan» deb e’lon qilindi. Xotin-qizlar gimnaziyasi yopildi. 1927-yilda Omonullaxon chet el safarida bo‘ldi. Misr parlamentiga afg‘on qilichini taqdim qilar ekan «mustaqillik jangda qo‘lga kiritiladi, sadaqa qilinmaydi», – dedi. 1928-yilda safardan qaytgan Omonullaxon umumiy majburiy xizmat joriy etdi. Feodal nishonlarini bekor qildi. Qirolicha Surayyo ochiq yuz bilan delegatlar oldiga chiqdi. Natijada feodallar 1928-yilning kuzida yosh afg‘onlar hukumatiga qarshi qo‘zg‘alon uyushtirishga erishdilar. Buning oqibatida 1929-yilning yanvarida Omonullaxon hukumati ag‘darildi. Amirlik taxtini reaksiya tayanchi Bachai Sako egalladi. Yangi hukumat yosh afg‘onlar boshlagan islohotlarni bekor qildi. Bu hol Afg‘onistonning burjuacha yo‘ldan rivojlanishi tarafdori bo‘lgan kuchlarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Bu kuchlar 1929-yilning oktabr oyida general Muhammad Nodir boshchiligida hokimiyatni egalladilar. Bachai Sako taxtdan ag‘darildi.

Muhammad Nodirshoh markaziy hokimiyatni mustahkamlagani holda, mahalliy xonlar va ruhoniylarning qator imtiyozlarini ham tikladi. Chunonchi, ruhoniylar sud ishlari va ta’lim sohasida avvalgi mavqega ega bo‘ldilar. Biroq ularning faoliyati davlat nazorati ostiga olindi. 1931-yilda mamlakatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. U Afg‘onistonning mutlaq monarxiyadan konstitutsiyaviy monarxiya davlatiga aylanishi yo‘lida yangi qadam bo‘ldi. 1933-yilda Nodirshoh vafot etgach, taxtga o‘g‘li Muhammad Zohirshoh o‘tirdi. U otasi kabi ichki siyosatda milliy, iqtisodiyotda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish yo‘lini tutdi.

Afg‘onistonning tashqi siyosati har doim ham bir maromda bo‘lmadi. Masalan, Omonullaxon davrida shimoliy qo‘shni Sovet davlati bilan do‘stona munosabat o‘rnatilgan bo‘lsa, Bachai Sako davrida, aksincha, bu munosabat yomonlashdi. Bunga Afg‘onistonning Turkistondagi milliy-ozodlik harakatini qo‘llab-quvvatlaganligi sabab bo‘ldi. Buyuk Britaniya Afg‘onistonda o‘z mavqeyini kuchaytirishga harakat qildi. Nodirshoh davrida afg‘on-sovet munosabatlari yana o‘z iziga tusha boshladi. 1931-yilning 24-iyunida Afg‘oniston va Sovet davlati o‘rtasida betaraflik va hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya va Italiya Afg‘onistonga qiziqish bilan qaray boshladi. Chunki Afg‘oniston geografik jihatdan Sovet davlati hamda Germaniya va Italiyaning siyosiy raqiblaridan biri bo‘lmish Buyuk Britaniya mustamlakasi Hindistonga yaqin edi. Ular Afg‘onistonni betaraflik yo‘lidan qaytarishga urindilar. Lekin bunga muvaffaq bo‘lolmadilar. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Afg‘oniston betarafligi e’lon qilindi.

1941-yilda esa, Buyuk Britaniya va Sovet davlati murojaati bilan Afg‘oniston hududidan elchixonalar xodimlaridan tashqari barcha Germaniya va Italiya fuqarolari chiqarib yuborildi. Urush davomida Afg‘oniston o‘z betarafligini saqlab qoldi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Turkiya Respublikasi qay tariqa tashkil topgan?
2. Turkiya hukumatining ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz? Kamol Otaturk kim?
3. 1919-yilgi ingliz-eron shartnomasining mazmuni haqida so‘zlab bering.
4. 1921-yilda Eronda yuz bergan to‘ntarish qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Eronning urushdan avvalgi tashqi siyosatidagi asosiy islohotlarni qayd eting.
6. 1919-yilda Afg‘onistonda qanday kuchlar siyosiy fitnani amalga oshirgan va qanday oqibatlarga olib kelgan?
7. Omonullaxon va Zohirshoh davridagi Afg‘onistonni qiyoslang.
8. Bachai Sako kim edi?

JADVALNI TO‘LDIRING

Turkiya Eron Afg‘oniston
ichki
siyosat
tashqi
siyosat
ichki
siyosat
tashqi
siyosat
ichki
siyosat
tashqi
siyosat
Tashqi siyosat
?

12-§. Yaponiya

Yaponiya Birinchi jahon urushida Antanta tarafida qatnashdi. Binobarin, u g‘oliblar safida bo‘ldi.

Antanta Yaponiyani quruq qo‘ymadi. Unga Shandun yarim oroli, Tinch okeandagi Germaniyaga qarashli Marian, Karolina, Marshall orollari mandati taqdim etildi. Bu orollar muhim strategik ahamiyatga ega edi. Ular Yaponiyaga Tinch okean akvatoriyasi markaziga chiqish va AQSH ning asosiy harbiy-dengiz bazasi bo‘lmish Gavay orollariga yaqinlashish imkonini berdi. Ayni paytda Yaponiya Xitoyda o‘z mavqeyini mustahkamladi. Uzoq Sharq va Tinch okean havzasi davlatlari bozorini shitob bilan egallay boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, yapon monopoliyalari (Mitsui, Mitsubisi, Yasuda, Sumitomo)ning daromadlarini yanada ko‘paytirdi. Urush yillari yapon magnatlari uchun «Oltin davr» bo‘ldi. To‘qimachilik 4,5, metallurgiya 6, mashinasozlik 5,5 baravar o‘sdi. Biroq mamlakatda mehnatkashlarning turmush darajasi pasaydi. Bu hodisa 1918-yilning 3-avgustida Toyama prefekturasida yuz bergan «sholi isyoni»da o‘z ifodasini topdi.

Bu isyon chayqovchilar tomonidan sholining narxini oshirib yuborish natijasida kelib chiqdi. 10-avgustda isyon Kiotoga ham tarqaldi. Och qolgan isyonchilar do‘konlarni bosib ola boshladilar. Qisqa muddat ichida «sholi isyoni» butun Yaponiyaning uchdan ikki qismiga tarqaldi. Biroq hukumat isyonni qattiqqo‘llik bilan bostirdi. Minglab kishilar hibsga olindi, ko‘plari surgun qilindi va umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi.

Yaponiya mustamlakachi imperiyasi asoslarini larzaga keltirgan bu isyon mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashining yangi to‘lqini ko‘tarilishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yaponiyaning o‘zida urushga qarshi kurash kayfiyati kuchaydi. Buning ustiga, Uzoq Sharqda Qizil Armiya yapon bosqinchilariga qaqshatqich zarba bera boshladi.

Shunday bir sharoitda, 1920—1922-yillardagi iqtisodiy inqiroz Yaponiya iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Buning sababi iqtisodiyotning tashqi bozorlarga qaramligi edi. Inqiroz mamlakat ichkarisida mehnat va sarmoya o‘rtasidagi ziddiyatni yanada keskinlashtirdi.

1923-yilning oxiriga kelib Yaponiya iqtisodiyotida jonlanish bo‘ldi. Bunga shu yilning 1-sentabrida yuz bergan yer qimirlashidan so‘ng boshlangan tiklash ishlari qulay sharoit yaratdi. Hukumat yirik tadbirkorlar zarar ko‘rmasligi uchun barcha zarur choralarni ko‘rdi. Chunonchi, ularning barcha to‘lovlari muddatini kechiktirdi. Ko‘rgan zararlari uchun kompensatsiya to‘lovini amalga oshirdi. Yapon monopoliyalari katta foyda miqdorini saqlab qolish uchun eksport tovarlari narxini pasaytirdi. Mamlakatda cho‘yan ishlab chiqarish 2 baravar o‘sdi va 1 mln 100 ming tonnaga, po‘lat ishlab chiqarish 842 ming tonnadan

Yaponiyaning ichki siyosati

«Sholi isyoni»

Iqtisodiy ahvol

Yaponiyaning tashqi siyosati

1 mln 720 ming tonnaga o‘sdi. Umumiy saylov huquqi haqida qaror qabul qilindi. Saylovchilar 3 mln dan 4,3 mln ga ko‘paydi.

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Yaponiya iqtisodiyotiga yanada katta zarba berdi. Bu yapon va amerika bozorlarining bir-biri bilan juda mustahkam bog‘lanib qolganligining, Yaponiya iqtisodiyoti boshqa buyuk davlatlar iqtisodiyotiga nisbatan zaifligining, 1923-yilda yuz bergan yer qimirlashi oqibatlari chuqurligining natijasi edi. Inqiroz, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida og‘ir kechdi. AQSHga ipak eksport qilish hajmi 30 foiz kamaydi. Ipak narxi keskin tushib ketdi. 1931-yilga kelib sanoat mahsulotlari 31, eksport 65, import 72 foizga qisqardi. Inqiroz yillarida ishsizlar soni 3 mln kishini tashkil etdi. Inqiroz mamlakat ichkarisida ijtimoiy ahvolni keskinlashtirib yubordi. Mamlakatda «Yosh zobitlar va yangi konsernlar ittifoqi» vujudga keldi. Ular mayda va o‘rta tadbirkorlar manfaatini ko‘zlar edilar. Inqiroz ularning ahvolini yanada og‘irlashtirib yuborganligi yosh zobitlarni befarq qoldirmadi. Chunki ular Yaponiya jamiyatida eng ko‘p zarar ko‘rgan qatlamning vakillari edi.

Ikkinchidan, Yaponiyaning harbiy-dengiz qudratini cheklovchi turli xalqaro shartnomalar yosh zobitlarda kuchli norozilik uyg‘otdi. Biroq Yaponiyada vujudga kelgan yangi ittifoq demokratik kayfiyatdagi kuchlarning ittifoqi emas edi. Aksincha, bu ittifoq Yaponiyada fashizm yo‘liga o‘ta bordi. Ayni paytda yosh zobitlar imperatorga sodiq edilar. Ular imperatordan eski konsernlar hukmronligini cheklashni talab eta boshladilar. Parlamentga qarshi chiqdilar. Shu tariqa Yaponiya fashistlashib bordi. Ular «panosiyo» va dunyoga hukmronlik g‘oyalarini zo‘r berib targ‘ib eta boshladilar. Yosh zobitlar yangi konsernlar egalarining hokimiyatga intilishini qo‘llab-quvvatlay boshladilar. Biroq eski konsernlar katta moliyaviy qudratga ega bo‘lganliklari uchun ularning mavqei hali qudratli edi. Eski va yangi konsernlar egalarini birlashtiruvchi bir omil mavjud edi. Bu omil — dunyoga hukmron bo‘lishga intilish edi.

1932-yilning 15-mayida yosh zobitlarning fashistik isyoni ko‘tarildi. Buning natijasida, hatto, mamlakat bosh vaziri Inukai o‘ldirildi. Isyon bostirilgan bo‘lsa-da, mamlakatda harbiylar mavqei har qachondagidan oshib ketdi. Shu davrdan boshlab 1945-yilgacha hukumatni boshqarish faqat harbiy byurokratiya vakillariga topshirilgani bejiz emas. Shunga qaramay, 1936-yilning 26-fevralida 1500 harbiy qatnashgan ikkinchi fashistik isyon uyushtirildi. Isyon 29-fevral kuni bostirilgan bo‘lsa-da, u Yaponiya hukmron doiralarini qattiq tashvishga solib qo‘ydi. 17 isyonchi o‘ldirildi. Ular mamlakatda ro‘y bergan chuqur ichki siyosiy inqirozni agressiv harbiy harakatlar boshlash yo‘li bilan bartaraf etishga qaror qildilar.

Urushdan so‘ng Tinch okean havzalarida Yaponiyaning AQSH bilan munosabatlari keskinlasha bordi. Buning sababi har ikki tomonning bu

mintaqada yetakchilikka intilishi edi. Hatto Vashington konferensiyasi (1921-

yil noyabr) qarorlari ham buyuk davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni to‘la bartaraf eta olmadi. Yapon monopoliyalari katta foyda miqdorini saqlab qolish uchun eksport tovarlarining narxini pasaytirdi. Ayni paytda Yaponiya monopoliyalari Sovet davlati bilan munosabatlarning yaxshilanishiga harakat qildi. Chunki Yaponiya Rossiyaning sharqiy qismiga Yaponiya iqtisodiyoti uchun katta xomashyo manbayi sifatida qarar edi. Yaponiya bunday manbani 1918—1925-yillar davomida harbiy yo‘l bilan qo‘lga kirita olmadi. Aksincha, Yaponiya uyushtirgan harbiy intervensiya mag‘lubiyatga uchradi. Endi Sovet davlati bilan manfaatli iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishdan boshqa yo‘l yo‘q edi.

Shuning uchun 1925-yilning 20-yanvarida Sovet davlati bilan Yaponiya o‘rtasida «O‘zaro munosabatlarining asosiy tamoyillari to‘g‘risida» shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, Yaponiya Sovet Rossiyasi hududidagi so‘nggi harbiy qismlarini olib chiqib ketdi. Biroq bu Yaponiya hukmron doiralarining sovet Uzoq Sharqi hududlariga da’volaridan voz kechdi, degani emas edi. 1927-yilda faol agressiv tashqi siyosat tarafdorlari hukumati tuzildi. Yangi hukumat o‘z maqsadlarini «Tanaka memorandumi» deb atalgan hujjatda ifoda etdi.

1927-yilning 25-iyulida imperatorga yuborilgan bu hujjatda Yaponiyaning dunyoga hukmronlik qilishiga ochiqdan-ochiq da’vo qilingan edi. Chunonchi, hujjatda quyidagilar yozilgan edi: «Xitoyni bosib olish uchun avval Manjuriya va Mo‘g‘ulistonni bosib olishimiz zarur. Dunyoni bosib olish uchun esa avval Xitoyni bosib olishimiz lozim. Agar biz Xitoyni bosib ololsak, Osiyoning barcha kichik davlatlari, Hindiston, shuningdek, janubiy dengiz davlatlari bizdan qo‘rqadi va bizning oldimizda taslim bo‘ladi. Bizning milliy rivojlanish dasturimizga Mongoliya dalalarida Rossiya bilan qilich urushtirish kiradi... Biz AQSH ni yakson qilishimiz zarur». Yaponiya hukmron doiralari tez orada o‘z orzularini amalga oshirishga kirishdilar. 1931-yilning sentabrida Yaponiya armiyasi Xitoyning shimoli-sharqiga — Manjuriyaga hujum qildi va 1932-yilning boshlarida bosib oldi. 1932-yilda Xitoyning boshqa qismlariga bostirib kirdi. 1932-yil martida bo‘lib olingan yerlarda Manchjou-Go davlatini tuzdi. 1932-yil yozida Jexe va Xebey viloyatlarini egalladi. AQSH bu harakatlarni ma’qulladi va 147 mln dollarlik qurol-yarog‘ yetkazib berdi. Xalqaro hamjamiyat nazaridan xoli bo‘lish maqsadida Yaponiya 1933-yilning mart oyida Millatlar Ligasidan chiqdi. 1934-yilda esa, Sharqiy Osiyoga hukmronlik da’vosi bilan chiqdi va harbiy kuchlarini cheklagan Vashington shartnomasidan voz kechishini ma’lum qildi. Yaponiya Germaniya bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi. Chunki G‘arbni Germaniya, Sharqni Yaponiya egallashi kerak edi. 1936-yil noyabrda ikki davlat o‘rtasida «Antikomintern ahdnomasi» tuzildi.

Yaponiya Sovet davlati chegaralarida turli janjallarni kuchaytirdi. 1938-yil 29-iyul — 11-avgustda Sovet davlati hududiga hujum uyushtirdi. Bu voqea Hasan ko‘li hududida (Primoreda) yuz berdi. Biroq Sovet armiyasi

o‘z hududini yapon qo‘shinlaridan tozalashga muvaffaq bo‘ldi. 1938-yilning sentabrida imzolangan Myunxen shartnomasi (uning qanday shartnoma ekanligini eslang) Yaponiya hukmron doiralarining ishtahasini yanada oshirib yubordi. Shu yilning 3-noyabrida Yaponiya Sharqiy Osiyoda yangi tartib o‘rnatish haqida deklaratsiya e’lon qildi.

1939-yilning 11-may kuni Yaponiya armiyasi Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasiga (MXR) hujum qildi (Xalxin-Gol daryosi bo‘yida). O‘zaro shartnomaga ko‘ra, sovet armiyasi MXR ga yordam ko‘rsatdi. To‘rt oy davom etgan urushda Yaponiya armiyasi tor-mor etildi. Shunga qaramay, Yaponiya o‘z niyatlaridan (ya’ni Sharqiy Osiyoda hukmronlik o‘rnatishdan) voz kechmadi. 1939-yil bahorida fashist davlatlar Buyuk Sharqiy Osiyo kengligida yangi tartib o‘rnatish borasida Yaponiya gegemonligini tan oldi. Lekin Yaponiyaning Sharqiy Osiyo kengligida katta manfaatlarga ega bo‘lgan boshqa davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya) bilan munosabatlari keskinlashib bordi. Yaponiyaning ularga qarshi urush boshlashi muqarrar edi. Bu omil,

shuningdek, Xalxin-Goldagi mag‘lubiyat, Sovet-Germaniya shartnomasi (1939-yil 23-avgustdagi) Yaponiyaning Sovet davlati bilan munosabatini o‘zgartirishga majbur etdi.
Yevropada urush harakatlari boshlanishi bilan 1939-yil 4—13-sentabrda Yaponiya hukumati deklaratsiya e’lon qilib, G‘arbdagi urushga aralashmasligini bildirdi. 1940-yil 1-avgustda Kanae Bosh vazirlikni egalladi va Sharqiy Osiyoda «yangi tartib o‘rnatish» rejasini davom ettirdi.
1940-yil 23-sentabrda Yaponiya Hindixitoyning shimoliga bostirib kirdi. 27-sentabrda Tokioda Germaniya va Italiya bilan uchlik siyosiy ittifoqini 10 yil muddatga tuzdi. Bu narsa uning fashistik davlatlarga o‘z maqsadi yo‘lida butunlay sherik bo‘lganini anglatar edi. 1941-yil 13-aprelda Sovet davlati bilan betaraflik shartnomasini tuzdi. Lekin «Kantokuen» rejasini tuzib, qulay fursatni poylab turdi. Armiya 700 ming kishiga yetkazildi. AQSH bilan munosabatlar keskinlashdi.
Yaponiya 1941-yil 7-dekabrda AQSHning Pirl-Xarbor bazasiga to‘satdan hujum qildi va ko‘p talafot yetkazdi. Malayya, Birma, Tailand, Indoneziya, Filippin hududlarini egalladi.
1942-yildan boshlab ingliz-amerika qo‘shinlari qarshi hujumga o‘tdi va Yaponiyaning asosiy kuchlarini tor-mor keltirdi. 1945-yil 6—9-avgustda AQSH Yaponiyaga atom bombasini tashladi. 9-avgustda SSSR hujumga o‘tdi. 2-sentabrda Yaponiya so‘zsiz taslim bo‘ldi. Urushda o‘lgan, yarador bo‘lganlar, izsiz yo‘qolganlar bo‘lib 5 mln kishini yo‘qotdi. 340 harbiy kema, 50 ming samolyot, 8,4 mln tonnajlik savdo kemalaridan ajraldi. Zarar 64,3 mlrd iyenni tashkil qildi. 1937—1945-yillar orasida 270 mlrd iyen harbiy xarajat qildi.
Urushda ishtiroki
115

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushining Yaponiya uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. 1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining Yaponiya uchun oqibatlari haqida so‘zlab bering.
3. «Panosiyo» g‘oyasining mohiyati nimadan iborat edi?
4. Yaponiya tashqi siyosatiga xos xususiyatlar haqida so‘zlab bering.
5. «Tanaka memorandumi» nima?
6. Yaponiya nima uchun fashistik Germaniya bilan yaqinlashdi?
7. Yaponiya bosib olgan joylarni xaritadan belgilang.

JADVALNI TO‘LDIRING.

IKKI JAHON URUSHI ORALIG‘IDA YAPONIYA

Sana	Asosiy voqealar	Mamlakat uchun ahamiyati

13-§. Arab davlatlari

Arab davlatlari dunyoning ikki qit’asida (Osiyo va Afrikada) joylashgan. XX asr boshlarida barcha arab davlatlari mustamlaka yoki yarim mustamlaka bo‘lganlar. Xususan, Osiyoda joylashgan arab davlatlari Turkiya imperiyasi tarkibiga kirgan. Afrika qit’asidagi Misr va Sudan — Buyuk Britaniyaning; Tunis, Jazoir va Marokash — Fransiyaning; Marokashning bir qismi — Ispaniyaning; Liviya esa Italiyaning mustamlakasi edi. Birinchi jahon urushi natijasida Turkiya imperiyasi quladi. Biroq bu hodisa barcha arablarga ham mustaqillik keltirgani yo‘q. Saudiya Arabistoni va Yaman mustaqil davlatlarga aylandi. Osiyodagi arab hududlari (Millatlar Ligasining mandat tizimiga asosan) Buyuk Britaniya va Fransiya nazorati ostiga berildi. Shimoliy Afrikada yashovchi arab xalqi mustamlaka zulmi ostida qolaverdi. Bunga qarshi xalq milliy-ozodlik kurashini tobora kuchaytirdi.
Suriya to‘rt asr davomida Turkiya mustamlakasi bo‘lib kelgan. Birinchi jahon urushi oxirida esa u Fransiya qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol etildi. XX asr boshlarida ham Suriyada o‘rta asrlarga xos ishlab chiqarish munosabatlari hukmron edi. Aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar, yerning ko‘pchiligi katta yer egalari (feodallar) qo‘lida edi. Dehqonlar (fallohlar)ning katta qismi bir parcha yerga ham ega emasdi. Ular ijaraga yer olib ishlashga majbur edilar.

Sanoat juda sekin rivojlanmoqda, o‘z vatanida ish topa olmagan ziyolilar chet elga ketishga majbur bo‘lardi. Suriya xalqi Turkiyaning Antanta davlat-
Urushning arab
davlatlariga ta’siri
Suriya
?
116
lariga to‘lashi zarur bo‘lgan tovonning bir qismini to‘lashga majbur etildi. Bu esa, o‘z navbatida, aholi turmush darajasini yanada yomonlashtirib yubordi.
1918-yilning noyabr oyidayoq Suriya xalqining
milliy-ozodlik kurashi boshlandi. Fallohlar
partizan guruhlarini tuza boshladilar. 1919-yil Latakiyada
ko‘tarilgan qo‘zg‘alon 3 yil davom etdi. Parij tinchlik konferensiyasida Suriyani mustaqil davlat deb tan olishgach, Suriya Bosh kongressi qonuniy mudofaa holati e’lon qildi. 1919-yilning noyabrida joylarda Xalq milliy kengashi tuzildi. Kengash partizan harakati uchun mablag‘ va qurol to‘plash bilan shug‘ullandi. Partizan guruhlariga ko‘ngillilarni jalb etdi. Milliy kengash dekabr oyida Suriya hukumatini tuzdi. Biroq mamlakat amiri Faysalning Fransiya bilan kelishuvchilik siyosati milliy-ozodlik kurashi kuchayishiga to‘g‘anoq bo‘la boshladi.
Faysal 1920-yil boshlarida davlat to‘ntarishi o‘tkazdi va parlament tarqatib yuborildi. Mart oyida o‘zini Suriya qiroli deb e’lon qildi. 1920-yilning aprel oyida, San-Remo shartnomasiga ko‘ra, Suriya Fransiyaning mandati nazoratiga berildi. Iyul oyida Fransiya armiyasi Damashq shahriga kiritildi. Harbiy vazir Yusuf Azma boshchiligidagi vatanparvar kuchlar Fransiya qo‘shinlariga qarshi tengsiz jang qildilar va katta talafot ko‘rdilar. Qirol Faysal esa taslimchilik yo‘lini afzal ko‘rdi. U armiyani qurolsizlantirdi, Damashqni esa Fransiya qo‘shinlariga jangsiz topshirdi. Fransiya harbiy ma’muriyati Faysalga ishonmas edi. Uni Buyuk Britaniya manfaatlariga xizmat qiluvchi shaxs, deb hisoblardi. Shuning uchun ham Faysalni Suriyadan chiqarib yubordi.
1925—1927-yillar Suriya tarixiga milliy-ozodlik kurashining eng yuksalgan davri bo‘lib kirdi. Chunki 1925-yilning iyul oyida Jabel-Druz viloyatida dehqonlar ko‘targan qo‘zg‘alon boshlandi. Uning ta’sirida butun mamlakat miqyosida partizanlar harakati kuchaydi. Qo‘zg‘alonga Xalq partiyasi (1925-yil fevralida tuzilgan) rahbarlik qildi. 18-oktabrda partizanlar Damashq shahrini egalladilar. Fransiya armiyasi Damashqdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.
Biroq fransuzlar 2 kun davomida shaharni artilleriya va havodan bombardimon qildilar. Oqibatda vatanparvar kuchlar Damashqni tashlab chiqishga majbur bo‘ldilar. Vaqtdan yutish maqsadida ayyor fransuz harbiy ma’muriyati vatanparvar kuchlar vakillari bilan muzokara olib boraboshladi. O‘z ahvolini yaxshilab olgach esa, 1926-yilning may oyida hujumga o‘tdi. 1927-yilning bahoriga kelib qo‘zg‘alonni to‘la bostirishga erishdi. Fransuz ma’muriyati ayni paytda mahalliy kuchlarga qisman yon bosish siyosatini ham qo‘llay boshladi.
1928-yilda suriyaliklarga Ta’sis Majlisini chaqirishga ruxsat berdi. Biroq Ta’sis Majlisi fransuz ma’muriyati o‘ylaganchalik mo‘min-qobil bo‘lib chiqmadi. Aksincha, Ta’sis Majlisi mamlakat konstitutsiyasiga Suriyaning
Mustaqillik davridagi
og‘ir kurashlar
117
Fransiya mandati nazoratiga bo‘ysunishi haqidagi moddani kiritmadi. Bunga javoban Fransiyaning Suriyadagi Oliy komissari Ta’sis Majlisini tarqatib yubordi. Suriya parlamentini Konstitutsiyaga bu moddani qo‘shishga majbur etdi. Suriya parlament respublikasi deb e’lon qilindi. 1933-yilning noyabrida parlament ham tarqatib yuborildi. Konstitutsiya bekor qilindi.
Fransiyada xalq fronti hukumati hokimiyat tepasiga kelgach, tashqi siyosat masalasida ham ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, yangi hukumat harbiy yo‘l bilan Suriya masalasini hal etish mumkin emasligini to‘g‘ri baholay oldi. Suriya Konstitutsiyasi tiklandi. Vatanparvar kuchlar ittifoqiga kirgan partiya vakillari hukumati tuzildi.

Bu hukumat 1936-yilning sentabrida Fransiya hukumati bilan shartnoma tuzishga erishdi. Shartnomada Suriyaga 3 yil ichida mustaqillik berilishi ko‘zda tutilgan edi. Biroq Fransiya parlamenti bu shartnomani tasdiqlamadi. Aksincha, ikkinchi jahon urushi arafasida Suriya parlamenti yana tarqatib yuborildi. Konstitutsiya yana bekor qilindi. Biroq bu zarbalar milliy-ozodlik kurashini to‘xtatmadi.

Fransiya 1940-yilda taslim bo‘lgach, Suriyada ham Germaniya ta’siri kuchaya boshladi. Biroq bu uzoq davom etmadi. 1941-yilning iyul oyida ingliz-fransuz armiyasi Suriyaga kirdi. Mamlakatdan fashist agentlari quvildi. Ikkinchi jahon urushi tufayli qiyin ahvolga tushib qolgan Fransiyaning de Gol hukumati Suriyaga mustaqillik berishga majbur bo‘ldi. 1941-yilning 27-sentabrida Suriya mustaqil davlat, deb e’lon qilindi.

Birinchi jahon urushi yillarida Iroq hududi Buyuk Britaniya tomonidan ishg‘ol qilindi. Bu hol urushdan keyin ham davom etdi. Mamlakatning barcha qismlarida ingliz mustamlaka ma’muriyati tashkil etildi. Mustamlakachilik siyosati mamlakat xo‘jaligini halokat yoqasiga keltirib qo‘ydi. Ishchi kuchi yetishmasligi oqibatida ekin maydonlarining deyarli yarmi tashlandiq holga kelib qoldi. Bu ishga yaroqli erkak aholining katta qismi dastlab Turkiya armiyasiga, keyinchalik esa ingliz mehnat korpuslariga safarbar etilganligining oqibati edi. Mamlakatda ocharchilik yuz berdi. Turli yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Ingliz mustamlakachi ma’murlari katta yer egalarini o‘z tomonlariga og‘dirishga urindilar. Shu maqsadda dehqon jamoalariga qarashli yerlarni ham qabila shayxlari, diniy va dunyoviy rahnamolarga biriktirib qo‘yishdi. Biroq bu tadbir Iroqda ham milliy-ozodlik kurashining oldini ololmadi.

Vatanparvar kuchlar, ya’ni milliy burjuaziya, kichik va o‘rta qabilalar shayxlari, inglizlarning o‘z faoliyatlariga aralashuvidan norozi bo‘lgan qabila yo‘lboshchilari, dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, inglizlarga qarshi bo‘lgan yirik yer egalari, ruhoniylar «Mustaqillik posbonlari» deb ataluvchi jamiyat tuzgandi. Uning rahbari savdogar Ja’far Abu Timman edi. Jamiyat Iroqqa to‘la mustaqillik berishni talab etdi.

Inglizlar bilan kelishuvchilar tarafdorlari esa «Iroq vasiyati» deb ataluvchi jamiyatni tuzdilar. 1920-yilda milliy-ozodlik qo‘zg‘aloni boshlandi. 30-iyulda Rumeys shahrida yuz bergan qo‘zg‘alon umumiroq ozodlik urushiga aylanib ketdi. Qo‘zg‘alonchilar mamlakatning katta qismini ozod qilishga erishdilar. Buyuk Britaniya bu ozodlik urushini bostirish uchun 150 ming kishilik armiya tashladi. Bu armiya 1920-yilning noyabr oyida ozodlik urushini bostirishga musharraf bo‘ldi. Ozodlik urushi to‘lqinidan cho‘chib ketgan Buyuk Britaniya ichki kuchlar madadiga har qachongidan ham kengroq tayana boshladi. Shularning yordamidagina o‘z mavqeyini saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda oktabr oyida Iroqning muvaqqat hukumatini tuzdi, 1921-yilning 23-avgustida esa Angliyaning sodiq malayi Faysal al-Xoshimni (Suriyaning sobiq qiroli) Iroq qiroli deb e’lon qilinishiga erishdi. Amalda esa hokimiyat, mandat tizimi qoidasiga ko‘ra, ingliz Oliy komissari qo‘lida edi.

1922-yilda inglizlar Iroqqa yana bir og‘ir shartnomani qabul qildirdilar. Unga ko‘ra, Iroq hukumati xalqaro va moliyaviy masalalarni ingliz Oliy komissari maslahati bilan hal etishi zarur edi. Bundan tashqari, Iroqda ingliz qo‘shinlari saqlanib turadigan bo‘ldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti ingliz komissiyasi nazorati ostiga olindi.

1924-yilga kelib Buyuk Britaniya mandat tizimi yo‘li bilan Iroqda to‘la hukmronlikka erishdi. «Terkish petrolium» kompaniyasini tuzib, Iroq neftini qo‘lga oldi. 1927-yilda bu «Iroq petrolium kompaniyasi»ga aylantirildi. Biroq bu ozodlik kurashini to‘xtata olgani yo‘q. Iroq milliy partiyasi (rahbari Abu Timman),Iroq uyg‘onish partiyasi (rahbari as-Sadr) boshchiligida Iroq xalqi ozodlik kurashini davom ettirdi. Buning natijasida Buyuk Britaniya mustamlakachi hukumati Iroq vatanparvar kuchlariga yon bosishga majbur bo‘ldi va endi mandat nazoratini bekor qilish zarur,

degan xulosaga keldi.
1930-yilning 30-iyunida Buyuk Britaniya va Iroq o‘rtasida 25 yillik yangi shartnoma imzolandi. Iroq nomidan shartnomani Bosh vazir Nuri Said imzoladi. Shartnomaga ko‘ra, Buyuk Britaniya Iroq Millatlar Ligasiga kirgandan so‘ng, uni mustaqil davlat, deb tan oladigan bo‘ldi. Ayni paytda shartnoma Iroqni «do‘stlik» va «ittifoqchilik» rishtalari bilan Buyuk Britaniyaga bog‘lab qo‘ydi. Chunonchi, tashqi siyosatda Iroq Buyuk Britaniya bilan maslahatlashib olishga majbur edi. Iroqda ingliz harbiy bazalari saqlab qolindi. Bundan tashqari, Iroq mudofaasi masalasida Buyuk Britaniya manfaatlarini hisobga olishi zarur edi. Ayni paytda Buyuk Britaniya Iroqqa o‘z maslahatchilari va ekspertlarini yuborishda monopol huquqqa ega edi.
1932-yil 3-oktabrda Iroq Millatlar Ligasiga qabul qilindi va shu tariqa u to‘la bo‘lmasa-da, davlat mustaqilligiga erishdi. 1933-yilda hokimiyatga Al-G‘ayloniy keldi. Hukumat bir necha marta o‘zgardi.
Ozodlik kurashining yangi bosqichi
119
Hech bir davlat o‘z mustaqilligini oson yo‘l bilan mustahkamlay olmagan. Iroq ham bundan mustasno emas. 1936-yilning 29-oktabrida Iroqda o‘tkazilgan harbiy to‘ntarish buning dalilidir. Bu to‘ntarishga general Bakr Sidqiy rahbarlik qildi va Iroq qiroli G‘ozi 1 ni hukumatni tarqatib yuborishga majbur etdi. Iroqning eng boy shaxslaridan biri, to‘ntarishning faol tashkilotchisi Hikmat Sulaymon bosh vazir etib tayinlandi. Bakr Sidqiy esa Iroq armiyasi bosh shtabining boshlig‘i lavozimini egalladi. Hikmat Sulaymon hukumati «Milliy islohotlar hukumati» deb ataldi. Bu hukumat, hatto, davlat yerlarini yersiz dehqonlarga bo‘lib berishni va’da qildi. Biroq asosan katta yer egalari, qabila shayxlari va savdogarlardan iborat parlament agrar islohot o‘tkazishga yo‘l bermadi.
Hikmat Sulaymon va Bakr Sidqiylar esa o‘z siyosiy muxoliflarini qatag‘on qilishni davom ettirdilar. Ayni paytda ular fashistlar Germaniyasi va Italiya bilan yaqinlashish yo‘lini tuta boshladilar. Bunga qarshi bir qator vazirlar hukumat tarkibidan chiqdi. Shu tariqa «Milliy islohotlar» hukumati barham topdi. Bu hol oxir-oqibatda inglizlar tarafdori bo‘lgan kuchlar tomonidan Bakr Sidqiyga qarshi fitnalar uyushtirilishiga olib keldi. 1937-yilning avgustida Sidqiy o‘ldirildi. 1939-yilning 25-dekabrida Nuri Said boshchiligida yangi hukumat tuzildi. 1939-yilning 3-aprelida qirol G‘ozi 1 halok bo‘ldi (avtomobil halokatida) va uning 4 yashar o‘g‘li qirol deb e’lon qilindi. Shu tariqa amalda butun hokimiyat Nuri Said qo‘lida to‘plandi.
Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Iroq Germaniya bilan diplomatik aloqasini uzdi va o‘zining betarafligini e’lon qildi. Shunday bo‘lsa-da, uning iqtisodiyoti amalda Buyuk Britaniyaga xizmat qildi. 1941-yilning 1-aprelida «Oltin kvadrat» deb atalgan harbiy tashkilot (Al-G‘ayloniy) davlat to‘ntarishi o‘tkazdi. Biroq bu hol uzoq davom etmadi. 2-may kuni Buyuk Britaniya armiyasi harbiy harakat boshladi va Iroqni to‘la ishg‘ol etdi, yana Buyuk Britaniyaga xayrixoh kuchlar hukumati tiklandi. 1943-yilning 17-yanvarida Iroq Germaniya va Italiyaga qarshi urush e’lon qildi.
Misr XIX asrning 80-yillarida Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni metropoliya, xomashyo bazasiga aylantirdi. Mamlakatda saqlab qolingan qirollik hokimiyati amalda Buyuk Britaniya tayanchiga aylantirildi. Birinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng ozodlik kurashining yangi to‘lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar «Misr vakillari» («Vadf Misri») deb atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurashni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni Saad Zag‘lul boshqardi. Tashkilot Misrga mustaqillik berishni talab etdi. Bunga javoban inglizlar «Misr vakillari»ning faoliyatini taqiqladi. S. Zag‘lul Malta oroliga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qo‘zg‘alonining boshlanishiga turtki bo‘ldi.
Misr. Mustaqillik

uchun kurash
Milliy tiklanish
qiyinchiliklari
120
1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etdi. «Misr — misrliklar uchun» shiori ostida o‘tkazilgan ushbu tinch namoyish mustamlakachilar tomonidan o‘qqa tutildi. Bu namoyishning qo‘zg‘alonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo‘zg‘alon katta qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zag‘lul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konferensiyasiga ham yuborildi. Biroq Zag‘lul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi. Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektorati tan olindi. Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turish mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. Endi Buyuk Britaniya «yangi» — sinalgan yo‘lni tanladi. Bu yo‘l Misrga davlat mustaqilligi berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo‘li edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya 1922-yilning 28-fevralida Misrning mustaqilligini tan oldi. Misr mustaqil suveren davlat deb e’lon qilindi.

Buyuk Britaniya o‘zida Misr hududidagi imperiya yo‘llarini qo‘riqlash, Misrni chet el agressiyasidan himoya qilish, chet el manfaatlarini va kam sonli millat vakillarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Buyuk Britaniyaning yuqorida sinab o‘tilgan huquqlarini qonunlashtirib qo‘ydi. Chet elliklarning barcha huquq va imtiyozlari saqlab qolindi. 1924-yilning yanvarida Saad Zag‘lul boshchiligida hukumat tuzildi.

Saad Zag‘lul hukumati Sudan xalqining mustaqillik kurashini qo‘llab-quvvatlay boshladi. Shuning uchun Buyuk Britaniya hukumati Zag‘lulni hokimiyatdan chetlatishga qaror qildi. 1924-yilda misrlik terrorchi tomonidan Sudandagi ingliz general-gubernatori o‘ldirildi. Bundan Buyuk Britaniya Misrga qarshi harbiy harakat boshlashga bahona sifatida foydalandi. Natijada Zag‘lul hukumati iste’fo berishga majbur bo‘ldi. Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilish tarafdorlaridan iborat yangi hukumat tuzildi.

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Misr xalqi turmush darajasiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Chet el monopoliyalari mamlakatni talay boshladi. Paxtachilik qisqardi. Soliq eski holicha qoldi. Shunday bir sharoitda 1930-yilda Buyuk Britaniya Misrga yanada haqoratli yangi shartnomani qabul qildirishga urindi. Lekin Bosh vazir Naxxas poshsho buni qabul qilmadi. Shundan so‘ng qirol Fuad Ismoil Sidqiyni Bosh vazir qilib tayinladi. Bu hol milliy-ozodlik kurashining yangi to‘lqini boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Ozodlik kurashi rahbarlariga qarshi repressiyani kuchaytirish maqsadida Misr hukumati 1930-yilning oktabrida 1923-yilgi Konstitutsiyani bekor qildi va parlamentning huquqlarini cheklovchi yangi Konstitutsiyani amalga kiritdi. 1934-yilda mamlakatda g‘alla yetishtiruvchilar manfaatini himoya
Mustaqillikning qiyin
so‘qmoqlari
121
qilish maqsadida import g‘allaga boj to‘lovini oshirdi. Bu esa nonning narxini oshirib yubordi, mamlakatda kuchli namoyishlar va ish tashlashlar yuz berishiga olib keldi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya yangi siyosiy vaziyatga mos yo‘l tanlashga majbur bo‘ldi. Uning ko‘rsatmasi bilan 1935-yilning dekabrida 1923-yil Konstitutsiyasi qayta tiklandi.

1936-yilning avgustida Buyuk Britaniya Misrni o‘zi uchun qulay shartnoma imzolashga majbur etdi. Shartnomaga ko‘ra, Misrdagi ingliz Oliy komissari endilikda elchi deb ataladigan bo‘ldi. Nomiga bo‘lsa-da, ingliz okkupatsiya rejimi bekor qilindi. Biroq shartnoma Buyuk Britaniyaga Suvaysh kanali zonasi, Qohira va Aleksandriya shaharlarida o‘z armiyasini saqlash huquqini berdi.

Bundan tashqari, ingliz samolyotlari Misr hududi ustida uchish, Misr

aerodromlariga qo‘nish huquqiga ega bo‘ldi. Armiya ingliz harbiy missiyasi nazoratiga olindi. Shuningdek, urush harakatlari boshlansa, Buyuk Britaniya Misr hududidan tayanch sifatida foydalana olar edi. Shu tariqa 1936-yilgi ingliz-misr shartnomasi amalda ingliz hukmronligini saqlab qoldi.
1939-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Misr Buyuk Britaniya tomonida turishini ma’lum qildi. 2-sentabr kuni Misr hukumati mamlakatda harbiy holat e’lon qildi. Mamlakat iqtisodiyoti Buyuk Britaniya manfaati uchun xizmat qilaboshladi. Qirol Faruh boshchiligidagi siyosiy kuchlar guruhi Germaniya va Italiya bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi.
Ikkinchi jahon urushi boshlarida Italiya armiyasi Misr hududlariga ham bostirib kirdi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. Ingliz armiyasi 1941-yilning boshlarida Italiya qo‘shinlarini Misrdan surib chiqardi. 1942-yilda fashistlar Germaniyasi agenturasi Misrda davlat to‘ntarishini tayyorlashga kirishdi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun qirol saroyini ingliz armiyasi egalladi va Buyuk Britaniya tarafdori bo‘lgan hukumat tuzildi. 1943-yilning may oyiga kelib butun shimoliy rayon nemis-italyan qo‘shinidan tozalandi.
1945-yilning fevral oyida Misr Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e’lon qildi. Bu Misrga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ta’sis konferensiyasida qatnashish huquqini berdi.
Yuqorida ta’kidlanganidek, XX asr boshlarida ham Jazoir Fransiya mustamlakasi zulmi ostida edi. (Fransiya Jazoirni 1830-yildayoq bosib olgan edi.) Birinchi jahon urushi yillarida Jazoir iqtisodiyoti Fransiya manfaatiga xizmat qildirildi. Fransiya armiyasi saflariga chaqirilgan jazoirliklardan front orti ishlarida foydalanilgan. Urush Fransiyani qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Bunday sharoitda mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashi to‘lqinini pasaytirish nihoyatda muhim edi. Shu maqsadda metropoliya hukumati 1919-yilda Jazoir uchun alohida dekret chiqardi. Unga ko‘ra, soliq masalasida fransuzlar va jazoirliklar o‘rtasida mavjud notenglik tugatildi. Dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, sobiq harbiy xizmatchilar va davlat organlari, amaldorlarga mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkaziladigan saylovda qatnashish huquqi berildi.

Biroq dekret jazoirliklarning boshqa masalalardagi huquqsizligiga daxl qilmadi. Jazoir xalqi milliy-ozodlik kurashini hech qachon to‘xtatgan emas.
1920-yilda Jazoir vatanparvarlari «Yosh jazoirlik» partiyasini tuzdilar. Partiyaga Jazoir xalqining qahramoni Abdul-Qodirning nabirasi Amir Holid rahbarlik qildi.
Partiya jazoirliklar huquqini fransuzlar huquqiga tenglashtirishni, irqiy kamsitishni tugatishni, mahalliy aholidan Fransiya parlamentiga deputatlar saylanishiga ruxsat etilishini, matbuot va uyushmalarga birlashish kabi erkinliklar berilishini talab etdi. 1927-yilda «Saylangan musulmonlar federatsiyasi» tashkiloti hamda «Jazoir ulamolari ittifoqi» tashkil topdi va mustaqillik uchun kurashdi.
1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Jazoir iqtisodiyotiga katta talafot yetkazdi. Bu esa xalqning turmush darajasi yanada yomonlashuviga olib keldi. Buning ustiga to‘rt yil davom etgan qurg‘oqchilik oqibatida chorva mollarining 80 foizi qirilib ketdi.
1936-yilda Fransiyada hokimiyat tepasiga kelgan Xalq fronti hukumati mustamlakachilik tartibini yumshatishga qaratilgan qator o‘zgarishlarni joriy etdi. Tez orada Jazoir xalqining milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi barcha kuchlarning umumjazoir yig‘ini — Musulmon Kongressi chaqirildi. Kongress Xalq frontini qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qildi. Ayni paytda Kongress «Milliy xartiya» deb atalgan hujjat qabul qildi. Bu hujjatda mustamlakachilar joriy etgan, jazoirliklarni tahqirlovchi «yerli aholi kodeksi» ni bekor qilish talab etilgan edi.
1940-yilda Fransiya taslim bo‘lgach, Jazoir amalda fashistlarga qaram bo‘lib qoldi. Bu hol milliy burjuaziya orasida bo‘linish yuz berishiga olib keldi. Uning bir qismi Germaniya bilan, katta qismi esa Buyuk Britaniya va AQSH bilan hamkorlik qilish tarafdori edi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. 1942-yil noyabrida Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz-amerika qo‘shinlari nemisitalyan qo‘shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Fashist qo‘shinlari Jazoirdan

ham quvib chiqarildi. Lekin bu hodisa Jazoirni mustamlaka zulmidan ozod etmadi. U Fransiya mustamlakasi bo‘lib qolaverdi.

Birinchi jahon urushi oxirigacha ham Marokashning katta qismi hali mustamlakachilar tomonidan amalda bosib olinmagan edi. Mamlakatning xuddi shu ozod qismida bo‘ysunmas qabilalarning o‘z davlatlari mustaqilligini saqlab qolish yo‘lidagi kurashi boshlandi.

1920-yilda Ispaniya Marokashning Rif viloyatini bosib olish niyatida hujum uyushtirdi. Ispan bosqinchilariga qarshi kurashga Muhammad Abdul Karim boshchilik qildi. 1921-yilning iyulida rifliklar ispan qo‘shinlarini tor-mor etdilar. Sentabr boshlarida Rif Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi. Abdul Karim Respublika prezidenti lavozimini egalladi. Bundan Marokashning bir qismini bosib olgan Fransiya mustamlakachilari tashvishga tushib qoldilar. Ular qo‘zg‘alon fransuz mustamlaka hududlariga ham tar-

qalib ketishidan qo‘rqdilar. Endi Fransiya Rif Respublikasini tugatish payiga tushdi. Shu maqsadda 1924-yilning yozida unga hujum qildi. Biroq Fransiya o‘zi rejalashtirgan oson g‘alabaga erisha olmadi. Endi u Ispaniya bilan birgalikda Rif Respublikasini qonga botirishga kirishdi. 1925-yilning sentabrida bu ikki davlat armiyasi birgalikda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshladi. Urush harakatlari 1926-yilning may oyigacha davom etdi. Kuchlar teng bo‘lmagan bu urushda Rif Respublikasi armiyasi yengildi. Abdul Karim asir olindi. Shundan keyin ham qurolli qarshilik ko‘rsatish to‘xtamadi va 1934-yilgacha davom etdi. 1934-yilda Marokash milliy burjuaziyasi va ziyolilari «Mag‘ribchilar bloki» deb ataluvchi siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot Marokash sultoni hokimiyatini kengaytirishni talab etdi. Biroq mustamlakachilar bu talabni rad etdilar. 1937-yilda esa tashkilot faoliyati taqiqlandi. Ispaniya Marokashida Franko diktaturasi o‘rnatildi.

1940-yilda Fransiya Germaniya tomonidan tor-mor etilgach, Fransiya Marokashi Vishi hukumati nazorati ostiga o‘tdi. Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz-amerika qo‘shinlari fashistlar qo‘shinlarini tor-mor etgach, Marokashda Fransiya mustamlakachilik tartibi saqlanib qolaverdi.

XX asr boshlarida Tunis ham Fransiya mustamlakasi edi. To‘g‘ri, mamlakatini nomiga bo‘lsada, Tunis biyi boshqargan. Vatanparvar kuchlar 1920-yilda «Dastur» (Konstitutsiya) deb atalgan partiya tuzdilar. Unda milliy burjuaziya yetakchi mavqega ega bo‘ldi. «Dastur» Parij Tinchlik konferensiyasi Fransiyani Tunisda keng islohotlar o‘tkazishga majbur etadi, deb umid qilardi. Shu maqsadda u o‘z delegatsiyasini 1920-yilda Parijga yubordi. Biroq bu umid puchga chiqdi. Tez orada «Dastur» mamlakatda juda katta obro‘ qozona oldi. Hatto, Tunis biyi ham uning talablariga qarshi chiqmadi. Oxir-oqibatda Fransiya yon berishga majbur bo‘ldi.

1922-yilning iyul oyida Fransiya hukumati Tunisda Konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazish haqida dekret chiqarishga majbur bo‘ldi. Unga ko‘ra, Tunisda Katta Kengash (parlament) tuzilishiga ruxsat etildi. Biroq unda fransuzlarning vakillari ko‘pchilikni tashkil etishi belgilab qo‘yildi. «Dastur » a’zolarining bir qismi bunga rozi bo‘lsa-da, advokat Habib Burg‘iba boshchiligidagi guruh undan norozi bo‘ldi. Bu guruh 1934-yilda «Yangi dastur» partiyasiga birlashdi. Tez orada partiya rahbarlari hibsga olindi.

1936-yilda Fransiyada Xalq frontining hokimiyat tepasiga kelishi mustaqil mamlakatlardagi siyosiy partiyalarning ochiq faoliyat ko‘rsatishiga imkon tug‘dirdi. Butun mamlakatni namoyish qoplab oldi. Namoyishchilar Tunisga mustaqillik talab etdilar. Ayni paytda «Yangi dastur» partiyasining obro‘si o‘sib bordi. Bu narsa Fransiya mustamlakachilarini cho‘chitib yubordi.

1938-yilning aprelida namoyishchilarga qarshi tanklar tashlandi. «Yangi dastur» rahbarlari hibsga olindi va partiya faoliyati taqiqlandi. 1939-yilda Tunisda qamal holati joriy etildi. Oldinda mustaqillik uchun kurashning azobli yo‘llari turardi.

Tunis

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Arab davlatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Suriya xalqining milliy-ozodlik kurashi haqida so‘zlab bering. Yusuf Azma kim edi?
3. Suriya qay tariqa mustaqillikka erishdi?
4. Iroq xalqining milliy-ozodlik kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz? Ja’far Abu Timman faoliyati qanday kechdi?
5. Misr qay tariqa mustaqillikka erishdi?
6. Suriya, Iroq va Misr xalqining ozodlik uchun kurash yo‘llarini taqqoslang.
7. Jazoir, Marokash va Tunisda mustaqillik uchun kurash qanday bordi?

JADVALNI TO‘LDIRING.

ARAB DAVLATLARIDA OZODLIK KURASHI

Davlatlar	Ozodlik kurashi xususiyatlari

14-§. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari

Tropik Afrika deganda Afrikaning shimoli va janubi orasidagi o‘lka hudud tushuniladi. XVII—XIX asrlar davomida bu hudud Yevropa davlatlari tomonidan bosib olingan. Chunonchi, Dagomeya, Kamerun, Senegal, Mali, Ruanda, Somali, Togo, Markaziy Afrika Respublikasi, Gvineya, Gabon, Chad, Kongo, Niger, Mavritaniya, Madagaskar va boshqalar Fransiya mustamlakalari edi. Buyuk Britaniya esa Gana, Malavi, Nyasalend, Uganda, Sudan, Keniya, Nigeriya, Serra-Leone, Gambiyaga egalik qilardi. Yevropaning biroz rivojlangan kichik davlatlari ham mustamlakalardan quruq qolmagan. Masalan, Belgiya hozirgi Zair hududiga (Belgiya Kongosi deb atalardi) egalik qilgan. Portugaliya esa Angola, Mozambik, Gviniya-Bisauni bosib olgan edi. Italiya Eriteriya hamda Somalining bir qismiga, Ispaniya esa Ekvatorial Gvineya hamda Ispan Saxarasiga egalik qildi.

Janubiy Afrika davlatlariga bugungi Janubiy Afrika Respublikasi, Zimbabve, Zambiya, Namibiya, Botsvana, Lesoto, Svazilend kabi davlatlar kiradi. Ularning barchasiga Buyuk Britaniya egalik qilgan. Afrikada bosib olinmagan rasmiy mustaqil ikki davlat qolgan edi, xolos. Bular — Efiopiya va Liberiya davlatlari edi. Urushdan so‘ng Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Buyuk Britaniya, Fransiya, Portugaliya va Belgiya o‘rtasida taqsimlandi. Ko‘pchiligi asosan Buyuk Britaniya va Fransiya mandati nazoratiga berilgan. 1919-yil Parij sulh konferensiyasi qarorlariga muvofiq Millatlar Ittifoqi mandatli nazoratga berilgan hududlar uch kategoriyaga

Birinchi jahon urushidan keyingi Afrika siyosiy xaritasi ?

bo‘lindi (A, B, D). Uning muallifi Janubiy Afrika Ittifoqi Bosh vaziri Yan Smets edi. «A» kategoriyaga nisbatan rivojlangan davlatlar kiritilgan (Suriya, Livan, Falastin, Iordaniya va Iroq). Afrikaning birorta davlati bu kategoriyaga kiritilmagan.

«B» kategoriyaga Germaniyaning Afrikadagi sobiq mustamlakalari (Janubi-g‘arbiy Afrikadan tashqari) kiritilgan. Bu kategoriyaga kiritilgan hududlarni boshqarish mandatiga ega bo‘lgan davlatlar oldiga qator shartlar qo‘yilgan: jumladan, qul, qurol, spirtli ichimlik savdosiga yo‘l qo‘ymaslik; vijdon va din erkinligini kafolatlash, jamiyat va axloqiy tartibni saqlash.

«D» kategoriyasiga eng qoloq hududlar kiritilgan. Ularni mandat berilgan davlat o‘z qonunlari asosida boshqarish huquqiga ega bo‘lgan. Shu tariqa Afrika hamon amalda mustamlaka holatida qolaverdi. Uni qoloqlik chulg‘ab olgan edi. Milliy daromadning 90 foizi eng sodda mehnat qurollari qo‘llaniluvchi qishloq xo‘jaligidan kelardi. Turmush darajasi dunyoda eng past qit’a edi. Ochlik, qashshoqlik va kasallik afrikaliklarning kundalik qismati edi. Afrikaning mahalliy aholisi har jihatdan kamsitilgan edi. Uning behisob tabiiy boyliklari esa mustamlakachi davlatlar manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrga kelib «Britaniya imperiyasi otasi» Sesil Rodsning Qohiradan Keyptaungacha yerlarni egallash haqidagi orzusi ushaldi.

Afrika xalqining haq-huquqlari uchun kurashi

Panafrika harakati deb atalgan harakatni vujudga keltirdi. Bu harakatning tashabbuskori advokat G. Silvestr Uilyam edi. Harakat negr xalqining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzildi. Uning kongresslarini tayyorlash va o‘tkazishda doktor Uilyam Dyubua katta jasorat ko‘rsatdi. U dunyoda o‘zining negrafrika tarixiga oid asarlari bilan mashhur edi. Harakatning 1-kongressi 1919-yilda Parij shahrida chaqirildi. Unda 15 davlat (shu jumladan, 9 ta Afrika davlati) vakillari qatnashdi. Uning Afrika davlatini tuzish loyihasi bor edi.

Kongress Parij konferensiyasini afrikaliklar manfaatini himoya qilishga qaratilgan xalqaro kodeksni ishlab chiqishga chaqirdi. Kongress taklifida yer va uning boyliklari afrikaliklar manfaati uchun xizmat qilishi; chet el investitsiyasi Afrikani xonavayron qilmasligi; qulchilik, majburiy mehnatning va tan jazosining bekor qilinishi; koloniyadagi bolalarga jamoat hisobidan ta’lim berilishi; yerli aholiga oliy va o‘rta ma’lumot olish uchun sharoit yaratilishi kabilar ilgari surilgan edi. Bundan tashqari, mahalliy aholi vakillariga boshqaruv organlarida ishtirok etish huquqi berilishi ham qayd etilgan edi. Shuningdek, Kongress Germaniya mustamlakalarining alohida davlatlar nazoratiga emas, xalqaro tashkilot nazoratiga berilishini so‘ragan. Bu davrda Panafrika harakatining avj olishiga garvizm ham sabab bo‘ldi. Amerikalik negr Markus Garvi 1920-yilda «Orqaga, Afrikaga!» shiori bilan chiqdi va o‘zini Afrikaning birinchi imperatori deb e’lon qildi.

Afrika xalqlarining
o‘z haq-huquqlari
uchun kurashi

126

Ikkinchi jahon urushigacha yana 3 ta Kongress o‘tkazildi. Kongress ilgari surgan g‘oyalar keyinchalik milliy-ozodlik harakatining kuchayishida ma’lum darajada ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Yillar o‘tishi bilan Afrika davlatlarida ham milliy burjuaziya va ziyolilar shakllandi. Afrika xalqlari ozodlik uchun kurashdilar. Ular siyosiy partiyalar tuzilguniga qadar kurashning o‘ziga xos shakllaridan, jumladan mustamlakachilikka qarshi kurashda xristian dinining millatparvarlik g‘oyalaridan foydalandilar. Mustamlakachilarni ana shu g‘oyalarga amal qilishga chaqirdilar. Vaqtli matbuot ziyolilar uchun o‘z fikrlarini vatandoshlariga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qildi.

Ba’zi davlatlarda aholining mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan kichik-kichik uyushmalari tuzildi. Ular mustamlakachi ma’murlar oldida mahalliy aholi manfaatlarini himoya qildilar. Afrikada siyosiy partiyalar ichida yirigi 1912-yilda Janubiy Afrika Ittifoqida tashkil topgan Afrika Milliy Kongressi edi.

20-yillarda mustamlakalar rivojlangan davlatlarning xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Har bir mamlakat asta-sekin ixtisoslasha boshladi. Tropik va Janubiy Afrika dunyodagi olmosning 97 foizini, kobaltning 92 foizini, oltinning 40 foizini, platinaning uchdan bir qismini berar edi. Talonchilik avj oldi. Mustamlakalarda assimilatsiya kuchaytirildi. Tub joy aholisining ahvoli og‘irlashdi. Aparteid va segregatsiya avj oldi.

Ayniqsa, Janubiy Afrika Ittifoqida bu narsa yaqqol ko‘rindi. Afrikaliklar uchun ajratilgan yerlar (rezervatlar) mamlakatning 12 foizini tashkil qilib, bu yerlar qishloq xo‘jaligi uchun juda noqulay edi. Rezervatlarda aholining zich yashashi va yer kamligi ularni boshqa yerlarga borib ishlashga majbur qilardi. Bundan tashqari «uy solig‘i» bo‘lib, uni to‘lash uchun pulni faqat «yevropacha» xo‘jalikda ishlab topish mumkin edi. Afrikalik kishi oq fermerning yerida unga bir yilda 90 kun ishlab bergandagina yashashi mumkin edi.

Shu bilan birga yevropalik ishchilar bilan afrikalik ishchilar o‘rtasida raqobat kelib chiqdi. Chunki afrikaliklar arzon ishchi kuchi edi. Bu 1922-yilda Vitvatersrandeda qurolli qo‘zg‘alon kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bosh vazir Yan Smets shaxtyorlarga qarshi artilleriya va aviatsiya qismi bo‘lgan 18 ming kishilik armiya tashladi. 5 kunlik qattiq to‘qnashuvda 500 ga yaqin kishi halok bo‘ldi va yarador qilindi. 6000 shaxtyor qamoqqa olindi, 2 tasi o‘lim jazosiga hukm qilindi.

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida Afrika xalqining ahvoli yanada og‘irlashdi. Janubiy Afrikada qurg‘oqchilik bo‘lib, rezervat aholisi ochlikdan, kasallikdan qirila boshladi. Ustiga ustak jahon bozorida

olmos narxi pasayishi natijasida ko‘plab olmos konlari bekilib, minglab shaxtyorlar ishsiz qoldilar.
1933-yilda Janubiy Afrika Ittifoqida koalitsion hukumat tuzildi. General M. Gersog Bosh vazir, Ya. Smets esa uning o‘rinbosari bo‘ldi. Diskriminatsiya kuchaydi.
Ikkinchi jahon urushi yillarida Efiopiya, Italiya Somalisi va Eriteriya hududida urush harakatlari bo‘ldi. 1941-yilda bu yerlarni ingliz qo‘shinlari qo‘lga oldi. Lekin Afrikadan juda ko‘p odamlar, jumladan, Senegal o‘qchilari urushga olindi.
127
Gitler Germaniyasi Janubiy Afrikadagi fashistik tashkilotlarga, bur millatchilariga va u yerda yashovchi bir necha o‘n ming nemislarga umid bog‘lagan edi. Mamlakatda ish ko‘rayotgan «Sariq ko‘ylaklar» fashistik tashkiloti to‘g‘ridan to‘g‘ri Berlindan boshqarilar edi. Mudofaa vaziri fashizm tarafdori Pirou armiyani shunday holga keltirib qo‘ygan ediki, u endi jiddiy harbiy operatsiyalarda ishtirok etishga qodir emas edi.
Janubiy afrikalik fashistlar, ayniqsa, 1941—1942-yillarda o‘z faoliyatlarini kuchaytirdilar. Chunki bu davrda Afrikaning shimolida Germaniyaning «Afrika korpusi» hujum boshlagan edi. Mamlakatda keng tarmoqli josuslik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, shaxtalar, temir yo‘llar, elektrstansiyalarda portlatishlar o‘tkazildi.
Milliy partiya esa Germaniyaga qarshi urushda ittifoqchilar yengib chiqolmaydilar deb, parlamentda urushdan chiqish masalasini qo‘ydi. Bu davrda yana Bosh vazirlik lavozimini egallagan Yan Smets irqiy segregatsiyadan voz kechish, ya’ni afrikalik askarlarni o‘t ochuvchi qurollar bilan qurollantirish haqida qaror chiqardi. Chunki unga afrikaliklardan tayanch kerak edi. Oldin afrikalik askarlarga o‘t ochuvchi qurollar berilmasdi. Ular faqat nayza va cho‘qmorlar bilan qurollangan edilar. Armiyada 70 ming afrikalik va 40 ming metis askar bo‘lib, ular Shimoliy Afrikadagi va Yevropadagi harbiy harakatlarda ishtirok etdilar.
Urush davrida ishlab chiqarish kengaydi. Bronemashina va yirik kalibrli minomyotlar ham ishlab chiqarila boshlandi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortdi.
Shunday qilib, Janubiy va Tropik Afrika hali Yevropa davlatlariga qaram va oldinda milliy-ozodlik harakatining mashaqqatli yo‘llari turar edi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Birinchi jahon urushi Afrika xaritasiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Panafrika harakati qanday harakat edi?
3. Mustamlakachilarning Tropik va Janubiy Afrikada olib borgan siyosatlari haqida so‘zlab bering.
4. A, B, D kategoriyalar nima?
5. Afrikaliklar o‘z haq-huquqlari uchun qanday kurashdilar?
6. Rezervat nima? Segregatsiyani qanday tushunasiz?
7. Ikkinchi jahon urushida afrikaliklar ishtiroki haqida so‘zlab bering.
JADVALNI TO‘LDIRING. DARSLIK MATNI BILAN ISHLASH

Mustamlakachi davlatlar	Mustamlakalar
?	

128
Ikkinchi jahon urushining boshlanishi
3-bob. IKKINCHI JAHON URUSHI
15-§. Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari
Ikkinchi jahon urushi 1939-yilning 1-sentabridan 1945-yilning 2-sentabrigacha, ya’ni 6 yil davom etdi. Bu urush dunyoning 61 davlatini o‘z domiga tortdi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Armiya saflariga jami 110 mln kishi safarbar etildi.
Ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko‘p talafot va katta vayrongarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi. Chunonchi, maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda 65—67 mln kishi halok bo‘lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi.
Vayrongarchilikdan ko‘rilgan zarar va urush xarajati birgalikda 4 trillion

dollarni tashkil etdi. Bu urush ayni paytda eng dahshatli qurollar ishlatilgan urush ham edi. Urush oxirida hatto raketa quroli hamda atom bombasi yaratildi va ular insoniyatga qarshi ishlatildi. Fashizmning dunyoga hukmron bo‘lishga intilishi va insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo‘lgan kulfati antifashistik kuchlarni birlashtirdi. Erksevar xalqlar birgalikda fashizmga qarshi kurashdilar. Va, nihoyat, g‘alaba ham qozondilar. Biroq bu g‘alabaga osonlikcha erishilmadi.

Avvalgi mavzuda qayd etilgandek, 1939-yilning 1-sentabrida Germaniya Polshaga hujum qildi. Bunga javoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e’lon qildilar va shu tariqa urush boshlanib ketdi. Polsha armiyasi kam sonli va yaxshi qurollanmagan edi. Shunday bo‘lsa-da, u jasorat bilan qarshilik ko‘rsatdi. Lekin kuchlar teng bo‘lmagani uchun Polsha armiyasi ikki hafta ichida tor-mor etildi. 17-sentabr kuni Polsha hukumati Prezident Ridz Smigli boshchiligida mamlakatni tashlab, chet elga chiqib ketdi.

Xuddi shu kuni Germaniya bilan kelishuvga binoan sovetlarning 200 mingdan ortiq jangchi va zobitlari Polshaga bostirib kirdi hamda 28-sentabr kuni Moskvada Sovet davlati va Germaniya o‘rtasida «Do‘stlik va chegara to‘g‘risida» shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, mustaqil Polsha davlati tugatildi va bo‘lib olindi. Ayni paytda G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorussiya Sovet davlatiga berildi.

Polshaning Germaniya bilan chegaradosh bo‘lgan yerlari Germaniyaga o‘tdi. U yerda nemis general-gubernatorligi tuzildi. 1939-yilning 28-sentabrida imzolangan sovet-german shartnomasiga ko‘ra, sovet hukumati Boltiqbo‘yi respublikalaridan Sovetlar armiyasini bu respublikalarda joylashtirish va o‘zaro yordam to‘g‘risida shartnoma imzolashni talab etdi. Boltiqbo‘yi respublikalarining bu talabga bo‘ysunmaslikka ilojlari yo‘q edi.

30-noyabr kuni sovet armiyasi Finlandiyaga hujum qildi. Bu qilmishi uchun Sovet davlati Millatlar Ligasidan chiqarildi. (Millatlar Ligasiga 1934-yilda qabul qilingan edi.)

Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e’lon qilgan bo‘lsalar-da, biroq faol harbiy harakatlar boshlamadilar. Germaniya armiyasining asosiy kuchlari Polsha bilan band bo‘lib qolgan paytda bunday imkoniyat bor edi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning bu pozitsiyasi 1940-yilning bahorigacha davom etdi. Ularning faolsizligi urush tarixiga «g‘alati urush» nomi bilan kirdi.

Buyuk Britaniya va Fransiya o‘zlarining qudratli harbiy-dengiz flotlari kuchi bilan Germaniyani blokada iskanjasiga olishni rejalashtirgan edilar. Ayni paytda ular Fransiya — Germaniya chegarasida Fransiya bunyod etgan kuchli mudofaa inshootlari Germaniyaning g‘arbga hujumga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi, bordi-yu hujumga o‘tganda ham, uni yorib o‘ta olmaydi, deb ishondilar.

Bu orada Sovet qo‘shinlari Finlandiya armiyasini mag‘lubiyatga uchratdi. 1940-yil 12-martda sovet-fin tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, Kareliya bo‘g‘ozi Viborg shahri bilan birgalikda Sovet davlatiga o‘tdi. Aprel oyida Germaniya armiyasi G‘arbiy frontda hujumga o‘tdi. 9-aprel kuni Daniya va Norvegiya bosib olindi. 14-may kuni Gollandiya, 28-may kuni esa Belgiya taslim bo‘ldi. Shimoliy Fransiyada joylashgan ingliz-fransuz harbiy qismlari qurshovga tushib qoldi. Biroq ularning katta qismi ko‘p talafotlar bilan Buyuk Britaniyaga o‘tib ketishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘z ittifoqchisi Germaniyaning birin-ketin zafarli g‘alabalaridan ruhlangan Italiya 10-iyun kuni Fransiya va Buyuk Britaniyaga qarshi urushga kirdi. Qisqa muddat ichida Fransiya qo‘shinining katta qismi tor-mor etildi. 14-iyunda nemislar Parijni egalladi. 22-iyun kuni Kompen o‘rmonida Germaniya va Fransiya o‘rtasida yarash bitimi imzolandi. 25-iyun kuni shunday yarash bitimi Italiya bilan Fransiya o‘rtasida ham imzolandi. Bu bitimlarga, ko‘ra Fransiya harbiy harakatlarni to‘xtatdi. Armiya va flotni

qurolsizlantirdi. Pol Reyno hukumati iste’fo berdi.
Germaniya Fransiya hududining uchdan ikki qismini okkupatsiya qildi. Parij shahri ham okkupatsiya hududi tarkibida edi. Okkupatsiya qilinmagan hududda marshal Peten boshchiligida qo‘g‘irchoq hukumat tuzildi va uncha katta bo‘lmagan Vishi shahrida joylashdi hamda Peten hukumati Germaniya bilan hamkorlik qilish majburiyatini oldi.
Dastlab Fransiyaning barcha yirik siyosiy arboblari va mustamlakalardagi ma’muriyatlar Peten hukumatini tan olishdi. Faqat u davrda hali mashhur bo‘lmagan general de Goll yarash bitimini ham, Peten hukumatini ham tan olmadi. U Buyuk Britaniyaga jo‘nab ketdi. U yerda «Erkin Fransiya» harakatini tuzdi va barcha vatanparvar kuchlarni Germaniyaga qarshi kurashga chaqirdi.
G‘arbiy
frontdagi ahvol
9 — Jahon tarixi
130
Shimoliy Afrikada
urush harakatlari
Asosiy raqiblari G‘arbiy frontda bandligidan foydalangan Sovet davlati o‘z hududini yanada kengaytirishga kirishdi. 1940-yilning 14—16-iyunida Sovet hukumati Boltiqbo‘yi respublikalariga ultimatum topshirdi. Unda hukumat tarkibini o‘zgartirishga va Sovetlarning qo‘shimcha harbiy kuchlarini kiritishga rozilik berish talab etilgan edi. Ular noiloj rozi bo‘ldilar. Sovet hukumati shu tariqa Boltiqbo‘yini bosib oldi.
Boltiqbo‘yi respublikalari amalda o‘z mustaqilligini yo‘qotdilar. Litva, Latviya va Estoniya Sovet respublikalariga aylantirildi va 1940-yilning avgustida bu respublikalar Sovet davlati tarkibiga «qabul qilindi».
26-iyun kuni Sovet davlati Ruminiyadan Bessarabiyani zudlik bilan qaytarishni va Shimoliy Bukovinani berishni talab etdi. Ruminiya bu talablarni bajarishga majbur bo‘ldi va bu joylarda Moldova Respublikasi tuzildi va hamda Sovet davlati tarkibiga «qabul qilindi».
Fransiya taslim bo‘lgach, Germaniya va Italiyaga qarshi yolg‘iz Buyuk Britaniya urush harakatlari olib borardi. Buyuk Britaniya bosh vaziri U. Cherchill Germaniyaga taslim bo‘lishdan bosh tortdi.
Endi Germaniya harbiy-dengiz floti kuchi bilan Buyuk Britaniyani bir yoqli qilishga bel bog‘ladi. Biroq buning uddasidan chiqa olmadi. Buyuk Britaniya floti dunyoda eng qudratli flotligicha qolmoqda edi.
Germaniya 1940-yil 15-avgustda harbiy-havo kuchlarini Buyuk Britaniyaga qarshi tashladi («Dengiz sheri» operatsiyasi). Biroq Buyuk Britaniya harbiyhavo kuchlari ham Germaniyanikidan qolishmas edi. Shunday qilib, Germaniya Buyuk Britaniyani mag‘lubiyatga uchratishga erisha olmadi. Ayni paytda AQSH Buyuk Britaniyaga yordam bera boshladi.
1941-yilning bahorida AQSH Kongressi Qo‘shma Shtatlar hayotiy manfaatlari uchun mudofaasi muhim bo‘lgan davlatlarga lend-liz asosida yordam berish haqida qonun qabul qildi. Buyuk Britaniya davlati mudofaasi AQSH hayotiy manfaatlari uchun muhim edi.
Italiya 1940-yilning yozida Sharqiy va Shimoliy Afrikadagi dengiz mustamlakalariga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Birinchi nishon Somali va Misr bo‘ldi. Italiya armiyasi dastlab muvaffaqiyatga erisha boshladi. Biroq 1940-yilning oxiriga kelganda Buyuk Britaniya armiyasi Italiya armiyasi harakatini to‘xtata oldi. 1941-yil bahorida Buyuk Britaniya armiyasi Efiopiya partizanlari bilan birgalikda Italiya armiyasini Somali va Efiopiyadan surib chiqarishga va ayni paytda Liviyaning bir qismini egallashga muvaffaq bo‘ldi.
Sovet davlati
hududining yanada
kengayishi
Buyuk Britaniyaga

qarshi harbiy
harakatlar
131
1940-yilning 28-oktabrida Italiya Gretsiyaga hujum
qildi. 1941-yilning 6-aprelida Germaniya armiyasi
Italiyaga yordamga keldi va natijada 17-aprelda
Yugoslaviya, 23-aprelda Gretsiya taslim bo‘ldi.
Buyuk Britaniya hukumati Gretsiyadagi ingliz korpusini
Misrga evakuatsiya qilishga majbur bo‘ldi. 1941-yilning yozigacha
Germaniya va Italiya Yevropaning 12 davlatini zabt etishga ulgurdilar.
Bosib olingan davlatlarda fashistlarning okkupatsiya tartibi o‘rnatildi.
Fashistlar o‘zlarining bu tartibini «yangi tartib» deb atadilar. Yangi tartibga
ko‘ra, demokratik erkinliklar tugatildi; siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari
faoliyati taqiqlandi. Ish tashlash va mitinglar o‘tkazish man etildi.
Bo‘ysunmaganlar o‘lim lagerlariga tashlandi. Polsha va Germaniyada tashkil
etilgan konsentratsion lagerlar aslida o‘lim fabrikalari edi.
Fashistlarning jinoyatchi rahbarlari millionlab kishilarni qirib yuborish
uchun maxsus rejalarni ishlab chiqdilar. Rejaga ko‘ra, o‘lim fabrikalarida
11 mln kishining yostig‘ini quritdi. Bosib olingan davlatlar iqtisodiyoti
bosqinchilar manfaati uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi.
Biroq «yangi tartib» ijodkorlarining jinoyatlariga befarq qarab turilmadi.
Har bir bosib olingan davlatdan Qarshilik ko‘rsatish harakati vujudga
keldi. Bu harakat a’zolari mumkin bo‘lgan barcha vositalar bilan umumiy
dushman — fashizmga qarshi kurashdek muqaddas ishga baholi qudrat
hissa qo‘shdilar. Bu harakatda turli millatlar, turli siyosiy va diniy qarash-
Bolqondagi urush
harakatlari.
Fashistlarning
yangi tartibi
Fashistlarning o‘lim lageri.
132
dagi, turli e’tiqoddagi kishilar — sotsial-demokratlar, kommunistlar,
partiyasizlar, ateistlar, xristianlar, musulmonlar, buddistlar va boshqalar
qatnashdilar.
Buyuk Britaniyani mag‘lubiyatga uchratish rejasi
barbod bo‘lgach, Germaniya endi Sovet davlatini
bosib olishga qaror qildi. Bu ikki davlat
o‘rtasidagi o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida
shartnoma tub manfaat oldida oddiy bir qog‘oz bo‘lib qoldi. Berilgan va’da
va lafzga xiyonat qilindi. Germaniya allaqachon sovet davlatiga qarshi
urush rejasiga ega edi. U tarixga «Barbarossa rejasi» nomi bilan kirgan
(Fridrix 1 Barbarossa davlat yerlarini Sharq hisobiga kengaytirish tashkilotchilaridan
biri edi).
Germaniya Sovet davlatiga hujum qilish oldidan o‘z ittifoqchilari bilan
aloqalarni yanada mustahkamladi. Shu maqsadda 1940-yilning 27-sentabrida
«Uchlar ittifoqi» (Germaniya — Yaponiya — Italiya) shartnomasi tuzildi.
Bu shartnoma amalda dunyoni qayta bo‘lish shartnomasi edi. Tez orada bu
shartnomaga Ruminiya, Vengriya va Bolgariya ham qo‘shildi va ular hududiga
Germaniya armiyasi joylashtirildi.
Har tomonlama puxta hozirlik ko‘rgan Germaniya 1941-yilning 22-
iyunida erta tongda urush e’lon qilmay Sovet davlatiga hujum qildi. Shu
tariqa, Sovet—Germaniya urushi boshlandi (bu urush sovet davri adabiyotlarida
«Ulug‘ Vatan urushi» deb talqin etilgan).
Germaniya o‘z qurolli kuchlarining deyarli 80 foizini sovetlarga qarshi
tashladi. Bu front amalda Ikkinchi jahon urushining asosiy frontiga aylandi.
Germaniya dastlab Sovet armiyasiga qaqshatqich zarba bera oldi. Bunga
armiyaning 40 mingga yaqin rahbarlar tarkibi repressiya qilinganligi,
I. Stalinning Germaniya Buyuk Britaniyaga qarshi urushni tugallamay turib,
ikkinchi frontda urush qilolmaydi, degan ishonchi sabab bo‘ldi. Shuning
uchun ham u armiyani to‘la harbiy tayyorgarlik holatiga keltirish haqida
buyruq bermagan edi. I. Stalin hatto Sovet razvedkasining aniq ma’lumotlarini
ig‘vogarlik, deb hisoblagan edi. Sovetlar armiyasi mardlarcha qarshilik

koʻrsatib, qadam-baqadam chekinishga majbur boʻldi, lekin juda katta talafotlar berildi.

1941-yilning qishiga kelib nemis armiyasi Boltiqboʻyi, Moldova, Ukraina, Belorussiyani egalladi, Leningrad shahrini blokada qildi. Moskvaga esa yaqinlashib qolgan edi. Biroq Germaniya oʻz maqsadiga erisha olmadi. U 6—7 hafta ichida urushni tugallashni rejalashtirgan edi.

1941-yilning dekabr oyida Sovet armiyasi qarshi hujumga oʻtishga muvaffaq boʻldi. Bu hujum natijasida nemis armiyasi Moskvadan 100—250 km gacha uzoqlikka uloqtirib tashlandi. Moskva ostonalarida erishilgan gʻalaba Germaniyaning yashin tezligidagi urush rejasini barbod qildi. Biroq dushman hali kuchli edi.

Sovetlarga
qarshi urushning
boshlanishi

133

1942-yilning yozida Sharqiy frontda nemis armiyasi yangi hujum boshladi. Ular kuzda Stalingrad va Kavkazga chiqishga muvaffaq boʻldilar. Biroq shu chegarada Sovet armiyasi nemislar hujumini toʻxtatib qola oldi.

1941-yilning 2-iyulida Yaponiya hukumati urush harakatlarini boshlash haqida qaror qabul qildi.

7-dekabr kuni Yaponiya harbiy-dengiz floti aviatsiyasi AQSHning Gavay orollarida joylashgan Pirl-Xarbor buxtasida joylashgan harbiy-dengiz kuchlariga hujum boshladi. AQSH floti katta talafot koʻrdi. Ayni paytda Yaponiya harbiy floti va aviatsiyasi AQSH va Buyuk Britaniyaning Filippin orollarida joylashgan kuchlariga ham hujum uyushtirdi. Filippin, Malayziya va Indoneziyaga desant tashladi. Tailandni ham bosib oldi va oʻzining navbatdagi hujumini Buyuk Britaniya mustamlakasi — Birmaga qaratdi.

Shu tariqa 1942-yilning yoziga kelib Yaponiya Osiyoning deyarli barcha yirik davlatlarini bosib olishga ulgurdi. Yaponiya qoʻshinlari gʻarbda Hindiston, janubda esa Avstraliya chegaralarigacha yetib keldi. Faqat 1942-yilning yozida AQSH va Buyuk Britaniya Yaponiya armiyasining zafarli harakatini toʻxtata oldi.

Germaniya ittifoqchilarining Sovet davlatiga,
Yaponiyaning esa AQSH hamda Buyuk Britaniyaga
qarshi urush harakatlarini boshlashi fashist
agressorlariga qarshi kurashuvchi davlatlar koalitsiyasini
(ittifoqini) tuzish masalasini kun tartibiga qoʻydi. Bunday koalitsiya tuzish zarurligi va uning maqsadlari Buyuk Britaniya bosh ministri U. Cherchill va AQSH Prezidenti F. Ruzvelt 1941-yil avgustda imzolagan «Atlantik nizom»da oʻz ifodasini topdi. Sovet davlati ham «Atlantik nizom»ga qoʻshildi. 1942-yil 26-mayda Londonda Sovet davlati bilan Buyuk Britaniya oʻrtasida 20 yilga moʻljallangan va «Gitler Germaniyasi va uning Yevropadagi sheriklariga qarshi urushda ittifoqlik va urushdan keyingi hamkorlik hamda oʻzaro yordam toʻgʻrisida» deb atalgan shartnoma imzolandi. 10-iyunda esa Vashingtonda oʻzaro yordam toʻgʻrisida sovetamerika bitimi imzolandi.

Ungacha AQSH lend-liz toʻgʻrisidagi qonunni Sovet davlatiga nisbatan ham qoʻllay boshlagan edi. Shu tariqa uch buyuk davlat oʻrtasida harbiysiyosiy ittifoq vujudga keldi.

Ittifoqchilar oʻrtasida xalqaro masalalar va ularni hal etish yoʻllari xususida chuqur ziddiyatlar mavjud boʻlsa-da, bu ittifoq Yevropa va Osiyoda agressorlarni tor-mor etishda beqiyos katta tarixiy rol oʻynadi.

1942-yil kuzga kelib Sovet davlati, AQSH va Buyuk Britaniya agressor davlatlar Germaniya, Italiya va Yaponiyaga nisbatan 5 baravar koʻp artilleriya qurollari va minomyot, 3 baravar koʻp samolyot va 10 baravar koʻp tank ishlab chiqara boshladilar. Bu hol 1942-yilning

Yaponiyaning
urushga kirishi

Fashistlarga qarshi
koalitsiyaning

vujudga kelishi
Urushning
borishidagi tub
burilish
134
Antifashistik va milliy
ozodlik kurashining
kuchayishi
oxirida antifashistik ittifoqqa gitlerchilarga qarshi hujumga o‘tish imkonini berdi.
1942-yilning 19-noyabrida mashhur Stalingrad jangi boshlandi. U 1943-yilning 2-fevraligacha davom etdi. Bu jangda Germaniyaning saralangan armiyasi tor-mor etildi. 1943-yilning yozida esa mashhur Kursk jangi bo‘lib o‘tdi. «Tanklar jangi» nomi bilan tarixga kirgan bu jangda ham Sovet qo‘shinlari g‘alaba qozondi. Shu jangdan so‘ng Germaniya armiyasi Sharqiy frontda hujum qilish qobiliyatini butunlay yo‘qotdi.
Ayni paytda 1942-yilning kuzida Buyuk Britaniya va AQSH qurolli kuchlari ham hujumga o‘tgan edi. Chunonchi, 1942-yilning 8-noyabrida Buyuk Britaniya va AQSH Shimoliy Afrikaga (Marokash va Jazoirga) yirik desant tashladi. Ittifoqchilarga u yerdagi fransuz armiyasi ham qo‘shildi. Misrda ham Buyuk Britaniya armiyasi jangga shay turar edi. Ularning barchasi AQSH generali D. Eyzenxauer qo‘mondonligida hujum boshladilar.
Bu hujum natijasida Shimoliy Afrikadagi italyan-nemis armiyasi tormor etildi va O‘rta dengizda ittifoqchilar nazorati o‘rnatildi. Italiyaga bostirib kirish uchun yo‘l ochildi. 1943-yil 10-iyul kuni ingliz-amerika armiyasi Italiyaning janubiga tashlandi.
Italiya hukmron doiralari Mussoliniga nisbatan fitna uyushtirdilar. 25-iyul kuni unga nisbatan ishonchsizlik bildirildi va Italiya qirolining buyrug‘i bilan u hibsga olindi. 8-sentabr kuni Italiya antifashist ittifoqchilar bilan yarash bitimi imzoladi va urushdan chiqdi. Shunday qilib, Stalingrad, Kursk janglari va Italiyaning taslim bo‘lishi Ikkinchi jahon urushida tub burilish yasadi. Endi agressorlarning mag‘lubiyatga uchrashi muqarrar bo‘lib qoldi. Shunday bo‘lsa-da, Germaniya armiyasi qo‘l qovushtirib o‘tirmadi, u Shimoliy va Markaziy Italiyani bosib oldi va ingliz-amerika armiyasining yo‘lini to‘sdi.
Gitler o‘ziga eng sodiq shaxslardan iborat Otto Skorseni boshliq desantchilarni Mussolinini qutqarib kelishga yubordi. Ular bu vazifaning uddasidan chiqdilar.
Mussolini Shimoliy Italiyaga olib kelindi va bu yerda Germaniyaga bo‘ysunuvchi qo‘g‘irchoq hukumatga boshliq etib qo‘yildi.
Ikkinchi jahon urushida tub burilish ro‘y berishi
va uning Germaniya hamda uning ittifoqchilarining
mag‘lubiyatini muqarrar qilib qo‘yishi bosib
olingan davlatlarda antifashistik va milliy-ozodlik
uchun kurashuvchi kuchlarni ruhlantirib yubordi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning kurashni yanada kuchaytirishlariga olib keldi.
Nemislar asirligidan qochishga muvaffaq bo‘lgan turli millat vakillari, shu jumladan, o‘zbeklar ham chet davlatlardagi qarshilik ko‘rsatish harakatlarida dushmanlarga qarshi qahramonlarcha jang qildilar.
G‘arbiy Yevropada qudratli qarshilik ko‘rsatish harakati markazi Fransiya va Italiya edi. Fransiyaning barcha vatanparvar kuchlari 1943-yilda Qarshilik
135
ko‘rsatish milliy kengashiga birlashdilar va general de Gollning rahbarligini tan oldilar. Yugoslaviya, Gretsiya, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya va boshqa davlatlarda ham qarshilik harakati nihoyatda kuchaydi.
Bunday harakat Janubi-Sharqiy Osiyoda ham vujudga keldi. Yer sharining bu mintaqa xalqlari Yaponiya bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik kurashini kuchaytirdilar. Chunonchi, 1943-yilning oxirida partizan otryadlari Shimoliy Vetnamning bir qismini ozod etishga muvaffaq bo‘ldi. Xitoyda ham yapon bosqinchilariga qarshi kurash kuchaydi.
Ikkinchi front nima va u nega ochilishi kerak
edi? Ma’lumki, o‘tgan davr ichida Germaniya

asosan sovet davlatiga qarshi urush bilan band bo‘ldi. Binobarin, Germaniya bir frontda urush olib borardi. Bu front sovetgerman fronti edi va u Ikkinchi jahon urushining asosiy fronti hisoblanardi.

Endi, Germaniya va uning ittifoqchilarini tezroq tor-mor etish va Yevropada urushni tezroq tugallash uchun fashistlarni bir vaqtning o‘zida ikki frontda urush olib borishga majbur etish lozim edi. Buning uchun Buyuk Britaniya va AQSH armiyasi bevosita Yevropada Germaniyaga qarshi urush harakatlarini boshlashi lozim edi. Shunday qilinsa, Germaniya ikki yo‘nalishda (frontda), ya’ni Buyuk Britaniya va AQSHning birlashgan armiyasiga (G‘arbiy front) ham qarshi turishga majbur edi. Binobarin, uning armiyasi ikkiga bo‘linib urushishga majbur etilar edi. Bu esa, Germaniyaning buningsiz ham og‘ir ahvolini yanada og‘irlashtirgan bo‘lardi.

Sovet davlati o‘z ittifoqchilari Buyuk Britaniya va AQSH oldiga bunday frontni ochish masalasini 1942-yildayoq qo‘ygan edi, biroq ular bu masalani turli sabablar bilan orqaga surib keldilar.

Ammo yolg‘iz Sovet davlatining o‘zi Germaniyani yengishi ma’lum bo‘lgach, ular bu masalani ortiq orqaga surish mumkin emas, degan qarorga keldilar. Chunki ularni Sovet davlatining butun Yevropani fashizmdan ozod etishi, binobarin, butun Yevropa Sovetlar nazorati ostiga tushib qolishi mumkinligi istiqboli xavotirga solib qo‘ydi.

1943-yilning 27-noyabr – 1-dekabr kunlari Eron poytaxti Tehron shahrida 3 buyuk davlat rahbarlarining ikkinchi front masalasida konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada F. Ruzvelt, I. Stalin va U. Cherchill qatnashdi. Buyuk Britaniya va AQSH 1944-yilning yozidan kechiktirmay Yevropada ikkinchi frontni ochishga va’da berdilar. Sovet davlati esa Yevropada urush tugagach, Yaponiyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi.

1944-yilning 6-iyunida Buyuk Britaniya va AQSHning birlashgan qurolli kuchlari AQSH generali Eyzenxauer qo‘mondonligida Fransiya hududiga tashlandi. Shu tariqa Yevropada ikkinchi front ochildi.

Bu hodisa Germaniyaning ahvolini yanada tang qilib qo‘ydi. Endi Gitlerning sanoqli kunlari qolganligi hammaga ayon edi. Germaniya armiyasi orasida Gitlerni yo‘qotish tarafdorlari paydo bo‘ldi. Ular Gitlerni qurbon berib, Germaniyani halokatdan saqlab qolmoqchi edilar. Shu maqsadda

Yevropada ikkinchi frontning ochilishi

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropaning fashizmdan ozod etilishi

1944-yilning 20-iyunida Gitlerga suiqasd uyushtirildi. Biroq Gitler omon qoldi va suiqasd ishtirokchilarining barchasi hibsga olindi hamda qatl etildi.

1944-yilning 25-avgustida Parij shahri fashistlardan ozod etildi. Vishi tartibi quladi. Sentabr oyida Fransiya to‘la ozod etildi. Hokimiyat general de Goll qo‘liga o‘tdi.

1944-yilning yozi va kuzi davomida Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlari fashizmdan to‘la ozod etildi. Yevropaning bu qismida Polsha, Yugoslaviya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, Albaniya kabi davlatlar joylashgan edi. Ularning ozod bo‘lishida Sovetlar armiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yevropa davlatlarini ozod etishda sovetlarning jami 3 mln dan ortiq jangchisi halok bo‘ldi, mayib-majruh bo‘lib qoldi yoki bedarak yo‘qoldi. Ular orasida minglab o‘zbek jangchilari ham bor edi. Birgina Polshani ozod etishda 600 ming sovet jangchisi qurbon bo‘ldi. Bu davlatlarda xalq demokratik inqiloblari amalga oshirildi va ular xalq demokratiyasi davlatlari deb atala boshladi.

Germaniyani butunlay tor-mor etish va ozod Yevropada birgalikda siyosat yuritishni kelishib olish maqsadida Sovet davlati, AQSH va Buyuk Britaniya rahbarlari 1945-yilning 4-fevralida Qrim viloyatidagi Yalta shahrida to‘plandilar. Bu yerdagi Tehron konferensiyasi, 1943-y.

Qrim konferensiyasi
137
Livadiya saroyida 4—11-fevral kunlari tarixga Qrim konferensiyasi nomi bilan kirgan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada I. Stalin, U. Cherchill, F. Ruzvelt ishtirok etishdi.
Konferensiyada Germaniyani so‘zsiz taslim etish, uning qurolli kuchlarini yo‘q qilish, harbiy jinoyatchilarni jazoga tortish, fashistlar tashkilotlarini, qonunlari va tartiblarini yo‘q qilish, Germaniyani uning agressiyasiga duchor bo‘lgan davlatlarga reparatsiya to‘lashga majbur etishga kelishib oldilar. «Ozod Yevropa to‘g‘risidagi deklaratsiya» e’lon qilindi. Shuningdek, bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun Germaniyani 3 ta okkupatsion hududga bo‘lishga qaror qildilar.
Konferensiyada Sovet davlatining Yevropada urush tugaganidan keyin 2—3 oydan so‘ng Yaponiyaga qarshi urushga kirishishiga kelishib olindi. Buning evaziga Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasining oldingi holati saqlanib qolishi, Janubiy Saxalin va Kurill orollari sovetlarga berilishi hamda Xitoyga qarashli Port-Arturda sovetlarning harbiy-dengiz bazasi qurilishi lozim edi. Bundan tashqari, Qrim konferensiyasi qarorlariga ko‘ra, xalqaro tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etiladigan bo‘ldi. Uning maqsadi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashdan iborat bo‘lishi zarur edi.
1945-yilning 25-aprelida AQSHning San-Fransisko shahrida BMT ning Ta’sis konferensiyasi ochildi. Uning ishida Germaniyaga qarshi urush e’lon qilgan 42 ta davlat delegatsiyasi qatnashdi. Shu tariqa BMT vujudga keldi. 24-oktabr BMT tashkil etilgan kundir. Uning qarorgohi Nyu-York shahri deb belgilandi.
1945-yilning 16-aprel kuni Sovetlar armiyasi Berlinni qurshab oldi va ishg‘ol etishga kirishdi.
Shu tariqa Berlin operatsiyasi boshlandi. Unga mashhur rus sarkardasi G. K. Jukov qo‘mondonlik qildi. 25-aprelda Sovet qo‘shinlari hujumga o‘tdi. 3000 ta projektor hujum qiluvchilarning yo‘lini yoritib turdi. Projektor nurlari dushman jangchilari ko‘zini qamashtirib yubordi.
Sovet qo‘mondonligi niqob sifatida tutun tarqatish vositasini qo‘lladi. Minglab tank va samolyotlar dahshat solib hujumga tashlandi va bular nemis qo‘shinini sarosimaga solib qo‘ydi.
Italiyada ham fashizm keskin zarbaga uchradi. Ko‘p joylar fashistlardan ozod qilindi. 29-aprel kuni Italiya partizanlari Mussolinini asir oldilar va otib tashladilar.
Gitlerchilarning insoniyatga qarshi qilgan jinoyatlari uchun qasosdan qochib qutulolmasligi muqarrar bo‘lib qoldi. 30-aprel kuni Germaniya rahbarlari A. Gitler, Gimmler, Gebbelslar o‘z jonlariga qasd qildilar. Gitlerning jasadi benzin sepib yoqib yuborilgan. Bu voqea sovet jangchilari tomonidan reyxstag binosiga qizil bayroq — g‘alaba bayrog‘i ilingan kunda sodir bo‘ldi. Insoniyat jallodining qismati ana shunday poyoniga yetdi.
Germaniyaning taslim bo‘lishi
138
Potsdam konferensiyasi
2-may kuni Berlin garnizoni taslim bo‘ldi. 8-maydan 9-mayga o‘tar kechasi Berlin yaqinidagi Karlxorst deb ataladigan binoda Germaniyaning so‘zsiz taslim bo‘lganligi haqida hujjat imzolandi. Hujjatni g‘oliblar — Sovetlar davlati nomidan marshal G. K. Jukov, Buyuk Britaniya nomidan marshal A. Tedder, AQSH nomidan marshal K. Spaats, Fransiya nomidan general J. Delatr de Tassini imzoladilar. Mag‘lub Germaniya nomidan esa feldmarshall Keytel imzo chekdi. Shu tariqa Yevropada urush tugadi.
1945-yilning 17-iyulida Germaniyaning Potsdam shahrida uch buyuk davlatlar rahbarlari (I. Stalin, U. Cherchill, G. Trumen) konferensiyasi ochildi.
Germaniyani qurolsizlantirish, natsistlar partiyasini yo‘q qilish, Germaniyani reparatsiya to‘lashga majbur etish va asosiy jinoyatchilarni xalqaro

harbiy tribunalga berish haqida kelishib oldilar. Konferensiya, bundan tashqari, chegara masalasini ham hal etdi. Chunonchi, Germaniya chegarasi 1938-yilgi holatiga nisbatan qisqartirildi. Germaniya — Polsha chegarasi Oder — Neyse daryolari bo‘ylab o‘tadigan bo‘ldi.
Sharqiy Prussiyaning sohil bo‘yi Kenisberg shahri bilan birga SSSRga berildi. Qolgan qismi Polshaga o‘tkazildi. Polsha va SSSRga o‘tgan hududlarda yashovchi 9 mln dan ortiq nemislar ko‘chirildi. Uch davlat ishg‘ol etgan hududlarda saqlanayotgan harbiy asirlar almashiniladigan bo‘ldi. Germaniya to‘laydigan tovon 20 mlrd dollar miqdorida belgilandi. Uning
Antigitlerchi koalitsion ittifoqdosh qo‘shin Bosh qo‘mondonlari.
Chapdan o‘ngga: B. Montgomeri, D. Eyzenxauer, G. K. Jukov, J. Delatr de Tassini.
139
50 foizi SSSR ga berilishi to‘g‘risida kelishildi. Konferensiya qaroriga ko‘ra, Germaniya yaxlit davlat bo‘lib qolishi kerak edi.
Ayni paytda Germaniyada so‘z, matbuot, din erkinligi tiklanadigan bo‘ldi. Kasaba uyushmalari va demokratik partiyalar faoliyatiga ruxsat berilishiga kelishildi. Germaniyaga qarashli Kenisburg viloyati Sovet davlatiga berildi. Sovetlar Yaponiyaga qarshi urushga kirishi haqidagi qaroriga amal qilishini yana bir bor tasdiqladi.
Yaponiya taslim bo‘lmaguncha Ikkinchi jahon urushi tugamas edi. 1944-yilning oktabr oyida eng yirik harbiy-dengiz floti jangida AQSH Yaponiya flotini tor-mor keltirdi. 1945-yilning aprel oyida AQSH armiyasi Okinava orolini egalladi. U Tokio shahridan 500 km uzoqlikda edi. Yozga kelib Yaponiya armiyasi Osiyoning katta qismidan quvib chiqarildi.
Biroq Yaponiyani taslim etish oson ish emas edi. Buning uchun AQSH Yevropadagi kuchlarini Yaponiyaga tashlashi zarur edi. Urush esa 1946-yilning oxirigacha cho‘zilar va AQSH odam va aslaha jihatidan juda katta zarar ko‘rar edi. Shuning uchun ham Sovet davlatining Yaponiyaga qarshi urushga kirishi nihoyatda zarur edi. 26-iyul kuni AQSH, Sovet davlati va Xitoy Yaponiyadan so‘zsiz taslim bo‘lishni talab etdilar. Biroq Yaponiya bu talabni rad etdi. 8-avgust kuni Sovet hukumati Yaponiyaga urush e’lon qildi. 9-avgustda esa Shimoliy-Sharqiy Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Saxalin va Kurill orollarida joylashgan Yaponiya armiyasiga qarshi hujumga o‘tdi. Shu orada Xirosima va Nagasaki shaharlariga AQSH aviatsiyasi atom bombasini tashladi. Bu ikki atom bombasidan 100 mingdan ortiq kishi halok bo‘ldi. 400 mingdan ortiq kishi esa radiaktiv nurlandi.
Atom bombasining ishlatilishi va Sovet davlatining urushga kirishi Yaponiyani mag‘lubiyatga uchraganligini tan olishga majbur etdi va 2-sentabr kuni Yaponiya taslim bo‘lganligi haqidagi hujjat imzolandi.
Shunday qilib, Yaponiya mustamlakachilik imperiyasi quladi va Yaponiyaning taslim bo‘lishi bilan Ikkinchi jahon urushi ham tugadi.
Dunyoning asosiy davlatlarini o‘z domiga tortgan Ikkinchi jahon urushida 40 davlatning hududida harbiy harakatlar olib borildi. Urushda behisob qurbonlar berildi va juda katta vayrongarchilik yuz berdi. Urushda fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tor-mor etildi. Ular vaqtinchalik buyuk davlatlar qatoridan tushib qoldi. Ayni paytda fashizm halokatga uchradi, fashistlar partiyasi va tashkilotlari faoliyati taqiqlandi. Uzoq va og‘ir kurashda demokratik va antifashistik kuchlar g‘alaba qozondi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzildi va uning Ustavi 1945-yilning 24-oktabridan kuchga kirdi. Mustamlakachi imperiyalarning yemirilishi boshlandi. O‘nlab yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Buyuk Britaniya va Fransiya sezilarli darajada zaiflashdi. AQSH esa dunyoning ikki o‘ta

Ikkinchi jahon urushining tugashi
Ikkinchi jahon urushining yakunlari
140
O‘zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga

qo‘shgan hissasi
qudratli davlatidan biri bo‘lib qoldi. Sovet davlati ham urush natijasida mislsiz talafotlar ko‘rgan bo‘lsa-da, AQSH kabi dunyoning o‘ta qudratli davlatiga aylandi. Hozirgi bosqichda Sovet davlati merosxo‘ri Rossiya bilan AQSH dunyoni muvozanatda saqlab turibdi. Bugungi kunda Yer yuzida mustahkam tinchlikning o‘rnatilishi, yangi qirg‘inbarot urushlarning ro‘y bermasligi uchun barcha davlatlar (birinchi navbatda, buyuk davlatlar) hamda jahon jamoatchiligi mas’uldir.
O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillik e’lon qilinguncha
Sovet davlati tarkibida edi. Binobarin, Ikkinchi
jahon urushi yillarida ham O‘zbekiston ulkan
mustamlakachi imperiya — Sovet davlati tarkibida
urushda qatnashdi.
Sovet davlati tarkibiga majburan birlashtirilgan xalqlar yagona nom bilan sovet xalqi deb atalardi. O‘zbek xalqi fashizmdan Sovet davlatinigina emas, ayni paytda O‘zbekistonni ham himoya qildi.
O‘z yurtiga bo‘lgan chinakam yuksak muhabbat va fashizmga nafrat tuyg‘usi sotsialistik tuzum deb atalgan mustabid tuzum o‘zbek xalqiga yetkazgan g‘am-alamni orqaga surib qo‘ydi. O‘zbekiston xalqlari ham fashizmga qarshi kurashning adolatli ekanligini anglab yetgan edilar.
Ikkinchi jahon urushida o‘zbekistonliklarning ishtiroki xususida
I. A. Karimov bunday deb yozgan edi: «Ikkinchi jahon urushiga qanday
BMT Deklaratsiyasiga qo‘l qo‘yish. Vashington. 1-yanvar 1945-y.
141
qaralmasin, bu urush qaysi g‘oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo‘lmasin, o‘z Vatani, el-yurtining yorug‘ kelajagi, beg‘ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo‘lganlarni, o‘z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oddiy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo‘q va bunga yo‘l ham bermaymiz» («Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». T., 1996, 81-bet).
O‘zbek xalqi fashizmga qarshi koalitsiyadagi boshqa xalqlar bilan yelkama-yelka bir safda turib kurashdi va uning ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga baholi qudrat hissa qo‘shdi. Urushning dastlabki kunlaridayoq 14 ming kishidan o‘z ixtiyori bilan armiya safiga jo‘natishni iltimos qilib ariza tushdi. Frontga umumxalq yordamini ko‘rsatish O‘zbekiston aholisi vatanparvarligining yorqin namunasi bo‘ldi.
Chunonchi, o‘zbekistonliklar urush yillarida mamlakat mudofaa jamg‘armasi uchun jami 649,9 mln so‘m pul, 22 kg oltin va kumush to‘pladilar. O‘zbekistonliklar tank kolonnasi qurilishiga pul yig‘ishyapti. 1942-y.
142
O‘zbekistonlik
jangchilarning urush
maydonidagi
jasoratlari
O‘zbekiston kolxozchilari 1942-yilda tank kolonnasi qurishga o‘z shaxsiy jamg‘armalaridan 260 mln so‘m topshirdilar. Urushning dastlabki yarim yili ichida 420 mingdan ortiq turli issiq buyumlar yuborildi.
1941-yilning dekabriga keliboq, O‘zbekistonda jami 293 korxona mudofaa uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi. Urush yillarida O‘zbekistonga sovetlarning dushman bosib olgan yoki bosib olishi mumkin bo‘lgan hududlaridan 104 fabrika va zavod ko‘chirib keltirildi. Bu fabrika va zavodlarni ishga tushirishda O‘zbekiston aholisi mislsiz fidokorona mehnat qilgan. Korxonalar uzog‘i bilan bir oyda ishga tushirilganligi buning yorqin isbotidir.
Bu bunyodkorlik ishida aholining barcha tabaqasi, shu jumladan, ayollar va bolalar ham faol ishtirok etdi. Chunonchi, 1942-yilga kelib sanoat sohasida mehnat qilayotganlarning 63,5 foizi ayollardan iborat edi (bu ko‘rsatkich 1940-yilda 34 foizni tashkil etgan).
O‘zbekiston xalqi urush yillarida frontga jami 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2 mln 318 ming dona aviabomba, 17100 bronopoyezd va boshqa harbiy texnika hamda anjomlar yetkazib berdi. O‘zbekistonning o‘zida urush yillarida 280 ta yangi korxona qurildi.

Dushmanni tor-mor etish uchun olib borilgan umumxalq kurashida dehqonlar ham fidokorona mehnat qildilar. Urush yillarida davlatga jami 4 mln 148 ming tonna paxta, 82 mln pud g‘alla, 54067 tonna pilla, 159 ming tonna go‘sht va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetkazib berildi.

Urush yillarida o‘zbek xalqi yuksak insonparvarlik xislatini namoyon etdi. O‘zbekistonga jami 1 mln dan ortiq kishi, shu jumladan 200 ming bola keltirildi. Xalqimiz ularni mehmondo‘stlik, bolajonlik bilan qabul qildi, ularga o‘z uyidan turarjoy berdi, topgan nonini ular bilan baham ko‘rdi, ularga kiyim-kechak berdi.

O‘zbekiston oilalari ota-onasiz qolgan bolalarni o‘z bag‘riga oldi. Bu o‘rinda toshkentlik temirchi Sh. Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i B. Akramovalarning nomlari tariximizga zarhal harflar bilan bitilgan. Ular turli millatga mansub 14 nafar bolani o‘z tarbiyasiga oldilar.

Ikkinchi jahon urushi frontlariga O‘zbekistondan 1 mln 433200 kishi safarbar etildi. 1941-yilda respublika aholisi 6,5 mln kishini tashkil etgani hisobga olinsa, bu katta raqamni tashkil etadi. Binobarin, O‘zbekiston aholisining 22 foizi jang maydonlarida qatnashdi. Bu jami mehnatga yaroqli aholining 40—42 foizi degani edi. Urushda ishtirok etganlardan 268005 kishi halok bo‘ldi, 132670 kishi bedarak yo‘qoldi, 60452 kishi esa mayib-majruh bo‘lib qoldi. Frontda ko‘rsatgan jasoratlari uchun o‘zbekistonliklardan jami 120 ming jangchi hukumat ordeni va medallari bilan mukofotlandi. Ulardan 280 kishi Qahramon unvoniga sazovor bo‘ldi. 32 kishi «Shuhrat» ordenining har

uchala darajasi bilan taqdirlandi. S. Rahimov general darajasiga erishdi. Ularning jasorati bugungi avlod uchun namuna yulduzidir.

Hamyurtlarimizdan bir necha minggi Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlandilar. Ba’zilarining xoki begona va olis yurtlarda qolib ketdi. Ozodlik va erk uchun, Vatan uchun jon fido qilganlarni doimo yodda saqlash uchun 9-may «Xotira va qadrlash kuni» deb e’lon qilindi. Zero xalq uchun qilingan ish, ko‘rsatilgan jasorat mangulikka daxldordir. U hech qachon unutilmaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining insoniyat boshiga solgan dahshatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ikkinchi jahon urushi qay tariqa boshlandi?
3. Nega G‘arbiy frontdagi urush tarixga «G‘alati urush» nomi bilan kirdi?
4. Fransiya qay tariqa taslim bo‘ldi?
5. Sovet davlati hududi qay tariqa kengayganligi haqida so‘zlab bering.
6. Germaniya nima uchun Buyuk Britaniyani mag‘lubiyatga uchrata olmadi?
7. Fashistlar o‘rnatgan «yangi tartib»ning insoniyatga qarshi vahshiyona jinoyat ekanligini asoslab bering.
8. Qarshilik ko‘rsatish harakati qanday harakat edi?
9. Germaniyaning Sovet davlatiga qarshi urush boshlashi tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?
10. Fashistlarga qarshi davlatlar koalitsiyasi qay tariqa vujudga keldi?
11. Ikkinchi jahon urushining buyuk janglari haqida so‘zlab bering.
12. Yevropada ikkinchi front qachon va qay maqsadda ochildi?
13. Tehron va Qrim konferensiyalari haqida nimalarni bilib oldingiz? Potsdam konferensiyasi qarorlarini ayting.
14. Germaniya va Yaponiyaning taslim bo‘lishi tafsilotini taqqoslang.
15. O‘zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

16.Ikkinchi jahon urushining asosiy yakunlari nimalardan iborat bo‘ldi?
JADVALNI TO‘LDIRING. ENG YIRIK JANGLARNI TASVIRLANG
Yirik janglar Tavsifi
— Eng yirik, mashhur lashkarboshilardan biri haqida erkin insho yozing.
General Sobir Rahimov.
?
144
BU HAQDA BAHS YURITING
Men ko‘p urushlarda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g‘arazim qattiq, hatto juda ham qattiq. Bu kitobning («Alvido, qurol») muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki: urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko‘proq duch kelaboshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o‘ylamaydigan to‘ng‘izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat grajdanlarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i zarur, deb hisoblayman.
Ernest Xeminguey
(«Alvido, qurol» kitobiga yozgan so‘zboshidan)
Oliy Bosh qo‘mondon Qarorgohining 1941-yil 16-avgustdagi buyrug‘idan
...Buyuraman
1. Jang paytida unvon belgilarini yulib tashlovchi va front ichkarisiga qochuvchi yoki dushmanga asir tushuvchi komandirlar va siyosiy xodimlar dezertir deb hisoblansin, ularning oilalari qasamni buzgan va Vatanga xiyonat qilganlarning oilalari sifatida qamoqqa olinsin.
Barcha yuqori komandirlar va komissarlarga boshliqlar tarkibidan bo‘lgan bunday dezertirlarni joyida otib tashlash majburiyati yuklansin.
Davlat Mudofaa qo‘mitasi raisi I. Stalin.

145
IKKINCHI BO‘LIM.
JAHON MAMLAKATLARI XX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XXI ASRNING BOSHLARIDA
1-bob. XALQARO MUNOSABATLAR.
G‘ARB DAVLATLARI TARAQQIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
16-§. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo siyosati va hayotidagi o‘zgarishlar
Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo siyosatida jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi. BMTning roli ancha kuchaydi. Ilgari kelishilgan ba’zi qarorlar amalga oshdi, ba’zilari esa amalga oshmasdan qoldi. Fashist jinoyatchilar boshliqlari jazolandi.
1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-sentabrgacha Xalqaro tribunal fashist jinoyatchilarni sud qildi. 12 kishi o‘lim jazosiga hukm qilindi. 7 kishi uzoq muddatli va umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Bu urush aybdorlarining tarixda birinchi marta xalqaro miqyosda jazolanishi edi.
Urushdan so‘ng qurollanish poygasi avj oldirildi.
1945-yilda AQSH atom bombasini Yaponiyada sinab ko‘rdi va bu mudhish qurol vositasida dunyoga hukmronlik qilishni o‘ylay boshladi.
Qo‘shma Shtatlarda atom bombasi yaratilgandan keyin, SSSR ham AQSH dan orqada qolmaslik uchun barcha choralarni ko‘rdi. Nihoyat, 1949-yilda

atom bombasini yaratdi va uni sinovdan o‘tkazdi.
AQSH 1952-yilda yanada dahshatliroq ommaviy qurg‘in quroli — vodorod bombani yaratdi. Uning qudrati 10 mln tonna trotilga teng edi. SSSR esa bir yildan keyinroq bunday qurolga ega bo‘ldi. Bu orada AQSH yadro qurollarini nishonga yetkaza oladigan samolyotlar yaratdi. SSSR esa qit’alararo raketa yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Atom suv osti kemalari yaratildi. Shu tariqa kishilik jamiyatini bir necha marta yo‘q qilib yuborishga qodir ommaviy qirg‘in qurollari zaxirasi vujudga keltirildi.
Lekin oradan ko‘p o‘tmay «sovuq urush» boshlandi. Uning tashabbuskori U. Cherchill edi. U «sharqiy kommunizm» bilan kurash vazifasini qo‘ydi. 1947-yil 14-martda qabul qilingan Gretsiya va Turkiyaga yordam berishni mo‘ljallagan «Trumen doktrinasi» buning amaldagi isboti bo‘ldi. 1947-yil 5-iyunda qabul qilingan va Yevropaning 16 davlatiga iqtisodiy yordam berishni mo‘ljallagan «Marshall rejasi» uni yanada mustahkamladi.

Qurollanish poygasi va «sovuq urush»

Ikki eng buyuk davlat o‘rtasida munosabatlarning tobora keskinlashib borishi oqibatida ikki harbiysiyosiy ittifoq vujudga keldi.
Ularning birinchisi AQSH va uning ittifoqchilarini birlashtirgan Shimoliy Atlantika shartnomasi — NATO deb ataldi.
Bu ittifoq 1949-yilning 4-aprelida Vashington shahrida 12 davlat ishtirokida tuzildi (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Belgiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya). AQSH generali D. Eyzenxauer uning qo‘mondoni etib tayinlangan.
1949-yilning 1-oktabrida kommunistik Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi, 1950-yilda esa SSSR bilan Xitoy o‘rtasida «Do‘stlik, ittifoqlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida» shartnoma imzolanishi AQSHni qattiq tashvishga solib qo‘ydi. XXRning tashkil topishi bilan «jahon sotsializm tizimi» shakllanishi nihoyasiga yetdi. 1955-yilda GFR NATOga a’zo etib qabul qilindi. Hozirgi davrda NATO ga Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Turkiya, Chexiya, Estoniya kabi davlatlar a’zodirlar. Sharqiy Yevropa davlatlari (SSSR, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR) 1955-yilning 14-mayida o‘zlarining harbiy-siyosiy ittifoqi — Varshava shartnomasi tashkilotini tuzdilar.
Shunday qilib, dunyo, shu jumladan, Yevropa ikkiga bo‘lindi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Koreyaning shimolini SSSR, janubini esa AQSH armiyasi ishg‘ol etdi. Germaniya bo‘linganidak, bu yerda ham bir davlat ikkiga bo‘lindi va ikki hukumat tuzildi. 1949-yilda SSSR va AQSH Koreyadan o‘z armiyalarini olib chiqib ketdilar. 1950-yilning 25-iyunida Shimoliy Koreya armiyasi chegarani buzib o‘tdi va Janubiy Koreyaga hujum qildi. AQSH ushbu masalaning BMT da muhokama etilishiga erishdi. BMT Shimoliy Koreyani agressor deb tan oldi va unga qarshi urush harakatlari boshlashga ruxsat etdi. Xalqaro kuchlar 15-sentabrda Koreya yarimoroliga tashlandi va ular Shimoliy Koreya armiyasi harakatini to‘xtatdi hamda Janubiy Koreya hududidan surib chiqardi. Oktabr oyi oxiriga kelib esa AQSH harbiy kuchlari Shimoliy Koreya poytaxti Pxenyan shahrini egalladi. Shundan so‘ng Xitoy Xalq Respublikasi o‘z harbiy kuchlarini Shimoliy Koreyaga yordamga yubordi. SSSR ning ham Koreya urushiga aralashishi mumkinligi aniq-ravshan bo‘lib qoldi. Shundan so‘nggina AQSH Shimoliy Koreyaga qarshi urush harakatlarini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. 1953-yilda yarash bitimi imzolandi. Unga ko‘ra, har ikki koreys davlati chegarasi urushgacha bo‘lgan holatida (38-parallel kenglikda) tiklandi. Shu tariqa Koreya yarimorolida urush to‘xtadi. Biroq mamlakat ikkiga bo‘linganicha qoldi. Shimoliy Koreya SSSR bilan, Janubiy Koreya esa AQSH bilan yaqin munosabat o‘rnatdi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng buyuk davlatlar Falastinda yahudiylarning o‘z davlatiga ega bo‘lishga intilishlarini qo‘llab-quvvatlay boshladi.

Koreya urushi

Yaqin Sharq mojarosi
Dunyoning va
Yevropaning ikkiga
bo‘linishi
147
Ayni paytda BMT ham 1947-yil 29-noyabrda Falastinda ikkita davlat tashkil etilishi (Isroil va Falastin) haqida qaror qabul qildi. Dunyoning turli burchaklaridan ming-minglab yahudiylarning Falastinga ko‘chib kelishi arab va yahudiylar o‘rtasida nizoni kuchaytirdi. 1948-yil 14-mayda Isroil davlati (yahudiylar davlati) tashkil etildi-yu, lekin Falastin davlati tashkil etilmay qoldi. Bu esa birinchi arab — isroil urushini keltirib chiqardi. Falastin hududi Isroil tomonidan bosib olindi. 1949-yilda BMT urush harakatlarining to‘xtatilishiga erishdi. Biroq Falastin — Isroil janjali davom etdi.

1947-yilda Buyuk Britaniya Hindistonga mustaqillik berishga qaror qildi. Biroq inglizlar Hindistondan chiqib ketish oldidan uni diniy belgiga ko‘ra ikkiga — Hindiston va Pokistonga — bo‘lib yubordilar. Shu tariqa keyinchalik qator qurolli to‘qnashuvlarga olib kelgan Hindiston — Pokiston mojarosiga zamin yaratildi. Bu mojaroda SSSR Hindiston tarafini ola boshladi.

Tez orada Hindixitoyda ham qarama-qarshilik o‘chog‘i vujudga keldi. Bunga SSSR va XXR ning yer yuzi mintaqa xalqlari milliy-ozodlik urushini qo‘llab-quvvatlashi hamda ularni o‘z ta’sir doiralarida saqlab turishga intilishlari sabab bo‘ldi. Chunonchi, 1945-yil 2-sentabr kuni Vetnam Demokratik Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi. Hokimiyat tepasiga kommunistlar kelishdi. Bu hol Fransiyani tashvishga solib qo‘ydi. U o‘z mustamlakachilik tartiblarini tiklash maqsadida Vetnamga qarshi urush harakatlarini boshladi. Laos va Kambojada mustamlaka tartibini tikladi. Hindixitoy xalqlari fransuz mustamlakachilariga qarshi ozodlik urushi boshladilar. Bu urush 1954-yilda g‘alaba bilan yakunlandi.

1954-yilning aprel-iyul oylarida Jenevada Hindixitoyda tinchlik o‘rnatishga bag‘ishlangan konferensiya bo‘lib o‘tdi. Fransiya Hindixitoy davlatlarining mustaqilligini tan oldi va o‘z qo‘shinlarini bu hududdan olib chiqib ketish majburiyatini oldi. Ayni paytda Vetnam 2 davlatga (Shimolda Vetnam Demokratik Respublikasi, janubda — Vetnam Respublikasi) bo‘lindi. Bu davrda AQSH yer sharining turli nuqtalarida o‘z ta’sir doirasini kuchaytirish uchun jon-jahdi bilan harakat qilardi. Shu maqsadda u 1951-yilda ANZYUS (Avstraliya, Yangi Zelandiya va AQSH ishtirokida), 1954-yilda SEATO (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand, Filippin ishtirokida), 1955-yilda SENTO (Eron, Turkiya, Pokiston va Iroq ishtirokida) harbiy-siyosiy bloklarini tuzdi. AQSH kommunistlar hukmronligidagi yagona Vetnam davlati vujudga kelishiga aslo toqat qila olmas edi. 1964-yilning avgust oyida VDRning harbiy-dengiz kuchlari Tonkin qo‘ltig‘iga kirgan AQSH harbiy kemalariga hujum qildi. AQSH bu voqeani o‘ziga qilingan agressiya, deb baholadi. AQSH samolyotlari VDR hududini bombardimon qilishni boshladi. 1965-yildan boshlab esa AQSH qurolli kuchlari

Hindiston va
Hindixitoydagi ahvol
148
VDRga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Biroq AQSH armiyasi Vetnam xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Urush harakatlari 8 yil davom etdi. AQSH Vetnam xalqining irodasini buka olmadi. Nihoyat, 1973-yilning yanvar oyida Parijda Vetnamda urushni to‘xtatish va tinchlikni tiklash to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi. AQSH Vetnamdan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo‘ldi. U qo‘llab-quvvatlayotgan Janubiy Vetnam hukumati 1975-yilda quladi. 1976-yilning 2-iyulida Vetnam yagona davlatga birlashdi. Bu hodisa AQSHning Hindixitoydagi jiddiy mag‘lubiyati edi.

50-yillarda Yaqin Sharq G‘arbning buyuk davlatlari va SSSR o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik maydoniga aylandi. SSSR arab davlatlarini, AQSH esa Isroilni qo‘llabquvvatlashni yangi kuch bilan davom ettirdi. 1952-yilda amalga oshirilgan inqilob natijasida Misrda Buyuk Britaniya tayanchi bo‘lgan monarxiya ag‘darildi.

1956-yilda esa Misr Suvaysh kanalini milliylashtirdi. Bunga chiday olmagan Buyuk Britaniya Misrga qarshi agressiya uyushtirdi. Unda Fransiya va Isroil ham qatnashdi. BMT va SSSRning qat'iy pozitsiyasi tufayli agressiya to'xtatib qolindi. Shu tariqa 3 davlat agressiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada Buyuk Britaniya va Fransiyaning pozitsiyalariga katta putur yetdi. Ayni paytda Yaqin Sharqda SSSR ning obro'si ko'tarildi. 1958-yilda Iroqda monarxiya ag'darildi. Shunday sharoitda Eyzenxauer doktrinasi ilgari surildi. Unga ko'ra, Yaqin Sharqda endi AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rnini to'ldirish kerak edi. Bu hodisa SSSR ning G'arb davlatlari bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi. «Sovuq urush» vasvasasi kuchaydi.

50-yillarning ikkinchi yarmida SSSR turli tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashashi mumkinligi g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyaning puch emasligini isbotlash maqsadida o'z armiyasining sonini 2 mln kishiga qisqartirdi va SSSR — AQSH rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Va, nihoyat, 1960-yilning may oyida SSSR rahbari N. S. Xrushyov va AQSH prezidenti D. Eyzenxauerning uchrashuvi o'tkazilishiga kelishildi. Biroq bu uchrashuv amalga oshmay qoldi. Bunga AQSH 1-may kuni SSSR hududiga josus samolyoti uchirishi sabab bo'ldi. Josus samolyot Sverdlovsk osmonida urib tushirildi. Uchuvchi G. Pauers tiriklayin asir olindi. AQSH ig'vogarligi fosh bo'ldi.

1961-yilda SSSR va AQSH munosabatlarini nihoyatda keskinlashtirib yuborgan voqea sodir bo'ldi. Bu Berlin devorining qurilishi voqeasi edi. Devor Sharqiy Berlinni G'arbiy Berlindan ajratib tashladi. Tez orada dunyoni yadro urushi halokati yoqasiga olib kelib qo'ygan voqea ham sodir bo'ldi. Bu voqea tarixga «Karib inqirozi» nomi bilan kirgan. Bu inqiroz qay tariqa yuz berdi? 1959-yilning yanvar oyida Kubada amerikaparast hukumat ag'darildi. Hokimiyat tepasiga F. Kastro boshchiligida vatanparvar kuchlar

Yaqin Sharq inqirozi
SSSR — AQSH munosabatlarining yanada keskinlashuvi

kelishdi. F. Kastro Kubada sotsializm qurilishini e'lon qildi. Tabiiyki, AQSH shundaygina biqinida Kubaga o'xshash sotsialistik davlatning vujudga kelishiga toqat qila olmas edi. SSSR rahbariyati esa Kuba inqilobini sotsializmning butun dunyo bo'ylab tarqalishi, deb baholadi. Shuning uchun ham Kubani qo'llab-quvvatladi.

1961-yilning aprel oyida AQSH Kubaga qarshi emigrantlar isyonini uyushtirdi. Bu Karib inqirozini keltirib chiqardi. Kuba rahbari F. Kastro yordam so'rab SSSR ga murojaat qildi. SSSR rahbariyati yashirin ravishda Kuba hududiga o'rtacha olislikka uchadigan va atom bombasi bilan ta'minlangan raketalarni joylashtirdi. Bundan xabar topgan AQSH ma'muriyati Kubaga nisbatan dengiz qamalini uyushtirdi. Dunyo yadro urushi yoqasiga kelib qoldi. N. S. Xrushyov va AQSH prezidenti J. Kennedi 1962-yilning 28-oktabrida oxir-oqibatda o'zaro kelishuvga erishdilar. Unga ko'ra, SSSR Kubadan o'z raketalarini olib chiqdi. AQSH esa Kubaga bostirib kirmaslikka so'z berdi hamda Turkiyadan raketalarini olib chiqib ketdi.

«Karib inqirozi» buyuk davlatlarni yadro qurollari masalasida ehtiyotkorona siyosat yuritishga majbur etdi. Buning aks sadosi o'laroq, 1963-yilning 15-avgustida Moskvada SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasida «Atmosferada, fazoda va suv ostida yadro qurollari sinovini taqiqlash to'g'risida» shartnoma imzolandi. Biroq bu shartnoma ular o'rtasidagi dushmanlik munosabatini zarracha kamaytirgan emas. Aksariyat, mintaqaviy mojarolar SSSR — AQSH munosabatlarini yanada keskinlashtirib yuborgan. Bunday mintaqaviy yirik mojaro 1967-yilda ro'y bergan arab-isroil urushi edi. Atigi olti kun davom etgan bu urushda Isroil armiyasi Misr, Iordaniya va Suriya armiyasini tor-mor keltirdi. Isroil bu davlatlar hududlarining bir qismini bosib oldi.

Yangi urush xavfining kuchayishi tinchlik tarafdorlarining birlashishini taqozo etgan. Mashhur

fan va adabiyot arboblari tashabbusi bilan tinchlik tarafdorlarining xalqaro harakati vujudga keldi. 1948—1949-yillarda ko‘pgina mamlakatlarda tinchlik uchun kurashchilarning milliy qo‘mitalari tashkil etildi. 1949-yilning aprel oyida Parij shahrida tinchlik tarafdorlarining birinchi butunjahon kongressi o‘tkazildi. Kongress «Tinchlikni kutib turmaydilar, tinchlikni kurash bilan qo‘lga kiritadilar» shiori ostida o‘tdi. Tinchlik uchun kurash turli irq va millatlarga, siyosiy va diniy qarashlarga mansub millionlab kishilarni birlashtirdi. Kongress Jahon Tinchlik Kengashini (JTK) tuzdi. Kengash doimiy qo‘mitasi raisligiga atoqli fransuz atomchi olimi, fashizmga qarshi kurash ishtirokchisi F. Jolio-Kyuri saylandi. Doimiy qo‘mita 1950-yilda mashhur Stokgolm chaqirig‘ini qabul qildi. Bu atom qurolini taqiqlash haqidagi chaqiriq edi. Bu chaqiriqni 500 mln dan ortiq odam imzoladi. JTK 1951-yilda buyuk davlatlar o‘rtasida «Tinchlik pakti» ni imzolash to‘g‘risida murojaat qabul qildi. Uni 600 mln dan ortiq kishi

Tinchlik uchun kurash

imzoladi. 1955-yilda esa «Atom urushini» tayyorlashga qarshi jahon xalqlariga murojaat qabul qildi. Uni 650 mln dan ortiq kishi imzoladi. Bu murojaat barcha mamlakatlarda atom quroli zaxiralarini yo‘qotishni va uni ishlab chiqarishni darhol to‘xtatishni talab qilgan edi. Keyinchalik yadro quroli xavfi xususida xalqaro shartnomalarning imzolanishida, tinchlik harakatida JTK ham muhim rol o‘ynagan. 1986-yil oktabrda Kopengagen shahrida (Daniya) tinchliksevar kuchlarning xalqaro tinchlik yiliga bag‘ishlangan jahon kongressi o‘tkazildi. Kongress «Tinchlikni va insoniyat kelajagini saqlab qolaylik» shiori ostida o‘tdi. Kongress ishida jahonning 136 mamlakatidan 2,5 mingga yaqin delegat qatnashdi. Kongress «Kopengagen chaqirig‘i» nomli hujjatni qabul qildi. Unda yadro quroli poygasini to‘xtatish, kosmosda yadro quroli bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik talab etilgan edi.

1961-yil 1—6-sentabr kunlari Belgrad shahrida Osiyo va Afrikaning 25 davlati Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Bu konferensiya tufayli «Qo‘shilmaslik harakati» deb atalgan harakat vujudga keldi. Xo‘sh, bu qanday harakat edi? Bu — turli tizimdagi davlatlarning tinch-totuv yashashi tarafdori bo‘lgan, mustamlakachilikning batamom va abadiy barham topishi uchun kurashadigan, harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaydigan, ularni qoralaydigan, yadro qurolining taqiqlanishi, dunyoda iqtisodiy tenglik uchun kurashadigan harakat edi.

Qo‘shilmaslik harakatining vujudga kelishida Hindiston, Yugoslaviya, Misr tashabbuskor bo‘ldi. Ularni buyuk davlatlar o‘z o‘rtalaridagi mojarolarga Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarini ham tortishga zo‘r berib intilayotganligi qattiq tashvishlantirgan edi. Qo‘shilmaslik harakati qatnashchilari kuchaygan xalqaro keskinlik va qurollanish poygasi uchun AQSH va SSSRning birday mas’ul ekanligini ta’kidladilar.

60-yillardan boshlab sovet — xitoy munosabatlari keskinlasha bordi. Xitoy rahbariyati SSSRning kichik ukasi bo‘lishni istamay qo‘ydi. Ular mustaqil siyosat yuritishga intildilar. Dunyo shu davrgacha ikkiga bo‘lingan bo‘lsa, Xitoy rahbarlari «Uchinchi dunyo nazariyasi»ga katta e’tibor bilan qaray boshladilar. Uchinchi dunyo deyilganda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining mustaqillikdan so‘ng rivojlanayotgan davlatlari tushunilar edi. XXR rahbariyati ana shu dunyoning liderligiga da’vo qilib chiqdi. SSSR — Xitoy munosabatlaridagi keskinlik tobora chuqurlashib bordi. Oxir-oqibatda bu 1969-yilda sovet — xitoy chegarasida qurolli to‘qnashuvga olib keldi.

AQSH esa Vetnamda olib borayotgan urushning istiqbolsizligini anglab yetdi. Bu omillar SSSR va AQSHni o‘zaro munosabatlardagi keskinlikni yumshatishga majbur etdi. Bu xalqaro keskinlikning yumshashi uchun asosiy omil bo‘ldi. Ikkinchidan, xalqaro keskinlikning yumshashida GFRning o‘sha davrdagi rahbari V. Brandtning xalqaro voqealarni ziyraklik bilan baholay

Qo‘shilmaslik harakati

Xalqaro keskinlikning

olishi ham katta rol o‘ynadi. U xalqaro hayotdagi mavjud reallikni to‘g‘ri baholay oldi. Chunonchi, u SSSRni harbiy kuch bilan mag‘lubiyatga uchratishning imkoni yo‘qligini, NATOning bunga qodir emasligini to‘g‘ri baholadi. Bundan tashqari, Yevropa yadro va oddiy qurollarning ulkan omborxonasiga aylangan edi. Bu omborxona istalgan paytda portlashi mumkin edi. Shunday sharoitda V. Brandt hukumati SSSR va uning ittifoqchilari bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatishga qaror qildi.

Xalqaro keskinlikning yumshashi nimalarda o‘z ifodasini topgan?

1969-yilda SSSR bilan AQSH o‘rtasida strategik qurollarni cheklash haqida muzokaralar boshlandi. 1970-yilda yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Unga 100 dan ortiq davlat qo‘shildi. 1970-yil 12-avgustda SSSR — GFR, GFR — Chexoslovakiya, Polsha — GFR o‘rtasida imzolangan shartnomalar Yevropada tinchlikni mustahkamlash ishiga beqiyos katta hissa qo‘shdi. Shartnomaga ko‘ra, GFR Ikkinchi jahon urushi natijasida Yevropada tarkib topgan chegaralarning buzilmasligini tan oldi. Ayni paytda GFR va GDR o‘rtasida o‘zaro munosabatlar asosi haqidagi shartnoma ham imzolandi. Bu bilan har ikki nemis davlati bir-birini tan oldilar. 1972—1974-yillarda oliy darajada o‘tkazilgan sovet-amerika muzokaralari natijasida SSSR va AQSH o‘rtasida yadro qurolini tarqatmaslik, yadro quroli sinovlarini to‘xtatish to‘g‘risida shartnoma va strategik qurollarni cheklash to‘g‘risida muvaqqat bitim (SQCH-1) imzolandi.

Xalqaro munosabatlardagi bunday o‘zgarishlar Yevropa qit’asida xavfsizlik va davlatlararo hamkorlik uchun qulay sharoit yaratdi. 1975-yilning 30-iyul — 1-avgust kunlari Xelsinki (Finlyandiya) shahrida 35 davlat (shu jumladan, AQSH va Kanada) rahbarlari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengash o‘tkazdilar. 1-avgust kuni kengashning Yakunlovchi akti imzolandi. Uni imzolagan 35 davlat rahbarlari o‘z davlatlari tashqi siyosatda quyidagi tamoyillarga amal qilishini tan oldilar:

— davlatlarning suveren tengligi, huquqlarni va o‘zgalar suverenitetini hurmat qilish;
— kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik;
— chegaralar buzilmasligi;
— davlatlarning hududiy birligi;
— nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
— ichki ishlarga aralashmaslik;
— inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini hurmatlash;
— teng huquqlilik va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zlari hal etishi;
— davlatlararo hamkorlik;
— xalqaro huquqlar bo‘yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

1979-yilda SQCH-2 shartnomasi imzolandi. Biroq yuqorida qayd etilganlardan xalqaro keskinlikning yumshashi yillarida xalqaro hayot faqat silliq yo‘ldan ketgan ekan-da, degan xulosa chiqmasligi zarur. Bu yillar

(70-yillar) da ham dunyo mintaqaviy siyosiy mojarolardan, urushlardan xoli bo‘lmagan.

1971-yilda Hindiston — Pokiston davlatlari o‘rtasida yana urush boshlandi. Bunga Pokistonda boshlangan bo‘linish jarayoni bahona bo‘ldi.

Pokiston G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linar edi. Ularni Hindiston hududi ajratib turardi. Sharqiy Pokistonda aholi ko‘p bo‘lsa-da, uni G‘arbiy Pokiston vakili boshqarar edi. Bu hodisa keskin norozilik keltirib chiqardi. Sharqiy Pokiston keng muxtoriyat talab eta boshladi. Biroq hukumat bunga rozi bo‘lmadi. Natijada Sharqiy Pokistonda separatchilar harakati kuchaydi. Hindiston separatchilarga yordam uchun o‘z armiyasini yubordi. Buning oqibatida Sharqiy Pokiston ajralib chiqdi va u yerda mustaqil Bangladesh davlati tashkil etildi. Bu urushda SSSR Hindistonni qo‘llab-quvvatladi.

1973-yilning oktabr oyida navbatdagi arab-isroil urushi yuz berdi. Uni Isroilning Yaqin Sharq muammosini tinch yo‘l bilan hal etishni istamasligi, arablarning esa 1967-

yilgi mag‘lubiyat uchun qasos olishga intilishlari keltirib chiqardi. Urush Misr armiyasining Isroilga to‘satdan hujum qilishi bilan boshlandi. Birinchi bor arab quroli Isroilga zarba bera boshladi. Biroq Isroil tez orada o‘zini o‘nglab oldi. Misr va Suriya armiyasini chekinishga majbur etib, Qohira va Damashq shaharlariga bevosita tahdid sola boshladi. BMT Xavfsizlik Kengashining qat’iy talabi bilan urush harakatlari to‘xtatildi. Urush arab davlatlari harbiy qudratining o‘sganligini namoyish etdi. Ayni paytda Yaqin Sharq muammosini kuch bilan hal etish mumkin emasligini ham isbotladi. AQSHning faol aralashuvi bilan Yaqin Sharq muammosini ikki tomonlama shartnomalar imzolash orqali hal etishga kirishildi. Xususan, 1975-yilda Sinay yarim orolida Isroil va Misr qo‘shinlarini ajratish to‘g‘risida shartnoma, 1978-yilda esa bu ikki davlat o‘rtasida Kemp-Devid shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, Misr va Isroil o‘rtasidagi urush holati barham topdi. Isroil bosib olgan Misr yerlarini qaytarib berdi. 1979-yilda Misr—Isroil tinchlik shartnomasi ham imzolandi. Biroq Yaqin Sharq muammosining asosiy masalalari — Isroil bosib olgan arab davlatlari hududlarini qaytarib berish va Falastin arab davlatini tuzish hal etilmadi.

70-yillardan boshlab Amerika — Xitoy yaqinlashuvi boshlandi. Chunonchi, 1971-yilda AQSH Prezidentining Milliy xavfsizlik bo‘yicha yordamchisi G. Kissinjer maxfiy ravishda Pekinda qabul qilindi. 1972-yilda esa AQSH Prezidenti R. Nikson Xitoyga rasmiy safar bilan bordi. Bu xalqaro siyosiy hayotning eng shov-shuvli voqeasi bo‘ldi.

AQSH — Xitoy munosabatlarining yaxshilanish jarayoni boshlandi. 1979-yilda bu ikki davlat o‘rtasida elchilar darajasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. AQSH—Xitoy munosabatlarining yaxshilana borishi SSSRni tashvishga solib qo‘ydi. Buning ustiga Janubi-Sharqiy Osiyoda sovet-xitoy munosa-

Arab — Isroil urushi

Xitoy xalqaro munosabatlarda

Hindiston — Pokiston urushi

batlari keskinlashib bordi. Bunga Vetnam Sotsialistik Respublikasi (VSR) rahbariyatining SSSR tarafida turishi, VSRning 1979-yilning yanvar oyida Kambojadagi xitoyparast «Qizil kxmerlar» hukumatini ag‘darib tashlashi sabab bo‘ldi. Xitoy VSRga qarshi harbiy harakat boshladi. SSSR, do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomaga ko‘ra, VSRni qo‘llab-quvvatladi. Tez orada Xitoy urush harakatlarini to‘xtatdi va qo‘shinlarini Vetnamdan olib chiqib ketdi.

70-yillarning oxiridan boshlab xalqaro munosabatlarda yana keskinlik davri boshlandi. Xo‘sh, buning sababi nimalardan iborat bo‘lgan edi? 70-yillarda dunyoning turli nuqtalarida shunday voqealar yuz berdiki, ayrim siyosatchilar ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri SSSRning g‘alabasi, AQSHning esa mag‘lubiyati, deb baho berdilar. Chunonchi, 1974-yilda Efiopiyada (Afrika qit’asida) monarxiya ag‘darildi. Hokimiyat tepasiga marksizm-leninizm ta’limotiga amal qiluvchi siyosiy guruh keldi. Bu guruh Efiopiyada sotsializm qurishni o‘zining maqsadi, deb e’lon qildi. 1975-yilda Portugaliya mustamlakachilik imperiyasi quladi. Natijada kechagi mustamlakalar bo‘lmish Angola va Mozambikda inqilobiy-demokratik hokimiyat o‘rnatildi. Ular, birinchi navbatda, SSSRga tayana boshladilar. 1978-yilda SSSRning aralashuvi bilan Afg‘onistonda davlat to‘ntarishi o‘tkazildi. Uning tashkilotchilari bu voqeani «inqilob» deb atadilar va maqsadlari SSSR nusxasidagi sotsializm qurish ekanligini ma’lum qildilar. 1979-yilda Nikaraguada AQSHparast hukumat ag‘darildi. Xuddi shu yili Eronda AQSHning O‘rta Sharqdagi tayanchi — shoh hokimiyati ag‘darildi. AQSH hukmron doiralari bu voqealarga AQSHning mag‘lubiyati deb qaradilar. O‘ta o‘ng kuchlar esa bu voqealar hukumat noqobilligining va Moskva aralashuvining oqibati, deb jar soldilar.

Tabiiyki, bunday sharoitda xalqaro keskinlikning yumshashi bundan keyin ham davom etishi mumkin emas edi. Ikkinchidan, SSSR 70-yillarda o‘z tashqi siyosatida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ularning eng asosiysi SSSRning Sharqiy Yevropadagi mavqeyini G‘arbga tan oldirish bo‘ldi. Bu

hol, shubhasiz, SSSRning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yana mustahkamladi.
Endi SSSR xalqaro miqyosda, o‘z xohishicha, Xelsinki Yakuniy akti talablari ruhiga zid ravishda harakat qila boshladi. Chunonchi, 70-yillarning ikkinchi yarmida o‘z ittifoqchilari bo‘lgan Sharqiy Yevropaning ba’zi davlatlari hududida o‘rtacha olislikka uchadigan yangi tipdagi (SS-20) raketalarini joylashtirdi. (Bu raketalarning har biri bir vaqtda uchtadan yadro bombasini mo‘ljalga yetkazish imkoniga ega bo‘lgan.) Bundan maqsad — G‘arbiy Yevropa davlatlariga tazyiq o‘tkazish edi.
SSSRning bu qadamini G‘arb davlatlari, birinchi navbatda, AQSH keskin qoraladi. 1979-yilning dekabr oyida NATO bu davlatlardan raketalarini olib chiqib ketishni SSSRdan talab qildi. Ayni paytda, bu talab bajarilmasa, 1983-yilda G‘arbiy Yevropaning 5 davlati (Buyuk Britaniya, GFR, Belgiya, Gollandiya va Italiya) hududiga AQSHning o‘rtacha olislikka

Xalqaro ahvolning qayta keskinlashuvi

154

uchadigan raketalari joylashtirilishini ham ma’lum qildi. Shu tariqa o‘rtacha olislikka uchadigan raketalar xususida keskin kurash boshlandi. Bu oxiroqibatda Yevropada keskinlikning yumshashi jarayonini barbod qildi.
1979-yilning dekabr oyida Afg‘onistonga SSSR armiyasining kiritilishi xalqaro keskinlikni yanada kuchaytirib yubordi. SSSR armiyasi kiritilgach, Afg‘onistonda fuqarolar urushi yangi pallaga kirdi. BMT Bosh Assambleyasi SSSRdan Afg‘onistondagi armiyasini olib chiqib ketishini talab qildi. 1980-yilgi Moskva yozgi Olimpiada o‘yinlarini ko‘p davlatlar boykot qildilar. AQSH Senati SQCH-2 shartnomasini tasdiqlashni rad etdi. SSSRga g‘alla sotishni to‘xtatdi. AQSH keskinlikni yumshatish siyosatidan voz kechdi va qayta qurollanishni avj oldirdi.
1983-yilda AQSH prezidenti R. Reygan «Strategik mudofaa tashabbusi» rejasini ma’lum qildi. Bu reja raketaga qarshi qurolni qisman kosmosga joylashtirishni nazarda tutar edi. Bu reja amalga oshsa, raketadan mudofaaning mavjud tizimi butunlay yaroqsiz holga kelar edi. Bundan tashqari, 1983-yildan boshlab AQSH Yevropa davlatlari hududiga o‘z raketalarini joylashtirishni boshladi. Bu hol SSSRning strategik ahvolini nihoyatda murakkablashtirdi. Chunki AQSHning bu raketalari SSSR hududini nishonga olar edi. SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari hududiga joylashtirgan raketalari esa AQSH hududiga yetib bora olmas edi. SSSRning xalqaro obro‘siga katta putur yetdi. 1979-yildan boshlab Yaqin Sharqda tashabbusni AQSH o‘z qo‘liga oldi. Endi Yaqin Sharq muammosini SSSRning ishtirokisiz hal etishga kirishildi.
Shunday qilib, xalqaro munosabatlar keskinlashib ketdi.
Sovet davlati rahbariyati 80-yillarning ikkinchi yarmida qurollanish poygasining yangi bosqichiga mamlakat iqtisodiyoti bardosh bera olmasligini anglab yetdi. Shuning uchun SSSR rahbariyati tashqi siyosat yo‘nalishini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. 1985-yilda SSSR rahbari M. S. Gorbachyov SSSRning kollektiv xavfsizlik tamoyillariga tarafdorligini va xalqlarning taraqqiyot yo‘lini tanlashda suveren huquqlarini hurmat qilishini e’lon qildi. Tashqi siyosatdagi bu o‘zgarish «yangi siyosiy tafakkur» iborasida o‘z ifodasini topdi. SSSR rahbariyati tezda gapdan amaliy ishga o‘tdi. 1985—1988-yillar oralig‘ida 4 marta oliy darajada sovet-amerika uchrashuvi o‘tkazildi. 1987-yilda SSSR va AQSH o‘rtasida o‘rtacha va qisqa olislikka uchadigan raketalarni tugatish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 1989-yilda SSSR Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqib ketdi.
Shu yili M. S. Gorbachyovning Xitoyga safari uyushtirildi. Buning natijasida sovet-xitoy munosabatlarini yaxshilashga asos solindi. SSSR tashqi siyosatida ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar 1989-yilda Sharqiy Yevropa (SSSR ittifoqchilari) davlatlarida ro‘y bergan inqiloblar tufayli jiddiy sinovdan o‘tdi. SSSR bu inqiloblarni bostirishga harakat qilmadi. Kechagi ittifoqchilar SSSR vasiyligidan qutuldilar. SSSR, hatto, 1990-yilning 3-oktabrida ikki

SSSR tashqi siyosatidagi o‘zgarish

155

nemis davlatining birlashishiga ham to‘sqinlik qilmadi. Aksincha, Germaniya birlashgandan so‘ng 1990-yilning 9-noyabrida SSSR va GFR o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik, sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. SSSR Sharqiy Yevropadan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib keta boshladi. AQSH va uning ittifoqchilari 1991-yili Iroqning o‘zboshimchaligiga qarshi harbiy kuch ishlatganida SSSR o‘z ittifoqchisi Iroqni qo‘llabquvvatlamadi. 1990-yilning noyabrida Parijda Yevropada oddiy qurol-yarog‘ va qurolli kuchlar sonini qisqartirish to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi qatnashchilari bo‘lgan davlatlar Yevropa uchun Parij Xartiyasini qabul qildilar. Unda davlatlararo munosabatlarning Xelsinki tamoyillari tasdiqlandi. Shu tariqa «sovuq urush» barham topa bordi. 1991-yilda SSSRning qulashi bilan «sovuq urush» tugadi. Lekin AQSH — Rossiya ziddiyatlari davom etmoqda.

XX asrdagi so‘nggi o‘n yillikning eng yirik voqeasi SSSRning qulashi bo‘ldi. 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari Minsk shahridagi uchrashuvlarida SSSR tarqatib yuborilganligini e’lon qildilar. Buning sababi — aynan shu uch davlat 1922-yilning 30-dekabrida SSSRni tashkil etgan edilar. Ayni paytda bu uch davlat rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) ni tashkil etganliklarini ham ma’lum qildilar. Sobiq ittifoqdosh respublikalardan yana sakkiztasi, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi MDH haqidagi shartnomani imzoladilar. Dunyo hamjamiyati Rossiya Federatsiyasini sobiq SSSRning qonuniy vorisi, deb tan oldi. Rossiya Federatsiyasi sobiq SSSR imzolagan shartnomalarga rioya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oldi. BMT va uning Xavfsizlik Kengashida SSSRning o‘rnini egalladi. SSSR tarqalib ketgach, uning yadro qurollari to‘rt davlat (Ukraina, Belorussiya, Rossiya va Qozog‘iston) hududida qoldi. Xalqaro hamjamiyat ularning yagona Rossiyada to‘planishi choralarini ko‘rdi va bunga erishdi.

SSSRning qulashi jahondagi siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirib yubordi. Dunyoning ikkiga bo‘linishi barham topdi. AQSH dunyoning yagona «o‘ta buyuk» davlati bo‘lib qoldi. AQSH prezidenti J. Bush o‘z xalqini «sovuq urush» da erishilgan g‘alaba bilan qizg‘in tabrikladi.

90-yillar xalqaro hayotda ko‘p millatli davlatlarning parchalanishi va milliy davlatlarning vujudga kelishi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, Chexoslovakiya va Yugoslaviya bo‘linib ketdi. Chexoslovakiya 1993-yilning 1-yanvarida Chexiya va Slovakiya davlatlariga ajraldi. Yugoslaviya bo‘linguniga qadar 6 respublikadan iborat edi.

1991-yil iyun oyida Xorvatiya, Sloveniya va Makedoniya o‘z mustaqilligini e’lon qildilar. 1992-yilning yanvar oyida Bosniya va Gersegovina ajralib chiqdi. Serbiya va Chernogoriya esa Yugoslaviya Ittifoqi (YuI)

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining tashkil etilishi

Milliy davlatlarning vujudga kelishi

davlatini tuzdilar. Yugoslaviyaning parchalanish jarayoni yana davom etdi. Xususan, Chernogoriya YuI tarkibidan ajrab chiqdi. Kosovoda yashovchi albanlar esa mustaqil Kosovo davlati tuzilganligini e’lon qildilar.

Yaqin Sharq muammosining asosiy masalasi — Falastin arab davlatini tashkil etish va Isroil bosib olgan arab yerlarini qonuniy egalariga qaytarib berish hamon hal etilmay kelinmoqda.

Falastin arab davlatini tashkil etishga quyidagi uchta katta muammo g‘ov bo‘lib turibdi:

— 1,5 mln dan ortiq arab qochoqlarini avvalgi yashash joylariga qaytarish;

— Falastin davlatining poytaxti muammosi;

— Falastinliklar Quddus shahrini o‘z davlatining poytaxti bo‘lishini istaydilar. Isroil esa uni o‘z davlatining poytaxti, deb e’lon qilgan. Uzoq muzokaralardan so‘ng bu shaharni ikkiga bo‘lishga kelishildi, Isroildagi

o‘ta o‘ng kuchlar va Falastinning ekstremist tashkilotlari shaharning bo‘linishiga aslo rozi bo‘lmayotirlar va bunday bo‘linishiga butun choralar bilan qarshilik ko‘rsatmoqdalar;
— Isroildagi o‘ta o‘ng millatchi va Falastindagi ekstremistik kuchlarning barcha muammolarni kuch yordamida hal etishga urinayotganliklari.
Ularning ikki tomonlama har qanday kelishuvga qarshiligi. Shu tariqa Yaqin Sharq muammosi hamon o‘z yechimini to‘la topganicha yo‘q. Lekin 2005-yilga kelib G‘azo sektoridan 8,5 ming yahudiylarning ko‘chib ketishi vaziyatni biroz iliqlashtirdi.
Afg‘onistondagi turli etnik, siyosiy-diniy kuchlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash uzoq davom etdi.
1996-yilda Afg‘onistonning katta qismida tolibonlar hokimiyati o‘rnatildi. Ular Afg‘onistonni islom davlatiga aylantirdilar. Tolibonlarga qarshi kuchlar «Shimoliy alyans» (ittifoq)ga birlashdilar. Tolibon va Shimoliy alyans o‘rtasida qirg‘inbarot urushi olib borildi.
Pokiston va Saudiya Arabistoni tolibonlar hokimiyatini tan oldilar va unga keng ko‘lamli yordam ko‘rsatdilar.
Afg‘onistondagi holat nafaqat bu davlatning, balki uning qo‘shnilari, qolaversa, jahon hamjamiyatining muammosiga aylandi. Afg‘oniston hududi ayni paytda narkotik moddalar va qurol-yarog‘ kontrabandasi, diniy ekstremizm va fanatizm, terrorchilik o‘lkasi bo‘lib qoldi. Binobarin, Afg‘oniston muammosi yalpi xavfsizlikka ham jiddiy tahdid solayotgan muammoga aylandi.
O‘zbekiston Respublikasi Afg‘oniston muammosini hal etishga doir qator takliflarni ilgari surdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1993-yildayoq BMT e’tiborini Afg‘oniston muammosiga qaratgan edi va, birinchi navbatda, muxolif kuchlarga qurol sotilishini taqiqlab qo‘yishni taklif etgandi.
Afg‘oniston muammosi
Yaqin Sharqdagi vaziyat
157
Shuningdek, muxolifat kuchlari buyuk davlatlar va chegaradosh davlatlar ishtirokida Afg‘oniston muammosini hal etishga qaratilgan xalqaro uchrashuv o‘tkazishni taklif etdi. Bunday uchrashuv 1998-yilda Toshkentda o‘tkazildi. U tarixga «6+2» guruhi uchrashuvi (Eron, Pokiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston, shuningdek, AQSH va Rossiya) nomi bilan kirdi. Uchrashuvda Afg‘oniston muxolifat kuchlari vakillari ham ishtirok etdi. Uchrashuv yakunida Afg‘oniston muammosi bo‘yicha Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu hujjat «6+2» guruhiga a’zo davlatlar hamda Afg‘onistonda nizolashayotgan ichki kuchlar uchun tinchlikka eltuvchi xartiya vazifasini o‘tashi mumkin edi. Biroq ichki muxolifat o‘rtasidagi nihoyatda keskin ziddiyat Toshkent Deklaratsiyasini amalga oshirishga imkon bermadi. 2001-yil 11-sentabrda AQSHda bo‘lib o‘tgan terrorchilik harakatidan keyin Afg‘onistonga AQSH boshchiligida hujum boshlandi va tolibonlar ag‘darib tashlanib, Muhammad Karzay boshchiligida yangi dunyoviy hukumat tuzildi.
To‘g‘ri, Afg‘oniston muammosi tezda hal etiladiganlardan emas. Chunki bu 20 yildan ortiq davr mobaynida to‘plangan muammodir.
O‘zbekiston 1992-yilning fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlashni hamda inson huquqlarini himoya qilish ishiga katta hissa qo‘shayotgan nufuzli Xalqaro tashkilot — Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YEXHT) ga, 1992-yilning 2-martida esa BMT a’zoligiga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o‘rin olishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993-yilning sentabr oyida bo‘lib o‘tgan BMTning 48-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov birinchi bor ishtirok etdi. U o‘z ma’ruzasi bilan O‘zbekistonni yana bir bor dunyoga tanitdi.
O‘zbekiston tez orada jahondagi 105 davlat a’zo bo‘lgan Qo‘shilmaslik harakatiga qabul qilindi. I. A. Karimov 1995-yilda BMTning 50-yilligi munosabati bilan uning yubiley sessiyasida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

Prezident o‘z nutqida davlat arboblari va siyosatchilari diqqatini milliy xavfsizlik masalasini hozirgi kun talab va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqishga da’vat etdi. O‘z fikrini BMT Xavfsizlik Kengashi 187 davlatning tashvishlarini, muammolari va taqdirini hal etishga qodir bo‘lmayotgani, uning dunyo barcha muammolarini qamrab ololmayotgani faktlari bilan asosladi. Shuning uchun ham Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zolari sonini va uning faoliyat maydonini kengaytirish lozimligini, shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy salohiyati va xalqaro obro‘-e’tibori yuqori bo‘lgan Yaponiya va GFR ni BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zoligiga qabul qilishni taklif etdi.

Ayni paytda I. A. Karimov BMT Bosh kotibining vakolatlarini kengaytirish masalasini ham ko‘tarib chiqdi. Ma’lumki, BMT qanchalik nufuzli tashkilot bo‘lmasin, u yer yuzi aholisi butun tashvishini nazorat qila olmaydi.

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda

158

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning BMT BA 48-sessiyasidagi chiqishi.

Shuni nazarda tutgan holda I. A. Karimov dunyodagi qator mamlakatlararo va mintaqalararo xalqaro tashkilotlarni ham BMT doirasiga kiritishni taklif etdi. Shunday qilinsa, xalqaro tashkilotlar yangi tizimi vujudga kelgan va ular yordamida xalqaro muammolar samaraliroq hal etilishiga yo‘l ochilgan bo‘lar edi.

1993-yil yanvarda Toshkentda besh davlat ishtirokida «Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi» tashkil etildi. Mart oyida esa bu davlatlar «Orol muammosi bo‘yicha» birgalikdagi harakat bitimini imzoladilar. 1996-yilning 21-iyunida Florensiya (Italiya) shahrida Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston o‘rtasida sheriklik va hamkorlik haqida bitim imzolandi. O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiy tashkilot — EKO a’zoligiga qabul qilindi. Bundan tashqari, mamlakatimiz Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog‘laydigan «Yevropa — Kavkaz — Osiyo» transport yo‘li — TRASEKA loyihasida ishtirok etmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturida faol ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekiston NATOga a’zo bo‘lib kirmaydi. Biroq u bilan hamkorlik qiladi. Buning sababi davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta’minlash, mintaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-sharoitni mumkin qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iboratdir.

Shuning uchun O‘zbekiston dunyodagi barcha davlatlar bilan tinchtotuv yashash, do‘stlik, birodarlik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish, ekstremizm va terrorchilikka qarshi birgalikda kurash g‘oyasini ilgari surmoqda.

1999-yilning 18—19-noyabr kunlari Turkiyaning Istambul shahrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining oliy darajadagi sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammit Yevropada Xavfsizlik Xartiyasini muhokama qildi. Sammitda birinchi bo‘lib so‘zga chiqqan I. A. Karimov jahon jamoatchiligini tashvishlantirayotgan diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, mintaqaviy mojarolar masalasiga alohida e’tibor berdi va bu haqda bunday

YEXHT Istambul sammiti

dedi: «Bugungi kunda xalqaro maydonda «sovuq urush» ko‘rinishlari o‘rnini bir-biri bilan birlashib, tobora keng ko‘lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy millatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q...

Bugungi kunda biz radikal kayfiyatdagi markazlarning diniy ekstremizm va terrorizmni tarqatishga qaratilgan uzoqni ko‘zlovchi rejalariga, mintaqa davlatlarini o‘zlari tanlagan demokratik, huquqiy va dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan qaytarishga urinishi hollariga duch kelmoqdamiz. Buni Tojikistondagi voqealar, yaqinda Toshkentda yuz bergan portlashlar, bosqinchilar guruhlarining mustaqil Qirg‘iziston janubiga surbetlarcha bostirib kirishi hamda barchaga ma’lum boshqa faktlar isbotlab turibdi».

I. A. Karimov Istambul sammitida Xavfsizlik Xartiyasi loyihasi yuzasidan quyidagi takliflarni bildirdi: Birinchidan, YEXHTning mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishda yanada faolroq bo‘lishi; ikkinchidan, YEXHTning xalqaro ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan xalqaro organ sifatidagi vazifalarini aniq belgilash, shuningdek, uning iqtisodiyot va ekologiya sohalarida tutgan o‘rnini mustahkamlash; uchinchidan,YEXHT tizimini isloh qilish. Islohotning maqsadi — YEXHTni bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimiga moslashtirish, bu tashkilotni hayot keltirib chiqarayotgan yangi-yangi muammolarni hal etishga ko‘proq jalb etish.

Ayni paytda I. A. Karimov Istambul sammitida xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo‘ydi. Bu markazning asosiy vazifasi terrorizm ko‘rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag‘ bilan ta’minlayotgan, qo‘llab-quvvatlayotgan, qurolyarog‘ larni joylarga jo‘natayotgan manbalarga qarshi kurash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning so‘zsiz bajarilishi bo‘yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi lozimligi ta’kidlab o‘tildi.

Istambul sammiti dunyoga O‘zbekiston so‘zining qudratini, uning siyosiy irodasini va jahon taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini namoyish etdi.

1996-yil Shanxayda, 1997-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 2001-yil iyun oyida Shanxay sammiti bo‘lib o‘tdi. Uning ishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O‘zbekistonning «Shanxay forumi»ga to‘la huquqli a’zo bo‘lishi to‘g‘risida bayonot imzolandi. O‘zbekiston Prezidentining taklifi bilan «Shanxay forumi» Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) deb o‘zgartirildi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti

2002-yilda Sankt-Peterburgda, 2003-yilda Moskvada SHHT sammitlari bo‘lib o‘tdi. Toshkentda mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasini ishga tushirishga qaror qilindi. 2004-yil iyunda Toshkentda, 2005-yil Ostonada navbatdagi sammit bo‘lib o‘tdi. Unda xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha masala ko‘rildi. Butun dunyoda yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo‘lganligi, terrorchilikning bazalarini yo‘qotish, odamlar ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta’kidlandi. Tashkilot kengaymoqda.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi xalqaro munosabatlarda BMTning roli oshdi. Yevropada integratsiya jarayoni kuchaydi. Sotsializm qo‘rg‘oni yemirildi. Ko‘pgina yangi davlatlar xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a’zolari bo‘lib qoldilar. AQSH dunyoning yakka hukmron, qudratli davlatiga aylandi. Lekin qurollanish, narkobiznes, ekologik, sog‘liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish muammoligicha qolmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1919-yilgi Parij tinchlik konferensiyasi qarorlarini 1945-yilgi Potsdam

konferensiyasi qarorlari bilan taqqoslang.
2. Nyurnberg jarayoni haqida qanday xulosaga keldingiz? Bugungi kunda ham insoniyatga qarshi jinoyatlarning jazosiz qolmasligiga misollar keltiring.
3. «Sovuq urush» vujudga kelmasligi mumkin edimi? O‘z fikringizni asoslab bering.
4. Marshall rejasi qanday reja va nega SSSR uni qabul qilmagan?
5. NATO va Varshava harbiy-siyosiy bloklari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. XX asrning mintaqaviy mojarolari, ularda AQSH va SSSRning tutgan o‘rni haqidagi faktlarni taqqoslang.
7. Jahon Tinchlik Kengashi qay tariqa vujudga kelgan edi? Kopengagen Kongressi haqida nimalarni bilib oldingiz?
8. Qo‘shilmaslik harakati qanday harakat?
9. XX asrning 70-yillarida xalqaro keskinlikning yumshashiga imkon bergan omillarni sanang. Keskinlikning yumshashi yillarida xalqaro hayotdagi muhim voqealar jadvalini tuzing.
10.Nega XX asr 70-yillarining oxiriga kelib xalqaro ahvol yana keskinlashgan? Bu keskinlikning yuzaga kelishida SSSR va AQSHning o‘rniga baho bering.
11.XX asr 80-yillar 2-yarmidan boshlab SSSR tashqi siyosatida qanday o‘zgarish yuz berdi?
12.Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) qay tariqa vujudga keldi?
13.«Sovuq urush» davri tugagan bo‘lsa-da, nega dunyo hamon mo‘rtligicha qolmoqda?
VAQTLI MATBUOT MATERIALLARI ASOSIDA «O‘ZBEKISTON XALQARO MUNOSABATLARDA» MAVZUSIDAGI JADVALNI TO‘LDIRING
O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar ro‘yxati:
1.
2.

?

17-§. Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arb davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlar

Tarix va geografiya fanlarida «Sharq» va «G‘arb» tushunchalari bir xil ma’noni anglatmaydi.

Geografiyada Sharq Quyosh chiqish tomonini, G‘arb esa Quyosh botish tomonini anglatsa, tarixda bu ikki tushuncha mutlaqo boshqa ma’no kasb etadi. Ayni paytda ular turli tarixiy davrlarda turlicha mazmunga ham ega bo‘lgan.

Masalan, «Sharq» so‘zi dastlab noxristian olamga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa bu so‘z mustamlaka hududlarga nisbatan qo‘llanildi. «Sovuq urush» yillarida esa «Sharq» so‘zi SSSR va uning ittifoqchilariga, «G‘arb» so‘zi esa AQSH va uning ittifoqchilariga nisbatan ishlatildi.

Keyinchalik «Sharq» so‘zi iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanmagan totalitar davlatlarga nisbatan, «G‘arb» so‘zi esa iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlatlarga nisbatan ishlatildi.

Yer yuzida bugungi kunda 190 dan ortiq davlat bor. Mutaxassislarning fikricha, ulardan atigi 75 tasi iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat hisoblanadi.

G‘arbning Ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyotining o‘ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri, G‘arbda farog‘at davlatining vujudga kelganligi edi.

Bunday davlat XX asrning 50-yillarida qaror topdi. 60—70-yillarda esa ravnaq topdi va yanada mustahkamlandi.

«Farog‘at davlati» nima o‘zi? Farog‘at davlati — bu, bozor iqtisodiyotini saqlagan holda, o‘z fuqarolari uchun farovon hayot va shu hayotni ta’minlashga qodir ijtimoiy ta’minot darajasini kafolatlaydigan demokratik davlatdir.

Insoniyat bunday davlatni XX asrning 50-yillarida yarata oldi. Buning sababi — aynan shu davrga kelganda ilg‘or, sog‘lom fikrli kishilar, siyosatchilar fuqarolarning ijtimoiy himoyasi masalasi, huquq erkinligini, binobarin, davlat ana shu huquqning amalda ro‘yobga chiqishini kafolatlashi zarurligini to‘la anglab yetganliklari edi.

Xo‘sh, qanday omillar farog‘at davlatini qurishga imkon bergan?

Bu omillarning birinchisi — Ikkinchi jahon urushidan keyin yangidan boshlangan demokratik harakatning kuchli to‘lqini edi. Demokratik kuchlar chuqur ijtimoiy islohotlar o‘tkazilishini talab qildilar. Ikkinchidan, farog‘at davlatining qaror topishida «sovuq urush» ham katta rol o‘ynadi. G‘arb

siyosatchilari o‘z davlatlari hududida qo‘poruvchi kommunistik g‘oyalarning ildiz otishini aslo istamaganlar.

Fuqarolarni qo‘poruvchi kommunistik g‘oyalar ta’siridan himoya qilishning eng samarali vositasi adolatli va farovon jamiyat qurish edi. Farog‘at davlati o‘z-o‘zidan qurilib qolmas edi, albatta. Chunki bunday davlat

«Farog‘at davlati»ning vujudga kelishi

Sharq va G‘arb tushunchalari haqida

fuqarolar ijtimoiy himoyasiga juda katta mablag‘ sarflashni zaruratga aylantirar edi. Bunday mablag‘ga ega bo‘lish hamda ishlayotgan fuqarolarga yuqori ish haqi to‘lash uchun davlatning iqtisodiyoti gurkirab rivojlanishi zarur edi.

50-yillarining boshlarida G‘arbiy Yevropa davlatlari ishlab chiqarishning urushdan oldingi darajasini asosan tikladilar. 50—60-yillarda esa iqtisodiyotning yuqori sur’atlarda rivojlanishiga erishdilar.

Xo‘sh, qanday omillar iqtisodiyotning yuksak sur’atlarda rivojlanishini ta’minladi? Birinchidan, AQSH va G‘arbning boshqa davlatlari Ikkinchi jahon urushi davridayoq va urushdan keyin Yevropada moliyaviy va pul beqarorligi vujudga kelishining oldini olish choralarini ko‘rgan edilar. Xususan, Xalqaro valuta fondi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tashkil etildi.

Ikkinchidan, «Marshall rejasi» beqiyos katta rol o‘ynadi. Unga ko‘ra, AQSH 1948—1952-yillar oralig‘ida G‘arb davlatlariga 13 mlrd dollar miqdorida yordam ko‘rsatdi.

Uchinchidan, xalqaro savdo uchun qulay sharoit yaratildi. Bu proteksionizm va boj to‘siqlarini amalda bartaraf etish edi. Masalan, faqat AQSH ning o‘zi olib kelinadigan tovarlar uchun to‘lanadigan bojni 50 foizga kamaytirdi. Bu hol xalqaro savdo gurkirab rivojlanishiga olib keldi. Chunonchi, 1948—1960-yillar oralig‘ida xalqaro savdoning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 6 foizni, 1960—1973-yillar oralig‘ida esa 9 foizni tashkil etdi. Yevropaning o‘zida davlatlararo savdo hajmi 1950—1970-yillar davomida 18 mlrd dollardan 129 mlrd dollarga yetdi. Shu tariqa tashqi savdo iqtisodiy taraqqiyot manbayiga aylandi.

To‘rtinchidan, xalqning intellektual quvvatiga alohida e’tibor berilib, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiya o‘z vaqtida joriy etildi. Sanoat texnika va texnologiya asosida qayta qurildi. Qishloq xo‘jaligi to‘la mexanizatsiyalashtirildi. Qishloq xo‘jaligida tom ma’noda inqilob — biotexnologiya va kimyolashtirish amalga oshirildi.

Beshinchidan, neftdan yoqilg‘i o‘rnida keng miqyosda foydalanishga o‘tildi. U iqtisodiy hayotning asosiy harakatlantiruvchi vositasiga aylandi. Buning ustiga uning bahosi juda arzon edi. Bir barrel (159 litr) neftning narxi atigi 1,5 dollar edi.

Oltinchidan, G‘arb davlatlarida davlat iqtisodiyotni tartibga solish siyosatini yuritdi. Bu siyosat aralash iqtisodiyotni vujudga keltirish orqali amalga oshirildi. Iqtisodiyotda xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik faoliyati va davlat mulki uyg‘unligiga erishildi.

Yettinchidan, iqtisodiyotning yuksak darajada rivojlanishi masalasi hukumat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Iqtisodiyotni sarmoyalash har tomonlama rag‘batlantirildi.

G‘arb davlatlari iqtisodiyoti gurkirab rivojlanishining sabablari

Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar 1975-yilga kelib G‘arb davlatlarining hammasida mustahkam ijtimoiy ta’minot tizimi to‘la qaror topishiga olib keldi. Davlat bevalar, yetimlar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar, kambag‘allik chegarasidan past darajada yashayotgan fuqarolarga yordam ko‘rsatilishini tashkil etishni o‘z zimmasiga oldi. Mehnat qilayotganlarning 52 foizidan 67

foizigacha bo‘lgan qismi ishsizlikdan; 48 foizidan 94 foizigacha qismi baxtsiz hodisalardan; 72 foizidan 100 foizigacha qismi kasallik tufayli mehnatga vaqtincha yaroqsizlikdan sug‘urta qilindi.
Pensiya yoshiga yetganlarning 80—100 foizi pensiya ta’minoti oladigan bo‘ldi. Davlat budjetining 28 foizidan 60 foizigacha qismi ijtimoiy xarajatlarga ajratildi. Ishlayotgan xodimlarga yuqori ish haqi to‘lana boshlandi. Bular aholining iste’mol quvvatini oshirdi. Masalan, birgina Fransiyada har 1000 nafar ishchiga 636 dona avtomobil, 769 dona televizor, 844 dona muzlatgich to‘g‘ri keldi. Davlat mehnat munosabatlari masalasini qonun bilan tartibga soldi.
Mehnat to‘g‘risidagi qonunlarda ish bilan band bo‘lish, ishga yollash va ishdan bo‘shatish kabi masalalarda ishchilarning zarur huquqlari kafolatlandi. Shu tariqa G‘arbda yetuk industrial jamiyat qurilishiga erishildi.
G‘arb davlatlarining iqtisodiy sohada birlashish jarayoni G‘arbning XX asr ikkinchi yarmidan keyingi taraqqiyotining yana bir o‘ziga xos xususiyati edi.
Urushdan keyingi ahvol Yevropa davlatlarini iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga undadi. 1951-yilda Yevropaning olti davlati (Belgiya, Italiya, Luksemburg, Gollandiya, GFR va Fransiya) ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa uyushmasini tuzdilar. 1957-yilda esa u «Yevropa iqtisodiy hamjamiyati»ga aylantirildi. (U «Umumiy bozor» deb ham ataladi.) 1993-yil Maastrixt shartnomasi bilan Yevropa hamjamiyati (Yevropa Ittifoqi) deb atala boshladi.
1957-yilda imzolangan Rim shartnomasiga ko‘ra, bu olti davlat o‘zaro savdoda boj to‘siqlarini tugatish va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yagona bozorini vujudga keltirishga qaror qildilar. 1973—1995-yillar oralig‘ida Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973), Yunoniston (1981); Portugaliya va Ispaniya (1986); Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya (1995); 2004-yilda Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya, 2007-yilda Bolgariya va Ruminiya ushbu hamjamiyatga a’zo bo‘lib kirdilar. Yevropa Ittifoqi a’zolarining soni 2007-yilda 27 taga yetdi. Bu davlatlarda 500 mln ga yaqin kishilar yashaydi. Norvegiyada bu masalada 2 marta umumxalq referendumi bo‘lib o‘tdi, lekin u hali Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lganicha yo‘q. Nomzodlar: Makedoniya, Xorvatiya.
1990-yildan boshlab sarmoya, tovar va ishchi kuchlarining YEIH doirasida erkin harakat qilishiga xalaqit qiluvchi barcha to‘siqlar olib tashlandi. 1993-yilda Yevropani birlashtirish yo‘lida yana bir katta qadam qo‘yildi. Shu

yilning dekabr oyida Gollandiyaning Maastrixt shahrida YEIH ning 12 a’zosi yagona Yevropani vujudga keltirish to‘g‘risida shartnomalar imzoladilar. Shartnomalar quyidagi 3 guruhdan iborat edi:
— Yevropaning yagona pulini (Yevro) joriy etish;
— Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish;
— Yevropa Komissiyasini tasdiqlash.
Yevropa siyosiy ittifoqi kengashi dastlabki bosqichda G‘arbiy Yevropa davlatlarining tashqi va mudofaa siyosati masalalarini muvofiqlashtirishga, bu sohalarda yagona yo‘nalish asoslarini ishlab chiqishga, kelgusida esa yagona tashqi va harbiy siyosat yuritishiga xizmat qilishi ko‘zda tutildi. Hozirda raisi N. Sarkozi.
Yevropa Komissiyasi YEH a’zolari bo‘lgan davlatlarning sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohasidagi siyosatlarini tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi muassasa vazifasini o‘tashi lozim edi. YEH a’zolari bo‘lgan davlatlar hukumatlari bu sohalar bo‘yicha vakolatlarini Yevropa Komissiyasiga topshirishi belgilab qo‘yildi.
To‘g‘ri, barcha shartnomalar ham amalda ularning yaratuvchilari o‘ylagan darajada bajarilayotgani yo‘q. Biroq, eng asosiysi, yagona Yevropani bunyod etish borasida tarixiy ishlar amalga oshirildi. 1999-yilning dekabr oyida YEHning a’zolari (ularning soni 15 ta) qurolli kuchlarni tuzish haqida qaror

qabul qildilar. Uning vazifasi — harbiy inqirozlar yuz bergan hududlarda tinchlikni saqlashdan iborat, deb belgilandi.
Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2002-yil 1-yanvardan yangi pul birligi — «yevro» muomalaga kiritildi. Yevropa Ittifoqining asosini sobiq Yevropa iqtisodiy uyushmasi, Yevratom, Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi (2002-yildan o‘z faoliyatini to‘xtatdi) tashkilotlari tashkil etadi. 2007-yil Lissabon bitimiga ko‘ra, murakkab tizim tugatiladi va xalqaro huquq subyekti bo‘lgan Yevropa Ittifoqi yagona statusga ega bo‘ladi. Shuningdek, 2007-yilda Yevropa liderlari Fransiya, Italiya va Ispaniya yangi O‘rtayer dengizi ittifoqi tashkiloti tuzilganligini e’lon qildilar.
Yevropa Kengashi — xalqaro va davlatlararo tashkilot. U 1949-yil 5-mayda tashkil etilgan. Dastlab unga 10 ta davlat a’zo edi. Yevropani birlashtirishda bu kengash katta rol o‘ynadi. Hozirgi kunda Yevropaning deyarli barcha davlatlari, shu jumladan, Sharqiy Yevropa davlatlari va Rossiya Federatsiyasi ham bu tashkilotning a’zolaridir. Yevropa Kengashining oliy organi — Tashqi ishlar vazirlari Qo‘mitasi va Parlament Assambleyasidir. Yevropa Kengashining vazifasi demokratiya va qonuniylikni, shuningdek, inson huquqlarini rivojlantirishga va himoya qilishga ko‘maklashishdan iboratdir. YEK oliy organlari a’zo davlatlarning o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni amalda bajarishlarini nazorat qiladi. Bu boradagi xulosalarini tegishli hukumatlarga ma’lum qiladi. Demokratiya, qonuniylik, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qo‘pol buzilishlarga yo‘l qo‘ygan davlatlarni YEK a’zoligidan chiqarishgacha
Yevropa Kengashi

choralar ko‘radi. YEKning qarorgohi Fransiyaning Strasburg shahrida joylashgan. Bu kengashga hozir 50 ga yaqin davlat a’zo. Bu kengash iqtisodiy va harbiy-siyosiy masalalar bilan shug‘ullanmaydi.
XX asr ikkinchi yarmidan keyingi G‘arb taraqqiyoti o‘z boshidan kechirgan yana bir xususiyat — bu konservativlik to‘lqini va uni yengib o‘tish jarayoni edi. Xo‘sh, konservativlik to‘lqini nima va u qanday vujudga kelgan? Konservativlik to‘lqini — bu farog‘at davlatini tugatish tarafdorlarining hokimiyat tepasiga kelishi edi. 1974—1975-yillarda, shuningdek, 1980—1982-yillarda industrial davlatlarda iqtisodiy inqirozlar ro‘y berdi. Natijada ishlab chiqarish va xalqaro savdo hajmi kamaydi. Ishsizlik ommaviy tus oldi. Inflatsiya kuchaydi. An’anaviy, eski tartiblar tarafdorlari (konservatorlar) bunda farog‘at davlatini ayblay boshladilar. Inflatsiya — ijtimoiy sohalarga davlat xarajatlarining haddan tashqari ko‘payishi oqibati ekanligini isbotlashga urindilar. Shu tariqa farog‘at davlatini tugatish harakati vujudga keldi. U tarixga «konservativlik to‘lqini» nomi bilan kirgan. 80-yillarda G‘arbning ko‘pgina davlatlarida konservatorlar hokimiyat tepasiga keldilar ham. Ular davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirdilar. Erkin tadbirkorlikning keng rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish choralarini ko‘rdilar. Inflatsiyani pasaytirish uchun qat’iy moliyaviy siyosat yurita boshladilar. Xususan, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirdilar. Iqtisodiyotdagi davlat sektori xususiylashtirildi.
Biroq «konservativlik to‘lqini» farog‘at davlatini tugata olgani yo‘q. U faqat ijtimoiy himoya uchun sarflanadigan davlat xarajatlarini davlatning iqtisodiy imkoniyati darajasiga moslashtirdi, xolos. Ayni paytda hayot farog‘at davlati ham barcha ijtimoiy muammolarni amalda hal eta olmasligini isbotladi. Masalan, ishsizlik muammosi jamiyatning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib keldi va hozir ham shundayligicha qolmoqda.
XX asrning 70—90-yillarida rivojlangan G‘arb mamlakatlarida ishchi kuchining ishlab chiqarish sohasidan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tishi jarayoni davom etdi. Bu — industrial jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri edi.
Masalan, AQSH, Kanada va Buyuk Britaniyada bu ko‘rsatkich 90-yillar o‘rtalariga kelganda 70—72 foizni tashkil etdi. 2—3 foiz ishchi kuchi qishloq xo‘jaligida band bo‘ldi, xolos.
Xizmat ko‘rsatish sohasida ishlovchilar sonining ko‘payishiga ilmiy-texnika

inqilobi natijasida yaratilgan o‘ta zamonaviy texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi sabab bo‘ldi. 1973-yilda dastlabki shaxsiy kompyuter ham yaratildi. 1977-yildan boshlab u keng ko‘lamda ishlab chiqarila boshlandi. Sanoat ishlab chiqarishi to‘la kompyuterlashtirila boshlandi. Kompyuterlashtirish, o‘z navbatida, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni — robotlarni, ishlab chiqarishning moslashuvchan tizimi va avtomatik loyihalashtirishni qo‘llash imkonini berdi.

Axborot jamiyatining vujudga kelishi

Konservativlik to‘lqini

Sanoatda, xizmat ko‘rsatish sohasida o‘sha yuqori malakali kadrlar ishlay boshladi. Endi ular moddiy iste’mol buyumlari bilan bir qatorda axborot ham yaratdilar. Shaxsiy kompyuterlar, xalqaro telealoqalar va internet axborot ayirboshlashni, ularni tezda ishlab chiqarishga joriy etish muammosini muvaffaqiyatli hal etdi.

Keyingi 50 yil ichida G‘arb davlatlari aholisi ijtimoiy tarkibida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu hodisa G‘arbda jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunonchi, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchilarning soni keskin kamaydi. Bugungi kunda bu soha bilan 2—7 foiz aholi shug‘ullanmoqda, xolos.

Yollanma mehnat bilan shug‘ullanuvchilar soni ishga yaroqli aholining 90 foizini tashkil etadi. Ularning uchdan ikki qismi xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat qiladi. Yollanma ishchi kuchi yuqori malakaga ega. Bu hol ularga yuqori ish haqi olish imkonini berdi. Binobarin, ularning moddiy ta’minoti keskin yaxshilandi. Bugungi kunda G‘arb davlatlari aholisining uchdan ikki qismini o‘rta tabaqa vakillari tashkil etadi. Aholining o‘ndan bir qismigina boy-badavlat qatlamga mansubdir. Aholining 20 foizigacha bo‘lgan qismi kambag‘al hisoblanadi. Ular davlatning hamda xayriya jamg‘armalarining yordamini oladilar.

Keyingi 50 yil ichida G‘arbda kommunizm mafkurasi to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Fashizm g‘oyalari to‘la barham topmagan bo‘lsa-da, u endilikda ijtimoiy tayanchga ega emas. Bugungi kunda G‘arb jamiyatida konservatizm, liberalizm, sotsializm va millatchilik kabi g‘oyaviy yo‘nalishlar mavjud. Siyosiy partiyalar ularning birini o‘z mafkuralariga asos qilib olganlar. Urushdan keyingi yillarda G‘arbiy Yevropaning qator davlatlarida konservativ partiyalarning tiklanishi dinning kuchli ta’siri natijasi bo‘ldi.

Urush, uning dahshatli oqibatlari aholi o‘rtasida dinning ta’sirini kuchaytirdi. Masalan, Italiyada Xristian-demokratik partiyasining, GFR da Xristian-demokratik ittifoqi va Xristian-sotsialistik ittifoq partiyalarining vujudga kelishi ana shu omil bilan izohlanadi.

Ayni paytda Fransiya, Belgiya, Avstriya va Gollandiyada ham diniy partiyalar jamiyat siyosiy hayotida sezilarli kuchga aylangan edi. AQSH va Buyuk Britaniyada kuchli ikki partiyaviy tizim saqlanib qolaverdi. Sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalarning ham ta’siri o‘sib bordi. XX asr 90-yillari oxiriga kelib Yevropa Hamjamiyatiga a’zo 15 davlatning 13 tasida hukumatni shu partiyalar vakillari boshqarishdi.

Urushdan keyingi yillarda G‘arbning deyarli barcha yetakchi davlatlarida (AQSHdan tashqari) yangi konstitutsiyalar qabul qilindi. Ular zamon talabiga mos demokratik ruhdagi konstitutsiyalar edi. Chunonchi, Fransiya, GFR, Italiya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida urushning xalqaro mojarolarini hal etish vositasi ekanligini qoralovchi moddalar o‘z ifodasini

Partiyaviy-siyosiy tizimdagi va davlat qurilishidagi o‘zgarishlar

G‘arb davlatlari aholisi ijtimoiy

tarkibidagi
o‘zgarishlar
167
topdi. Yaponiya Konstitutsiyasiga esa Yaponiya urushga milliy siyosat vositasi sifatida qarashdan voz kechadi, degan modda kiritildi.
Bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotning quyidagi
ikki asosiy modeli mavjud:
1. Liberal-demokratik taraqqiyot modeli.
2. Totalitar taraqqiyot modeli. Bu ikki model
o‘rtasidagi qarama-qarshilik hozirgi kunda ham davom etmoqda. Agar XX asrning 20—40-yillarida totalitar taraqqiyot modelining mavqei kuchli bo‘lgan bo‘lsa, 1950—2001-yillar oralig‘ida liberal-demokratik taraqqiyot modeli keng quloch yozdi.
Bugungi kunda dunyo davlatlarining 75 tasida liberal-demokratik tartiblar to‘la qaror topgan. Bu kam, albatta. Biroq shuni unutmaslik lozimki, demokratik jamiyat osonlik bilan qaror topmaydi. Hozirgi G‘arbda taraqqiyotning liberal-demokratik modeli to‘la qaror topdi. Dunyo tobora liberaldemokratik model izidan bormoqda.
Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bu davrda bozor iqtisodi qonunlariga rioya qilgan davlatlarda farovon hayot vujudga keldi. Bu mamlakatlar iqtisodi gullab-yashnadi. Kam rivojlangan davlatlar xomashyo bazasi sifatida saqlab qolindi. Rivojlangan davlatlar siyosatida bozor uchun kurash kuchaydi. Nayrangbozlik, ustomonlik, aldov, qalloblik, ba’zan esa zo‘rlik va kuch ishlatildi. Yevropa iqtisodiy aloqalarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Axborot jamiyati vujudga keldi. Aholining ijtimoiy tarkibida o‘zgarishlar yuz berdi. Dunyo siyosiy taraqqiyotida liberal-demokratik model g‘alaba qildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sharq va G‘arb tushunchalariga izoh bering.
2. Farog‘at davlati nima va u qanday qurildi? O‘ylab ko‘ring: Nega SSSR va boshqa sotsialistik davlatlar farog‘at davlatlariga aylanmagan?
3. Urushdan keyingi yillarda G‘arb davlatlari iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi?
4. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati qay tariqa vujudga keldi?
5 . Maastrixt shartnomasining Yevropa uchun tarixiy ahamiyati nimadan iborat?
6. Yevropa Komissiyasining vazifalarini qayd eting.
7. Yevropa Kengashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
8. «Konservativlik to‘lqini» nima edi?
9. Axborot jamiyatining qanday jamiyat ekanligini izohlab bering.
10.Urushdan keyingi 50 yil davomida G‘arb davlatlari aholisi tarkibida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
11.Ijtimoiy taraqqiyotning ikki modelini taqqoslang. Nega taraqqiyotning liberal-demokratik modeli istiqbolli ekanligini asoslab bering.

JADVALNI TO‘LDIRING. DUNYO TARAQQIYOTI UCHUN XIZMAT QILGAN XALQARO TASHKILOTLARGA TAVSIF BERING

Tashkilotlar nomi	Ularning vazifasi
?	

Dunyo siyosiy
taraqqiyotining
o‘ziga xos xususiyati
168
2-bob. G‘ARB MAMLAKATLARI
18-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari
Urush AQSHni iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatiga aylantirdi. Bunga, birinchidan, urushning AQSH hududiga daxl qilmaganligi uchun erishildi. Urush harakatlarida to‘rt yilda 300 ming kishi halok bo‘ldi. Natijada AQSH urushdan eng kam zarar bilan chiqdi. Uning to‘g‘ridan to‘g‘ri zarari 1,2 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ikkinchi jahon urushida ko‘rilgan barcha zararning atigi 0,4 foizini tashkil etdi.
Ikkinchidan, fashistik davlatlar blokiga qarshi urushayotgan davlatlarga ko‘plab miqdorda qurol-yarog‘ va boshqa sanoat hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotish hisobiga erishildi. Chunonchi, 1941—1945-yillarda AQSH o‘z ittifoqchilariga 46 mlrd (shu jumladan, Buyuk Britaniyaga 30 mlrd, SSSRga esa 9 mlrd) dollarlik harbiy mahsulotlar yetkazib berdi.
Uchinchidan, chet davlatlar AQSHdan 41 mlrd dollar miqdorida qarz

bo‘lib qoldi.
Dunyo oltin zaxirasining 65 foizi AQSH xazinalarida to‘plandi. Dollar xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarda hukmron valutaga aylandi. Harbiy buyurtmalar AQSH sanoatining gurkirab rivojlanishini ta’minladi. Sanoatning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 15 foizni tashkil etdi.
1947-yilda dunyo sanoat ishlab chiqarishining 54 foizi AQSH hissasiga to‘g‘ri keldi. Xalqaro savdoda yetakchi o‘rinni egalladi. Flotining quvvati ham 5 baravar ortdi. AQSH dunyoning birinchi dengiz davlatiga aylandi.
AQSH ichki siyosatini belgilashda liberalizm va konservatizm mafkuralarining roli katta ahamiyatga ega. Demokratlar partiyasi ichki siyosatda liberalizm mafkurasiga, Respublikachilar partiyasi esa konservatizm mafkurasiga amal qiladilar.
Liberalizm mafkurasining mohiyatini mavjud jamiyatni isloh etish tashkil etadi. Bu islohotlar quyidagi mazmunga ega bo‘lishi ko‘zda tutilgan:
— mamlakat miqyosida yagona umumdavlat ijtimoiy ta’minot tizimini yaratish; monopoliyalar iqtisodiy faoliyati va narx-navoning shakllanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish; bevosita demokratiyani yanada kengaytirish; davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalar boshqaruvi tizimida turli millat, irq va jins vakillarining ishtiroki ular soniga nisbatan proporsional bo‘lishiga erishish;
— soliq siyosati yordamida milliy daromadni qayta taqsimlash. Bunda milliy daromaddan tekin tibbiy xizmat, aholining kam ta’minlangan qatlamiga moddiy yordam ko‘rsatishga, kam ta’minlangan oilalarga, bolalarga nafaqa

Ikkinchi jahon urushining AQSH uchun oqibatlari

AQSH ichki siyosatida liberalizm va konservatizmning o‘rni

to‘lash, maktablarda tekin nonushta va tushlik hamda tekin umumiy o‘rta ta’lim berilishiga erishish.
AQSHda bu maqsadlar ro‘yobga chiqarildi ham. Biroq shuni ham ta’kidlash zarurki, liberalizm mafkurasi ijtimoiy ta’minot hajmi aholi tadbirkorlik faoliyati pasayishiga olib kelishini nazarda tutmaydi.
Keyingi yillarda yangi liberalizm (neoliberalizm) oqimi ham paydo bo‘ldi. Bu oqim tarafdorlari ijtimoiy xarajatlar kambag‘allarni ovqatlantirish yoki ishsizlarga nafaqa to‘lashga emas, ularni kasbiy qayta tayyorlashga sarflanishi kerak, deb hisoblaydi. Shu orqali ular kichik tadbirkorlikni rag‘batlantiradilar.
AQSH ichki siyosatini belgilashda konservatizm mafkurasi ham katta ta’sirga ega. Konservatizm xususiy tadbirkorlikka maksimal darajada erkinlik berilishini yoqlaydi. Kambag‘allar uchun soliq yo‘li bilan xususiy tadbirkorlardan qo‘shimcha mablag‘ olinishini qoralaydi.
Konservatizm mafkurachilari va yo‘lboshchilari: «davlat kambag‘allar uchun miskinlar uyi emas, har bir kishi mehnat qilishi, o‘zini o‘zi ta’minlashi zarur», «Hech kim jamiyatdan xayr-ehson kutmasligi lozim», — deb hisoblaydilar.
Ayni paytda konservatorlar ijtimoiy ta’minot unga chindan ham muhtojlargagina berilishining tarafdorlaridir.
Urushdan keyingi dastlabki yillarda ichki siyosatda rekonversiya, ya’ni mamlakat hayotini harbiy izdan tinch izga solish muammosi birinchi o‘ringa chiqdi.
Nega shunday bo‘ldi? Urush yillarida AQSH qurolli kuchlarida 12 mln kishi xizmat qildi. 1947-yilga kelib ularning sonini 1—1,5 mln kishiga tushirish haqida qaror qabul qilindi.
Binobarin, 10,5—11 mln harbiyni ish bilan, uy-joy bilan ta’minlash zarur edi. Davlat bu muammoni hal etishga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qildi. Rekonversiyaning yana bir muammosi — bu urush yillarida davlat qurgan zavodlar taqdiri masalasi edi. Davlat ularni qurishga 17 mlrd dollar sarflagan. Urushdan keyin davlat o‘z mulkini yarim bahosiga bo‘lsa ham korporatsiyalarga sotdi.

Ichki siyosatda mayda va o‘rta korxonalar ko‘payishiga alohida e’tibor berildi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda mamlakatda 9 mln ta shaxsiy firmalar faoliyat ko‘rsatdi. Prezident G. Trumen (1945—1952) 1948-yilda ijtimoiy himoya sohasida quyidagi tadbirlarni ilgari surdi:
— ish o‘rinlarining to‘la bandligini ta’minlash;
— adolatli mehnat munosabatlarini joriy etish;
— davlat uy-joylari qurish va xaroba kulbalarni yo‘q qilish.
Bu yo‘l «adolatli yo‘l» deb nom oldi. G. Trumen davrida qonun asosida minimal ish haqi, sug‘urta nafaqalari to‘lovlari miqdori oshirildi.
Pensiya bilan ta’minlanmagan 10 mln fuqaroga pensiya tayinlandi. Kam ta’minlangan oilalar uchun 800 ming turarjoy qurildi. Kreditga tovar sotish joriy etildi. Bu tadbirlar aholining xarid quvvatini oshirdi. Bular, o‘z

navbatida, sanoatning iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmog‘ining yanada gurkirab rivojlanishini ta’minladi. Mamlakatda dunyoda yo‘q yangi tovar — televizor ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Har bir oilaga telefonga ega bo‘lish imkoni yaratildi.
Adolatli mehnat munosabatlarining joriy etilishi juda katta to‘siqlarga uchradi. Kasaba uyushmalarining qudrati AQSH Kongressida ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lgan Respublikachilarning g‘ashini keltirardi. Bu holatga barham berish uchun ular «Taft — Xartli qonuni» deb atalgan qonun loyihasini tayyorladilar.
Qonun tashkiliy va birdamlik stachkalarining o‘tkazilishini taqiqladi. Alohida murakkab mehnat mojarolarini majburiy ravishda arbitrajda hal etish belgilab qo‘yildi. Davlat xizmatchilarining ish tashlash o‘tkazishlari taqiqlandi. To‘g‘ri, prezident Trumen bu qonunni tasdiqlamagan. Biroq AQSH Kongressi prezident vetosini bekor qila olgan va Taft — Xartli qonuni kuchga kirgan.
1952-yilgi prezident saylovlarida mashhur harbiy qo‘mondon, general D. Eyzenxauer (Respublikachilar partiyasining nomzodi) g‘alaba qozondi. Uning ichki siyosatida o‘zgacha fikrlovchilarni ta’qib etish kompaniyasi boshlandi. Bu kompaniyani senator J. Makkarti boshqardi. Uning rahbarligida AQSH Senati «Amerikaga qarshi faoliyatni tekshirish komissiyasi»ni tuzdi. Komissiya AQSHning ichki va tashqi siyosati haqida rasmiy nuqtayi nazardan o‘zgacha fikr bildirganlarni qo‘poruvchilikda aybladi.
Komissiya AQSH Konstitutsiyasi ruhiga zid ravishda aybdor deb topilgan kishilarni qamoq jazosiga hukm etardi, jarima solar yoki ishdan haydash haqida qaror chiqarar edi. To‘g‘ri, AQSH Senati 1954-yilda Makkarti xattiharakatini qoralagan.
50-yillarda negr xalqining o‘z haq-huquqi uchun kurashi kuchaydi. Bu kurashning rahbari ruhoniy Martin Lyuter King edi. U kurashning kuch ishlatmaslik yo‘lini tanlagan. 1956-yilda AQSH Oliy sudi avtobuslarda oq tanli va qora tanlilar uchun alohida joy ajratishni, maktablarda esa oq tanli va qora tanlilarni ajratib o‘qitishni qonunga zid deb topdi.
1960-yilgi prezidentlik saylovida demokrat J. Kennedi (1961—1963) g‘alaba qozondi. U qisqa muddatli prezidentligi davrida katta ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Chunonchi, J. Kennedi kosmosda AQSHning yetakchi davlat bo‘lishini ta’minlash maqsadida «Apollon» deb ataluvchi dasturni ilgari surdi. Dasturning maqsadi Amerika raketasini Oyga qo‘ndirishga erishish (bu maqsadga 1969-yilda erishilgan). Iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish uchun ichki bozorni kengaytirishga sarflanadigan xarajatlarni ko‘paytirish, minimal ish haqini oshirish, ishsizlik bo‘yicha to‘lanadigan nafaqani to‘lash muddatini uzaytirish, uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirish kabi tadbirlar rejalashtirildi. Bu tadbirlarni amalga oshirish katta mablag‘ sarflashni talab etardi. Hukumat bu xarajatlarni soliqlarni oshirish hisobiga

qoplamoqchi edi. Bu hol hukumatning yirik korporatsiyalar bilan munosabati buzilishiga olib keldi.

Bu esa, o‘z navbatida, demokratlar partiyasida bo‘linishni keltirib chiqardi. J. Kennedi islohoti atrofida kuchli siyosiy kurash boshlandi. Oxir-oqibatda J. Kennedi 1963-yilning 22-noyabrida Dallas shahrida otib o‘ldirildi. Prezident kimlarning buyurtmasi bilan o‘ldirilganligi haligacha noma’lumligicha qolmoqda. Undan so‘ng prezidentlik lavozimini vitse-prezident L. Jonson egalladi.

U «buyuk jamiyat» qurish dasturini ilgari surdi va o‘z oldiga kambag‘allikni hamda irqiy adolatsizlikni tugatish vazifasini qo‘ydi. «Kambag‘allikka qarshi kurash» dasturini amalga oshirish maqsadida kam daromadli oilalarga yordam berish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Arzon turarjoylar qurish dasturi amalga oshirildi. Qariyalar uchun tibbiy sug‘urta joriy etildi. Kam daromadli oilalarga esa tibbiy xizmat uchun imtiyozlar belgilandi. 1964—1968-yillar davomida ijtimoiy sohalar uchun 10 mln dollar sarflandi. To‘g‘ri, mamlakatda kambag‘allikni tugatib bo‘lmadi. Biroq kambag‘allar sonini 36,4 mln kishidan 25,4 mln kishiga kamaytirishga erishildi. Irqiy kamsitishni tugatishga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qilindi. Negr xalqining kurashi oqibatida irqiy kamsitishning barcha shakllari qonun bilan taqiqlandi.

Vetnam urushi AQSH ichki siyosatiga ham katta talafot yetkazdi. 1968-yilga kelib 30 ming AQSH harbiylari halok bo‘ldi. 180 ming harbiy esa yarador bo‘ldi. Ijtimoiy sohaga xarajatlar ajratish keskin kamaydi. Fuqarolar huquqlariga qarshi hujum boshlandi. Urushga qarshi xarajat kuchaydi. Irqiy kamsitishga qarshi kurash ommaviy tus oldi. Shunday sharoitda reaksiya terror yo‘liga o‘tdi. 1968-yilning aprel oyida Martin Lyuter King o‘ldirildi. Iyun oyida esa J. Kennedining ukasi, AQSH prezidentligiga nomzod R. Kennedi o‘ldirildi. Shu tariqa mamlakatda keskin siyosiy vaziyat vujudga keldi. Shunday sharoitda, 1968-yilgi prezidentlik saylovida respublikachilar partiyasi nomzodi R. Nikson (1969—1974) g‘alaba qozondi.

R. Nikson hokimiyat tepasiga kelgan davrda AQSHni og‘ir iqtisodiy va siyosiy inqiroz qamrab olgan edi. 1971-yilga kelib ishsizlar soni 5 mln dan ortdi. Bu ishga yaroqli aholining 6 foizini tashkil etardi. Og‘ir iqtisodiy

inqirozdan chiqish uchun qator keskin choralar ko‘rildi. Chunonchi, ish haqi va narxlar muzlatildi. Davlat xarajatlari kamaytirildi. Dollarni oltinga almashtirish vaqtincha to‘xtatildi. Mamlakatga olib kelinadigan tovarlar uchun 10 foizlik boj to‘lovlari joriy etildi. R. Nikson prezidentligi davrida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasiga ham ko‘proq e’tibor berildi. Ijtimoiy to‘lovlar 45 foizga oshirildi. Uni oluvchilar soni esa 30 mln kishini tashkil etdi. Kambag‘allarga ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini talon orqali tekin berish joriy etildi. Agar 1969-yilda bunday imkoniyatdan 3 mln fuqaro foydalangan bo‘lsa, 1974-yilda ularning soni 13 mln kishiga yetdi. 1974-yilda 1 soatga to‘lanadigan minimal ish haqi 1,6 dollardan 2,2 dollarga oshirildi.

1972-yilgi prezidentlik saylovida yana R. Nikson g‘alaba qozondi. Biroq uning prezidentligi uzoqqa cho‘zilmadi. Bunga «Uotergeyt ishi» deb nom olgan janjal sabab bo‘ldi. «Uotergeyt» mehmonxonasida demokratlar partiyasining qarorgohi joylashgan edi. 1972-yilning 17-iyunida shu qarorgohga eshituvchi apparat o‘rnatgan shaxslar ushlangan. Tergov natijasida uni Respublikachilar partiyasi uyushtirganligi ma’lum bo‘ladi. Hatto unda R. Niksonning shaxsan ishtiroki borligi ham aniqlanadi. Bu hodisa AQSH Konstitutsiyasining qo‘pol sur’atda buzilishi edi. 1974-yilning 9-avgustida R. Nikson iste’foga chiqdi va shu yo‘l bilan impichmentdan

qutulib qoldi. 1976-yilgi saylovda g‘alaba qilgan Prezident Karter davrida ichki siyosatda harbiy xarajatni keskin oshirish izidan borildi. Chunonchi, 1980-yilda harbiy xarajat 130 mlrd dollarni tashkil etdi. Bundan tashqari, inflatsiyani kamaytirish maqsadida ish haqi muzlatildi, ijtimoiy to‘lovlar kamaytirildi. Mamlakatda fermerlar harakati qayta tiklandi. Ular qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxi davlat tomonidan ushlab turilishini talab eta boshladilar.

Dunyo siyosatida AQSH birin-ketin muvaffaqiyatsizlikka uchray boshladi. Bu esa hokimiyat tepasiga AQSH qudratini bor ko‘lami bilan namoyish etuvchi shaxsning kelishini zaruratga aylantirib qo‘ydi. 1980-yilda o‘tkazilgan prezidentlik saylovida g‘olib chiqqan respublikachilar nomzodi R. Reygan ana shunday shaxs edi. Hukumatning iqtisodiy siyosati «reyganomika» deb nom oldi. «Reyganomika» ning mazmuni nimalardan iborat edi?

— yirik korxonalardan olinadigan soliqlar kamaytirildi;

— ijtimoiy sohalarga budjetdan ajratiladigan xarajatlar kamaytirildi;

— bankdan olingan kreditlar uchun to‘lanadigan foizlar miqdori oshirildi;

— harbiy xarajatlar keskin darajada oshirildi (u 1980-yildagi 130 mlrd dollardan 1987-yilda 282 mlrd dollarga yetdi);

— davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kamaytirildi.

Ishsizlar soni ikki baravar oshdi. Ayni paytda inflatsiya to‘xtatildi. 1983-yildan iqtisodiy ko‘tarilish boshlandi. Buning natijasida ishsizlar soni 10 mln kishidan 7 mln ga tushdi. R. Reygan hukumati kasaba uyushmalariga nisbatan keskin siyosat qo‘lladi. Aeroportlar dispetcherlarining ish tashlashi

qo‘pol sur’atda bostirildi. Ularning kasaba uyushmasi tarqatib yuborildi. Ish tashlash ishtirokchilari ishdan bo‘shatildi. 1988-yilgi prezidentlik saylovida yana bir respublikachi — J. Bush g‘alaba qozondi. U R. Reygan siyosatini davom ettirdi. 1992 va 1996-yilgi prezidentlik saylovlarida demokrat B. Klinton g‘alaba qozondi. Bunga uning jamiyatdagi illatlarni — kambag‘allik chegarasidan past darajada yashashni (ular AQSH aholisining 12,5 foizini tashkil etardi); turarjoyi yo‘qlarni (12 mln amerikalik uy-joyga ega emas edi), narkomaniya, jinoyatchilik va shu kabilarni — keskin kamaytirish haqidagi va’dalari va bu borada jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirganligi tufayli erishdi. Soatiga to‘lanadigan minimal ish haqi 5 dollardan kam bo‘lmasligi belgilandi. U bergan va’dalarining barchasini ham bajara olmadi. 1994-yilda AQSH Kongressining har ikki palatasida ko‘pchilik o‘rinni egallab olgan respublikachilar B. Klinton taklif etgan qonun loyihalarini rad etish yo‘lidan bordilar.

2000 va 2004-yillarda AQSHda o‘tkazilgan prezidentlik saylovida respublikachi kichik J. Bush g‘alaba qozondi. J. Bush ta’limni insonparvarlashtirish orqali irqiy kamsitish illatlariga to‘la barham berishni o‘z ichki siyosatining asosiy vazifasi deb e’lon qildi. Iqtisodni boshqa davlatlar hisobiga ko‘tarish yo‘lini tutdi. 2008-yilgi saylovda demokrat B. Obama g‘alaba qozondi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSH tashqi siyosatda SSSRni tiyib turish yo‘lini tanladi.

Xalqaro munosabatlarda sovuq urushning vujudga kelishida SSSR bilan barobar darajada aybdor davlatga aylandi. «Trumen doktrinasi» va «Marshall rejasi» SSSR bilan AQSH va ularning ittifoqchilari munosabatlari qanchalik keskinlashuviga sabab bo‘lganligini avvalgi mavzulardan bilib oldingiz.

AQSH Germaniya masalasida SSSR bilan o‘zaro manfaatli to‘xtamga kela olmadi. Oxir-oqibatda Germaniya ikkiga bo‘linib ketdi. AQSH NATO harbiy-siyosiy ittifoqini tashkil etishning tashabbuskori bo‘ldi. O‘sha davrdayoq AQSH hukmron doiralari o‘z oldilariga SSSRni qurollanish poygasiga tortib, uni iqtisodiy jihatdan holdan toydirish maqsadini qo‘ygan edilar. AQSHda gigant harbiy-sanoat kompleksi vujudga keltirildi.

AQSHning xohishiga qarama-qarshi o‘laroq, 1949-yilda Xitoyda kommunistlar hokimiyat tepasiga keldilar. Buning natijasida AQSH Uzoq Sharqdagi asosiy tayanchi Chan Kayshini yo‘qotdi. 1950-yilda AQSH Koreya urushiga aralashdi. Bu urushda 142 ming nafar amerika askari halok bo‘ldi. Bu butun ikkinchi jahon urushi davomida berilgan qurbonning yarmiga teng edi. Prezident D. Eyzenxauer sovuq urushni yanada kuchaytirgan

doktrinasini e’lon qildi. Unda «yalpi qasos olish», SSSRga birinchi bo‘lib yadro zarbasi berish maqsadlari o‘z ifodasini topgan edi.
Ayni paytda D. Eyzenxauer Koreya urushini to‘xtatdi va bu masalada SSSR bilan kelishuvga bordi. Biroq ikki davlat o‘rtasida qurollanish poygasi yanada avj oldi. 1952-yilda AQSH vodorod bombasi yaratgan bo‘lsa, SSSR
AQSHning tashqi
siyosati
174
1953-yilning 20-avgustida bunday bombani sinovdan o‘tkazdi. 1957-yilning avgust oyida 10 ming km dan ortiq masofaga ucha oladigan qit’alararo ballistik raketani yaratdi. Shu yilning 4-oktabrida esa birinchi bo‘lib Yerning sun’iy yo‘ldoshi uchirildi. 3 oydan so‘ng AQSH ham o‘zining sun’iy Yer yo‘ldoshini uchirdi. 1960-yilning 1-mayida SSSR hududiga AQSH josus samolyotining uchirilishi amerika-sovet munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi. Prezident D. Eyzenxauer dunyo jamoatchiligi e’tiborini bu hodisa uchuvchining xatosi tufayli yuz berdi, deb chalg‘itishga urindi. Biroq Prezidentning bu da’vosi faktlar asosida inkor etildi.
Aslida bu hodisa xalqaro huquq me’yorlarining qo‘pol sur’atda buzilishi edi. 1960-yilning 16-may kuni Parijda buyuk davlatlar rahbarlari oldindan rejalashtirilgan oliy darajadagi uchrashuvga to‘plandilar. SSSR rahbariyati D. Eyzenxauerdan 1-may voqeasi munosabati bilan kechirim so‘rashni talab etdi. Biroq AQSH prezidenti kechirim so‘rashdan voz kechdi. Norozilik belgisi sifatida SSSR rahbari N. Xrushyov Parijdan jo‘nab ketdi. Shu tariqa oliy darajadagi uchrashuv barbod bo‘ldi. Prezident J. Kennedi SSSR bilan munosabatda kelishuv yo‘lini izladi. SSSR rahbariyati bu intilishni AQSH ning ojizligi sifatida qabul qildi.
Ayni paytda J. Kennedi Kubada F. Kastro hukumatini ag‘darishga harakat qildi. U bu vazifani kubaliklarning qo‘llari bilan amalga oshirishga intildi. Shuning uchun ham kubalik isyonchilarni qo‘llab-quvvatladi.
Kubani himoya qilish maqsadida SSSR Kuba hududiga o‘z yadroviy raketalarini joylashtirdi. Ana shu omilgina J. Kennedini F. Kastro hukumatini ag‘darish niyatidan qaytishga majbur etdi. Prezident L. Jonson J. Kennedining qurollanish poygasini avj oldirish siyosatini davom ettirdi.
Hindixitoyda kommunistlar ta’sirining kuchayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida L. Jonson 1965-yilning fevral oyida Shimoliy Vetnamni bombardimon qilishni boshlash haqida buyruq berdi. AQSH Vetnamga 550 ming askar tashladi. Urush cho‘zilib ketdi.
Biroq AQSH armiyasi Vetnam xalqining irodasini yenga olmadi. Ayni paytda Vetnamga SSSR va XXR zarur yordam ko‘rsatdilar. Vetnam urushi AQSHning xalqaro obro‘siga katta putur yetkazdi. Prezident R. Nikson Vetnam urushining istiqbolsizligini anglab yetdi. Shuning uchun ham u urushni to‘xtatishga qaror qildi. 1973-yilning 27-yanvarida Parijda Vetnamdagi urushni to‘xtatish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.
AQSH Vetnamdan o‘z armiyasini olib chiqdi. AQSH bu urushda jami 58 ming soldat yo‘qotdi. Biroq endi AQSH Vetnamdagi urushni vetnamliklarning qo‘li bilan davom ettirish siyosatini yurita boshladi.
R. Nikson davrida AQSHning Kubaga nisbatan siyosatida ham o‘zgarish yuz berdi. Chunonchi, AQSH hukumati Lotin Amerikasi davlatlarining Kuba bilan qanday munosabatda bo‘lishi masalasiga aralashmasligini ma’lum qildi.
175
Sovet — Amerika munosabatlarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Birinchi marta AQSH prezidenti R. Nikson bilan SSSR rahbari L. Brejnev o‘rtasida bir necha bor oliy darajadagi uchrashuv o‘tkazildi. Har ikki tomon tinchtotuv yashash tamoyillariga amal qilishga kelishdilar. Natijada strategik qurollarni cheklash haqida muhim shartnomalar imzolandi.
70-yillarning oxiridan boshlab amerika-sovet munosabatlari keskinlashdi. Bu xalqaro keskinlikning yumshashi davri tugashi bilan bog‘liq edi. Chunonchi, AQSH Yaqin Sharq muammosini SSSRning ishtirokisiz hal etishga intildi. J. Karter Misr va Isroil o‘rtasida 1978-yilda Kemp-Devid separat shartnomasining imzolanishiga erishdi.
Eronda 1978-yilning noyabrida islom inqilobining g‘alaba qilishi AQSH

ni qattiq tashvishga solib qo‘ydi. Chunki bu inqilob uni Eron shohidek tayanchdan mahrum etdi. 1979-yilning dekabr oyida SSSR Afg‘onistonga armiya kiritgach, amerika-sovet munosabatlari yanada keskinlashdi. SSSR ning chet davlatlar ichki ishlariga qo‘pol aralashuvi siyosatiga qarshi AQSH 1980-yilgi Moskva yozgi Olimpiada o‘yinlarini boykot qilish tashabbusi bilan chiqdi. G‘arb davlatlarini SSSRga g‘alla sotmaslikka undadi. Prezident Reygan SSSRga nisbatan juda keskin siyosat yuritdi. SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari hududiga raketa joylashtirishiga javoban G‘arbiy Yevropaning 5 davlati hududiga o‘zining raketalarini joylashtirish bilan javob qaytardi. «Strategik mudofaa tashabbusi» deb nomlangan dasturni amalga oshirishga kirishishini e’lon qildi.

Ayni paytda AQSH Amerika davlatlari ichki ishlariga qo‘pol tarzda aralasha boshladi. Chunonchi, mustaqil siyosat yurita boshlagan Grenadaga qarshi harbiy hujum uyushtirdi va uning qonuniy hukumatini ag‘dardi. 1985-yilga kelib SSSR rahbariyati tashqi siyosatda keskinlikni yumshatish tomon o‘zgarish boshlagach, amerika-sovet munosabatlarida keskinlik biroz yumshadi. Chunonchi, bu ikki davlat o‘rtasida yadro qurollarini kamaytirish, o‘rtacha olislikka uchadigan raketalarni yo‘qotish to‘g‘risida tarixiy hujjatlar imzolandi.

AQSH xalqaro miqyosda o‘zga davlatlarni xalqaro me’yorlarga amal qilishga majbur etish siyosatini ham yuritgan. Bu jahon jamoatchiligi tomonidan ijobiy baholangan. Chunonchi, 1990-yilda AQSH va uning ittifoqchilari Iroqqa Quvaytni bosib olgani uchun qattiq zarba berdilar. Quvaytning suvereniteti tiklandi. 90-yillarning ikkinchi yarmida AQSH Bolqonda tinchlikni tiklash ishiga katta hissa qo‘shdi.

NATO qurolli kuchlari yordamida Yugoslaviya rahbariyati xalqaro huquq me’yorlarini tan olishga majbur etildi. Xalqaro terrorizm, narkomafiyaga qarshi kurashda, qashshoqlikda yashayotgan xalqlarga insonparvarlik yordami ko‘rsatilishida AQSH faol ishtirok etib kelmoqda.

XXI asr boshida AQSH rahbariyati xalqaro maydonda AQSHning mutlaq yetakchi davlat bo‘lib qolishini o‘zining asosiy maqsadi, deb e’lon qildi. Prezident J. Bush ma’muriyati R. Reygan ilgari surgan strategik mudofaa tashabbusini amalga oshirishga kirishdi.

AQSH 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so‘ng Afg‘onistondagi tolibonlar hukumatini ag‘darib tashladi. Iroqda Saddam Husayn diktaturasiga barham berdi. Bu bilan Yaqin Sharq neftining katta qismini qo‘lga kiritdi. B. Obama tashqi siyosatni biroz yumshatdi.

1992-yilda AQSH va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. O‘zbekiston jahonning yetakchi davlati bo‘lgan AQSH bilan uzoq muddatli va keng ko‘lamda munosabatlarni rivojlantirishni o‘z tashqi siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishi deb hisoblaydi.

1995-yilda AQSH mudofaa vaziri U. Perri O‘zbekistonga keldi. O‘zbekiston mudofaa vaziri AQSHda bo‘lib qaytdi. Bu tashriflar O‘zbekistonning NATO bilan aloqalarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston qurolli kuchlarining maxsus vzvodi AQSHga jo‘natildi. U yerda NATOning «Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik» dasturi doirasida o‘tkazilgan harbiy mashqlarda qatnashdi.

1996-yilning 23—28-iyun kunlari O‘zbekiston prezidenti I. Karimov rasmiy tashrif bilan AQSHda bo‘ldi. I. Karimov va B. Klinton siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlik masalalariga alohida e’tibor berdilar. AQSH prezidenti Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida O‘zbekiston yetakchi o‘rinda turganligini e’tirof etdi.

2001-yilning 11-sentabrida xalqaro terrorizm AQSHda mudhish jinoyat sodir etdi. Terrorchilar o‘zlari egallab olgan samolyotda Nyu-York shahrida joylashgan «Xalqaro savdo markazi» binosini vayron qildilar. Natijada minglab kishilar halok bo‘ldi. Milliardlab dollarlik moddiy zarar yetkazildi. Ikkinchi samolyotda AQSH mudofaa vazirligi binosiga hujum qilindi. AQSH prezidenti qarorgohi — Oq uyga hujum qilishga yo‘naltirilgan samolyot mo‘ljalga yetib bora olmadi. Bu mudhish jinoyatni xalqaro terrorchi «Al-Qoida» tashkiloti uyushtirgan edi. Bu tashkilot qarorgohi Afg‘onistonda

joylashgan edi. AQSH rahbariyati bu jinoyatni xalqaro terrorizmning AQSHga nisbatan agressiyasi deb baholadi.

AQSH hukumati Afg‘onistonning tolibon hukumatidan «Al-Qoida» va boshqa terrorchi tashkilotlar faoliyatini taqiqlab qo‘yishni hamda tashkilot rahnamosi Usoma ben Ladenni AQSHga topshirishni talab qildi. Biroq tolibon hukumati bu talabni bajarmadi. Shundan so‘ng AQSH terrorchilarga qarshi harbiy harakat boshlashga qaror qildi. Xalqaro hamjamiyat, uning teng huquqli bir a’zosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi ham AQSHning bu qarorini qo‘llab-quvvatladi. Shu tariqa xalqaro terrorizmga qarshi xalqaro koalitsiya Afg‘oniston hududida joylashib olgan xalqaro terrorchilarni tormor etdi. O‘zbekiston ham munosib hissa qo‘shdi. Bu haqda AQSH Senatining rahbarlaridan biri J. Liberman bunday degan edi: «Biz O‘zbekistonning yordamisiz terrorchilar ustidan g‘alaba qozona olmagan bo‘lar edik». O‘zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurash ishiga qo‘shgan hissasi uning xalqaro obro‘sini oshirib yubordi. AQSH prezidenti J. Bushning

AQSH — O‘zbekiston munosabatlari

I. Karimovni AQSHga taklif etganligi buning e’tirofi bo‘ldi. I. Karimov 2002-yilning 11-mart kuni rasmiy vizit bilan AQSHga keldi.

Ikki prezident uchrashuvi chog‘ida J. Bush I. Karimovga Amerika xalqini eng og‘ir kunlarda qat’iyatlik bilan qo‘llab-quvvatlaganligi uchun yana bir bor chuqur minnatdorchilik bildirdi. Ayni paytda O‘zbekiston ko‘rsatgan yordamni AQSH hukumati va xalqi unutmasligini ta’kidladi.

Safar davomida AQSH — O‘zbekiston aloqalariga doir bir necha hujjatlar imzolandi. Ularning ichida Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma alohida ahamiyatga egadir. Shu tariqa, AQSH — O‘zbekiston o‘rtasida sheriklik munosabati vujudga keldi. AQSH jamoasi tashkilotlari xalqaro terrorizmga qarshi kurashga qo‘shgan hissasi uchun I. Karimovni «Xalqaro miqyosdagi buyuk davlat arbobi» mukofoti bilan taqdirladilar. Safar 14-mart kuni nihoyasiga yetdi. Har ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy aloqalar va hamkorlik kengayib bordi. O‘zbekistonda 300 dan ortiq Amerika — O‘zbekiston qo‘shma korxonalari ishlamoqda. Ular orasida Zarafshon vodiysidagi (Navoiy viloyati) Muruntovda AQSHning Nyumont-Mayning korporatsiyasi alohida o‘rin tutadi.

Bundan tashqari mamlakatimiz hududida AQSHning 28 ta kompaniya, firma va banklari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2001-yilda 300 mln AQSH dollaridan oshdi. Bu — AQSH O‘zbekistonning jahon davlatlari bilan savdosida 5-o‘rinda turadi, deganidir.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida AQSH qurollanish poygasida g‘alaba qildi. Iqtisodiy taraqqiyotda ulkan yutuqlarga erishdi. Tashqi siyosatda murakkab yo‘lni bosib o‘tib, «kommunistik tuzum»ni barbod qildi. SSSRni parchalab yubordi va dunyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Yer sharining turli mintaqalarida o‘z ta’sirini kuchaytirish uchun harakat qilmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining AQSH uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. AQSH ichki siyosatida liberalizm va konservatizm nimani anglatadi?
3. O‘ylab ko‘ring-a: nega AQSHda saylovchilar har ikki siyosiy partiya (Respublikachilar partiyasi va Demokratlar partiyasi) ga ham deyarli bir xilda ishonch bilan qarashadi?
4. Urushdan keyingi yillarda «AQSH ichki siyosatining asosiy muammolari» jadvalini tuzing.
5. Urushdan keyingi yillarda AQSH tashqi siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat bo‘ldi?
6. AQSH va SSSR munosabatlari xalqaro ahvolga qay darajada ta’sir ko‘rsatgan?
7. Amerika — O‘zbekiston munosabatlari haqida so‘zlab bering.

?

URUSHDAN KEYINGI AQSH PREZIDENTLARI FAOLIYATI HAQIDA JADVALNI TO‘LDIRING

19-§. Lotin Amerikasi davlatlari

Ikkinchi jahon urushi Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Buning sababi — urush tufayli bu mintaqa davlatlari xomashyosiga bo‘lgan talabning yanada oshib ketganligida edi. Talabning oshishi, tabiiyki, xomashyo mahsulotlarining xarid narxini ham ko‘tarib yubordi. Ayni paytda bu davlatlarning sanoati ham tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy sanoat mulkdorlari kuchayishiga olib keldi.

Ikkinchidan, urush G‘arbiy Yevropa davlatlarining Lotin Amerikasidagi mavqeyini pasaytirib yubordi. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqada AQSH ta’sirining kuchayishiga olib keldi. Mintaqa davlatlari iqtisodiyoti AQSH monopoliyalari ta’siriga tushib qoldi. Chunonchi, AQSH bu mintaqa davlatlari iqtisodiyotiga 100 mlrd. dollar miqdorida sarmoya kiritgan. Bu — boshqa barcha davlatlar kiritgan sarmoyadan 20 baravar ko‘p edi. Mintaqada AQSHning harbiy-siyosiy mavqei ham kuchayib bordi. Urush yillarida AQSH bu mintaqada 90 dan ortiq harbiy-havo va harbiy-dengiz baza (qarorgoh)larini tashkil etishga erishdi.

Bundan tashqari, AQSH Lotin Amerikasi davlatlariga turli xil mazmundagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy shartnomalarni qabul qildira oldi.

Mintaqa davlatlarida jamiyat taraqqiyoti yo‘li xususida uch katta siyosiy guruh o‘rtasida shiddatli kurash bordi. Bu — taraqqiyotning konservatorlik, milliy islohotchilik va inqilobiy yo‘llari tarafdorlari o‘rtasidagi kurash edi.

Konservatorlik yo‘li mavjud holatning saqlanishidan manfaatdor kuchlar yo‘li edi. Konservatorlik latifundiyachilikning saqlanib qolishi uchun har qanday o‘zgarishga qarshi jon-jahdi bilan kurashar edi.

Latifundiyachilik Lotin Amerikasi asriy qoloqligining tub sababi bo‘lib keldi. Biroq Ikkinchi jahon urushidan so‘ng latifundiyachilikning qulashi muqarrar bo‘lib qoldi. Bunga, birinchidan, dehqonlar kurashi ta’sirida hukumatning agrar islohot o‘tkazishga majbur bo‘lganligi, ikkinchidan, milliy sanoatning gurkirab rivojlanishi, uchinchidan esa, kuchli demografik «o‘zgarish » yuz berganligi sabab bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushining Lotin Amerikasi davlatlari uchun oqibatlari

Taraqqiyot yo‘llarining tanlanishi

Demografik o‘zgarish qishloq aholisini shaharga ketishga majbur etdi. Natijada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardayoq shahar aholisining soni qishloq aholisining sonidan oshib ketdi.

Ayni paytda siyosiy hayotning markazi ham shaharga ko‘chdi. Lotin Amerikasi davlatlari oldida endi taraqqiyotning qolgan ikki muqobil yo‘li turar edi. Mintaqa davlatlarining aksariyati milliy islohotchilik yo‘lini tanladi.

Milliy islohotchilikning yetakchi kuchi milliy burjuaziya edi. Ular millatni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot hamda davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lida birlashishga da’vat etdilar. Milliy-islohotchilik harakatlari va partiyalarini tuzdilar.

Milliy-islohotchilik harakati Argentinada katta quloch yoydi. Bu yerda u peronizm nomi bilan ataladi. Peronizm keyinchalik Argentina prezidentligiga saylangan general Xuan Domingo Peron nomidan olingan. D. Peron 1943-yilning 4-iyunida o‘tkazilgan davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga keldi.

U argentinaliklarni qaramlik, qoloqlikni tugatish va turli ijtimoiy tabaqalar hamkorligiga asoslangan adolatli jamiyat qurish yo‘lida jipslashishga chaqirdi. Imperializmni, oligarxiyani tanqid qildi. Qashshoqlarni himoya qilish

zarurligini ta’kidladi. Millionlab aholi D. Peron timsolida o‘zlarining himoyachisi va homiysini ko‘rdilar. Argentinadagi kuchli kasaba uyushmasi — «Mehnat umumiy konfederatsiyasi» — uning tayanchi bo‘ldi.
1946-yilda D. Peron mamlakat prezidentligiga o‘tkazilgan saylovda g‘alaba qozondi. D. Peron chuqur ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Chunonchi, ish haqi oshirildi. Umumiy pensiya ta’minoti va haq to‘lanadigan ta’til joriy etildi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari 1949-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi. Iqtisodiy siyosatda chet el kompaniyalariga qarashli mulklarni sotib olish yo‘lini qo‘lladi. Temir yo‘l, aloqa, Markaziy bank va boshqa muhim sanoat korxonalari milliylashtirildi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining 5 yillik rejasi ishlab chiqildi. Milliy sarmoya rag‘batlantirildi. Chetdan keltiriladigan mahsulotlarni Argentinaning o‘zida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sanoat tarmog‘ini yaratish siyosati yuritildi.
Biroq 50-yillarning o‘rtalariga kelib vaziyat o‘zgardi. Eksport tovarlarining narxi pasayishi davlat daromadining pasayishiga olib keldi. Mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur’ati ham pasaydi. Uni yuqori darajada saqlab turish uchun mablag‘ yo‘q edi. Valuta zaxirasining katta qismi chet elliklarga qarashli kompaniyalarni sotib olishga sarflab qo‘yilgan edi.
Bu hol boshlangan keng miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni chuqurlashtirish imkoniyatini cheklab qo‘ydi. Natijada mamlakatda chuqur norozilik kelib chiqdi. Bundan D. Peronning muxoliflari ustalik bilan

foydalandilar. Ular 1955-yilning sentabr oyida davlat to‘ntarishi uyushtirdilar. D. Peron mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.
Milliy islohotchilik tarafdorlari Braziliyada ham katta o‘zgarishlarni amalga oshirdilar. Bu islohotlar prezident Vargas nomi bilan bog‘liqdir. 1945-yilda mamlakatda to‘g‘ridan to‘g‘ri va yashirin ovoz berishni nazarda tutuvchi saylov haqidagi qonun qabul qilindi. Braziliyaning parlament demokratiyasiga qaytish demokratik kuchlarning katta siyosiy yutug‘i edi.
50-yillarda Braziliya agrar davlatdan agrar-industrial davlatga aylandi. Milliy demokratik kuchlar mamlakat boyliklariga faqat Braziliyaning o‘zi egalik qilishi uchun kurashdilar. 1953-yilning 3-oktabrida Vargas neft sanoati masalasida muhim dekretni imzoladi. Unga ko‘ra, mamlakat neft boyligi aksiyalarining 51 foiziga davlat, 49 foiziga esa mamlakat xususiy kompaniyalari egalik qiladigan bo‘ldi.
Shu tariqa chet el sarmoyasi neft sanoatidan siqib chiqarildi. Neft konlarini topish, uni qazib olish, qayta ishlash va sotish davlat monopoliyasi, deb e’lon qilindi. Bu hodisa milliy islohotchi kuchlarning katta g‘alabasi edi.
Vargas hukumati elektr energiya sanoatini ham milliylashtirish uchun kurash olib bordi. Ayni paytda hukumat og‘ir moliyaviy taqchillikka duch keldi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida jiddiy inqiroz ro‘y berdi. 3 yil davom etgan qurg‘oqchilik oqibatida qishloq aholisi turmush darajasi og‘irlashib ketdi.
Buning ustiga, barcha dehqonchilik xo‘jaligining 3,4 foizini tashkil etuvchi latifundiyachilar jami yer maydonining 62 foizidan ko‘piga egalik qilardi. Dehqonlar yerni bo‘lib berishni talab eta boshladilar. Hatto, dehqonlar qo‘zg‘aloni ham boshlandi. Shunday sharoitda hukumat latifundiyachilar yerlarini sotib olish va ularni dehqonlarga bo‘lib berish to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorladi. Biroq bunday islohotni amalga oshirish uchun hukumatda mablag‘ yo‘q edi.
Ayni paytda hukumat tadbirlari ichki reaksiyani ham g‘azablantirdi. Hukumat ikki o‘t oralig‘ida qolganligidan foydalangan harbiy kuchlar 1954-yilning 23-avgustida davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Chorasiz qolgan Vargas o‘zini o‘zi otib o‘ldirishga majbur bo‘ldi. Meksikada ham milliy-islohotchilar hukumati katta o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Sanoatning qator tarmoqlari milliylashtirildi. Davlat sektori kengayib bordi. Jami milliy mahsulotda sanoatning ulushi 29 foizni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi ham rivojlandi.
1960-yilda bu soha 1940-yilga nisbatan 3 baravar ko‘p mahsulot ishlab chiqara boshladi.

Hukumat butun choralar bilan mahalliy sarmoyani rag‘batlantirib bordi. Milliy islohotchilik va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini kafolatlash birga qo‘shib olib borildi. Ayni paytda agrar islohot ham davom ettirildi. Bularning oqibatida Meksikada muqim Konstitutsiyaviy tuzum qaror topdi.

181

Meksika taraqqiyotining yana bir o‘ziga xos xususiyati — bu armiyaning ichki siyosiy ahvolga aralashmaganligidir.

Lotin Amerikasida ham mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, keskinlikni inqilob yo‘li bilan hal etishga intiluvchi kuchlar mavjud edi. Ular SSSR dagi kabi sotsializm qurish orzusida bo‘lganlar.

Dastlab inqilob 1959-yilda Kubada boshlandi. 1959-yilning 1-yanvarida Fidel Kastro boshchiligida milliy-vatanparvar kuchlar qo‘zg‘aloni g‘alaba bilan yakunlandi. Shu kuni amerikaparast F. Batista hukumati ag‘darildi. Bu hukumatni ag‘darish uchun inqilobchilar 6 yil kurash olib bordilar. Inqilob rahbari, 32 yoshli F. Kastro Bosh vazir lavozimini egalladi. U o‘z oldiga Kubani AQSHga har qanday qaramlikdan ozod qilish maqsadini qo‘ydi. AQSH o‘z navbatida, F. Kastro hukumatini tan olmadi. Ayni paytda unga qarshi iqtisodiy qamal chorasini qo‘lladi. Bunga javoban F. Kastro hukumati Kubadagi barcha AQSH mulkini milliylashtirdi va SSSR bilan yaqinlashish yo‘lini tanladi.

Kuba sotsializmini saqlab qolish uchun SSSR 1962-yilda, hatto, yadro urushiga ham tayyor edi. 1965-yilda Kubadagi barcha inqilobiy kuchlar yagona tashkilotga — Kuba Kompartiyasiga birlashdilar. F. Kastro uning rahbari etib saylandi. Shu tariqa F. Kastro kommunistik g‘oyalarni qabul qildi va Kubada sovet namunasidagi sotsializm qurishni boshladi. 1990-yillarga kelib Kubaning sobiq ittifoqchilari uni qo‘llamay qo‘ydi. Kuba iqtisodiy og‘ir ahvolga tushib qoldi.

Lotin Amerikasidagi demokratik va inqilobiy harakatlar AQSH hukumatini tashvishga solib qo‘ydi. Endi AQSH Lotin Amerikasi davlatlariga nisbatan o‘z siyosatida o‘zgarish qilishga majbur bo‘ldi.

1961-yilda AQSH prezidenti J. Kennedi tashabbusi bilan «Taraqqiyot yo‘lidagi ittifoq» dasturi ishlab chiqildi va u avgust oyida mintaqaning 19 ta davlati tomonidan imzolandi. Dastur 10 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, u industrlashni jadallashtirishni, iqtisodiyotning eksport va import qaramligini kamaytirishni nazarda tutar edi. Ayni paytda ijtimoiy-siyosiy hayot demokratlashtirilishi, agrar islohot o‘tkazilishi, uy-joy qurilishi, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida ahvolni yaxshilash choralari belgilandi. Lotin Amerikasining 19 davlatida bu dasturning bajarilishi uchun AQSH tomonidan 20 mlrd dollar miqdorida qarz va boshqa yordamlar berilishi ko‘zda tutildi. Dastur ayni paytda Lotin Amerikasi mamlakatlarida voqealar rivojining Kuba varianti takrorlanishining oldini olishga xizmat qilishi ham kerak edi.

1970-yilda G‘arbiy yarim sharda ikkinchi bo‘lib sotsializm qurmoqchi bo‘lgan kuchlarni birlashtirgan ittifoq — xalq fronti Chilida hokimiyat tepasiga keldi. Xalq fronti Chili kommunistik, sotsialistik va radikallar partiyasi ittifoqi edi. 1970-yil 4-sentabrda Chilida o‘tkazilgan prezidentlik saylovida Xalq fronti nomzodi S. Alende g‘alaba qozondi. Agar Kubada qurol kuchi bilan hokimiyatni egallagan kuchlar sotsializm qurgan bo‘lsalar,

Taraqqiyotning inqilobiy yo‘li

182

Chilida S. Alende hukumati Konstitutsiyaviy yo‘l bilan sotsializm qurishga kirishdi.

Xalq fronti hukumati mamlakatdagi kuchlar nisbatini to‘la hisobga olmagan holda inqilobiy islohotlarni boshladi. Hatto o‘rta va mayda korxonalar ham milliylashtirila boshlandi. Bu esa aholi o‘rta tabaqalarining Xalq frontidan yuz o‘girishiga olib keldi.

Bundan tashqari, yirik sarmoyadorlar hukumatga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Hukumatning siyosatdagi xatosi Xalq fronti ichida kelishmovchilik chiqishiga olib keldi. Ayni paytda AQSH S. Alende hukumatiga tazyiq o‘tkaza boshladi. Chili Qurolli Kuchlari S. Alendeni qo‘llab-quvvatlamadi. 1973-yilda Chili parlamenti S. Alende hukumatini qonundan tashqari, deb

e’lon qildi. Bu esa Chili Qurolli Kuchlari rahbariyati uchun ayni muddao edi. 1973-yilning 11-sentabrida Qurolli Kuchlar harbiy to‘ntarish o‘tkazdilar. Mamlakatda general A. Pinochetning harbiy diktaturasi o‘rnatildi (1973—1990).

Shu tariqa Lotin Amerikasi davlatlarida harbiylarning hokimiyatni egallashlariga yanada keng yo‘l ochildi. Harbiy diktaturalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosatini yuritdilar. Bu siyosatning mazmuni — davlat sektorini qisqartirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish hamda xususiy tadbirkorlik va erkin savdoga keng yo‘l berishdan iborat bo‘ldi. Ayni paytda proteksionizmdan voz kechildi va chet el sarmoyasi bilan faol hamkorlik yo‘liga o‘tildi.

Harbiy diktatorlar (Braziliya, Chili, Boliviya, Urugvay, Paragvay va boshqa mamlakatlarda) o‘z rejalarini izchillik va qattiqqo‘llik bilan amalga oshira oldilar. Konstitutsiyaviy demokratik tartibga amal qilgan davlatlarda esa 80-yillargacha modernizatsiyalash avvalgi milliy islohotchilik ruhida davom etdi. Bular o‘z natijasini bermay qolmadi. 1980-yilda Lotin Amerikasi davlatlarining yalpi ichki mahsuloti 1960-yilga nisbatan 3 baravar ko‘paydi. Ayni paytda Lotin Amerikasi davlatlarining tashqi qarzi ham tez sur’atlarda ko‘payib bordi. Agar 1970-yilda mintaqa davlatlarining qarzi 20 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 80-yillarda bu ko‘rsatkich 400 mlrd dollarni tashkil etdi.

AQSH harbiy to‘ntarishlarga qarshi chiqmadi. Aksincha, ularga mintaqa davlatlari ichki ishi, deb baho berdi. Chunki harbiylar hukumatlari AQSH manfaatiga zid siyosat yuritmadilar, aksincha, AQSH bilan mustahkam ittifoqda bo‘lishga intildilar.

Faqat AQSH prezidenti J. Karter davrida harbiy to‘ntarishlarga munosabat o‘zgardi. Chunki J. Karter inson huquqlari masalasini o‘z siyosatining asosiy masalalaridan biri, deb e’lon qilgan edi. Demokratiya bor joydagina inson huquqlari kafolatlanadi. Harbiy to‘ntarishlar esa demokratiyaga zid hodisadir. AQSH siyosatida harbiy to‘ntarishlarga nisbatan qarashning o‘zgarishi oxir-oqibatda harbiy diktaturalarning barham topishini muqarrar qilib qo‘ydi.

80-yillar davomida harbiy-diktatorlik hukumatlari birin-ketin tarix sahnasidan keta boshladi. Chunonchi, 1980-yilda Peruda, 1982-yilda Boliviyada, 1983-yilda Argentinada, 1985-yilda Gvatemala, Gonduras, Braziliyada va Urugvayda,1989-yilda Salvador va Paragvayda, 1990-yilda esa Chilida harbiy diktatura barham topdi. Paragvayda general Stresner diktaturasi 35 yil, Chilida A. Pinochet diktaturasi 17 yil davom etdi.

Faqat ikki davlat (Gaiti va Kuba) dan boshqa barcha Lotin Amerikasi davlatlarida vakillik demokratiyasi qaror topdi. Demokratiyaning qaror topishi juda katta qiyinchilik bilan kechdi. 1993-yilda Chilida Eduard Frey, 2000-yilda Rikardo Lagos Eskobar, 1999-yilda Venesuelada Ugo Chaves hukumatlari o‘rnatildi. Yangi hukumatlar davlat korxonalarini chet elga sotishga majbur bo‘ldilar. Davlatning kapital mablag‘ sarflash hajmi kamaydi. Ijtimoiy soha xarajatlari qisqartirildi. Ish haqi muzlatildi. Oqibatda aholi turmush darajasi pasaydi. 1992-yilga kelib mintaqa aholisining 46 foizi (jami aholi 442 mln kishi edi) kambag‘allik darajasi chegarasidan pastda yashadi. Narkobiznes va terrorizm kuchaydi.

1993—1994-yillardan boshlab Kuba rahbariyati ham reallikka tik qaray boshladi. Mamlakatda iqtisodiy islohotni amalga oshirishga kirishildi. Chet el sarmoyasi ishtirokida qo‘shma korxonalar qurilishi rag‘batlantirila boshlandi. Mamlakatda chet el valutasining muomalada bo‘lishiga, mayda tadbirkorlikka va chakana savdoga ruxsat etildi. Lotin Amerikasi davlatlari murakkab iqtisodiy ahvolni mumkin qadar yumshatish maqsadida iqtisodiy birlashuvga jiddiy e’tibor berdilar.

Braziliya va Argentina o‘rtasida 1986-yilda imzolangan iqtisodiy ittifoq asosida 1991-yilda «Janubiy Amerika umumiy bozori» tuzildi. Ayni paytda, mintaqa davlatlari AQSH bilan iqtisodiy integratsiya masalasiga ham jiddiy e’tibor bilan qaradilar. 1992—1994-yillar davomida AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasida «Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi» tashkil etilganligi bu boradagi muhim qadam bo‘ldi.

Lotin Amerikasining ba’zi davlatlari ham bu shartnomaga qo‘shilishga intilmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Lotin Amerikasi davlatlari uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Lotin Amerikasi davlatlari taraqqiyotning qanday yo‘llaridan bordilar? Ko‘pchilik davlatlar milliy-islohotchilik yo‘lini tanlaganini qanday izohlagan bo‘lar edingiz?
3. Argentina, Braziliya, Meksikada milliy-islohotchilik hukumatlari amalga oshirgan tadbirlar haqida so‘zlab bering.
4. Kuba va Chilida sotsializm qurish uchun tanlangan yo‘llarni taqqoslang.
5. Lotin Amerikasi davlatlarida juda ko‘p davlat to‘ntarishlari amalga oshirilganligini qanday izohlaysiz?
6. Qanday omil bu mintaqada harbiy diktaturalarning birin-ketin qulashiga sabab bo‘ldi?

?

184

HARBIY DIKTATORLAR FAOLIYATI HAQIDA FIKR YURITING

Mamlakatlar Diktatorlar faoliyati

20-§. Buyuk Britaniya

Buyuk britaniyaliklar ham fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga munosib hissa qo‘shganlar. Ularning davlati Ikkinchi jahon urushi g‘oliblaridan biri bo‘ldi.

Ayni paytda urush Buyuk Britaniyani ham iqtisodiy, ham siyosiy va ham harbiy jihatdan zaiflashtirdi. Uning harbiy xarajatlari 25 mlrd funt sterlingni tashkil etdi. Milliy boyligining to‘rtdan bir qismini yo‘qotdi. Oltin va valuta zaxiralari kamaydi. Tashqi qarz 3,3 mlrd funt sterlingni tashkil etdi.

Faqat AQSHdangina emas, o‘z dominionlaridan ham qarz bo‘lib qoldi. Chet ellarga joylashtirgan sarmoyasining to‘rtdan bir qismidan, savdo flotining 30 foizidan ajraldi. Import eksportdan oshib ketdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi darajaning 90 foizini tashkil etdi. Bundan tashqari, urush Buyuk Britaniyaning harbiy-strategik ahvolini ham yomonlashtirdi. U jahon va imperiya bozorlaridan AQSH tomonidan siqib chiqarila boshlandi. Endilikda Buyuk Britaniya Yevropada ilgari yuritgan «kuchlar baravarligi» siyosatini yurita olmay qoldi.

Dominion va mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashining kuchayishi Britaniya mustamlakachilik imperiyasini inqirozga yuz tuttirdi. AQSHning yadro va strategik qurollarga ega bo‘lishi Buyuk Britaniyaning strategik mavqeyiga jiddiy zarba berdi.

To‘g‘ri, Buyuk Britaniya baribir buyuk davlatlar qatorida qoldi. Biroq uning xalqaro mavqeyi zaiflashgan edi. Endilikda Buyuk Britaniya dunyoning yetakchi davlati roliga da’vo qila olmas edi. Urush g‘olibining bu ahvoliga U. Cherchill «Zafar va fojia» deb baho bergan edi.

1945-yilning 5-iyulida Buyuk Britaniyada parlament saylovi o‘tkazildi. Unda Buyuk Britaniya tarixida eng mashhur siyosiy arboblardan biri Buyuk Britaniya bosh vaziri U. Cherchill partiyasi (Konservatorlar partiyasi) mag‘lubiyatga uchradi. Hokimiyat jilovi Leyboristlar partiyasi qo‘liga o‘tdi. Bu partiya parlamentdagi o‘rinlarning uchdan ikki qismini egalladi. Leyboristlar o‘zlarining saylov oldi dasturini «Kelajakka boqish» deb ataganlar. Dasturda leyboristlar demokratik sotsializmni qurish maqsadini

Ikkinchi jahon urushining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari

Buyuk Britaniyaning ichki siyosati

ilgari surdilar. Ular bunday sotsializmni islohotlar yo‘li bilan qurishlarini e’lon qildilar.

Dasturda sotsializm inqilobning natijasi bo‘lishi kerak emasligi alohida uqtirilgan edi. Xo‘sh, leyboristlar qanday jamiyatni demokratik sotsializm deb tushungan edilar? Ularning demokratik sotsializmi farog‘at davlatining

aynan o‘zi edi. 27-iyulda K. Ettli boshchiligida tuzilgan leyboristlar hukumati (1945—1951) saylov oldi dasturini amalga oshirishga kirishdi.
Hukumat jiddiy islohotlar o‘tkazdi. Chunonchi, Buyuk Britaniya banki po‘lat, ko‘mir va gaz, elektroenergiya sanoatini, telegraf va radioaloqa, fuqaro aviatsiyasi, suv va temir yo‘l transportini milliylashtirdi. Milliylashtirish sotib olish yo‘li bilan amalga oshirildi. 1945—1948-yillarda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sug‘urtalashning kompleks kafolatli tizimi yaratildi. Unga ko‘ra, ishsizlik bo‘yicha, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik bo‘yicha, kasb kasalligi, bevalik bo‘yicha nafaqa, shuningdek, qarilik pensiyalari to‘lanadigan bo‘ldi.
10 mln ishchining ish haqi oshirildi. 1948-yildan boshlab tekin meditsina xizmati joriy etildi. Arzon uy-joylar qurilishi boshlandi. 1927-yilda qabul qilingan reaksion ruhdagi kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi qonun bekor qilindi. Hukumat ba’zi bir siyosiy islohotlarga ham qo‘l urdi. Chunonchi, 1949-yilda Buyuk Britaniya parlamentining yuqori palatasi — Lordlar palatasi huquqini qisman cheklash to‘g‘risida qonun qabul qilinishiga erishildi. Unga ko‘ra, parlamentning quyi palatasi ma’qullagan qonun loyihasini Lordlar palatasi tasdiqlamay ushlab turish muddati 2 yildan 1 yilga tushirildi.
Hukumat «Marshall rejasi»ga ko‘ra, 1948—1950-yillar oralig‘ida 3 mlrd dollarlik yordam oldi. 1948-yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi urushdan oldingi darajadan oshdi. Biroq, ayni paytda, moliyaviy inqirozga ham duch kelindi. Bunga AQSHning «Lendliz» savdosini to‘xtatgani, eksportdan keladigan foyda import tovarlari qiymatini ko‘zlangan darajada qoplamasligi, 1949-yilda funt sterling qiymatini AQSH dollari qiymatiga nisbatan kamaytirishga majbur bo‘linganligi (1949-yilgacha 1 f. s. qiymati 4 dollarga teng edi. Endi uning qiymati 2,8 dollarga teng bo‘lib qoldi), tashqi qarz uchun foiz to‘lovlari sabab bo‘ldi. Buning ustiga iqtisodiyotdagi davlat sektorini bir maromda ushlab turish ham katta mablag‘ talab etmoqda edi. Oqibatda hukumat ijtimoiy sohada belgilangan tadbirlar uchun zarur mablag‘ga ega bo‘la olmadi. Bu borada berilgan va’dalar to‘la bajarilmadi. Bu hol 1951-yilning 25-oktabrida o‘tkazilgan navbatdagi parlament saylovida konservatorlarning g‘alabasini ta’minladi. U. Cherchill yana hukumat tuzdi.
Hukumat 1945-yilgi parlament saylovidagi mag‘lubiyat sabablarini hisobga oldi. Shu tufayli ijtimoiy himoya tizimini bekor qilmadi. Biroq «Mamlakatni moliyaviy sog‘lomlashtirish dasturi»ga ko‘ra, bu soha xarajatlarini birmuncha qisqartirdi.
Po‘lat ishlab chiqarish sanoati va transport davlat tasarrufidan chiqarildi. Chetdan oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari keltirish 350 mln funt sterlingga

kamaytirildi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko‘tarildi. Eksport hajmi qisqardi. 1952-yilda Buyuk Britaniya yadro quroliga ega bo‘ldi. Biroq bu harbiy xarajatlar kamayishiga olib kelgani yo‘q. Aksincha, bu mamlakatni oltin va valuta zaxirasi kamayishiga olib keldi. Shu tariqa hukumatning iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish dasturi ko‘zlangan natija bermadi.
Bundan tashqari, mustamlakachilik imperiyasining yemirilishi davom etdi. Ichki va tashqi siyosatdagi qiyinchiliklar U. Cherchillni 1955-yil aprelda iste’fo berishga majbur etdi. Konservatorlar hukumatni yana 9 yil boshqardilar. U. Cherchilldan so‘ng A. Iden (1955—1957) va G. Makmillan (1957—1963)lar hukumatni boshqardilar.
1957—1958-yillarda mamlakat ishlab chiqarishi 2 foizga kamaydi. Harbiy xarajatlar oshib bordi. Natijada asosiy sarmoyani yangilash jarayoni sekinlashdi. Oqibatda jahon bozorida mamlakat mavqeyi pasaydi. GFR uni 3-o‘ringa surib qo‘ydi. G. Makmillan hukumati vaziyatni o‘nglashga harakat qildi.
Xususan, xususiy sanoat moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Milliy daromadda davlatning hissasi oshishiga erishdi. Mamlakat eksporti hajmi ko‘tarila bordi. 1962-yilda iqtisodiy rivojlanish Milliy Kengashi tuzildi. Bu kengash 1961—1965-yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejani ishlab chiqdi va hukumat uni tasdiqladi.
Biroq rejani hayotga tatbiq etishga muvaffaq bo‘linmadi. Ijtimoiy sohani mablag‘ bilan ta’minlash og‘irlashdi. Natijada hukumat kvartira haqi ustidan nazoratni bekor qildi. Ish haqi muzlatildi.

Ayni paytda mustamlakachilik imperiyasi yemirildi. Leyboristlar partiyasi hukumat siyosatini qattiq tanqid ostiga oldi va 1951—1964-yillar oralig‘idagi yillarni «bekor o‘tgan 13 yil» deb atadi. Saylovda g‘alaba qilsa, iqtisodiyotning qator muhim sohalarini milliylashtirish va iqtisodiyotni reja asosida rivojlantirish yo‘li bilan mamlakatni yangilashga va uning qudratini qayta tiklashga va’da berdi. 1964-yilgi parlament saylovida leyboristlar partiyasi g‘alaba qozondi. Partiya rahbari T. Vilson boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Hukumat mamlakat ilmiy-texnika salohiyatini rivojlantirishga katta umid bog‘ladi. Shu maqsadda 1965-yilda parlament birinchi «Milliy besh yillik iqtisodiy dasturi»ni qabul qilishiga erishdi.
Ayni paytda, mamlakat moliyaviy ahvolini muqimlashtirish maqsadida, hukumat ish haqi va narxning o‘sishini «oqilona» cheklab qo‘yish siyosatini yurita boshladi. Bu siyosat narx-navo va daromadlar siyosati deb nom oldi. Dastlab bu tadbir ixtiyoriylik asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, 1966-yildan boshlab hukumatning ish haqini muzlatishga oid qarori bilan amalga oshirildi. G. Vilson hukumati sanoat ishlab chiqarishi yiliga 5 foiz o‘sishini rejalashtirgan bo‘lsa, amalda u 2,3 foizdan oshmadi. Binobarin, leyboristlar mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilay olmadilar. Buning ustiga funt sterling qiymatini dollarga nisbatan kamaytirish ham ko‘zlangan natijani bermadi.
Bundan tashqari, G. Vilsonning Buyuk Britaniyani «Umumiy bozor» ga a’zolikka qabul qildirish yo‘lidagi urinishlari behuda ketdi. Fransiya hukumati Buyuk Britaniyani AQSH bilan haddan tashqari bog‘langanlikda ayblab, uning «Umumiy bozor» ga qabul qilinishiga qarshilik ko‘rsatdi. Bu omillar leyboristlar hukumatining obro‘siga ta’sir etmay qolmadi. 1970-yilning 18-iyunida o‘tkazilgan parlament saylovida Konservatorlar partiyasi g‘alaba qozondi. E. Xit boshchiligida konservatorlar hukumati tuzildi.
E. Xit hukumati davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida ijtimoiy sohalar xarajatlarini kamaytirdi. Fermerlarga yordam puli berish to‘xtatildi. «Narx-navo va daromadlar» siyosati bekor qilindi. Bu mamlakatda keskinlikni keltirib chiqardi. Hukumat ikki baravar favqulodda holat joriy qilishga majbur bo‘ldi.
1971-yilda «Mehnat munosabatlari islohoti to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Qonun tred-yunionlarning huquqini cheklab qo‘ydi. Natijada hukumat bilan tred-yunionlar o‘rtasida keskinlik vujudga keldi. Mamlakat yalpi ish tashlash yoqasiga kelib qoldi.
1973—1974-yillar qishida tog‘-kon sanoatida inqiroz yuz berdi. Shunday sharoitda E. Xit yangi parlament saylovi belgilashga majbur bo‘ldi. 1974-yilning 28-fevralida bo‘lib o‘tgan parlament saylovida leyboristlar partiyasi g‘alaba qozondi. G. Vilson yana bosh vazir lavozimini egalladi. U «Narxnavo va daromadlar siyosati»ning yangi variantini qo‘lladi. Bu variant «ijtimoiy shartnoma» deb nom oldi. Bu hukumat bilan tred-yunionlar o‘rtasidagi shartnoma edi. Shartnomaga ko‘ra, tred-yunionlar ish haqini yiliga 5 foiz188 gacha oshirish talabidan tiyilib turish, hukumat esa narx-navo o‘sishini to‘xtatib turish majburiyatini oldi.
Biroq 1976-yilda funt sterling qiymatining yana pasaytirilishi hukumatning harakatlarini amalda yo‘qqa chiqardi. G. Vilson o‘z ixtiyori bilan iste’fo berishga majbur bo‘ldi. Uning o‘rnini J. Kallagen (1976—1979) egalladi. Biroq u ham mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilay olmadi. 1979-yilda mamlakatda ishsizlar soni 1935-yildan keyin birinchi marta 2 mln kishiga yetdi.
Buning ustiga J. Kallagen hukumati o‘tkir ichki siyosiy muammo — Shimoliy Irlandiya muammosining keskinlashuvi hodisasiga duch keldi. 1921-yilda Buyuk Britaniya bilan Irlandiya o‘rtasida imzolangan shartnomaga ko‘ra, Shimoliy Irlandiya Buyuk Britaniya tarkibida qolgandi. Uning aholisi asosan protestantlardan iborat bo‘lib, katoliklar ozchilikni tashkil etadi. Protestantlar katoliklarni har jihatdan kamsitib keldilar. 1968-yilda katoliklar o‘z haq-huquqlari uchun kurash boshladilar. Natijada Shimoliy Irlandiyada tartibsizliklar boshlandi. Bunga javoban Buyuk Britaniya hukumati u yerga harbiy qism kiritdi. Katoliklarning «Irlandiya Respublika

armiyasi» deb ataluvchi yashirin terrorchi tashkiloti ingliz soldatlariga qarshi terror o‘tkaza boshladi.
Bu terrorchi tashkilot Olster shahrini Irlandiya Respublikasiga qo‘shish uchun kurashdi. Bunga javoban protestantlarning yashirin harbiy tashkiloti ham kurashga kirishdi. Har ikki tomon tartib o‘rnatish uchun yuborilgan ingliz soldatlarini nishonga ola boshladi. Natijada uch tomondan ham ko‘plab kishilar halok bo‘ldi.
Mamlakatdagi keskin ichki vaziyat leyboristlar mavqeyiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Oqibatda 1979-yilda o‘tkazilgan parlament saylovida bu partiya mag‘lubiyatga uchradi. G‘alaba qozongan Konservatorlar partiyasi o‘z lideri M. Tetcher boshchiligida yangi hukumat tuzdi.
Konservatorlar surunkasiga 18 yil davomida hokimiyat tepasida turdilar. 1979—1990-yillar oralig‘idagi 11 yil Buyuk Britaniya tarixiga «Margaret Tetcher davri» nomi bilan kirgan. U Buyuk Britaniya va dunyoda katta obro‘ qozondi. Uning dasturi «tetcherizm» nomi bilan atalgan. Bu termin mohiyatini quyidagi qoidalar tashkil etdi:
a) iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi xususiy tadbirkorlikdir. Shunga ko‘ra hokimiyat siyosiy yo‘lining asosi: erkinlik, imkoniyat hamma uchun, tadbirkorlik ruhini qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulkchilarga demokratiya bo‘lishi kerak;
b) davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi eng kam darajada bo‘lishi lozim. U xususiy tashabbuslarni aslo bo‘g‘masligi kerak;
d) barcha mehnatga qobiliyatli kishilar o‘zini o‘zi ta’minlasin. O‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda mehnatga qobiliyatsizlarga esa davlat va xayriya tashkilotlari yordam ko‘rsatadi;

e) kamomadsiz budjet bo‘lishi kerak; uning muhim qismini soliqlar tashkil etadi;
f) kasaba uyushmalari mehnatkashlar manfaatlarini qonuniy vositalar bilan himoya qilishga haqli. Biroq bunda boshqalar manfaatlariga zarar yetkazilmasligi lozim; jamiyatga zarar yetkazuvchi ish tashlashlar cheklanishi darkor.
Xo‘sh, M. Tetcher qanday qilib katta obro‘ qozona oldi?
Konservatorlar saylovgacha «To‘g‘ri yondashuv» deb atalgan dastur ishlab chiqdilar. Unda Buyuk Britaniyaning qudratini tiklash, iqtisodiy tanglik va inflatsiyani tugatish asosiy vazifa qilib qo‘yildi. Bu dasturni amalga oshirish hukumatdan qat’iylik bilan harakat qilishni talab etar edi.
M. Tetcher shunday qildi ham. U davlat budjeti tanqisligiga yo‘l qo‘yib bo‘lsa ham keng ijtimoiy tadbirlarni zarur mablag‘ bilan ta’minlashdan voz kechdi.
Muomalada ortiqcha naqd pulning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rdi. Buning uchun budjet xarajatlari qisqartirildi. Shu tufayli inflatsiyaning pasayishi hamda iqtisodga ko‘proq sarmoya sarflash uchun sharoit yaratildi. Natijada ishlab chiqarishni o‘stirish borasida sakrash ro‘y berishiga erishildi. Mehnat unumdorligi bo‘yicha Yevropada birinchi o‘ringa chiqildi.
Hukumat kam samarali va zarar ko‘rib ishlovchi korxonalarni saqlab turish uchun mablag‘ ajratishni to‘xtatdi. Davlat mulkini xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu tadbir davlat budjetiga 28 mlrd f. s. olib keldi. Millionlab fuqarolar firma va korxonalarning aksiyadorlariga aylandi. Katta yoshdagi aholining 25 foizi turli aksiyalarga ega bo‘ldi. Davlat uy-joy fondi ham sotildi. Natijada 1,1 mln oila imtiyozli ravishda turarjoy sotib olishga erishdi.
1990-yilga kelib 65 foiz oila o‘zining shaxsiy uy-joyiga ega bo‘ldi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin qisqartirildi. Soliqlarni oshirish va tejamkorlik hisobiga kamomadsiz budjet shakllantirildi. Mamlakat aholisining uchdan ikki qismi o‘rta tabaqaga aylandi. Ijtimoiy ta’minot unga haqiqatan ham muhtoj bo‘lganlar uchun joriy etildi. 80-yillarda 2,5 mln yangi ishchi

o‘rni vujudga keltirildi. Ishsizlar soni keskin kamaydi. Bu omillarning barchasi, o‘z navbatida, 1983, 1987 va 1991-yillardagi parlament saylovlarida konservatorlar partiyasining g‘alabasini va ularning uzluksiz 18 yil davomida hukumatni boshqarishlarini ta’minladi.
Biroq 90-yillarda vaziyat o‘zgardi. Kamomadsiz budjetni uzoq vaqt ushlab turib bo‘lmadi. Inflatsiya va ishsizlik yana kuchaydi. Hukumat daromadidan qat’i nazar 18 yoshdan yuqori barcha fuqarolarni soliqqa tortish yo‘li bilan
M. Tetcher.
190
vaziyatdan chiqmoqchi bo‘ldi. Bu esa ommaviy norozilikni keltirib chiqardi. Shunday sharoitda M. Tetcher o‘z xohishi bilan iste’foga chiqdi. Yangi bosh vazir J. Meyjor bunday soliqni bekor qildi. U «Teng imkoniyatlar jamiyati» barpo etish dasturini ilgari surdi. Biroq bundan ko‘zlangan maqsadga erishilmadi. 1997-yilgi va 2001-yilgi parlament saylovida Leyboristlar partiyasi g‘alaba qozondi. Toni Bler boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Leyboristlar hukumati qiyin siyosiy muammolarga duch keldi. Shotlandiya va Uels mahalliy millatchilari 1997—1998-yillarda o‘z parlamentlarini tuzdilar va muxtoriyat e’lon qildilar.
Irlandiya muammosi yana murakkablashdi. Katoliklar va protestantlarning to‘qnashuvi davom etdi. 1998-yilda leyboristlar hukumati tomonlar o‘rtasidagi munosabatni birmuncha bo‘lsa-da, kelishtirishga erishdi. Biroq 2001-yilda vaziyat yana keskinlashdi. 2005-yilgi saylovlarda Toni Bler yana g‘alaba qildi. Ammo vaziyat keskinlashib, 2007-yil iyunda u o‘z o‘rnini Gordon Braunga bo‘shatishga majbur bo‘ldi.
Buyuk Britaniya jahon siyosatini belgilashda uzoq yillar davomida bosh rolni o‘ynab keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa ahvol o‘zgardi. Endi birinchilik AQSHga o‘tdi. Buyuk Britaniyaning dunyo siyosatidagi o‘rni alohida 3 yo‘nalishda bajargan vazifasi bilan belgilanadigan bo‘ldi. Birinchidan, u xalqaro maydonda AQSH ning asosiy ittifoqchisiga aylandi va shu maqomda dunyoning muhim muammolarini hal etishda qatnashdi. Ikkinchidan, G‘arbning yetakchi davlatlaridan biri bo‘lib qolaverdi. Uchinchidan, hamdo‘stlik mamlakatlari boshlig‘i edi.
Buyuk Britaniya birdaniga AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylanib qolgani yo‘q. AQSH — SSSR munosabatlari keskinlashib borayotgan bir davrda Buyuk Britaniya bilan ittifoqchilik munosabati o‘rnatish AQSH uchun ham zarur edi. 1945-yilda ingliz — amerika moliya shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, AQSH Buyuk Britaniyaga 5 yil davomida 4,4 mlrd dollar qarz beradigan bo‘ldi. Buning evaziga Buyuk Britaniya AQSH tovarlari uchun boj miqdorini kamaytiradi. Natijada ingliz bozorlarida ham AQSH mavqeyi kuchaydi. Buyuk Britaniyaga «Marshall rejasi» ga ko‘ra ham katta miqdorda yordam ko‘rsatildi. Mustamlakalarda boshlangan milliy-ozodlik harakati mamlakat hukmron doiralarini tashvishga solib qo‘ydi.
Endi Buyuk Britaniya sobiq mustamlakalariga birin-ketin mustaqillik berishga majbur bo‘ldi. 1949-yilda NATOni tashkil etishda faol qatnashdi. Germaniya muammosi masalalarida AQSH bilan birgalikda hamkorlik qildi. 1950-yilgi Koreya urushida AQSH tarafida turib urushda qatnashdi. Buyuk Britaniya hududida AQSH harbiy bazasi vujudga keltirildi. 1954-yilda GFRni qurollantirish va uni NATOga tortish to‘g‘risida imzolangan Parij va London bitimlarining tashabbuskorlaridan biri bo‘ldi. 1957-yilda o‘z hududiga AQSHning o‘rta masofaga uchuvchi raketalarini joylashtirishga ruxsat berdi. Shu yilning 15-mayida vodorod bombasini sinovdan o‘tkazdi.
Tashqi siyosat
191
60-yillarning boshlariga kelib mustamlakachilik imperiyasi quladi. Bu hodisa Buyuk Britaniya oldiga Yevropa integratsiyasida ishtirok etish masalasini qo‘ydi. Buyuk Britaniya ayni paytda 1963-yilda yadro qurollari sinovini qisman taqiqlash to‘g‘risidagi shartnomani ishlab chiqishda qatnashdi. AQSHning Vetnamga qarshi urushini qo‘llab-quvvatladi. 1966-yilda Buyuk Britaniya Avstraliya, Yangi Zelandiya, Malayziya va Singapur bilan birlashgan qurolli kuchlarni — ANZYUS (Osiyo — Tinch okean kengashi) ni tuzish to‘g‘risida bitim imzoladi.
1971-yilda «Umumiy bozor» ga kirish shartlari haqida bitim imzolandi.

1973-yilda esa uning a’zoligiga qabul qilindi. Ayni paytda AQSH va Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan yaxshi munosabatni saqlab qoldi. Jahon iqtisodi va siyosatida ilgarigidan kattaroq rol o‘ynay boshladi. Buyuk Britaniya quruqlikda, dengizda va havoda foydalanishga imkon beradigan strategik qurolga ega bo‘lishga intildi va bunga erishdi ham. M. Tetcher davrida AQSH bilan ittifoqchilik munosabatlarini kuchaytirishga har qachongidan ham katta e’tibor berildi. NATO oldidagi majburiyatlariga sodiq qoldi. Buyuk Britaniya manfaatlariga tahdid soluvchi davlatlararo muammolarda o‘ta keskinlik bilan harakat qildi. Masalan, 1982-yilning may oyida Argentina o‘z qo‘shinini Janubiy Atlantikadagi Maklend oroliga tushirganida shunday qilindi. Bu orol asli Argentinaga qarashli bo‘lib, bir vaqtlar Buyuk Britaniya uni o‘z imperiyasi tarkibiga qo‘shib olgan edi.

Buyuk Britaniya orolga o‘z qurolli kuchlarini yubordi va u yerda bayrog‘ini qayta tikladi. M. Tetcher Yevropada mamlakatning rahbarlik rolini tiklashga zo‘r berib harakat qildi. «Umumiy bozor» da deyarli har bir masalada o‘zining alohida fikriga ega bo‘ldi.

Chunonchi, Yevropada yagona pul birligi (yevro)ni joriy etishga qarshilik bildirdi. J. Meyjor hukumati AQSH ning Iroqqa qarshi harbiy harakatlarini qo‘llab-quvvatladi va unda Buyuk Britaniya ham ishtirok etdi.

1991-yilda Buyuk Britaniyaning Maastrix shartnomasiga qo‘shilishi bu davlat tashqi siyosatida Yevropa muammolarini birgalikda hal etish tomon jiddiy o‘zgarish yuz berganligining isboti bo‘ldi. 2002-yildagi AQSHning Afg‘onistonga urushida qatnashdi. AQSH bilan birgalikda Iroqqa o‘z qo‘shinlarini yubordi. Terrorizmga qarshi kurashdi. Bunga javoban 2005-yil iyunda Buyuk Britaniyada qator portlashlar o‘tkazildi. 60 dan ortiq kishi halok bo‘ldi. Politsiya nazorati kuchaytirildi. Bugungi kunda ham Buyuk Britaniya buyuk davlatlardan biri sifatida xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

1991-yilda Buyuk Britaniya va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabat o‘rnatildi. 1993-yilning 17—19-iyun kunlari Buyuk Britaniya qirolichasining qizi malika Anna O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mamlakatimiz bilan, xalqimiz turmush tarzi bilan tanishdi. Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklarini ziyorat qildi.

Buyuk Britaniya — O‘zbekiston munosabatlari

Shu yilning 15-oktabrida esa Buyuk Britaniya tashqi va hamdo‘stlik ishlari bo‘yicha davlat vaziri D. Xog rasmiy tashrif bilan yurtimizga keldi. Muzokaralardan so‘ng ikki davlat o‘rtasida madaniyat va ta’lim sohasida hamkorlik bitimi imzolandi. Shuningdek, ikkiyoqlama soliq olmaslik to‘g‘risida ham kelishuvga erishildi.

22—25-noyabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov Buyuk Britaniyaga rasmiy amaliy tashrif bilan bordi. Mamlakat qirolichasi Yelizaveta II, shuningdek, bosh vazir J. Meyjor bilan uchrashdi. Safar chog‘ida o‘zaro iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida shartnoma, o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risida hamda ikki davlat o‘rtasida havo yo‘li ochish haqida bitimlar imzolandi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mamlakatimizda oltin qazib olish korxonalarini qurish uchun 150 mln dollar ajratishga qaror qildi. Mashhur «Lonro» kompaniyasi bilan bitim tuzildi.

Bulardan tashqari, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida ham hujjat imzolandi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 50 dan ortiq Buyuk Britaniya va O‘zbekiston qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 1997-yildan O‘zbekiston Buyuk Britaniyaning RJ-85 samolyotlarini sotib ola boshladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari nimalardan iborat bo‘ldi?
2. Leyboristlarning «Kelajakka boqish» dasturining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Britaniya mustamlakachilik imperiyasi yemirilmasligi mumkin edimi?
4. Nega leyboristlar konservatorlar hukumatini boshqargan 1951—1964-yillar oralig‘idagi davrni «Bekor o‘tgan 13 yil» deb atadilar?

5. «Narx-navo va daromadlar siyosati»ning mazmunini tushuntirib bering.
6. Shimoliy Irlandiya muammosi haqida nimalarni bilib oldingiz?
7. «Tetcherizm» ning mazmunini izohlab bering.
8. M. Tetcher davrida ichki siyosatda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
9. Buyuk Britaniya tashqi siyosatidagi 3 yo‘nalish haqida so‘zlab bering.
10.Buyuk Britaniya va AQSH munosabatlarida o‘ziga xoslik nimalardan iborat?
11.Vaqtli nashrlardan Buyuk Britaniya — O‘zbekiston munosabatlariga doir ma’lumotlarni to‘plang.

JADVALNI TO‘LDIRING.

BUYUK BRITANIYA BOSH VAZIRLARI FAOLIYATI

Bosh vazirning ismi sharifi

Hokimiyatda turgan yillari

Dasturi va faoliyati

?

21-§. Fransiya

Ikkinchi jahon urushi Fransiyaga juda katta talafot yetkazdi. Okkupatsiya natijasida 1875-yilda tuzilgan Uchinchi Respublika barham topdi. Moddiy talafot 1440 mlrd frankni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi daromadga nisbatan 62 foiz, qishloq xo‘jaligi esa 50 foiz kamaydi. Frankning qiymati 6 baravar pasaydi. 100 mingdan ortiq mayda sanoat va savdo korxonalari sindi. Ishsizlar soni 600 mingdan ortdi.

Fransiya mustamlakachilik imperiyasi barham topa bordi. Hindixitoy uning nazoratidan chiqdi. Suriya va Livan mustaqillikka erishdi. Fransiya shu darajada kuchsizlangan ediki, u hatto o‘z mustaqilligini o‘zi tiklashga ham qodir emas edi. Uning mustaqilligi AQSH va Buyuk Britaniya tomonidan tiklandi. Mamlakat iqtisodiyoti AQSH ko‘rsatadigan yordamga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Fransiya tarixi quyidagi 3 davrga bo‘linadi.

1. Vaqtinchalik rejim davri (1944-yil sentabr — 1946-yillar). 2. To‘rtinchi Respublika davri (1946—1958). 3. Beshinchi Respublika (1958-yildan hozirgi kungacha) davri.

Vaqtinchalik rejim davri Fransiya mustaqilligi tiklanganidan to mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinguncha davom etgan. Bu davrda mamlakatni general Sharl de Goll boshchiligidagi muvaqqat hukumat boshqardi.

Sharl de Goll «Ozod Fransiya» tashkilotining rahbari edi. 1945-yilning oktabr oyida mamlakat yangi Konstitutsiyasini tayyorlovchi Ta’sis Majlisiga saylov o‘tkazildi. Saylovda asosan 3 ta siyosiy partiya (Fransiya Kommunistik Partiyasi, Fransiya Sotsialistik Partiyasi va Xalq Respublikachilar Partiyasi) eng ko‘p ovoz oldi. Yangi tuzilgan hukumatni yana de Goll boshqardi. Yangi Konstitutsiya loyihasi atrofida keskin kurash boshlandi.

Har uchala siyosiy partiya ham Fransiyaning parlament respublikasi bo‘lishi tarafdorlari edi. Sharl de Goll esa AQSH namunasidagi prezidentlik respublikasi uchun kurashdi. Biroq uning maqsadi amalga oshmadi. Bunga javoban u iste’foga chiqdi. Va, nihoyat, 1946-yilning 13-oktabrida mamlakat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Dekabr oyida esa kuchga kirdi. Shu tariqa Fransiyada To‘rtinchi Respublika vujudga keldi.

To‘rtinchi Respublika davrida mamlakatni hukumat boshqardi. Hukumat mamlakat iqtisodiyotini tiklash va uni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor berdi.

1948-yilning o‘rtalarida sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajasiga yetdi. Bu hol 1949-yilda iste’mol tovarlari taqsimoti tizimini bekor qilishga imkon berdi. Iqtisodiy rivojlanishning samarali choralaridan

To‘rtinchi Respublikaning qaror topishi

To‘rtinchi

biri milliylashtirishdir, deb o‘ylagan hukumat xususiy mulk egalaridan bir yirik korxonalarni va butun-butun sohalarni sotib oldi. Elektr stansiyalar, ko‘mir konlari, aviatsiya va sug‘urta kompaniyalari, Reno avtomobil zavodi va boshqalar shular jumlasidan edi. Biroq ishlab chiqarish o‘sishi sur’ati GFR va Italiyaga nisbatan past bo‘ldi. Fransiya tashqi siyosatida Yevropa integratsiyasi masalasi katta o‘rin tutdi. U NATOga a’zo bo‘lib kirdi. Fransiyaning tashabbusi bilan 1951-yilda «Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati» ga dastlabki qadam qo‘yildi. 1952-yilda Parijda «Yevropa mudofaa hamkorligi» haqida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma amalda GFRni qayta qurollantirish uchun yo‘l ochdi. 1955-yilda GFR NATOga qabul qilingach, bunga javoban SSSR 1944-yilda imzolangan sovet—fransiya shartnomasini bekor qildi.

Ayni paytda Fransiya o‘z tashqi siyosatida mustamlakachilik urushlarini davom ettirdi. Bu — Fransiya hukmron doiralari milliy-ozodlik harakati qudratini to‘g‘ri baholay olmaganligining oqibati bo‘ldi. Shuning uchun ham uni kuch bilan bostirishga urindilar. Chunonchi, 1946-yilning dekabr oyida o‘z mustaqilligini e’lon qilgan Vetnamga qarshi mustamlakachilik urushini boshladilar. 8 yil davom etgan bu urush 1954-yilda Fransiyaning mag‘lubiyati bilan tugadi.

Shu yili Jazoir xalqining milliy-ozodlik harakatini qonga botirish maqsadida urush harakatlarini boshladi. Jazoir amalda Fransiyaning okean orti o‘lkasiga aylantirilgan edi. Bu yerda 1 mln fransuz yashardi. Ular eng yaxshi yerlarga egalik qilardi. Jazoirlik fransuzlar bu mamlakatga mustaqillik berishga mutlaqo qarshi edilar. Qulayotgan Fransiya mustamlakachi imperiyasini saqlab qolish tarafdorlarining barchasi ular atrofiga to‘planishdi. Jazoirlik fransuzlarni Fransiyaning 1956-yilda Marokko va Tunisga mustaqillik berishga majbur bo‘lganligi ham tashvishlantirib qo‘ygan edi. 1954-yilda boshlangan urush — Jazoir xalqi ozodlik kurashiga qarshi urush — eng qonli va shafqatsiz urush bo‘ldi.

Ayni paytda urush mamlakat xazinasi bo‘shab qolishiga olib keldi. Shunday sharoitda Jazoirdagi fransuz harbiylari va mustamlakachi fanatiklar davlat to‘ntarishini amalga oshirish maqsadida isyon boshladi. Jazoirdagi fransuz armiyasi 250 ming kishini tashkil etardi. Isyonchilar de Gollni hokimiyatga qaytarishni talab etdilar. Ularning fikricha, de Goll Jazoirning Fransiyaga qaramligini saqlab qolishga qodir yagona shaxs edi. Fransiyaning boshqa aholisi uchun esa de Goll Fransiyani harbiy diktaturadan saqlab qoluvchi yagona shaxs edi.

Sharl de Goll hokimiyatga qaytish uchun o‘ziga favqulodda vakolatlar berilishi hamda konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazishga ruxsat etilishi shartlarini qo‘ydi. Fransiya Milliy Majlisi (parlamenti) bu shartlarga rozi bo‘ldi va 1958-yilning 1-iyunida de Goll hokimiyatni egalladi. Shundan so‘ng Milliy Majlis o‘z faoliyatini tugatdi. Shu tariqa To‘rtinchi Respublika ham barham topdi.

1958-yilning 28-sentabrida Fransiyada yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu — Fransiya tarixida Beshinchi Respublikaning vujudga kelishi ham edi. 21-dekabr kuni de Goll Prezident etib saylandi.

Yangi Konstitutsiya parlament huquqlarini chekladi va, aksincha, Prezident vakolatlarini kengaytirdi. Fransiya prezidentlik Respublikasiga aylandi. Butun hokimiyat deyarli Prezident qo‘lida to‘plandi. U davlat hamda ijrochi hokimiyat boshlig‘i, Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo‘mondoni ham edi. Prezident parlament qabul qilgan qonunlarni tasdiqlash va parlamentni tarqatib yuborib, yangi saylov belgilash huquqiga ega edi. Muhim masalalarni va o‘zi lozim topgan qonunlarni referendumga qo‘ya olardi. Ichki va tashqi siyosatga shaxsan rahbarlik qilar edi. Shunday qilib, mamlakatda de Gollning

shaxsiy hokimiyati o‘rnatildi va u o‘z oldiga Fransiyani tiklash vazifasini qo‘ydi. Shu maqsadda mamlakat iqtisodini modernizatsiyalash amalga oshirildi. Ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari keng joriy etildi. Sanoatning yangi tarmoqlari — atom, radio elektronika, kosmik texnologiya va raketa qurilishi vujudga keltirildi.

Modernizatsiyalash jadal sur’atlarda o‘tkazildi va u 60-yillarda nihoyasiga yetkazildi. Oqibatda Fransiya zamonaviy industrial davlatga aylandi. Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Buyuk Britaniyani ortda qoldirib, jahonda 5-o‘rinni mustahkam egalladi. Eksport ko‘paydi. Bu unga 60-yillarning o‘rtalariga kelib barcha qarzlaridan qutulish va qarz beruvchi davlatga aylanish imkonini berdi.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash ham nihoyasiga yetdi. Fransiya dehqonlari fermerlarga aylandilar. Mamlakat G‘arbiy Yevropada oziq-ovqat mahsulotlari eksporti bo‘yicha eng yetakchi davlatga aylandi.

Tashqi siyosatda 3 asosiy vazifa qo‘yildi. Ularning birinchisi Fransiyaning buyukligini tiklash, ikkinchisi — mamlakat mustaqilligini mustahkamlash va, nihoyat, uchinchisi — AQSHning Yevropadagi ta’sirini mumkin qadar bo‘shashtirish edi. De Goll 1960-yilda Fransiyani yadroviy davlatga aylantirish orqali uning mudofaa qudratini oshirdi. Ayni paytda mustamlakalarga mustaqillik berish yo‘lidan bordi.

1960-yilda Afrikadagi mustamlakalarga siyosiy mustaqillik berildi. Bu qit’a xaritasida 14 ta yangi davlat vujudga keldi. De Goll Jazoirni bundan buyon itoatda tutib turish mumkin emasligini tushunib yetdi. Shuning uchun ham Jazoir Milliy Ozodlik fronti bilan muzokara boshladi. Uning bu yo‘li o‘ta mustamlakachi kuchlar qarshiligiga uchradi. Biroq Fransiya armiyasi De Gollga sodiq qoldi. Natijada armiyada isyon boshlashga urinish barbod bo‘ldi.

1962-yilning 18-martida Jazoirga mustaqillik berish haqida bitim imzolandi. De Goll AQSHning Vetnamdagi agressiyasini qoraladi. 1966-yilda Fransiyani NATOning harbiy tashkilotidan chiqardi. AQSHning Fransiya hududidagi harbiy bazasini tugatishga erishdi. YEIHga Buyuk

Britaniyaning a’zo qilinishiga qarshi chiqdi. Chunki de Goll Buyuk Britaniyani Yevropada AQSH ta’sirini o‘tkazuvchi vosita, deb hisoblardi. GFR bilan yaqinlashish yo‘lini tutganning dushmani bo‘lib qolaverdi.

1968-yilning may oyida mamlakatda siyosiy inqiroz yuz berdi. Inqiroz Parij talabalarining namoyishidan boshlandi. 7-may kuni talabalar ta’lim tizimini tubdan qayta qurish, ta’lim tizimi xarajatlarini oshirish va stipendiyalarni to‘lash talabi bilan namoyishga chiqqan edilar. Kasaba uyushmalari talabalarni qo‘llabquvvatladi. Talabalar universitet binosini egallab oldilar. O‘ta radikal va o‘ta so‘l kuchlar esa talabalarni Yelisey saroyini ham egallab olish uchun gij-gijlay boshladilar.

Oqibatda hukumat namoyishchilarga qarshi kuch ishlatdi. 3 mingdan ortiq talaba yarador qilindi va hibsga olindi. 13-may kuni esa yuz minglab parijliklar de Goll tartibiga qarshi namoyish o‘tkazdilar. Mamlakatda 4 hafta davom etgan umumiy ish tashlashlar boshlandi. Ularda qariyb 10 mln kishi ishtirok etdi.

Hukumat kasaba uyushmalarining ish haqi, nafaqalarni oshirish, ish haftasini qisqartirish kabi talablarini qondirdi. Iyun oyi oxirida ishchilar ish joylariga qaytdilar. Shu tariqa mamlakatda siyosiy vaziyat barqarorlashtirildi.

Xo‘sh, may inqirozining sabablari nima edi?

Birinchidan, mamlakat mulkdorlari orasida iqtisodiyotga davlatning qattiqqo‘llik bilan aralashuvidan norozilik o‘zining yuqori nuqtasiga yetgan edi.

Ikkinchidan, kasaba uyushmalari mehnat munosabatlarida davlatning haddan tashqari vasiyligidan qutulishga intilayotgan edi.

Uchinchidan, mamlakatda uning barcha tabaqalari ham de Gollning AQSHdan uzoqlashish siyosatini ma’qullamas edi.

To‘rtinchidan, hukumat ijtimoiy sohalarga budjet xarajatlarini kamaytirib yuborgan edi. Bu hol jamiyatda chuqur norozilikni vujudga keltirdi. Shunday sharoitda ijtimoiy portlash yuz berishi muqarrar, jamiyatning qaysidir qatlami shu portlashni sodir etishi lozim edi. Bu portlashni talabalar sodir etdilar. Boshqa qatlam va siyosiy kuchlar esa talabalar noroziligidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urindilar. Shuning uchun ham may inqirozi oxir-oqibatda Fransiya milliy qahramoni, mamlakat Prezidenti de Gollni iste’fo berishga majbur etdi. 1969-yilning aprel oyida de Goll siyosatdan ketdi. U 1970-yilda 80 yoshida vafot etdi.

1969-yilning iyunida bosh vazir lavozimida ishlayotgan J. Pompidu mamlakat Prezidenti etib saylandi.

U saylovda de Goll partiyasi — «Respublikani himoya qilish ittifoqi»ning nomzodi sifatida qatnashdi. J. Pompidu ayni paytda de Gollning eng yaqin

Fransiya keyingi yillarda May inqirozi

safdoshlaridan biri ham edi. J. Pompidu siyosatda o‘zi tanlagan yo‘lni «vorislik va muloqot», deb atadi. Bu iboraning birinchisi de Goll siyosatining davom ettirilishini, ikkinchisi esa muxolifatchi kuchlar bilan ham hamkorlik qilishni anglatar edi.

Ichki siyosatda J. Pompidu davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini kamaytirdi. Biroq ijtimoiy himoya sohasi bo‘yicha qonunchilikni kuchaytirdi. Tashqi siyosatda «muloqot» tamoyiliga amal qildi. Ya’ni AQSH bilan yaqinlashish boshlandi. 1973-yilda Buyuk Britaniyaning YEIH a’zoligiga qabul qilinishiga qarshilik qilmadi. Ayni paytda Fransiyaning tashqi masalalarda mustaqil siyosat yuritish yo‘liga sodiqlikni saqlab qoldi.

1974-yilda J. Pompidu vafot etdi. «Fransiya demokratiyasi uchun ittifoq» (FDUI) partiyasi nomzodi V. Jiskar d’Esten yangi 7 yillik muddatga Prezident etib saylandi. Bu davrda mamlakatdagi siyosiy kuchlar va mamlakatda 4 ta yirik siyosiy partiya faoliyat ko‘rsata boshladi. Sobiq degollchilar va o‘ng kuchlar «Respublikani quvvatlash birlashmasi» (RQB) partiyasiga birlashdilar.

Avvalgi partiyalardan Sotsialistik va Kommunistik partiyalar o‘zlarini saqlab qoldilar. Bu partiyalarning 2 tasi (FDUI va RQB) o‘nglar, 2 tasi esa (FSP va FKP) so‘llar deb atala boshlandi.

Yangi Prezident d’Esten inqiloblarsiz, islohotlar yo‘li bilan «ilg‘or liberal jamiyat» qurish g‘oyasini ilgari surdi. Uning prezidentligi davrida minimal ish haqi eng ko‘p darajada oshirildi. Saylovda qatnashish yoshi 20 dan 18 yoshga tushirildi.

1981-yilgi prezidentlik saylovida Sotsialistik partiya nomzodi F. Mitteran (1916—1996) g‘alaba qozondi va mamlakatni 14 yil boshqardi. So‘l kuchlar hukumati saylovchilarga bergan va’dalarini bajarish maqsadida qator islohotlar o‘tkazdilar. Chunonchi, ish haqlari oshirildi; ishsizlik va ko‘p bolali oilalarga yordam ko‘paytirildi, nafaqa va pensiyalar miqdori oshirildi. Yirik sarmoyalarga solinadigan soliq miqdori ko‘paytirildi. Ish haftasi 39 soatga keltirildi. Pul to‘lanadigan yillik mehnat ta’tili 5 haftaga uzaytirildi. 36 bank va metallurgiya, elektronika, kimyo, samolyotsozlik, harbiy sanoat sohalarini milliylashtirishga kirishildi. Umummilliy davlat organlari va vakolatlari qisqartirildi. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini kengaytirish boshlandi.

Biroq, bu tadbirlarni amalga oshirishda tez orada mablag‘ tanqisligiga duch kelindi. Natijada hukumat islohotni to‘xtatishga va qattiq iqtisod siyosatiga o‘tishga majbur bo‘ldi. Hayot ortiqcha milliylashtirish ham yaxshi samara bermasligini isbotladi. Hukumatning noizchil siyosati jamiyatda o‘ta millatchi kuchlarning ta’siri ortishiga olib keldi. Ular «Milliy front» (MF) ga birlashdilar. Bu tashkilot irqiy va milliy kamsitishni avj oldirdi. «Fransiya — fransuzlar uchun» degan shiorni zo‘r berib targ‘ib etdilar. Ular boshqa mamlakatlardan Fransiyaga ishchi kuchi kelishining oldini olish, mamlakatda ishlayotgan afrikaliklarni chiqarib yuborishni talab eta boshladilar.

1986-yildagi parlament saylovida MF hatto

35 ta deputatlik o‘rnini ham egalladi. Shunday sharoitda sotsialist F. Mitteran o‘ng partiya — RQB Lideri J. Shirakni bosh vazir etib tayinladi. Shu tariqa so‘l prezident bilan o‘ng bosh vazirning odatdan tashqari o‘ziga xos faoliyat ko‘rsatishi boshlandi. J. Shirak hukumati milliylashtirilgan korxonalarni egalariga qaytara boshladi. Yirik sarmoyaga solinadigan soliqni kamaytirdi. Immigratsiyani chekladi. Tashqi siyosatda yagona Yevropani vujudga keltirish siyosatini davom ettirdi. 1991-yilda Maastrixt shartnomasining imzolanishida Fransiyaning xizmati katta bo‘ldi.

1995-yilning 7-may kuni o‘tkazilgan prezidentlik saylovida J. Shirak g‘alaba qozondi. 1997-yilda o‘tkazilgan parlament saylovida esa so‘l partiyalar g‘alaba qozondi. Bosh vazir lavozimini Sotsialistik partiya vakili egalladi. Yana o‘nglar bilan so‘llarning o‘ziga xos odatdan tashqari birgalikda faoliyat ko‘rsatishi boshlandi.

Fransiya hukumati ichki siyosatda neokonservatizm yo‘lidan qat’iy bormoqda. J. Shirak prezidentlik muddatini 7-yildan 5-yilga tushirish haqida qonun qabul qilinishiga erishdi. 2007-yil may oyidagi saylovlar natijasida N. Sarkozi prezidentlik lavozimini egalladi va ko‘p o‘tmay sohalarni rivojlantirish bo‘yicha 16 ta komissiya tuzdi. Tashqi siyosatda Yevropaning tobora birlashuvi uchun intilmoqda. 2007-yil may oyidan boshlab N. Sarkozi mamlakat Prezidentidir.

Bugungi Fransiya dunyoning eng taraqqiy etgan 7 industrial davlatidan biri. Aholisining katta qismi shaharda yashaydi. Qishloq xo‘jaligi bilan aholining atigi 6 foizi shug‘ullanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Aholisining 85 foizi yollanma mehnat vakillari (ishchilar, xizmatchilar, texnik ziyolilar)dan iborat. Fransiya o‘zining ilmiy-texnika yutuqlari — zamonaviy aviatsiya, o‘ta tezyurar poyezdlari, mashhur «Reno», «Sitroyen» va «Pejo» avtomobillari, ilg‘or kemasozlik sanoati bilan haqli sur’atda faxrlansa arziydi.

1992-yil fevral oyida Fransiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1993-yil oktabrida Prezident Islom Karimov rasmiy vizit bilan Parijda bo‘ldi. Tashrif davomida bir qancha shartnoma va bitimlar imzolandi. Jumladan, ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risidagi bitim respublikamizda neft, yengil sanoat hamda banklar faoliyati sohalarida samarali hamkorlik sari yo‘l ochdi. «Ron pulen» kimyo firmasi, «Kredi kommersial de frans», «Nasional de pari» banklari, «El-akita» firmasi va boshqalar

Fransiya — O‘zbekiston munosabatlari

Fransua Mitteran.

Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi qurilishini mablag‘ bilan ta’minlashda katta hissa qo‘shdi.

Undan tashqari respublikamiz chorvadorlari, sog‘liqni saqlash xodimlari (Bofur-ipsen internatsional dorichilik shirkati bilan), arxeologlari, rassomlari, teatr arboblari, adabiyotchilar fransiyalik hamkasblari bilan yaqin aloqa o‘rnatganlar. Fransiyada «Temuriylar» nomli jurnal nashr etib kelinadi.

1994-yil aprelda Fransiya Prezidenti F. Mitteran rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Bu tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tardi.

1996-yil aprelida Parijda YUNESKO rahbarligida buyuk bobokalonimiz Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bag‘ishlangan tantanalar bo‘lib o‘tdi. Bu sohadagi ulkan xizmatlari uchun YUNESKO Bosh direktori F. Mayor «Do‘stlik» ordeni, Temuriylar tarixi bilimdoni L. Keren «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Tantanalar jarayonida I. A. Karimov Fransiya Prezidenti Jak Shirak bilan uchrashdi va ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarning kelajagi belgilab

olindi.
Fransiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida yana bir qator shartnomalar imzolangan bo‘lib, o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Fransiya uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Fransiyada 5 marta Respublika e’lon qilinganligini qanday izohlaysiz?
3. Nima uchun 1946-yilda de Goll mutlaq hokimiyat egasi bo‘la olmadi?
4. To‘rtinchi Respublika qay tariqa vujudga keldi? Bu davrda Fransiya ichki va tashqi siyosatidagi asosiy voqealarni qayd eting.
5. 1958-yil may inqirozi qay tariqa yuz berdi va qanday oqibatlarga olib keldi?
6. De Gollning shaxsiy hokimiyat tartibi qay tariqa barham topdi va uning sabablari nimalardan iborat edi?
7. De Goll tashqi siyosatidagi 3 asosiy vazifani qayd eting va ular qay tariqa amalga oshirildi?
8. Fransiyada o‘nglar va so‘llarning o‘zaro hamkorlikda kelishib, siyosat yuritish fakti nima bilan izohlanadi?
9. Vaqtli nashrlardan Fransiya — O‘zbekiston munosabatlariga doir ma’lumotlarni to‘plang.

JADVALNI TO‘LDIRING. FRANSIYA PREZIDENTLARI FAOLIYATI

Prezidentlar	Hukmronlik vaqti	Mamlakat uchun qilgan ishlari
?		

22-§. Germaniya Federativ Respublikasi

Germaniya Ikkinchi jahon urushida tor-mor etildi. Uning hududi deyarli kultepaga aylandi. Sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaning uchdan bir qismiga tushib qoldi. Sharqiy Prussiyaning SSSRga berilishi, Polsha chegarasining Oder va Neyse bo‘ylab o‘tishi oqibatida bu hududlarda yashovchi 9 mln dan ortiq nemislar Germaniya ichkarisiga ko‘chirildi. Bu hol uningsiz ham og‘ir bo‘lgan uy-joy muammosini yanada keskinlashtirib yubordi. Mamlakat sanoat korxonalari g‘olib davlatlar uchun to‘lanishi zarur bo‘lgan tovon hisobiga ko‘chirib ketila boshlandi.

Aholi turmush darajasi nihoyatda yomonlashdi. Eng og‘iri, Germaniya davlat mustaqilligini yo‘qotdi. Uning hududi 4 g‘olib buyuk davlat (AQSH, SSSR, Buyuk Britaniya va Fransiya) okkupatsiya zonalariga bo‘lindi. Hokimiyat g‘olib davlatlar harbiy ma’muriyati qo‘liga o‘tdi. Bu ma’muriyatni okkupatsiya qiluvchi qo‘shin bosh qo‘mondoni boshqardi.

Butun Germaniyaga taalluqli masalalarni esa to‘rt Bosh qo‘mondondan iborat Nazorat Kengashi hal etardi. Kengash qarori konsensus asosida qabul qilinardi.

1945—1949-yillar Germaniya tarixida okkupatsiya tartibi hukm surgan davr hisoblanadi. Shunday sharoitda ham Germaniyada demokratik hayot tiklana boshladi. Germaniya taqdiriga befarq qaramaydigan siyosiy kuchlar yangi sharoitda jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun kurashdilar. Dastlab fashistlar qattiq ta’qib etgan ikki siyosiy partiya — Germaniya Kommunistik partiyasi va Germaniya Sotsial-demokratik partiyasi — yashirin sharoitda ishlash holatidan chiqdi.

Ayni paytda yangi siyosiy partiyalar ham vujudga keldi. Chunonchi, 1945-yilda Xristian demokratlar ittifoqi (XDI) tuzildi. Unga mashhur siyosiy arbob K. Adenauer rahbarlik qildi. Keyinroq XDI ning Bavariya bo‘limi — Xristian sotsialistlar ittifoqi (XSI) tuzildi. Xristian demokratlar fashizmga qarshi ekanliklarini, Germaniyani qudratli mustaqil davlatga aylantirish bosh maqsadlari ekanligini bayon qildilar. Ayni paytda fuqarolar farovonligini ta’minlash, ishchilarga korxonalarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini yaratish haqida va’da berdilar.

Bular fuqarolarning ko‘pchiligi, ayniqsa, dindorlar tomonidan qo‘llabquvvatlandi. G‘arbiy okkupatsiya zonasida «Erkin demokratik partiya» (EDP) ham tuzildi. XDI—XSI va GSDP eng yirik partiyalarga aylandi.

Sharqiy okkupatsiya zonasida (SSSR zonasi) 1946-yilda GKP va GSDP birlashdi. Bu yangi partiya Germaniya yagona sotsialistik partiyasi deb ataldi.

Okkupatsiya tartibi davrida, ayni paytda, Birlashgan nemis kasaba uyushmasi (BNKU) ham tuzildi.

Ikkinchi jahon urushining Germaniya uchun oqibatlari

Germaniya 1945—1949-yillarda

201

«Sovuq urush» ning boshlanishi Germaniya taqdiriga ta’sir etmay qolmadi. Potsdam konferensiyasi qarorlari bajarilmadi. Germaniya muammosi AQSH va SSSR manfaatlari keskin to‘qnashgan muammoga aylandi. Bu to‘qnashuv Germaniyaning bo‘linib ketishini muqarrar qilib qo‘ydi. Yangi sharoitda AQSH Germaniyani G‘arbning ishonchli tayanchiga aylantirishga intildi. Shuning uchun ham SSSRning kechagi ittifoqchilari Germaniyaning iqtisodiy qudratini susaytirish maqsadidan voz kechdilar.

G‘arbiy Germaniyadan tovon evaziga sanoat korxonalarini olib chiqib ketish to‘xtatildi. (U atigi 5 foizga bajarilgan edi, xolos.) «Marshall rejasi» ishlab chiqilayotganida AQSH unga G‘arbiy okkupatsiya zonalarini qo‘shishga muvaffaq bo‘ldi. Chunki, endi G‘arb uchun iqtisodiy jihatdan qudratli Germaniya nihoyatda zarur edi.

Tovon to‘lashning to‘xtatib qo‘yilishi SSSR va uning kechagi ittifoqchilari o‘rtasidagi munosabatni yanada keskinlashtirdi. Buning ustiga, G‘arb davlatlari o‘zlarining okkupatsiya zonalarini birlashtirdilar va unda 1948-yilning 20-iyunida separat pul islohoti o‘tkazdilar.

Reyxs marka o‘rniga nemis markasi joriy etildi. G‘arbiy okkupatsiya zonasida yashayotgan aholining har biriga eski 60 markani yangi 60 markaga aylantirishga ruxsat etildi. Qolgan har 100 eski markani 6,5 yangi markaga almashtirish mumkin edi.

Buning natijasida muomaladagi pul hajmi kamayishiga erishildi. Bu esa, o‘z navbatida, inflatsiyani to‘xtatish imkonini berdi. Shu tariqa iqtisodiy hayotni tiklash uchun zarur sharoit yaratildi. Pul islohoti o‘tkazilishiga javoban SSSR G‘arbiy Berlinni qamal qildi. Shu bahonada G‘arb davlatlari o‘z zonalarida Germaniya davlatini tezroq tuzishga harakat qildilar.

1948-yilning sentabr oyida o‘lka parlamentlari saylagan parlament kengashi chaqirildi. Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu Konstitutsiya 1949-yil 8-may kuni qabul qilindi. Konstitutsiyani hokimiyat tasdiqlagach, 23-maydan boshlab kuchga kirdi.

Konstitutsiya G‘arbiy Germaniyani demokratik, federativ davlat, deb e’lon qildi. Davlat hududi 10 ta o‘lkaga bo‘lindi. Ularning har biri o‘z Konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hamda sud hokimiyatlariga ega edi.

Boshqarish shakliga ko‘ra GFR parlament Respublikasi bo‘lib qoldi. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat (parlament) Federal parlament deb ataldi. U ikki palatali edi. Quyi palata — bundestag 4 yilga saylangan. Yuqori palata — bundesrat esa o‘lka parlamentlari tayinlaydigan vakillardan iborat bo‘ldi. Bonn shahri mamlakat poytaxti deb belgilandi. Davlat boshlig‘i prezident edi. Biroq uning huquqlari cheklandi. U davlat va millat birligi ramzi bo‘lib qoldi, xolos. 1949-yilning avgustida bundestagga birinchi saylov o‘tkazildi. Unda XDI—XSI va GSDP deyarli bir xil o‘rin egalladilar. 7-sentabr kuni bundestag GFR Konstitutsiyasini tasdiqladi. 20-sentabr kuni XDI—

Germaniyaning bo‘linib ketishi

202

XSI partiyasi EDP bilan koalitsion hukumat tuzdi. Mashhur siyosiy arbob, XDI nomzodi 75 yoshli K. Adenauer kansler etib saylandi.

Uzoqni ko‘ra biluvchi, voqelikni real baholay oluvchi, dono siyosatchi K. Adenauer Yevropa integratsiyasi yo‘lida juda katta ish qildi. Germaniyaning bu integratsiyada o‘z o‘rni bo‘lishiga erishdi. Germaniya kelajagini G‘arb dunyosi bilan uzviy bog‘liq ekanligini ham hammadan ko‘proq va yaxshiroq angladi. 21-sentabr kuni GFRning tashkil topganligi rasman e’lon qilindi.

SSSR okkupatsiya zonasi bo‘lgan Sharqiy Germaniyada ham yangi davlat tuzishga zo‘r berib kirishildi. Bu davrda Sharqiy Germaniyada Germaniya Yagona Sotsialistik partiyasi, XDI, Liberal-demokratik partiya hamda Dehqonlar partiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda edi.

Bu partiyalar va jamoat tashkilotlari Nemis Milliy Kengashini sayladilar. Bu Kengash sessiyasi 1949-yilning 7-oktabrida Sharqiy Germaniya hududida Germaniya Demokratik Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi.

Hukmron partiya (GYASP) syezdi 1952-yilda GDRda sotsializm asoslarini qurish haqida qaror qabul qildi. Afsuski, bu sovet namunasidagi sotsializm edi. Shu tariqa Germaniyaning hududiy bo‘linishi sodir bo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay GFR AQSH ittifoqchisiga, GDR esa SSSR ittifoqchisiga aylandi.

K. Adenauer hukumati ichki siyosatining bosh vazifasi mamlakat iqtisodiyotini tezroq tiklash edi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida iqtisodiyotning «Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligi» modeli tanlandi. Bu model markazida tadbirkorning shaxsiy tashabbusi va erkin raqobat turar edi. Davlatning vazifasi asosan xususiy xo‘jalik subyektlarining faoliyat yuritish shakli va qoidalarini belgilab berishdan va ularga qanchalik amal qilinayotganligi ustidan nazoratni ta’minlashdan iborat bo‘lardi.

Ayni paytda bu model davlatning, birinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat yuritishini ham nazarda tutar edi. Hukumat tanlagan yo‘l GFR iqtisodiy taraqqiyotining gurkirab rivojlanishining asosiy omili bo‘ldi.

Ikkinchidan, AQSH hukumati va sarmoyadorlari GFRga katta iqtisodiy yordam ko‘rsatdilar. Chunonchi, birgina «Marshall rejasi» doirasida 1948—1949-yillarda 1,4 mlrd dollar miqdorida yordam ko‘rsatildi. Bu mablag‘ korxonalarni ilg‘or texnika va texnologiya bilan qayta ta’minlash imkonini berdi.

Uchinchidan, harbiy xarajatlarning deyarli yo‘qligi iqtisodiyotga zarur mablag‘ sarflashga imkon berdi.

Va nihoyat, nemis xalqi yuksak vatanparvarlik va tadbirkorlik xislatlarini namoyon etdi. Bu omillar tez orada o‘z samarasini ko‘rsatdi. 1950-yilning

Germaniya Demokratik Respublikasining tashkil etilishi

GFRning ichki va tashqi siyosati

oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishi 1936-yilgi darajaga yetdi. 1960-yilga kelib esa 2,5 baravar o‘sdi. 1950—1975-yillarda gaz ishlab chiqarish 60 mln kub metrdan 19,7 mlrd kubmetrga, po‘lat 14 mln tonnadan 54 mln tonnaga, avtomobil 306 mingdan 4 mln donaga o‘sdi. Qishloq xo‘jaligi ham yuksak sur’atlarda rivojlandi. G‘alla hosildorligi 40 sentnerdan oshdi. 50-yillarning o‘rtalariga kelganda GFRda oziq-ovqat muammosi to‘la hal etildi. 1950—1964-yillar oralig‘ida jami milliy mahsulot 3 baravar ko‘paydi.

GFR butun Germaniyaning urushdan oldingi darajasidan ko‘p mahsulot ishlab chiqardi. Eksportning importdan doimo yuqori bo‘lishi katta miqdorda valuta zaxirasi to‘plashga imkon berdi. Bu borada dunyoda AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘ringa chiqdi. Flin, Tissen, Siteks va boshqalarning harbiysanoat konsernlari o‘z kapitallarini urush davridagiga nisbatan 3—4 baravar ko‘paytirdilar. GFR iqtisodiyotidagi bu mislsiz o‘zgarishlar «german mo‘jizasi» deb nom oldi.

Ayni paytda hukumat kuchli ijtimoiy siyosat ham yuritdi. Natijada mehnatga qobiliyatli aholi amalda ish bilan deyarli to‘la ta’minlandi. Korxona ishchilariga arzon narxli — xalq aksiyalari sotildi. Xalq turmush darajasi keskin yaxshilandi.

K. Adenauer hukumati tashqi siyosatda G‘arb davlatlari, birinchi navbatda, AQSH bilan yaqinlashish yo‘lidan bordi. 1951-yilda uning hududida okkupatsiya tartibi bekor qilindi. 1954-yilda GFRga 12 diviziya, harbiy aviatsiya va harbiy flotning cheklangan kuchlaridan iborat

armiyaga ega bo‘lishga ruxsat etildi. Shu tariqa harbiy sanoat oyoqqa tura boshladi.
1955-yilda GFR NATOga a’zo bo‘ldi. 1956-yilda bundesverni (GFR armiyasini) «Qurollarning yangi turlari bilan qurollantirish» hamda «Umumiy majburiy harbiy xizmat haqida» qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar bundesverga NATOning zarbdor kuchiga aylanishiga imkon berdi. 1958-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) ga a’zo bo‘ldi. YEIHga a’zo bo‘lgan barcha davlatlar sanoat mahsulotining 44 foizini ishlab chiqardi.
K. Adenauer hukumati ayni chog‘da Sharqqa nisbatan tan olmaslik siyosatini qo‘lladi. Yevropada Ikkinchi jahon urushidan keyin tarkib topgan chegara o‘zgarishlarini tan olmadi. GDRni sovet okkupatsiyasi zonasi, deb hisobladi. 1955-yilda e’lon qilingan «Xalshteyn doktrinasi» ga ko‘ra, GFR GDR ni tan olgan har qanday davlat bilan diplomatik aloqani to‘xtatishini ma’lum qildi.
Bu qoida faqat SSSRga tatbiq etilmadi. Chunki K. Adenauer SSSR bilan munosabatning o‘ta yomonlashuvi GDRni GFRga qo‘shib olishga imkon bermasligini yaxshi tushunar edi. 1961-yilning avgust oyida GDR hukumati Berlin shahrining sharqiy qismini g‘arbiy qismidan ajratib turuvchi devor qurishga majbur bo‘ldi. Bu devor tarixga «Berlin devori» nomi bilan kirdi.

Bu davrda GDRda sotsialistik jamiyatning inqirozi boshlangan edi. Mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olonlar ham ko‘tarildi. Ular GDR hududiga joylashtirilgan sovet armiyasining kuchi bilan bostirildi.
Ko‘plab aholi G‘arbiy Berlin orqali GFRga qochib o‘ta boshladi. Buning oldini olish maqsadida GDR rahbarlari, yuqorida qayd etilganidek, «Berlin devori» ni qurganlar. Bu hodisa har ikki nemis davlati o‘rtasidagi munosabatni yanada keskinlashtirdi.
K. Adenauer siyosatida norozilik kuchaydi. Natijada 1963-yil oktabrda 87 yoshli davlat rahbari iste’foga chiqdi. Uning o‘rnini Lyudvig Erxard egalladi. Lekin iqtisodda pasayish ro‘y berdi. Yaponiya GFRni taraqqiyotda quvib o‘tdi. Norozilik kuchayib, 1966-yil oktabrda Erxard iste’fo berdi.
20 yillik hukmronlikdan so‘ng 1969-yilda XDI—XSI partiyasi parlament saylovida mag‘lubiyatga uchradi va hokimiyat jilovini topshirishga majbur bo‘ldi. GSDP EDP (Erkin demokratlar partiyasi) bilan hamkorlikda yangi hukumat tuzdi. Sotsial-demokrat V. Brandt (1913—1992) kansler lavozimini egalladi va uni 1974-yil mayigacha boshqardi. Xo‘sh, XDI—XSI saylovda nega mag‘lubiyatga uchradi? G‘arb demokratiyasi sharoitida bir partiyaning yengishi, ikkinchi bir partiyaning g‘alaba qozonishi tabiiy hol, albatta. Biroq har qanday mag‘lubiyatning sabablari bo‘ladi.
1966—1967-yillardagi ortiqcha ishlab chiqarish oqibatida ro‘y bergan iqtisodiy inqiroz ishsizlikni keltirib chiqardi. Chetdan arzon ishchi kuchi ko‘plab jalb etilgan bir sharoitda ishsizlikning ro‘y berishi vaziyatni yanada chigallashtirdi. U mahalliy ishchilarni qiyin ahvolga solib qo‘ydi.
Boshlangan inflatsiya esa iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Buning ustiga, XDI—XSI ayrim rahbarlarining urush yillarida fashistlar bilan hamkorlik qilganligi hamda partiya yetakchi rahbarlarining korrupsiya bilan shug‘ullanganligining aniqlanishi partiyaning obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi.
Ayni paytda GFRning dunyoda iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlatlardan biriga aylana borishi bu davlat tashqi siyosatini o‘zgartirishini talab etmoqda edi. O‘z qo‘shnilari bo‘lgan Sharqiy Yevropa davlatlarini tan olmaslik — bu reallik bilan hisoblashmaslik edi. Chunki 60-yillarda Sharqiy Yevropada tub o‘zgarishlar bo‘lishi uchun hali sharoit yetilmagan edi.
Qolaversa, bu davrda Sharqiy Yevropa sotsialistik davlatlarida hukmron tartibni SSSR qattiq nazorat qilib turardi. 1968-yilda Chexoslovakiyaga Varshava shartnomasiga a’zo 5 davlat armiyasining kiritilishi buni yana bir bor isbotladi. Bunday sharoitda Sharqiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlarni eskicha davom ettirish mavjud keskinlikni yanada chigallashtirgan bo‘lar edi.

Binobarin, hayot GFRning tashqi siyosatida tub o‘zgarishlar qilishni talab etmoqda edi. XDI—XSI rahbariyati esa bunday o‘zgarish bo‘lishini

XDI—XSIning hokimiyatdan ketishi

aslo istamadi. Yuqorida qayd etilgan omillar XDI—XSIning hokimiyatdan ketishiga olib keldi.

GSDP bilan EDP tuzgan hukumat «Kichik koalitsiya hukumati» deb nom oldi. Hukumat «yangi sharqiy siyosat» ni amalga oshira boshladi. Unga ko‘ra, GFR Sharqiy Yevropa davlatlarini tan oldi.

1970-yilda SSSR, Polsha, Chexoslovakiya va 1972-yil dekabrda GDR bilan shartnomalar imzolandi. Ularda Ikkinchi jahon urushidan keyingi chegara o‘zgarishlari tan olindi.

GDRning tan olinishi katta jasorat edi. V. Brandt Germaniyaning qachonlardir birlashishiga ishonardi. Biroq bu birlashish tinch yo‘l bilan amalga oshishi zarur edi. 70-yillarda buning iloji yo‘q edi. O‘sha davr uchun birdan-bir to‘g‘ri yo‘l — davlatlarning tinch-totuv yashashi yo‘li edi. V. Brandt shu yo‘lni tanladi.

GDRning tan olinishi har ikki nemis davlati uchun BMTga yo‘l ochdi. Ular BMT a’zoligiga qabul qilindilar. «Kichik koalitsiya» GFR uchun ichki iqtisodiy vaziyat noqulay sharoitda hokimiyatga kelgan edi. Dastlab iqtisodiy beqarorlik kuchayib ketishining oldini olishga muvaffaq bo‘lindi.

Biroq 1974—1977-yillardagi xalqaro miqyosdagi iqtisodiy inqiroz GFR ni chetlab o‘tmadi. Mahsulot ishlab chiqarish sur’ati yiliga 2 foizga kamaya boshladi. Ishsizlar soni 3 mln ga yaqinlashdi. Aholi xarid quvvati pasaydi. Shunday sharoitda GSDP iqtisodiy hayotga davlatning aralashuvi lozimligi masalasini o‘rtaga qo‘ydi. V. Brandtning raqiblari uni iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmaslikda, harbiy xarajatlarni ko‘paytirishda, kommunistlar bilan yaqinlashishda aybladi. Natijada 1974-yil mayida u iste’fo berdi. Hokimiyatga GSDPning boshqa lideri G. Shmidt keldi va 1982-yil kuzigacha kanslerlik lavozimida turdi. 1980—1982-yillarda yana iqtisodiy inqiroz ro‘y berdi. Ayni paytda hukumat kuchli ijtimoiy himoya choralarini qo‘llashga harakat qildi. Biroq GSDP ittifoqchisi EDP bunga qarshi chiqdi. Bu partiya inflatsiyani kamaytirish maqsadida ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish zarur deb hisoblardi.

Ikki partiya o‘rtasidagi ixtilof ularni bo‘lib yubordi va 1982-yilda kichik koalitsiya hukumati tarqalib ketdi. Natijada XDI—XSI va EDP ittifoqi tuzildi. Bu ittifoq yangi hukumat tuzdi. Uni mashhur siyosatchi Gelmut Kol (1930-yilda tug‘ilgan) boshqardi.

80-yillarga kelib GDRni chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz chulg‘ab oldi.

Davlat budjeti taqchilligi yildan yilga o‘sdi.

Davlat qarzi 20 mlrd dollardan oshdi.

Jamiyatda totalitar tartib qaror topdi. GFR ga qochib o‘tuvchilar tobora ko‘payib bordi. 1989-yil birinchi yarmining o‘zida 350 ming kishi GFRga qochib o‘tdi. 7-oktabr — GDR tashkil topgan kun hukumatning rasmiy tadbirlariga qarshi namoyish kuniga aylandi. Shu tariqa GDRda inqilob

Germaniyaning birlashishi

Kichik koalitsiya hukumatining ichki va tashqi siyosati

boshlandi. 18-oktabr kuni davlat rahbari E. Xonekker iste’fo berdi. 9-noyabr kuni «Berlin devori» qulatildi.

1990-yilning 18-martida GDRda parlamentga o‘tkazilgan birinchi erkin saylovda XDS partiyasi g‘alaba qozondi. 1990-yilning 1-iyulida GDR hududida GFR markasi amal qila boshladi. 1990-yilning 3-oktabrida GDR ning GFRga qo‘shilishi haqidagi shartnoma

kuchga kirdi. Shu tariqa, 41 yildan so‘ng Germaniyaning birlashuvi tinch yo‘l bilan amalga oshdi. Bunda SSSR rahbariyati nemislarning yagona Germaniyaga birlashishga bo‘lgan intilishiga qarshilik ko‘rsatib bo‘lmaydi, deb hisoblashi ham katta rol o‘ynadi.

Germaniyaning birlashuvi xalqaro ahamiyatga molik voqea edi. Bu birlashuv XDI—XSI va EDP partiyalarining hamda kansler G. Kolning obro‘sini yanada oshirib yubordi.

G. Kol «birlashuv jarayonining otasi» degan nom oldi. G. Kol 18 yil davomida hukumatni boshqardi. Biroq 1998-yilgi parlament saylovida XDI—XSI mag‘lubiyatga uchradi. Buning asosiy sabablari — ishsizlar sonining ko‘payishi (ishga yaroqli har 10 nafar kishining bittasi ishsiz edi); hukumatning 3,2 mln kishi ish haqini 2 yil muddatga muzlatib qo‘yishga, shuningdek, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirishga qaror qilganligi edi. Ayni paytda yuqori doiralarda korrupsiyaga aloqadorlarning fosh etilishi, hatto G. Kolning o‘zi ham moliyaviy ko‘zbo‘yamachiliklarda ishtirok etganligi ham saylov natijalariga ta’sir etmay qolmadi. 1998-yilgi parlament saylovida GSDP g‘olib chiqdi. Sotsial-demokrat G. Shryoder kansler etib saylandi. 2002-yilgi saylovda ham u kanslerlik lavozimini qayta egalladi. Hokimiyatda barqarorlik vujudga kelib, 2005-yil noyabr saylovlarida GFR tarixida birinchi ayol — Angela Merkel kanslerlik lavozimiga keldi. Hozirgi davrda GFR dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biridir.

Yevropadagi eng yirik mamlakatlardan biri bo‘lgan Germaniya Federativ Respublikasiga Islom Karimovning 1993-yil aprel—may oylaridagi rasmiy safari davomida GFR Prezidenti R. fon Vayszekker, kansler G. Kol va boshqa ishbilarmonlar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Muzokaralar yakuniga ko‘ra Mablag‘ sarflash, uni birgalikda himoyalashga ko‘maklashish to‘g‘risida Shartnoma, Madaniy hamkorlik va ilmiy-tadqiqot jamg‘armasini tuzish haqida bitimlar imzolandi. Germaniyaning «Doyche bank AG», «Komersbank», «Kemikal bank AG», «Mersedes-Bens», «Villi-Bets» kabi bank va kompaniyalari bilan muntazam aloqalar davom etmoqda.

GFR — O‘zbekiston munosabatlari

Gelmut Kol.

Ikkala mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 76 mln dollarni tashkil etdi. 1995-yil aprelda GFR Prezidenti Roman Gersog O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

Germaniyaning moliyaviy yordami bilan Urganch mebelsozlik korxonasi qurildi. Undan tashqari, 90-yillarning oxirida 40 dan ortiq korxonaga nemis mablag‘i jalb etildi. Toshkent — Frankfurt telefon kanali ishga tushirildi. «Babnok» va «IMS» firmalari Farg‘onadagi to‘qimachilik korxonalari bilan hamkorlik qilmoqda. «ABD», «Germed» firmalari tibbiyot sohasida muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Germaniyaning «Mersedes-Bens» avtobuslari, «Zinger» tikuv mashinalari O‘zbekistonda juda mashhur bo‘lib ketdi. Germaniyaliklar O‘zbekiston xalq artisti M. Yo‘lchiyeva, Yu. Usmonova, Sh. Mirzayev va boshqalarning kuy-qo‘shiqlarini yaxshi kutib oldilar.

Shunday qilib, O‘zbekiston bilan GFR o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy va madaniy hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Germaniya uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Germaniya Federativ va Germaniya Demokratik Respublikalari qay tariqa tashkil topdi? O‘ylab ko‘ring-chi: Germaniyaning bo‘linib ketmasligi uchun AQSH va SSSR nimalar qilishi zarur edi?
3. Nima uchun GFR qisqa tarixiy muddat davomida iqtisodiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatidan biriga aylana oldi-yu, nega GDRda bu hodisa ro‘y bermadi?
4. Erkin demokratik partiya (EDP) ning GFR siyosiy hayotida o‘ynagan va o‘ynayotgan rolini tahlil eting.
5. GFR ning 1949-yil 23-mayda kuchga kirgan Konstitutsiyasi mazmuni

haqida so‘zlang va «parlament Respublikasi» tushunchasini izohlab bering.
6. Germaniyada navbatma-navbat hukmronlik qiluvchi XDI—XSI va GSDP tashqi siyosatini taqqoslang.
7. Germaniyaning birlashuvi qay tariqa yuz berdi?
JADVALNI TO‘LDIRING. GFR KANSLERLARI FAOLIYATINI YORITING
Kanslerlar Hokimiyatda turgan yili Mamlakat uchun qilgan ishlari
?

23-§. Italiya Respublikasi

Fashistik Italiya Ikkinchi jahon urushida fashistlar Germaniya ittifoqchisi sifatida qatnashdi. Biroq urushning oqibati Italiya uchun Germaniya va Yaponiyaga nisbatan o‘zgacharoq bo‘ldi. Buning sababi — Italiyaning 1943-yildayoq taslim bo‘lganligi, Mussolini fashistik dikraturasi ag‘darilganligi va yangi hukumat Germaniyaga qarshi urush e’lon qilganligi edi.

Ingliz-amerika qo‘shinlari Italiyani taslim bo‘lishga majbur etgan bo‘lsada, okkupatsiya tartibi o‘rnatmaganlar. Shunday qilib, urush italyan xalqi boshiga katta kulfatlar keltirdi. Chunonchi, Ikkinchi jahon urushi frontlarida 0,5 mln italiyalik askar halok bo‘ldi hamda bedarak yo‘qoldi. 3 mln kishi uy-joyidan ajraldi. 2 mln kishi ishsiz qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi 70 foizga, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi esa 40 foizga kamaydi.

Mamlakat milliy boyligining uchdan bir qismini yo‘qotdi. 1947-yil 10-fevralda imzolangan Parij tinchlik shartnomasiga ko‘ra, Italiya mustamlakalaridan mahrum bo‘ldi.

Mamlakat demokratik kuchlari Respublika uchun kurashdilar. Chunki bu davrda Italiyada Konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi hukmron edi. Qirol V. Emmanuel III Mussolinini qo‘llab-quvvatlab, monarxiya obro‘sini to‘kkan edi. Bu davrda 3 ta siyosiy partiya mavjud edi. Bular Xristan-demokratik (XDP), Sotsialistik (ISP) va Kommunistik (IKP) partiyalar edi. Ular fashizmga qarshi kurashda faol ishtirok etganliklari tufayli katta obro‘ qozongan edilar. Ayni paytda XDP ularning ichida eng ta’siri kuchli partiya edi. Shuning uchun ham u parlament saylovida eng ko‘p ovoz oldi va koalitsion hukumatni boshqardi. Qirol V. Emmanuel III 1946-yilda o‘g‘li Umberto II foydasiga taxtdan voz kechgan bo‘lsa-da, bu hodisa nurab bo‘lgan monarxiyani saqlab qola olmadi.

1946-yilning 2-iyunida davlat tuzumi masalasida, ya’ni Italiyada Konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi saqlanib qoladimi yoki u Respublika bo‘ladimi, degan masalada referendum o‘tkazildi. Unda 12,7 mln saylovchi Respublika uchun ovoz berdi (10,7 mln saylovchi esa monarxiya uchun ovoz bergan edi). Shu tariqa, Italiya Respublikasi vujudga keldi.

2-iyun kuni Ta’sis Majlisiga ham saylov o‘tkazilgan edi. Unda XDP 35 foiz (8,1 mln), ISP 20 foiz (4,7 mln) va IKP 19 foiz (4,3 mln) ovoz oldi.

Yangi tuzilgan koalitsion hukumatni XDP lideri Alchido de Gasperi (1881—1954) boshqardi va 1953-yil yozigacha hokimiyatda turdi. Bu partiyalar vakillari ishtirokida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Konstitutsiya 1948-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi. Konstitutsiyaga ko‘ra, mamlakat Prezidenti lavozimi joriy etildi. U davlat boshlig‘i hisoblanardi va parlament har ikki palatasi (deputatlar palatasi va senat) qo‘shma yig‘ilishida 7 yil muddatga saylanar edi.

Italiyada Respublika o‘rnatilishi

Urush oqibatlari

Qonun chiqaruvchi hokimiyatni 5 yil muddatga saylanadigan ikki palatali parlament amalga oshirardi. Deputatlar palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya hukumat tuzish huquqiga ega bo‘lardi.

1948-yilning aprel oyida o‘tkazilgan parlament saylovida XDP mutlaq ko‘p (12,7 mln) ovoz oldi.

A. de Gasperi endi bir partiyali hukumat tuzdi.

Hukumat ichki siyosatda mamlakat iqtisodini rivojlantirishga birinchi darajali

masala sifatida qaradi. «Marshall rejasi» ga koʻra, 1,3 mlrd dollar miqdorida yordam berilishiga erishdi. U asosan yirik korxonalarni modernizatsiya qilishga va jihozlarni butunlay yangilashga sarflandi.
Ayni paytda yuksak taraqqiy etgan davlatlardan patent va litsenziyalar sotib olindi. Qudratli davlat sektori ham vujudga keltirildi. Bu omillar natijasida 50—60-yillarda mamlakat iqtisodi gurkirab rivojlandi. Iqtisodiy oʻsish surʼati (yiliga 10 foiz) jihatidan Yevropada GFRdan soʻng ikkinchi oʻringa chiqdi. Shu tariqa «Italiya moʻjizasi» degan ibora paydo boʻldi. U dunyoda eng rivojlangan yetti davlatning biriga aylandi.
Eksportning oʻsishi Italiyaga qarzdan qutulish hamda milliy pul (lira)ning barqarorligiga erishish imkonini berdi. Fuqarolarning turmush farovonligi oshdi. Farogʻat davlati qaror topdi. Ish haqi, ijtimoiy sugʻurta tizimi, nafaqalar hajmi boʻyicha Italiya dunyoda oldingi oʻrinlardan birida turadi.
Tashqi siyosatda Italiya birinchi navbatda Gʻarb davlatlari integratsiyasini himoya qildi. 1949-yilning aprel oyida NATOga aʼzo boʻldi. Bu bilan 1947-yilda imzolangan Parij tinchlik shartnomasi majburiyatlari oʻz kuchini yoʻqotdi. 1950-yilning 27-yanvarida AQSH bilan «Mudofaa maqsadlarida oʻzaro yordam toʻgʻrisida» bitim imzolandi. Mamlakat hududida AQSH harbiy bazasi qurildi. GFRning NATOga qabul qilinishini qoʻllab-quvvatladi. 1957-yilda Fransiya va GFR bilan «Qurol-yarogʻlarni standartlashtirish va yangi qurollarni yaratish yoʻlida birgalikda harakat qilish toʻgʻrisida» shartnoma imzoladi. Italiya Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining faol tashkilotchilaridan biri boʻldi. Bugungi kunda yuqorida nomlari sanab oʻtilgan tashkilotlar ishida faol qatnashib kelmoqda.
Italiya ichki hayotiga siyosiy beqarorlik xos boʻlgan davlatligi bilan ham ajralib turadi. Urushdan keyingi davrda 50 dan ortiq hukumat almashganligi buning dalilidir. Bu — oʻrta hisobda deyarli har 1—1,5 yilda hukumat almashinuvi sodir boʻldi, deganidir. Xoʻsh, mamlakat hayotidagi siyosiy beqarorlikning sabablari nimalar edi?
Mutaxassislarning fikricha, buning asosiy sababi — Italiyada siyosiy partiyalarning haddan tashqari koʻpligidir. (Mamlakatda 9 ta umummilliy va koʻplab hududiy partiyalar mavjud.) Bu hol, tabiiyki, hukumatning teztez almashib turishiga olib keladi va, oʻz navbatida, siyosiy beqarorlikka ham sabab boʻladi.

Ikkinchidan, bu hodisa Italiya barcha hududining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir xil darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shimolning gurkirab rivojlanganligi, Janubning (Sitsiliya, Neapol) iqtisodiy jihatdan orqada qolganligi bugun ham katta ijtimoiy muammo boʻlib qolmoqda. Bu hol, oʻz navbatida, oʻtkir ijtimoiy muammo — ishsizlik muammosini keltirib chiqardi. Millionlab kishilar ish izlab yurishga majbur boʻlib qolishdi. Hatto, iqtisodiy gurkirab rivojlangan sharoitda ham ishsizlar soni bir milliondan ortiq boʻldi. Har yili 200 mingdan ortiq kishi GFR, Shveysariya va Fransiyaga ish izlab ketishiga toʻgʻri keldi.
Bu ijtimoiy muammo, oʻz navbatida, boshqa dahshatli muammolarni — korrupsiya, terrorizm, jinoyatchilik va mafiyaning siyosatga aralashuvini kuchaytirdi. 1969-yildan keyingi davrda 400 ga yaqin siyosiy arbob, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari oʻng va soʻl terrorchilar qurboni boʻlishdi. Ayniqsa, 1978-yilda XDP rahbari A. Moroning oʻldirilishi Italiya jamoatchiligini qaygʻuga soldi. U 1963—1968 va 1974-yillarda Italiya Bosh vaziri, 1969—1972-yillarda tashqi ishlar vaziri boʻlib ishlagan obroʻli siyosiy arbob edi. Italiyada hech bir siyosiy arbob siyosiy terrorizm qurboni boʻlish xavfidan kafolatlangan emas.
Korrupsiya koʻlami boʻyicha Italiya Gʻarbiy Yevropa davlatlari ichida eng oldingi oʻrinda turadi. Bu mamlakat hayotida mafiyaning chuqur ildiz otganligi bilan izohlanadi.
Mafiya — bu jinoiy guruhlarning davlat apparati bilan qoʻshilib ketishidir. Yaʼni davlatning barcha organlarida, siyosiy partiyalar apparatida mafiyaga

(maxfiy terrorchi tashkilotga) xizmat qiluvchi kishilar mavjudligidir.
Italiyada mafiyaning kuchayishiga 1993-yilgacha mavjud bo‘lgan saylov tartibi ham qulay sharoit tug‘dirgan. 1993-yilgacha Italiyada parlamentga saylov proporsional saylov tizimi asosida o‘tkazilgan. Bu saylov tizimida saylovchilar aniq bir shaxs uchun emas, u yoki bu partiya uchun ovoz berardilar.
Parlamentdagi o‘rin partiyalarning olgan ovoziga proporsional ravishda bo‘linardi. Qaysi partiyadan kimning deputatlik o‘rnini egallashi partiya rahbarlari orasida hal etilardi. Bu hol, o‘z navbatida, korrupsiyaning kuchayishiga yo‘l ochdi. Mafiya esa bundan ustalik bilan foydalandi va jamiyatning hamma sohalariga kirib bordi. U, ayniqsa, Sitsiliyada, Neapolda va boshqa janubiy viloyatlarda rivojlandi.
U shantaj, talonchilik, qotillik yo‘li bilan jamiyatni tahlikaga soldi. Davlat organlari xodimlarini sotib olish (korrupsiya) mafiya faoliyatining asosini tashkil etadi. O‘z izmiga yurmaydiganlarni ta’qib etadi va ularning qotiliga aylanadi. To‘g‘ri, Italiya jamoatchiligi, mafiya va korrupsiyani jilovlashga tarafdor bo‘lgan siyosiy arboblar jamiyatda ro‘y berayotgan bunday falokatlarga qarshi chiqdilar va jamiyatda zarur tartib o‘rnatilishini talab etdilar. 1986-yilda eng yirik mafiyachilar ustidan sud jarayoni o‘tkazildi. U Italiya mafiyasi vatani Sitsiliya markazi Palermo shahrida

bo‘lib o‘tdi. 500 nafardan ortiq kishi sud qilindi. Biroq mafiya yashashda davom etdi.
1992-yilda Italiyada «Toza qo‘llar» deb atalgan keng qamrovli tadbir o‘tkazildi. Buning natijasida davlat organlari va siyosiy partiyalar rahbarligida ishlovchi 20 mingdan ortiq kishi tergov ro‘yxatiga tushdi. 2 yil davomida poraxo‘rlikda ayblangan 2 mingdan ortiq kishi hibsga olindi.
Tergovga chaqirilganlar ichida hatto sobiq bosh vazirlar J. Andreoti (XDP lideri) va B. Kraksi (Sotsialistik partiya lideri)lar, parlament deputatlari hamda senatorlar ham bor edi.
Mafiya bilan aloqada bo‘lgan oliy darajadagi arboblarning fosh etilishi Italiya jamoatchiligini larzaga keltirdi. Bu hodisa Ikkinchi jahon urushidan keyin qaror topgan partiyaviy-siyosiy tizimning inqiroziga olib keldi. 1994-yilning mart oyida o‘tkazilgan parlament saylovi buni yaqqol isbotladi. Chunonchi, XDP 3 siyosiy oqimga bo‘linib ketdi. Italiya Sotsialistik partiyasi esa o‘zini tarqatilgan, deb e’lon qildi. Italiya Kommunistik partiyasi saylovgachayoq o‘zining nomini ham, maqsad, vazifa va dasturini ham o‘zgartirdi.
U saylovda «So‘l kuchlar demokratik partiyasi» nomi bilan qatnashdi. Saylovda mutlaqo yangi kuchlar g‘olib chiqdi. Bular «Olg‘a, Italiya!», «Shimol Ligasi» va «Milliy alyans» partiyalari edi. Ular «Erkinlik qutbi» blokiga birlashdilar. S. Berluskoni («Olg‘a, Italiya» partiyasi rahbari) boshchiligida Italiyada 52-hukumat tuzildi. Biroq bu hukumat 1994-yilning oxirigacha yashadi, xolos.
53-hukumatni mustaqil siyosiy arbob L. Dini boshqardi. 1996-yil aprel oyida parlamentga o‘tkazilgan navbatdan tashqari saylovda «So‘l kuchlar demokratik partiyasi» g‘alaba qozondi. Shunday bo‘lsa-da, 1996—1998-yillar oralig‘ida bir necha partiyasiz hukumat tuzildi. Va, nihoyat, 1998-yilda Italiya prezidenti SKDP rahbari M. Alemaga hukumat tuzishni topshirdi. 2001-yilda esa yana S. Berluskoni boshchiligida navbatdagi hukumat tuzildi. 2006-yilgi saylovda Roman Prodi Bosh vazirlik lavozimiga keldi. 2008-yil boshida o‘z o‘rnini S. Berluskoniga bo‘shatdi. Italiyada siyosiy beqarorlik hamon davom etmoqda. Shunga qaramay, Italiya dunyoning iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan 7 davlatidan biriligicha qolmoqda.
Italiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida 1992-yil aprel oyida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Lekin Italiya firmalari dastlab ehtiyotkorlik bilan ish tutdilar. O‘zbekiston Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilingandan keyin 1994-yil aprelida Italiyaning «Matmak suplias» firmasi «Navoiyteks» bilan hamkorlikda Navbahor tumanida yirik ip yigirish sexi qurilishini boshlab yubordi. Jihozlar Italiyadan keltirilib, korxona ishga tushirildi va minglab

navbahorliklar ish bilan ta’minlandi.
Italiya — O‘zbekiston
munosabatlari
212
Andijon viloyati Kuyganyor shahrida italiyaliklar bilan hamkorlikda tashkil etilgan tomat pastasi zavodi o‘z mahsulotlarini xorijga eksport qilmoqda. Farg‘ona viloyati yog‘-moy kombinatida italyan atir sovunlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.
1997-yil mayida Italiya Respublikasi Prezidenti Luidji Skalfaro rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. I. A. Karimov bilan muzokaralar olib borib, O‘zbekiston Respublikasi va Italiya Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tamoyillari haqida Deklaratsiya, iqtisodiy, madaniy ilmiy va turizm bo‘yicha hamkorlik haqida bitimlar imzolandi. O‘zbekistonga ko‘plab Italiya yengil sanoat mahsulotlari, jihozlari keltirilmoqda.
Italiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar yildanyilga o‘sib bormoqda.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Ikkinchi jahon urushining Italiya uchun oqibatlari haqida so‘zlab bering.
2. Nega Italiya xalqi umumxalq referendumida Respublika uchun ovoz berdi?
3. 1948-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan Italiya Konstitutsiyasi mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. «Italiya mo‘jizasi»ga qay tariqa erishildi?
5. Italiya tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Italiyadagi siyosiy beqarorlikning sabablari nimada?
7. O‘ylab ko‘ring: nega siyosiy hayotdagi beqarorlik mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsata olmaydi?
8. Vaqtli matbuot asosida Italiya — O‘zbekiston munosabatlariga doir ma’lumotlarni to‘plang.
JADVALNI TO‘LDIRING. ITALIYA BOSH VAZIRLARI FAOLIYATI
Bosh vazirlar Hokimiyatda turgan vaqti Mamlakat uchun qilgan ishlari

24-§. Sovet davlati va uning parchalanishi

SSSR fashistlar Germaniyasini mag‘lubiyatga uchratishda asosiy rol o‘ynaydi. Biroq, g‘alaba katta talafotlar hisobiga qo‘lga kiritildi. Chunonchi, SSSRning 27 mln fuqarosi halok bo‘ldi. Halok bo‘lganlarning 11,5 mln ga yaqini askarlar edi.
Bundan tashqari, SSSR milliy boyligining uchdan bir qismini yo‘qotdi. Sanoatning xalq iste’moli mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi keskin kamaydi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40% foizga kamaydi.
SSSR urushdan
keyingi yillarda
?
213
Endi sovet davlati oldida mamlakat xo‘jaligini tiklash vazifasi turar edi. Shu maqsadda SSSR Oliy Soveti xalq xo‘jaligini rivojlantirishning to‘rtinchi besh yillik rejasini qabul qildi. Qattiq markazlashtirilgan rahbarlik hamda SSSR tarkibidagi xalqlarning fidokorona mehnati tufayli sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1950-yilda urushdan oldingi darajadan oshib ketdi (73 foizga).
Ayni paytda sanoatning tez sur’atlar bilan rivojlanishida mamlakat qamoqxonalarida saqlanayotgan ko‘p millionli sovet tutqinlarining hamda 1,5 mln nemis, 0,5 mln yapon harbiy asirlarining tekin mehnati, Germaniyadan undirilgan 4,3 mlrd dollar hajmidagi tovon, shuningdek, kapital mablag‘ asosiy qismining sanoatga yo‘naltirilganligi ham katta rol o‘ynadi.
Urushdan keyingi yillarda yana o‘zgacha fikrlovchi kishilarni qatag‘on qilish boshlandi. O‘zgacha fikrlovchilarni qatag‘on qilish — totalitar sotsializmning yo‘ldoshidir. Chunki totalitar sotsializm — kuchga hamda yolg‘on aqidalarga asoslanadigan jamiyat. Biroq har bir davrda totalitar sotsializm himoyachilari qatag‘on boshlash uchun bahona sifatida nimanidir asos qilib oladilar. Urushdan keyingi qatag‘onlarda ham shunday qilindi.

Xo‘sh, bu safargi qatag‘onga nimalar asos qilib olindi? Sovet ziyolilari urushdan keyin chuqur iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazilishiga umid qildilar. Ularning ma’lum qismi SSSRda ham, G‘arbdagi kabi, erkin jamiyat qaror topishini istardilar. Ayni paytda bunday chuqur o‘zgarishlarga islohotlar yo‘li bilan erishishni taklif ham etganlar. BMTning 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni SSSR ham imzolagani ularda bunday umidni paydo qilgan edi.

Iqtisodiy islohotlar borasida ziyolilarning bir qismi korxonalar o‘rtasida raqobat sharoitini vujudga keltirishni, hissadorlik jamiyatlarini tuzishni, davlat ta’minotini bekor qilishni, xususiy savdoni yo‘lga qo‘yishni, erkin narx joriy etilishini, kolxozlar mol-mulkini va ularga berilgan yerlarni oilalarga bo‘lib berish yo‘li bilan kolxozlarni amalda tugatishni taklif etdilar. Siyosiy sohada esa muqobil saylov, rahbarlikka saylanuvchilarning vakolat muddati cheklanishi, milliy (aslida mustamlaka) respublikalarda esa ularning huquqlarini kengaytirish haqidagi takliflarni ilgari surdilar.

Biroq SSSR rahbariyati bu takliflarni sotsializmni ichdan qo‘porish, taklif mualliflarini esa sotsializmga qarshi unsurlar, deb baholadi. Bu esa yangi qatag‘onlar kompaniyasining boshlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada ziyolilarning minglab ilg‘or qismi, partiya-sovet xodimlari, respublikalarning milliy kadrlari qatag‘onga uchradi.

O‘zbekistonliklar ham bu qatag‘ondan chetda qolmadi. Xususan, 1951-yilda mustabid tuzumning tayanchi bo‘lmish xavfsizlik xizmati go‘yo respublika «Yozuvchilar uyushmasi»da va ayrim matbuot organlarida «uya qurgan» 12 kishidan iborat «sovetlarga qarshi millatchi guruh»ni «fosh» etdi.

Yangi qatag‘onlar davri

214

Davlat xavfsizlik xizmatining ushbu «faoliyati» natijasida yozuvchi va shoirlar Shukrullo, Shuhrat, Shayxzoda, adabiyotshunos olim H. Sulaymon qamoqqa olindi va sovetlarga qarshi millatchilik faoliyatida ayblanib, 25 yilga hukm qilindilar.

SSSRda 1930—1953-yillar oralig‘ida jami 3,8 mln ga yaqin kishi qatag‘on etildi. Ulardan 800 mingga yaqini otib tashlandi. O‘zbekistonda 1937—1953-yillarda 100 ming kishi qatag‘on etildi. Ularning 15 minggi otib tashlangan. Islom Karimov Toshkentdagi «Shahidlar Xotirasi» yodgorlik majmuasining ochilishi marosimida bu dahshatli holatni ta’riflab, «zulm va zo‘ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o‘zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg‘otishga, xalqni boshqarishga qodir bo‘lgan, ma’rifat va ma’naviyat yo‘lida fidoiylik ko‘rsatgan barcha aql-zakovat sohiblarining...» qancha-qanchalari jismonan yo‘q qilinganligini ta’kidlagandi.

To‘g‘ri, 1953-yilda I. Stalin vafot etgach, turli yillarda qatag‘on etilganlar oqlandi. Biroq, mustaqil fikrlovchi shaxslarni qatag‘on qilish I. Stalin davridagidek ommaviy va qonli tusda bo‘lmagan bo‘lsa-da, 70—80-yillarda ham davom etdi. Ular yakka-yakka tartibda ta’qib etildi. Ular ustidan turli jinoiy ishlar uyushtirildi va majburan ruhiy kasalliklar kasalxonalariga yotqizildi. Dunyo jamoatchiligiga taniqli bo‘lganlar uy qamog‘ida yoki badarg‘ada saqlandi. Ba’zilar mamlakatdan chiqarib yuborildi.

I. Stalin vafotidan so‘ng rahbarlik lavozimini N. Xrushyov egalladi. U 1956-yilda bo‘lib o‘tgan KPSSning XX syezdida I. Stalin shaxsiga sig‘inish va uning oqibatlarini qattiq qoraladi. Mamlakatning ilg‘or qismi chuqur iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar amalga oshadi, deb yana bir bor umid bilan qaray boshladi. Biroq ularning umidlari oqlanmadi. Mamlakatda stalinizm yangi ko‘rinishda davom etaverdi.

KPSSning 1959-yilda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari XXI syezdi SSSRda sotsializm «to‘la va uzil-kesil g‘alaba qozondi», degan xulosaga keldi. Bunga mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida ro‘y bergan sezilarli ijobiy yutuqlar asos qilib olindi.

Aslida bu kommunistlarning navbatdagi xomxayollari edi. Sovet davlatining keyingi butun taraqqiyoti buni tasdiqladi. Biroq 1959-yildan boshlab bu xomxayol hodisa ulkan tarixiy g‘alaba, deb talqin etildi. Bu jozibador xulosa

sovet rahbariyati tomonidan yanada xomxayol bo‘lgan boshqa xulosa ilgari surilishiga asos bo‘ldi. Bu — SSSRning endi kommunistik jamiyat qurilishi keng avj oldirilgan davrga qadam qo‘yganligi haqidagi xulosa edi.
Va nihoyat, KPSSning XXII syezdida (1961-yil) KPSSning yangi dasturi — Kommunizm qurish dasturi qabul qilindi. Xo‘sh, kommunistlar fikricha, kommunizm qanday jamiyat edi?
Birinchidan, bu — ishlab chiqarish vositalari to‘la umumxalq (aslida davlat) mulki bo‘lgan jamiyat edi.
«Kommunizm qurish»
dasturining qabul
qilinishi
215
Ikkinchidan, bu — jamiyatning barcha a’zolari ijtimoiy jihatdan batamom teng bo‘lgan sinfsiz jamiyat edi.
Uchinchidan, bu — ijtimoiy boylikning barcha manbalar mo‘l-ko‘l bo‘lgan, to‘lib-toshib turadigan va, natijada, har kim qobiliyatiga yarasha ishlaydigan, lekin jamiyat boyligidan har kim ehtiyojiga yarasha ulush oladigan jamiyat edi.
To‘rtinchidan, bu — mehnat qilish hamma uchun birinchi hayotiy ehtiyoj, anglangan zaruriyat bo‘lib qoladigan jamiyat edi.
Dasturda kommunizm qurish uchun quyidagi 3 ta ulkan vazifani bajarish zarurligi ta’kidlandi:
— kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish;
— yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirish;
— yangi kishini tarbiyalash.
KPSS dasturida bundan-da badtarroq xomxayol orzular ilgari surildi. Chunonchi: a) 1960—1970-yillar oralig‘idagi o‘n yil ichida iqtisodiy taraqqiyotda AQSHga yetib olish va undan o‘zib ketish; b) 1970—1980-yillar oralig‘idagi o‘n yil ichida kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish. Vaqt tez orada KPSS va sovet davlati rahbariyati ilgari surgan yuqoridagi vazifalar xomxayol ekanligini tasdiqlay boshladi. Bu esa oliy rahbariyat o‘rtasida ziddiyatlarni kuchaytirdi. Buning oqibatida 1964-yilda N. Xrushyov vazifasidan olib tashlandi.
Hokimiyat L. I. Brejnev qo‘liga o‘tdi. Uning davrida iqtisodiy islohot o‘tkazilishiga urinildi. Biroq bu islohot mamlakat iqtisodiyotini tubdan qayta qurishni anglatmas edi. Mafkura iqtisodiyotni chulg‘ab olgan bir sharoitda bu tabiiy hol edi. Chunki qotib qolgan, hayotdan orqada qolgan kommunistik mafkura har qanday tub islohotni sotsializm asoslariga zarba deb baholardi.
KPSSning kommunizm qurish rejasi barbod bo‘lgach, L. I. Brejnev KPSSning XXIV syezdida (1971-yil) «rivojlangan sotsializm» nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada kommunizm uzoq kelajakda quriladigan jamiyat, deb izohlandi. Ungacha jamiyat sotsializm va kommunizm oralig‘ida rivojlangan sotsializm bosqichini bosib o‘tishi lozimligi «asoslandi». Hayot, vaqt bu nazariyaning ham soxta ekanligini tasdiqladi.
SSSRning iqtisodiy taraqqiyoti borgan sari pasaya boshladi va unda turg‘unlik holati vujudga keldi. Buning asosiy sababi ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning ilmiy-texnika inqilobi natijalarini qabul qila olmaganligi bo‘ldi. Natijada bu iqtisodiyot katta xarajat talab etadigan va kam samara keltiradigan iqtisodiyotga aylanib qoldi.
1982-yilda L. Brejnev vafot etgach, qisqa vaqt ichida yana ikki rahbar almashdi. Bular Yu. Andropov va N. Chernenko edilar. Ularning har ikkisi ham og‘ir kasal edilar. Biroq davlat qonunga bo‘ysunmaydigan jamiyatda og‘ir kasal kishilarning hokimiyat tepasiga kelib qolishi tabiiy holdir.
Jadallashtirish rejasi
216
Nihoyat, 1985-yil mart oyida M. S. Gorbachyov KPSSning Bosh kotibi lavozimini egalladi. Shu yilning aprel oyida u qayta qurish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish dasturini ilgari surdi. Unga ko‘ra, 15 yil ichida (1985—2000) SSSRning iqtisodiy qudrati 2 baravar ortishi, ya’ni 15 yil ichida sovet davlati yashab kelayotgan 70 yil davomida erishilgan darajaga teng iqtisodiy qudrat yaratilishi kerak edi.

Jadallashtirish dasturining amalga oshishi 3 omilga tayanar edi. Bular:
— korxonalar mustaqilligini kengaytirib, ularni xo‘jalik hisobiga va o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlashga o‘tkazish;
— mehnatning mazmuni va xarakterida, odamlarning moddiy va ma’naviy turmush sharoitlarida chuqur o‘zgarishlar qilish, samaradorlikka qarab haq to‘lash;
— oshkoralik, ya’ni siyosat, ijtimoiy va mafkuraviy muassasalar tizimini faollashtirish.
Aslida jadallashtirish dasturi ham KPSS va Sovet davlati rahbariyatining yana bir xomxayol orzusi bo‘lib chiqdi. Chunki iqtisodiyotda bozor munosabatlarisiz bu vazifalarni amalga oshirib bo‘lmas edi. Buning ustiga SSSR aholisi ongi yangi — bozor iqtisodiyotini qabul qilishga tayyor emas edi. 1988-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi, 1990-yildan boshlab esa sanoat ishlab chiqarishi pasaya boshladi.
Budjet taqchilligi 100 mlrd so‘mdan ortdi. Davlatning oltin zaxirasi 6 yilda (1985—1991) 10 baravar kamaydi va u atigi 240 tonnaga tushib qoldi. Aholining turmush darajasi shiddat bilan pasaya boshladi. Shunday sharoitda M. S. Gorbachyov «insonparvar, demokratik sotsializm» qurilishini e’lon qildi. Biroq endi uning cho‘pchaklariga deyarli hech kim ishonmay qo‘ydi. Ittifoq davlati oliy rahbariyati va organlari aholi ko‘z o‘ngida obro‘-e’tiborini, ishonchni yo‘qotib qo‘ydi.
M. S. Gorbachyovning siyosati tarixga «qayta qurish» siyosati nomi bilan kirgan. Bu qayta qurish mamlakat siyosiy hayotiga ham taalluqli edi. 1988-yilda KPSSning XIX Butunittifoq konferensiyasi qarori asosida qonun chiqaruvchi yangi oliy hokimiyat organi — SSSR Xalq deputatlari syezdi tuzildi.
Yangi oliy lavozim — SSSR Oliy Soveti raisi — joriy etildi. 1989-yilning mart oyida chaqirilgan SSSR xalq deputatlari 1 syezdida KPSS MK Bosh sekretari M. S. Gorbachyov ayni paytda SSSR Oliy Soveti raisi etib saylandi. Binobarin, siyosiy islohot tugab borayotgan KPSSning rahbarlik rolini saqlab qolishga ham xizmat qilishi lozim edi.
Mamlakatda senzura deyarli olib tashlandi. Biroq bular mavjud tuzumni saqlab qola olmadi. Bu davrda qator respublikalarda mavjud davlat hokimiyati organlariga parallel ravishda yangi hokimiyat organlari ham vujudga keldi. Ko‘ppartiyaviylik reallikka aylanib ulgurdi. Ularning ayrimlari KPSS bilan raqobatlasha boshladi ham. Aksariyati sovet modelidagi

sotsializmni, KPSSning davlat hokimiyatiga bo‘lgan monopol huquqini inkor etdi.
Ayni paytda KPSSning o‘zida ham 3 oqimga bo‘linish yuz berdi. Boltiqbo‘yi respublikalari kommunistik partiyalari 1989—1990-yillar davomida KPSS tarkibidan ajralib chiqdi. Shu tariqa SSSRda jamiyat hayotining hamma jabhalarida inqiroz kuchaya bordi. Bu hol milliy respublikalarda aholi milliy ongining uyg‘onishiga qulay sharoit yaratdi.
Endi ularda mustaqillikka intilish tobora kuchaydi. Boltiqbo‘yi respublikalari «Davlat suvereniteti to‘g‘risida deklaratsiya» qabul qildilar. O‘zbekistonda prezidentlik lavozimi joriy etildi. Shunday sharoitda Markaz milliy nizolar keltirib chiqarish yo‘li bilan SSSRni saqlab qolishga urindi. 1988-yildan boshlab Armaniston va Ozarbayjon o‘rtasida Tog‘li Qorabog‘ masalasida munosabatlar keskinlashdi. 1989-yilda Farg‘ona, 1990-yilda O‘sh, 1991-yilda Gruziya — Abxaziya, Gruziya — Janubiy Osetiya qonli voqealari keltirib chiqarildi. Ayni paytda M.S. Gorbachyov va Rossiya rahbari B. Yelsin o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi.
SSSRning yagona totalitar davlat sifatida saqlanib turishida KPSS ning roli beqiyos katta bo‘lganligiga SSSRning 70-yillik tarixi guvoh. Biroq qayta qurish yillarida KPSS obro‘si borgan sari yo‘qolib bordi. Partiyada poraxo‘rlik va korrupsiya kuchaydi. Demokratik kuchlar hatto SSSR Konstitutsiyasiga

yozib qo‘yilgan KPSSning rahbarlik roli haqidagi qoidaning chiqarib tashlanishiga erishdilar (1990-yilda). Shunday sharoitda yangi lavozim — SSSR Prezidenti lavozimi joriy etildi. 1990-yilning mart oyida SSSR Xalq deputatlari III syezdi M. S. Gorbachyovni SSSR Prezidenti etib sayladi.

M. S. Gorbachyovning maqsadi SSSRni qanday bo‘lmasin saqlab qolish edi. Chunki u o‘zi boshlagan islohot SSSRni qulatishi mumkinligini aslo xayoliga keltirmagan edi. Endi u yangi ittifoq shartnomasi imzolanishi uchun bor kuchi bilan harakat qila boshladi.

M. S. Gorbachyov 1991-yilning aprel oyidan boshlab 9-respublika rahbari bilan yangi ittifoq shartnomasi xususida to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokara o‘tkaza boshladi. Va, nihoyat, 1991-yilning avgust oyida barcha tomonlarni qoniqtiruvchi «Mustaqil Respublikalar Ittifoqi» haqidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqishga erishildi.

Unga ko‘ra, Markaz endilikda boshqaruvchilik maqomini yo‘qotar va u asosan muvofiqlashtirish vazifasi bilan shug‘ullanar edi. Markaz ixtiyoriga mudofaa, moliya, ichki ishlar, qisman soliq va ijtimoiy siyosat masalalari qoldirildi, xolos. Ayni paytda rus tili davlat tili maqomini yo‘qotib, millatlararo muloqot tiliga aylanardi.

Shartnomani imzolash 1991-yil 22-avgustga belgilandi. Biroq real hokimiyatni qo‘ldan chiqarishni istamagan kuchlar 18-avgustdan 19-avgustga o‘tar kechasi davlat to‘ntarishi qilishga urindilar. Ular GKCHP (Favqulodda

Holat Davlat Qo‘mitasi) tuzdilar. Qrimda dam olayotgan M. S. Gorbachyov hokimiyatdan chetlatildi. GKCHPga SSSR vitse-prezidenti G. Yanayev rahbarlik qildi. GKCHP SSSRning ba’zi hududlarida favqulodda holat joriy etdi. SSSRning 1977-yilgi Konstitutsiyasiga zid ravishda tuzilgan davlat organlari bekor qilinishi, muxolif partiyalar faoliyati to‘xtatilganligi, mitinglar va namoyishlar o‘tkazish man etilganligi, ommaviy axborot vositalari nazoratga olinganligi e’lon qilindi.

Moskva shahriga armiya qismlari kiritildi. Biroq Moskva aholisi GKCHPni qo‘llab-quvvatlamadi. Aksincha, ular GKCHPga qarshi chiqqan Rossiya Prezidenti B. Yelsin tarafida bo‘ldilar. B. Yelsin moskvaliklarni GKCHPga qarshi uyushtira oldi. Armiyaning asosiy qismi ham GKCHPni qo‘llabquvvatlamadi. G‘arb davlatlari ham GKCHPni tan olmadilar. Xalq madadidan mahrum bo‘lgan GKCHP oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchradi. 22-avgust kuni GKCHPning barcha rahbarlari davlat to‘ntarishi qilishga uringanlikda ayblanib hibsga olindilar.

Noyabr oyida B. Yelsin Rossiya Federatsiyasi hududida KPSS faoliyatini taqiqlash haqida farmon chiqardi. Shu tariqa KPSS yagona siyosiy tashkilot sifatida barham topdi. KPSS MK Bosh sekretari lavozimidan voz kechgan M. S. Gorbachyov SSSRni saqlab qolish uchun harakat qila boshladi. Biroq u hech narsaga erisha olmadi. 1922-yilning 30 dekabrida SSSRni tuzgan 3 davlat — Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya rahbarlari 1991-yilning 8-dekabr kuni SSSR tarqatilganligini e’lon qildilar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tuzilganligi haqidagi bitimni imzoladilar. Bu bitim tarixga «Belovej bitimi» nomi bilan kirdi. Shu tariqa SSSR parchalanib ketdi. 21-dekabr kuni yana 8 respublika (Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Moldova) ham bu bitimni imzoladilar. 25-dekabr kuni M. S. Gorbachyov SSSR Prezidenti lavozimidan iste’fo berdi.

SSSRdan Rossiyaga og‘ir meros qoldi. Bozor iqtisodi qonunlarini joriy etish juda murakkab yo‘ldan bordi. Rossiya sobiq sovet respublikalari o‘rtasida va xalqaro maydonda o‘z mavqeyini yo‘qotmasligi lozim edi. Bu oson ish emas edi.

1992-yilda narxlar erkinlashtirila boshlandi. Yil oxiriga kelib davlat ixtiyorida faqat budjetda ishlovchilarning ish haqini va ular ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilash qoldi. Davlat eng asosiy korxonalardan tashqari, barcha korxonalarini o‘z tasarrufidan chiqara boshladi. Bu korxonalar u yerda ishlovchilarning aksionerlik mulkiga aylandi. Ular aksiyalarning katta

qismini boshqa fuqarolarga xususiylashtirish chekiga (vaucherga) sotish huquqiga ega edilar. Mamlakatda 24 ming korxona, 15 foiz fermer xususiylashdi.
Davlatda yetarli mablag‘ning yo‘qligi natijasida bir yilda ishlab chiqarish 20 foizga pasaydi. Ijtimoiy ta’minot, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash xodimlari qiyin ahvolga tushib qoldi.
219
Aholi daromadi 2 baravar kamaydi. B. Yelsin 1992-yil dekabrda Ye. Gaydar o‘rniga V. Chernomirdinni Bosh vazir etib tayinladi.
1993-yil 23-aprelda umumxalq referendumi o‘tkazildi va ko‘pchilik B. Yelsinni qo‘lladi. Lekin Oliy Sovet raisi R. Xasbulatov Prezidentga qarshi faoliyatni davom ettirdi. 1993-yil 21-sentabrda B. Yelsin Oliy Sovetni tarqatdi. Ammo Xasbulatovchilar bo‘ysunmay, Oq uyda syezd chaqirib, B. Yelsin ishdan olinganligini va A. Rutskoy vitse-prezident etib saylanganini bildirishdi va qurolli hujumga o‘tdi. B. Yelsin bunga kuch bilan javob berdi va 4-oktabrda Oq uy o‘qqa tutildi, oppozitsiya taslim bo‘ldi. Prezident Sovetlarni tarqatib yubordi. 1993-yil 12-dekabrdagi Umumxalq referendumida 58 foiz qatnashchilar yangi Konstitutsiya uchun ovoz berdilar.
Iqtisodiyotda o‘tkazilgan tadbirlar natijasida ishlab chiqarishning 70 foizi aksionerlar va xususiy kompaniyalar qo‘liga o‘tdi. Rossiyada ko‘plab g‘oyalar, harakatlar yuzaga keldi. G. Yavlinskiy, A. Chubays, Ye. Gaydar va boshqalar o‘z takliflari bilan chiqdilar. Lekin ahvol murakkabligicha qoldi. Buni V. Chernomirdin «iloji boricha yaxshi bo‘lishini istadik, ammo ahvol har doimgidek davom etaverdi», deb tan oldi.
Oppozitsiya yerni erkin oldi-sotdi qilishga va garovga qo‘yishga xalaqit berardi. Ularning deyarli barchasi eski sovet davri rahbarlari bo‘lib, yangi sharoitga, bozor iqtisodi sharoitiga ruhiy va amaliy jihatdan moslashishga qiynaldilar. Buning ustiga Chechenistondagi harakat Rossiya uchun juda qimmatga tushdi.
1996-yilgi saylovlarda B. Yelsin qiyinchilik bilan g‘alaba qildi. U bozor iqtisodiga o‘tishni «yosh islohotchilar» (Chubays) qo‘li bilan jadallashtirishga harakat qildi. Lekin 1998-yilda budjetni hayotga tatbiq etishning iloji bo‘lmadi.
B. Yelsin Chernomirdin o‘rniga Bosh vazir etib S. Kiriyenkoni tayinladi. Lekin ahvol o‘nglanmadi. 1998-yil sentabrda keksa siyosatchi Ye. Primakov Bosh vazir etib tayinlandi. 1999-yil ishlab chiqarish biroz jonlansa-da, yangi bozor iqtisodi tartiblari o‘rnatilmadi. 1999-yil may oyida Ye. Primakov ishdan olinib, dumaparast V. Stepashin hukumat boshlig‘i qilib tayinlandi. Moskva meri Yu. Lujkov «kapitalizmchasiga ishlash, ammo sotsializmchasiga taqsimlash » shiori bilan chiqdi.
Shunday og‘ir sharoitda B. Yelsin hokimiyatga munosib nomzod izladi va 1999-yil avgustida V. Putin hukumat boshlig‘i qilib tayinlandi.
Razvedka maktabini o‘tagan, qat’iyatli, yangicha fikrlovchi, sotsializm mansablarida ishlamagan aqlli va irodali V. Putin tezda o‘zini ko‘rsatdi. U chechen jangarilarini jilovlashda oqilona yo‘l tutdi va katta obro‘ qozondi. 1999-yil kuzida ma’muriyat «Yedinstvo» (Birlik) harakatini tashkil etdi va V. Putinga yordam berdi. 1999-yil dekabrda Dumaga saylovlarda Lujkov — Primakov bloki va kommunistlar zaiflashib qoldi.
Hokimiyat ishonchli qo‘lga o‘tganini tushungan B. Yelsin 2000-yil boshida muddatidan oldin iste’foga chiqdi. Mart oyidagi Prezident saylovida V. Putin g‘olib chiqdi.
220
Rossiyada hukumat almashuvlaridan charchagan xalq V. Putinni qo‘llabquvvatladi. Putin islohotlarni kuchaytirdi. Noqonuniy boylik to‘plagan moliya magnatlarining payini qirqdi. Ularning ko‘pi chet elga qochib ketdi. Bozor iqtisodi qonunlarini mustahkamladi. Natijada 4—5 yil ichida Rossiyada yillik o‘sish 7—8 foizga ko‘tarildi. Ulug‘ rus ambitsiyasidan holi bo‘lgan V. Putin MDH mamlakatlari

bilan munosabatlarni xalqaro
huquq doirasida yaxshiladi. Lekin bu barcha muammolar hal qilindi, degani emas. Rossiya xalqaro maydonda o‘z mavqeyini ancha yo‘qotdi.
Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida do‘stona munosabatlar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. 2005-yil iyun oyida Islom Karimov Moskvada bo‘ldi. Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo 2004-yilda 1 mlrd 641 mln dollardan oshdi.
Rossiya Prezidenti V. Putin va O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov Moskva va Toshkentda bir necha bor uchrashdilar. O‘zaro iqtisodiy aloqalarni yanada jadallashtirish masalalari kelishib olindi. Shuningdek, Rossiya Shanxay hamkorlik tashkilotida qatnashib, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. 2007-yil oxiridagi Prezident saylovida D. Medvedev g‘alaba qildi. Ko‘p o‘tmay V. Putin Bosh vazir lavozimini egalladi va islohotlarni davom ettirmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Urushning SSSR uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qanday omillar SSSR xalq xo‘jaligini qisqa yillar ichida tiklab olishga imkon berdi?
3. Nega sovet rahbariyati tez-tez qatag‘onlar o‘tkazib turgan?
4. O‘zbekistonda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi yaratilganligini siz qanday izohlaysiz?
5. Kommunizm qurish dasturi nega barbod bo‘ldi?
6. L. I. Brejnev davrida tashqi siyosatda qanday xatolarga yo‘l qo‘yildi? Ular SSSRning taqdiriga keyin qanday ta’sir ko‘rsatdi?
7. M. Gorbachyov e’lon qilgan jadallashtirish yo‘li nega natija bermadi?
8. Siyosiy islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadni qayd eting.
9. O‘ylab ko‘ring: M. Gorbachyov 1991-yilgacha ham yangi Ittifoq shartnomasining imzolanishiga erishishi mumkin bo‘lgani holda, nima uchun unga erisha olmadi?
10. SSSR qay tariqa parchalandi? Rossiyaga qanday meros qoldi?
11. Rossiyaning bozor iqtisodiga o‘tishi qanday kechdi?

BAHS YURITING

Nega SSSRdek qudratli davlat birdaniga tarqab ketdi?
V. V. Putin.

?

JADVALNI TO‘LDIRING.

SOVET VA ROSSIYA DAVLATI RAHBARLARI FAOLIYATI

Rahbarlar | Hokimiyatda turgan vaqti | Mamlakat uchun qilgan ishlari

25-§. Markaziy va janubi-sharqiy Yevropa davlatlari

Ikkinchi jahon urushi G‘arbiy Yevropa davlatlari qatori Markaziy va Janubiy Yevropa davlatlarini (Polsha, Vengriya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Bolgariya va Albaniya) ham o‘z domiga tortgan edi. Ularning ayrimlarini (Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya va Albaniya) Germaniya va Italiya bosib oldi. Bolgariya, Vengriya va Ruminiya esa fashist davlatlarining ittifoqchisi sifatida urushda ishtirok etdilar. Bu davlatlar siyosiy-tarixiy adabiyotlarda «Sharqiy Yevropa davlatlari» (sobiq GDR ham shu qatorga kirgan) deb ham atalgan.
Urushdan keyingi yillarda G‘arbiy va Sharqiy Yevropa davlatlari taqdiri turlicha kechdi. Chunonchi, G‘arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotida erkin bozor munosabatlari to‘la qaror topdi. Jamiyat hayotida tub demokratik tamoyillar mustahkamlandi. Ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari ishlab chiqarishga to‘la joriy etildi. Natijada G‘arbiy Yevropa davlatlarida aholining yuqori turmush darajasi ta’minlandi.
Sharqiy Yevropa davlatlarida esa jamiyat hayoti o‘zgacha kechdi. Bunda, birinchidan, bu davlatlarni (Albaniyadan tashqari) SSSR armiyasi fashizmdan ozod etganligi hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bu omil Sharqiy Yevropa davlatlarida Kommunistik partiyalarning hokimiyat tepasiga kelishiga qulay imkoniyat yaratdi. Qolaversa, urush kommunistik partiyalarning obro‘sini oshirgan ham edi. Chunonchi, Yugoslaviya va Albaniya kommunistik partiyalari antifashist harakatga rahbarlik qildilar, boshqa davlatlarda esa kommunistlar bu harakatda faol ishtirok etgan edilar.
Ikkinchidan, «sovuq urush» tufayli keskinlashgan sovet-amerika munosabatlari SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari ichki ishlariga aralashuviga qulay sharoit yaratdi. Natijada 1946—1949-yillar davomida

Sharqiy Yevropa davlatlarida kommunistlar hokimiyatni to‘la egallab oldilar. Chunonchi, bu davlatlarda, SSSRda bo‘lganidek, ko‘ppartiyaviylik tugatildi (Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviya va Albaniyada). GDR, Polsha, Chexoslovakiya va Bolgariyada nomigagina ko‘ppartiyaviylik saqlab qolindi. Masalan, GDRda 5 ta siyosiy partiya mavjud bo‘lsa-da, real hokimiyat kommunistik partiya (Germaniya yagona sotsialistik partiyasi — GYASP) qo‘lida edi. Boshqa 4 siyosiy partiya GYASPning yetakchi, rahbar siyosiy kuch ekanligini tan olishga majbur etilgan edi.

Kommunistik partiyalarning hokimiyat tepasiga kelishi

222

Hokimiyatni egallagan kommunistik partiyalar sotsialistik jamiyat qurishga kirishdilar. Aslida ular qurmoqchi bo‘lgan sotsialistik jamiyat SSSRda qurilgan g‘ayriinsoniy jamiyat — totalitar sotsializmning deyarli o‘zginasi edi.

To‘g‘ri, bu davlatlarning ayrimlarida (masalan, Yugoslaviyada) qurilgan sotsializm ba’zi jihatlardan SSSRdagidan farq qilsa-da, amalda u ham totalitar sotsializm edi. Hokimiyatning bo‘linishi tamoyili inkor etildi. Davlatning barcha organlarida kommunistik partiya nazorati o‘rnatildi. Davlat konstitutsiyalarida fuqarolar uchun e’lon qilingan huquq va erkinliklar amalda ro‘yobga chiqarilmadi.

Konstitutsiya nomigagina amal qilardi. Unga ko‘ra, umumiy saylov huquqi asosida saylovlar o‘tkazib turildi. (Aslida u saylov emas, majburiy ovoz berdirish edi.) Bu — demokratiyaning amalda yo‘qqa chiqarilishi edi. Mavjud tartibga qarshi chiqqanlar yoki ularga e’tiroz bildirganlar ta’qib etildi, qatag‘on qilindi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlari barham topdi. Uning o‘rnida SSSR dagidek rejali iqtisodiyot vujudga keltirildi. Deyarli barcha mulk davlat mulkiga aylantirildi. Bu esa amalda xususiy mulkning barham topishiga olib keldi. Shu tariqa Sharqiy Yevropa davlatlarida xalq demokratiyasi emas, totalitar sotsializm qurildi.

Bu davlatlar (Yugoslaviyadan tashqari) tashqi siyosatda SSSR manfaatiga bo‘ysundirildi. Ular O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashiga (1949) hamda Varshava Shartnomasiga (1955) (Albaniya keyinchalik bu harbiy-siyosiy tashkilotdan chiqqan, Yugoslaviya esa bu tashkilotga umuman a’zo bo‘lmagan) birlashtirildi. Bundan tashqari, Sharqiy Yevropaning Yugoslaviya va Albaniyadan boshqa davlatlari hududiga SSSR qurolli kuchlari joylashtirilgan edi.

Sharqiy Yevropa davlatlarida «sotsializm qurilishi» xalqning tanlashiga qarab emas, balki xohish-irodasiga qarshi amalga oshirildi. Chunki bu davlatlar aholisining katta qismi SSSR namunasidagi sotsializmni (aslida u totalitar sotsializm edi-da) istagan emas. Buning sababi — SSSRda qurilgan va ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan «sotsializm» insoniyatning asl maqsad va manfaatlarini ro‘yobga chiqarolmadi.

Nega barcha rivojlangan davlatlarda xususiy mulk saqlab qolingan? Nega ularning iqtisodiyotida bozor munosabatlari amal qiladi? Nega bugungi mustaqil O‘zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan erkin demokratik jamiyat qurmoqda? Chunki shunday jamiyatgina insonning hayotdan ko‘zlagan maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Totalitar sotsializm jamiyatida barcha sohalar, hatto, insonning ongi, orzuumidlari ham qonunga mutlaqo bo‘ysunmaydigan davlat nazorati ostiga olinadi. Inson insonparvarlik tamoyillariga javob beruvchi qonunlar doirasida erkin yashashi kerak. Totalitar sotsializm buni istamaydi. Chunki bunday jamiyatda

Sovetlar namunasidagi sotsializmning qurilishi

223

adolatli qonun amal qilmaydi. Davlat esa hech qanday qonunga bo‘ysunmaydi. Oxir-oqibatda bu davlat o‘z fuqarolarini zo‘ravonlik bilan itoatda

tutishga intiladi. Bu esa jamiyatni inqirozga yuz tuttiradi va uni halok etadi. To‘g‘ri, bu hodisa birdaniga ro‘y bermaydi. Bunga sobiq sotsialistik davlatlar bosib o‘tgan yo‘l misol bo‘ladi. Quyida ularni ko‘rib o‘tamiz.

1949-yil 7-oktabrda GDR tashkil etilib, V. Pik — Prezident, O. Grotevol — Bosh vazir etib saylandi. Ular GBSP vakillari edilar. 1953-yilda mamlakatda mavjud tuzumga qarshi isyon ko‘tarildi va Sovet qo‘shinlari yordamida bostirildi. 1960-yil sentabrda, V. Pik vafotidan keyin, prezidentlik tugatilib, uning o‘rniga Davlat Soveti tuzildi va unga rais qilib GBSP rahbari V. Ulbrixt saylandi. Otto Grotevol 1964-yilgacha, ya’ni vafotiga qadar Bosh vazir lavozimida ishladi.

V. Ulbrixt 1971-yilgacha partiya va davlat rahbari bo‘lib turdi hamda keksayib, sog‘lig‘i yomonlashgach, o‘z lavozimini E. Xonekkerga topshirdi. Iqtisodda davlat sektori hukmron bo‘lib qoldi. Zarariga ishlagan korxonalar ishini boshqa korxonalar hisobiga ushlab turish kuchaydi. Lekin GDR iqtisodiyoti boshqa sotsialistik davlatlarga nisbatan yangi texnologiya bilan ta’minlangan edi. Ishlab chiqarish kombinatlari yalpi mahsulotning 94 foizini berardi. Tashqi savdoning 40 foizi SSSR hisobiga to‘g‘ri kelardi. Ammo GFR bilan solishtirganda, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi 1/3 qismni tashkil qilardi. Bor-yo‘g‘i korxonalar 32 foiz foyda bilan ishlardi. Aholi turmush darajasi GFRga qaraganda 3 baravar past edi. GFRdagi ahvol GDR xalqini o‘ziga rom qildi. Avvalgi paragrafda ta’kidlanganidek, 1989-yilning o‘zida 400 ming kishi GFRga ko‘chib ketdi. Ommaviy norozilik kuchaydi. 1989-yil 18-oktabrda E. Xonekker barcha lavozimlardan ozod etildi. 9-noyabrda Berlin devori buzib tashlandi. 1990-yil 3-oktabrda ikkala Germaniya birlashdi.

1946-yil 1-fevralda Vengriya respublika deb e’lon qilindi. F. Nad Bosh vazir lavozimini egalladi. Ko‘p o‘tmay kommunistlar bilan kelisholmay, Shveysariyaga ketib qoldi. Z. Tildi mamlakat Prezidenti lavozimiga o‘tirib, 1948-yil avgustgacha ishladi. Shu davrdan uning o‘rniga A. Sakashich keldi. 1948-yil iyunida SDP va VKP birlashib, Vengriya mehnatkashlar partiyasi (VMP) tashkil topdi. Shu davrdan boshlab M. Rakoshi 1956-yil iyuligacha partiya rahbari bo‘lib ishladi.

1956-yil 25-oktabrda Budapeshtda mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonni bostirishni va’da bergan I. Nad Bosh vazir etib tayinlandi. Lekin u va’dasini buzib, mamlakatning Varshava shartnomasidan chiqishini, sovet qo‘shinlarining olib ketilishini talab qildi. E. Gerening 4 oylik boshqaruvidan so‘ng VMP rahbarligiga Ya. Kadar keldi.

1956-yil 4-noyabrda sovet tanklari isyonni bostirdi. I. Nad qamoqqa olinib, 1958-yil 17-iyunda qatl etildi.

Vengriya
Germaniya
Demokratik
Respublikasi

60-yillarda iqtisodiyotda kam xomashyo talab qiladigan sohalarni rivojlantirish yo‘lga qo‘yildi. Aholi talabidan kelib chiqib, ijtimoiy sohaga, xalqni zarur ehtiyoj mollari bilan ta’minlashga e’tibor qaratildi. Qishloqda 98 foiz yer sotsialistik sektor qo‘liga o‘tdi. Sovet davlati katta yordam ko‘rsatdi. Lekin islohotlar kutgan natijani bermadi. 80-yillarda ahvol murakkablashib, mamlakatni 22 yil idora qilgan Yanosh Kadar o‘rniga Karoy Grosu keldi.

1990-yilgi saylovlarda koalitsion hukumat tuzilib, uni Iojef Antall boshqardi. Mamlakat Prezidenti etib Erkin Demokratik Ittifoq (EDI) rahbari Arpada Gens saylandi. Vengriyada 1994-yildan ishlab chiqarish o‘sdi. 1990-yilda yalpi ichki mahsulotning 90 foizini nodavlat sektori beraboshladi. Vengriya Yevropa Ittifoqi va 1998-yilda NATOga a’zo bo‘ldi. Hozir mamlakat Prezidenti Laslo Shoyom.

1945-yil 28-iyunda Polsha emigrant hukumati va Polsha milliy-ozodlik komiteti birlashtirilib, Milliy birlik hukumati tuzildi. Bosh vazir lavozimini E. Osubka-Moravskiy, uning o‘rinbosari lavozimini S. Mikolaychik (1901—1966) egalladi. Bir qator islohotlar o‘tkazilib, yangi jamiyat qurishga kirishildi. 1947-yil 17-yanvarda

Polsha seymiga saylovlar bo‘lib o‘tdi va Boleslav Berut (1892—1956) mamlakat Prezidenti, Yu. Sirankevich esa hukumat raisi vazifalarini qo‘lga kiritishdi. B. Berut 1948-yil dekabrdan Polsha birlashgan ishchi partiyasi (PBIP) rahbari ham bo‘lib qoldi.
50-yillarda sanoatda sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. 10 mingdan ortiq kooperativlar tuzildi. Ammo kollektivlashtirishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi. 1956-yil martida B. Berut vafotidan keyin partiyada ham birlik bo‘lmadi. Xalqning noroziligi kuchaydi. Mamlakatda siyosiy inqiroz boshlandi. Iyun oyida ishchilar ish tashladi, talabalar namoyishga chiqdi. Xalq harakati mamlakat armiyasi tomonidan qonga botirildi. To‘qnashuvda 53 kishi o‘ldirildi.
1956-yil oktabr oyida V. Gomulka (1905—1982) partiya rahbarligiga keldi. Xalq birligi fronti tuzilib, hukumatga barcha partiyalar vakillari kiritildi va unga Yu. Sirankevich boshchilik qildi. V. Gomulka tutgan yo‘l ham o‘zini oqlamadi. 1970-yil dekabrda oziq-ovqat tovarlari narxi oshishi e’lon qilindi. Bu ommaviy norozilikka sabab bo‘ldi.
Natijada 1970-yil 20-dekabrda partiya rahbarligiga E. Gerek (1913—2002) keldi. Hukumat «o‘ta industrlashtirish» siyosatini yuritdi. Tashqi qarz 23 mlrd dollarga yetdi. Yetishmovchilik kuchaydi. Olibsotarlik va jinoyat o‘sdi. 1980-yilda ommaviy ish tashlashlar boshlandi.
1981-yilda «Birdamlik» harakati tashkil etildi. Uning rahbari ishchielektrik Lex Valensa edi. 1981-yil fevralida V. Yaruzelskiy Bosh vazir, sentabrda esa partiya rahbari etib saylandi. 14-dekabrda mamlakatda harbiy holat e’lon qilindi. «Birdamlik» taqiqlandi, rahbarlari esa qamaldi.

1983-yil yozida harbiy holat bekor qilindi. Korxonalar xususiylashtirila boshlandi. 1988-yil iyulidan 1990-yil dekabrigacha V. Yaruzelskiy mamlakat Prezidenti lavozimida ishladi. Hukumatni L. Valensaning safdoshi T.Mozaveskiy boshqardi.
1990-yilda PBIP faoliyati tugadi. Dekabr oyida Lex Valensa Prezidentlikka saylandi. 1993-yilda 70 foiz korxona xususiylashtirildi. «Shok terapiyasi» amalga oshirildi. Demokratiyani rivojlantirish choralari ko‘rildi. Qator qiyinchiliklar yuzaga keldi.
1995-yilgi saylovlarda A. Kvasnevskiy Prezidentlikka saylandi. 2005-yil dekabrda esa uning o‘rniga Lex Kachinskiy keldi. Polsha Yevropa Ittifoqi va NATOga qabul qilindi.
1945-yil martida Chexoslovakiyada Milliy front tuzildi. Respublika Prezidenti lavozimini E. Benesh egalladi. 1945-yil 4-aprelda Z. Firlinger boshliq hukumat tuzildi. K. Gotvald Bosh vazir o‘rinbosari bo‘lib qoldi. Bu tarixda «Koshitse hukumati» deb nom oldi. 1945-yil 21-iyunda fashistlar bilan hamkorlik qilganlarning mulki bepul musodara qilindi. 24-iyunda korxonalar, banklar milliylashtirildi.
1946-yil 26-mayda K. Gotvald hukumat boshlig‘i lavozimini egalladi.
1948-yil 6-iyunda E. Benesh iste’foga chiqqach, K. Gotvald mamlakat Prezidenti etib saylandi. 50-yillarda sanoat 93 foizga o‘sdi, yirik korxonalar qurildi, xalqning turmush darajasi oshdi.
1953-yil martda, K. Gotvald vafotidan keyin, A. Zapoteskiy Prezident bo‘ldi, 1957-yilda uning o‘rniga A. Novotniy (1904—1975) keldi. Lekin 1961—1963-yillarda mamlakatda og‘ir inqiroz ro‘y berdi va u 1966-yilgacha davom etdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘sishi, mehnat unumdorligi pasaydi. Xalqning noroziligi kuchaydi. A. Novotniyning uzoq yillik hukmronligi davrida qotib qolgan totalitar jamiyatni o‘zgartirishga da’vatkorlar ko‘paydi. Natijada 1968-yilning yanvar oyida Chexoslovakiyada A. Dubchek boshchiligida jamiyatni islohot yo‘li bilan tubdan yangilash tarafdorlari bo‘lgan kuchlar hokimiyat tepasiga kelishdi. A. Novotniy lavozimidan ketdi.
A. Dubchek iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish, jamiyatni demokratlashtirish rejasini e’lon qildi. SSSR oliy siyosiy rahbariyati, shuningdek, CHKPning KPSSga sodiq qismi bu rejani «aksilinqilobiy reja» deb hisobladilar. Ayni paytda A. Dubchek va uning tarafdorlarini o‘z rejasidan voz kechishga chaqirdilar. Biroq A. Dubchek boshchiligidagi CHKPning islohotchi rahbariyati o‘z fikrlarida qat’iy turdilar.

1968-yil 21-avgust kuni Varshava Shartnomasiga a’zo 5 davlat (SSSR, Polsha, GDR, Vengriya va Bolgariya) armiyasi Chexoslovakiya hududiga kiritildi. Shu tariqa totalitar sotsializmni yo‘q qilish yo‘lidagi harakat bostirildi. A. Dubchek va boshqalar hibsga olindi. Tarixga bu voqealar «Praga bahori» nomi bilan kirdi. Bu voqealar Sharqiy Yevropa davlatlarida sovet nusxasidagi sotsializm aholi xohish-istagiga qarshi kuch bilan o‘rnatilganligini yana bir bor isbotladi.

Chexoslovakiya

1968-yil boshida ishlab chiqilgan dasturdan faqat bittasi — mamlakatni Chexiya va Slovakiyadan iborat Federatsiyaga aylantirish amalga oshdi. 1969-yil aprelida A. Dubchek lavozimidan bo‘shatilib, uning o‘rniga Gustav Gusak saylandi.

Mamlakatda totalitar rejim o‘rnatilib, siyosiy rahbarlarning bir qismi muhojirlikka ketdi, ko‘pchiligi hibsga olindi va yanchib tashlandi. Gustav Gusakning harakatlariga (ishlab chiqarishni intensivlashtirish, texnologiyani yangilash, narxlarning nazorat qilinishi, boshqaruv tizimini takomillashtirishga) qaramasdan iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari pasayib ketdi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 3 foizigina jahon standartlari darajasida edi. Natijada aholini zarur mahsulotlar bilan ta’minlashda uzilishlar ro‘y berdi. Norozilik to‘lqinlari kuchaydi. «Xartiya-77» muxolifat guruhi paydo bo‘ldi.

1987-yilda liberal islohotchilar harakat boshladi. 1989-yil 17-noyabrda radikal islohotni talab qilgan yoshlarning ommaviy chiqishlari boshlandi. Namoyishlar politsiya yordamida bostirildi. Sovet qo‘shinlari betaraflik pozitsiyasida turdi. 18-noyabrda «Fuqarolik forumi» (FF) tuzildi. 1989-yil 24-noyabrda CHKP rahbariyati iste’fo berdi. (1987-yil dekabrda CHKP Bosh sekretari lavozimini M. Yakesh egallagan edi.) 10-dekabrda 77 yoshli Gustav Gusak Prezidentlik lavozimidan ketdi. «Fuqarolik forumi» yo‘lboshchisi Vatslav Gavel mamlakat Prezidenti, A. Dubchek esa Federal majlis raisi qilib saylandi. Shunday qilib «baxmal inqilob» amalga oshdi. 1990-yil iyunda saylovlar bo‘lib, FF 50 foizga yaqin ovoz oldi. V. Klaus boshliq koalitsion hukumat tuzildi. Endi mamlakat ikkiga bo‘linish muammosiga duch keldi. 1993-yil 1-yanvaridan dunyo xaritasida ikkita mustaqil davlat — Chexiya Respublikasi, Slovakiya Respublikasi paydo bo‘ldi. 1993-yil bahorida Mixail Kovach Slovakiya Prezidenti qilib saylandi. Vladimir Michya — Bosh vazir lavozimini egalladi. Hozir Ivan Gashparovich Prezident lavozimida ishlamoqda.

1994-yilga kelib Slovakiyada ishlab chiqarish darajasi yuqori sur’atlarda o‘sdi. 2004-yilda u Yevropa Ittifoqi va NATO a’zoligiga qabul qilindi.

Chexiya davlati Prezident Vatslav Klaus boshchiligida yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot tayyorlash bo‘yicha Sharqiy Yevropa davlatlari ichida birinchi o‘rinda turadi. Chexiya 1999-yil NATO ga va 2004-yilda Yevropa Ittifoqiga qabul qilingan.

Esda saqlang: «Har bir ko‘chada ikkitadan non do‘koni, bir juft shirinliklar do‘koni, ikkita pivo bari va ko‘plab magazinlar bo‘lishi lozim, asosiysi ularning hammasi xususiy bo‘lishi kerak».

Vatslav Gavel.

1945-yil 6-martda eski burjua hukumati o‘rniga Petru Groza boshliq Xalq demokratik fronti hukumati tuzildi. Hukumat fashizm tarafdorlari yerlarini, mulklarini musodara qildi va yersizlarga bo‘lib berdi. 1945-yil oktabrda Georgi Georgiu-Dej RKP

Ruminiya

(1948-yil fevralidan RIP — Ruminiya Ishchi Partiyasi) rahbari etib saylandi. Sovetlar tipidagi sotsializm qurish boshlandi. Korxonalar, banklar davlat mulkiga aylantirildi. 1947-yil 30-dekabrda qirol Mixay taxtdan voz kechib, Ruminiya Xalq Respublikasi deb e’lon qilindi. 1952-yil sentabrda Konstitutsiya qabul qilindi. Petru Groza iste’foga chiqdi va Georgi Georgiu-Dej Vazirlar Kengashi raisi (1961-yildan Prezidentlik) lavozimini ham egalladi. 50-yillarda 2 ta besh yillik reja bajarildi. 1960-yilda 11,5 mln tonna neft ishlab chiqarildi. Bu 1938-yilga nisbatan 2 baravar ko‘p edi. 1958-yilda Sovet qo‘shinlari mamlakatdan olib chiqib ketildi.

1962-yili mamlakatda qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish tugadi. Qora va rangli metallurgiyani rivojlantirish choralari belgilandi.
1965-yil iyulida G. Georgiu-Dej vafot etgach, partiyada uning o‘rnini N. Chaushesku egalladi. Prezidentlik lavozimi tugatilib, 1974-yilda qayta joriy qilindi va N. Chaushesku uni ham egalladi. Natijada uning diktatorligi qaror topdi.
Ruminiya hukumati Ruminiyaning o‘ziga xosligini ta’kidlab, «Brejnev doktrinasi»dan saqlanar, O‘IYOK integratsion tadbirlarining ba’zilarida qatnashmas, XXRni qo‘llab-quvvatlar, xalqaro tashkilotlardan yordam olishga harakat qilardi.
80-yillarda iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari pasaydi. Yuksak texnologiyaga, xususiy xo‘jaliklarga e’tibor berilmadi. Aholi ta’minoti yomonlashdi.
1987-yil Brashovada «Yo‘qolsin diktator!» shiori ostida bo‘lib o‘tgan namoyish bostirildi. 1989-yil 17-dekabrda Timishoarada (Transilvaniya) protestant ruhoniylarni ko‘chirish jarayonida g‘alayonlar kelib chiqdi va ular qurol yordamida bostirildi. Hokimiyatdan norozi bo‘lganlar Millatni Qutqarish Fronti (MQF) tuzdilar. Unga I. Iliyesku rahbarlik qildi.
1989-yil 22-dekabrda Chaushesku diktaturasi ag‘darib tashlandi. 25-dekabrda diktator va uning xotini sud qarori bilan otib tashlandi. 1990-yil mayida saylovda I. Iliyesku Prezident qilib saylandi. Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o‘taboshladi. Xususiylashtirish kuchaytirildi. Lekin ahvolni yaxshilashning iloji bo‘lmadi. Aholining turmush darajasi pasaydi. Olibsotarlik, jinoyat kuchaydi.
1996-yilgi saylovda liberallar rahbari E. Konstantinesku Prezidentlik lavozimini egalladi. U xususiylashtirishni tugallash, chet el investitsiyalarini jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini va aholi daromadini oshirish uchun qator tadbirlar belgiladi. Lekin ahvol yaxshilanmadi. 2000-yilgi saylovlarda yana I. Iliyesku Prezidentlik lavozimiga keldi.
1944-yil 9-sentabrda Bolgariyada Vatan fronti hukumati tuzilib, unga K. Georgiyev boshchilik qildi. 20 yillik emigratsiyadan 1945-yil noyabrda mamlakatga qaytib kelgan G. Dimitrov Xalq majlisi raisligiga saylandi. 1945-yil noyabrda fashizmga yon bosganlar mulki milliylashtirildi. 1946-yil martda agrar islohot o‘tkazildi. 1946-yil 15-sentabrda Bolgariya Xalq Respublikasi deb e’lon qilindi va yangi hukumatga G. Dimitrov boshchilik qildi. Mamlakatda sovet namu-

nasidagi sotsializm qurish boshlandi. 1947-yilda barcha mulklar milliylashtirildi.
G. Dimitrov 1949-yil iyul oyida, uning o‘rniga kelgan V. Kolarov esa 1950-yil yanvarda vafot etdi. Davlat va partiya boshlig‘i lavozimini G. Chervenkov egalladi. Uning shaxsiga sig‘inish iqtisodiyotga katta zarar yetkazdi. Sanoat o‘sishi, aholini zarur mahsulotlar bilan ta’minlash darajasi pasaydi. Bir qator shaxslar qatag‘on qilindi.
1954-yil martida partiya rahbarligiga Todor Jivkov keldi. G. Chervenkov hukumat boshlig‘i lavozimidan ozod qilindi, uning o‘rniga A. Yugov tayinlandi. Todor Jivkov 1962-yilda A. Yugov o‘rnini ham egalladi. U 1971-yil iyulidan mamlakat Prezidenti lavozimiga saylandi va diktaturasini o‘rnatdi. Mamlakat hokimiyat tuzilmalarida urug‘-aymoqchilik avj oldi.
T. Jivkov davrida yangilanish va zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, uning samaradorligini oshirish uchun xo‘jalik va boshqaruv tizimi o‘zgartirib borildi. Mehnat intizomining qattiqlashuvi oylik maosh va nafaqalarni oshirish, ijtimoiy iste’mol fondlarini kuchaytirish hamda yangi uy-joylar qurilishi bilan qo‘-shib olib borildi. Mamlakatda sanoat o‘sdi, AESlar qurildi, qishloq xo‘jaligi va shaharlar yangi qiyofaga kirdi. Mamlakat O‘IYOK ishida faol qatnashdi. Ammo ishlab chiqarish samaradorligi deyarli o‘zgarmadi, yuksak texnologiyalarni uning asosiy kuchiga aylantirishga muvaffaq bo‘linmadi. Investitsiyalar qisqara bordi, milliy boylikning o‘sish sur’atlari, mehnatkashlar turmush darajasi pasaydi. Mamlakatda korrupsiya kuchaydi. 80-yillarning ikkinchi yarmida aholining keng qatlamlari tuzumdan norozi bo‘laboshladi. Sovet davlatidagi qayta qurishni T. Jivkov norozilik bilan qarshi oldi. U

1987-yilda Bolgariyani SSSR tarkibiga qo‘shib olishni so‘radi, lekin sovet rahbariyati bunga rozi bo‘lmadi. Shundan so‘ng T. Jivkov mamlakatda «sotsializmning yangilangan modeli»ni qurishga kirishdi.
1988-yildan boshlab hech qanday tayyorgarliksiz korxonalarning o‘zini o‘zi boshqarishi to‘g‘risida, qishloq joylarda o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlashni tashkil etish haqida farmonlar chiqardi va dunyo bozori narxlarini joriy qildi. Ammo bu ahvolni yanada murakkablashtirdi.
1989-yil 10-noyabrda T. Jivkov o‘z lavozimidan chetlashtirildi, sud qilinib, qamoq jazosiga hukm qilindi. 1996-yildan uy qamog‘ida saqlanadigan bo‘ldi.
1990-yil yozidagi saylovlardan so‘ng Jelyu Jelev prezidentlik lavozimini egalladi. Lekin ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiyaning o‘sishi, oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi. 1996-yil kuzidagi saylovlarda mamlakat prezidentligiga P. Stoyanov saylandi. 2001-yilgi saylovlarda Georgi Parvanov g‘alaba qildi. Bolgariyada Yevropa Ittifoqi bilan yaqinlashish, bozor iqtisodi qonunlarini joriy etish natijasida milliy valutaning kuchayishi va inflatsiyaning susayishi ta’minlandi. Aholi sotsialistik xomxayollardan qutulabordi.
Bolgariya 2004-yilda NATO ga va 2007-yilda Yevropa Ittifoqiga qabul qilindi.

Bu yerda 1945-yil 7-martda I. Broz Tito boshchiligida birlashgan vaqtli hukumat tuzildi. 1945-yil 29-noyabrda ta’sis skupshinasi monarxiyani bekor qildi, Yugoslaviya Federativ Xalq Respublikasi deb e’lon qilindi. 1945-yil avgustida agrar islohot e’lon qilindi. Eng ko‘p yer 25—35 gektar deb belgilandi. Traktorsozlik, avtomobilsozlik, stanoksozlik, qora va rangli metallurgiyani rivojlantirish uchun choralar ko‘rildi. Lekin qishloq xo‘jaligida ahvol og‘ir edi. Dehqon mehnat kooperativlari 50 foizgacha dehqonlarni birlashtirdi.
1953-yil yanvarda mamlakatda prezidentlik lavozimi joriy etildi va I. Broz Tito bu lavozimni ham egalladi. 1957—1965-yillarda sanoat 7,5 foizga o‘sdi. Sotsialistik sektorda 29 foiz haydaladigan yer to‘plandi.
I. Broz Tito Yugoslaviyani buyuk davlatga aylantirish, Bolqon federatsiyasini tuzish, Albaniya hududida o‘z qo‘shinlarini joylashtirishga harakat qildi. Bu narsa Moskvaga yoqmadi. Natijada kelishmovchilik paydo bo‘ldi. 1949-yilda aloqalar uzildi. 1953-yilda, Stalin vafotidan keyingina ikki o‘rtada diplomatik munosabatlar tiklandi.
Ko‘rilgan choralar natijasida 50-yillar oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi davrdagidan 3 baravar, qishloq xo‘jaligi 40 foiz o‘sdi. 1965-yilda yangi islohotlar boshlandi. 1971-yilda 60 foiz traktorlar xususiy xo‘jaliklar qo‘lida edi. Ishchilar vaqtincha chet elga ketib ishlab, mamlakat moliyasiga katta yordam berdilar. 1971-yilda 1 mln dan ortiq yugoslavlar rivojlangan davlatlarda ishladilar.
70-yillarga kelib ahvol murakkablashdi. Millatchilar bosh ko‘tardi. 1974-yilda ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklaydigan konstitutsiya qabul qilindi. O‘sha yili may oyida I. Broz Tito cheklanmagan muddatga prezident qilib saylandi. Lekin iqtisodiyot og‘irlashib bordi. Chet eldan mamlakat 40 mlrd dollar qarzdor bo‘lib qoldi.
1980-yil 4-mayda I. Broz Tito 88 yoshida vafot etdi. Bu davrda sanoatning 8 foizi, savdoning 59 foizi, qishloq xo‘jaligining 76 foizi xususiylashtirilgan edi. 80-yillarga kelib yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 70-yillarga nisbatan 4 marta kam bo‘ldi.
Bu davrga kelib Yugoslaviyaning parchalanishi boshlandi. 1991-yil iyunida Xorvatiya, Sloveniya va Makedoniya mustaqil respublika deb e’lon qilindi. 1992-yil yanvarida Bosniya va Gersogovina mustaqil davlat bo‘lib qoldi.
1989-yildan Prezidentlik lavozimida ishlayotgan S. Miloshevich mamlakat yagonaligini saqlab qololmadi. 1990-yil oxirida u faqat Serbiya Prezidenti bo‘lib qoldi. 1991-yilda Serbiya va Chernogoriya o‘z federatsiyalarini Yugoslaviya Respublikasi Ittifoqi (YURI) deb atadi (1997-yildan S. Miloshevich prezident bo‘ldi).
1991-yilda Xorvatiyada F. Tujman (u 1999-yilda vafot etgach S. Misich), 1990-yildan Bosniya va Gersegovinada A. Izetbegovich, 1997-yildan Sloveniyada M. Kuchan hukumat rahbarligida ishlab keldilar. S. Miloshevich

Xorvatiya, Bosniya va Gersegovinaga qo‘shin kiritdi. 5 ming kishi o‘ldirildi, 500 ming kishi qochoqqa aylandi. Yugoslaviyadagi bu voqealardan keyin 10 ming kishi Vengriyaga qochib o‘tdi. O‘n minglab kishilar G‘arbiy Yevropa davlatlariga ketdi.

YURI ning keyingi rivojlanishidagi murakkab vaziyat Miloshevichning Kosovodagi siyosati natijasi bo‘ldi. U yerda 1990-yilga kelib alban millatiga mansub bo‘lmagan aholi atigi 10% ni tashkil qilardi. Ko‘pchilikni tashkil etgan albanlar keng muxtoriyatni talab qildi va o‘lka huquqlarini cheklashga javoban o‘z parlamentini sayladi. Bu parlament esa Kosovo Respublikasi mustaqilligini e’lon qildi, konstitutsiyani qabul qildi va prezident saylandi. Serbiyaning bu respublikaga qurolli kuchlar yordamida barham berishga bo‘lgan urinishi Kosovoning qurollangan otryadlariga to‘qnash keldi.

Serbiya qo‘shinlarining Kosovoga bostirib kirishiga albanlar partizanlik urushi bilan javob qaytarishdi. Urush qurbonlar va qochoqlar sonini oshirdi. Bu urush va S. Miloshevichning kosovoliklar bilan muzokara olib borishdan bosh tortishi BMT, YEXHT, NATO kabi xalqaro tashkilotlarning va yirik mamlakatlarning aralashuviga sabab bo‘ldi. Rossiya Federatsiyasi e’tirozlariga qaramasdan, NATO 1998-yilda Serbiyani bombardimon qildi.

Buyuk davlatlar Kosovoning Serbiya tarkibida ekanligini tan olib, Kosovodagi fuqaro va etnoslarning huquq va erkinliklarini himoya qilgan holda, Yevropadagi bu urush o‘chog‘ini yo‘q qilishga intilmoqda, ammo alban separatistlari Buyuk Albaniyani tuzish uchun qurolli kurashni to‘xtatmayaptilar.

Serbiyaning bombardimon qilinishi va unga qarashli qo‘shinlarining Kosovodan chiqarilishidan so‘ng YURI qiyin vaziyatda qoldi. Serbiyada taraqqiyot yo‘lini o‘zgartirish va S. Miloshevichning iste’foga chiqishini talab etuvchi chaqiriqlar faollashdi.

Faqat 2000-yildagina Serbiyada demokratik kuchlar birlashishga muvaffaq bo‘lishdi va federal prezident saylovlarida Miloshevich mag‘lubiyatga uchradi. Hukumat saylovlarni bekor qilishga urindi, ammo oktabr oyida qo‘zg‘olon darajasiga yetgan xalq chiqishlari Miloshevichni iste’foga ketishga majbur etdi va mamlakat prezidentligiga demokratik kuchlar yetakchisi V. Koshtunitsa saylandi. S. Miloshevichning Yugoslaviyadagi xunrezliklari uchun Gaaga xalqaro tribunali 2001-yilda uning ustidan sud boshladi va u qamoqda vafot etdi. Hozir B. Tadich Serbiya Prezidentidir.

XX asr oxiriga kelib fuqarolar urushi natijasida sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasidagi (YUSFR) 6 ta ittifoqdosh respublikadan 4 tasi (Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya) mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdilar. Bu davrda oldin Bosniya va Gersegovinaga, so‘ngra Kosovo avtonom o‘lkasiga AQSH boshchiligida BMT qo‘shinlari kiritildi va etnik kelishmovchiliklarni tugatish uchun 1999-yilda Kosovo BMT protektoratiga aylantirildi. 1992-yildan 2003-yilgacha Kichik Yugoslaviya

(Serbiya va Chernogoriya) yoki Yugoslaviya Respublikalar Ittifoqi deb ataldi. 2003–2006-yillarda Serbiya va Chernogoriya konfederativ davlat ittifoqi vujudga keldi, 2006-yil 3-iyunda Chernogoriya bu ittifoqdan chiqqandan keyin Serbiya bir o‘zi qoldi. Yugoslaviya davlati o‘z faoliyatini to‘xtatdi. 2008-yil 17-fevralda Kosovo avtonom o‘lkasi o‘zini mustaqil deb e’lon qildi, lekin Serbiya buni tan olmadi. Tinchlik o‘rnatuvchi xalqaro qo‘shinlar hamon Kosovoda turibdi.

YUSFRning mustaqil davlatlarga aylangan sobiq respublikalarining taqdiri ana shunday turlicha bo‘ldi. YUSFRdagi sotsializm original modelining qulashi kommunizm prinsiplari noto‘g‘riligini bildirsa, respublikalar taraqqiyoti liberalizmning jozibadorligini anglatadi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish kerakki, Chexoslovakiya voqealaridan so‘ng Sharqiy Yevropa davlatlarida totalitar tartib yanada kuchaydi. Xususan, iqtisodiy islohotlar to‘xtatildi. O‘zgacha fikrlovchilarning ta’qib etilishi kuchaydi. Biroq bu hodisa Sharqiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy ahvolini mushkullashtirdi. 70-yillardan boshlab bu davlatlarning iqtisodiy ahvoli tobora

murakkablasha bordi.
Ular endi G‘arb davlatlaridan qarz olishga majbur bo‘ldilar. Bundan ko‘zlangan maqsad — sanoatda eskirgan uskunalarni yangilash edi. Lekin bu maqsadga erishilmadi. Chunki bozor iqtisodiyotisiz ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari hech qanday samara bermas edi. Buning ustiga, Sharqiy Yevropa davlatlari oldida endi tashqi qarz muammosi ham paydo bo‘ldi. Samarasiz iqtisodiyot tashqi qarzni to‘lashga imkon bermasdi. Shu tariqa iqtisodiy ahvol borgan sari yomonlashdi.
Bu hodisa, o‘z navbatida, aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir etmay qolmadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, 80-yillarda birinchi bo‘lib Polsha ishchilari bosh ko‘tarishdi. 1981-yilda hukumat mamlakatda harbiy holat joriy etishga majbur bo‘ldi. 1989-yil noyabrda Chexoslovakiyada Kommunistik partiyaning rahbarlik roli barham topdi. Boshqa «sotsialistik» davlatlarda ham ahvol Polsha yoki Chexoslovakiyadagidan yaxshi emas edi.
Shu tariqa Sharqiy Yevropa davlatlarida hukmron kommunistik partiyalar o‘z ta’sirini yo‘qotib bordilar. Ayni paytda Sharqiy Yevropa davlatlarida demokratik inqilobiy vaziyat yuzaga kela boshladi. Totalitar sotsializm ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham ma’naviy inqirozga yuz tutdi.
Shundan so‘ng Sharqiy Yevropa davlatlarida demokratik inqilob uchun zarur sharoitlar yetildi. Bu sharoitning inqilobga o‘sib o‘tishi uchun faqat tashqi turtki zarur edi, xolos. SSSRda 1985-yil boshlangan qayta qurish siyosati ana shu tashqi turtki vazifasini bajardi. Chunonchi, M. S. Gorbachyov boshchiligidagi yangi rahbariyat Sharqiy Yevropa davlatlarining avvalgi rahbarlarini qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi.

Ayni paytda SSSR rahbariyati bu davlatlarning taraqqiyot yo‘llarini o‘zlari tanlash huquqini tan oldi. Bu — SSSR Sharqiy Yevropadagi mavjud diktatorlik tartibini saqlab qolish uchun o‘z armiyasidan foydalanmaydi, degani edi. Amalda shunday bo‘ldi ham. Sotsializm qo‘rg‘onlari birinketin quladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, 1989-yil yanvar oyida Vengriyada parlament demokratiyasiga o‘tiladi. Iyun oyida Polshada muxolifat kuchlar saylovda g‘olib chiqdilar. Shu yil 4-noyabr kuni GDR da kommunistlar rejimi quladi. 10-noyabrda Bolgariyada kommunistlar diktaturasi barham topdi. 22-dekabrda esa Ruminiyada sotsialistik rejim ag‘darildi.
Shu tariqa sobiq sotsialistik davlatlarda demokratik inqiloblar g‘alaba qozondi. Bu inqiloblar oqibatida totalitar sotsializm barham topdi. Bugungi kunda ularda (GDRdan tashqari, chunki hozir bunday davlat yo‘q. U GFRga qo‘shilib ketgan) iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qaror topmoqda.
Sharqiy Yevropa davlatlari bilan O‘zbekiston o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar urushdan keyingi yillardanoq rivojlana boshladi. O‘zbekiston paxtasi u yerdagi to‘qimachilik korxonalari uchun asosiy xomashyo bo‘lib xizmat qildi. Ular O‘zbekistonga tayyor mahsulotlar, turli asbob-uskunalar eksport qildilar. Jumladan, 1987-yilda Chexoslovakiya Toshkentda savdo vakilligini ta’sis etgan bo‘lib, tramvay, avtobus, trolleybuslar, yengil sanoat uchun uskunalar, xalq iste’moli mollari keltirilardi. 1994-yilda tovar ayirboshlash 45 million, 1996-yilda 80 million dollarni tashkil etdi. Qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Jumladan, kam tonnali yuk mashinalarini yig‘ishga ixtisoslashgan «Avtash», brezent ishlab chiqarish bo‘yicha — «Kenaf», ma’danli suvlar va limonli ichimliklar quyishga moslashgan «Samarqand — Praga» va boshqalar ochildi.
1997-yil yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Chexiyaga safar qildi. Islom Karimov Prezident V. Gavel, Bosh vazir V. Klaus va boshqa ishbilarmonlar bilan uchrashdi. Uzoq muddatli aloqalarning asoslari yaratildi. O‘zbekiston bilan Chexiya o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish haqida hujjat imzolandi.
Shuningdek, Islom Karimov 1997-yil yanvarida Slovakiya Respublikasida ham amaliy tashrif bilan bo‘ldi. Prezident Mixail Kovach, Bosh vazir V. Mechyar bilan uchrashdi. O‘zbekiston bilan Slovakiya o‘rtasida o‘zaro

munosabatlar va hamkorlik asoslari haqida shartnoma imzolandi. 1997-yil fevralda slovak aksionerlik jamiyati «YAS» (mashhur «Sebo» merosxo‘ri) firmasining vakilligi ish boshladi.
1998-yil iyunida Chexiya Respublikasi gepatit kasalligi diagnostikasi va profilaktikasi uchun 70 ming dollar qiymatida meditsina asbob-uskunalarini gumanitar yordam sifatida «Ekosan» fondiga topshirdi.
Sharqiy Yevropa
davlatlari va
O‘zbekiston
233
1997-yil oktabrida Vengriya Respublikasi Prezidenti Arpada Gens O‘zbekistonga tashrif buyurdi va Islom Karimov bilan uchrashdi. Vizit yakunida Vengriya va O‘zbekiston o‘rtasida hamkorlikni, do‘stlik munosabatlarini har tomonlama yanada guruhlashtirish haqida deklaratsiya, turizm sohasidagi hamkorlik haqida bitim va boshqa hujjatlar imzolandi.
1998-yil oktabrida Prezident Islom Karimov Bolgariya Respublikasida rasmiy tashrif bilan bo‘ldi. Bolgariya Prezidenti P. Stoyanov bilan uchrashdi. Bolgariya va O‘zbekiston o‘rtasida do‘stlik munosabatlari va hamkorlik haqida shartnoma, investitsiyalarni himoyalash va rag‘batlantirish, savdoiqtisod, madaniyat, turizm, xalqaro yuk va yo‘lovchilarni avtomobilda tashish haqida bitimlar imzolandi.
Sharqiy Yevropa davlatlari bilan O‘zbekiston davlati rahbarlari o‘rtasida tez-tez rasmiy uchrashuvlar odat tusiga kirdi. 2005-yil martida Islom Karimov Sloveniyada bo‘ldi. Prezident Ya. Drnovshek va Milliy kengash raisi Yanez Sushnik bilan muzokaralar olib bordi. Xalqaro yo‘nalishda avtomobillarda yo‘lovchi va yuklarni tashish bo‘yicha bitimlar tuzildi.
Demak, Sharqiy Yevropa davlatlari bilan O‘zbekiston o‘rtasida o‘zaro manfaatli iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatildi va tobora rivojlanib bormoqda.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Sharqiy Yevropa davlatlarida kommunistik partiyalar qay tariqa hokimiyat tepasiga keldi?
2. Nega Sovetlar namunasidagi sotsializm inqirozga yuz tutishi muqarrar edi?
3. «Totalitar sotsializm» ning qanday jamiyat ekanligini izohlab bering.
4. 80-yillar oxiri — 90-yillar boshida Sharqiy Yevropa davlatlarida ro‘y bergan demokratik inqiloblarning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Vaqtli matbuot nashrlaridan Sharqiy Yevropa davlatlarining O‘zbekiston bilan aloqasiga doir ma’lumotlarni to‘plang.
QUYIDAGI JADVALLARNI SHARHLANG:
SHARQIY YEVROPA DAVLATLARIDA 1990—2007-YILLARDA YALPI ICHKI MAHSULOT (YAIM) KO‘RSATKICHI (mln AQSH dollari hisobida)

Davlatlar	**1990-yil**	**Eng kuchli pasayish yili**	**2000-yil**	**2007-yil**
Bolgariya	85,0	1997	65,0	66,1
Vengriya	151,0	1993	150,0	109,5
Polsha	460,0	1991	632,0	632,0
Ruminiya	183,5	1992	150,0	182,0
Slovakiya	72,5	1993	80,0	81,4
Sloveniya	32,5	1992	34,0	41,19
Xorvatiya	62,20	1993	39,0	52,08
Chexiya	190,0	1992	180,0	187,5
Yugoslaviya	122,0	1993	76,0	79,0

?
234
AHOLI JON BOSHIGA YALPI ICHKI MAHSULOTNING 1990—2007-YILLARDAGI KO‘RSATKICHI (ming AQSH dollari miqdorida)

Davlatlar	**1990-yil**	**2000-yil**	**2007-yil**
Bolgariya	10,6	7,9	10,6
Vengriya	15,1	15,1	11,2
Polsha	12,0	16,3	16,6
Ruminiya	8,7	6,6	16,8
Slovakiya	13,9	14,8	14,9
Sloveniya	16,3	17,0	20,25
Xorvatiya	14,4	8,5	11,6
Chexiya	19,0	17,0	18,3
Yugoslaviya	11,8	7,0	8,0

3-bob. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

Urush Yaponiyani vayronaga aylantirdi. Ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaning 30 foiziga tushib qoldi. 10 mln kishi ishsiz qoldi. Yaponiya taslim bo‘lganidan (1945-yil 2-sentabr) ikki haftadan so‘ng uning hududi AQSH armiyasi tomonidan okkupatsiya qilindi. Bu armiyaga general D. Makartur rahbarlik qildi. U Yaponiyada cheklanmagan hokimiyatga ega edi.

Yaponiya qurolsizlantirilishi va mamlakatda demokratik tartib o‘rnatilishi kerak edi. Bu vazifaning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida Tokio shahrida ittifoqchi davlatlar (AQSH, SSSR, Buyuk Britaniya va Xitoy) vakillaridan iborat Ittifoq Kengashi tuzildi.

Amerikaliklar Iosudani Bosh vazir qilib qo‘ydilar. U 1944-yildan qurolyarog‘ vaziri bo‘lib ishlagan va amerikaliklarga «kommersiya xabarini» yetkazishda ayblanib, 1945-yil boshida qamoqqa olingan edi. Iosida ozgina tanaffus bilan (1947—1948) mamlakatni 1954-yil dekabrigacha boshqardi. Mamlakat armiyasi demobilizatsiya qilindi. Harbiy muassasalar tarqatib yuborildi. Militaristik tashkilotlar taqiqlandi. Harbiy va siyosiy jinoyatchilar sudga tortildi. Davlat apparati jinoyatchi unsurlardan tozalandi. Yashirin politsiya tugatildi. Kasaba uyushmalari faoliyati tiklandi. Demokratik siyosiy partiyalar tuzildi. Bular taraqqiyparvar, liberal va sotsialistik partiyalar edi. Mamlakat demokratik yo‘ldan taraqqiy etishi uchun barcha zarur choralar ko‘rildi. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushida Yaponiyaning mag‘lubiyatga uchrashi yapon xalqi va mamlakat kelajagi uchun katta ijobiy ahamiyatga ham ega bo‘ldi. Chunki mag‘lubiyat tufayli Yaponiyada militarizm tugatildi. Bu esa Yaponiyani Osiyo va Tinch okeani havzasida yangi bosqinchilik urushlari olib borish imkoniyatidan mahrum etdi. Bu hol Yaponiya

hukumatiga butun imkoniyatni tinch bunyodkorlik ishlariga qaratishga sharoit yaratdi. Ayni paytda AQSHning Yaponiyani ishg‘ol etishi oxir-oqibatda bu mamlakatning kelgusi taqdiri uchun katta ijobiy hodisa bo‘ldi.

Chunki aynan AQSHning okkupatsiyachi ma’muriyati Yaponiyada chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazilishining kafolati vazifasini bajardi.

Yaponiya parlamenti 1947-yilda mamlakatning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu Konstitutsiyaga ko‘ra, Yaponiyada Konstitutsion monarxiya tuzumi amal qiladi. Yangi Konstitutsiyaga ko‘ra, imperator hokimiyati saqlanib qolgan bo‘lsa-da, Yaponiya demokratik davlat, deb e’lon qilindi. Imperator amalda real hokimiyatdan mahrum etildi. U millat birligi ramzi sifatida saqlab qolindi.

Garchand bosh vazirni imperator tayinlasa-da, uni parlament tasdiqlashi zarur edi. Konstitutsiyaga Yaponiyaning kelgusi taraqqiyoti uchun juda katta ijobiy rol o‘ynagan bir modda kiritildi. Bu — Yaponiyaning urushdan millatning suveren huquqi sifatida voz kechganligi va mamlakatning armiyaga ega bo‘lishi huquqini taqiqlaganligi to‘g‘risidagi modda edi.

Yaponiya bilan tinchlik shartnomasini imzolash maqsadida 1951-yilda AQSHning San-Fransisko shahrida xalqaro konferensiya chaqirildi.

Konferensiya yakunlariga ko‘ra, 1951-yil 2-sentabrda bir tomonlama tinchlik shartnomasi imzolandi va 1952-yil 28-apreldan kuchga kirdi. Unga ko‘ra, Yaponiya Koreya mustaqilligini tan oldi. Tayvan, Peskador, Kurill orollari va Saxalinning janubiga daxl qilmaydigan bo‘ldi. Ittifoqchi davlatlardan SSSR bu shartnomani imzolamadi. Buning sababi nimadan iborat edi? «Sovuq urush» boshlangach, AQSH Yaponiyaga nisbatan munosabatini o‘zgartirdi. Chunki AQSH Uzoq Sharqda SSSR ta’sirining kuchayishini xohlamas edi.

AQSH — Yaponiya harbiy ittifoqi buning kafolati bo‘lishi kerak edi. Ayni paytda Yaponiya o‘zining shimoliy yerlaridan bir qismi (Yalta konferensiyasi qaroriga ko‘ra) SSSRga berilganligiga toqat qila olmas edi. Shunday sharoitda Yaponiya uchun ham AQSHdek qudratli tayanch zarur edi. Ikki davlat manfaatlarining mushtarakligi amerika-yapon harbiy ittifoqini

tuzish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi. San-Fransisko konferensiyasida Yaponiya bilan tuziladigan tinchlik shartnomasi AQSH — Yaponiya harbiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma bilan birgalikda imzolanadigan bo‘ldi. SSSR bunga qarshi chiqdi va norozilik belgisi sifatida konferensiya ishida qatnashishni to‘xtatdi. AQSH va Yaponiya o‘rtasida imzolangan shartnoma «xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnoma» deb ataldi. Unga ko‘ra, Yaponiyada AQSHning harbiy bazalari saqlab qolindi. Ayni paytda AQSHning okkupatsiya tartibi bekor qilindi.

Yaponiyaning yangi Konstitutsiyasi
Tinchlik shartnomasining imzolanishi

236

1946-yilda Yaponiya parlamenti agrar islohot to‘g‘risida qonun qabul qildi. Uning maqsadi pomeshchik yer egaligini tugatish edi. Davlat yer egalari yerini sotib oldi va ularni dehqonlarga sotdi. Shu tariqa pomeshchik yer egaligi tugatildi. Endilikda mamlakat qishloq xo‘jaligida katta bo‘lmagan fermer xo‘jaliklari asosiy rol o‘ynay boshladi.

Sanoatni tiklash uchun ham barcha zarur choralar ko‘rildi. Ayni paytda AQSH reparatsiya olishni to‘xtatdi. Yapon xalqi yuksak vatanparvarlik, mehnatsevarlik, nihoyatda intizomlilik, toqatlilik va sabr-bardoshlilik namunalarini ko‘rsatib mehnat qildi. Ayni paytda yapon xalqi o‘ta tejamkor xalq hamdir. Bundan tashqari, ish beruvchilar bilan xodimlar o‘rtasida yaponlargagina xos bo‘lgan hamkorlik vujudga keldi. Unga ko‘ra, ish beruvchi bilan xodim o‘rtasida shartnoma tuzilar edi.

Shartnomada korxona xodim to nafaqaga chiqquncha ish bilan ta’minlash, xodim esa shu yillar mobaynida sidqidildan mehnat qilish majburiyatini olardi. Bundan tashqari, Yaponiyaning harbiy xarajatlari nihoyatda kam bo‘lib, yillik ijtimoiy mahsulot qiymatining atigi 1 foizini tashkil etardi. Bu hol butun kapital mablag‘ning juda katta qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirishga imkon berar edi. Yaponlarga xos yana bir xususiyat o‘zgalar yutug‘ini erinmay o‘rganish va ulardan unumli foydalana olishdir. Yuqoridagi omillar Yaponiyaning gurkirab rivojlanishini ta’minladi. Chunonchi, 1951-yildayoq sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaga yetdi. 1951—70-yillarda mamlakat iqtisodiyotining yillik o‘sishi o‘rtacha 14,6 foizni tashkil etdi.

1950-yil yozida AQSHning Koreyadagi urushi munosabati bilan Yaponiyaga juda ko‘plab harbiy buyurtmalar berildi. Natijada Yaponiya valuta zaxirasi 1952-yilda 1 mlrd dollarni tashkil etdi. 1960-yilga kelib Yaponiyada sanoatning yillik o‘sishi 20 foizni tashkil qildi. Bunday o‘sish hech bir mamlakatda bo‘lgan emas. «Yapon mo‘jizasi» dunyoni lol qoldirdi. Olimlarning kuzatishiga qaraganda, bu mo‘jizaning siri quyidagi sabablarga bog‘liqdir:

1. Asosiy kapitalning yangilanishi. Sanoat korxonalarida barcha eskirgan jihozlar 50-yillarda almashtirildi. Bu narsa 1960-yilda o‘rta va mayda korxonalarga ham joriy etildi. Chunki 30 foiz ishchilar shunday korxonalarda ishlaydi.
2. Harbiy buyurtmalar. Koreya va Vetnam urushlari munosabati bilan berilgan buyurtmalar sanoatchilarga juda katta foyda keltirdi. Keyinchalik mamlakatning o‘zida buyurtma ko‘paydi.
3. Urushdan keyin harbiy xarajatlarning yo‘qligi. Chunki AQSH 80% harbiy xarajatni moliyalashtirdi. Harbiy xarajatlar 1970-yilga kelganda budjetning 1,2 foizini tashkil etdi.

Islohotlar va Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti

237

4. Konsernlarning ko‘ptarmoqliligi kapitalni aylantirishda qo‘l keldi. Masalan, kemasozlik korxonalari qiyin paytlarda mashinasozlik, kimyo jihozlari, turbinalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan.

5. Davlat monopolizmining xususiy korxonalar bilan yaqinligi. Vazirlar Mahkamasida tashkil etilgan Iqtisodiy rejalashtirish qo‘mitasi ichki va tashqi bozor muhitini o‘rganadi hamda ilmiy-texnikaviy axborotni barcha korxonalarga tarqatadi.
Davlat eng muhim sanoat tarmoqlari bo‘lgan atom sanoati, raketasozlik va boshqalarni hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi va kapital qo‘yishini muvofiqlashtiradi. Yaponiyada rejalashtirishdan ustalik bilan foydalaniladi.
Yana muhim tomoni ma’lum bir tumanda uy-joy, kommunikatsiya, vodoprovod va boshqa infratuzilmani yuzaga keltirish bilan davlat ishlab chiqarish kuchlarini jamlaydi. Davlat hisobidan ko‘plab sanoat korxonalari yangi joylarga ko‘chiriladi.
6. Boshqa mamlakatlar tajribasidan texnik yordam to‘g‘risida bitimlar tuzish, litsenziyalar sotib olish yo‘lidan juda keng foydalaniladi. Lekin bu narsa mamlakat ichkarisida ilmiy-tadqiqot bazasiga salbiy ta’sir etishini hisobga olib, ilmiy-texnik izlanishlarga har 10 yilda 6 baravardan ko‘p mablag‘ sarflamoqda.
7. Ilmiy-texnika inqilobini bevosita ishlab chiqarishda nihoyatda tez qo‘llab samaradorlikka erishmoqda. Bir soha chiqindilarini boshqa siklga yo‘naltiriladi. Jumladan, neftni qayta ishlash — sintetik materiallarga, kimyo — qurilish materiallariga va h.k.
8. Xodimlarga «psixologik yondashuv». Yaponiya korxonalari ishchilarni ishga layoqatsiz bo‘lib qolgunicha yoki umrbod ish bilan ta’minlash to‘g‘risida shartnoma tuzadi. Ishchi esa intizomli, har qanday qiyinchilikka chidaydigan, korxonani o‘ziniki deb biladigan, unga xiyonat qilmaydigan bo‘lishi zarur.
9. Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishida tashqi savdo muhim rol o‘ynaydi. Yapon iqtisodi jahon bozoriga bog‘langan va 100 foiz paxta, jun, kauchuk, nikel, boksitni, 99 foiz neftni, 90 foiz temir rudasi, ya’ni 80 foiz xomashyo va 20 foiz oziq-ovqatni chetdan sotib oladi. 1965-yilgacha Yaponiya importi darajasi eksportga nisbatan yuqori edi. Undan keyin balans faollashdi, eksport ko‘paydi.
1968-yilga kelib Yaponiya jami milliy mahsuloti hajmi jihatidan Fransiya, Buyuk Britaniya va GFRni ortda qoldirdi. Bu borada dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘ringa chiqib oldi.
1981-yilda yana bir mo‘jiza ro‘y berdi. Shu yili Yaponiya yengil avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha AQSHni ortda qoldirdi. Mamlakatda videotexnika, rangli televizor va boshqa maishiy xizmat texnikasi misli ko‘rilmagan darajada o‘sdi. Raqamli axborot texnologiyasi, robotlar ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o‘rinda turibdi. Mitsui, Mitsubisi, Sumitomo, Toyota, Kavasaki

kabi gigant korporatsiyalar milliardlarcha foyda ko‘rmoqda. Mamlakatda temir va ko‘mir konlari bo‘lmasa-da, elektron sanoatning tayyor mahsulotlari, avtomobillar, kimyo sanoati mahsulotlari, optika, sintetik tola va boshqa muhim tovarlarni eksport qiladi.
Yaponiya avtomobillar, kemalar, ro‘zg‘or elektr texnika asboblari, sanoat robotlari ishlab chiqarish, stanoksozlik jihatidan dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi. Baliq ovlash bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinda turadi. Dunyoning 15 foizdan ortiq balig‘ini ovlaydi va uni qayta ishlaydi. Dunyoning 2 foiz (127 mln) aholisiga ega bo‘lgan Yaponiya jahonning 13,3 foiz mahsulotini ishlab chiqaradi.
Yaponiya tashqi siyosatida San-Fransisko shartnomasidan so‘ng AQSH asosiy hal qiluvchi rol o‘ynadi. 1954-yil dekabrida Bosh vazirlik lavozimini egallagan Xatoyama o‘z dasturining bir punktini Sovet davlati bilan munosabatlarni yaxshilashga bag‘ishladi. Natijada 1956-yil oktabrida ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi. Yapon fuqarolari o‘z vatanlariga qaytarildi. Tinch okean shimoli-g‘arbida baliq ovlash, dengizda halokatga uchraganlarga yordam berish to‘g‘risida bitimlar tuzildi.
1957-yil dekabrda sovet-yapon savdo shartnomasi imzolandi va tovar ayirboshlash yo‘lga qo‘yildi.
Shu bilan birga 1960-yil Kisi hukumati AQSH bilan «xavfsizlik shartnomasi

»ni imzoladi va u 1970-yilda uzaytirildi. Unga muvofiq, Yaponiya hududida AQSHning 118 ta harbiy obyekti bo‘lib, ularga 50 mingga yaqin harbiylar joylashtirilgandi. Yaponiya AQSHning Vetnamdagi urushini qo‘llab-quvvatladi. Sobiq bosh vazir Tanaka Amerikaning «Lokxid» aviakompaniyasidan katta miqdorda pora olganligi fosh bo‘ldi. Mamlakatda korrupsiya kuchaydi.
1974-yil dekabrda Bosh vazirlik lavozimiga kelgan Miki zo‘rg‘a 2 yil turdi va Fukudaga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Uning davrida Yaponiyaning «Umumiy bozor» davlatlari bilan raqobati kuchaydi.
1972-yilda Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1978-yilda esa tinchlik va do‘stlik to‘g‘risida bitim tuzildi. 1990-yillarda Yaponiya o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Lekin Osiyoda uning Janubiy Koreya, Tayvan, Tailand, Malayziya kabi raqobatchilari kuchayib bormoqda. Siyosiy hayotda 1955-yildan beri Liberal-demokratik partiya hukmronlik qilib kelmoqda. Korrupsiya, poraxo‘rlik, tovlamachilik tez-tez ko‘zga tashlanadi.
XXI asr boshlariga kelib Yaponiyada siyosiy kuchlar qayta guruhlandi. 2000-yilda o‘tkazilgan saylovlarda Liberal-demokratik partiya rahbari Mori Bosh vazirlik lavozimiga saylandi. Lekin u ham korrupsiya bilan bog‘liq janjalga aralashib qoldi va iste’foga chiqdi. Shundan so‘ng J. Koidzumi Bosh vazir bo‘lib qoldi va u tartibni ancha kuchaytirdi. Hukumatda beqarorlik davom etib, 2006-yil sentabrda Bosh vazirlik lavozimiga Sundzo Abe, 2007-yil sentabrda Ya. Fukudo keldi.

Tashqi siyosat

239

Yaponiya dunyo davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan biri. 1992-yilning 28-avgustida Yaponiyaning O‘zbekistonda faoliyat boshlagan birinchi elchisi Sulilo Edammura O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovga ishonch yorlig‘ini topshirdi.
Har ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik yildan-yilga kengayib bordi. 1994-yilning 16—19-may kunlari O‘zbekiston rahbarining Yaponiyaga rasmiy tashrifi bu ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.
Yaponiya — O‘zbekiston munosabatlari rivojining XXI asr boshlarida yangi bosqichga ko‘tarilishida I. Karimovning 2002-yilning 28—31-iyul kunlarida rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo‘lishi katta ahamiyatga egadir. Bu tashrif davomida I. Karimov va Yaponiya Bosh vaziri J. Koidzumi muhim siyosiy hujjatni — «Do‘stlik, strategik sheriklik va xalqaro hamkorlik to‘g‘risida»gi bayonotni imzoladilar. Bundan tashqari «O‘zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida», «O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llabquvvatlash to‘g‘risida» va yana boshqa qator hujjatlar imzolandi. Bu hujjatlar Yaponiya — O‘zbekiston aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.
Yaponiya O‘zbekiston bilan har tomonlama yaqin hamkorlik qilib kelayotgan davlatlardan biri. Shu vaqtgacha Yaponiyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasining hajmi 1,6 mlrd AQSH dollaridan oshganligi buning yorqin dalilidir. Ayni paytda O‘zbekistonda 18 ta yapon kompaniyasining vakolatxonasi, 10 ga yaqin qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.
Bundan tashqari Yaponiyaning «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi doirasidagi 100 mln dollardan ziyod mablag‘i O‘zbekistonga ajratilgan. Shuningdek, Yaponiyaning turli oliy o‘quv yurtlarida 70 ga yaqin o‘zbekistonlik talaba ta’lim olmoqda. Rasmiy tashrif chog‘ida Yaponiyaning yana 348 mln iyen miqdorida grant ajratishi haqida bitim imzolandi.
Siyosiy sohada tomonlarning fikrlari bir-biriga yaqin va xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida o‘zaro kelishib olindi. Ayni paytda O‘zbekiston Yaponiyaning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zosi bo‘lishini yoqlab kelmoqda.
Shunday qilib, Yaponiya XX asrning ikkinchi yarmida vayronalikdan chiqib, qudratli rivojlangan davlatga aylandi. Bunga amerika omilining ta’siri, harbiy xarajatlarning kamligi, eng muhimi, yapon millatining ma’naviy yuksakligi sabab bo‘ldi. Xalqning yagona musht bo‘lib birlashuvi, o‘z

manfaatlarini xalq, yurt manfaatlari bilan muvofiqlashtirgan holda suiiste’mol qilmay olib borishi g‘alabaning asosiy tayanchi bo‘ldi. Yapon millati o‘zining buyuk millat ekanligini dunyoga ko‘rsatdi. Dunyo bugun «yapon mo‘jizasi»dan hayratlanmoqda va tajriba sifatida foydalanmoqda.

Yaponiya — O‘zbekiston munosabatlari

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Yaponiya uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. 1951-yilda o‘tkazilgan San-Fransisko xalqaro konferensiyasi qanday masalaga bag‘ishlangan edi?
3. Yaponiyaning Sovet davlati bilan munosabati haqida gapirib bering.
4. Yaponiyada iqtisodiy islohotlar qachon boshlandi va nimalarga asoslandi?
5. «Yapon mo‘jizasi»ning siri nimada?
6. Yaponiya tashqi siyosatidagi asosiy yo‘nalishlar nimalardan iborat?
7. Yaponiya — O‘zbekiston munosabatlari qanday rivojlanib bormoqda?

JADVALNI TO‘LDIRING. YAPONIYA NIMALAR ISHLAB CHIQARISHDA JAHONDA BIRINCHI O‘RINDA TURADI VA SABABLARI

Mahsulotlar nomi | Ko‘p ishlab chiqarilishining asosiy sabablari

— Yaponiya ishlab chiqarishida inson omili qanday rol o‘ynaydi? Bu haqda insho yozing.

— O‘zbekistonda Yaponiya tajribasidan nimalarni qo‘llashni istar edingiz? Bu haqda yozma ma’lumot tayyorlang.

— Xomashyo kam bo‘lgan Yaponiya qanday qilib taraqqiyotda dunyoda oldingi o‘ringa chiqib oldi? Yapon ma’naviyati qanday? Bu haqda erkin fikr asosida bahs yuriting.

27-§. Xitoy Xalq Respublikasi

Ikkinchi jahon urushi tugashi arafasida Xitoyda amalda 3 ta hokimiyat bor edi. Bular — 1) Xitoydagi Yaponiya ma’muriyati; 2) mamlakat shimoli va shimoli-sharqida qaror topgan Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) boshchiligidagi hokimiyat; 3) mamlakat janubig‘ arbidagi Chan Kayshi hukumati (Gomindan hukumati).

Yaponiya tor-mor etilgach, uning Xitoydagi ma’muriyati ham quladi. 1946-yilning yozida Gomindan armiyasi XKP armiyasi egallab turgan hududga hujum qildi. Shu tariqa fuqarolar urushi boshlandi. Bu urush 1949-yilning kuzigacha davom etdi. Nihoyat, urushda Gomindan armiyasi yengildi. Uning qolgan qismi Chan Kayshi boshchiligida Tayvan orolida (AQSH panohida) joylashib oldi.

XKP hokimiyatni to‘la egallagach, 1949-yilning 1-oktabrida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil etildi. XKP mamlakatda sotsializm qurilishini e’lon qildi. 1950-yil 30-iyundagi qonun asosidagi islohot natijasida katta yer egaligi tugatildi. Dehqonlarga 47 mln ga yer bo‘lib berildi. 1950-yilda Tibet bosib olindi. Dalaylama Hindistonga qochdi. 1956-yilgacha qishloq xo‘jaligi shirkatlari tuzildi. Bir vaqtning o‘zida mamlakatda

1946—1949-yillardagi fuqarolar urushi

Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi

?

industrlashtirish ham boshlandi. Bu borada SSSR XXRga katta yordam ko‘rsatdi. Uning yordami bilan 250 dan ortiq yirik sanoat korxonalari qurildi. XXRda ham xalq xo‘jaligi, SSSRda bo‘lgani kabi, besh yillik rejalar asosida rivojlana boshladi. 1953—1957-yillarda birinchi besh yillik rejani bajarish uchun kurash bordi. Bu reja muvaffaqiyatli bajarildi. Bu muvaffaqiyat XKP rahbariyatini ruhlantirib yubordi. Barcha kommunistik partiyalarga xos bo‘lgan xomxayollik XKP rahbariyatini (Mao Szedun boshchiligidagi) ham chetlab o‘tmadi.

1958-yilda XKP «Katta sakrash» deb atalgan (1958—1962) yangi bosh yo‘lni tasdiqladi. Uning mazmuni iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, katta sakrashni amalga oshirish va kommunistik jamiyat qurishdan iborat edi.

«Insoniyatning baxtli kelajagi», deb e’lon qilingan kommunizmni qurishning asosiy vositasi haq to‘lanmaydigan mehnat bo‘lishi zarur edi. Bu narsa «uch yillik qattiq mehnat — o‘n ming yillik baxt-saodat» shiori ostida o‘tishi kerak edi. Qishloq xo‘jaligi shirkatlari o‘rniga o‘rtacha 20 ming dehqonni birlashtirgan xalq kommunalari tuzildi. Unda hamma narsa umumiylashtirildi. Mahsulotni hammaga baravar taqsimlash tamoyili joriy etildi. Sanoat 6,5 baravar, qishloq xo‘jaligi 2,5 baravar o‘sishi mo‘ljallandi. Dehqon mehnati qattiq tartibga bo‘ysundirildi. Ular ishga saf tortgan holda borardilar. Biroq tez orada «Katta sakrash» barbod bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamaydi. Hatto, ayrim hududlarda ocharchilik ham boshlandi. Sanoat ishlab chiqarishi ham pasaydi. Shu tariqa iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Oqibatda Mao Szedun siyosatiga qarshi muxolifat vujudga keldi. U Mao Szedun siyosatini qattiq tanqid qila boshladi. Bunga javoban Mao Szedun qatag‘on siyosatini qo‘lladi. Bu siyosat Xitoy tarixiga, «buyuk proletar madaniy inqilobi» nomi bilan kirgan. 1966-yildan boshlangan va 1976-yilgacha davom etgan «Madaniy inqilob», aslida, jamiyatdagi Mao Szedun siyosatiga qarshi kuchlarni amalda yo‘q qilishni anglatar edi. Buning oqibatida ko‘plab partiya, davlat va harbiy kadrlar qatag‘on qilindi. Xitoy chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshdan kechira boshladi. «Xunveybin» lardan 100 mln ga yaqin kishi jabr ko‘rdi. Mamlakat 500 mlrd yuan zarar ko‘rdi.

1976-yil sentabrda Mao Szedun vafot etdi. Bu hodisa Xitoyda hokimiyat uchun kurashni avj oldirdi. Partiya rahbarligiga Xua Go-fen keldi.

To‘rtlar to‘dasi (bunga Maoning xotini Szyan Sin ham kirardi) «Ishlab chiqarishga juda katta zarar keltirganlikda» ayblanib, qamoqqa olindi. Oxir-oqibatda hokimiyat tepasiga «pragmatiklar» deb atalgan guruh keldi. Bu guruhga «madaniy inqilob» yillarida qatag‘on qilingan Den Syaopin rahbarlik qilar edi. (Den Syaopin 1997-yilda 92 yoshida vafot etdi.) XKP yangi rahbariyati Mao Szedun yo‘lini xato deb e’lon qildi. «Katta sakrash» va iqtisodiyotning to‘la davlat nazoratiga olinganligi mamlakat va xalqqa ulkan kulfat keltirganligi tan olindi va ular qoralandi.

Yangi kuchlarning
hokimiyatga kelishi

1978-yildan pragmatiklar aralash iqtisodiyotni yoqlab chiqdilar. Davlat rahbarligida bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li tanlandi. Bu tarixga «iqtisodiy va siyosiy hayotni modernizatsiya qilish» nomi bilan kirdi. Chet el sarmoyasining mamlakat iqtisodiyotiga joylashtirilishi uchun qulay sharoit yaratildi. Qishloqda xalq kommunalari tarqatib yuborildi. Shirkat tuzumi bekor qilindi. Ularning o‘rniga oila pudrati joriy etildi. Shu yo‘l bilan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash vazifasi hal etildi.

Sanoatda ham chuqur islohotlar o‘tkazildi. Chunonchi, davlat korxonalari xo‘jalik hisobi asosida ishlaydigan bo‘ldi. Kichik va o‘rta tadbirkorlikka keng yo‘l ochildi. Ayni paytda sanoatning maishiy tovarlar ishlab chiqaruvchi sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Yangi siyosat o‘z samarasini bermay qolmadi. 80-yillar oxiriga kelib Xitoy ko‘mir, televizor, shoyigazlama, sement ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘ringa chiqdi. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlaydigan bo‘ldi. Bular, o‘z navbatida, aholi turmush darajasining o‘sishiga olib keldi.

90-yillarda mamlakatda po‘lat, rangli metallar eritish, sement, mineral o‘g‘it ishlab chiqarish, ko‘p tarmoqli mashinasozlik rivojlandi. To‘qimachilik sanoati mahsulotlari jahon bozorini egalladi. An’anaviy hunarmandchilik: ipakdan, suyakdan badiiy buyumlar yasash, chinni mahsulotlar mashhur bo‘ldi. Dengiz mahsulotlari, dorivor o‘simliklar, yog‘och mahsulotlarni ishlab chiqarish ko‘paydi. Ishlab chiqarishda samaradorlik oshdi.

1992-yildan boshlab Xitoyda iqtisodiy islohotning yangi bosqichi boshlandi. Bu bosqich — islohotni jadallashtirish va chuqurlashtirish, iqtisodiy siyosatni mafkuradan xoli qilish va rejali boshqaruvdan bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan o‘tish bosqichi, deb nom oldi. Bu bosqich ayni paytda iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamayib borishini ham o‘z ichiga oladi. Amalda shunday bo‘lmoqda ham.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar olib borilgan keyingi 25-yil davomida olamshumul muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. 1998-yilda ichki ishlab chiqarishning umumiy qiymati 1978-yildagidan 5,4 hissa ortiq bo‘ldi. Xitoyda ishlab chiqarish qoldiqlarini qayta ishlash keng yo‘lga qo‘yildi. Xitoy har yili rivojlangan davlatlardan ishlab chiqarish qoldiqlarini sotib olib, qayta ishlaydi va milliardlab foyda oladi. Xitoy har yili AQSH dan 14 mlrd dollarga chiqindi sotib oladi.

Hatto 1998-yilda Osiyoda pul masalasi inqirozi hamda tarixda kam uchraydigan kuchli suv toshqiniga duch kelinganda ham Xitoyda ishlab chiqarishning umumiy qiymati 1997-yildagidan 7,8 foizga oshdi. Bu davrda qator sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori, masalan, guruch, paxta, go‘sht, yog‘-moy, ko‘mir, po‘lat, sement, gazlama, televizor ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy dunyoda birinchi o‘ringa chiqdi. Davlat tashqi pul muomalasi zaxirasi 45 milliard dollarga yetdi. Xitoy oldingi iqtisodiy qoloq holatdan Amerika, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va Italiyadan keyin dunyoda yettinchi o‘ringa chiqdi.

243

Xitoyning iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatayotgan eng muhim sabablardan biri davlatning to‘g‘ri iqtisodiy siyosati va bu iqtisodiy islohot mobaynida tuzilgan iqtisodiy qonunlardir. Xitoy iqtisodiy islohot davomida bozor xo‘jaligini yo‘lga qo‘ygan davlatlarning tajribalarini ijodiy o‘zlashtirib, o‘tgan yillar davomida iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan ko‘plab qonun, nizom, qoida va qarorlarni qabul qildi va ularni yangidan vujudga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar xarakteriga moslashtirib, vaqti-vaqti bilan tuzatib bordi. Bu qonunlar islohot natijalarini himoyalash va mustahkamlashni, bozor munosabatlariga oson o‘tish va uning mo‘tadil rivojlanishini kafolatlagan.

90-yillardan belgilangan «Sotsialistik bozor xo‘jaligiga o‘tish»ning mazmuni shuki, qishloq xo‘jaligini tartibga solish, yerni ayrim xonadonlarning yakka xo‘jalik yuritishiga asoslangan oilaviy pudrat deb atalgan usulda ishlash, dehqonlarning tomorqa uchastkalarini kengaytirish, yordamchi hunarmandchilikni rivojlantirish, ortiqcha mahsulotni bozorda dehqonning o‘zi sotishi imkoniyatini yaratishni ko‘zda tutadi.

Shaharlarda «direktiva asosida rejalashtiriladigan sohani qisqartirish», sanoat korxonalarini «mustaqil xo‘jalik tashkilotlariga» aylantirish, tovar munosabatlarini rivojlantirish, «narx-navo davlat yo‘li bilan bir xil belgilab qo‘yiladigan sohani toraytirish», chog‘roq xususiy va jamoa korxonalari, kosibchilik ustaxonalari faoliyatini, asosan xizmat ko‘rsatish va savdo-sotiq xususiy korxona egaligini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiga chet el sarmoyasini jalb qilish xo‘jalik tizimi islohotining bosh bo‘g‘ini bo‘ldi.

XXR rahbariyatining so‘zlariga qaraganda, mamlakatdagi sotsialistik asosda bozor iqtisodiga o‘tkazish quyidagi bosqichda amalga oshirilmoqda:

2000-yilgacha sanoat va qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti 4 baravar ko‘payib, xalq turmushi o‘rtacha ma’murchiligiga erishildi.

Navbatdagi bosqich 2021-yilgacha (XKPning 100 yilligi) Xitoyni o‘rtacha rivojlangan mamlakat darajasiga ko‘tarish.

2049-yilgacha (XXRning 100 yilligi) Xitoyni yuksak darajada rivojlangan zamonaviy davlatga aylantirish vazifasi qo‘yilgan.

Xitoyda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunlar ikkiga: fuqarolik qonunlari va iqtisodiy qonunlarga bo‘linadi. Ular bozor subyektlarini, ya’ni korxonalarning vujudga kelishi, ularni boshqarish ishlarini zamonaviylashtirish va faolligini ishga solishni, o‘zgartirilishi, bekor qilinishi, qonunni buzuvchilarning javobgarligini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, bozor tartibini muqim ushlab turish, bozorning rolidan to‘liq foydalanish, monopoliya va noqonuniy raqobatni cheklash, mahsulot sifatiga kafolat berish, iste’molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, patent va tovar markasini berish, turli shartnomalar tuzish, ijaraga berish, aksiya savdosi bilan shug‘ullanish, chek hujjatlarini tartibga solish, uy-joy, tijorat hamda bularni buzuvchilarni qanday jazolash haqida maxsus qonunlar mavjud bo‘lib, ularning bajarilishi qattiq nazorat qilinadi.

244

Korrupsiya va poraxo‘rlik eng og‘ir jinoyat hisoblanadi. 2004-yilda yuzlab

kishilar poraxo‘rlik uchun otishga hukm qilindi.
Ayni paytda bozor boyliklarini joylashtirishda makro jihatdan nazorat qilish, davlatning umumiy manfaati va kelajagini, xalq xo‘jaligining uzluksiz, muhim, to‘g‘ri yo‘ldan rivojlanib borishini kafolatlash, ijtimoiy taraqqiyot va xalq xo‘jaligi rejasini tuzish, to‘g‘ri statistika qilish, soliqni tartibga solish, bahoni belgilash va nazorat qilish masalalari aniq tartibga solingan. Ijtimoiy kafolat ham qonun orqali himoyalangan, raqobat jarayonida xavf-xatar yuzaga kelsa, davlat bu ishga aralashadi.
2004-yil 21-sentabrda 78 yoshli Szyan Szemin Markaziy harbiy kengash raisi lavozimidan iste’fo berdi. XXR raisi Xu Szintao bu lavozimni ham egalladi.
Urushdan keyin Xitoy Sovet davlati bilan yaqin munosabatda bo‘ldi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, 1950—1960-yillarda sovet davlati 250 dan ortiq korxona qurishda ko‘maklashdi. 11 mingdan ortiq sovet mutaxassislari ishladi. Lekin 60-yillardan xitoy — sovet munosabatlari buzildi. 1962-yilda Himolaydagi chegara masalasida Hindiston bilan Xitoy o‘rtasida qurolli mojaro kelib chiqdi. 60-yillarda Xitoy Vetnamga iqtisodiy va harbiy yordam ko‘rsatdi. 70-yillardan Xitoy AQSH bilan munosabatlarini yaxshiladi. 1971-yilda AQSH Prezidentining Milliy xavfsizlik bo‘yicha yordamchisi G. Kissinjer maxfiy ravishda Xitoyga keldi va ikki mamlakat munosabatlarini yaxshilash, Xitoyni Sovet davlatiga qarshi qo‘yishda katta xizmatlar qildi.
1972-yili AQSH Prezidenti A. Nikson Xitoyga rasmiy tashrif buyurdi.
1979-yilda Xitoy bilan AQSH o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.
1979-yilda Vetnam Kambojadagi xitoyparast «qizil kxmerlar» hukumatini ag‘darib tashlagandan keyin Xitoy Vetnamga qarshi harbiy harakat uyushtirdi.
Mao Szedun vafotidan keyin sovet — xitoy munosabatlarida biroz iliqlik paydo bo‘ldi. M. Gorbachyovning 1989-yildagi Xitoyga rasmiy safaridan keyingina sovet — xitoy munosabatlari yaxshilandi.
1997-yili Buyuk Britaniya Xitoyga Gonkongni qaytarib berdi.
XX asr oxiriga kelib Xitoy dunyoning barcha davlatlari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatdi. Bu narsa jahonda Xitoy obro‘si o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.
1992-yil martda O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning Xitoyga rasmiy safari bo‘ldi. Bu safar davomida 16 ta hujjat imzolandi. XXR raisi Li Shankun Xalq majlislari uyida O‘zbekiston delegatsiyasini qabul qilish marosimida: «Xitoy bilan O‘zbekiston rahbarlari ikki tomonlama munosabatlarning ko‘pgina masalalarini hal etishlari mumkin. Chunki bundan avval ham ikkala mamlakat o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatilgan edi», — deb ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikka katta baho berdi.

Tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda qator bitimlar, jumladan, axborot ayirboshlash, radio-televideniye, banklar, transport, aloqa, sarmoyalarni rag‘batlantirish, hamjihatlik, tovarlar yetkazib berish va davlat krediti, sog‘liqni saqlash, ta’lim hamda sport masalalari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar va bitimlar ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi.
1992—1993-yillarda Xitoy tomoni ajratgan kredit hisobidan respublikamizga minglab tonna guruch, 15000 tonna choy keltirdi. O‘zbekiston Xitoyga «Il-76» samolyotlarini yetkazib bermoqda. 1994-yilda O‘zbekiston hududida 78 ta o‘zbek — xitoy qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Jumladan, Urganch Ipak ishlab chiqarish birlashmasida «Suju» firmasi bilan hamkorlikda velyur, pambarxit kabi materiallar ishlab chiqaradigan korxona qurildi. Toshkentdagi 59-maktab xitoy tilini o‘rganishga ixtisoslashgan litseyga aylantirildi.
1994-yil aprelda XXR Davlat Kengashi rahbari Li Pen O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi va qator bitimlar imzolandi. Jizzaxda Xitoyning «Nunkel» firmasi bilan hamkorlikda yog‘och tolali plita ishlab chiqarish

yo‘lga qo‘yildi.
XX asr 90-yillarning oxirlari — XXI asr boshlarida O‘zbekiston Prezidenti Xitoyga bir necha bor rasmiy vizit bilan bordi, bu tashriflar ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik va do‘stlik aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.
2005-yil bahorida XXR hukumati raisi Xu Szintao boshliq Xitoy delegatsiyasi O‘zbekistonda bo‘ldi. Xavfsizlik masalasi va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik bo‘yicha fikr almashildi. O‘zbekiston Prezidentining 2005-yil mayidagi Xitoyga rasmiy tashrifi natijasida qator bitimlar imzolanib, Xitoy O‘zbekistonga 1,5 mlrd dollar miqdorida kredit ajratadigan bo‘ldi. Ushbu mablag‘ xalq xo‘jaligini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.
Demak, Xitoy bilan O‘zbekiston o‘rtasida iqtisodiy, madaniy va ilmiytexnikaviy aloqalar tez rivojlanib bormoqda.
Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmida murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Totalitar sotsializm yo‘li maqbul emasligini, uning xalq ehtiyojlarini qondirolmasligini isbot qildi. Xitoy sotsialistik rahbarlikka o‘zgartishlar kiritib, uni bozor iqtisodiga moslashtirgan va katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan yagona davlatdir. Bunga u kommunistik mafkura yakka hokimligini tugatib, iqtisodni siyosatdan ustun qo‘yganligi tufayli erishdi. Mamlakatga chet el investitsiyasi kiritilishiga yo‘l ochilib, xususiylashtirish keng yo‘lga qo‘yildi, shu sababli xususiy xo‘jaliklar roli o‘sdi.
Agar 1980-yilda davlat sektorida sanoat mahsulotlarining 80 foizi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 90-yillarda 50 foizni tashkil etdi. 1990-yillardan «Sotsialistik bozor xo‘jaligi»ga o‘tish va XXI asrda Xitoyni rivojlangan davlatga aylantirish boshlandi. Bugungi Xitoy — iqtisodiyoti gurkirab rivojlanayotgan davlatdir. Bugungi Xitoy yakkapartiyaviylik va totalitar

tartib saqlangan holda bozor munosabatlari bosqichma-bosqich qaror toptirilayotgan davlatdir. Bugungi Xitoy — BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zosi bo‘lgan, qudratli, yadro quroliga ega davlatlardan biridir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushining Xitoy uchun oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Xitoydagi 1946—1949-yilgi fuqarolar urushining oqibatlari haqida so‘zlab bering.
3. Xitoyga Sovet davlatining yordami qanday bo‘ldi?
4. XKP rahbariyatining «Katta sakrash» dasturi mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. XXR ning 80-yillardan gurkirab rivojlanishi, ya’ni modernizatsiya sabablarini izohlab bering.
6. «Sotsialistik bozor xo‘jaligiga o‘tish»ning mazmuni nima?
7. Xitoy bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar haqida vaqtli matbuot materiallari asosida referat tayyorlang.

JADVALNI TO‘LDIRING. XITOY TARAQQIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Amalga oshirilgan tadbirlar	Natijalar

28-§. Hindiston va Pokiston

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Hindiston xalqining milliy-ozodlik kurashi yanada kuchaydi.
Bu harakatga, hatto, Buyuk Britaniya armiyasida xizmat qilayotgan hindistonlik soldat va matroslar ham qo‘shilishdi. 1946-yilning fevralida Bombey harbiy-dengiz bazasi matroslarining bosh ko‘tarishini deyarli butun Hindiston qo‘llabquvvatladi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya hukumati Hindistonga mustaqillik berilishini e’lon qilishga majbur bo‘ldi.
Buyuk Britaniya bosh vaziri K. Ettli 1947-yil 20-fevralda Hindiston haqida yangi deklaratsiya bilan chiqdi va hokimiyatni «hindlar qo‘liga» topshirishini bayon qildi.
1947-yilning 15-avgustida Hindiston mustaqilligi to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Bunga ko‘ra, Buyuk Britaniya hukmron doiralari Hindistonni ikki dominionga (Hindiston Ittifoqi va Pokistonga) bo‘lib yubordi. Shu tariqa Buyuk Britaniya yana bir marta o‘zining « Bo‘lib tashla, hukmronlik qil!» shioriga sodiqligini namoyon qildi. Bu bo‘linishni eng nozik belgi — diniy belgi asosida amalga oshirdi.

Hindiston
Respublikasining
tashkil topishi
?
247
Hindiston Ittifoqi hududida aholining katta qismi (musulmonlar ham kam emas edi) hinduiylik diniga e’tiqod qilishardi. Pokiston aholisining katta qismi esa (hinduiylik diniga e’tiqod qiluvchilar ham kam emasdi) islom diniga e’tiqod qilardi. Bir davlatning ikkiga bo‘linishi jarayoni katta diniy to‘qnashuvlar, qirg‘inlar sharoitida amalga oshirildi. Ikki tomondan qochoqlar soni 8 mln dan ortiqni tashkil etdi. Ayniqsa, Kashmir viloyatining Hindistonda qoldirilishi (bu viloyat aholisi asosan musulmonlardan iborat edi) Hindiston va Pokiston o‘rtasida urush harakatlarini keltirib chiqardi. 1947-yil kuzida Pokiston qo‘shinlari Kashmirga kirdi. Hindiston armiyasi bilan janglar bo‘ldi.

M. K. Gandi bu diniy to‘qnashuvga qarshi chiqdi. Hindistonda musulmonlarning hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratishni talab qildi. Bunga shovinist hind burjuaziyasi qarshi chiqdi. 1948-yil 30-yanvarda 70 yoshli M. K. Gandi o‘ldirildi. 1949-yilning 1-yanvarida bu ikki dominion o‘rtasida urushni to‘xtatish haqida bitim imzolanishiga erishildi. 1949-yilda Hindiston Ta’sis majlisi mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi va u 1950-yilning yanvaridan kuchga kirdi. 1950-yilning 26-yanvarida Hindiston Respublika deb e’lon qilindi. Shunday qilib, hind xalqining Buyuk Britaniya mustamlakachiligiga qarshi salkam 100 yil davomida olib borgan milliyozodlik kurashi mustaqil davlatga ega bo‘lish bilan yakunlandi.

Bu kurashga Hindiston Milliy Kongressi (HMK) rahbarlik qildi. Mustaqillikdan so‘ng tuzilgan birinchi hukumatni HMK rahbari J. Neru (1889—1964) boshqardi. Ayni paytda Hindiston Britaniya Millatlar Hamdo‘stligi tarkibida qoldi.

Yangi hukumat o‘tkazgan dastlabki muhim islohot agrar islohot bo‘ldi. Unga ko‘ra, yer bevosita unda ishlayotganlarga berilishi ko‘zda tutildi. Biroq zamindorlarning qattiq qarshilik ko‘rsatishi oqibatida hamma dehqonlar ham yerli bo‘la olmadi. Shunga qaramay, yerni zamindorlardan ijaraga olib ishlayotganlarning katta qismi yerli bo‘lib qoldi. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi ikki baravardan ortiq ko‘paydi. Hindiston 1966-yilgacha uchta besh yillikni amalga oshirdi.

To‘g‘ri, aholining barchasi ham to‘q yashamayotgan yoki ma’lum qismi och holatda yashayotgan bo‘lsa-da, islohot tufayli Hindiston o‘z aholisini oziq-ovqat bilan asosan o‘zi ta’minlash imkoniga ega bo‘ldi.

Javaxarlal Neru.

Iqtisodiy va siyosiy
taraqqiyot
248

Hindiston hukumati milliy sanoatni rivojlantirishga ham alohida e’tibor berdi.

Natijada sanoat ishlab chiqarishi deyarli to‘rt baravar ko‘paydi. Hindiston agrar davlatdan agrar-industrial davlatga aylandi. 1990-yilda Hindiston 170 mln kv/s elektr energiya, 12 mln tonna po‘lat, 30 mln tonna neft ishlab chiqardi. Avtomobil, avtobus, radio, televizor ishlab chiqarish yuksak sur’atlarda rivojlanmoqda. Traktor ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi.

Hindiston iqtisodiyotida davlat sektori yildan-yilga kamayib bormoqda. Bugungi kunda u jami milliy mahsulotning 20 foizini ishlab chiqaradi,

xolos. Hindiston siyosiy hayotida parlamentarizm mustahkam qaror topdi.
Hindiston Respublikasi butun taraqqiyoti yillarida katta ijtimoiy-siyosiy muammolarga duch keldi va hozirgacha ular o‘z yechimini topgani yo‘q. Bular: hinduiylar bilan musulmonlar o‘rtasidagi diniy qirg‘inlar; musulmonlarning Kashmirni Pokiston bilan birlashtirish uchun kurashi; sikxlarning siyosiy muxtoriyat uchun kurashi; Panjobning Hindiston tarkibidan ajralib chiqish uchun kurashi bilan bog‘liq muammolardir. Bunga yana mamlakat 20 foiz aholisining yersizligi, 30 mln ga yaqin aholining ishsizligi; 60 foiz aholining hamon savodsizligi kabi muammolar ham qo‘shiladi.

1957-yil martida bo‘lib o‘tgan saylovlarda J. Neru yana Bosh vazirlikka saylandi, R. Prasad esa Prezidentlik lavozimini egalladi. J. Neru vafotidan so‘ng 1964-yil 2-iyunda L. B. Shastri Hindiston Bosh vaziri bo‘ldi. Lekin 1966-yil 11-yanvarda Pokiston bilan urushni to‘xtatish haqida Ayubxon bilan bitimni imzolagach, Toshkentda vafot etdi.

L. B. Shastri vafot etgach, Indira Gandi 1966—1977-yillarda bosh vazir bo‘lib turdi. I. Gandi o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun 1970-yilda 4-beshyillik rejani qayta ko‘rib chiqdi va davlat sektorini mustahkamlash choralarini ko‘rdi. 14 ta bank, ulgurji savdoning bir qismi milliylashtirildi, monopoliyalarning roli cheklandi. Mayda ishlab chiqarish (kichik biznes)ni rivojlantirish choralari ko‘rildi. Ba’zi shtatlarda mayda yer uchastkalariga soliq bekor qilindi, katta yer egalari yerlarining maksimal darajasini pasaytirish, sobiq knyazlarning pensiya va imtiyozlarini bekor qilish choralari ko‘rildi. Bu narsa parlamentda oppozitsiyani kuchaytirdi. 1971-yilda sug‘urta ustidan nazorat o‘rnatildi, yengil sanoatda davlat korxonalari paydo bo‘ldi, xususiy mulkni milliylashtirish haqida konstitutsiyaga tuzatish kiritildi. Bu tadbirlar yirik burjuaziya va monopolistik unsurlarning noroziligini kuchaytirdi. HMKda ham bo‘linish yuz berdi. 1975-yilda hukumat yangi dastur e’lon qildi. Unda xalqni g‘alla va boshqa tovarlar bilan ta’minlash uchun davlat ta’minot tizimini joriy qilish, yer uchastkalarining maksimal darajasini cheklash va ortiqcha yerni yersiz dehqonlarga berish haqidagi qonunni barcha shtatlarda joriy qilish, qishloq xo‘jalik ishchilarining

Taraqqiyot yo‘lidagi ijtimoiy-siyosiy muammolar

minimum ish haqini belgilash, uy qurish uchun bepul yer ajratish, qaram mehnatni bekor qilish, eng kambag‘al dehqonlar qarzini bekor qilish, shaharda yer uchastkasining maksimal darajasini belgilash, olibsotarlikka yo‘l qo‘ymaslik aytilgan edi. Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar; oziq-ovqatni noqonuniy to‘plab qo‘yganlik, kontrabanda, soliqlarni to‘lamaganlik uchun jazolash ham o‘z ifodasini topdi. Lekin bular chala qoldi.

Oppozitsiyachilar Janata parti (Xalq partiyasi) ni tuzdilar va 1977-yil martida parlamentga o‘tkazilgan saylovlarda Morarji Desai boshliq hukumat tuzdilar. Janata partidan ajralib chiqqan va 1980-yilda tashkil topgan Bxaratiya Janata parti (BJP) mamlakatda diniy o‘ziga xoslikni shior qilib olgan partiyadir.

Bu partiya Hindistonni faqat hinduiylik diniga e’tiqod qiluvchilar davlatiga aylantirish maqsadini ilgari surdi. Ayni paytda musulmonlarni siyosat va iqtisoddan chetlatishni targ‘ib etdi. Aholisining 11 foizi musulmonlardan iborat bo‘lgan davlatda bunday g‘oyaning ilgari surilishi mamlakat siyosiy birligini katta xavf ostiga qo‘yadi.

Mamlakat birligiga sikxlar harakati ham jiddiy xavf solmoqda. Ular sikxiylik diniga e’tiqod qiladilar. Bugungi Hindistonda 17 mln sikxiy yashaydi. Oz sonli bo‘lsa-da, davlat hayotida katta mavqega ega. 1980-yil yanvardagi saylovlarda Bosh vazirlikka qaytgan HMK vakili Indira Gandi (1966—1977; 1980—1984-yillarda) davrida ba’zi siyosiy xatoliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Chunonchi, u hindi tilini davlat tiliga aylantirishga harakat qildi. Buni boshqa millatlar vakillari milliy kamsitish sifatida qabul qildilar.

Panjob shtatida yashovchi sikxlar bunga qarshi ajralib chiqish harakatini boshladilar. Ular o‘z oldilariga Panjobni Hindistondan ajratib olib, Xoliston

deb ataluvchi davlat tuzish maqsadini qo‘ydilar. Ayni paytda ular terrorni kuchaytirdilar. Tabiiyki, markaziy hukumat Hindistonning bo‘linib ketishiga toqat qila olmasdi.
Fuqarolar urushi kelib chiqishining oldini olish maqsadida 1984-yilning 5-iyunida I. Gandi sikxlarning muqaddas joyi — Oltin ibodatxonani shturm bilan olishga buyruq berdi. Sikxlar qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Natijada 300 kishi o‘ldirildi. Ayni paytda hukumat armiyasi sikxlarning yana 37 ibodatxonasini egalladi. Sikxlar harakati bostirilgan bo‘lsa-da, ular I. Gandidan suiqasd yo‘li bilan o‘ch oldilar.
1984-yilning 31-oktabrida I. Gandining sikxlardan bo‘lgan shaxsiy soqchisi uni otib o‘ldirdi. Onasining o‘rnini egallagan Rajiv Gandi (1944—1991) sikx terrorchiligiga chek qo‘yishga qaror qildi. 1987-yilning may oyida Panjob to‘g‘ridan to‘g‘ri markaziy hukumatga bo‘ysundirildi. Bu esa shtatni muxtor vakolatdan mahrum etishni anglatar edi. Sikxlar bunga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Hukumat armiyasi bunga javoban 1988-yilning may oyida yana Oltin ibodatxonani egalladi. Oqibatda minglab kishilar halok bo‘ldi. Bu esa 1989-yilda R. Gandini bosh vazirlik lavozimidan ketishga majbur etdi. 1989-yil noyabrdagi saylovda Milliy front rahbari Rajendra

Pratap Singx Bosh vazir qilib saylandi.
1991-yilgi parlament saylov oldi uchrashuvlarining birida R. Gandi ham o‘ldirildi (1991-yil 21-may kuni). Diniy, etnik to‘qnashuvlar keyingi yillarda ham davom etdi.
1992-yilning dekabr oyida hinduiy fanatiklar (mutaassiblar) XVI asrda qurilgan musulmonlar masjidini buzib tashladilar. Bu esa Bombey va Kalkutta shaharlarida hinduiylar va musulmonlar o‘rtasida qirg‘in keltirib chiqardi. Oqibatda 300 kishi halok bo‘ldi va 1200 dan ortiq kishi yaralandi. Kashmirda asosan musulmonlar yashaydi. Markaziy hokimiyat bu shtatda ham to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqaruv joriy etishga uringan edi. Bu esa separatchilik harakatini kuchaytirdi, Hindiston va Pokiston munosabatlarini keskinlashtirdi.
Bu kabi o‘ta murakkab muammolarni bartaraf etish yo‘lida jiddiy harakatlar qilindi. Ayni paytda Hindiston, bu muammolarga qaramay, ildam taraqqiy qilib bordi.
1991-yil mayida bo‘lib o‘tgan saylovlarda HMK g‘alaba qozonib, Narasimxa Rao boshliq hukumat tuzildi va mamlakatni 8 yil boshqardi. Iqtisodiyotda milliylashtirishdan chiqarish davom ettirilib, zarar ko‘rib ishlayotgan fabrika va zavodlar yopildi. Investitsiya ko‘paytirildi, mehnat intizomi yaxshilandi, moddiy manfaatdorlik kuchaydi. Natijada inflatsiya pasaydi, sanoatga katta miqdorda sarmoya qo‘yildi, qishloq xo‘jaligida mayda dehqonlarning ulushi ko‘paydi. 1994—1995-yillarda sanoatning yillik o‘sishi 10 foizga, yalpi milliy mahsulotning yillik o‘sishi 5 foizga chiqdi. Bu Hindiston uchun katta ahamiyatga ega edi.
Hindiston Milliy Kongressi rahbariyatida korrupsiya, poraxo‘rlik va boshqa jinoyat holatlari yuz berdi. 1996-yilda 30 dan ortiq yuqori tabaqa rahbarlari sudlanib, jazo oldilar.
Bu davrga kelib jangovar induizm millatchiligi kuchaydi. Bu qaysi partiyaning ideologiyasi ekanligini yuqorida ko‘rdik. 72 foiz aholisi hindoriylardan iborat bo‘lgan aholining shovinistik qatlamlari kayfiyatini o‘zida mujassamlashtirgan BJP 1998-yil fevraldan parlament saylovlarida g‘alaba qildi va uning yetakchisi Atal Bexari Vajpai 19-martda Bosh vazir qilib saylandi. Navbatdagi saylovlarda ham Vajpai o‘z o‘rnida qoldi.
Lekin 2004-yil mayda hokimiyatda o‘zgarish bo‘lib, Bosh vazirlik lavozimini Manmoxan Singx egalladi.

Hindiston tashqi siyosatida muhim muammolardan biri Pokiston bilan munosabatlardir. 1947-yildan beri Kashmir masalasida ikki mamlakat janjal qilib keladi. Deyarli har 10 yilda qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib turadi. Hindiston tashqi siyosatida tinch-totuv yashashning o‘zi tashabbuskor bo‘lgan besh tamoyiliga (pancha chila — 1955-yilgi Bandung konferensiyasida Osiyo xalqlari o‘rtasida xalqaro munosabatlarga asos qilib olingan) amal qiladi. (qarang: Xitoy mavzusi).
J. Neru SEATO va SENTO bloklarining tuzilishini qoraladi. U bir qancha mahalliy janjallarni tinchitishda o‘z hissasini qo‘shdi.
Sovet davlati Hindistonga 60 dan ortiq sanoat korxonalarini qurishda yordam berdi. Harbiy texnika bilan ta’minladi.
Qo‘shilmaslik harakatining rahbarlaridan biri va «olti mamlakat guruhi» a’zosi bo‘lmish Hindiston qurollanish poygasini to‘xtatishga, qurolsizlanishga, yadro urushi xavfini yo‘q qilishga, kosmosni harbiylashtirishga yo‘l qo‘ymaslikka, yangi xalqaro iqtisodiy tartib o‘rnatishga qaratilgan muhim takliflar bilan bir necha bor xalqaro maydonga chiqdi.
Hindiston Hind okeanini tinchlik zonasiga aylantirish yo‘lidagi kurashga salmoqli hissa qo‘shdi. AQSHning Diyego-Garsiya harbiy oroliga bazasini joylashtirishiga qarshi chiqdi. Yangi mustamlakachilikka, irqiy kamsitish va aparteidga qarshi faol kurashib keldi. Hindiston Janubiy Osiyo mahalliy hamkorligi uyushmasi (SAARK) faoliyatida ishtirok etmoqda. Shri Lanka va Janubiy Osiyodagi ahvolni yaxshilashga muhim hissa qo‘shmoqda.
O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi aloqalar mustaqillikdan oldin ham ancha rivojlangan edi.
O‘zbekiston mustaqilligidan keyin bu aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mustaqillik arafasidagi Hindistonga tashrifi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sho‘rolar zamonidagi mavjud tamoyillarni buzib, Hindiston bilan mustaqil hamkorlikni kengaytirishga birinchi bo‘lib kirishdi.
Natijada Hindiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida birinchi marta teng huquqli mamlakatlar kabi iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitimlar tuzildi.
Hindiston yordami bilan Toshkent, Buxoro va Samarqandda zamonaviy mehmonxonalar qurildi. Respublikamizga uskunalar va boshqa xil tovarlar xarid qilish uchun 1993-yilda Hindiston 10 mln dollar mablag‘ ajratdi.
1993-yil may oyida Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Oziq-ovqat, yengil sanoat, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, havo yo‘llarini ochish, yangi zamonaviy mehmonxonalar qurish bilan shug‘ullanuvchi hind — o‘zbek qo‘shma korxonalarini ochish haqida 10 ta bitim tuzildi. Undan tashqari hind firmalari respublikamizdagi sheriklari

bilan jami 100 mln dollarlik mahsulot yetkazib berish bo‘yicha 15 ta savdo shartnomasiga imzo chekishdi.
O‘zbekistonda dori-darmon ishlab chiqarishda hindlar katta yordam ko‘rsatmoqda. Buning uchun Surxondaryoda maxsus qo‘shma korxona tashkil etildi. O‘zbekiston FAning yigirmadan ortiq ilmiy-tadqiqot instituti Hindistondagi sheriklari bilan hamkorlik qilmoqda.
«O‘zbeksanoat» davlat assotsiatsiyasi Hindistonning «Xabar grup» firmasi bilan yiliga 4000 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan korxona qurdi. Hindistonning «Modi», «Rotan», «Shri eksport» va boshqa firmalari O‘zbekistonda katta obro‘ qozondi.
2005-yil aprel oyida Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Hindistonda bo‘ldi. 2004-yilda Hindiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida tovar ayirboshlash 150 mln dollarga yetdi. 1993-yildan beri 800 ga yaqin o‘zbek mutaxassislari

axborot texnologiyalari, bank ishi, kichik biznes yo‘nalishlari bo‘yicha Hindistonda ta’lim olishdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun 45 ta shartnoma imzolangan.

Shunday qilib, Hindiston — hozirgi kunda metall quyish, to‘qimachilik, mashinasozlik, tog‘-kon ishlari, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo sanoati tez rivojlanayotgan mamlakat. U 2004-yilda 12,5 mlrd dollarlik axborot texnologiyalarini xorijga eksport qildi.

Yalpi ichki mahsulotning 30 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Hindiston g‘alla bilan o‘zini o‘zi to‘la ta’minlaydi. Sholi yetishtirishda dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Turli texnik ekinlarini katta miqdorda yetishtiradi. Lekin mamlakat janubida millionlab odamlar qashshoqlikda yashaydi. Eng muhim muammo — inflatsiyaning kuchayishi va tashqi qarzning o‘sishidir.

Pokiston Islom Respublikasi

Pokiston davlati 1947-yilning 14-avgustida tashkil etildi. Bu hodisa, avvalgi mavzuda ta’kidlanganidek, Hindistonning ikkiga bo‘lib yuborilishi natijasi edi. Bu bo‘linish diniy belgi asosida amalga oshirilganligi uchun Pokiston hududi amalda ikki — g‘arbiy va sharqiy qismdan iborat bo‘lib qoldi. Bu qismlarni 1600 km lik masofa ajratib turar edi. Pokiston 1947-yildan 1958-yilgacha inglizlarning Hindistonni boshqarish haqidagi 1935-yildagi Qonuni, 1947-yildagi Mustaqillik deklaratsiyasi bo‘yicha parlament tizimi asosida boshqarib kelindi. Lekin Oliy qonun chiqaruvchi organga saylov o‘tkazilmas edi.

Pokiston davlati dastlabki kunlardanoq katta muammolarga duch keldi. Ma’lumki, Hindistonning ikkiga bo‘linishi qattiq diniy qirg‘inlarni keltirib chiqargan edi. Buning oqibatida faqat Hindiston hududidan dastlabki yillarda 7 mln kishi Pokistonga qochib o‘tdi. Ularni yashash joyi va ish bilan

ta’minlash muammosi buningsiz ham ahvoli og‘ir bo‘lgan yosh davlatning ahvolini yanada qiyinlashtirib yubordi.

Ikki davlat o‘rtasidagi hududiy kelishmovchiliklar katta qurbonlarga sabab bo‘lgan urushlarni keltirib chiqargan.

Asosiy hududiy muammo Kashmir viloyati muammosi edi. Kashmir aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat. Pokiston ana shu omilga urg‘u beradi. Hindiston esa Kashmirni asrlar osha hind maxaraji boshqarib kelganligiga urg‘u beradi.

Maxaraj 1947-yilning iyul oyida Hindiston tarkibida qolish istagini e’lon qildi. Bu qaror ommaviy to‘qnashuvlarni keltirib chiqardi. Kashmir muammosi BMT Xavfsizlik Kengashida muhokama qilindi. Kengash urush harakatlarini to‘xtatish, har ikki davlat qo‘shinlarini Kashmirdan olib chiqib ketish va BMT nazorati ostida Kashmirda referendum o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilgan.

Biroq Hindiston BMT Xavfsizlik Kengashi qarorini bajarmadi. 1954-yilning may oyida Kashmirni Hindistonga qo‘shib oldi. Kashmir muammosi hamon ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinligicha saqlanib qolishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Ayni paytda bu keskinlik har ikki davlatni ittifoqchilar izlashga majbur etgan. Hindiston qo‘shilmaslik harakati a’zosi bo‘lsa-da, sobiq SSSR bilan, Pokiston esa AQSH bilan yaqinlashish siyosatini yuritganlar. Har ikki tomon ham kuchli armiya tuzishga urindilar. Pokiston 1954-yilda SEATO, 1955-yilda esa Bag‘dod pakti (keyinchalik SENTO) ga a’zo bo‘lib kirdi.

Britaniya mustamlakachiligining og‘ir oqibatlari, katta harbiy xarajat Pokistonning iqtisodiy jihatdan sekin rivojlanishiga, agrar davlatligicha qolishiga sabab bo‘lgan. Bu esa muhim ijtimoiy sohalarni (sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy ta’minot va boshqalarni) zarur mablag‘ bilan ta’minlashga imkon bermagan.

Aholi turmush sharoitining og‘irligi, boshqa millatlar huquqlarining kamsitilishi mamlakatdagi ichki ahvolni yanada murakkablashtirdi. Pokiston

hukumati mamlakatning butun hududida urdu tilini davlat tiliga aylantirishga urindi. Sharqiy Pokiston (hozirgi Bangladesh)da asosan bengallar yashar edi. Biroq ular davlat xizmatchilarining atigi 10 foizini tashkil etardilar.

Sharqiy Pokiston iqtisodiga butun davlat budjetining uchdan bir qismi, ta’limga esa o‘n oltidan bir qismi sarflanar edi. Bu hududdan qilingan eksport natijasida davlat xazinasiga tushgan valuta asosan G‘arbiy Pokiston ehtiyojlari uchun sarflanardi. Bu hol, tabiiyki, Sharqiy Pokistonda milliy harakatni vujudga keltirgan. Bu harakatni Xalq Ligasi partiyasi boshqargan. Mamlakatdagi bu ichki ahvolni adolatli hal etish o‘rniga hukmron Musulmon Ligasi partiyasi repressiya, zo‘ravonlik siyosati bilan javob qaytardi.

Harbiy diktatura o‘rnatilishi

1954-yilda Sharqiy Pokistonda qonuniy yo‘l bilan hokimiyat tepasiga kelgan Birlashgan front hukumati ag‘darib tashlandi. Ayni paytda Pokiston parlamenti tarqatib yuborildi. Butun mamlakat hududida favqulodda holat joriy etildi. 1956-yil 23-martda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko‘ra, Pokiston Islom Respublikasi deb e’lon qilindi. Konstitutsiyada mamlakat prezidenti musulmon kishi bo‘lishi kerak, deb belgilab qo‘yildi. 1958-yilga kelib davlatning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi. Aholi turmush darajasi pasaydi. Natijada aholining o‘z haq-huquqi uchun kurashi kuchaydi.

Ayni paytda turli siyosiy guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Mamlakatda korrupsiya avj oldi. Bu hol hukumat beqarorligini keltirib chiqardi. Mamlakatni chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglik qamrab oldi. Shunday sharoitda Pokiston armiyasi qo‘mondonligi hokimiyatni qo‘lga olishga qaror qildi. Ular 1958-yil 27-oktabrda davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Butun hokimiyat armiya bosh qo‘mondoni general (1959-yildan — feldmarshal) M. Ayubxon qo‘liga o‘tdi. Mamlakatda harbiy holat o‘rnatildi. 1960-yil fevralda saylovlar o‘tkazilib, Ayubxon g‘alaba qildi.

M. Ayubxon hukumati siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqlab qo‘ydi. Ommaviy axborot vositalariga nisbatan qattiq senzura o‘rnatdi. Ayni paytda mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar boshlandi. Chunonchi, 1959-yilda agrar islohot o‘tkazildi. Unga ko‘ra, katta yer egaligi 500 akr (200 gektar) hajmida cheklab qo‘yildi. Ortiqcha yerlar sotib olindi va ular kam yerlilarga sotildi. Bundan tashqari, hukumat qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Sanoat, savdo, soliqqa tortish sohasida o‘tkazilgan qator tadbirlar ishlab chiqarishning o‘sishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bu omillar Pokistonning iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirdi. Biroq islohotlarning cheklanganligi va izchil bo‘lmaganligi Pokistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga imkon bermadi. Chetdan millionlab tonna oziqovqat mahsulotlari keltirishga majbur bo‘lindi.

Mamlakatda harbiy holat uzoq davom etishi mumkin emas edi. Buni tushunib yetgan M. Ayubxon 1962-yil 8-iyunda harbiy holatni bekor qildi. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi 1962-yilda qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Musulmon Ligasi partiyasi yetakchi partiya bo‘lib qoldi. Uni M. Ayubxonning o‘zi boshqardi. 1965-yilda M. Ayubxon yangi muddatga Prezident etib saylandi.

Mamlakatning tashqi siyosatida bir yoqlamalikdan (ya’ni, g‘arb davlatlari bilan yaqinlashishdan) qaytish yuz bera boshladi. Osiyo va Afrika davlatlari bilan munosabatlarda ijobiy tomonga o‘zgarish yuz berdi. Pokiston Isroilning arab davlatlariga qarshi agressiyasini qoraladi. SEATO va SENTO harbiy-

Kashmir muammosi

254

1954-yilda Sharqiy Pokistonda qonuniy yo‘l bilan hokimiyat tepasiga kelgan Birlashgan front hukumati ag‘darib tashlandi. Ayni paytda Pokiston parlamenti tarqatib yuborildi. Butun mamlakat hududida favqulodda holat joriy etildi. 1956-yil 23-martda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko‘ra, Pokiston Islom Respublikasi deb e’lon qilindi. Konstitutsiyada mamlakat prezidenti musulmon kishi bo‘lishi kerak, deb belgilab qo‘yildi. 1958-yilga kelib davlatning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi. Aholi turmush darajasi pasaydi. Natijada aholining o‘z haq-huquqi uchun kurashi kuchaydi.

Ayni paytda turli siyosiy guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Mamlakatda korrupsiya avj oldi. Bu hol hukumat beqarorligini keltirib chiqardi. Mamlakatni chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglik qamrab oldi. Shunday sharoitda Pokiston armiyasi qo‘mondonligi hokimiyatni qo‘lga olishga qaror qildi. Ular 1958-yil 27-oktabrda davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Butun hokimiyat armiya bosh qo‘mondoni general (1959-yildan — feldmarshal) M. Ayubxon qo‘liga o‘tdi. Mamlakatda harbiy holat o‘rnatildi. 1960-yil fevralda saylovlar o‘tkazilib, Ayubxon g‘alaba qildi.

M. Ayubxon hukumati siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqlab qo‘ydi. Ommaviy axborot vositalariga nisbatan qattiq senzura o‘rnatdi. Ayni paytda mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar boshlandi. Chunonchi, 1959-yilda agrar islohot o‘tkazildi. Unga ko‘ra, katta yer egaligi 500 akr (200 gektar) hajmida cheklab qo‘yildi. Ortiqcha yerlar sotib olindi va ular kam yerlilarga sotildi. Bundan tashqari, hukumat qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Sanoat, savdo, soliqqa tortish sohasida o‘tkazilgan qator tadbirlar ishlab chiqarishning o‘sishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bu omillar Pokistonning iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirdi. Biroq islohotlarning cheklanganligi va izchil bo‘lmaganligi Pokistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga imkon bermadi. Chetdan millionlab tonna oziqovqat mahsulotlari keltirishga majbur bo‘lindi.

Mamlakatda harbiy holat uzoq davom etishi mumkin emas edi. Buni tushunib yetgan M. Ayubxon 1962-yil 8-iyunda harbiy holatni bekor qildi. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi 1962-yilda qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Musulmon Ligasi partiyasi yetakchi partiya bo‘lib qoldi. Uni M. Ayubxonning o‘zi boshqardi. 1965-yilda M. Ayubxon yangi muddatga Prezident etib saylandi.

Mamlakatning tashqi siyosatida bir yoqlamalikdan (ya’ni, g‘arb davlatlari bilan yaqinlashishdan) qaytish yuz bera boshladi. Osiyo va Afrika davlatlari bilan munosabatlarda ijobiy tomonga o‘zgarish yuz berdi. Pokiston Isroilning arab davlatlariga qarshi agressiyasini qoraladi. SEATO va SENTO harbiy-

Pokiston 60—70-yillarda

255

siyosiy ittifoqlaridagi ishtirokini cheklab qo‘ydi. Ayni paytda Hindiston bilan munosabatlarda o‘zgarish yuz bermadi. Bu davlatlar o‘rtasida 1965-yilning

o‘zida ikki marta qurolli to‘qnashuv yuz berdi. SSSR bu ikki davlat munosabatlarini normallashtirish uchun barcha diplomatik choralarni ko‘rdi. 1966-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida Hindiston bosh vaziri L. B. Shastri va M. Ayubxon o‘rtasida ikki davlat munosabatlarini normallashtirish haqida kelishuvga erishildi.

Biroq Pokistonda ichki vaziyat beqarorligicha qolaverdi. Buning asosiy sababi — mamlakatning iqtisodiy qoloqligi oqibatida aholi turmushi past darajada qolayotganligi edi. Mamlakatni ish tashlash, namoyish to‘lqini qamrab oldi. Ayni paytda Sharqiy Pokistonda milliy harakat kuchaydi. Repressiya vaziyatni yanada keskinlashtirdi, xolos. Mamlakatda vujudga kelgan chuqur siyosiy tanglik 1969-yilning 25-martida M. Ayubxonni iste’fo berishga majbur etdi. Hokimiyat armiya bosh qo‘mondoni general Yahyoxon qo‘liga o‘tdi. U mamlakatda harbiy holat joriy etdi. Biroq bu siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga yordam bermadi. 1970-yil dekabrda Pokiston tarixida birinchi marta umumxalq saylovlari o‘tkazildi. Mamlakatni demokratik asosda qayta qurish dasturi bilan chiqqan partiyalar — Sharqiy Pokistonda M. Rahmon boshliq «Avomi liga», G‘arbiy Pokistonda Z. A. Bxutto boshliq Xalq partiyasi g‘alaba qildi. Lekin hokimiyatga birdaniga kelolmadi. Hukumat repressiya boshladi. Bunga javoban, 1971-yilda Sharqiy Pokistonda milliy-ozodlik kurashi boshlandi. 26-mart kuni Sharqiy Pokiston hududida Bangladesh Xalq Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi.

Bu harakatni Hindiston qo‘llab-quvvatladi. Oqibatda Pokiston — Hindiston urushi yuz berdi. Bu urushda Pokistonning g‘arbiy frontdagi armiyasi yengildi, Bangladeshdagi armiyasi esa taslim bo‘ldi. Mag‘lubiyat Yahyoxon harbiy diktaturasining qulashiga olib keldi. Shu tariqa fuqarolik hukumati tuzilishiga yo‘l ochildi. 1971-yil 20-dekabrda Pokiston Xalq partiyasi hokimiyatga keldi. Uning rahbari Zulfiqor Ali Bxutto bosh vazir lavozimini egalladi. Yangi hukumat harbiy holatni bekor qildi. Sanoatning yetakchi tarmoqlarini, bank va sug‘urta kompaniyalarini milliylashtirdi.

Mamlakatda agrar islohot o‘tkazildi. Unga ko‘ra, katta yer egaligi hajmi 150 akr (60 ga) bilan cheklab qo‘yildi. Ortiqcha yerlar kam yerli va yersiz dehqonlarga tekinga bo‘lib berildi. Bu islohot 1977-yilda yana davom ettirildi. Endi yer egaligi hajmi 100 akr (40 gektar) bilan cheklab qo‘yildi. Soliq o‘ziga to‘q dehqonlardan va katta yer egalaridan olinadigan bo‘ldi. Mamlakat tarixida birinchi marta pensiya ta’minoti joriy etildi. 1973-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko‘ra, Pokiston parlament respublikasi deb e’lon qilindi. Z. Bxutto hukumati xalqaro miqyosda real vaziyatni hisobga olgan holda siyosat yurita boshladi. Chunonchi, 1972-yilda Pokiston SEATO dan chiqdi. 1974-yilda Bang256ladesh Respublikasini tan oldi. 1976-yilda esa Hindiston bilan diplomatik aloqasini tikladi.

Biroq fuqaro hukumati ko‘p yashamadi. 1977-yilning 5-iyunida Pokiston tarixida ikkinchi marta harbiy to‘ntarish amalga oshirildi. Bunga mamlakatda yuz bergan chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz yo‘l ochgan edi. Chunonchi, 1973-yilda Yaqin Sharqdagi urush munosabati bilan yuz bergan energetika inqirozi Pokiston iqtisodiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mamlakatda keng iste’mol tovarlarining narxi ko‘tarilib ketdi. Ishsizlar soni kundan-kunga oshib bordi. Bu hol boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazishga imkon bermadi. Buning ustiga diniy mutaassiblar 1974-yilda yirik jamoaviy to‘qnashuvni keltirib chiqardilar. Natijada 1975-yilning fevralida Z. Bxutto hukumati asosiy muxolifatchi partiya — Milliy Xalq partiyasi faoliyatini taqiqlab qo‘yishga majbur bo‘ldi. Og‘ir siyosiy sharoitda bo‘lsa ham 1977-yilda parlament saylovi o‘tkazildi. Unda Z. Bxutto partiyasi g‘alaba qozonganligi e’lon qilindi. Biroq muxolifatchi partiyalar ittifoqi — Pokiston Milliy Alyansi buni tan olmadi va hukumatga qarshi keng kampaniyani avj oldirdi. Shunday sharoitda, yuqorida ta’kidlanganidek, harbiylar navbatdagi davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar.

1977-yil 5-iyulda hokimiyat general Ziyoulhaq qo‘liga o‘tdi. Mamlakatda harbiy holat joriy etildi. Z. Bxutto hibsga olindi va Jahon jamoatchiligining e’tiroziga qaramay, 1979-yilda qatl etildi. 1973-yilgi Konstitutsiyaning

amal qilishini to‘xtatib qo‘ydi, parlamentni tarqatib yubordi.
1979-yildan barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Ziyoulhaq jamiyat hayotini to‘la islomlashtirish siyosatini yuritdi. 1979-yilda Pokiston SENTO blokidan chiqdi. Qo‘shilmaslik harakatining qatnashchisi bo‘ldi. 1981—1987-yillarda AQSHdan 3,2 mlrd miqdorida harbiy-iqtisodiy yordam oldi.
Harbiylarning navbatdagi hokimiyatdan ketishiga Ziyoulhaqning 1988-yil 17-avgust kuni samolyot halokati oqibatida halok bo‘lishi sabab bo‘ldi. G‘ulom Is’hoqxon Prezident bo‘lib qoldi.
Shu yilning 16-noyabr kuni parlament saylovi o‘tkazildi. Unda Z. Bxuttoning qizi — Benazir Bxutto boshqargan Pokiston Xalq partiyasi g‘alaba qozondi va u Bosh vazir lavozimini egalladi.
B. Bxutto ba’zi xatolarga yo‘l qo‘ydi. Uni korrupsiyada ayblab, 1990-yilda hokimiyatdan chetlatishdi. Uning o‘rniga Navoz Sharif bosh vazirlikka tayinlandi. Lekin ahvol tinchimadi. Prezident Legari yangi saylov o‘tkazishga majbur bo‘ldi.
1993-yilgi parlament saylovida ham B. Bxutto partiyasi g‘alaba qozondi. Biroq ichki siyosiy vaziyat nihoyatda chigal bo‘lgan Pokistondek davlatni boshqarish oson emas edi. Siyosiy tajribasizlik B. Bxuttoga mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash imkonini bermadi. U yana korrupsiyada ayblandi.
1997-yilgi saylovda esa Pokiston Musulmon Ligasi g‘olib chiqdi. Uning rahbari N. Sharif bosh vazir lavozimini egalladi. Bu partiya hukmronligiga oxir-oqibatda navbatdagi — uchinchi harbiy to‘ntarish chek qo‘ydi. Bu

davrda mamlakat tashqi qarz botqog‘iga botgan edi. Hindiston bilan munosabatning yomonligi Pokistonni katta harbiy xarajatlar qilishga majbur etardi. Bu esa tashqi qarzning tobora ortishiga olib kelgan asosiy omil edi.
1999-yilning may oyida o‘tkazilgan yadro bombasi sinovi juda katta xarajatlar evaziga, xalq ommasi rizqi evaziga amalga oshganligi sir emas.
Biror-bir siyosiy partiya mamlakatni inqirozdan olib chiqishga muvaffaq bo‘la olmadi. Ular uchun bir-birlarini korrupsiyada ayblash odatiy holga aylanib qoldi. Bu esa aholi ko‘z o‘ngida ularning obro‘sini to‘kdi.
Harbiylar vujudga kelgan vaziyatdan yana foydalandilar. 1999-yilning 3-oktabrida ular hokimiyatni qo‘lga oldilar. Armiya bosh shtabi boshlig‘i general P. Musharraf o‘zini prezident deb e’lon qildi. Pokistonda harbiy diktatura hukmronligi hamon davom etmoqda. Mustaqillik yillarida Pokiston va Hindiston taraqqiyotini taqqoslaydigan bo‘lsak, ular o‘rtasida qator jiddiy farqlar borligini ko‘rish mumkin. Masalan, Hindiston parlament respublikasi bo‘lsa, Pokiston prezidentlik respublikasidir. Sh. Aziz Bosh vazir lavozimida ishlamoqda. Pokistonda jamiyat hayotini diniy asosda qurish bu davlat hududiy yaxlitligiga tahdid solmaydi. Hindistonda esa bu omil uning parchalanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Pokistonda 3 marta harbiy to‘ntarish sodir bo‘lgani holda, Hindistonda biror marta ham bunday hodisa sodir bo‘lgani yo‘q.
Ayni paytda, har ikki davlat mustaqillik yillarida sanoat potensialini yarata oldi. Hindiston bu borada ancha ilgarilab ketdi ham. Buning misoli o‘laroq, u 1980-yilda o‘zining sun’iy yer yo‘ldoshini uchirishga muvaffaq bo‘ldi. Har ikki davlat ham yadro qurolini sinovdan o‘tkazishga erishdi. Bu hodisa Osiyoda tinchlikning barqaror bo‘lishiga xizmat qilmaydi.
O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Yaqin Sharq mamlakatlari orasida birinchilardan bo‘lib Pokiston bosh vaziri Navoz Sharif 1992-yil 27—28-iyun kunlari O‘zbekistonga tashrif buyurdi.
Tashrif chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma, hukumatlar o‘rtasida madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitimlar imzolandi.
1992-yil avgustida O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Pokistonga javob tashrifi bilan bordi. U yerdagi uchrashuvlar, suhbatlar, muzokaralar natijasida ikki mamlakat o‘rtasida 5 ta muhim bitim imzolandi. Banklar to‘g‘risida, investitsiyalarni himoya qilish, elektrlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, telekommunikatsiya sohasida hamkorlik qilish haqidagi bitimlar o‘tgan yillar davomida o‘z samarasini berdi. Pokistonning «Tabani korporeyshn », «Lahor», «Pia», «Merkuriy», «Metro garmen tes» va boshqa firmalari

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatmoqda. 1994-yilda tovar ayirboshlash 4,3 mln dollarga yetdi.
Urdushunos olim A. Ibrohimov Lahor shahrida o‘zbek tili kurslarini tashkil etdi. O‘zbekistonning pilla, shoyi matolari, shisha va billurlari, yengil

sanoat uchun mashina va uskunalari Pokistonda sevib xarid qilinsa, pokistonliklarning tayyor kiyimlari, charm kamzullari, shakar va kakaosi o‘zbekistonliklarga manzur bo‘lmoqda, 2004-yilda ikki mamlakat o‘rtasida tovar ayirboshlash 8,4 mln dollarni tashkil etdi. 43 mln dollarlik paxta Eron bandargohlari orqali chetga chiqmoqda. Pokiston esa uchinchi davlat orqali paxta sotib olmoqda.
2005-yil martida Pokiston Prezidenti P. Musharrafning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida bu masalalar muhokama qilindi. Pokiston sarmoyalari bilan O‘zbekistonda 42 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. 2004-yilda ular 19,5 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqardilar. Tashrif chog‘ida hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risida qo‘shma bayonot, 2005—2009-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan madaniy aloqalar dasturi va xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hindiston va Pokistonning tashkil etilishi sabablari va mustaqillikka erishishi qanday yuz berdi?
2. J. Neru davrida Hindistonning ahvoli qanday edi?
3. Pancha chila nima?
4. Hindiston tarixida I. Gandining roli qanday bo‘ldi?
5. Hindiston bilan Pokiston o‘rtasidagi mojaroning asosiy sababi nima?
6. M. Desai davrida Hindiston taraqqiyoti haqida gapirib bering.
7. «Bxarati janati parti» qanday partiya?
8. Pokiston 1958-yilgacha qanday idora qilindi?
9. Pokistonda harbiy diktaturalar nega o‘rnatildi?
10. Toshkent deklaratsiyasining ahamiyati qanday bo‘ldi?
11. Bangladesh mustaqillikka qanday erishdi?
12. Benazir Bxutto qanday siyosat yurgizdi?
13. Hozirgi bosqichda Pokiston — Hindiston munosabatlari qanday?
14. AQSHning Hindiston va Pokiston bilan munosabatlari qay tarzda davom etmoqda?
15. O‘zbekistonning Hindiston va Pokiston bilan munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

JADVALNI TO‘LDIRING. HINDISTON VA POKISTON RAHBARLARINING FAOLIYATLARI HAQIDA

Mamlakat rahbarlari	Hokimiyatda turgan yili	Mamlakat uchun qilgan ishlari

BAHS YURITING

— Jamiyat taraqqiyotida dinning roli va G‘arb davlatlarining diniy ayirmachilikdan Sharq mamlakatlarida qanday foydalanayotganliklari haqida erkin fikr yuritib, matbuot va tarixiy materiallar asosida insho yozing.
— Hindiston iqtisodiyotidagi qaysi jihatlardan O‘zbekistonda ijodiy foydalanish mumkin? Bu haqda erkin fikr bildiring. Bahs yuriting.

?

29-§. Turkiya va Eron

Turkiya Respublikasi

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng Turkiyada chigal vaziyat yuzaga keldi. Xalq Respublikachi Partiya (XRP) bilan 1945-yilda tashkil etilgan Demokratik Partiya (DP) o‘rtasida kurash kuchaydi.
DP davlat monopolizmiga qarshi chiqib, «Xususiy tashabbus»ni qo‘lladi. 1946-yilgi saylovlarda XRP terror yo‘li bilan g‘olib chiqdi va darhol repressiyani boshlab yubordi. Bu narsa mamlakatda keskinlikni avj oldirdi. Mamlakatni 1938-yildan AQSHning gumashtasi I. Inenyu boshqarib keldi. 1950-yilning may oyida Turkiya Buyuk millat majlisi (parlamenti)ga bo‘lib o‘tgan saylovda

Demokratik partiya g‘alaba qozondi. Partiya rahbari J. Boyar mamlakat Prezidenti, partiyaning yirik arbobi A. Menderes Bosh vazir lavozimini egalladi. Uning dasturi iqtisodiyotda davlat sektorini tugatish va erkin tadbirkorlikni qaror toptirishni ko‘zda tutardi. DP o‘z dasturini amalga oshirishga kirishdi. Sanoatda, hatto, xususiy sektorning davlat sektoridan ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishiga ham erishildi. Hukumat mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyasini joylashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. 1950—1954-yillar davomida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan 65 mln dollar miqdorida yordam oldi. Biroq yangi hukumat qanchalik harakat qilmasin, iqtisodiy rivojlanishda jiddiy o‘zgarish yuz bermadi. Bu chet el sarmoyasining milliy sarmoyani siqib chiqarishiga sabab bo‘ldi. 1956-yilda Turkiya g‘allani chetdan sotib oldi. 1958-yilda Turkiya o‘zini bankrot deb e’lon qilib, qarzlarini to‘lay olmasligini bildirdi. Boyar-Menderes hukumatidan ko‘pchilik norozi bo‘ldi. Mamlakatda korrupsiya, talon-toroj avj oldirilgan edi. 1960-yil may oyida harbiy to‘ntarish bo‘ldi. Hokimiyat to‘ntarish o‘tkazgan yangi tashkilot — Milliy birlik qo‘mitasi (MBQ) qo‘liga o‘tdi. Mamlakatning vaqtinchalik konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra, MBQ oliy qonun chiqaruvchi organ deb e’lon qilindi. Unga J. Gursul raislik qildi va u vaqtinchalik hukumatni ham boshqardi. J. Boyar, A. Menderes qamoqqa olindi. A. Menderes 1961-yilda qatl etildi.

1961-yilning may oyida mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etilgach, ikkita yangi partiya tuzildi. Ularning biri «Adolat partiyasi», ikkinchisi esa «Yangi Turkiya partiyasi» deb ataldi. Ayni paytda boshqa siyosiy partiyalar ham faoliyat ko‘rsata boshladi. Noyabr oyida o‘tkazilgan saylovda hech bir partiya mutlaq ko‘pchilik o‘rin ololmaganligi uchun koalitsion hukumat tuzishga to‘g‘ri keldi.

1961—1965-yillar Turkiyaning kelgusi taraqqiyot yo‘li xususida keskin siyosiy kurashlar yillari bo‘ldi. Bu davrda 4 marta hukumat almashdi. Va, nihoyat, 1965-yildagi parlament saylovida «Adolat partiyasi» g‘alaba qozondi. Uning rahbari S. Demirel Bosh vazir lavozimini egalladi. Bu hukumat davrida

Demokratik partiyaning hokimiyatga kelishi

harbiy xarajatlarning yanada o‘sishi budjet taqchilligini keskin ko‘paytirib yubordi. U 1970-yilda 3,5 mlrd lirani tashkil etdi. Davlat qarzi esa 72 mlrd liraga yetdi.

Bunday sharoitda harbiylar yana siyosatga aralashdilar. Ular 1971-yilning 12-martida yana davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Unga general K. Evren rahbarlik qildi. Mamlakatda favqulodda holat joriy etildi. Biroq bu to‘ntarish mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta’minlay olmadi. 1973-yilda mamlakat prezidenti 16 turdan so‘ng saylanganligi buning isbotidir. 1980-yilda esa hatto prezident saylashga erishilmadi ham. Oqibatda yana davlat to‘ntarishi o‘tkazildi. Barcha siyosiy partiyalar tarqatilgan, deb e’lon qilindi. Ularning rahbarlariga 10 yil davomida siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish man etildi.

Ommaviy axborot vositalari uchun qattiq senzura o‘rnatildi. Biroq Yevropa Ittifoqining aralashuvi bilan harbiylar yon berishga majbur bo‘ldilar. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Natijada qator yangi partiyalar («Vatan» partiyasi, «To‘g‘ri yo‘l» partiyasi) tuzildi.

«Vatan» partiyasini T. O‘zal, «To‘g‘ri yo‘l» partiyasini esa S. Demirel boshqardi. 1983-yilda o‘tkazilgan parlament saylovida «Vatan» partiyasi g‘alaba qozondi va T. O‘zal Bosh vazir lavozimini egalladi. 1989-yilda esa Turkiya Prezidenti lavozimiga saylandi. T. O‘zal davrida mamlakatda chuqur iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi. Chunonchi, 1986-yilda xususiylashtirish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. 1988-yildan davlat mulkini sotish boshlandi.

Biroq bundan ko‘zlangan maqsadga erishilmadi. Chunki davlat mulki narxi qimmat bo‘lgani uchun, 1991-yil oxirigacha uning atigi 5 foizi xususiylashtirildi. 1991-yilgi parlament saylovlarida «To‘g‘ri yo‘l» partiyasi g‘alaba qozondi. Uning rahbari S. Demirel hukumat tuzdi. 1993-yilda T. O‘zal vafot etgach, S. Demirel mamlakat prezidentligiga saylandi.

Turkiya O‘rta Sharqda iqtisodiy rivojlangan davlatlardan biri. Ayni

paytda, qudratli zamonaviy armiyaga
ham ega.
Biroq Turkiya mamlakat hayotini
G‘arbiy Yevropacha model asosida to‘la
qayta qurishga muvaffaq bo‘lmadi.
Bunga, birinchidan, uning texnik-iqtisodiy
jihatdan orqada qolganligi sabab
bo‘ldi. Mamlakat aholisining 50 foizi
hamon qishloq xo‘jaligida band.
Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotni
qattiq markazlashtirgan va uning ustidan
 to‘la nazorat o‘rnatgan. Chunonchi, sa261
noatning katta qismi hamon davlat mulki hisoblanadi. Korxonalarning 70 foizga yaqini davlat dotatsiyasi hisobiga ishlaydi. Tashqi savdoda import eksportdan ustun turadi. Bu esa, o‘z navbatida, tashqi qarzning ko‘payishiga olib kelmoqda. 1995-yilda Turkiyaning tashqi qarzi 50 mlrd dollarni tashkil etganligi asosan shu omil bilan izohlanadi. 2000-yilda mamlakat prezidentligiga A. Sezer saylandi. Tayyip Erdog‘an Bosh vazir lavozimini egalladi. 2007-yil avgustda A. Gul Prezident A. Sezer o‘rnini egalladi.
Turkiya tashqi siyosatda birinchi navbatda AQSH
bilan munosabatlarni yaxshilashga intildi. Chunonchi,
AQSH hukumati 1947-yil 12-iyulda Turkiyaga moliyaviy va harbiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Turkiya «Trumen doktrinasi» bo‘yicha harbiy yordam oldi.
1948-yil iyulda Turkiya hukumati AQSH bilan «Marshall rejasi» asosida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitim imzoladi. Bu ikkala bitim bo‘yicha Turkiya AQSHdan 800 mln dollar oldi va mablag‘lar asosan harbiy ishga sarflandi. Budjetning 60 foizi bu davrda harbiy maqsadlarga ketmoqda edi. AQSH ning Koreyada olib borgan urushida ishtirok etdi. 1951-yil oxirida Turkiya NATO a’zoligiga qabul qilindi. 1954-yilda SEATO harbiy-siyosiy ittifoqi a’zosi bo‘ldi.
Shu yildan boshlab Turkiya tashqi siyosatida Kipr masalasi alohida o‘rin tuta boshladi. 1955-yilda esa Bag‘dod paktini imzoladi. 1959-yilda Turkiya hududida AQSH harbiy bazasi barpo etish to‘g‘risida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Shuningdek, Eron va Pokiston bilan shartnoma tuzib, SENTOni tashkil etdi. (1958-yilda Iroq bu blokdan chiqib ketgan edi.) 60-yillardan boshlab Turkiyaning AQSH bilan bir tomonlama ittifoqchilikka asoslangan tashqi siyosatida o‘zgarish yuz bera boshladi.
Endi Turkiya «Umumiy bozor» a’zosi bo‘lgan davlatlar, birinchi navbatda, GFR bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantira boshladi. 1974-yilda Kipr muammosi yanada keskinlashdi. Kiprni Gretsiyaga qo‘shib olishga intiluvchi kuchlar qonuniy hukumatga qarshi bosh ko‘tardilar. Bunga javoban Turkiya harbiy kuchlarini Kiprga kiritdi. Shu tariqa Kipr amalda kiprlik turklar va kiprlik greklar jamoalariga bo‘linib ketdi.
Turkiya O‘zbekiston davlat mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan davlatdir. Turkiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzolangan. O‘zbekistonda ko‘plab o‘zbek—turk qo‘shma korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning ichida Samarqanddagi «Otayo‘l» avtobus ishlab chiqaruvchi korxona alohida ahamiyatga ega.
Sovet davlati parchalanib ketgach, Turkiya O‘rta Osiyo respublikalari bilan yaqin munosabat o‘rnatdi. Yaponiya va AQSH firmalari Turkiyada sovitgich va televizor ishlab chiqaruvchi korxonalar qura boshladilar. Shuningdek, Turkiya ko‘pgina xorij firmalariga vositachi rolini o‘ynamoqda.

Turkiya O‘zbekiston mustaqilligini birinchi bo‘lib
tan olgan mamlakatdir. 1991-yil dekabrda
O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Turkiyaga
rasmiy tashrif bilan bordi. Mamlakat Prezidenti
Turgut O‘zal, Bosh vazir Sulaymon Demirel va ishbilarmonlar bilan uchrashib, O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya jumhuriyati o‘rtasidagi aloqalarning asos va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomada

mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ma’naviy, ruhiy yaqinlik ta’kidlandi. Iqtisodiy va savdo sohasida hamkorlik, madaniyat, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa bitimlar imzolandi.
Ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishda 1992-yil aprelida Turkiya Bosh vaziri Sulaymon Demirelning respublikamizga tashrifi katta rol o‘ynadi. Turklarning «Interner», «O‘zturk», «O‘zyuksal», «Dogu ilag», «Yazeks», «Bursel» va boshqa firmalari O‘zbekistonda keng faoliyat ko‘rsatdi.
1993-yil aprelida Turkiya Prezidenti T. O‘zalning O‘zbekistonga tashrifi, ayniqsa, samarali bo‘ldi. «Daromad va mol-mulkka ikki tomonlama soliq solmaslik to‘g‘risida», «Terrorizm, g‘ayriqonuniy qurol va giyohvand moddalar tarqatishga qarshi kurash to‘g‘risida» bitimlar va boshqa hujjatlar imzolandi.
1993-yilda O‘zbekistonga 240 mln dollar miqdorida turli tovarlar keltirildi. Turkiyaning yordami bilan Qoraqalpog‘istonda «Kateks», «Elteks», Buxoroda «Vardonze» (erkaklar ko‘ylagi tikishga moslashgan) va boshqa ko‘plab korxonalar qurildi. Ularning ichida Samarqanddagi «Otayo‘l» avtobus ishlab chiqaruvchi korxona alohida ahamiyatga ega. Turklar O‘zbekistondagi ko‘plab mehmonxonalarni qayta ta’mirlashda yordam ko‘rsatdilar.
Ikki mamlakat o‘rtasida madaniyat, fan sohasida ham aloqalar kuchayib bormoqda.
Turkiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzolangan.

Eron Islom Respublikasi

Ikkinchi jahon urushi oxirida Eron shoh Muhammad Rizo Pahlaviy (1919—1980) tomonidan boshqarilar, hukumat boshlig‘i Qavam as Sulton edi. 1947-yil uning o‘rniga I. Hakimiy va undan so‘ng Razmari tayinlandi. 1945-yili Eronda yashovchi ozarbayjon va kurd xalqlarining milliy muxtoriyat uchun kurashi boshlandi. Eron Ozarbayjonida faoliyat ko‘rsata boshlagan Ozarbayjon demokratik partiyasi quyidagi talablarni ilgari surdi: yaxlit mamlakat doirasida Eron Ozarbayjoniga madaniy hayot va mahalliy boshqaruv sohasida muxtoriyat berish; ozarbayjon tilini muxtoriyat hududida rasmiy til deb tan olish; o‘z parlamentiga ega bo‘lish.

Turkiya — O‘zbekiston munosabatlari

1945-yil voqealari

Bu talablar shoh hukumatining boshqa millat vakillariga nisbatan o‘tkazayotgan shovinistik siyosati oqibati edi. 1945-yilning oxirida Eron Ozarbayjoni parlamentiga (majlis) saylov o‘tkazildi. Parlament 9-dekabrda Ozarbayjon Muxtor Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi. Saylovdan so‘ng tuzilgan hukumat markaziy hokimiyatni tan olishini hamda uning muxtoriyat manfaatlariga zid bo‘lmagan barcha ko‘rsatmalarini bajarishini ma’lum qildi. Maktablarda ta’lim ozarbayjon tilida olib borila boshlandi. Ozarbayjon davlat universiteti ochildi.
1945-yilning oxirida Shimoliy Kurdistonda (Eron Kurdistonida) ham muxtoriyat uchun kurash boshlandi. Tez orada muxtor Kurd Xalq Respublikasi tuzildi. Bu kurashga Kurdiston demokratik partiyasi rahbarlik qildi. Biroq bu harakatlar aslida SSSR tomonidan rag‘batlantirilgan va qo‘llab-quvvatlangan edi. Bu esa o‘zga davlatlar ichki ishlariga bevosita aralashish edi. Ayni paytda SSSR Tude (Eron kommunistik partiyasi)ni qo‘llab-quvvatladi. Eron hukumati, tabiiyki, Eron Ozarbayjoni va Shimoliy Kurdistondagi voqealarni separatchilik harakati, deb baholadi.
Buyuk Britaniya hukumati esa SSSRning Eron ichki ishlariga aralashuviga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Chunonchi, Eronga qo‘shimcha harbiy kuchlar jo‘natdi. SSSR manevr qilishga majbur bo‘ldi. 1946-yil 4-aprelda Eron bilan aralash sovet – eron neft kompaniyasi tuzish haqidagi shartnoma evaziga o‘z qo‘shinini Shimoliy Erondan olib chiqib ketishga majbur bo‘ldi. 1946-yilning oxiriga kelib Eron hukumati bu shartnomani bekor qildi va mamlakat shimolini to‘la o‘z nazoratiga bo‘ysundirdi. Ozarbayjon va Kurd muxtor respublikalarini tugatdi. SSSR bu voqealarga aralashmadi. Chunki

bunday aralashuv Buyuk Britaniya va AQSHning birgalikdagi aks aralashuviga duch kelishi mumkin edi.
Ayni paytda Eronda ingliz – amerika ta’siri kuchayib bordi. 1947-yilda Eron armiyasida AQSH mutaxassislarining rahbarlik lavozimini egallashlari mumkinligini ham ko‘zda tutuvchi Erondagi Amerika harbiy missiyasining faoliyati haqida eron – amerika shartnomasining imzolanishi Eronda AQSH mavqeyini yanada mustahkamladi. 1950-yilda bu masala yangi shartnoma bilan mustahkamlandi. Ayni paytda ingliz – amerika qarama-qarshiligi kuchaydi.
Ingliz – eron neft kompaniyasi (IENK) Buyuk Britaniya uchun katta ahamiyatga ega edi. Bu kompaniya 1933-yilda tashkil etilgan. Kompaniya daromadining asosiy qismini Buyuk Britaniya olardi.
Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ham u bu kompaniyani saqlab qolishga zo‘r berib urindi. Shu maqsadda Buyuk Britaniya 1949-yilda «Qo‘shimcha shartnoma» deb ataluvchi shartnoma ishlab chiqdi. Unda kompaniya daromadidan Eronga beriladigan ajratma miqdorini qisman oshirish ko‘zda tutilgan edi. Eron xalqi qarshi chiqdi.
Eron nefti uchun kurash

Buyuk Britaniya shu yo‘l bilan IENKda o‘z xo‘jayinligini saqlab qolmoqchi bo‘ldi. Biroq Eron hukumati uni rad etdi. 1951-yilning 15-martida esa mamlakat parlamenti IENKni milliylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 29-aprelda bosh vazir lavozimiga tayinlangan, Milliy front (Eronning chet davlatlarga iqtisodiy va siyosiy jihatdan qaramligiga qarshi kurashuvchi kuchlar) rahbari M. Mossodiq bu qarorni bevosita amalga oshirishga kirishdi.
Buyuk Britaniya va AQSH har xil yo‘llar bilan bunga to‘sqinlik qildilar. Ular bu masalani xalqaro Gaaga sudida hal etmoqchi bo‘ldilar. Biroq Eron hukumati bu sud vakolatini tan olmadi. Buyuk Britaniya endi BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qildi. Xavfsizlik Kengashi Eron neftini xalqaro kompaniya ixtiyoriga berish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Biroq Mossodiq bu qarorni rad etdi. U Eron nefti Eronning milliy boyligi ekanligini, uni milliylashtirish Eronning ichki ishi ekanligini ta’kidladi.
Bunga javoban Buyuk Britaniya Eronga nisbatan iqtisodiy qamal tashkil etdi. Eron hukumati esa Buyuk Britaniya bilan diplomatik munosabatlarini uzdi. Shoh boshchiligidagi ichki g‘arbparast kuchlar Buyuk Britaniya va AQSH ning qo‘llab-quvvatlashiga tayanib, 1953-yilning 19-avgustida davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Unga general Zohidiy rahbarlik qildi. Shoh uni bosh vazir etib tayinladi. Barcha siyosiy partiyalar, tashkilotlar, Mossodiq siyosatini qo‘llab-quvvatlagan vaqtli matbuot nashrlari tor-mor etildi. Shu tariqa Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy o‘z mavqeyini mustahkamlab oldi.
Yangi hukumat 1954-yilda Xalqaro neft konsorsiumi bilan shartnoma imzoladi. (Unda AQSH va Buyuk Britaniya neft kompaniyalari yetakchi mavqega ega edi.) Shartnomaga ko‘ra, Eron nefti 25 yil muddat bilan (1979-yilgacha) shu konsorsium ixtiyoriga berildi. Konsorsiumning neft qazib chiqarishi yildan yilga o‘sib bordi. Xususan, 1950-yilda u 32 mln tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 1961-yilga kelganda bu ko‘rsatkich 57 mln tonnani tashkil etdi.
Ayni paytda, Eron ham neft eksportidan katta daromad topa boshladi. 70-yillar o‘rtalariga kelganda bu daromad 20 mlrd dollardan oshdi. Eron 1955-yilda Bag‘dod paktiga (1959-yildan SENTO) a’zo bo‘ldi. «Eyzenxauer doktrinasi»ni qo‘llab-quvvatladi. 1959-yilda AQSH bilan shartnoma tuzib, unga deyarli qaram bo‘lib qoldi. Budjetning 40 foizi harbiy maqsadlarga ketdi.
1955-yildagi qonun bilan Eronda 1000 dan ortiq turli firmalar ish ko‘rar edi. Import eksportdan 5 baravar ortdi. Eron mahalliy sanoati sindi. Ko‘plab korxonalar yopildi. Eron AQSHdan g‘alla sotib oldi. Eron shohi mamlakat taraqqiyotini jadal sur’atlarda tezlatishga, og‘ir iqtisodiy ahvoldan qutulishga va mamlakat hayotida

g‘arbga munosabatlarni qaror toptirishga, to‘xtovsiz davom etayotgan norozilik to‘lqinlarini bostirishga harakat qildi.
Oq inqilob
265
Shu maqsadda, 1963-yilning 23-yanvarida quyidagi 6 qonun loyihasi yuzasidan referendum o‘tkazildi: 1. Yer islohoti. 2. O‘rmonlarni milliylashtirish. 3. Yer islohotini moliyalashtirish uchun davlat zavod va fabrikalarini sotish. 4. Ishchilarning korxona foydasidan ulush olishi. 5. Parlamentga saylov to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish kiritish. 6. Savod-sizlikka qarshi kurashish uchun «maorif korpusi » tuzish.
Shoh bu islohotlar ahamiyatini inqilobga tenglashtirdi va uni «oq inqilob» deb atadi. Sanoat ishlab chiqarishining yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 10—15 foizni tashkil etdi. Islohot natijasida Eron agrar davlatdan agrar-industrial davlatga aylandi. Ayollarga erkaklar bilan teng saylov huquqi berildi. Hayotga Yevropacha tus berila boshladi. Mamlakat G‘arb dunyosining bir qismiga aylandi. Biroq islohot xalqning turmush darajasini yaxshilamadi. Chunki Eron jamiyati agrar islohotga tayyor emas edi. Buning ustiga, islohot juda tez sur’atlar bilan o‘tkazila boshladi. Aholining ongi esa buni o‘ziga singdira olmadi. Chunki iqtisodiy islohot dastlab aholi turmush darajasini pasaytirib yuborishi tabiiydir. Bundan tashqari, islohot aholining ma’lum tabaqasini haddan tashqari boyitib yubordi. O‘n millionlab odamlar esa tobora kambag‘allashdi. Jamiyatdagi bu o‘zgarishlar aholi ko‘z o‘ngida islom an’analaridan, asrlar osha davom etib kelayotgan turmush tarzidan voz kechishdek gavdalandi. Xalq noroziligi kuchaydi. Xalqqa qarshi maxfiy politsiya (SAVAK) tashkil etildi. Uning yerto‘lalarida 380 mingdan ortiq eronliklar yo‘q qilindi. Bu hodisa G‘arbcha tamoyillar asosida o‘tkazilayotgan islohotlarga boshdanoq qarshi bo‘lgan ruhoniylarga qo‘l keldi.
Diniy mutaassiblik aholi ongini chulg‘ab olgan jamiyatda ruhoniylarning mavjud hukmron doiralarga qarshi turishi ular uchun juda katta xavf tug‘dirar edi. Shoh hukumati muxolifat kuchlarga qarshi repressiyani kuchaytirdi. Bu hol shohga qarshi kurash harakatini vujudga keltirdi. Harakatni islomning shia oqimi ruhoniylari boshqardi. Ularning rahnamosi Eronning oliy diniy arbobi Oyatullo Ruhullo Musovi Xumayniy edi (1898—1989). U ham shoh repressiyasiga duchor etilgan edi (1964-yil). Inqilob arafasida Parij shahrida yashardi.
Eron aholisining juda katta qismi shohga qarshi kurashga qo‘shildi. Armiyaning katta qismi shohni qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi. Natijada 1979-yilning 16-yanvarida shoh mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi. 11-fevral kuni esa umumiy qurolli
Oyatullo Xumayniy.
Eron inqilobi
266
qo‘zg‘olon boshlandi, armiya ham qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tdi. Shu tariqa Eronda inqilob g‘alaba qildi. Bu inqilob Islom inqilobi edi. 15-fevral kuni Oyatullo Xumayniy Tehronga qaytib keldi. U «Islom inqilobining rahnamosi» deb e’lon qilindi. Mamlakat ruhoniylari yangi hukumat tuzdilar. 1979-yilning 1-aprelida davlatning rasmiy nomi o‘zgardi. Endi, u Eron Islom Respublikasi deb ataladigan bo‘ldi.
Ayni paytda yangi konstitutsiya ham qabul qilindi. Konstitutsiya Oyatullo Xumayniyni umrbod mamlakatning oliy siyosiy va diniy rahbari deb e’lon qildi. Hatto mamlakat prezidenti ham unga bo‘ysunar edi. 1979-yilda Tehronda AQSH diplomatlari garovga olindi va 1981-yil yanvarida Eron — AQSH bitimidan keyin ozod qilindi. 1980-yilda mamlakat prezidenti va parlamenti (majlis) saylandi. Diniy bo‘lmagan hamda milliy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Garchand Eron ham ko‘p millatli davlat bo‘lsa-da, Oliy rahbariyat barcha

musulmonlarning tengligini ro‘kach qilib, mamlakatda milliy masala tan olinmasligini ta’kidladi. Shu tariqa yangi rahbariyat ichki siyosatda jamiyat va davlat hayotini to‘la islomlashtirish siyosatini yurita boshladi.
Ichki muxolifatni tugatish maqsadida Xumayniy «Islom madaniy inqilobi»ni e’lon qildi. Bu hol hukmron doiralar o‘rtasida ham kelishmovchilik keltirib chiqardi. Mamlakatning birinchi Prezidenti Banisadr Xumayniy atrofidagilarning ekstremistik harakatlariga qarshi chiqdi. Oxiroqibatda u mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.
Oyatullo Xumayniy o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun uning rejimiga qarshi chiqqanlarni qatag‘on qilishni uyushtirdi. Natijada 1982—1984-yillar davomida 70 mingdan ortiq kishi o‘ldirildi. Biroq jahon jamoatchiligi talabi Eron rahbariyatini o‘z ichki siyosatini yumshatishga majbur etdi.
1989-yilda (Xumayniy vafotidan so‘ng) mamlakat prezidentligiga saylangan Ali Akbar Xoshimiy Rafsanjoniy (1934-yilda tug‘ilgan) iqtisodiy islohot o‘tkaza boshladi. Ayni paytda ijtimoiy hayotni liberallashtirish yo‘lini tutdi.
Biroq bu yo‘l katta qiyinchiliklarga duch keldi. Bu, bir tomondan, 1980—1988-yillarda davom etgan Eron — Iroq urushi oqibatida ko‘rilgan katta iqtisodiy yo‘qotish (350 mlrd dollar zarar ko‘rildi, 700 ming eronlik o‘ldi) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, AQSHning Eronni xalqaro terrorizm markazlaridan biri deb e’lon qilishi bilan bog‘liq edi. AQSH Eron bilan savdo aloqalarini to‘xtatib qo‘ydi. Boshqa G‘arb davlatlari esa Eronga ilg‘or texnologiya kiritishni taqiqlab qo‘yishdi.
Aholining ishlab chiqarish sur’atiga nisbatan tez ko‘payishi, jahon bozorida neft narxining pasayishi, ayni paytda, Eronda neft ishlab chiqarishning 2 baravar kamayishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi.
Shunday sharoitda, 1997-yil avgustida Muhammad Xotamiy mamlakat prezidentligiga saylandi. U shia ruhoniylarining yangi avlodiga mansub

edi. U tashqi siyosatda AQSH va G‘arbning boshqa davlatlari bilan munosabatlarni yumshatishga intildi.
Rossiya bilan munosabatlarni yanada rivojlantira boshladi. Rossiya Eronga kimyo sanoatini rivojlantirishda, atom elektr stansiyasi qurishda hamda armiyani zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirishda yordam bermoqda. Ayni paytda O‘rta Osiyo Respublikalari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda. 1996-yilda Mashhad (Eron) — Saraxs (Turkmaniston) temir yo‘li qurilishini tugallashga muvaffaq bo‘lindi. Buning natijasida O‘rta Osiyo respublikalari Fors ko‘rfaziga chiqish imkoniga ega bo‘ldilar.
Eron rahbariyati Afg‘onistondagi voqealarga faol aralashib keldi. Uning bu aralashuvi Afg‘onistondagi muxolifatchi kuchlardan biri — Shimoliy Alyans (Ittifoqi)ni qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘ldi. 2001-yilda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovida yana Muhammad Xotamiy g‘alaba qozondi. Eronda jamiyat hayotini liberallashtirish siyosati davom etdi.
2005-yilgi saylovlarda Mahmud Ahmadiy Najot mamlakat prezidenti lavozimiga keldi.
Eron Islom Respublikasi 1992-yil 10-mayda O‘zbekiston bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatdi. O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning 1992-yil noyabr oyidagi Eronga rasmiy safaridan so‘ng mamlakatlarimiz o‘rtasida hamkorlik miqyosi yanada kengaydi. 1993-yil yanvar—avgust oylarida, ya’ni faqat 8 oy davomida O‘zbekiston va Eron o‘rtasida 186,1 ming dollarlik tovar ayirboshlandi. Eronning «Pors grupp», «Sepand grupp» va boshqa firmalari respublikamizda faoliyat ko‘rsatmoqda. Bir qancha qo‘shma korxonalar tashkil etilgan. 1993-yil aprelida bo‘lib o‘tgan Eron tasviriy san’-at va avgustda o‘tkazilgan savdo-sanoat ko‘rgazmasi ko‘pchilikda yaxshi taassurot qoldirdi.
Eron Islom Respublikasining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Said Gulpoyagoniy 1993-yil oktabrda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutiga fors tilining ko‘p jildli mukammal lug‘atini, Alisher

Navoiyning dastxati nusxalarini taqdim etdi. Respublika madaniy-ma’rifiy aloqalar milliy uyushmasi huzurida O‘zbekiston — Eron aloqalari rivojlanishidan minnatdorligini bildirdi.
1993-yil 18-oktabrda Eron Prezidenti Ali Akbar Xoshimiy Rafsanjoniyning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikning yanada samarali bo‘lishiga ko‘maklashdi. Safar davomida tranzit aloqalarni tartibga solish, xalqaro avtomobil qatnovi haqida va boshqa bitimlar imzolandi.
1992—1996-yillarda uzunligi 295 km bo‘lgan Mashhad — Seraxs — Tajan temir yo‘li qurildi. Bu temir yo‘l O‘zbekistonning Fors qo‘ltig‘iga chiqishiga imkon yaratdi.
Shunday qilib, Eron hozirgi kunda dunyo diqqat markazida turgan mamlakatdir. Uning yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish
Eron — O‘zbekiston
munosabatlari

dasturi AQSH boshliq G‘arb davlatlariga yoqmayapti. Ular Eronni turli tarafdan siquvga olishga harakat qilmoqdalar. Lekin Eron o‘z yo‘lidan qaytmayapti.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Urushdan keyingi yillarda Turkiyaning ahvoli qanday edi?
2. Demokratik partiya qanday qilib hokimiyat tepasiga keldi?
3. 1960-yilda nega davlat to‘ntarishi o‘tkazildi?
4. 1971-yildagi davlat to‘ntarishini kimlar o‘tkazdilar?
5. Turgut O‘zal siyosatini so‘zlab bering.
6. Turkiya tashqi siyosati qanday bo‘ldi?
7. Turkiya — O‘zbekiston aloqalari haqida nimalarni bilib oldingiz?
8. Ikkinchi jahon urushidan keyin Eron qanday ahvolga tushdi?
9. Ingliz-eron neft kompaniyasi nima?
10. M. Mossodiq siyosatini gapirib bering.
11. Oq inqilobning mohiyati qanday edi?
12. Eronda diniy inqilob qanday amalga oshdi?
13. Oyatullo Xumayniy kim edi?
14. Eron – Iroq urushi qanday oqibatlarga olib keldi?
15. Eron tashqi siyosati qanday?
JADVALNI TO‘LDIRING. TURKIYA VA ERON DAVLAT BOSHLIQLARI FAOLIYATINI SOLISHTIRING
Turkiya davlati
boshliqlari
O‘tkazgan
siyosati
Eron davlati
boshliqlari
O‘tkazgan
siyosati
BAHS YURITING
Dunyoviy davlat va diniy davlat rivojlanishida farq bormi?
Eron va Turkiya misolida erkin fikr bildiring.

30-§. Afg‘oniston

Afg‘oniston konstitutsiyaviy-monarxiya davlati edi.
Davlat boshlig‘i qirol hisoblangan.
Urushdan keyingi yillarda ham M. Zokirshoh (1933-yilda taxtga o‘tirgan) qirol edi. Uning hukmronligi davrida mamlakat ichki hayotida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuz bermadi. Mamlakat hayotida o‘rta asrchilik munosabatlari hukmronligicha qolaverdi.
Urush yillarida ichki siyosiy hayot keskinlashdi. 1946-yilda kabinet almashuvi bo‘lib, hukumatga qirolning tog‘asi Shoh Mahmud boshchilik qilaboshladi. Tashqi siyosatda dastlab AQSH bilan yaqinlashish boshlandi.
Urushdan keyingi
ahvol
?

Ammo AQSH janubdagi irrigatsiya inshootlarini vaqtida (1949) tugallamay qo‘shimcha mablag‘ talab qildi Afg‘onistonni noqulay vaziyatda 39,5 mln dollarlik asoratli zayom olishga majbur qildi.
Shu sababli ko‘p o‘tmay bu siyosat o‘zgara boshladi. Buning ustiga AQSH va Buyuk Britaniya betaraf Afg‘onistonni harbiy-siyosiy ittifoqlarga

jalb etishga urinishlari, ikkinchi tomondan esa, afg‘on-pokiston munosabatlaridagi keskinlikning vujudga kelishi ahvolning chigallashuviga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, Pokistonning Afg‘oniston bilan chegara hududlarida pushtun xalqi yashaydi. Buyuk Britaniya bu hududlarni ham Pokiston hududiga qo‘shib yuborgan edi. Afg‘oniston pushtunlarga (Afg‘oniston aholisining katta qismini pushtunlar tashkil etadi) taqdirini o‘zi belgilashi huquqi berilishi tarafdori edi.

1955-yilda Pokiston Afg‘oniston tovarlarining Pokiston hududi orqali o‘tkazilishini taqiqlab qo‘ydi. Bunday sharoitda SSSR o‘z hududi Afg‘oniston tashqi savdosida tranzit vazifasini o‘tashi mumkinligini ma’lum qildi. 1955-yilda bu masala xususida sovet – afg‘on bitimi imzolandi. M. Zokirshohning 40 yillik hukmronligi davrida mamlakat taraqqiyoti o‘ta sekin rivojlandi. Mamlakatda atigi 300 ta katta-kichik sanoat korxonasi qurildi, xolos. (Uning 140 tasi SSSR yordami bilan qurilgan.) Buning oqibatida mamlakat qoloqligicha, aholi turmush darajasi esa pastligicha qola berdi.

Mamlakatda Afg‘onistonni zamon ruhiga monand davlatga aylantirishni istovchi davlat arboblari ham yo‘q emas edi. Bu arboblardan biri — qirolning qarindoshi Muhammad Dovud edi (1908—1978).

U 1953-yildan 1963-yilgacha Bosh vazir lavozimida ishladi. Dovud iqtisodning davlat yo‘li bilan boshqarilishi, mamlakat ichki hayotini erkinlashtirish tarafdori edi. 1956-yilda hukumat 5 yillik reja qabul qildi. Unda asosiy e’tibor sanoat, transport, qishloq xo‘jaligiga qaratildi. 1959-yilda ayollarning chodra yopinib yurishi bekor qilindi.

Dovud hukumati boshlagan o‘zgarishlar islohotga qarshi kuchlarning qattiq qarshiligiga duch keldi. Bu kuchlar mamlakat hayotida chuqur o‘zgarishlarga tayyor bo‘lmagan aholi katta qismiga tayanar edi. Natijada, Dovud 1963-yilda iste’fo berishga majbur bo‘ldi.

Dovud hukumatidan keyingi hukumatlar ham (Muhammad Yusuf 1963—1967, Nur Ahmad Etimodi 1967—1971, M. Shafiq 1972—1973) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida biror jiddiy o‘zgarish qila olmadilar. Aksincha, iqtisodiy qiyinchilik kuchaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash qiyinlashdi. Mamlakatda kuchaygan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar oxir-oqibatda hukmron doiralarda bo‘linish yuz berishiga olib keldi. Shunday sharoitda, 1973-yilning 17-iyulida harbiylar davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Hokimiyat Afg‘oniston markaziy qo‘mitasi qo‘liga o‘tdi. Uning tarkibi, harbiylardan tashqari: fuqaro arboblaridan ham iborat edi. Ularga

Afg‘oniston Respublikasining tashkil etilishi

sobiq bosh vazir Dovud rahbarlik qildi. Markaziy qo‘mita Dovudni davlat boshlig‘i va bosh vazir etib tayinladi. Shu tariqa monarxiya quladi. Afg‘oniston Respublika deb e’lon qilindi.

To‘ntarish ro‘y bergan vaqtda Zokirshoh chet el (Italiya) safarida edi. U avgust oyida o‘zining taxtdan voz kechganligini e’lon qildi. Dovud 5 yil davlatni boshqardi. Biroq u mamlakat hayotida tub o‘zgarishlar qila olmadi. Uning siyosati eski tartib manfaatlariga to‘la javob beradigan qatlamlar — ruhoniylar, katta yer egalari, davlat amaldorlarining qattiq qarshiligiga duch keldi. Ikkinchidan esa, Dovud mamlakatda o‘z rejimini o‘rnatishga intildi. Chunonchi, u 1964-yilgi Konstitutsiyani bekor qildi. Parlamentni tarqatdi va yakka partiyaviy tizimni joriy etdi. Bu rasmiy partiyaga uning o‘zi rahbarlik qildi. 1976—1978-yillarda hukumat mavjud tartibga qarshi kuchlarni qatag‘on qilishni kuchaytirdi. Terror va qatag‘ondan mamlakat harbiylari orasida ham ta’sirga ega bo‘lgan Afg‘oniston xalq-demokratik partiyasi ham chetda qolmadi (AXDP 1965-yilda tuzilgan edi).

Dovud rejimi diniy-ekstremistik kuchlar bilan yaqinlashdi. Rejim bu kuchlardan o‘z raqiblariga qarshi kurashda foydalandi. Bu yo‘l Dovud rejimiga qarshi ikki guruh muxolifatini vujudga keltirdi. Ularning biri diniy muxolifat, ikkinchisi harbiy muxolifat bo‘ldi. Harbiy muxolifat AXDP bilan yaqin aloqani o‘rnatishga erishdi.

Armiya qismlari 1978-yilning 27-aprelida AXDP rahbarligida davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. To‘ntarishni polkovnik Abdulqodir boshqardi. Hokimiyat Inqilobiy Kengash qo‘liga o‘tdi. Bu Kengashga AXDP rahbari N.M. Taraqqiy rahbarlik qildi. B. Karmal unga o‘rinbosar bo‘ldi. Dovud o‘ldirildi. 1977-yilgi Konstitutsiya bekor qilinib, 1978-yil 30-aprelda mamlakat Afg‘oniston Demokratik Respublikasi deb e’lon qilindi. Taraqqiy o‘z mavqeyini mustahkamlash maqsadida SSSR bilan munosabatni yaxshilay boshladi.

Yangi hukumat Afg‘onistondagi real hayotni hisobga olmay islohotlar o‘tkazishga kirishdi. Bu islohotlar SSSRda o‘tkazilgan islohotlar andozasiga o‘tish edi. Shuning uchun ham Afg‘oniston xalqi bu islohotlarni qabul qilmadi. Ruhoniylar hukumat siyosatini islom asoslaridan qaytish, deb baholadi. Ular aholini sovetparast hukumatga qarshi kurashga chaqirdi. Millionlab xalq Pokiston va Eron hududiga qochib o‘tdi. Hukumatga qarshi kuchlar ittifoqi vujudga keldi. AXDPda birlik bo‘lmadi. 1978-yil 17-avgustda B. Karmal, Abdulqodir va boshqalar fitnada ayblanib qamoqqa olindi. Bu omil mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishini muqarrar qilib qo‘ydi. Bu e’lon qilinmagan urushni G‘arb rag‘batlantirdi.

Buning ustiga AXDP ichida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Shunday sharoitda, 1979-yil sentabr oyida Taraqqiy o‘ldirildi. Hokimiyatni uning o‘rinbosari, suiqasd tashkilotchisi H. Amin egalladi. Mamlakatda terror va zo‘ravonlik avj oldi. Aprel inqilobi shu bilan barham topdi.

Aprel to‘ntarishi va uning oqibatlari

Bu davrga kelib qurolli muxolifat kurashni kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Hukumat qo‘shinlari nazorati ixtiyorida faqat Kobul va yana bir nechta shahar qoldi, xolos. Shunday sharoitda Afg‘onistonning o‘z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avantyuraga qo‘l urdi.

1979-yil 25-dekabrda SSSRning qo‘li bilan Amin hukumati ag‘darildi. SSSRga sodiq bo‘lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg‘onistonga kelgan B. Karmal prezidentlik lavozimiga o‘tkazildi. 28-dekabrda SSSR o‘z harbiy qismlarini Afg‘onistonga kiritdi. Tez orada bu qo‘shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahon jamoatchiligi SSSRning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet – amerika munosabatlari yanada keskinlashdi. 1982-yildan Jenevada bu masalada BMT komissiyasi ishladi.

Asosan Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlari AQSHning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. SSSR qo‘shinlari Afg‘onistonda 10 yil turdi. Harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi?

Chunki Afg‘oniston hukumati sovet nusxasidagi jamiyatni qurmoqchi bo‘lgan edi. Afg‘onistonda bunday jamiyatni qurishning esa iloji yo‘q edi. Ikkinchidan, afg‘on xalqi ko‘z o‘ngida yangi hukumat ateistik davlat armiyasini o‘z davlati hududiga kiritib katta gunohga botgan edi. Bunday hukumatni qo‘llash esa undan-da katta gunoh bo‘lur edi. Shu tariqa SSSR Afg‘onistonda harbiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M. S. Gorbachyov SSSR armiyasini Afg‘onistondan olib chiqib ketishga qaror qildi.

Va 1989-yilning fevral oyida bu vazifa amalda bajarildi. 15 mingdan ortiq sovet jangchilari halok bo‘ldi.

Poytaxt Kobul shahrida AXDP rahbarlaridan biri, 1986-yilda B. Karmal o‘rniga kelgan Najibullo hokimiyatni saqlab turdi. Ayni paytda muxolifat kuchlar ham o‘z hukumatini tuzdilar. Sibhatullo Mujadaddiy mamlakat prezidenti etib tayinlandi.

Muxolifat kuchlar 1992-yilda Najibullo hukumatini ag‘darishga muvaffaq bo‘ldilar. Najibullo BMTning Afg‘onistondagi vakolatxonasida boshpana topdi. Shu tariqa SSSRning Afg‘onistondagi tayanchi quladi. Jahon jamoatchiligi 10 yil davom etgan va mamlakatni vayronaga aylantirgan, millionlab kishilar boshiga cheksiz kulfatlar solgan urush shu bilan tugadi, deb umid qilgan edi. Biroq bunday bo‘lmadi. Afg‘onistonda fuqarolar urushi davom

etaverdi. Buning sababi muxolifat kuchlar g‘alabasidan so‘ng ular o‘rtasida hokimiyat uchun boshlangan kurash edi. Muxolifat kuchlar Afg‘onistonda yashovchi turli etnik (pushtunlar, tojiklar, o‘zbeklar va boshqalar) hamda diniy guruhlarning vakillari edilar.

Najibullo ag‘darilgach, Kobul shahrini birinchi bo‘lib general Ahmad Shoh Mas’ud boshchiligidagi tojiklarning qurolli kuchlari egalladi. Shu

Fuqarolar urushining davom etishi

272

etnik guruh vakili Burhoniddin Rabboniy esa prezidentlik lavozimini egalladi.

Tojiklarning hokimiyatni egallaganligiga pushtunlar lideri Hikmatyor toqat qila olmadi. Boshqa etnik guruhlar esa o‘zlari egallab kelayotgan hududda mustahkamlanib ola boshladi. Ba’zilari goh u tomon, goh bu tomon bilan kelishishga intildi. Shu tariqa fuqarolar urushi yangi bir sharoitda davom etdi. Buning oqibatida minglab begunoh tinch aholi halok bo‘ldi. B. Rabboniy mamlakatning kelgusi taqdirini hal etishi lozim bo‘lgan Ta’sis majlisini chaqirishni istamadi.

Bosh vazir Hikmatyor esa norozilik belgisi sifatida iste’fo berdi. Qurolli kurash yana avj oldi. Mamlakatda siyosiy vaziyat borgan sari og‘irlashdi. Mana shunday sharoitda Afg‘oniston siyosiy hayotida hech kutilmagan yangi siyosiy kuch — tolibonlar (Alloh o‘quvchilari) paydo bo‘ldi. Ular 1994-yilning noyabr oyida kurash maydoniga chiqdilar. Xo‘sh, tolibonlar kimlar edi o‘zi?

Ular Afg‘onistonda jamiyat hayotini sof islom asosida qayta qurish uchun kurashga bel bog‘lagan diniy-siyosiy guruh vakillaridir. Ularning katta qismini fuqarolar urushi davrida yetim qolgan bolalar tashkil etardi. Sovet armiyasi Afg‘onistonga kiritilgach, ular Pokiston hududida boshpana topgan edilar. Urush davrida Pokistonga qochib o‘tgan 5 mln afg‘on qochoqlar farzandlarining ham ma’lum qismi tolibon guruhiga jalb etilgan. Tolibonlar Pokiston harbiy mashq maktablarida puxta tayyorgarlikdan o‘tganlar. Zamonaviy qurollarning deyarli barchasi bilan mukammal muomala qila olishga o‘rgatilgan. Tolibonlar rahnamosi diniy fanat (vahhobiy) Mulla Umar edi. U ismoiliylik va vahhobiylik vakili edi. Tolibonlar Pokiston va Saudiya Arabistoni tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xalqaro terrorist Usama ben Laden bilan mustahkam aloqa bog‘ladilar. To‘xtovsiz qonli urushdan charchagan aholining katta qismi ularni qo‘llab-quvvatladi. Tolibon qurolli kuchlari 1995-yilning yanvar oyida hujumga o‘tdilar. Tolibonlarga qarshi kuchlar orasidagi o‘zaro kelishmovchilik ularga qo‘l keldi. 1996-yilning oktabr oyida tolibonlar Kobul shahrini egalladi. So‘ng ular jamiyatni to‘la islomlashtirish siyosatini yurita boshladilar.

Dunyoviy maktablar yopildi. Ayollar paranji yopinishga, erkaklar soqol qo‘yishga majbur etildi, qarshilik ko‘rsatganlar ayovsiz jazolandi. 1997-yilning iyunida ular muxolifat kuchlarni (asosan tojik Ahmad Shoh Mas’ud va o‘zbek Abdurashid Do‘stum harbiy kuchlarini) tor-mor etish yo‘lida urushni davom ettirdi.

Mamlakat hududining 90 foizi tolibonlar nazoratiga o‘tdi. Tolibonlarga qarshi kuchlar mamlakat shimoliga siqib qo‘yildi. Ular endi birlashishga majbur bo‘ldilar. Shu tariqa Shimoliy Alyans deb atalgan ittifoq vujudga keldi.

Tolibonlarning hokimiyatni egallashi

273

To‘xtovsiz fuqarolar urushi Afg‘onistonni narkotik moddalar yetishtirish va xalqaro terrorchilik bo‘yicha jahonning asosiy markaziga aylantirib qo‘ydi. Ayni paytda Afg‘oniston muammosi O‘rta Osiyo davlatlarida siyosiy barqarorlikni xavf ostiga qo‘ydi. Terrorizm qanchalik yovuz kuchga aylanganligini 2001-yilning 11-sentabrida AQSHda amalga oshirilgan vahshiyona voqealar yana bir bor

tasdiqladi.
O‘zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jahon jamoatchiligi e’tiborini Afg‘onistondagi fuqarolar urushini to‘xtatish muammosiga qaratib keldi. Prezident I. Karimov 1993-yildayoq BMT minbaridan turib, bu muammoni hal etishning dastlabki qadami sifatida ayrim davlatlarning muxolifat tomonlarga qurol-yarog‘ yetkazib berishini taqiqlash haqida qaror qabul qilishga, muxolifat tomonlarni esa Afg‘oniston muammosini tinch yo‘l bilan hal etishga chaqirdi.
Shu maqsadda Tolibon hukumati hamda Shimoliy Alyans vakillarini muzokaralar stoliga o‘tqazishga harakat qildi. Bunday uchrashuvni Toshkentda o‘tkazishni taklif etdi. Va, nihoyat, 1998-yil Toshkentda «6+2» deb shartli nom bilan ataluvchi davlatlar (Eron, Pokiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, shuningdek, AQSH va Rossiya) vakillarining uchrashuvini o‘tkazishga muvaffaq bo‘lindi. Unda tolibon va Shimoliy Alyans vakillari ham qatnashdi. Uchrashuv so‘ngida «Toshkent Deklaratsiyasi» deb nomlangan hujjat qabul qilindi. Uzoq yillardan beri davom etayotgan Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish muammosini bir uchrashuv bilan hal etib bo‘lmasdi. Shunday bo‘lsa-da, Toshkent uchrashuvi o‘tkazilishining o‘zi jahon hamjamiyati e’tiborini yana bir bor bu muammoga qaratishda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi.
Ayni paytda I. Karimov xalqaro terrorizmga qarshi kurash jahon jamoatchiligining asosiy vazifalaridan biri ekanligini qayta-qayta ta’kidlamoqda. Chunonchi, 1999-yilning 18—19-noyabr kunlari Istambul shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining yig‘ilishida xalqaro terrorizmga qarshi kurash vazifasini yana bir bor ko‘tardi. I. Karimov yig‘ilishda so‘zlagan nutqida Xalqaro terrorizmga qarshi kurash uchun BMT doirasida xalqaro markaz tuzishni taklif etdi. Terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazi mazmuniga yanada aniqlik kiritib, bu haqda, jumladan, quyidagilarni ta’kidladi: «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo‘yishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko‘rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag‘ bilan ta’minlayotgan, qo‘llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog‘ bilan ta’minlab, joylarga jo‘natayotgan manbalarga qarshi kurash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning so‘zsiz bajarilishi bo‘yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi lozim».

O‘zbekistonning
Afg‘oniston
muammosiga
munosabati

Afsuski, I. Karimov takliflariga o‘z vaqtida quloq solinmadi. Oqibatda xalqaro terrorizm 2001-yil 11-sentabrda AQSHda vahshiyona jinoyat sodir etdi. AQSHdagi fojiadan keyingina buyuk davlatlar harakatga tushib qoldilar. AQSH hukumati Afg‘oniston hududiga joylashib olgan xalqaro terrorchilarni yo‘qotish hamda ularni tayyorlovchi markazlarni yo‘q qilishga qaratilgan harbiy operatsiyalar o‘tkazish haqida qaror qabul qildi. Ayni paytda xalqaro terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat yordamiga umid bog‘lashini bildirdi.
O‘zbekiston ham xalqaro terrorizmga qarshi kurashda qatnashuvchi davlatlar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirdi. Shundan so‘ng AQSH mudofaa vaziri Ramsfeld 2001-yilning oktabrida O‘zbekistonga tashrif buyurdi. O‘zbekiston AQSH yuk samolyotlari hamda vertolyotlari uchun bitta harbiy aerodrom ajratishi haqida kelishuvga erishdi. Bu samolyotlar faqat gumanitar hamda qidiruv-qutqaruv ishlaridagina qatnashishi qat’iy belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati O‘zbekiston hududidan Afg‘onistonga havodan yoki yerdan hujum uyushtirilishiga yo‘l qo‘ymasligini ochiq-oydin ma’lum qildi.
Ha, xalqaro terrorizmga qarshi kurashga har bir davlat baholi qudrat hissa qo‘shmog‘i zarur. Zero, terrorchilar qo‘liga ommaviy qirg‘in qurollari tushib qolishi xavfi borgan sari kengayib bormoqda. Agar xalqaro terrorizm bunday qurolni qo‘lga kiritsa, u yanada dahshatli kuchga aylanishi

muqarrar.
AQSH hukumati 2001-yil 8-noyabr kuni Afg‘onistondagi terrorga tayyorlovchi markazlarni yo‘qotishga qaratilgan harbiy operatsiyalarni amalga oshirishga kirishdi. Bu operatsiyalar xalqaro koalitsiya yordamida muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazildi. Mamlakatni H. Karzay boshchiligida vaqtli hukumat boshqardi va 2004-yil 9-oktabrda u Prezident qilib saylandi.
Bugungi kunda Afg‘onistonda nisbatan tinch bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Lekin ahvol murakkabligicha qolmoqa. Xalqaro hamjamiyat bu borada Afg‘onistonga zarur yordamni berayotir. To‘g‘ri, 20 yillik fuqarolar urushidan so‘ng Afg‘oniston iqtisodiyotini qayta tiklash, mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni qaror toptirish ishi oson kechmaydi.
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
1. Urushdan keyin Afg‘onistonning ahvoli qanday edi?
2. Afg‘oniston nima uchun 50-yillarda sovet ta’sir doirasiga tushib qoldi?
3. 1953—1963-yillarda mamlakatda qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
4. 1973-yil 17-iyulidagi harbiylar davlat to‘ntarishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. 1978-yil aprel davlat to‘ntarishi qanday oqibatlarga olib keldi?
6. Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga kiritilishi qanday oqibatlarga olib keldi?
7. Nega xalqaro hamjamiyat Afg‘onistonda fuqarolar urushini to‘xtatishga erisha olmadi?
?

8. Xalqaro terrorizmning dahshatli kuchga aylanganligini tasdiqlovchi misol keltiring.
9. O‘zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashishga qanday hissa qo‘shmoqda?
JADVALNI TO‘LDIRING. AFG‘ONISTON DAVLAT RAHBARLARI FAOLIYATI

Davlat rahbarlari	Hokimiyatda turgan yili	Faoliyati	Ijobiymi, salbiymi

— Afg‘onistonda halok bo‘lgan o‘zbekistonlik yoshlar hayotidan misol keltirib, yozma ish tayyorlang.

31-§. Osiyoning yangi industrial davlatlari

XX asrning 60—80-yillari rivojlanayotgan davlatlar ichidan Yangi Industrial Davlatlarning (YAID) ajralib chiqish davri bo‘ldi. Bugungi kunda bunday davlatlar Lotin Amerikasi va Osiyoda mavjud. Osiyoda ularning eng rivojlangani Janubiy Koreya va Singapur bo‘lsa, Lotin Amerikasida Argentina, Braziliya va Meksikadir. Mutaxassislar YAID qatoriga Malayziya, Tailand, Hindiston, Chili, Kipr, Tunis, Turkiya, Indoneziya: Filippinni ham kiritadilar.
Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisoblash uslubiga ko‘ra, u yoki bu davlatni yangi industrial davlatlar safiga qo‘shishda quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga olinadi:
1) yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti ko‘rsatkichi;
2) yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’ati (qo‘shimcha);
3) qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi solishtirma salmog‘i (u 20 foizdan yuqori bo‘lishi zarur);
4) sanoat mahsulotlarining eksportdagi salmog‘i;
5) xorijga chiqarilgan investitsiya salmog‘i.
Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha YAID rivojlanayotgan davlatlardan ajralib turadilar. Ba’zi sohalar bo‘yicha esa ular, hatto, ayrim rivojlangan davlatlardan o‘zib ham ketdilar. 90-yillarning boshlariga kelganda bu davlatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 4 baravar oshdi.
Yangi industrial davlatlar shakllanishida chet el sarmoyasi katta rol o‘ynadi. Chunonchi, 80-yillarning birinchi yarmida YAID iqtisodiga kiritilgan sarmoya chet davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiga kiritgan jami sarmoyasining 42 foizini tashkil etdi. YAID iqtisodiga eng ko‘p sarmoya kiritgan davlat AQSH (chetga chiqarilgan barcha sarmoyasining

10 foizi)dir.
«Yangi industrial
davlatlar» tavsifi
276
1995-yilda xalqaro tashkilot — «Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti» Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib Singapurga industrial rivojlangan davlat maqomini berdi.
30 yil ichida barqaror iqtisodiy taraqqiyot Singapurni kichik bir bandargohdan jahondagi eng boy davlatlardan biriga aylantirdi (yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti hajmi bo‘yicha dunyoda 9-o‘rinda turadi). Shu yili aholi jon boshiga o‘rtacha daromad 22300 AQSH dollarini tashkil etdi. Keyingi o‘rinda Yaponiya turadi.
Chet el sarmoyalari YAIDning sanoatini rivojlantirishda va eksportning raqobatbardosh bo‘lishida muhim rol o‘ynadi. Bunga Janubiy Koreya iqtisodi misol bo‘la oladi. Bu davlat iqtisodiga joylashtirilgan jami sarmoyalarning yarmidan ko‘pi Yaponiya sarmoyasidir. Bu sarmoya Janubiy Koreyada mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika jihozlari, kemasozlik komplekslari yaratilishiga asos bo‘ldi.
Bugungi kunda YAID iqtisodiyotida xorij sarmoyasi joylashtirilmagan biror-bir soha qolmadi. Ayni paytda Osiyo YAID iqtisodiyotiga kiritilgan chet el sarmoyalarining daromad keltirish ulushi Lotin Amerikasi davlatlarinikidan yuqoridir.
Bundan tashqari, keyingi qator o‘n yilliklarda transmilliy korporatsiyalar ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e’tibor berdi. Osiyoning YAID bunday o‘zgarishga tayyor bo‘lib chiqdilar.
Ayni paytda quyidagi omillar ham transmilliy korporatsiyalarning aynan Osiyo hududiga kirib kelishida katta rol o‘ynadi:
— Osiyo YAIDining qulay geografik o‘rni. Ularning deyarli hammasi dunyo iqtisodiy yo‘llari kesishgan nuqtalarda hamda AQSH va Yaponiyaga yaqin joylashgan;
— YAIDda mustahkam siyosiy barqarorlikning tiklanganligi hamda demokratik va siyosiy qayta qurishlarning iqtisodiy islohotlar manfaatiga xizmat qilganligi;
— Osiyo YAID aholisining o‘ta mehnatkashligi, tirishqoqligi, intizomliligi. Bu hol xorij sarmoyasi xavfsizligiga yuqori kafolat berilishini ta’minladi.
YAID o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ikki modeldan birini tanlaganlar:
— milliy iqtisodiyotni tashqi bozor — eksportga yo‘naltirgan holda rivojlantirish;
— milliy iqtisodiyotni import o‘rnini o‘zi qoplashi yo‘nalishida rivojlantirish.
Birinchi yo‘l samarasi AQSH, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya tajribasida isbotlangan edi. Osiyoning YAID ham asosan shu modelni qo‘lladilar. Lotin Amerikasining YAID esa asosan ikkinchi modelni qo‘lladilar.
Tabiiyki, bu ikki modeldan birini tanlashning o‘zigina muvaffaqiyatni ta’minlamaydi. U yoki bu model uni tanlagan davlat hukumatining oqilona
YAID iqtisodiy
taraqqiyot modeli
277
iqtisodiy siyosati bilan to‘ldirilgan. Buningsiz hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.
Barcha omillarning uyg‘unligini ta’minlay olgan Osiyoning YAID juda qisqa tarixiy muddat oralig‘ida yuksak rivojlanish darajasiga erishdilar (masalan, Yaponiya 100 yilda bosib o‘tgan yo‘lni ular 25 yilda bosib o‘tdilar).
Koreya 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylangan edi. Bu hol 1943-yilgacha davom etdi.
1943-yilda Koreya mustaqillikka erishgan bo‘lsada, keyinchalik u ikki davlatga bo‘linib ketdi. Bu — 1945-yilda Koreyaning shimolini SSSR armiyasi, janubini esa AQSH armiyasi egallaganligining oqibati bo‘ldi. Potsdam konferensiyasi 1945-yilda 38-parallel kenglikni SSSR va AQSH armiyasi o‘rtasidagi chegara chizig‘i, deb belgiladi.
Bu ikki o‘ta buyuk davlatning siyosiy xaritani o‘z xohishlariga ko‘ra tuzishga urinishlari oxir-oqibatda Koreyaning ham ikkiga bo‘linib ketishiga olib keldi.

1948-yilning 15-avgustida Koreyaning janubida Li Sin Man boshchiligida Koreya Respublikasi tashkil topdi. 9-sentabrda esa shimolda Kim Ir Sen boshchiligida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. 1950-yilda bu ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari boshlandi. Bu urushga AQSH, SSSR va XXR ham aralashdi. Ikki yillik muzokaralardan so'ng, nihoyat, 1953-yilning 27-iyulida yarash bitimi imzolandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu ikki koreys davlati taraqqiyoti turlicha yo'ldan bordi. Shimoliy Koreya sovet nusxasidagi «sotsializm» qurishga kirishdi. Buning oqibatida u Osiyoning eng kam taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. 1994-yilda Kim Ir Sen vafot etgach, uning o'g'li Kim Chen Ir prezidentlik lavozimini egalladi. 1994-yilda aholi jon boshiga 920 dollarlik yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarildi. Shunday bo'lsa-da, Shimoliy Koreya zo'r berib qurollanmoqda. Hatto, o'z atom bombasi va uni mo'ljalga eltib qo'yuvchi vositalarga ega bo'lish imkoniyati reallikka aylanishi mumkinligi jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Janubiy Koreyada Li Sin Man 1960-yilda o'ldirilgach, hokimiyat Pak Chjon Xi qo'liga o'tdi. U ham 1979-yilda o'ldirildi va 1980—1987-yillarda prezidentlik lavozimini Chon Du Xvan boshqardi. 1987-yilgi saylovlarda general Ro De Vu g'alaba qildi. 1993-yilgi saylovlarda esa Kim Yan Sam hokimiyatni egalladi. Koreya 60—70-yillarda juda tez taraqqiy qildi. Hukumat markazlashdi. DEU, Samsung, Xyundoy, Lak-Goldstar kabi kompaniyalar juda katta foyda oldilar. Kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va boshqa sohalar o'ta tez rivojlandi. Keyingi 20 yil ichida har yili 10 foizdan rivojlandi. Lekin inqirozlar ham yuz berdi. 1997-yilda inqiroz tufayli yuzlab korxonalar sindi. Xalqaro valuta fondidan 47 mlrd dollar qarz oldi. Bu davrda koreya xalqi haqiqiy vatanparvarligini ko'rsatdi. Fuqarolar milliardlab pul yig'dilar, ayollar oxirgi taqinchoqlarigacha davlatga topshirdilar.

Janubiy Koreya Respublikasi

Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. Chunonchi, 1994-yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulot 11270 dollarni tashkil etdi. 2003-yil fevralda No Mu Xyon mamlakat prezidenti etib saylandi. 2008-yil fevralda bu lavozimni Li Myon Bak egalladi.

Janubiy Koreya — O'zbekiston munosabatlari yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Janubiy Koreyaning O'zbekistonda qo'ygan kapitali 1 mlrd. dollardan oshdi. 128 ta qo'shma korxona ishlamoqda. Tovar ayirboshlash 2007-yilda 850 mln AQSH dollarigacha yetdi. O'zbekistonda chiqarilayotgan «Neksiya», «Damas», «Matiz», «Tiko» avtomobillari, qator to'qimachilik korxonalarining qurilishi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning kelajagi yanada porloqligini ko'rsatmoqda.

Singapur 1958-yilgacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lib keldi (1828-yilda Buyuk Britaniyaning mustamlaka hududiga aylangan edi). 1959-yilda unga Britaniya Hamdo'stligi tarkibida muxtoriyat maqomi berildi. 1963-yilda esa Malayziya federatsiya tarkibiga kirdi.

Biroq, tez orada iqtisodiy masalalarda federatsiya subyektlari o'rtasida chuqur kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Natijada 1965-yilda Singapur federatsiya tarkibidan chiqdi va 9-avgust kuni o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

Mustaqillik yillarida Singapur Janubi-Sharqiy Osiyoning eng rivojlangan davlatiga aylandi. 1994-yilda aholi jon boshiga 19940 dollarlik yalpi mahsulot ishlab chiqarildi va jami yalpi mahsulot 57 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu yerda hozir 4 mln aholi yashaydi. Tug'ilish kamaymoqda. Yiliga 50 ming bola tug'iladi. Bosh vazir Go Chak Tong millatni ko'p farzand ko'rishga chaqirdi. S. R. Natan mamlakat Prezidenti etib saylandi.

1942-yilda Yaponiya tomonidan bosib olingan Indoneziya 1945-yilda ozod bo'ldi va 4-sentabrda Sukarno (1901—1970) boshchiligida hukumat tuzildi. Lekin 1947-yil iyulida Gollandiya bostirib kirdi. BMTning aralashuvi va AQSHning ta'siri bilan

1949-yilda Gollandiya Indoneziya mustaqilligini tan oldi. 1950-yilda Sukarno Indoneziya unitar respublikasini e’lon qildi. Mamlakatda mustaqillikning besh tamoyili: millatparvarlik, baynalmilallik, demokratiya, ijtimoiy adolat, xudoga e’tiqod asosida ish olib borildi.
Iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Neft konlari, kauchuk plantatsiyalari milliylashtirildi. Oziq-ovqat, to‘qimachilik mollari, tayyor kiyimlar tayyorlash kuchaytirildi. Tabiiy boyliklar xalq qo‘liga o‘tdi.
1965-yil 30-sentabrda kommunistparastlar davlat to‘ntarishi uyushtirmoqchi bo‘ldilar. Lekin uning oldi olinib, hokimiyat saqlab qolindi. Kommunistlar qatag‘on qilindi.
1968-yilga kelib general Suxarto prezident bo‘ldi va mamlakatni 1998-yil iyunigacha boshqardi. Bu davrda mamlakatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlik hukm surdi. 1970-yilning oxiriga kelib Indoneziyaga Amerika, Yaponiya va

Indoneziya
Singapur

boshqa davlatlar kompaniyalari 1,3 mlrd dollar miqdorida investitsiya kiritdilar. Kapital asosan kon sanoati, daraxt kesish va baliq ovlash sohalariga kiritildi. Milliylashtirilgan korxonalar egalariga qaytarildi. Indoneziya siqilgan tabiiy gaz, neft eksport qiluvchi davlatga aylandi. 90-yillarda 4 yil ichida 35 mlrd dollar miqdorida xorijiy kapital kiritildi. Turli avtomobillar, zamonaviy samolyotlar yig‘ildi. Lekin 1997-yilda mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuz berdi. 70 foiz korxona, banklar yopildi, ishsizlar soni 20 mln ga yetdi, tashqi qarz 138 mlrd dollarni tashkil etdi.
1998-yil iyunida prezident Suxarto iste’foga chiqib, noyabr oyida B. Habibiy prezidentlik lavozimini egalladi. Ammo siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlay olmadi.
1999-yil oktabrda umumxalq saylovlari natijasida musulmon diniy partiyasi (Naxdatul Ulamo) rahbari A. Vohid Prezident qilib saylandi. U ham vaziyatni barqarorlashtira olmadi. Inflatsiya 20 foizga yetdi. 1975-yilda Gollandiyadan tortib olingan Sharqiy Timor mustaqillikka erishdi. Achexa ham shunday huquqni qo‘lga kiritdi. 2001-yildan Megavati Sukarnopuri mamlakat Prezidenti lavozimini to‘la egalladi. Indoneziya hozirgi kunda neft mahsulotlari, sanoat gazi, rezina, ko‘mir, mis, qo‘rg‘oshin, nikel, baliq mahsulotlari, kofe va choyni katta miqdorda eksport qiladi. O‘zbekiston bilan yaqin hamkorlik o‘rnatgan.

Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan Myanmani

1942-yilda Yaponiya butunlay bosib oldi. 1945-yilda yaponlarni quvib chiqargan ozodlik harakati kuchaydi. 1947-yil 24-sentabrda Ta’sis Majlisi Birma Ittifoqi Konstitutsiyasini qabul qildi. 1947-yil 17-oktabrda Xalq ozodligi antifashistik ligasi yangi prezidenti U Nu Buyuk Britaniya bilan shartnoma imzoladi. Unga muvofiq Birma Ittifoqi 1948-yil 4-yanvardan mustaqil deb e’lon qilindi. U Nu Bosh vazir etib saylandi va 1952-yilgacha mamlakatni boshqardi.
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun g‘alla, makkajo‘xori, paxta, shakarqamish, jut va boshqa mahsulotlarni ko‘paytirishga harakat qilindi. Guruch tozalash, yog‘, choy, tamaki, shakar ishlab chiqarish korxonalari yangi texnologiyalar bo‘yicha rekonstruksiya qilindi.
1952—1957-yillarda Ba U, 1957—1962-yillarda U Vin Maung prezidentlik qildilar.
1962-yil martda harbiylar general Ne Vin boshchiligida davlat to‘ntarishini o‘tkazdilar. 1947-yilgi Konstitutsiya bekor qilindi. Endi mamlakat Birma Ittifoqi Sotsialistik Respublikasi deb atala boshladi. Yangi sotsialistik jamiyat qurish 1988-yilgacha davom etdi. Lekin rivojlanish ko‘ngildagidek bo‘lmadi.
1988-yilda mamlakat Myanma Ittifoqi deb ataldi va U So Maung prezidentlik lavozimini egalladi. Endi bozor iqtisodiga o‘tish boshlandi. Ahvol yaxshilandi. Chet el investitsiyasiga keng yo‘l ochildi. Yalpi mahsulotning o‘sishi yiliga 8 foizga ko‘tarildi. 1992-yilda hokimiyatga kelgan U Tan Shve mamlakat iqtisodini yanada ko‘tarish, xorijiy mamlakatlar munosabatlarini

Myanma (Birma)
ittifoqi

yaxshilash yo‘lini tutmoqda. Hozirgi vaqtda rangli metallar, neft, kumush,

qimmatbaho toshlar qazib chiqarish, neftni qayta ishlash, metallurgiya kombinatlari, qo‘rg‘oshin-rux korxonalari rivojlangan.
Malayziya davlati yerlari, xususan «Nort Barkes» kompaniyasiga qarashli Shimoliy Borjo, Malakka orolining janubiy qismi, Kalimantan oroli shimolidagi Saravak va Sabak urushgacha bo‘lak-bo‘lak holda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. 1941-yil 8-dekabrda Malakka oroliga yaponlar bostirib kirdi va 1942-yil fevralda uni butunlay egalladi.
Yaponiyaga, undan so‘ng Buyuk Britaniyaga qarshi mustaqillik harakati keng avj oldi va aholining barcha qatlamlarini qamrab oldi. 1945-yilda inglizlar kelib Malayya ittifoqini tuzdilar. Lekin u ham uzoq yashamadi. 1947-yilda Birlashgan xalq fronti yuzaga keldi, u yosh davlat mustaqilligini mustahkamlashda asosiy kuch bo‘lishi kerak edi. Lekin ushbu frontda birlik bo‘lmadi, ichki kurashlar avj oldi.
1948-yil 1-fevralda Malayziya Federatsiyasi tuzildi. Singapur ajratildi. Konstitutsion monarxiya tuzumi o‘rnatildi.
1957-yilga kelib hozirgi G‘arbiy Malayziya mustaqil deb e’lon qilindi.
1963-yilda Singapur, Saravak va Sabak Malayziya Federatsiyasi tarkibiga kirdi va mamlakat birlashtirildi. Lekin 1965-yilda Singapur Federatsiya tarkibidan chiqib, o‘zini mustaqil deb e’lon qildi. Malayziya hukumatida 1981-yildan musulmon malayziyaliklar katta ta’sir kuchiga egadirlar.
Mamlakat iqtisodining asosini qayta ishlash, tog‘-kon sanoati va qishloq xo‘jaligi tashkil etadi. Malayziya jahonning 50 foiz kauchugini, 40 foiz qalayini ishlab chiqaradi. Ularning qariyb yarmini ingliz kapitali nazorat qiladi.
AQSH va yapon kapitali ham katta ta’sirga ega. Elektrotexnika, neftni qayta ishlash, kimyo, metallurgiya, avtomobil sanoati rivojlangan. Tabiiy gaz, neft, qalay, mis, temir ruda konlari yangi texnologiya asosida mahsulot beradi. Yerning katta qismi zamindorlarga qarashli. Tabiiy kauchuk, kakao, palma yog‘i, qalampir, ananas yetishtiriladi va eksport qilinadi. Malayziya tashqi siyosatda qo‘shilmaslik yo‘lini tutgan. ASEANga a’zo. O‘zbekiston bilan yaxshi aloqalar o‘rnatgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Matn asosida fikr yuritib, mustaqil ravishda «Yangi industrial davlatlar» tushunchasiga izoh yozing.
2. BMT qanday mezonlar asosida u yoki bu davlatning yangi industrial davlat ekanligini aniqlaydi?
3. Qanday omillar transmilliy korporatsiyalar e’tiborini Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlariga qaratdi?
4. YAID o‘z iqtisodiyotlarini rivojlantirishda tanlagan taraqqiyot modellarining nomlarini qayd eting.
5. Janubiy Koreya va Singapur Respublikalari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. YAIDning O‘zbekiston bilan aloqasiga doir yozma ish tayyorlang.

Malayziya

?

32-§. Arab davlatlari

Ikkinchi jahon urushidan keyin Arab xalqlari milliy-ozodlik kurashi yanada kuchaydi. Qator davlatlarda (Misr, Iroq, Liviya, Yaman) mustamlakachi davlatlar qo‘g‘irchog‘iga aylanib qolgan hukmron doiralar hokimiyati ag‘darildi.
Dastlab Jazoir, Marokash, Tunis va Sudan kabi davlatlar mustaqillikni qo‘lga kiritdilar. Chet el kapitali egallab olgan milliy boyliklar (Misrda Suvaysh kanali kompaniyasi, Iroqda neft kompaniyasi — Iroq petroleum) milliylashtirildi.
Mustaqil davlatlar ijtimoiy-siyosiy ittifoqlarga qo‘shilmaslik siyosatini yuritdilar. Biroq arab davlatlarining o‘zaro munosabatlari o‘tgan tarixiy davr mobaynida jiddiy sinovlarga duch keldi. Bu munosabat ba’zan do‘stona, ba’zan raqobat, hatto dushmanlik tusini ham oldi. Ayni paytda arab davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi ham bir xil emas.
Arab davlatlarining ba’zilarida (Iroq va Suriya) uzoq vaqt yakka shaxs diktaturasi hukm surdi yoki hukm surmoqda. Falastin arab xalqi esa hamon o‘z mustaqil davlatiga ega emas. Biroq bu xalq o‘z davlatiga ega bo‘lish yo‘lida qat’iy kurash olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi deyarli barcha arab davlatlari bilan teng manfaatdorlik tamoyili asosida munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. «Yaqin Sharq muammosi» deyilganda isroil-arab munosabatlari, Isroilning bosib olgan arab davlatlari yerlarini qaytarib berishi hamda mustaqil Falastin arab davlatini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar, shuningdek, arab davlatlari va Isroilning yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari asosida yashash masalalari tushuniladi.

1947-yil 29-noyabrda BMT Falastinda ikki davlat — Isroil yahudiy va Falastin — arab davlati tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Versal konferensiyasidayoq (1919-yil) Buyuk Britaniya Falastinni boshqarish va u yerda yahudiylar davlatini tashkil etish mandatini olgan edi. Bu davrda Falastinda 100 mingga yaqin yahudiy yashardi. Dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan yahudiylarni bir joyga — Falastinga to‘plashda ularning xalqaro tashkiloti katta rol o‘ynadi. Bu tashkilot Sion tashkiloti deb ataladi. (Bu nom Falastindagi Sion tog‘i nomidan olingan, bu tashkilot yahudiylarni shu atrofda to‘planishga da’vat etadi.) Ayni paytda sionizm g‘oyasi ham vujudga keldi.

1942-yili Falastindagi yahudiylar soni 0,5 mln ga yetdi. Ulardan yaxshi harbiy tayyorgarlikka ega, AQSH va Buyuk Britaniya tomonidan zamonaviy qurollar bilan qurollantirilgan armiya tuzildi. Yahudiylar arablar uchun ajratilgan hududlarni ham ishg‘ol qilib oldilar.

1948-yilning 14-mayida yahudiy sionistlar rahnamosi Ben Gurion Isroil davlati tuzilganligini e’lon qildi. Tel-Aviv shahri bu davlatning poytaxti bo‘lib

qoldi. Falastin arab davlati esa tuzilmay qoldi. Buning oqibatida 1948-yil birinchi isroil – arab urushi yuz berdi. Bu urushda ishtirok etgan arab davlati armiyasi yengildi. Chunki ular qoloq, zamonaviy armiyaga ega bo‘lmagan davlatlar edi.

Yahudiylar Falastin arablarini o‘z yerlaridan quvib chiqaraboshladilar. Buning natijasida 0,5 mln falastinlik arablar Livan davlati hududiga qochib o‘tishga majbur bo‘ldi. Misr, Suriya, Livan va Iordaniya Isroil bilan tinchlik shartnomasini imzolashga majbur bo‘ldilar.

Dunyo sionistik tashkilotlari ko‘rsatgan moliyaviy yordam, Germaniyaning Isroilga to‘lagan 1 mlrd. dollar miqdordagi tovoni hamda AQSH ko‘rsatgan katta yordam tufayli Isroil qisqa vaqt ichida qudratli armiyaga ega davlatga aylandi. Yaqin Sharq strategik xomashyo — neftga boy o‘lka. U yerda jahon neft zaxirasining 50 foizi mavjud. AQSH bu o‘lkani o‘z hayotiy manfaati doirasiga kiritgan. Ayni paytda unga bu hududda ishonchli ittifoqchi ham zarur edi. Isroilni ana shu ittifoqchilikka eng mos davlat sifatida tanladi.

Arab davlatlari esa qoloqligicha qolaverdi. Buning ustiga arab davlatlari o‘rtasida mustahkam ittifoq ham yo‘q edi. Buning asosiy sababi mustamlakachi davlatlarning arablarga mustaqillik berish davrida bir arab davlati hududining bir qismini ikkinchi arab davlati hududiga qo‘shib yuborganligi edi. Ikkinchidan, Saudiya Arabistoni, Iroq (1958-yilgacha), Iordaniya davlatlarida hukmron sulolalar o‘zaro nizoda edilar. Livanda esa davlat boshqaruvi diniy jamoachilik tamoyiliga asoslanganligi uchun ularning har biri o‘z manfaatini umumarab manfaatidan ustun qo‘yardilar.

Yaqin Sharq muammosi Buyuk Britaniya va Fransiyani ham befarq qoldirmadi. Bu ikki davlat ham Yaqin Sharqdagi manfaatlaridan voz kechishni aslo istamas edi. Ular arab davlatlarida hokimiyat tepasida o‘zlariga sodiq hukumatlarning turishi uchun barcha choralarni ko‘rdi.

Manfaatlariga katta xavf tug‘ilgan paytda ular agressiya uyushtirishdan ham tap tortmadilar. Chunonchi, 1956-yilda shunday bo‘ldi. Shu yil oktabr oyida Buyuk Britaniya, Fransiya va Isroil Misrga qarshi agressiya uyushtirdilar. Faqatgina SSSRning Yaqin Sharqda tinchlikni tiklash

uchun zarur bo‘lsa kuch ishlatishga tayyor ekanligi haqidagi qattiq bayonoti agressiyani to‘xtatishga majbur etdi. Falastin arab xalqi kurashini to‘xtatgani yo‘q. 1964-yilda Livan hududida Falastin ozodlik Tashkiloti (FOT) tuzildi.

Bu tashkilot o‘z oldiga mustaqil Falastin davlatini tuzish vazifasini qo‘ydi. Tez orada u 15 minglik yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan armiyaga ega bo‘ldi.

1967-yilning 5-iyunida Isroil Misrga yana hujum qildi. Bu urushda Misr armiyasiga juda katta talafot yetkazildi. Urush 6 kun davom etdi. Shu davr

Arab — Isroil munosabatlarining keyingi ahvoli

ichida Isroil o‘z hududidan 2 baravar katta bo‘lgan arab davlatlari hududlarini bosib oldi. Bu hududlar keyinchalik anneksiya ham qilina boshlandi.

Misr Sinay yarim orolini, Suriya Jo‘lan tepaligini, Iordaniya esa Iordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘ini boy berdi. SSSR 10 yil davomida Misr va Suriyaga yetkazib bergan harbiy texnikaning deyarli barchasi Isroil qo‘liga o‘tdi. G‘azo sektori va Falastin davlati poytaxti bo‘lishi kerak bo‘lgan Quddus shahrini ham (arablar yashaydigan qismi) Isroil egalladi. Bu mag‘lubiyat boshqa arab davlatlarini tashvishga solib qo‘ydi.

1967-yil Sudanda arab davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi o‘tkazildi. Uchrashuvda Isroil bilan muzokara o‘tkazmaslik; Isroilni tan olmaslik va u bilan separat tinchlik shartnomasini imzolamaslik haqida qaror qabul qilindi. Ayni paytda, agar Isroil davlati Falastin arab xalqiga o‘z davlatini tuzish imkonini bersa hamda bosib olingan yerlarni qaytarsa, bu qarorni bekor qilish mumkinligini qayd etdi.

Isroil ittifoqchilari ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi, albatta. Ular Isroilga katta miqdorda yordam ko‘rsatishni davom ettirdilar. 1969—1979-yillar oralig‘idagi 10 yil ichida Isroil 20 mlrd dollarlik yordam oldi. Hukumat bosib olingan hududlarga yahudiylarni joylashtirish siyosatini yuritdi.

Arab davlatlari ham o‘zlarining harbiy salohiyatlarini mustahkamlash choralarini ko‘rdilar. SSSR ularga zarur harbiy texnika yetkazib berdi.

1973-yil 6-oktabrda yana arab – isroil urushi boshlandi. Shu kuni Misr-Suriya armiyasi Isroilga hujum qildi. Arab qurolli kuchlari birinchi bor Isroilni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Ayni paytda FOTning xalqaro obro‘si oshib bordi. 1974-yilda arab davlatlari uni falastin arab xalqining yagona vakili, deb tan oldilar. FOTga BMTda kuzatuvchi maqomi berildi.

Isroilning og‘ir ahvolga solib qo‘yilishi uning ittifoqchilarini befarq qoldirmadi. AQSH isroil – arab munosabatlariga jiddiy aralasha boshladi. Uning maqsadi Isroilning xalqaro obro‘sini saqlab qolish edi. Ikkinchidan, arab davlatlarini SSSRdan uzoqlashtirish hamda arablar orasiga nizo solish edi. AQSH o‘z maqsadiga erishdi ham.

1979-yilning 26-martida AQSH Isroil va Misr o‘rtasida separat Kemp-Devid (AQSH) bitimi imzolanishiga erishdi. Unga ko‘ra, Isroil o‘z qo‘shinlarini 1982-yil aprelgacha Sinaydan olib chiqib ketishga rozilik berdi. AQSH har ikki davlatga iqtisodiy-harbiy yordam ko‘rsatish majburiyatini oldi. AQSH Suvaysh kanalini minalardan tozalab, kemalar qatnovini yo‘lga qo‘yishda Misrga yordam ko‘rsatdi. Arab ekstremistlari Misr Prezidenti A. Sadatning bu siyosatini sotqinlik deb baholadilar va 1981-yilning 6-oktabrida uni o‘ldirishga muvaffaq bo‘ldilar.

1980—1990-yillarda arab davlatlari o‘rtasida Yaqin Sharq masalasida bo‘linish yuz berdi. Boy arab davlatlari — Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Ummon davlatlari muammoni Isroil bilan kelishuv orqali hal etish kerakligini yoqlab chiqdilar. Iordaniya va

Kemp-Devid bitimi va uning oqibatlari

Livan ham keyinchalik shunday qildi. Suriya va Iroq esa tinch kelishuv yo‘lini inkor etdilar.

1994-yildan boshlab Yaqin Sharq muammosini hal etish yangi bosqichga kirdi. Isroil Falastin milliy avtonomiyasini tuzishga ijozat berdi. Biroq

bir qancha muzokaralar o‘tkazilsa-da, Falastin davlatini tuzish muammosi hamon ochiqligicha qolmoqda.
2005-yilda Yo. Arofat vafot etgach, uning o‘rniga kelgan Mahmud Abbos bu ishni davom ettirmoqda. 2005-yil avgustidan Isroil G‘azo sektoridan 8,5 mingdan ortiq yahudiylarni ko‘chirib olib chiqib ketdi. Bu narsa Isroilda munosabatni ancha keskinlashtirdi, falastinliklar esa bayram qildi.
Iroqda Ikkinchi jahon urushidan keyin ham amalda Buyuk Britaniya nazorati davom etdi. 1948-yilning 15-yanvarida Buyuk Britaniyaning Portsmut shahrida imzolangan shartnoma bu holatni yanada mustahkamladi. Shartnomaga ko‘ra, urush xavfi paydo bo‘lgan chog‘da Buyuk Britaniya Iroqni ishg‘ol etish huquqini oldi.
Amalda Buyuk Britaniya irodasiga bo‘ysungan qirol hukumati Iroqni harbiy-siyosiy ittifoqqa tortdi. Shu ittifoq 1955-yilning 12-oktabrida rasmiylashdi va bu Bag‘dod pakti nomi bilan ataldi.
Qirol hokimiyatining amalda G‘arb davlatlari irodasini bajaruvchiga aylanishi mamlakat harbiylari orasida norozilik tug‘dirdi. 1956-yilda harbiy qismlar orasida «Erkin zobitlar» tashkiloti tuzildi. 1958-yilning 14-iyulida harbiy to‘ntarish amalga oshirildi. Mamlakat qiroli Feysal II o‘ldirildi. Iroq Respublika deb e’lon qilindi. Polkovnik Abdul Karim Qosim boshchiligida hukumat tuzildi. Iroq Bag‘dod paktidan chiqdi. Chet el harbiy bazalari tugatildi. Sentabr oyida agrar islohot to‘g‘risida qonun qabul qilindi.
Ayni paytda Abdul Karim Qosim mamlakatda shaxsiy diktatura o‘rnatishga intildi. Muxolifatchi kuchlarni qatag‘on qilish siyosatini yuritdi. Tashqi siyosatda esa Quvaytga nisbatan hududiy da’vo bilan chiqdi. Bu hol uning arab dunyosida yakkalanib qolishiga olib keldi. Mamlakatda hokimiyat uchun kurash kuchaydi.
Buning natijasida 1963-yilning 8-fevralida navbatdagi harbiy to‘ntarish o‘tkazildi. Abdul Qosim va uning yaqin tarafdorlari o‘ldirildi. Hokimiyat tepasiga Baas partiyasi (Arab sotsialistik uyg‘onish partiyasi) va Abd as-Salom Arafa boshchiligidagi harbiy guruh keldi.
Arafa prezident deb e’lon qilindi. Ammo u ham mamlakat ijtimoiyiqtisodiy taraqqiyoti xususida turli siyosiy guruhlar birligini ta’minlay olmadi. Mamlakatda siyosiy beqarorlik davom etdi. Kurd muammosi ichki vaziyatni yanada murakkablashtirdi.
Shunday sharoitda Arafa 18-noyabr kuni yangi davlat to‘ntarishi o‘tkazdi va butun hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. U mamlakatda «arab sotsializmi» qurishini e’lon qildi. Yagona siyosiy partiya — Iroq arab sotsialistik ittifoqi tuzildi. Boshqa partiyalar faoliyati taqiqlandi. Ichki siyosatdagi chet el kapitaliga

qaram kompaniyalar milliylashtirildi. Kurd separatchilari bilan harbiy harakatlarni to‘xtatish haqida bitimga erishildi. Biroq muxolifat kuchlarga qarshi qatag‘on kuchaytirildi.
Tashqi siyosatda qo‘shni arab davlatlari bilan munosabatlar normallashtirildi. Lekin Arafa hukumati davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilay olmadi. Buning asosiy sababi harbiy xarajatning ko‘paytirilganligi bo‘ldi. 1967-yilgi Isroil agressiyasi mamlakat iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirdi. Bu hol armiyadagi turli xil guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurashni yanada kuchaytirdi. Va, nihoyat, 1968-yil 17-iyul kuni harbiylar yana navbatdagi davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Taqiqlangan Baas partiyasi yana hokimiyat tepasiga keldi. Bu voqea siyosiy adabiyotlarga «Iyun inqilobi» nomi bilan kirgan. General Ahmad Hasan al-Bakr prezidentlik lavozimini egalladi.
Yangi hukumat iqtisodiyotda davlat sektorini yaratish yo‘lini tutdi. Radikal agrar islohot o‘tkazishni, kurd muammosini tinch yo‘l bilan hal etishni e’lon qildi. 1972-yilda katta yer egalaridan ortiqcha yerlarni olish vazifasi nihoyasiga yetkazildi. Shu yil 1-iyunda «Iroq petroleum» neft kompaniyasi milliylashtirildi. Keyingi yillarda barcha neft sanoati milliylashtirildi.
1973-yilda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun turli siyosiy kuchlarni birlashtirgan Taraqqiyparvar milliy vatanparvarlik fronti tuzildi. 1974-yilda kurd xalqi muxtoriyatni amalga oshirish haqida

qonun qabul qildi. Muxtoriyat hududida kurd tili rasmiy til deb tan olindi. Tashqi siyosatda arablar birligiga ko‘maklashish oldingi o‘ringa chiqdi. Xususan, Iroq 1973-yilda Suriyaga Isroil agressiyasini qaytarishda yordam berdi. Uning armiyasi Damashqning Isroil qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratishida muhim rol o‘ynadi. Ayni paytda SSSR bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi.

Bu yaqinlashuv 1972-yilda ikki davlat o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma bilan mustahkamlandi. SSSRning yordami bilan Iroqda 80 ta iqtisodiy obyekt qurildi.

1979-yil oxirida hokimiyatni general S. Husayn egalladi. U mamlakatda diktatura o‘rnatdi. Muxolifatchi kuchlar faoliyati taqiqlandi. Iroqni «qudratli» davlatga aylantirishga kirishdi. Harbiy xarajat har qachongidan ham oshirildi. Million kishilik armiya barpo etildi.

Iroqning qudrati qo‘shni davlatlarni tashvishga solib qo‘ydi. Chunki avantyurist S. Husayndan hamma narsani kutish mumkin edi. Chunonchi, 1980-yilda u Eronga hududiy da’vo bilan chiqdi. Bu hol Iroq – Eron urushini keltirib chiqardi. Urush 8 yil davom etdi. Har ikki tomon minglab qurbon berdilar. Katta iqtisodiy talafot ko‘rdilar. Iroq maqsadiga erisha olmadi. Eron o‘z hududi daxlsizligini himoya qila oldi.

1990-yil avgustida S. Husayn yana bir avantyuraga qo‘l urdi. U Quvaytni bosib olish maqsadida armiyasini bu mamlakatga kiritdi. Biroq xalqaro

hamjamiyat bunga befarq qarab turmadi. BMT Xavfsizlik Kengashi Iroq rahbariyatidan qo‘shinini Quvaytdan olib chiqib ketishni talab qildi. Ammo bu talab bajarilmadi. Bu esa Iroqqa qarshi davlatlar ittifoqining tuzilishiga olib keldi.

1991-yilning 17-yanvarida bu ittifoq harbiy kuchlari (asosan AQSH armiyasidan iborat) Iroq armiyasiga hujum boshladi va uni tor-mor etdi. Quvaytning davlat mustaqilligi tiklandi.

Ammo S. Husayn Iroqdagi o‘z hokimiyatini va yakka hukmronligini mustahkamlab bordi. Qurollanishni kuchaytirdi. Jahon hamjamiyati Iroqdan ommaviy qirg‘in qurollari ishlab chiqarishga imkon beruvchi manbalarni tugatishni talab etdi.

Qaysar S. Husayn bu haqli talabni inkor etdi. Bunga javoban Iroqqa nisbatan iqtisodiy sanksiya chorasi ko‘rildi. Unga ko‘ra, Iroq neftini sotish minimum darajada cheklab qo‘yildi. Xalqning ahvoli og‘irlashdi.

AQSH Iroqni harbiy kuch yordamidagina xalqaro huquq normalarini hurmat qildirish mumkin, deb hisobladi va 2003-yil iyun oyida Angliya ko‘magida Iroqqa hujum boshlab, S. Husaynni tor-mor qildi. Koalitsiyachilar hamon o‘z qo‘shinlarini Iroqda saqlab turibdilar. AQSH Iroqning butun boyligiga, ayniqsa, katta miqdordagi neftiga ega bo‘ldi. Iroqda vaziyat keskin bo‘lib, kelgindilarga qarshilik ko‘rsatish to‘xtamayotir. Xalq esa urush jarohatlarini tiklamoqda. 2006-yil noyabrda S. Husayn o‘limga hukm qilindi. Bosh vazir Ayyad Alaviy amerikaparast siyosat yuritmoqda.

1925-yilda Arabiston amiri Abdul Aziz ibn Abdul Rahmon ibn Saud qo‘shini deyarli butun Arabistonni egalladi. 1932-yilda esa Ibn Saud Saudiya podsholigi tuzilganligini e’lon qildi. Shu tariqa Saudiya Arabistoni davlati vujudga keldi.

Saudiya Arabistoni hududi Islom dinining markazidir. Musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan Makka va Madina shaharlari shu davlat hududida joylashgan. Saudiya Arabistoni mutlaq monarxiya davlatidir.

Ayni paytda Saudiya Arabistoni dunyoning neftga boy davlatlaridan biri. Bu omil uning iqtisodiyoti gurkirab rivojlanishiga yordam berdi. 1935-yildan boshlab AQSH neft kompaniyalari neft qazib chiqarish bilan shug‘ullana boshladi. Shu yili neft qazib chiqarish bo‘yicha arab – amerika kompaniyasi tuzildi. 1939-yildan boshlab esa neftni sanoat asosida qayta ishlash boshlandi.

1964-yilda podsholik taxtiga Faysal ibn Saud o‘tirdi. U mamlakatni zamonaviylashtirish va liberallashtirish siyosatini yurita boshladi. Zamonaviylashtirish deyilganda, zamonaviy iqtisodiyotni vujudga keltirish tushunilar edi. U milliy neft sanoatini yaratishga kirishdi. Arab – amerika neft kompaniyasi (ARAMKO) qarorgohi Saudiya Arabistoniga ko‘chirildi. 1973-yilda Arab –

amerika neft kompaniyasi milliylashtirildi. 1982-yildan boshlab kompaniya daromadida Saudiya Arabistoni hissasi 51 foizni tashkil etishiga erishildi. 1999-yilda esa kompaniya to‘la Saudiya mulki bo‘lib qoldi.
Saudiya Arabistoni
287
Suriya
Tashqi siyosat
Podsho hukumati aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, mehnat qilish huquqi kafolatlandi. Zamon ruhiga mos mehnat qonuni joriy etildi. Oddiy kishilar uchun arzon turarjoylar qurildi. Yuqori ish haqi to‘lanishi kafolatlandi.
Tekin tibbiy xizmat joriy etildi. Chet elda davolanish zaruriyati tug‘ilganda davlat uning xarajatini o‘z bo‘yniga oladigan tartib joriy qildi. Bepul umumiy o‘rta ta’lim amalga oshirildi. O‘g‘il o‘quvchi bola uchun uning oilasiga kompensatsiya to‘lovi joriy etildi. Qirol Faxd bin Abdulaziz as-Saud (1982-yilda taxtga o‘tirgan) ham Faysal siyosatini davom ettirdi. Bugungi kunda davlat daromadining 92 foizi neftdan kelmoqda. Xususan, 1995-yilda 50 mlrd dollarlik neft sotilgan bo‘lsa, mamlakatga 30 mlrd dollarlik xalq iste’mol tovarlari olib kelindi.
Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti neftdan topgan daromadning hammasini o‘zlashtirishga qodir emas. Shuning uchun topilgan daromadning bir qismi chet el banklarida saqlanadi hamda qarzga beriladi. Bu hol Saudiyaning dunyo iqtisodiy taraqqiyotida sezilarli rol o‘ynashini ta’minlab kelmoqda. 2005-yil 1-avgustda qirol Faxd vafot etdi. Uning o‘rnini 79 yoshli ukasi Abdulloh bin Abdulaziz as Saud egalladi.
Saudiya podsholigining asosiy ittifoqchisi, hamkori AQSHdir. Ayni paytda arab davlatlari va boshqa musulmon davlatlari bilan ham hamkorlik qiladi. Har yili budjetning 10 foizi miqdorida musulmon davlatlariga yordam ko‘rsatmoqda.
Arab davlatlarining AQSH taklifi asosida Isroil bilan munosabatlarini qayta qurishda Saudiya Arabistoni katta rol o‘ynadi. Xususan, 1979-yilda Misr – Isroil o‘rtasida Kemp-Devid shartnomasining imzolanishi bevosita Saudiya podsholigining Misrga ko‘rsatgan ta’siri oqibati bo‘ldi, deyish mumkin. Iroqni Quvaytdan quvib chiqarish bilan bog‘liq xalqaro operatsiyada ham Saudiya podsholigi o‘ziga xos rol o‘ynadi.
Saudiya – O‘zbekiston munosabatlari ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Har yili O‘zbekistonning 3000—4000 fuqarosi muborak haj safariga borib kelmoqda.
Suriya 1941-yilning 27-sentabrida mustaqil davlat deb e’lon qilingan bo‘lsa-da, ingliz – fransuz armiyasi mamlakat hududida qola bergan edi. 1946-yil Suriya Buyuk Britaniya va Fransiyaning o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketishi haqida BMTga murojaat etdi.
Buning natijasida 1946-yilning 17-aprelida Buyuk Britaniya va Fransiya o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Shu tariqa Suriya suvereniteti to‘la tiklandi va 17-aprel Milliy bayram kuni bo‘lib qoldi.
Biroq Suriya hukumati mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta’minlay olmadi. Bu esa 1949-yilda ketma-ket 3 marta davlat to‘ntarishi ro‘y berishiga olib keldi. 1951-yil noyabrida esa polkovnik Shishaklining harbiy diktaturasi o‘rnatildi. Biroq bu diktatura uzoq yashamadi. 1954-yilda u ag‘darildi. 1956-
288
yilda Shukri Quatli prezident etib saylandi. U Misr va Saudiya davlatlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatdi. 1956-yilda Misrga qarshi uchlar agressiyasi davrida Misrga yordam ko‘rsatdi.
Ayni paytda SSSR bilan ham munosabatlari mustahkamlanib bordi. Murakkab xalqaro sharoit, harbiy agressiya xavfi Suriyani Misr bilan birlashishga majbur etdi. 1956-yilning fevral oyida Suriya va Misr yagona davlatga birlashdilar. Bu davlat Birlashgan Arab Respublikasi deb ataldi. Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir BAR prezidenti etib saylandi. Biroq bu birlik uzoq davom etmadi. Suriyada hamma tabaqalar ham, jumladan, harbiylarning aksariyat qismi birlashuvdan birday manfaatdor emas edi.
1961-yilning 8-martida Bass (Arab sotsialistik uyg‘onish partiyasi) a’zosi bo‘lgan zobitlar guruhi davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Hokimiyat Milliy inqilobiy

qo‘mondonlik kengashi qo‘liga o‘tdi. 1966-yil 23-fevralda hokimiyatni general Hafiz Asad egalladi. U hayotining deyarli oxirigacha prezidentlik lavozimini egallab keldi (2000-yil).
Uning vafotidan keyin o‘g‘li Bashar al-Asad prezidentlik lavozimiga keldi.
1967-yilda arab-isroil munosabatlari yanada keskinlashdi. Tez orada urush harakatlari boshlanib ketdi. Bu urushda Suriya o‘z hududining bir qismini yo‘qotdi. 1973-yilgi arab – isroil urushida ham bu hududlarni qaytarib olishga muvaffaq bo‘linmadi. Suriya Isroil bilan separat shartnoma tuzishga uzoq yillar qarshi bo‘lib keldi.
Bu qoida hamon davom etmoqda. «Tinchlik evaziga bosib olingan yerlarni qaytarib olish» tamoyili ostida o‘tkazilgan Suriya-Isroil muzokaralari natijasiz tugadi. Suriya – Isroil munosabatlarida urush holatining davom etishi Suriyani mudofaaga katta mablag‘ sarflashga majbur etmoqda.
Suriya o‘z qo‘shnisi Livanga ham harbiy yordam ko‘rsatib kelmoqda.
Misr 1922-yildan boshlab mustaqil hisoblansada, amalda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi.
Vatanparvar kuchlar bu holatga chek qo‘yish uchun kurashga birlashdilar. Ular ichida «Ozod zobitlar» yashirin tashkiloti alohida rol o‘ynadi. 1952-yilning 23-iyulida J. A. Nosir boshchiligida Qohira garnizoni qo‘zg‘olon ko‘tardi. Podsho Farrux taxtdan ag‘darildi. Hokimiyat Inqilobiy qo‘mondonlik kengashi qo‘liga o‘tdi.
1953-yilning iyun oyida Misr Respublikasi e’lon qilindi. 1956-yilda davlatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. J. A. Nosir mamlakat prezidenti etib saylandi va 1970-yilgacha mamlakatni idora qildi. Dastlabki yilning iyun oyidayoq Suvaysh kanali milliylashtirildi. Mamlakatda agrar islohot o‘tkazildi. Bunga chiday olmagan G‘arb davlatlari Misrga qarshi uchlar agressiyasini uyushtirdilar (Buyuk Britaniya, Fransiya va Isroil). Bu haqda oldingi mavzuda ma’lumot berilgan.
Misr tashqi siyosatda qo‘shilmaslik harakatida faol qatnashdi. Shuning bilan bir qatorda SSSR bilan munosabatlarini har tomonlama mustahkamladi.

Yaqin Sharq muammosi tufayli Misr 4 marta arab – isroil urushiga tortildi. Va, nihoyat, 1979-yilda imzolangan Kemp-Devid shartnomasi tufayli Isroil bilan tinchlikka erishdi. Isroil bosib olgan hududlarni qaytarib oldi. 1981-yilda ekstremistlar tomonidan otib o‘ldirilgan A. Sadat o‘rniga kelgan Misr Prezidenti H. Muborak (1928-yilda tug‘ilgan) Falastin arab xalqining mustaqil davlatga ega bo‘lish yo‘lidagi kurashini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Arab davlatlari birligini mustahkamlashga intilmoqda. 2005-yil sentabridagi birinchi umumxalq saylovida H. Muborak g‘olib chiqdi. Ayni paytda Misr Afrika qit’asining, arab dunyosining eng rivojlangan, qudratli davlatlaridan biri. O‘zbekiston bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatgan.
Jazoir Ikkinchi jahon urushidan keyin ham Fransiya mustamlakasi bo‘lib qola berdi. Inqilobiy vatanparvar kuchlar 1954-yilda «birlik va harakat qo‘mitasi» tuzdilar. Keyinchalik u «Milliy ozodlik fronti» (MOF) deb ataldi. Uning rahbarligida 1-noyabrda qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘zg‘olon umummilliy inqilobga aylanib ketdi.
1958-yilning 19-sentabrida Jazoir Respublikasining Muvaqqat hukumati tuzildi. Fransiya mustamlakachi ma’muriyati ozodlik kurashini qonga botirishga harakat qildi. Biroq jahon hamjamiyati Jazoir xalqining ozodlik kurashini qo‘llab-quvvatladi. Mustaqillik uchun kurashda Jazoir xalqi juda

katta qurbonlar berdi. Ozodlik kurashi davomida 1 mln dan ortiq jazoirlik halok bo‘ldi. 2 mln kishi turli konslagerlarga tashlandi.
Va, nihoyat, 1962-yilning 1-iyulida Jazoir mustaqil Xalq Demokratik Respublikasi deb e’lon qilindi. Ozodlik kurashining arbobi, MOF rahbari Ahmad Ben Bella yangi hukumatni boshqardi. Mustaqil taraqqiyot yo‘li oson kechmadi. Xususan, 1965-yilda MOF rahbariyati tarkibida bo‘linish yuz berdi. Mamlakat Prezidenti Ahmad Ben Bella taraqqiyotning liberal yo‘li tarafdori edi. Mamlakatda qattiqqo‘llik bilan siyosat yuritish tarafdorlari mudofaa vaziri X. Bumeden (1925—1978) atrofida birlashdilar.
Ular 1965-yilning 19-iyunida davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Butun hokimiyat X. Bumeden qo‘lida to‘plandi. 1978-yilda X. Bumeden vafot etgach, Sh. Benjadid Prezident lavozimini egalladi. MOF hukmronligi yillarida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y bermadi. Buning

J. A. Nosir Afrika davlat boshliqlari kengashida.

Tunis

Marokash

sababi o‘z vaqtida zarur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning o‘tkazilmaganligi edi.
Bu holat MOF obro‘sini tushirib yubordi. Ijtimoiy adolatni kuchaytirish talabi mamlakatda diniy harakatlar mavqeyini mustahkamladi.
1989-yilda MOF hokimiyatga bo‘lgan monopol huquqidan voz kechishga majbur bo‘ldi. Muxolifat partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. 1989-yilda tuzilgan «Milliy qutqarish islom fronti» (MQIF) ning obro‘si kundan-kunga o‘sib bordi. Shu yiliyoq bu diniy partiya mahalliy saylovlarda g‘olib chiqdi. 1991-yilning noyabr oyida o‘tkazilgan umumiy parlament saylovida ham bu partiya MOFni mag‘lubiyatga uchratdi. Biroq armiya oliy qo‘mondonligi saylov natijalarini tan olmadi.
Sh. Benjadid iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi. Uning o‘rniga 1991-yil noyabrda M. Budiar o‘tirdi. 1992-yil 2-iyunida armiya davlat to‘ntarishi o‘tkazdi, M. Budiar o‘ldirildi. Ali Karini hokimiyatni egalladi. MQIF faoliyati taqiqlandi. Diniy ekstremistlar terrorni avj oldirdilar. Buning oqibatida 100 mingdan ortiq fuqaro halok bo‘ldi. Jazoirda hamon siyosiy barqarorlik ta’minlangani yo‘q. Abdulaziz Buteflika mamlakat prezidenti lavozimida ishlamoqda.
Marokash Fransiya mustamlakasi edi. Marokash xalqining ozodlik kurashi uzoq davom etdi. Va, nihoyat, 1956-yil 2-mart kuni Marokash mustaqilligi haqida deklaratsiya imzolandi. 5-aprelda Ispaniya Marokash mustaqilligini tan oldi. 1961-yilda Fransiya qo‘shinlari mamlakatdan olib chiqib ketildi. AQSH harbiy bazasi ham tugatildi. 1962-yildan boshlab Marokash konstitutsiyaviy monarxiya davlatiga aylandi. Qirol Hasan II mamlakat yangi konstitutsiyasini imzoladi.
Marokash arab xalqining Isroil agressiyasiga qarshi kurashini qo‘llabquvvatlab kelmoqda. Ayni paytda uning Jazoir bilan munosabatlarida keskinlik ham mavjud. Bu keskinlik — G‘arbiy Sahroyi Kabir bilan bog‘liq. 1975-yilda Marokash bu hududni bosib oldi. G‘arbiy Sahroyi Kabirda bir necha o‘n yillardan beri separatchilik harakati davom etmoqda. Jazoir Respublikasi esa ana shu harakatni qo‘llab-quvvatlamoqda. Tabiiyki, bu hol Marokash — Jazoir munosabatlariga sovuqlik tushirmay qo‘ymadi.
1999-yilda Hasan II vafotidan so‘ng taxtni o‘g‘li Muhammad VI egalladi. Otasidan 30 mln aholini boshqarishni, 200 ming armiyani meros qilib oldi. 50 foiz xalq savodsiz.
Tunis ham uzoq yillar Fransiya mustamlakasi bo‘lib keldi. Faqat 1956-yildagina (20-mart) Fransiya Tunis mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi.
Hokimiyat Yangi Dastur partiyasi rahbarligidagi Milliy front qo‘liga o‘tdi. Uning rahbari X. Burgiba yangi hukumat tuzdi. 1957-yil 25-iyulda Tunisda monarxiya tugatildi va Respublika e’lon qilindi. X. Burgiba mamlakatning birinchi Prezidenti etib saylandi.

Keyingi o‘zgarishlar

X. Burgiba mamlakatda «Dastur sotsializmi» qurishini e’lon qildi. Bu ibora amalda iqtisodiyoti davlat, kooperativ va xususiy sektorni mujassamlashtirgan jamiyatni anglatar edi. Ayni paytda bu jamiyat aholi barcha tabaqalarining manfaatini aks ettirishi zarur edi.
1969-yildan boshlab davlat yerlari, fransuz mustamlakachilariga qarashli yerlar sotila boshlandi. Shu tariqa mayda va o‘rta yer egalari tabaqasi vujudga keltirildi. Sanoat korxonalari ham milliylashtirildi. Shuning barobarida milliy va chet el kapitaliga qulay sharoit yaratib berildi.
Biroq mamlakatda ijtimoiy adolatsizlik avj oldi. Bu, o‘z navbatida, siyosiy beqarorlikni vujudga keltirdi. Natijada diniy yo‘nalishdagi partiyalar kuchaydi. Shunday sharoitda harbiylar 1987-yil 7-noyabrda to‘ntarish o‘tkazdilar. X. Burgiba hukumati ag‘darildi. Hokimiyat general Ben Ali qo‘liga o‘tdi. Tunis tashqi siyosatda ham G‘arb, ham arab davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirib bormoqda. 1976-yilda u Yevropa Ittifoqi bilan shartnoma imzoladi. 1989-yilda esa Arab mag‘ribi Ittifoqi a’zosi bo‘ldi. Arab davlatlari ligasi a’zosi sifatida Falastin arab xalqining o‘z davlatiga ega bo‘lish huquqini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.
Liviya Birinchi jahon urushi yillaridan 1943-yilgacha Italiya mustamlakasi bo‘lib keldi. 1943-yilda Italiya ittifoqchilarga taslim bo‘lgach, Fransiya va Buyuk Britaniya boshqaruviga o‘tdi. 1951-yilda Liviya mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Liviyada monarxiya qaror topdi. Qirol Idris I tashqi siyosatda, birinchi navbatda, Buyuk Britaniya va AQSH bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi. Chunonchi, 1953-yilda mamlakat hududida Buyuk Britaniya, 1954-yilda esa AQSHning harbiy bazalarini tashkil etish haqida bitimlar imzolandi. Shu tariqa buyuk davlatlar o‘zlarining Afrikadagi manfaatlarini himoya qilishda Liviyani tayanch nuqtasiga aylantirdilar. Biroq Idris I siyosati harbiylar orasida norozilik tug‘dirdi. Ular 1969-yil 1-sentabrda harbiy to‘ntarishni amalga oshirdilar. To‘ntarishga polkovnik M. Kaddafiy (1942-yilda tug‘ilgan) rahbarlik qildi. Hokimiyat inqilobiy qo‘mondonlik kengashi qo‘liga o‘tdi. To‘ntarish natijasida monarxiya ag‘darildi. Mamlakat Liviya Arab Respublikasi deb e’lon qilindi. Buyuk Britaniya va AQSH 1970-yilda Liviyadan o‘z harbiy qismlarini olib chiqib ketishga majbur bo‘ldi.
Mamlakatda davlat organlarini qayta tashkil etish boshlandi. Umumiy Xalq Kongressi Oliy hokimiyat organi deb e’lon qilindi. 1977-yil 3-mart kunidan boshlab Liviya Arab Respublikasi Liviya Xalq Arab Jamaxiriyasi nomi bilan ataladigan bo‘ldi. M. Kaddafiy esa 1-sentabr inqilobining rahbari deb e’lon qilindi. Shu tariqa u davlatning yagona rahbariga aylandi. Liviya milliy boyligining asosini neft tashkil etadi. Hukumat Liviyada neft qazib chiqarish bilan shug‘ullanuvchi barcha kompaniyalarni to‘la yoki qisman milliylashtirdi.

Mamlakat ichkarisida neft mahsulotlarini sotish va taqsimlashni davlat o‘z qo‘liga oldi. Milliy neft-kimyo sanoati hamda neft tashuvchi flot yaratildi. Liviya iqtisodiyotida davlat sektori katta salmoqqa ega.
Neft sanoatidan tashqari, banklar, sug‘urta kompaniyalari, yirik qishloq xo‘jalik birlashmalari, transport, qurilish kompaniyalari hamda tashqi savdo davlat ixtiyoridadir. Liviya qonunlari kishining mehnat natijasini o‘zlashtirib olmaydigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat etadi.
Mamlakat rahbariyati aholining ijtimoiy himoyasi masalasiga alohida e’tibor berdi. Ish haqi to‘lashni davlat tartibga solib turadi. Turarjoy uchun kam haq olinadi. Aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Umumiy va oliy ta’lim ham bepul. Obyektiv sabablarga ko‘ra, mamlakat qishloq xo‘jaligi kam taraqqiy etgan. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlari chetdan sotib olinadi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi Liviya — dunyoning eng boy davlatlaridan biri. Liviya yiliga 110 mln tonna neft qazib oladi. Neft savdosi mamlakat g‘aznasiga 10 mlrd dollar daromad keltiradi.
Liviya faol tashqi siyosat yuritadi. U Arab Davlatlari Ligasi, Afrika hamkorligi tashkiloti, Qo‘shilmaslik harakati, Arab mag‘ribi Ittifoqi kabi regional tashkilotlar a’zosidir. Falastin Ozodlik Tashkilotini qo‘llabquvvatlaydi.

Unga katta miqdorda moliyaviy yordam ham ko‘rsatadi. Biroq Liviya xalqaro terrorizmni qo‘llab-quvvatlashda ham ayblanib kelmoqda. Bu esa uning AQSH tomonidan jazolanishiga sabab bo‘lgan.

AQSH M. Kaddafiyni jismonan yo‘q qilish maqsadida 1986-yilning 15-aprelida Liviya poytaxti Tripoli shahrini bombardimon qildi. Lekin M. Kaddafiy omon qoldi. Ayni paytda 2000-yilda Liviya xalqaro terrorizmda gumon qilingan ikki fuqarosini xalqaro sud hukmiga topshirishga majbur bo‘ldi. Xalqaro sud (Gaaga shahrida) ularning birini aybdor deb topdi va qamoq jazosiga hukm qildi. 2005-yilga kelib M. Kaddafiy G‘arb davlatlarining barcha talablarini bajardi. Qurollanish dasturini to‘xtatdi. G‘arb xalqaro cheklovni bekor qildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Yaqin Sharq muammosi» qachondan boshlangan va mohiyati nima?
2. Arab – Isroil urushidan maqsad nima edi?
3. Kemp-Devid bitimi qachon tuzildi?
4. Iroq qachon respublika deb e’lon qilingan?
5. S. Husayn siyosatini tushuntiring.
6. Saudiya Arabistoni qanday mamlakat?
7. Suriya tashqi siyosatining mohiyati nima?
8. Misr hukmdorlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
9. Sh. Benjadid davrida Jazoirning ahvoli qanday edi?
10. Marokashning taraqqiyot yo‘li qanday bo‘ldi?
11. «Dastur sotsializmi»ning mohiyati nima?
12. M. Kaddafiy faoliyati haqida so‘zlab bering.
13. O‘zbekistonning arab davlatlari bilan aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

?

Milliy-ozodlik kurashi va uning oqibatlari

JADVALNI TO‘LDIRING

Arab-Isroil urushlari	Bosib olingan hududlar	Urush oqibatlari

33-§. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mustamlaka sirtmog‘i azob-uqubatlarini tortib kelayotgan xalqlarning milliy-ozodlik kurashi yanada kuchaydi.

Bu hodisa Afrika xalqlariga ham taalluqli edi. Xo‘sh, qanday omillar mustamlaka sirtmog‘ida yashayotgan xalqlar milliy-ozodlik kurashining kuchayishiga sabab bo‘ldi? Bular:

— Ikkinchi jahon urushida Germaniya, Italiya va Yaponiyaning mag‘lubiyatga uchraganligi;

— asosiy mustamlakachi davlatlar — Buyuk Britaniya va Fransiyaning zaiflashganligi;

— mustamlaka xalqlar milliy ongining o‘sishi;

— AQSH va SSSRning o‘z siyosiy maqsadlari yo‘lida dunyoda mustamlakachi imperiyalar saqlanib qolishiga qarshi chiqqanligi.

To‘g‘ri, Afrikada mustamlakachilik tizimining barham topishi jarayoni Osiyodagiga nisbatan sekin borgan. Bu Afrika davlatlari qoloqligining, milliyozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi ijtimoiy kuchlarning (milliy burjuaziya va milliy ziyolilar) zaifligi oqibati edi.

Dastlab Shimoliy Afrika davlatlari qattiq qonli kurash hisobiga mustaqillikka erishdilar (bu haqda Arab davlatlari mavzusida ma’lumot oldingiz).

1960-yil Afrika tarixiga «Afrika yili» nomi bilan kirdi. Shu yili bir yo‘la 17 davlat mustaqillikka erishdi. Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlaka imperiyalari parchalanib borayotgan bir sharoitda Belgiya Kongo mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi.

Afrikaning ayrim mamlakatlarida mustaqillikka erishish nisbatan tinch yo‘l bilan (aholining ommaviy namoyishlari; fuqarolik bo‘ysunmasligi) amalga oshdi. Mustamlakachilik metropoliyadan ko‘chib kelib joylashgan bir guruh oq tanlilar jamoasiga tayangan joylarda esa og‘ir qurolli kurash olib borish yo‘li bilan mustaqillikka erishildi. 60-yillar oxiriga kelib ingliz, fransuz, belgiya mustamlakachi imperiyalari parchalandi.

Faqat bir imperiya — Portugaliya imperiyasi yashashda davom etdi. Portugaliyaning Afrikadagi mustamlakalari (Mozambik, Angola, Gvineya-Bissau) uning dengizorti hududlari deb e’lon qilingan edi. Bu «dengizorti hududlar» aholisining milliy-ozodlik kurashi 1974-yilgacha davom etdi va u
294
g‘alaba bilan yakunlandi. Portugaliya o‘z mustamlakalarining mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi.
Kongo (Zair), Gvineya, Angola, Mozambik, Namibiya tropik Afrikada yirik davlatlar hisoblanadi.
1980-yilda yana bir mustaqil Afrika davlati — Zimbabve davlati vujudga keldi. Bu davlatning vujudga kelishi juda og‘ir kechdi. Gap shundaki, Rodeziyada (Buyuk Britaniya mustamlakasi) kam sonli, biroq uyushgan oq tanlilar ham yashardi. Ular 1965-yilda Rodeziyani mustaqil deb e’lon qildilar. Biroq uni Buyuk Britaniya ham, BMT ham tan olmadi.
Mahalliy afrikaliklar esa ozodlik uchun qurolli kurash boshladilar. Yakkalanib qolgan oq tanlilar 1979-yilda muzokara boshlashga majbur bo‘ldilar. Uning oqibatida davlat afrikaliklar qo‘liga o‘tdi. 1980-yilda Rodeziya o‘rnida mustaqil, yangi Zimbabve davlati tashkil etilganligi e’lon qilindi.
Afrikadagi oxirgi mustamlaka Janubi-G‘arbiy Afrika edi. Birinchi jahon urushiga qadar bu hudud Germaniya mustamlakasi bo‘lgan. Urushdan so‘ng Millatlar Ligasi uni boshqarish huquqini Janubiy Afrika Respublikasiga (JAR) berdi. JAR dastlab bu hududni o‘ziga qo‘shib olishga urindi. Buning uddasidan chiqa olmagach, u yerda oz sonli oq tanlilar hukumatini tuzishga harakat qildi. Bunga javoban mahalliy aholi 1966-yilda qurolli kurash boshlashga majbur bo‘ldi.
BMT 1973-yilda JARni Janubi-G‘arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalliy aholining milliy-ozodlik kurashi 1989-yilda g‘alaba bilan yakunlandi. Shu yili Janubi-G‘arbiy Afrika Namibiya nomi bilan mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Shu tariqa mustamlaka Afrika xalqlari milliy-ozodlik kurashi g‘alaba bilan yakunlandi. Bir vaqtlar deyarli butunlay mustamlakaga aylantirilgan Afrikada 52 ta mustaqil davlat vujudga keldi.
Janubiy Afrika Respublikasida 1948-yilda o‘tkazilgan parlament saylovida Afrika yerlarining (oq tanli aholi) millatchi partiyasi g‘alaba qozondi.
Bu partiya rahbari D. Malan boshchiligida tuzilgan hukumat aparteid siyosatini amalga oshirishini e’lon qildi. Bu davlatning tub aholisi bo‘lgan negrlarga, bu yerga kelib qolgan hindlarga nisbatan qo‘llangan irqiy kamsitish, ularni oq tanlilardan ajratib qo‘yish; ularni asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum etish hamda o‘zlari uchun ajratilgan alohida joylarda yashashga majbur etish siyosati edi.
Mamlakat maydonining 87 foizi oq tanlilar uchun, atigi 13 foizi afrikaliklar uchun biriktirib qo‘yildi. Bundan maqsad — afrikaliklarning mustahkam aparteid tartiblarini yo‘qotish maqsadida birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik edi.
JAR hukmron doiralari aparteid siyosatini tobora kuchaytirdilar. 1984-yilda uch palatali parlament (oqlar, negrlar va hindlar uchun alohida-alohida) tuzildi.

Aparteid tartibiga qarshi kurash

295

Biroq afrikaliklar irqchilar rejimi o‘zlariga taqdim etgan taqdirga tan berganlari yo‘q. Ular XX asrning eng jirkanch hodisalaridan biri —aparteid siyosatiga qarshi qurolli kurash olib bordilar. Bu kurashga Afrika Milliy Kongressi (AMK) rahbarlik qildi. AMK maqsadi — Janubiy Afrikada irqidan qat’i nazar barcha fuqaro qonun oldida teng bo‘lishini ta’minlaydigan demokratik davlat barpo etish edi. Bu partiyaga XX asrning buyuk siyosat va davlat arboblaridan biri N. Mandela rahbarlik qildi.
Afrika xalqining bu kurashi xalqaro taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Hukumat tub aholining o‘z haq-huquqi yo‘lidagi kurashiga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Biroq afrikaliklar kurashini to‘xtatib bo‘lmadi.

1989-yilda JAR prezidentligiga F. Klerk saylandi. U davr realligini hisobga olib siyosat yurituvchi arbob edi. F. Klerk agar aparteid siyosati bekor qilinmasa, u oxir-oqibatda oq tanlilarni to‘la halokatga olib kelishi mumkinligini anglab yetdi va 1990-yilda AMK faoliyatini taqiqlashni bekor qilish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Uning rahbari N. Mandela 1991-yilda umrbod qamoq jazosidan ozod etildi. (U 27 yildan beri qamoqda edi.) Mamlakatda harbiy holat bekor qilindi. Barcha fuqarolarning, irqlarning tengligi e’lon qilindi.

1993-yilda barcha irq vakillarining tengligi asosida umumiy parlament saylovi o‘tkazilishi to‘g‘risida bitim imzolandi. Ayni paytda oq tanlilar huquqi ham kafolatlanadigan bo‘ldi.

Saylov 1994-yilning 26-aprelida o‘tkazildi va unda AMK to‘la g‘alaba qozondi. N. Mandela JARning birinchi qora tanli Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa eng jirkanch illat — aparteidning to‘la barham topishiga asos yaratildi. Afrika qit’asida mustahkam tinchlik yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri — irqchilikni bartaraf etish yo‘lidagi buyuk xizmatlari uchun har ikki arbob — N. Mandela va F. Klerklar 1993-yilda Tinchlik uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. 1999-yil 2-iyundagi saylovlarda N. Mandelaning safdoshi Tabo Mbeku Prezidentlik lavozimini egalladi.

Afrika qit’asi davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil emas. Chunonchi, tropik Afrika Shimoliy va Janubiy Afrikadan keskin farq qiladi.

Tropik Afrika davlatlari qit’aning eng qoloq davlatlaridir. Dunyo aholisining 10 foizini tashkil etuvchi Afrika qit’asida dunyo sanoat mahsulotining atigi 1 foizi ishlab chiqariladi, xolos. Bu yerdagi yana bir eng katta muammo — aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash muammosidir.

Bugungi kunda Afrikada qit’a aholisining deyarli 50 foizi qashshoqlikda yashamoqda. Oziq-ovqat ishlab chiqarish aholi o‘sishiga nisbatan tobora orqada qolib bormoqda. Yana bir jiddiy muammo, etnik qirg‘inlar, mojarolar muammosidir. Afrika davlatlari hayotida urug‘-qabilachi-

lik hayot tarzi kuchliligicha qolmoqda. Bir xalq turli davlatlar hududida yashamoqda.

Masalan, 20 mln dan ortiq fulbe deb ataluvchi xalq boshqa xalqlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etmaydigan qilib turli davlatlarga bo‘lib yuborilgan. Etnik nizolar davlatlar yaxlitligini katta xavf ostiga qo‘ymoqda. Yana bir katta muammo — bu davlatlararo nizolar, harbiy to‘qnashuvlar muammosi.

Mustamlakachilar davlatlar chegaralarini atayin shunday belgilaganlarki, bu bora-bora davlatlararo nizolar manbayiga aylandi. Hozircha Afrika hamkorligi Tashkiloti to‘qnashuvlar ildizlarini bartaraf etishga muvaffaq bo‘la olgani yo‘q.

Jiddiy muammolardan yana biri — tashqi qarz. Chunki tashqi qarz yildan yilga ortib bormoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Afrika xalqlarining milliy-ozodlik kurashini yengillashtirgan omillar haqida mulohaza yuriting.
2. Afrika xalqlari ozodlik kurashining shakllari haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Aparteid qanday siyosat?
4. Afrika davlatlari oldida turgan muammolarni Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari oldida turgan muammolar bilan taqqoslang.

JADVALNI TO‘LDIRING. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN MUSTAQILLIKNI QO‘LGA KIRITGAN AFRIKA DAVLATLARI

Davlatlar nomi	Mustaqillikka erishgan yili	Hozirgi davrda davlat boshlig‘i	Taraqqiyot yo‘li

Yuqoridagi mavzulardan ma’lumki, 1991-yil 8-dekabr kuni Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari Viskuli (Belovej pushchasi)da SSSR ning tugatilganligi to‘g‘risidagi hujjatni imzolashdi. Shu bilan Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) tashkil topdi. MDHga asta-sekin 12 respublika a’zo bo‘lib kirdi. Boltiqbo‘yi davlatlari bundan mustasno.

Har bir respublikaga o‘z hududi va undagi tabiiy boyliklar, aholi, ishlab chiqarish korxonalari, aholi jon boshiga yalpi ishlab chiqarish mahsulotlari ko‘rsatkichi nasib etdi.

?

297

№ Mamlakatlar
Hududi
%
Aholisi
%
Ishlab
chiqarish
%
Aholi jon
boshiga
YAIM %*
1 Ozarbayjon 0,43 2,6 1,8 56
2 Armaniston 0,15 1,1 1,1 118
3 Belorussiya 0,93 3,5 3,8 106
4 Gruziya 0,35 2,0 1,8 90
5 Qozog‘iston 12,23 5,7 5,1 90
6 Qirg‘iziston 0,89 1,4 1,0 60
7 Latviya 0,28 0,9 0,7 133
8 Litva 0,29 1,2 1,1 133
9 Moldaviya 0,15 1,6 1,3 80
10 Rossiya 76,25 52,0 57,8 114
11 Tojikiston 0,63 1,5 1,0 50
12 Turkmaniston 2,21 1,4 0,9 75
13 O‘zbekiston 2,10 7,1 4,4 96
14 Ukraina 2,75 18,0 17,8 92
15 Estoniya 0,23 0,5 0,4 140

* YAIM (yalpi ichki mahsulot)

1985—1988-yillardan boshlab sovet tuzumining susayishi tufayli bu respublikalarda ommaviy fuqarolik harakatlari namoyon bo‘la boshladi. Avvaliga ular milliy madaniyat va tabiatni muhofaza qilish talabi bilan, keyinchalik respublikalarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish va, nihoyat, haqqoniy suverenitet va mustaqillik talabi bilan chiqdilar. 1989-yil may oyida uch mamlakat vatanparvarlari tomonidan saylangan Baltika assambleyasi bu respublikalarning SSSR tarkibida bo‘lishlari hech qanday huquqiy asosga ega emasligini bayon qildi.

34-§. Moldova, Ukraina, Belorussiya va Kavkazorti Respublikalari mustaqilligining tiklanishi va rivojlanishi

Moldova Respublikasi

80-yillarning oxirida Moldovada umuman moldovaliklar aholining 64 foizini tashkil etdi, ilgarigi muxtoriyat — Dnestrbo‘yida esa aholining ko‘pchiligi — 60 foizi ruslar va ukrainlardan iborat edi. Bu mintaqalar

298

o‘rtasidagi farqlar mamlakat taqdiriga ta’sir ko‘rsatdi. Boltiqbo‘yidagi xalq frontlari harakati, keyinchalik esa Ruminiyadagi inqilob haqidagi xabarlar Yagona Moldova Xalq Frontining (YAMXF) tashkil etilishiga, uning tomonidan mamlakatda 1989-yilda rumin tiliga davlat tili maqomini berish va mamlakatni suveren deb e’lon qilishga bo‘lgan intilishlarni rag‘batlantirdi. YAMXF ommaviylashdi va Kishinyov ko‘chalariga yuz minglab tarafdorlarini chiqardi.

Bahorda SSSR Xalq deputatlari syezdiga yuborilgan delegatlarning ko‘pchiligi mutaassib (konservativ) kayfiyatda edi, ammo avgustga kelib respublika Oliy Soveti rumin tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risidagi qonunni qabul qilib, har bir elatga o‘z tilida gapirishga imkon berdi. Keyinchalik

Xalq Fronti 1990-yildagi Oliy Sovet saylovlarida muvaffaqiyatga erishib, respublika rahbariyatidan kompartiyani chetlashtirdi. Avgust oyida Oliy Sovet Moldova mustaqilligi to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’lon qildi. Yangi hukumat fuqarolarning huquq va erkinliklarini yoqladi. Mamlakatda demokratlashtirish avj olib, bir qator liberal-demokratik, milliy-demokratik hamda sotsial-demokratik yo‘nalishdagi partiya va harakatlar paydo bo‘ldi. Ulardan ba’zilari Moldovaning Ruminiyaga qo‘shilishi tarafdorlari edilar. Ammo ular referendumda ko‘pchilik ovozga ega bo‘lolmadilar. 1991-yil oxirida Oliy Sovet respublika prezidenti etib liberal-demokratlar yetakchisi M. Snegurni sayladi.

Shu bilan birga, 1990-yildayoq SSSRning parchalanishiga to‘sqinlik qilishga harakat qiluvchi ittifoq hukumati ishtiroki bilan Moldovaning janubidagi uchta mintaqada yashovchi gagauzlar va Dnestr O‘ng qirg‘og‘i hamda Benderi shahri aholisining ko‘pchiligi rumin tiliga qarshi va SSSR tarkibidan chiqishga qarshi norozilik bildirishdi. Gagauzlar o‘z mustaqil respublikalarini e’lon qilishdi. Shimolda esa 1991-yilda sovet tuzumini saqlab qolayotgan mustaqil Dnestrbo‘yi Moldova Respublikasi (DMR) paydo bo‘ldi.

Agar gagauzlar bilan olib borilgan uzoq muddatli muzokaralardan so‘ng ular Gagauziyaning Moldova tarkibida maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lishiga rozilik bildirgan bo‘lsa, Tiraspol shahrida joylashgan DMR hukumati Moldova hukumatining muxtoriyat to‘g‘risidagi taklifini rad etdi va Sovet harbiylari yordamida Moldovaning tartib o‘rnatuvchi kuchlariga qarshilik ko‘rsatdi. 1992-yilda Moldova qurolli kuchlari bilan va DMR qurollangan otryadlari va ularga yordam berayotgan 14-sobiq Sovet armiyasi o‘rtasida bo‘lgan janglarda yuzlab odamlar halok bo‘ldi va yarador qilindi, xalq xo‘jaligiga katta moddiy zarar yetkazildi. O‘n minglab muqim yashovchilar qochoqlarga aylandi. Moldovada prezident favqulodda holat e’lon qildi. Moldova va DMR o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar faqat Moldova va Rossiya o‘rtasidagi shartnoma imzolangandan, 14-armiya tarqatib yuborilgandan va urush mintaqasiga Xalqaro tinchlik o‘rnatuvchi kuchlar kiritilganidan keyingina to‘xtatildi. Qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi mu299 zokaralar va vositachilarning urinishlariga qaramasdan, to‘qnashuvlar 1994-yilgacha davom etdi. 1994-yilda tomonlarning zo‘ravonlikni to‘xtatish to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuvlari to‘qnashuvlarga chek qo‘ydi.

Parlamentga (1994-yilda) va mahalliy (1995-yilda) saylovlar arafasida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish biroz olg‘a siljidi, ammo ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmadi. Davlat ixtiyoridagi asosiy sohalar — vino ishlab chiqarish va tamaki sanoatida ishlab chiqarish samaradorligi pastligicha qolmoqda edi. Moldova Rossiya kompaniyalari tomonidan keltirilayotgan energiya tashuvchilarni sotib olish uchun mablag‘ga ega emas edi. Beqarorlik investitsiya oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Uzoq davom etgan ishlab chiqarishning qisqarishi va inflatsiya aholi ahvolining yomonlashishiga sabab bo‘ldi. Ommaning noroziligi, eng avvalo, ijtimoiy muammolarni hal etishga chaqirayotgan sotsial-demokratik partiyalarning kuchayishiga olib keldi. 1996-yil oxirida prezidentlik saylovlarining ikkinchi bosqichida ular tomonidan qo‘llab-quvvatlangan erkin nomzod P. Luchinskiy g‘alaba qozondi.

1988-yilga kelib mamlakat mulkining 75 foizi (Dnestrbo‘yidan tashqari) hissador-investor, korxona xodimlari, menejerlar va xususiy tadbirkorlar qo‘liga o‘tdi. Ammo iqtisodiyotning jonlanishi va aholi ahvolining yaxshilanishiga erishilmadi.

Muzokaralar yo‘li bilan P. Luchinskiy Moldova birligining Rossiya va Ukraina tomonidan e’tirof etilishiga va ular bilan hamkorlikni kuchaytirishga erishdi. Mamlakat birligini tiklash uchun Moldova YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlarga tayanmoqda. Yoqilg‘i-energiyaga ega bo‘lish maqsadida Ozarbayjon bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatilmoqda. Islohotlar yo‘li bilan olg‘a borayotgan Ruminiya va YEI bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. 2000-yil bahoridan boshlab, prezident tanlagan yo‘l mamlakat aholisi ba’zi qismining manfaatlariga mos kelmasligi tufayli noroziliklar kuchayib ketdi. Bu noroziliklarga tayanib, parlamentdagi turli ruhdagi muxolifat kuchlar konstitutsiyani o‘zgartirishga erishdi. 2001-yil fevral oyidagi parlament

saylovlarida demokratlar rahbarligida mamlakat qiyinchiliklari bartaraf etilishidan umidini uzgan saylovchilar kommunistlar uchun ovoz berdilar. Yangi parlament V. Voroninni prezident qilib sayladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish qiyinchiliklari davom etmoqda.
Moldovada YAIM 2007-yilga kelib 4,8 mlrd dollarga yetdi va yillik o‘sish 3 foizni tashkil qildi. Sanoatning 87 foizi qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jaligida biroz pasayish sezildi. Import eksportga nisbatan ancha ustun. 170 dan ortiq vino zavodlari ishlab turibdi.
Ukraina Respublikasi
Aholi soni va sanoat salohiyati bo‘yicha SSSR da ikkinchi o‘rinda turgan Ukrainada milliy harakatlar Boltiqbo‘yiga nisbatan kechroq boshlandi. Ammo

bu harakat chuqur tarixiy ildizga ega bo‘lib, hech qachon tugamagan va, ayniqsa, g‘arbiy hududlarda Belorussiyadagiga nisbatan ancha kuchliroq edi. Qayta qurish va oshkoralik yillarida ruslashtirishga qarshi chiqqan dissidentlar faollashdi, mamlakat mustaqilligi uchun kurashuvchi natsionalistlar, ya’ni milliy-ozodlik harakati qatnashchilari ochiq faoliyat yurita boshladi. Ular tuzgan eng obro‘li tashkilot I. Droch va V. Chernovillar boshchilik qilgan Ukraina Xalq harakati (Rux) edi.
Qariyb 73 foizi ukrainlardan iborat bo‘lgan aholi konformistik ruhda emas edi. Ammo 1989-yilning bahoridagi SSSR Xalq deputatlari syezdida qatnashgan Ukraina vakillarining ko‘pchiligi SSSRni so‘zsiz saqlab qolish tarafdori bo‘lib chiqdilar. Faqatgina oktabrga kelib Oliy rada (OR) ukrain tilini davlat tili deb e’lon qildi. 1990-yilda Oliy radaga bo‘lgan saylovlarda o‘rinlarning choragini Rux tomonidan tuzilgan demokratik blok egalladi. Uning tashabbusi bilan OR 1990-yil yozida Ukraina suverenitetini e’lon qildi va Kiyevda bo‘lib o‘tgan son-sanoqsiz ommaviy namoyishlardan so‘ng kommunistlardan bo‘lgan bosh vazirni vazifasidan chetlashtirdi. OR raisi natsional-demokratlardan bo‘lgan L. Kravchuk bo‘ldi. 1991-yil avgustida OR Ukraina mustaqil bo‘lganligini e’lon qildi va bunga qarshilik ko‘rsatgan kompartiyani taqiqladi. Kuzda oz sonli millatlarga milliy-madaniy muxtoriyat huquqi berildi. 1991-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida fuqarolarning 80 foizidan ko‘prog‘i, jumladan, aholining 22 foizini tashkil etgan ruslarning ko‘pchiligi ham mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi. Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan respublika prezidenti saylandi. U L. Kravchuk edi.
Qisqa muddat ichida Ukraina o‘z hududida joylashgan o‘nlab sovet diviziyalari va ularning quroli asosida mustaqil mamlakat uchun zarur bo‘lgan qurolli kuchlar va maxsus xizmatlarni tashkil etishga ulgurdi. Ammo xalq ham, yangi partiyalar ham, eski Sovet (Kengash) lar ham islohotlarga tayyor emas edi. Ittifoq buyurtmalari va yoqilg‘i-energiya manbalaridan mahrum bo‘lgan sanoatda, 1992-yilda mahsulot ishlab chiqarish 30 foizga qisqardi va kamayishda davom etdi. Energiya manbalarini sotib olish va ishlab chiqarishni yangilash uchun mablag‘ yo‘q edi. Dastlabki fermerlar paydo bo‘lgan bo‘lsada, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi ham qisqardi. 1994-yilda aholi jon boshiga YAIM 200 AQSH dollarigacha pasayib ketdi. Milliy valuta — avval karbovanes, keyinchalik grivna joriy etilishiga qaramasdan, inflatsiya o‘sib bordi.
Avvaliga davlat tomonidan qisqartirilgan narxlarning tartibga solinishi 60 foizga tiklandi. Ammo bu yashirin iqtisodiyotning o‘sishi va korrupsiya (mansabdorlarni pora bilan sotib olish)ning avj olishiga ta’sir ko‘rsatolmadi. 1994-yilgi oziq-ovqat narxi 1990-yildagiga nisbatan 4—5 baravar yuqori edi. YAIM ning 40 foizdan ko‘prog‘i ijtimoiy ta’minotga yo‘naltirilganligiga qaramasdan, aholining qashshoqlikda yashashi, shaxtyorlar, metallurglar va boshqa ishchilarning yirik ommaviy norozilik chiqishlariga sabab bo‘ldi.

Hukumat boshqa muammolarga ham duch keldi. Uniatlar, katolik-greklar va rim-katoliklarning diniy markazlari hamda pravoslav cherkovi muxtoriyati qatoriga undan ajralib chiqqan Ukrain pravoslav cherkovi markazi ham qo‘shildi. Ko‘pgina ruslar yashaydigan sharqiy mintaqalarda rus tiliga ham davlat tili maqomini berishni va, hatto, Ukrainaning federativ tuzumini yoqlab chiqqan harakat ham yuzaga keldi. Qrimda, uning xo‘jaligi Ukrainaning

boshqa viloyatlari bilan chambarchas bog‘liqligiga qaramasdan, ko‘pchilikni tashkil etuvchi rus aholining asosiy qismi yarim orolning Rossiyaga qo‘shilishi yoki unga mustaqillik berilishini talab qildi. Bu vaziyatni Rossiyadagi obro‘li doiralarning Qrimga, Qora dengiz floti va uning Qrimdagi bazalari, eng avvalo Sevastopolga da’vo qilishlari yanada murakkablashtirdi.
Qrimdagi ko‘pchilik ruslarning ommaviy chiqishlari 1992-yilda Ukraina hukumatini Qrimning maxsus mavqeyini tan olishga majbur etdi. Ammo keyinchalik Qrimning maxsus maqomga ega bo‘lishi uchun harakatlar bozor islohotlari tarafdorlari va kommunistlar o‘rtasidagi keskin kurash tufayli to‘xtatildi. Natijada 1995-yilda «Qrim davlatchiligi» barham topdi va viloyat hukumatiga bo‘ysundi.
Murakkab muzokaralardan so‘ng, 1994-yil boshida Ukraina, Rossiya va AQSH o‘rtasida unga SSSRdan meros qolgan raketa-yadro quroli Ukrainaga tegishli ekanligi, ularning Rossiyada zararsizlantirilishi va AQSH tomonidan ikkilamchi xomashyoning sotib olinishi to‘g‘risidagi bitim tuzildi. Bu Ukrainaga o‘zining yadro qurolidan voz kechganligini tasdiqlash va uni tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomaga qo‘shilishga imkon berdi.
Qora dengiz floti va uning bazalari hamda energiya tashuvchilarni sotib olish to‘g‘risida Rossiya bilan 1992-yilda boshlangan muzokaralar uzoq cho‘zildi va ularni nihoyasiga yetkazish boshqa prezidentga nasib etdi.
Yangi prezident umumxalq saylovlari 1994-yilning yozida bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi bosqichdagi keskin kurashdan so‘ng L. Kuchma g‘alaba qozondi. U iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mulkchilik va tadbirkorlikni qo‘llabquvvatlash hamda mamlakatning dunyo hamjamiyatida faol qatnashishi tarafdori edi.
Qiyinchiliklarni chetlab o‘tish maqsadida, L. Kuchma hokimiyat to‘g‘risidagi buyrug‘ida hukumat va uning faoliyatini prezidentga bo‘ysundirdi. Bu 1994-yilning kuzidan boshlab ko‘p yillik bozor islohotlari dasturini amalga oshirish imkonini berdi. Ammo parlamentdagi muxolifat islohot uchun zarur qonunlarning qabul qilinishiga to‘sqinlik qilardi. 1996-yilda OR qayta saylanganidan keyingina prezident natsional-liberallar va natsional-demokratlar yordami bilan yangi konstitutsiya qabul qilinishiga erishdi. Ta’lim tuzilishi va tarkibini yangilash, sog‘liqni saqlashni isloh qilish, ukrain tilini qo‘llashni kengaytirish va ukrain madaniyatini rivojlantirish faollashdi. Bu rusiyzabon aholi bir qismining noroziligiga sabab bo‘ldi.
Ukrainada o‘tkazilgan islohotlar mulkchilik va ishlab chiqarish tuzilishini asta-sekin o‘zgartirdi. 1998-yilga kelib davlat ixtiyorida barcha korxona302 larning atigi 15,4 foizi qoldi. Ularning katta qismi menejer va aksionerlar qo‘liga o‘tdi. Ammo iqtisodiyot va aholi ahvolining umuman yaxshilanishiga erishish uchun samarali mulk egalari yetishmas edi. Aholi turmush darajasining sekin o‘zgarishi, hukumat yo‘l qo‘ygan xatoliklar va korrupsiya ko‘pchilikda prezident tanlagan yo‘ldan norozilik va unga nisbatan shubha uyg‘otdi. Ammo kommunistlar va boshqa raqiblarning chiqishlariga qaramasdan, 1999-yilda Kuchma yana prezidentlikka saylandi.
Biroq 2000-yil oxirida muxolifatchi kuchlar Kuchmani va maxsus xizmatni bir jurnalistning o‘limiga daxldorlikda aybladi va mamlakatda prezident iste’fosini talab qiluvchi harakatlar yuzaga keldi. Mamlakatda uzoq muddatli va jiddiy siyosiy inqiroz boshlandi.
2004-yil oxirida prezidentlikka saylovlar nihoyatda murakkab sharoitda o‘tdi. V. Yanukovich g‘alaba qilgan birinchi saylov natijalari noqonuniy deb e’lon qilindi. Dekabrda ikkinchi marta ovoz berishda V. Yushchenko g‘alaba qildi. «Zarg‘aldoq inqilob» amalga oshdi va mamlakatda G‘arbchilar pozitsiyasi mustahkamlandi. 2005-yilda u hukumat rahbarini almashtirdi.
Ukraina bilan Rossiya o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi keng va uzoq muddatli shartnoma imzolangan va ularning 2004-yilgacha iqtisodiy hamkorligi dasturi kelishib olingan edi. Nihoyat, Rossiya Qora dengiz flotining katta qismiga egalik qildi. Ukrainadan uning ulushidagi ko‘pgina kemalarni oldi va Sevastopoldagi flot bazasini ijaraga oldi.
Yalpi ichki mahsulotning yarmini tashkil etgan tashqi qarzlardan qutulish, o‘sib borayotgan inflatsiyani bartaraf qilish uchun Ukraina hukumati Xalqaro Valuta Fondi va boshqa xalqaro tashkilotlardan yordam so‘radi. U Gruziya, Ozarbayjon va Moldova davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga harakat

qilmoqda. Qora Dengiz davlatlari tashkilotida ishtirok etmoqda. Ukraina rahbariyati YEI mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlamoqda va xavfsizlik kafolati sifatida NATOning «tinchlik uchun sheriklik» shartnomasiga amal qilmoqda.
Ukraina hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligini bozor iqtisodiga moslab rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Bu o‘rinda og‘ir sanoat, transport va energetikaga alohida urg‘u beriladi. Rossiya gazini yetkazib berishda ishkalliklar tufayli gidroenergetika va shaxta metanidan foydalanish, shuningdek, O‘rta Osiyo neftini gazoprovod orqali olib kelish rejalari tuzilmoqda. YAIM 131,2 mlrd dollarni, o‘rtacha aholi jon boshiga mahsulot yetishtirish 2829 dollarni tashkil qiladi.
Belorussiya Respublikasi
Mustaqillikka erishish va taraqqiyot yo‘lini tanlash Belorussiya uchun murakkab va qiyin bo‘ldi. Aholining 76 foizi belorus millatidan iborat bo‘lishiga qaramasdan, u SSSR ittifoqdosh respublikalari ichida eng ruslashgani edi: belorus tili, madaniyati va milliy o‘zlikni anglash chetga surib qo‘yilgan

edi. Respublika SSSR Qurolli Kuchlari uchun eng muhim platsdarm (urush maydoni) vazifasini o‘tardi.
80-yillarda faollashgan belorus tili va madaniyati, milliy o‘zlik va ruhiyat himoyachilari 1989-yilda Z. Poznyak boshchiligida Belorus xalq frontini tuzdi, kelasi yili esa bir nechta liberal-vatanparvar va liberal-demokratik kayfiyatdagi tashkilotlar ham tuzildi. Ammo ularni aholining atigi to‘rtdan bir qismi qo‘llab-quvvatladi.
Tarkibi ko‘pchilik kommunistlardan iborat bo‘lgan hukumat va Oliy Sovet aholi ehtiyojini qondirish uchun iqtisodiy mustaqillik, ya’ni xo‘jalikning respublika ixtiyoriga to‘la o‘tishini yetarli deb hisobladi. 1991-yilda Minsk shahrida Oliy Sovet tomonidan Belorussiya mustaqilligining e’lon qilinishi va Oliy Sovet Raisi S. Shushkevich tomonidan SSSRning parchalanganligi to‘g‘risidagi Belovej hujjatining imzolanishi kommunistlarning Belorussiyadagi hokimiyatini Rossiya va boshqa respublikalarda g‘alaba qilgan liberalislohotchilar hujumidan himoya qildi.
Ammo SSSR parchalanishi bilan Belorussiya sanoati buyurtmalarning 86 foizidan hamda respublikada mavjud bo‘lmagan xomashyo va energiya manbalari oqimidan mahrum bo‘ldi. SSSR harbiy platsdarmining yo‘qolishi Belorussiyani daromadning yana bir manbayidan mahrum qildi. 1992-yildayoq ishlab chiqarish 21 foizga, 1994-yilda esa 40 foizdan ko‘proqqa qisqardi. Inflatsiya halokatli tus oldi, aholi qashshoqlashdi. V. Kebich hukumati tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish orqali inqirozni bartaraf etish dasturi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1991-yilda korxonalarni xususiylashtirish va ishlab chiqarish tuzilmasini qayta qurish boshlandi, keyinchalik «shoksiz bozor munosabatlariga o‘tish» dasturi taklif qilindi. Ammo buni amalga oshirish uchun mablag‘ topilmadi.
Oliy Sovet raisi S. Shushkevich bo‘hton va ayblovlar bilan vazifasidan chetlashtirilgandan so‘ng, 1994-yilda prezidentning umumxalq saylovlari orqali saylanishini ko‘zda tutgan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Saylovlarning ikkinchi bosqichida «men o‘nglar bilan ham, so‘llar bilan ham emas, balki xalq bilan birgaman» deb bayon qilgan A. Lukashenko g‘alaba qozondi. U korrupsiyaning oldini olish va Rossiya bilan birlashish orqali farovonlikka erishishni va’da qildi.
Keyinchalik may oyida (1994) Lukashenko yangi parlament saylovlari bilan birgalikda referendumni ham o‘tkazdi. Bu referendum oldingi davlat ramzlarini (belgilarni) qaytardi, rus tilini hali o‘z mavqeyiga ega bo‘lishga ulgurmagan belorus tiliga tenglashtirdi, Rossiya bilan qo‘shilishni ma’qulladi va, eng asosiysi, prezidentning parlament ustidan hukmronligini ta’minladi. Faqatgina dekabr oyiga kelib yakunlangan parlament saylovlari natijalari muxolifatni bostirish va islohotlarni to‘xtatishga urinayotgan Prezidentga ma’qul emas edi. Hukumat kolxoz va sovxozlar tizimining uchdan ikki qismi kasod bo‘lish holatida ekanligiga qaramasdan, ularni saqlab qoldi. Prezident endigina boshlanayotgan xususiylashtirishni to‘xtatdi, iqtisodiyot

davlat tomonidan boshqarilishini va narxlar tartibga solinishini kuchaytirdi,

tadbirkorlikni butunlay to‘xtatdi. Rossiyadan imtiyozli narxlar bilan energiya resurslarining sotib olinishi hukumatga ishlab chiqarishni o‘stirish va qashshoqlikni barqaror saqlashga imkon berdi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli og‘irligicha qolmoqda edi. Hukumat prezident tanlagan yo‘lga qarshi turuvchilarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo‘ldi.

Lukashenko o‘z hokimiyatini kuchaytirish maqsadida 1996-yilda referendum o‘tkazish yo‘li bilan ham parlament, ham konstitutsion sud vakolatlarini cheklashga erishdi. U parlamentdan muxolifat vakillarini chetlashtirdi va o‘z vakolatlarini uzaytirishga erishdi. Bu voqealar va qatag‘onlarning kuchayishi Belorussiyada avtoritar tuzum shakllanishiga olib keldi. Parchalangan milliy-demokratik muxolifat kuchlari hech qanday ta’sirga ega bo‘lmay qoldi.

Avtoritarizm yo‘li bilan mamlakatning «bo‘ysunuvchanligi»ga erishish hukumatga 2000-yilda korxonalarni xususiylashtirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, soliq tizimini isloh qilish, eksportni yanada rivojlantirishga qaratilgan besh yillik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish Dasturini qabul qilish imkonini berdi. Ammo og‘ir moliyaviy-iqtisodiy ahvol uni amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

1997-yil bahorida Belorussiya va Rossiya o‘rtasida ikkala davlat Hamdo‘stligini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma, 1999-yil oxirida esa har bir mamlakat o‘z suverenitetini saqlab qolgan holda dualistik davlat tuzish to‘g‘risida ittifoq shartnomasi imzolandi. Lukashenko Rossiya tomonidan hech qanday shartlarsiz Belorussiya qarzlarining katta qismidan voz kechilishiga va Rossiyadan xomashyo hamda energiya resurslarini imtiyozli narxlarda olib turishga muvaffaq bo‘ldi.

Ammo kelishuvlarning amalga oshirilishini ikkala mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning sustligi va iqtisodiyot hamda siyosiy tuzumning keskin farq qilishi murakkablashtirmoqda. Rossiya va Belorussiya hukumatlari bajarish amri mahol bo‘lgan ishga qo‘l urgan: ular turli mafkuraviysiyosiy tuzumga ega davlatlar konfederatsiyasini tuzmoqchilar.

Belorussiyada 2006–2010-yillarga mo‘ljallangan rejada asosan kichik o‘rta korxonalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. 2007-yilda yillik o‘sish 8 foizni tashkil qildi. Import eksportga nisbatan yuqori (2,5 mlrd dollar). Eksportning asosini neftni qayta ishlash mahsulotlari tashkil qiladi. 2007-yilga kelib eng kam ish haqi 81,1 dollarni, yosh bo‘yicha o‘rtacha pensiya 160 dollarni tashkil etdi. 40 mingdan ortiq malakali ishchilar va 3 mingdan ortiq injener-texnik xodimlar metallurgiya sanoatida ishlaydi. Metallurgiya bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishda 2006-yilda Belorussiya MDH mamlakatlari ichida to‘rtinchi o‘rinni egallaydi. Belorussiya territoriyasidan g‘arbga Rossiyaning katta neft va gaz quvurlari o‘tadi va Rossiyaning 27 foiz gazi Belorussiya orqali eksport qilinadi.

KAVKAZORTI RESPUBLIKALARI MUSTAQILLIGINING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHI

80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Kavkazorti SSSRda milliy-ozodlik harakatlari faolligi bo‘yicha ikkinchi mintaqaga aylandi.

Ular tanlagan yo‘l SSSRning boshqa respublikalari tanlagan yo‘llardan keskin farq qilardi. Bu respublikalarda yangi davlatchilikning shakllanishi va taraqqiyoti juda murakkab kechdi, uzoq muddatli va keskin to‘qnashuvlarga sabab bo‘ldi.

Gruziya Respublikasi

1985—1989-yillar davomida gruzin madaniyati va mamlakat mustaqilligining tiklanishi uchun kurashuvchi yig‘inlar va namoyishlar o‘tkazgan yuzdan ortiq turli tashkilotlar va guruhlar paydo bo‘ldi. Tbilisi shahrida 1989-yil 9-aprelda bo‘lib o‘tgan ko‘p ming kishilik miting qatnashchilariga sovet qo‘shinlarining hujum qilishi oqibatida ko‘plab tinch aholining halok bo‘lishi butun mamlakatning g‘azabini qo‘zg‘atdi va junbushga keltirdi.

1989-yilning kuzida Milliy ozodlik qo‘mitasi tashkil qilindi. Kommunistik rahbariyatning obro‘si va ta’siri ildiziga bolta urildi. Sentabr oyida umumxalq so‘rovida fuqarolarning 89 foizi mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi.

1991-yil aprel oyidagi referendum natijalari asosida Oliy Kengash Gruziya mustaqilligini va 1921-yilgi konstitutsiyani qayta tikladi. May oyida umumxalq

ovoz berish yo‘li bilan Gamsaxurdiya Gruziya Prezidenti etib saylandi. Mamlakatda sovetlar (kengashlar) va sobiq ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bekor qilindi. Boshqaruv, xo‘jalikni liberallashtirish va demokratlashtirish boshlandi. Ammo hukumat va xalqning diqqat-e’tiborini bu o‘zgarishlar chog‘ida yuzaga kelgan to‘qnashuvlar chalg‘itdi.

1990—1991-yillarda Gorbachyov tomonidan o‘tkazilgan tazyiqqa javoban Gamsaxurdiya SSSR bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Bu esa tang ahvoldagi iqtisodiy vaziyatni yana og‘irlashtirdi. Buyurtmalar, energiya manbalari va xomashyoning yo‘qligi ishlab chiqarishni falajlantirdi. Ilgarigi qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozoridan mahrum bo‘lish aholi turmush darajasini pasaytirib yubordi.

Ittifoq maxsus xizmatlarining ko‘magi va yordamida Janubiy Osetiya va Abxaziya Avtonom Respublikalaridagi osetinlar va abxazlar 1989-yildan boshlab SSSR bilan aloqani uzishga qarshi kurash boshladi. Osetiyaliklar o‘z hududlarini avtonom respublika deb elon qilishgan bo‘lsa, abxaziyaliklar Abxaziya suverenitetini e’lon qilishdi. Bunga javoban Gruziya parlamenti Janubiy Osetiyani muxtoriyatdan mahrum qildi va u yerga ayirmachilar bilan jang qilish uchun gruzin qurolli kuchlarini jo‘natdi. Ko‘pchilik aholi yashash joylarini tark etdi. Keyinchalik Rossiya tinchlikparvar kuchlari

yordamida urushlar to‘xtatildi, ammo bu muammoning siyosiy yechimi hozirgacha topilgani yo‘q.

Gamsaxurdiya tarafdorlari bo‘lgan qurollangan guruhlar aholisining asosiy qismi gruzin bo‘lgan Abxaziyaga ham kiritildi. Ammo V. Ardzinba rahbarligidagi abxaziya separatistlariga sovet qo‘shinlari yordam berayotgan edi. Bu 1991-yil kuzida Gruziya hukumatini ular bilan kelishuvga majbur etdi. Unga ko‘ra, Abxaziya Oliy Kengashida aholining atigi 17 foizini tashkil etgan abxazlarga 28 o‘rin, 46 foiz aholini tashkil etgan gruzinlarga atigi 26 o‘rin, boshqa millat vakillariga esa jami 11 o‘rin nasib etdi. Bu fuqarolarning huquqi qaysi millatga mansubligiga ko‘ra belgilanishiga sabab bo‘ldi va Abxaziyada etnokratiya (alohida millat hukmronligi) o‘rnatilishiga olib keldi. Gamsaxurdiya xatolarining og‘ir oqibatlari mamlakat aholisi katta qismining noroziligiga sabab bo‘ldi. O‘z qurolli guruhlariga ega bo‘lgan muxolifatchilar hukumat harakatlarini puchga chiqarardi. 1991-yil 22-dekabrda esa ular Tbilisidagi hukumat binolariga hujum qilib, Gamsaxurdiyani Armanistonga qochishga majbur qildi. 1992-yil 2-yanvaridan boshlab Tbilisida hukumat Gamsaxurdiya raqiblari tomonidan tuzilgan Harbiy Sovet qo‘liga o‘tdi. Yangi hukumat Gamsaxurdiya konstitutsiyasini bekor qildi, parlamentni tarqatib yubordi va favqulodda holat joriy qildi.

Yangi rahbariyat mamlakatni boshqarish uchun gruzinlar orasida mashhur bo‘lgan E. Shevardnadze nomzodini taklif qildi. Ular, ya’ni bir-biri bilan kelishmaslikka harakat qilayotgan kuchlar bu vaziyatdan foydalanmoqchi bo‘lishdi, ammo ularning barcha umidlari puchga chiqdi. Gamsaxurdiyaning o‘zi Chechenistonga qochib ketdi va u yerda halok bo‘ldi. Shu bilan birga Demokratik ittifoq yordami bilan Shevardnadze 1992-yildayoq Harbiy Sovet o‘rniga Davlat Sovetini tuzdi, boshqaruv organlari, qurolli kuchlar, flot va chegara qo‘shinlarini tuzish ishlarini boshladi. Gruziya o‘zini zarur qurollar bilan ta’minlab turgan Rossiya bilan aloqani tikladi. Gruziya mustaqilligi o‘nlab mamlakatlar tomonidan e’tirof etildi. Mustahkamlanib olgan hukumat keng tus olgan fitnalarning va Shevardnadzedan norozi bo‘lgan rahbarlarning isyonlarini bartaraf etdi.

Gruziya davlatchiligini mustahkamlash maqsadida Shevardnadze va uning tarafdorlari 1995-yil yozida yangi konstitutsiyani qabul qildi. Noyabr oyida yangi parlament saylandi va unda Gruziya fuqarolar Ittifoqi, Tiklanish ittifoqi va Milliy-demokratik partiya ko‘pchilik o‘rinlarga ega bo‘lishdi. Prezident etib Shevardnadze saylandi. Raqiblarning fitna va suiqasdlariga va qiyinchiliklarga qaramasdan, hokimiyat kuchaya bordi va 2000-yilda Shevardnadze yana Prezident etib saylandi. Hokimiyatning mustahkamlanishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga imkon berdi. 1998-yilga kelib davlat ixtiyoridagi mulkning 76 foizi, jumladan, barcha korxonalarning 90 foizi asosan menejerlar, hissador-investorlar va xususiy tadbirkorlar qo‘liga

o‘tdi, yerlarning uchdan ikki qismi xususiy mulkka aylandi. Gruziya milliy valutasi — lori joriy qilindi. Ammo investitsiya va energiya manbalari tanqis edi, tashqi qarzlar ko‘payib bordi.
307
Mamlakatda 1990-yilga nisbatan to‘rt baravar kam mahsulot ishlab chiqarildi. Xo‘jalikni oyoqqa turg‘azish nihoyatda qiyin kechdi. Aholi turmush darajasi pastligicha qoldi. Gruziyaning turli mintaqalaridagi taraqqiyot darajasining turlichaligi joylarda, ayniqsa, muxtor Adjariyada mahalliychilikni keltirib chiqardi.
Abxaziyada separatistlar Gamsaxurdiya tarafdorlari mag‘lubiyatidan foydalanib, 1992-yilda Abxaziyani suveren davlat deb e’lon qilgan eski konstitutsiyani tikladi. Abxaziya tomonidan mustaqillik e’lon qilinishiga javoban Shevardnadze u yerga hali to‘liq shakllanmagan Gruziya qo‘shinlarini kiritdi. Ammo sal o‘tmasdan abxaz qurolli otryadlari Checheniston va boshqa ko‘ngilli qo‘shinlar yordamida yana hujumga o‘tdi. Rossiya harbiylarining norasmiy aralashuvi bilan ular 1992-yil kuzigacha Abxaziyadan gruzin qo‘shinlarini siqib chiqarib, Suxumi shahrini ishg‘ol qildi. Ammo dunyodagi birorta davlat Abxaziya mustaqilligini tan olgani yo‘q.
2003-yilning oktabrida Gruziyada parlament saylovlari bo‘lib o‘tdi. Saylovlarning soxtalashtirilganidan norozi bo‘lgan demokratik kuchlar — Mixail Saakashvili boshchiligidagi Milliy Birlik Harakati va Nino Burjanadze boshchiligidagi Demokratik blok norozilik namoyishlarini boshladi.
2003-yilning 22-noyabrida oppozitsiya kuchlari parlament binosini egalladi va E. Shevardnadzening iste’foga ketishini talab qildi. 23-noyabrda prezident E. Shevardnadze bilan oppozitsiya liderlari o‘rtasida Rossiya tashqi ishlar vaziri I. Ivanov vositachiligida muzokara bo‘lib o‘tdi. Shundan keyin E. Shevardnadze o‘zining iste’foga chiqqanligini ma’lum qildi. Prezidentlik vazifasini vaqtincha Nino Burjanadze o‘z qo‘liga oldi. Shunday qilib, Gruziyada, hokimiyat almashuvi («atirgul inqilobi») qon to‘kishlarsiz g‘alaba qildi va 2004-yilning yanvar oyida prezidentlikka saylovlarda M. Saakashvili g‘alaba qildi.
Gruziya hukumati AQSH va YEI mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlamoqda. Gruziyaga xorijiy kredit va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ozarbayjon bilan birgalikda Transkavkaz neft quvuri loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu yo‘l bilan uning energiya manbalariga tanqisligini bartaraf etishga yordam berish kutilmoqda. O‘z xavfsizligini mustahkamlash maqsadida Gruziya NATO bilan hamkorlikni kengaytirmoqda.
Gruziya hozirgi paytda iqtisodi agrar-postindustrial yo‘nalishdagi mamlakatdir. Sanoat mustaqillik yillarida deyarli o‘z faoliyatini to‘xtatdi. 90-yillarda deyarli barcha katta korxonalar yopildi. Bunga mamlakatdagi notinchlik ham sabab bo‘ldi. Hozir oziq-ovqat va energetika sanoati ishlab turibdi. Qishloq xo‘jaligida 40 foiz aholi shug‘ullanadi va lekin yetishtirilgan mahsulot YAIM ning 17 foizini tashkil qiladi. Gruziya 2008-yil avgustda Janubiy Osetiyaga qarshi hujum qildi.
308
Armaniston Respublikasi
1988-yil fevralidagi qudratli arman milliy harakatiga Ozarbayjondagi voqealar turtki bo‘ldi: Tog‘li Qorabog‘ aholisining 70 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etgan armanlarning ozarbayjonlik rahbarlar o‘zboshimchaligiga qarshi noroziliklari va armanlarning Sumgaitdagi Ozarbayjon millatchi ekstremistlariga qarshi ommaviy chiqishlari bunga misol bo‘ladi. Aybdorlarni jazolash talabi va noroziliklar bilan yuz minglab odamlar chiqishdi. Armaniston vatanparvarlari arman xalqini himoya qilish uchun «Qorabog‘» qo‘mitasini tashkil qildi. Aholi kimyoviy korxonani va seysmik halokati butun xalqni yo‘q qilishi mumkin bo‘lgan AESni to‘xtatishga erishdi. SSSR hukumatining yer qimirlashdan zarar ko‘rgan aholiga katta yordam ko‘rsatishiga qaramasdan, xalq ommasining katta qismi Tog‘li Qorabog‘ning Armanistonga berilishini rad etgan sovet hukumatining qaroridan g‘azabga kelib, respublika mustaqilligini tiklashni talab qilib chiqdilar. 1990-yil aprel oyida Oliy Sovetga saylovlarda Armaniston umummilliy harakati g‘alaba

qozondi. Hokimiyat milliy demokratlar qo‘liga o‘tdi. Ularning yetakchisi A. Ter-Petrosyan Oliy Sovet raisi etib saylandi.
1990-yil avgust oyida Oliy Sovet Armaniston mustaqilligi to‘g‘risida siyosiy bayonot berdi. Ma’muriy-huquqiy tizimning yangilanishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni boshlagan konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. 1991-yil yozida prezidentlik lavozimi joriy etilgandan so‘ng, unga A. Ter-Petrosyan saylandi. Sentabr oyida, umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra, Oliy Sovet Armaniston Respublikasining SSSR tarkibidan chiqishi haqida bayonot berdi.
1991-yildagi Tog‘li Qorabog‘ poytaxti — Stepanakert uchun bo‘lib o‘tgan shafqatsiz urushlardan so‘ng arman-qorabog‘ qo‘shinlari dushman qo‘shinlarini ancha ortga surib, Ozarbayjonning katta hududini ishg‘ol qildi. Ammo Ozarbayjon aloqa tarmoqlari va energiya manbalari oqimini kesib, Armaniston va Tog‘li Qorabog‘ni blokada qilib qo‘ydi.
Xomashyo, energiya manbalari va xorijiy bozorlarning yo‘qligi sababli Armaniston sanoati to‘xtab qoldi va qishloq xo‘jaligi samaradorligi pasaydi. 1994-yilga kelib uning YAIM 75 foizga qisqardi. Bu paytda yer qimirlash asoratlari to‘la bartaraf qilingani yo‘q edi. Tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan va Ozarbayjondan kelgan yuz minglab qochoqlar vaqtinchalik yotoq joylarda yashamoqda edi. Boshqa mahsulotlar u yoqda tursin, oziq-ovqat va yonilg‘i ham yetishmas edi. Hayot manbayini topolmagan 800 ming kishi muhojir bo‘ldi. Ulkan insonparvarlik yordami va boy mamlakatlar kreditlari hamda diasporaning sahovatli yordami bo‘lmaganda, minglab kishilar halok bo‘lishi turgan gap edi. YEI 1991—1996-yillar davomida Armanistonga 340 mln dollarlik yordam jo‘natdi. XVF bir necha yillar davomida Armaniston budjet xarajatining 45 foizini qoplab keldi. Jahon banki 260 mln dollarlik maqsadli kreditlar ajratdi.

Hukumat qiyinchiliklarga qaramasdan, xorijiy yordam tufayli islohotlar o‘tkazdi. Oliy Sovetda respublika tizimi to‘g‘risida bo‘lib o‘tgan o‘tkir munozaralardan so‘ng 1995-yilda referendum orqali yangi konstitutsiya qabul qilindi.
Armanistonda milliy valuta — dram (diram) joriy qilindi va, mamlakat tashqi qarzlari milliard dollardan oshganiga qaramasdan, uning barqarorligiga erishildi. Sanoat va yerni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida 1998-yilga kelib korxonalarning 70 foizi xususiylashtirildi va xususiy yerlarda 350 ming xo‘jalik yuzaga keldi. Asbob-uskunalar eskirganligi, energiya manbalari, xomashyo, o‘g‘it va mashinalar yetishmasligi sababli ularning unumdorligi nihoyatda past edi. Elektr energiya ishlab chiqarishni oshirish maqsadida hukumat seysmik jihatdan xavfli bo‘lgan AESni qayta ishga tushirishga majbur bo‘ldi. 1994-yildan boshlab ishlab chiqarishning o‘sishi boshlandi va u 90-yillarning oxiriga kelib yiliga 10 foizdan ortiq bo‘ldi. 1996-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi jonlana boshladi.
1996-yilda prezidentlikka qayta saylangan L. Ter-Petrosyanning Tog‘li Qorabog‘ masalasida yon berishga moyilligidan norozi bo‘lgan harbiylar va muxolifatchi kuchlar tazyiqi ostida u 1997-yilda iste’foga chiqdi. Keskin kurash natijasida ilgari Tog‘li Qorabog‘ni, keyinchalik Armaniston hukumatini boshqargan R. Kocharyan Prezident etib saylandi.
Prezident tuzumni barqarorlashtirish va Armanistonning xalqaro pozitsiyasini mustahkamlashga urinmoqda. Turli muxolif guruhlarning davom etayotgan chiqishlari mamlakat rivojlanishini orqaga surmoqda.
Armaniston uchun uning MDH va YEXHTda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. RF bilan yaqin hamkorlik iqtisodiyotning rivojlanishi va xavfsizlikning ta’minlanishiga yordam beradi. Armaniston eng ilg‘or mamlakatlar bilan hamda Eron bilan aloqalarni kengaytirmoqda. Turkiya bilan o‘zaro aloqalarni normallashtirishga urinmoqda. Ozarbayjon va YEXHT bilan muzokara yuritib, Tog‘li Qorabog‘ manfaatlarini himoya qilish yo‘llarini izlashga harakat qilmoqda.
Armanistonda hozirgi paytda iqtisod ancha jonlanmoqda. Qishloq xo‘jaligi iqtisodning o‘rtacha 20 foizini tashkil qiladi. Ozarbayjon va Turkiya bilan ahvol yaxshilanib ketmayapti. 2003-yilda Armaniston Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘ldi. 2008-yilga kelib YAIM 22,4 mlrd dollarni, aholi jon boshiga esa 6312 dollarni tashkil etdi, ayni paytda Ozarbayjonda – 6476, Turkiyada

10380 dollardir. Mamlakat importi eksportga nisbatan 1,5 mlrd dollarga ko‘pdir. Hozir mamlakat prezidenti lavozimida S. Sarkisyan ishlamoqda.

Ozarbayjon Respublikasi

1989-yilda Ozarbayjon hukumati SSSR xalq deputatlari syezdiga hali ko‘pchiligi sovet tartibotini saqlash tarafdori bo‘lgan deputatlarni jo‘natishi mumkin edi. Ammo yil oxiriga borib Tog‘li Qorabog‘dagi qurolli to‘qnashuvlar

keskinlashdi. Mamlakatning turli mintaqalarida aholining 8 foizini tashkil etgan armanlarning chiqishlari kuzatildi. Bokuda esa millatchilar, liberallar va demokratlar kompartiyaga muxolif bo‘lgan Xalq frontini tashkil qildi. U tezda katta ta’sirga ega bo‘ldi.

1989-yil kuzidan boshlab Ozarbayjon suvereniteti va liberal islohotlarni talab qilgan Xalq fronti qudratli namoyishlar va mitinglar qildi. 1990-yil boshida u muqobil hokimiyat organlarini va o‘z qurolli otryadlarini tuzdi, huquq-tartibot organlarini boshqarishga harakat qildi.

Hokimiyatning Xalq fronti qo‘liga o‘tmasligi uchun SSSR Oliy rahbariyati 20-yanvarga o‘tar kechasi Bokuga sovet qo‘shinlarini kiritib, Xalq fronti va norozilik ko‘rsatgan aholi bilan ayovsiz kurash olib bordi. Yuzlab odamlar o‘ldirildi, yarador qilindi. Ommaviy chiqishlar bekor qilindi va favqulodda holat joriy qilindi. Kompartiya rahbariyati shuning evaziga hokimiyatni saqlab qoldi.

Ozarbayjon 1991-yil avgust oyi oxirida mustaqillik to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qildi. Dekabr oyida Ozarbayjonning MDHda ishtirok etishiga rozilik bildirishi kommunistlar hukumatning umrini uzaytirdi. Ishlab chiqarishning pasayishi va narx-navoning ko‘tarilishi 1992-yil bahoriga kelib aholi katta qismining va Tog‘li Qorabog‘dan kelayotgan qochoqlarning ahvolini og‘irlashtirdi. M. Mutalibov rahbarlik qilayotgan kommunistlar hukumatidan norozilik ommaviy tus oldi. Mart oyida bu hukumat ag‘darildi. Ammo raqiblar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar Mutalibovga may oyida yana hokimiyatga qaytishga imkon berdi. Biroq ikki kun o‘tgandan so‘ng bu hukumat Xalq fronti va «Kulrang bo‘rilar» tashkiloti kuchlari tomonidan ag‘darib tashlandi.

Umumxalq saylovlarida mamlakat prezidentligiga o‘zini «Otaturk askari» deb atagan milliy-demokrat A. Elchibey saylandi. Uning hukumati narxlarni liberallashtirdi va yangi valuta — manatni joriy qildi, ammo islohotlarni davom ettirishdan cho‘chib turdi. Asosiy e’tibor sovet qurollari zaxirasiga ega bo‘lgan qurolli kuchlarni shakllantirish va ularning turk murabbiylari tomonidan tarbiyalanishiga qaratildi.

Biroq 1992-yilda iqtisodiy-ijtimoiy ahvolning yomonlashuvi, frontdagi mag‘lubiyat va Tog‘li Qorabog‘ o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan keyin kuchaygan turli mahalliy urug‘-aymoqlarning ig‘volari, muxolif partiyalarning kuchayishi, talish va lezgin ayirmachilarining faollashuvi hamda Xalq Frontidagi kelishmovchiliklar Elchibey hokimiyati susayishiga olib keldi.

Yozda Ganja shahrida frontdagi mag‘lubiyati uchun Prezident bergan tanbehlardan g‘azabga kelgan polkovnik S. Guseynov o‘z polkida isyon ko‘tardi va prezidentning iste’foga chiqishini talab qilib, Bokuga yurish qildi. Elchibey qarshilik ko‘rsatishdan cho‘chidi va sobiq kommunistlar yetakchisi G. Aliyevdan yordam so‘rab, poytaxtdan qochdi.

1990-yilda sovet qo‘shinlarining Bokuga kiritilishidan noroziligini namoyish qilib, KPSS safini tark etgan G. Aliyev o‘sha paytda o‘z ona yurti Naxichevan avtonom viloyatida edi. U Yangi Ozarbayjon milliy-demokratik partiyasiga tayanardi. G. Aliyev Bokuga kelib, Guseynov bilan kelishuvga erishdi. Guseynov hukumat boshlig‘i bo‘lishga rozi bo‘ldi, Aliyev esa parlament raisi etib saylandi. 1993-yilda G. Aliyev Milliy-liberal dasturi bilan chiqdi va, Tog‘li Qorabog‘ni Ozarbayjonga qaytarib olish va’dasini bergandan keyin, u umumxalq saylovlarida Ozarbayjon Prezidenti etib saylandi.

Fitnalarga aralashgan Guseynov o‘z vazifasidan chetlashtirildi va sud javobgarligiga tortildi. G. Aliyev va uning yangi hukumati ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning tarqoqligini va qayta guruhlanishini bartaraf etdi.

1995-yil noyabrida referendum yo‘li bilan yangi konstitutsiya qabul qilindi.

Unda Ozarbayjon demokratik huquqiy dunyoviy respublika deb e’lon qilindi. Qirqqa yaqin partiyalar ishtirok etgan majlis saylovlarida o‘rinlarning 45 foizini Yangi Ozarbayjon partiyasi egalladi. Siyosiy barqarorlikni 1998-yilda Aliyevning yana prezident etib saylanishi mustahkamladi.
Hukumat o‘rta va oliy ta’lim tuzilishi hamda mazmunini yangiladi, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qildi. Sud-huquq tizimi qayta qurildi va jinoyatchilikka qarshi kurash kuchaytirildi. Kaspiyning ifloslanishiga qarshi choralar ko‘rildi.
Bularning amalga oshirilishiga ulkan harbiy xarajatlar (budjetning 50—70 foizi) va iqtisodiyotning og‘ir ahvolda ekanligi salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1994-yilda hukumat erkinlashtirish va xo‘jalikni davlat tasarrufidan chiqarishga urinib ko‘rdi.
1995-yildan boshlab, XVFga tayanib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish choralari amalga oshirila boshladi. Tuzilmaviy islohotlar o‘tkazilishini Jahon banki moliyalashtirdi. Eng rivojlangan mamlakatlardan katta kreditlar olishga va Turkiya hamda Eron bilan hamkorlikni kengaytirishga erishildi. Ozarbayjonning MDHga qaytishi uning hamdo‘stlik mamlakatlariga eksport ko‘lamini oshirdi.
1996—1997-yillarda shu paytgacha muttasil qisqarib kelgan YAIMni barqarorlashtirishga erishildi. XVFning yordami manatni kuchaytirish va xorijiy investitsiya hamda texnologiyalarni jalb qilishga imkon berdi. Dunyodagi eng yirik xalqaro korporatsiyalar bilan kimyoviy, metallurgiya, elektrotexnika va mashinasozlik sanoatining rivojlanishini ta’minlaydigan «asr shartnomasi »ning tuzilishi 1990—1995-yillar mobaynida ikki baravarga qisqarib ketgan neft qazib olishni ko‘paytirish imkonini berdi. Ozarbayjon neft quvuri Gruziya va Turkiya orqali Yevropaga o‘tkazilishiga umid qilmoqda.
90-yillarning oxirida inflatsiya cheklandi va ishlab chiqarish jonlana boshladi. 2003-yilgi prezident saylovlarida G. Aliyevning o‘g‘li Ilhom Aliyev prezidentlikka saylandi.
Ozarbayjon ko‘pgina xalqaro tashkilotlar, jumladan, 10 ta Osiyo mamlakatlari (Pokiston, Afg‘oniston, Eron, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari)

iqtisodiy hamkorlik tashkilotida hamda YEXHTda ishtirok etib kelmoqda.
U YEI va NATO bilan hamkorlik qilmoqda. Armanistonga qarshi uni qo‘llab-quvvatlayotgan Turkiya bilan yaqin aloqada. MDHda Gruziya, Ukraina va Turkmaniston bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga urinmoqda hamda Tog‘li Qorabog‘ni qaytarishni qo‘llab-quvvatlovchilarni izlaydi. Ozarbayjon hukumati Rossiya Federatsiyasi tomonidan Armanistonga qurol-aslaha berilishidan norozi va Tog‘li Qorabog‘ning taqdiri belgilanadigan xalqaro muzokaralarda Tog‘li Qorabog‘ni qatnashchi sifatida tan olmaydi.
Hozirgi vaqtda Ozarbayjon agrar-industrial mamlakat bo‘lib, qazib olish sektori nihoyatda rivojlangan. Iqtisodning o‘sishi 1996-yilda YAIM ning o‘sishi bo‘yicha jahon rekordini qo‘ydi – 36,6 foiz. 2007-yilga kelib YAIM 31,6 mlrd dollarni, aholi jon boshiga esa 6476 dollarni tashkil etdi. Ozarbayjon eksportining 90 foizini neft tashkil etadi. 1 mlrd tonna neft zaxiralari bor. 2008-yilda sutkasiga 1,0 mln barrel qazib chiqarish mo‘ljallangan. 2007-yilda 10,4 mlrd kubometr gaz qazib chiqardi. Mamlakatda yollanib ishlaydigan ishchilarning o‘rtacha ish haqi 196 dollarni tashkil etadi.

35-§. Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyot yo‘llarining turli-tumanligi

Markaziy Osiyo respublikalari SSSRning Yevropa qismidagi va Kavkazorti respublikalaridan etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy jihatdan katta farq qilardi. Ulardagi turmush darajasining boshqa ittifoqdoshlariga nisbatan pastligi va aholi o‘sishining yuqoriligi konformizm (befarqlik, loqaydlik)ning hukmron bo‘lishiga xalaqit berolmas edi. Ulardagi sanoat qoloqroq va tarqoqroq edi. Yakka hokimlik (monokultura)ga asoslangan qishloq xo‘jaligi ittifoq markazi uchun xomashyo tayyorlab berishga moslashtirilgan edi. Islom dini va urug‘-aymoqchilik ta’siri kuchliligicha qoldi. Ko‘p asrlik madaniyat va milliy o‘zlikni anglashga avval Chor Rossiyasi, so‘ngra Sovet mustabid tuzumi amalga oshirgan ommaviy qatag‘onlar, yozuvning o‘zgartirilishi va etnik chegaralarning yopilishi yordamida misli ko‘rilmagan darajada zarar yetkazildi.

O‘xshash taqdirlar va sovetcha «tenglashtirishga» qaramasdan, 80-yillarda bu respublikalardagi ahvol turlicha edi va ularning taraqqiyot yo‘li ham birbiridan keskin farq qilardi. Tojikistonda «real sotsializm»ni saqlab qolishga urinishdan tortib, Qirg‘izistonda liberal-demokratik islohotlarning o‘tkazilishigacha, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish usulidan tortib, Qozog‘istonda «boshqariladigan demokratiya» orqali iqtisodiyotni erkinlashtirishgacha va Turkmanistonda milliy-totalitar tuzumning barpo etilishigacha bo‘lgan yo‘llarni ko‘rish mumkin. Vaqtincha iqtisodiyot samaradorligining yetarli emasligi, aholi turmush darajasining rivojlangan davlatlarga nisbatan pastligi va yangi davlatchilikni shakllantirish qiyinchiliklaridan foydalanib qolmoqchi bo‘lgan, mustaqil taraqqiyotni ko‘rolmagan

tajovuzkor, hokimiyatparast kuchlar Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonda agressiv islom fundamentalizmi va ekstremizmi hamda xalqaro terrorizmning konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faollashuviga sabab bo‘ldi.

Qozog‘iston Respublikasi

Markaziy Osiyoning hudud jihatidan eng yirik respublikasi — Qozog‘istonda uchta urug‘ ittifoqi — juzlarga bo‘linishni yo‘qotmagan qozoqlar aholining 40 foizini tashkil etadi. Asosan respublika shimolida yashovchi ruslar ham aholining 40 foizini, ukrainlar, nemislar, o‘zbeklar, qirg‘izlar, tatarlar, uyg‘urlar qolgan 20 foizini tashkil etadi.

1986-yilda Olmaotada ittifoq markazi ko‘rsatmasiga ko‘ra respublika va kompartiya rahbariyatining o‘zgarishiga qarshi ommaviy norozilik qozoqlarda milliy o‘zlikni anglash tiklanishining cho‘qqisi bo‘ldi. Norozilik qatnashchilarining shafqatsiz jazolanishi ko‘pchilikning g‘azabini qo‘zg‘atdi. Shu bilan birga, Qozog‘iston hududida yadro sinovlari o‘tkazilishi va ularning oqibatlariga qarshi harakat kuchaya boshladi. Qozoq aholi ichida qozoq tilining ilgarigi mavqei va yozuvining tiklanishi, qozoq xalqi tarixi, madaniyati va dinining o‘rganilishi va tiklanishi to‘g‘risidagi talablar ommaviylashdi.

1989-yil bahoridagi SSSR Xalq deputatlari syezdida qatnashgan respublika vakillari sovet tuzumini saqlab qolish tarafdorlaridan iborat edi. Kuzda Oliy Sovet qozoq tilini davlat tili, rus tilini millatlararo so‘zlashuv tili, deb e’lon qildi.

Kompartiya rahbari N. Nazarboyev respublika ko‘p millatli jamiyati birligini va Gorbachyovning SSSRni saqlab qolishga urinishlarini qo‘llab-quvvatladi. Oliy Sovet 1990-yil bahorida uni Prezident etib sayladi, oktabrda esa, qarshiliklarga qaramay, Qozog‘iston suverenitetini e’lon qildi. Hukumat 70 foizi ittifoq markazi ixtiyorida bo‘lgan barcha zaxiralarni respublika mulkiga aylantira boshladi. Moskvadagi avgust to‘ntarishini (xuntasini) respublika rahbariyati jimlik bilan kutib oldi, so‘ngra hukumat amalda tarqalib ketgan kompartiya mulkini milliylashtirdi.

Qozoq va rus xalqlarini hamjihatlikka va Rossiya bilan yaqin aloqalarni saqlab qolishga chaqirgan Nazarboyev 1991-yil oxiridagi umumxalq saylovlarida yana Prezident etib saylandi. Ammo Oliy Sovet Qozog‘iston mustaqilligi to‘g‘risida hammadan keyin — 1991-yil 16-dekabrda deklaratsiya qabul qildi.

Davlatchilik shakllanishi uchun bir necha yil kerak bo‘ldi. 1993-yil boshlarida Oliy Sovet qabul qilgan Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida prezidentga keng vakolatlar berilishi va konstitutsion sud tashkil qilinishi belgilangan edi. Ammo unda aholining milliy tavofutlari, islohotlar kelajagi hisobga olinmadi va sovet (kengashlar) tizimi saqlab qolindi. 1993-yilning oxiridayoq Nazarboyev boshchiligidagi rahbariyat bu konstitutsion tizimning

yangi muammolarini hal etish uchun yetarli emasligini fahmlab yetdi. Sovetlarning o‘z-o‘zidan tarqalib ketishiga 1993-yil kuzida Rossiyada ro‘y bergan voqealar turtki bo‘ldi. Qozog‘istonda sovetlarning tarqalib ketishiga hech kim qarshi chiqmadi — «tinchgina davlat to‘ntarishi» ro‘y berdi.

1994-yil mart oyidagi yangi qonun chiqaruvchi organ saylovlari urug‘-aymoqlar va guruhlar tomonidan qonunlarning qo‘pol buzilishi bilan o‘tdiki, konstitutsion sud tergov o‘tkazgandan so‘ng bu saylovlarni haqiqiy emas deb hisobladi. Prezident saylangan deputatlarni tarqatishga majbur bo‘ldi va qonun chiqaruvchi hokimiyat vaqtincha uning qo‘liga o‘tdi.

Konstitutsiya va parlamentning yangilanishigacha siyosiy barqarorlikni saqlab qolish uchun Qozog‘iston xalqlari Assambleyasi qarorlariga ko‘ra o‘tkazilgan referendum prezident vakolatini 2000-yilgacha uzaytirdi. Konstitutsiyaga ko‘ra, umumxalq saylovlarida saylanadigan keng vakolatlarga ega bo‘lgan prezident ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa senat va majlisdan iborat ikki palatali parlamentga tegishlidir. 1995-yilning oxirida hukumat tomonidan senatga ko‘rsatilgan nomzodlarning bilvosita va muqobilsiz saylovlari hamda orasida muxolifat vakillari bo‘lmagan majlisga ko‘rsatilgan ko‘p sonli nomzodlar o‘rtasida keskin kurash bilan umumxalq saylovlari bo‘lib o‘tdi.

Prezident va uning tarafdorlari, ommaviy axborot vositalari va har ikki yilda bir marta saylanadigan parlament deputatlarining bir qismi urug‘-aymoqlar va guruhlarning ig‘volariga qarshilik qilib, korrupsiyaga qarshi kurashib va radikal-milliy qozoqlar va ruslar hamda islomiy tanqidchilarning yo‘lini to‘sib qo‘ygan holda saylovlarni to‘la boshqarib bordi. Ko‘p millatli jamiyatni birlashtirish uchun prezident qoshida maslahat-mashvarat organi — Qozog‘iston xalqlari Assambleyasi tuzildi.

Prezident tashabbusi bilan 1997-yilda, qozoq-rus birligini mustahkamlash va eng kuchli juz ta’sirini susaytirish maqsadida, poytaxt mamlakatning janubi-sharqiy burchagida joylashgan Olmaotadan ko‘pchilik aholisi ruslardan iborat bo‘lgan va eng muhim industrial-agrar mintaqada joylashgan Ostona shahriga ko‘chirildi.

2000-yilda qabul qilingan qonun prezidentga muddati tugagandan so‘ng ham sobiq prezident sifatida hukumat siyosatiga aralashishga to‘la imkon berdi.

Nazarboyev tomonidan 15—20 yilga mo‘ljallangan samarali ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish qiyinligi oshkor bo‘ldi. Tabiiy resurslarni qayta ishlovchi sohalar ularni qazib oluvchi sohalarga nisbatan orqada qoldi, chunki sanoatdagi deyarli barcha jihozlar eskirgan edi. G‘alla yetishtirish va chorvachilikda mashinalar va zamonaviy texnologiyalar yetishmas edi. Eng asosiysi — ittifoq buyurtmalari va investitsiyalarining to‘xtab qolishi tarqoq sohalar sharoitida sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining keskin pasayishiga olib keldi,

natijada 1991-yildan to 1996-yilgacha bo‘lgan davrda Qozog‘iston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 31 foizga qisqardi.

Sanoat mahsulotlari va, hatto, oziq-ovqat yetishmas edi. Mehnatkashlarning asosiy qismi ishsiz qoldi. Inflatsiya tez o‘sa boshladi. Qish paytida uylar isitilmas, korxonalar to‘xtab qolardi. Yem yo‘qligidan qoramol qirilib ketdi. Shunda iqtisodiy islohotlar Milliy kengashi tuzildi. Hissadorlik jamiyatlariga aylantirilayotgan korxonalar aksiyalarining 50 foizi avvaliga davlat ixtiyorida qoldi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi oshgandan keyin bu aksiyalar sotilardi. Yerni mulk sifatida emas, balki uzoq muddatli ijaraga berish ma’qulroq, deb topildi. Jinoyatchilikka, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash kuchaytirildi. Monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilindi.

1994-yildan Qozog‘iston valutasi — tenge muomalaga kirdi. Ammo narxnavo o‘sishi davom etdi va tengeni mustahkamlash uchun XVF dan yordam olindi. Xorijiy kompaniyalarga mamlakat tabiiy resurslarini ishlab chiqarish uchun litsenziyalar berildi, ular ishtirokida neft va gaz qazib olish va Kaspiy orqali Yevropaga hamda Xitoyga quvurlar yotqizish uchun qudratli korporatsiyalar barpo etila boshlandi.

1996—1998-yillarda xususiylashtirish davom etishi natijasida xususiy sektor ancha o‘sdi. Davlat ixtiyorida ilgarigi mulkning atigi 16,1 foizi qoldi, ularning ham 45 foizi xorijiy kompaniyalar qo‘liga o‘tdi.

Bir necha milliard dollar investitsiya jalb etildi, inflatsiya pasaydi va 1996—1997-yillardan boshlab ishlab chiqarish o‘sa boshladi. Shu bilan birga iqtisodiyotda xususiy sektor afzalligi mustahkamlandi, u asr oxiriga kelib Qozog‘iston yalpi mahsulotining 75 foizini ishlab chiqara boshladi.

Rossiyadagi 1998-yil inqiroziga bog‘liq qiyinchiliklarga qaramasdan, neft va boshqa qimmatbaho xomashyoni sotishdan kelgan daromadlar hissadorlikning oshishi, ishlab chiqarish va yalpi ichki mahsulot o‘sishiga yordam

berdi.
Ijtimoiy muammolarni hal qilish yo‘llarini izlash faollashmoqda. Mulkdorlar yangi sinfini shakllantirish, bandlikni va nochor oilalarga yordamni kuchaytirishdan tashqari, hukumat aholi demografik tarkibini qozoqlar foydasiga hal qilishga urinmoqda. Tug‘ilishning nihoyatda ko‘pligi, qo‘shni mamlakatlardagi qozoqlar bir qismining ko‘chib kelishi, ruslarning emigratsiyasi tufayli qozoqlar ulushi tobora oshib bormoqda. Ruslarning ko‘chib ketishini hukumat rag‘batlantirayotgani yo‘q, ammo boshqaruvning «qozoqlashib» borishi va qozoq madaniyatining ustunligi ularni Rossiya Federatsiyasiga ko‘chib ketishga majbur qilmoqda. Hukumat qozoqlarning butun mamlakat bo‘ylab tarqalishiga katta e’tibor bermoqda. Asr oxirida qozoqlar allaqachon aholining yarmini tashkil etdi.
Qozog‘istonning xalqaro xavfsizligi va yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasiga qo‘shilishi kafolati bilan Qozog‘istonga SSSRdan meros qolgan raketa-yadro qurolining Rossiya Federatsiyasida zararsizlantirilishi to‘g‘ri316 sida kelishib olindi. Baykonur kosmodromining Rossiya Federatsiyasi tomonidan ijaraga olinishi va undan foydalanishning xavfsizlik shartlari ishlab chiqilgan. Qozog‘iston MDHni mustahkamlashni faol qo‘llab-quvvatlaydi va eng muhim savdo sheriklari Rossiya Federatsiyasi hamda Belorussiya bilan bojxona ittifoqi, qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan iqtisodiy integratsiya to‘g‘risida shartnoma tuzdi. U MDH davlatlari bir qismi bilan harbiy sohada hamkorlik qiladi va o‘z qurolli kuchlarini vujudga keltirdi. Nazarboyevning «ko‘p yo‘nalishli tashqi siyosati» MDH doirasidan ham tashqariga chiqdi. Qozog‘iston Germaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari hamda Turkiya, Eron, Yaponiya va Malayziyaga o‘z xomashyosini berish, ulardan kreditlar, investitsiya va yuksak texnologiyalarni keltirish yo‘li bilan hamkorlik qiladi. U 10 ta Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi (MOH) da ishtirok etadi. Qozog‘iston YEXHT a’zosi, NATO bilan hamkorlik qiladi, Shanxay Hamkorlik Toshkiloti (SHHT)ning a’zosidir. Keng va ko‘p tomonlama aloqalar islohotlar va iqtisodiyotni rivojlantirish hamda xavfsizlikni ta’minlash, jumladan, islom fundamentalizmining tahdidini bartaraf etishga imkon beradi. O‘zbekiston bilan abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzolagan. Qo‘shnichilik aloqalari kuchaymoqda.
Hozirgi vaqtda Qozog‘iston agrar-industrial mamlakat bo‘lib, 2006-yilda YAIM 77,9 mlrd dollarga yetdi va aholi jon boshiga 5120 dollarni tashkil etadi. Neft va neft mahsulotlari, rangli va qora metall, ruda, g‘allani eksport qiladi. Temir ruda zaxiralari bo‘yicha dunyoda 8-o‘rinda turadi. Dunyoda mis eksporti bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birida turadi. G‘alla yetishtirishda MDH mamlakatlari ichida uchinchi o‘rinni egallaydi.
Qirg‘iziston Respublikasi
Markaziy Osiyo respublikalari ichida eng kichigi — tog‘li Qirg‘iziston ittifoq markaziga bo‘ysundirilgan sanoatga ega bo‘lib, markaz dotatsiyasi respublika budjetining 60 foizini qoplar edi. Aholining 53 foizdan kamrog‘i qirg‘izlar, ruslar — 21 foiz, o‘zbeklar — 13 foizni tashkil etar, boshqa turkiyzabon xalqlar, ukrainlar, nemislar istiqomat qilardi. Mamlakatda ko‘pchilikni tashkil etgan shimoliy va janubiy qirg‘izlar o‘rtasida raqiblik, shuningdek, janubda qirg‘izlar va o‘zbeklar o‘rtasida ham raqobat bor edi. Sanoatda rus mutaxassislari asosiy rol o‘ynardi.
Rossiyaning markaziy shaharlarida o‘qish davomida liberalizmga moyillik orttirgan qirg‘iz mutaxassislarining ta’siri va saylovchilar Assotsiatsiyasi harakatlari tufayli SSSR Xalq deputatlari syezdiga yuborilgan delegatlar ichida sovet tuzumini saqlab qolish tarafdorlari qo‘shni respublikalardagiga nisbatan ko‘p emas edi. 1990-yilda esa Qirg‘iziston janubidagi o‘zbeklar va qirg‘izlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni bartaraf eta olmagani va milliy-liberal va milliy-demokratik ruhdagi o‘nlab partiya va guruhlarning paydo bo‘lishi sababli kommunistik partiya o‘z mavqeyini yo‘qotdi. Yuz minglab kishilarni
317
birlashtirgan «Qirg‘iziston» demokratik harakati mamlakat suvereniteti va bozor islohotlariga da’vat etdi. Uning ta’sirida Oliy Kengash 1990-yil dekabrida suverenitet deklaratsiyasini qabul qildi va SSSRni konfederatsiyaga aylantirishga ovoz berdi.
Moskvada g‘alaba qozongan Demokratik Rossiya bilan yakdil bo‘lgan

milliy-liberal va demokratlar talabiga koʻra, Oliy Kengash Qirgʻizistonning siyosiy suverenitetini eʼlon qilishga va, hatto, kompartiyani taqiqlashga majbur boʻldi. 1991-yil oktabrdagi umumxalq saylovlarida liberal-demokrat, akademik A. Akayev mamlakat prezidenti etib saylandi. U «oʻtmish bilan bahslashmasdan olgʻa yurish»ga daʼvat etdi.

Qirgʻizistonda davlatchilikning shakllanishi liberal-demokratik partiya va guruhlar oʻrtasidagi kelishmovchiliklar, Akayevning oʻz «jamoa»si yoʻqligi ilgarigi «nomenklatura» va yaqinda tiklangan kompartiyaning islohotlarga shafqatsiz qarshilik koʻrsatishi hamda urugʻ-aymoqlar oʻrtasidagi raqiblik, hokimiyatning suiiste'mol qilinishi va korrupsiya sharoitida kuchaygan millatlararo mojarolar taʼsirida murakkablashgan edi.

Ammo baʼzi respublikalar uchun anʼanaviy boʻlgan konformistik (loqaydlik, befarqlik) ruhdagi aholining ovoz berishi oqibatida 1992-yil kuzidagi Oliy Kengash saylovlarida islohot dushmanlari — sobiq sovet-kommunist arboblar va turli urugʻlarning rahbarlari koʻpchilik ovozga ega boʻlishdi. Qayta tiklangan kompartiya qasd olishga harakat qildi. Ortga qaytish xavfi tugʻildi.

Shunga qaramasdan, 1993-yil may oyida oldinga qadam qoʻyishga, yaʼni Oliy Kengash tomonidan yangi konstitutsiyaning qabul qilinishiga erishildi, erkinliklari eʼtirof etildi, ammo xususiy mulk cheklab qoʻyildi. Qirgʻiziston umumxalq saylovida saylanadigan prezidentli va ikki palatali parlament — Joʻqorgʻi Kengesi ega respublikaga aylandi. Prezident oldida javobgar boʻlgan hukumat parlamentga boʻysunadi. Mamlakat poytaxti nomi Bishkek deb oʻzgartirildi.

1994 va 1995-yillardagi referendumlarda konstitutsiyaga hokimiyat turli tarmoqlarining vazifalarini belgilash va ularning oʻzaro munosabatini belgilovchi tuzatishlar kiritildi.

Hukumatda oʻz mansabini suiiste'mol qilish hollaridan xabar topgan raqiblarning tobora kuchayib borayotgan hujumlaridan oʻzini himoya qilish maqsadida A. Akayev 1994-yil boshida prezidentga ishonch toʻgʻrisida referendum oʻtkazdi va koʻpchilik tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Kelasi yili yana prezident etib saylandi.

2000-yildagi parlament saylovlarida Akayevni qoʻllab-quvvatlayotganlar koʻpchilik oʻringa ega boʻlishdi va Prezidentga ancha xayrixoh boʻlib qolgan kommunistlar muvaffaqiyatga erishishdi. Hukumat «Ar-Napis» demokratik harakatidagi Akayevni tanqid qiluvchilar faolligiga zarba berib, uning rahbarini hibsga oldi. Bu esa ommaviy noroziliklarga sabab boʻldi va vaziyatni keskinlashtirdi. Ammo Akayev raqiblari kuchsizlashgan edi. 2000-yildagi prezident saylovlarida unga saylovchilarning 75 foizi ovoz berdi va u toʻrtinchi marta prezident etib saylandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish qiyinroq kechdi. 1990-yildan boshlangan ishlab chiqarishning pasayishi, ittifoq markazining buyurtma va investitsiyalari toʻxtagandan soʻng, yanada tezlashdi. 1995-yilda mamlakatda ishlab chiqarish hajmi 1990-yildagiga nisbatan 39 foizni tashkil etdi. 1991—1993-yillarda Rossiya Federatsiyasi texnik kreditlar taqdim etgan boʻlsa-da, dotatsiyalarning toʻxtashi va daromadning qisqarishi budjetni parchaladi va yirik inflatsiyani yanada tezlashtirdi. Hukumatning narxlar oʻsishini toʻxtatishga urinishlari zoye ketdi. Maorif, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot tizimi izdan chiqdi. Bu ijtimoiy va millatlararo munosabatlarning murakkablashishi, hokimiyatning suiiste'mol qilinishi va jinoyatchilikning oʻsishiga olib keldi.

1991-yildayoq hukumat XVF ishtirokida xoʻjalikni davlat tasarrufidan chiqarish dasturini ishlab chiqqan edi. Narxlarni liberallashtirish boshlandi, 1993-yilda esa milliy valuta — som muomalaga kiritildi. Lekin, hatto, XVF yordami bilan ham inflatsiyani pasaytirish va uning barqarorlashishiga erishila olmadi.1998-yilga kelib davlat qoʻlida uning ilgarigi mulkining atigi 5,6 foizi qoldi. Bu mulkning katta qismi korxonalar xodimlari, menejerlar, xorijiy va mahalliy investorlar ixtiyoriga oʻtdi. Jahon banki ishtirokida ishlab chiqarishni moliyalash yoʻlga qoʻyildi va banklar tizimi yaratildi.

1996-yildan boshlab ishlab chiqarish oʻsa boshladi, 1997-yilda esa hukumat islohotlarning ikkinchi bosqichi, yaʼni korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish boshlanganini

e’lon qildi. Ko‘pgina millatchilarga qarshi chiqib, 1991-yildagi yer to‘g‘risidagi qonunda yer nafaqat qirg‘izlarga, balki barcha Qirg‘iziston fuqarolariga tegishli ekanligi haqida yozilishiga erishildi. Samarasiz foydalanilayotgan yerlar, ya’ni barcha haydalma yerlarning 50 foizi davlat fondiga aylandi. Bu yerlardan qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilar uchastkalarni egalik huquqlarini meros qoldirish huquqi bilan 50 yil muddatga ijara olishardi. Bu xususiy xo‘jaliklar sonining oshishi va mustahkamlanishining boshlanishi bo‘ldi.
Prezident farmoniga ko‘ra, 1996-yildan boshlab yerni ijaraga olish, sotish va garovga berish mumkin bo‘ldi. Bu yerga bozor munosabatlarining joriy etilishi edi. Ikki yildan so‘ng, 1998-yilda yerga xususiy mulkchilik to‘g‘risidagi qonun qabul qilingandan keyin, uning hajmini qisqartirish va egalari doirasini cheklashlar ishlab chiqildi. 90-yillarning ikkinchi yarmida oziq-ovqat ishlab chiqarishi jonlana boshladi, ammo ko‘pchilik aholining turmush darajasi deyarli yaxshilanmadi.
Mamlakat uchun nihoyatda zarur bo‘lgan rus mutaxassislari va yer egalarining ko‘chib ketishlarini to‘xtatish maqsadida Prezident rus tilining millatlararo so‘zlashuv tili deb tan olinishiga hamda, eng avvalo, Rossiya madaniyati va fani yutuqlarini o‘rganish maqsadida Slavyan universitetining ochilishiga erishdi. Mamlakat barcha fuqarolarining yerga egalik qilish huquqining e’tirof etilishi uni ruslarga, o‘zbeklarga hamda boshqa millat vakillariga berishga va bu bilan ko‘pgina mojarolarni bartaraf etishga imkon berdi. Millatchi ekstremistlar va islom aqidaparastlarining millatlararo nizolar

urug‘ini sochishga bo‘lgan urinishlari bartaraf qilindi. Mamlakatni xalqaro mojarochilardan himoya qilish maqsadida qurolli kuchlar barpo etildi. Ular tez-tez ro‘y berib turgan islom aqidaparastlari to‘dalari hujumlarini qaytarib turibdi. 2005-yilga kelib ahvol murakkablashdi. Hukumatga qarshi kuchlar «Lola inqilobi» o‘tkazdilar. A. Akayev hokimiyatdan voz kechdi. Q. Bakiyev vaqtinchalik prezidentlik lavozimini egalladi va ko‘p o‘tmay prezidentlikka saylandi. Yechilmagan muammolar ko‘p.
Qirg‘iziston Rossiya Federatsiyasi va MDHning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik bilangina cheklanmadi. Uning rahbariyati nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O‘zbekiston bilan, balki Xitoy bilan ham munosabatni mustahkamlashga urinmoqda. Mamlakat Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy integratsiyasi va Osiyoning 10 davlati iqtisodiy hamkorligida ishtirok etmoqda, yuqori darajada rivojlangan ko‘pgina mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va boshqalar bilan moliyaviy-iqtisodiy va texnik hamkorlik hamda savdoni rivojlantirmoqda. Mamlakat xavfsizligini ta’minlashda qo‘shnilar bilan mos kelishuvlarga erishish hamda Shanxay Hamkorlik Tashkilotida ishtirok etish muhim ahamiyatga ega.
Qirg‘izistonda YAIM 2007-yilga kelib 15,5 mlrd dollarga yetdi va aholi jon boshiga 2764 dollarni tashkil etdi. To‘rtdan uch qismi tog‘likdan iborat bo‘lgan bu mamlakatda YAIM ning 25 foizi sanoat hissasiga to‘g‘ri keladi. Sanoatning esa 40 foizini oltin ishlab chiqarish tashkil etadi. 2003-yilda mamlakatda 22,5 tonna oltin qazib olindi va uni ishlab chiqarish bo‘yicha MDH mamlakatlari ichida Rossiya va O‘zbekistondan keyin uchinchi o‘ringa chiqdi. Rossiya bilan hamkorlikda Qirg‘iziston yiliga 2000 tonna uran ishlab chiqaradi. 2006-yilda o‘rtacha ish haqi 80 dollarni tashkil etdi.
Turkmaniston Respublikasi
Turkmaniston — aholisi eng kam bo‘lgan Markaziy Osiyo respublikasi edi. O‘sha vaqtlarda uning boy neft-gaz konlarining (butun dunyoda aniqlangan gaz zaxiralarining uchdan bir qismi) qazilishi endi boshlangan, haydaladigan yerning 70 foizida esa paxta yetishtirilar edi. Barcha qazib olish va ishlab chiqarish federal markaz uchun xizmat qilardi, markaz esa aholining yashashi (tirik qolishi) uchungina zaxiralar berardi. Bu aholining 70 foizini tashkil etuvchi turkmanlar hamda ruslar, o‘zbeklar va boshqa millat vakillarining an’anaviy befarqligi (konformistligi) va passivligini yana chuqurlashtirardi. Faqatgina 1989-yilda Ashxabodda birinchi masjid qurildi, noroziliklar namoyon bo‘ldi. Til va madaniyatni tiklash, iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun kurashuvchi harakatlar paydo bo‘ldi. Ammo bu yerda kompartiya rahbariyati oshkoralikni boshqarib turar, «norasmiy elementlar» rivojlanishiga to‘sqinlik qilar va islohotlarning yo‘nalishi, muddatlari hamda ko‘lamini

belgilab berardi.
320
Respublika suvereniteti to‘g‘risidagi deklaratsiya Oliy Kengash tomonidan 1991-yil avgustida qabul qilindi. Oliy Kengash kompartiya rahbari S. Niyozovni rais etib sayladi. SSSR amalda parchalanib bo‘lganidan so‘ng, 1991-yil oxirida referendum asosida Turkmaniston mustaqillikka erishdi va umumxalq saylovlarida Niyozov uning Prezidenti etib saylandi. «Biz o‘ziga xos yangi jamiyat quramiz va unga o‘z yo‘limiz bilan boramiz», — degan edi Niyozov o‘z yo‘li haqida.
Prezident turkman an’analarining tiklanishini qo‘llab-quvvatladi va ko‘pchilikka zarar yetkazmasdan islohotlarni amalga oshirish va yaqin kelajakda Iroq hujumidan qutqarilgandan keyin mashhur bo‘lgan Quvaytdagidek umumiy farovonlikni va’da qildi. Bu aholini o‘ziga rom qilar va umid uyg‘otardi.
Millatlararo mojarolar, tarqoq liberal va demokratik guruhlarning chiqishlari 90-yillarning boshida bostirildi, ularning rahbarlari hibsga olindi yoki muhojirlikka ketishdi.
1992-yilda yangi konstitutsiya qabul qilinishi bilan hokimiyat yanada mustahkamlandi. Umumxalq saylovlarida saylanadigan prezident nihoyatda keng vakolatga ega bo‘ldi va hokimiyatning har bir tarmog‘iga boshchilik qildi. Qonun chiqarish Majlis — saylanuvchi parlamentga topshirildi. Ammo qarorlarni qabul qiluvchi oliy vakillik organi Xalq maslahati bo‘ldi. U Prezident tomonidan boshqarilar hamda hukumat boshlig‘i va a’zolari huquqni himoya qilish organlari va viloyat rahbarlaridan iborat edi. Mamlakatda Niyozov boshqarayotgan yagona partiya — Demokratik partiya qoldi. Aholini birlashtirish uchun amnistiya (umumiy afv) e’lon qilindi, keyinchalik esa o‘lim jazosi bekor qilindi.
Konstitutsiya qabul qilingandan keyin saylovchilarning 99,5 foizi Niyozovni prezidentlikka qayta saylash, u ko‘rsatgan nomzodlarni majlisga saylash uchun ovoz berdilar. Keyinchalik, bundan ham muvaffaqiyatliroq o‘tgan referendumda Niyozovning vakolatini oshirish ma’qullandi va u Turkmanboshi hamda turkmanlar otasi, degan unvonga ega bo‘ldi, 2000-yilda esa majlis uning hokimiyatining muddatsizligi to‘g‘risidagi qonun qabul qildi. Turkmanboshining portret va so‘zlari hamma joyda paydo bo‘ldi, ko‘chalar, korxonalar va shaharlar uning nomiga qo‘yildi, poytaxtda uning ulkan, doim quyosh tomonga burilib turuvchi haykali o‘rnatildi. Farovonlik to‘g‘risidagi rejalari uchun uni hamma joyda — bolalar bog‘chasidan tortib Xalq maslahatigacha ulug‘lar edilar. Hatto, uning obro‘siga va xalqning unga bo‘lgan muhabbatiga shubha qilish Turkmaniston uchun zarar, deb baholanar edi. Nihoyat, uning tomondan odamlarning hayot normalarini mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan, hamma uchun majburiy bo‘lgan «Turkmanlarning ma’naviyat kodeksi» qabul qilindi. «Ruxnoma» kitobi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar imtihon topshirardi, u Qur’oni karim bilan tenglashtirildi. Turkmanboshi tuzumi mustabid (totalitar) xarakterga ega bo‘ldi va siyosiy barqarorlikni kafolatladi.
Va’da qilingan farovonlikka erishish ancha qiyin bo‘lib chiqdi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og‘ir edi. Rossiyadan olingan kreditlar tezda
321
qadrsizlandi. Gaz va paxtani Rossiya hamda MDHning boshqa davlatlariga sotish na dollar, na yangi texnologiyalar keltirdi. Gaz qazib olish va paxta yetishtirish, ularni yetkazib berishni ko‘paytirish hamda ular evaziga dollar olish juda qiyin kechdi. Aholiga oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar yetishmas edi. Pensiya va oyliklarni to‘lash kechikardi. Ayanchli statistik ma’lumotlar e’lon qilinmas edi.
1992-yildan boshlab hukumat sanoatni rivojlantirish va bozor munosabatlarining iqtisodiy poydevorini yaratishga qaratilgan «Barqarorlikning 10 yili» dasturini qabul qildi. 1993-yilda milliy valuta — manat joriy qilindi. Uning qiymati hamda narxlar hukumat tomonidan belgilanar edi. Xorijiy valuta bilan muomala qilish taqiqlangan edi.
Boy mamlakatlarning hukumatlari Turkmanboshi rejimini ma’qullamasalar-da, undagi barqarorlik, mamlakatning tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchi hamda hukumatning bozor iqtisodiyotiga intilishi turkman paxtasi va gazini sotib olishning kengayishiga, rejimga kreditlar berilishi va xo‘jalikka

investitsiyalar qo‘yilishiga yordam berdi. Eksportdan kelgan mablag‘lar va kreditlarni hukumat undirma va to‘qimachilik sanoatiga sarflar edi. Bu sohalar uchun eng yangi texnologiya hamda jihozlar sotib olindi. 90-yillarning ikkinchi yarmida gaz va neft qazib olish o‘sa boshladi va paxtaning asosiy qismi yangi korxonalarda qayta ishlana boshladi, bozorga to‘qimachilik mahsulotlari chiqarila boshlandi. Ishlab chiqarishning o‘sishi to‘la bandlikni ta’minladi. Hukumat iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarishga shoshilmadi. Neft va gaz, paxtaning sotilishi hamda qayta ishlanishi, transport va uy-joy xo‘jaligi, ishlab turgan hamda qurilayotgan barcha katta va o‘rta korxonalar davlat ixtiyorida edi. 1996-yilga kelib nodavlat sektorga yalpi ichki mahsulotning atigi 7,7 foizi to‘g‘ri keldi. 2000-yilda yalpi ichki mahsulot 14 foizga oshdi, uning beshdan bir qismi gaz eksportiga to‘g‘ri keldi.

1993-yilda qabul qilingan yerga mulkchilik to‘g‘risidagi qonun asosida har bir fuqaro 50 gektargacha yer olishi va yana 500 gektar yoki undan ko‘proq yerni ijaraga olishi mumkin edi. 5 yil muddat o‘tgandan so‘ng yer egasi — neyhan tomonidan olingan yer uning mulkiga aylanar edi, ammo u yerni sotish yoki birovga berishga haqqi yo‘q edi. Bu islohot 10 yil muddatga mo‘ljallangandi. Hukumat «Yangi qishloq» va «G‘alla» dasturlarini amalga oshirdi. Ularga ko‘ra, qishloq aholisi yashash sharoitini yaxshilash va g‘alla yetishtirishni oshirishga mablag‘ ajratilardi. Hukumat qishloq aholisi turmush darajasi yaxshilandi, deb hisobladi. G‘alla yetishtirish sezilarli darajada o‘sdi. Butun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 20 foizidan ko‘prog‘ini bermoqda.

Turkmanistonning iqtisodiy va madaniy dasturi qabul qilindi.

Prezident va’da qilgan umumiy farovonlikka nisbatan uyg‘ongan va oshib borayotgan shubhalarni tarqatish uchun hukumat 90-yillarning ikkinchi yarmida tuz, elektr energiya, gaz va suvni bepul deb e’lon qildi, non, o‘simlik yog‘i, jamoat transporti va maishiy xizmatlarga esa past, ramziy narxlarni belgiladi. Oziq-ovqatning boshqa turlari hamda boshqa mahsulotlar

kartochkalar bilan tarqatila boshlandi. Ammo, odatdagidek, bepul, arzon va kartochkalar bilan tarqatiladigan mahsulot tanqis edi, ularni olish uchun navbatlar paydo bo‘lardi. Buning ustiga aholi o‘sish darajasi oshdi.

2006-yil dekabrda Prezident S. Niyozov vafot etdi. 2007-yil fevraldagi saylovda G. Berdimuxamedov Prezident etib saylandi. Turkmanistonning tashqi siyosati uning mustaqilligini mustahkamlash va dunyo bozoriga tabiiy gazning yirik zaxiralarini chiqarish yo‘llarini izlashga qaratilgan edi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakatning neytraliteti (betarafligi) e’lon qilindi va amalga oshirib kelinmoqda. MDH tarkibida bo‘lish Rossiya Federatsiyasidan yordam olishga imkon berdi. Ayniqsa, milliy qurolli kuchlar yaratilgunga qadar, Rossiya Federatsiyasi Turkmaniston chegarasini himoya qilishi va qurol bilan yordam berishini aytish mumkin. MDH doirasida Turkmaniston Hamdo‘stlik a’zolari, avvalo, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Gruziya, Ukraina bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirmoqda. 2005-yilga kelib betaraflikka to‘la amal qilish uchun Turkmaniston MDH tarkibidan chiqdi.

Turkmaniston Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, ayniqsa, Turkiya, Eron va Afg‘oniston bilan yaqin hamkorlik qiladi. Turkman gazining bir qismini Rossiya Federatsiyasi orqali Ukrainaga yetkazib berish to‘g‘risida kelishib olindi. Bundan qoniqmagan respublika hukumati Kaspiy orqali Ozarbayjon, Gruziya, Turkiyaga va Afg‘oniston orqali Pokiston, XXRga gazni eksport qilish uchun gaz quvurlari qurilishida qatnashmoqda. Aholining huquq va erkinliklari biroz cheklanishiga qaramasdan, o‘zining mustahkamligi tufayli Turkmanboshi rejimi boy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning moliyaviy yordamini olishga muvaffaq bo‘ldi.

Prezident Q. Berdimuhammedov davrida vaziyat ancha yumshadi. 2007-yil fevralda ta’lim tizimi islohoti to‘g‘risida farmon qabul qilindi. 9 yillik maktab o‘rniga 10 yillik ta’lim joriy qilindi. Oliy o‘quv yurtlari 5–6 yillik bo‘ldi. «Sodiqlik qasamyodi» bekor qilindi. Sudlanganlarning ishlarini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida farmon e’lon qilindi. Turkmanboshi davrida qilingan o‘zgarishlar qayta ko‘rib chiqilmoqda. 2008-yil 1-iyuldan Grigoryan kalendariga qaytildi. Turkmanistonda 40 foiz aholi sanoatda, 30 foiz aholi

qishloq xo‘jaligida, qolgan qismi xizmat ko‘rsatish sohalarida banddir. 2007-yilda 71 mlrd kubometr gaz qazib olindi va shundan 50 mlrd kubometri Rossiyaga, 8 mlrd kubometri Eronga eksport qilindi. Eksport 4,4 mlrd dollarni, import 2,7 mlrd dollarni tashkil etadi. 2007-yilda YAIM 26,2 mlrd dollarni tashkil etib, aholi jon boshiga 5055 mln dollar to‘g‘ri keldi.

Tojikiston Respublikasi

Eng baland tog‘larda joylashgan, aholi turmush darajasi eng past, lekin tabiiy resurslarga boy respublika — Tojikistonda mustaqillikka erishish fuqarolik urushi tufayli ancha murakkablashdi. Tojiklar Tojikiston aholisining 59 foizini, o‘zbeklar — 23 foizni, ruslar — 10 foizni tashkil etishardi. Shimoliy va janubiy viloyatlar jamoalari, Tog‘li Badaxshondagi kam sonli aholi orasida

va sovet hokimiyati boshqaruv organlarini qamrab olgan urug‘-aymoqchilik aloqalari voqealarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

70-yillardan boshlab qo‘shni Afg‘oniston va Erondagi voqealar islom targ‘iboti faollashuviga olib keldi. Oshkoralik e’lon qilinishi bilan ruslashtirishga va kompartiyaning yakka hokimligiga qarshi chiqishlar boshlandi.

1989 hamda 1990-yillarda Dushanbe va boshqa joylarda o‘zbeklar, ruslar va mamlakatga kirgan qochoqlarga nisbatan noroziliklar bo‘lib turdi. Til va madaniyatning tiklanishi hamda respublikaning SSSR tarkibidagi suverenitetini talab qilgan milliy-demokratik harakat «Rastoxez» — «Uyg‘onish» mashhur bo‘ldi. 1991-yilda radikal demokratlar tub o‘zgarishlarni talab qilgan Demokratik partiyani tuzishdi. Shu bilan bir qatorda, musulmon jamoalar kuchaydi, masjidlar qurildi. Islom tiklanish partiyasi («Partiyai Vahdati Islom») sezilarli obro‘ga ega bo‘ldi va islom aqidaparastlari guruhlari paydo bo‘ldi. Qayta qurish kompartiya tarkibida kelishmovchiliklarga olib keldi. Kutish pozitsiyasini egallagan partiya rahbariyati Oliy Kengash tomonidan tojik tilining davlat tili, deb e’lon qilinishiga rozi bo‘ldi, ammo boshqa o‘zgarishlarga to‘sqinlik qildi. 1990-yil fevralida Dushanbedagi hukumatga qarshi ommaviy namoyishlarga qurolli kuchlar safarbar qilindi va o‘nlab kishilar halok bo‘ldi.

Islomchilar va demokratlarning raqiblari mahalliy urug‘lar va ularning qurollangan dastalari rahbarlarini birlashtirgan Xalq frontini tashkil qilishdi. Ular tashabbusni o‘z qo‘llariga olib, mamlakat shimoli — Xo‘jand shahrida Oliy Kengash chaqirishga erishishdi. Oliy Kengash raisi etib mahalliy yetakchilardan biri — I. Rahmonov saylandi va yangi hukumat tuzildi. Bu yangi hukumat Afg‘onistondagi uning dushmanlariga yaqin bo‘lgan islomchilarning kuchayishidan tashvishga tushgan Rossiya Federatsiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Dushanbeda joylashtirilgan Rossiyaning 201-motoo‘qchi diviziyasi yordami bilan xalq fronti otryadlari 1992-yil dekabrida Dushanbeni qo‘lga oldi va 1993-yil bahorigacha mamlakatning katta qismini o‘z nazorati ostiga o‘tkazdi.

Islom tiklanish partiyasi va demokratlar tomonidan tashkil qilingan Birlashgan muxolifat Afg‘oniston hamda Eronda tayanch topdi. Uning otryadlari Tojikistonda harakatda bo‘ldi. Butun mamlakatni shafqatsiz fuqarolik urushi qamrab oldi. Muxolifatga yon bosgan afg‘on muhojirlari ham bu urushga aralashib turdi. Jinoiy guruhlar tartibsizliklardan foydalanib, giyohvand moddalarni yetishtirish va yetkazib berish bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Muxolifatning qarshiligiga qaramasdan, 1994-yilda hukumat o‘tkazgan referendumda I. Rahmonov taklif qilgan konstitutsiya ma’qullandi. U Prezident etib saylandi. Parlament — Majlisi Oliy saylovlari ham o‘shanda boshlanib, 1995-yil fevraligacha davom etdi. Saylovni hukumat nazorat qilib bordi va Prezidentga yetarlicha xayrixoh bo‘lgan hukumat tuzildi.

I. Rahmonov muxolifatni tor-mor qilishga intilar va uning yetakchilari bilan muzokaralar olib borishga qarshilik qilardi. O‘z pozitsiyalarini kuchaytirib,

u ijro etuvchi hokimiyatga egalik qildi, davlat apparatini shakllantirdi, xalq armiyasi va o‘z gvardiyasini tuzdi. Tarkibida jiddiy partiyalar bo‘lmagan, ammo kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan Xalq fronti tarqatib yuborildi.

I. Rahmonov nafaqat davlat sektorini, balki xususiy ishlab chiqarish sektorini ham qo‘llab-quvvatlash, agrar islohotlar o‘tkazish, xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish va boshqalarni ko‘zda tutgan iqtisodiyotni tiklash dasturini taqdim etdi. Buni amaliyotda qo‘llab-quvvatlash maqsadida Xalqdemokratik partiyasi tuzilgan edi.

I. Rahmonov hukumati mamlakat oltin zaxirasining bir qismini garovga qo‘yib, Rossiya Federatsiyasining mamlakatdagi eng yirik GESlar, eng zamonaviy qudratli aluminiy zavodi va bir qator iqtisodiy obyektlarning bir qismiga egalik qilish huquqini e’tirof etdi. Dushanbedagi Rossiyaning 201-diviziyasi hokimiyat barqarorligini ta’minlab turdi. Rossiya chegarachilari mamlakatning janubiy chegaralarini qo‘riqlashmoqda edi. Rossiyalik mutaxassislar Tojikiston qurolli kuchlari va chegarachilarini o‘qitishdi.

Korrupsiya, o‘ziga erk bergan harbiylarning bedodligi, eng asosiysi — xorijdagi harbiy bazalarga tayanib, to‘xtamasdan qarshilik ko‘rsatayotgan muxolifat siyosiy barqarorlikka ham, iqtisodiy barqarorlikka ham erishishga yo‘l qo‘ymadi.

Bu hol I. Rahmonovni BMT, YEXHT va Rossiya Federatsiyasi ishtirokida 1994-yilda muzokaralarni boshlash va Birlashgan muxolifat rahbari S. A. Nuri bilan urushni to‘xtatish haqidagi bitimni imzolashga majbur etdi. Iqtisodiyotni tiklash dasturini amalga oshirishga imkoniyat paydo bo‘ldi. Bitim bir necha marta buzildi. Ammo muxolifatga Afg‘onistondan yetkazilib turgan yordam susaydi, u yerdagi ittifoqchilarga toliblar zarba berdi. Bu urush 1997-yilgacha davom etdi. Unda 300 ming kishi halok bo‘ldi va 100 ming kishi nom-nishonsiz yo‘qoldi. Millionga yaqin aholi qo‘shni mamlakatlarga ko‘chib o‘tdi. Ko‘pgina qishloqlar, aholi istiqomat qiladigan joylar va korxonalar xarobaga aylandi. Moddiy zarar 7 mlrd dollarni tashkil etdi. 1997-yilda Tojikistonda ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi ko‘rsatkichning 28 foizini tashkil etdi. Nihoyat, 1997-yilda muxolifat va uning qurolli kuchlarining qonuniyligi tan olinib, uning vakillari koalitsion hukumat tarkibiga kiritilgandan so‘ng siyosiy barqarorlikka erishildi. Siyosiy barqarorlik sari qo‘yilgan bu muhim qadam Tojikistonga xalqaro tashkilotlardan 100 mln dollardan ortiq kredit olishga va boy mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilishga imkon berdi. Bu tufayli iqtisodiyotning tiklanishi va yangilanishi, ish bilan ta’minlanishning (bandlikning) kuchayishi va aholi ahvolining qisman yaxshilanishi boshlandi. 1998-yildan boshlab hukumat Xalqaro Valuta Fondi va Jahon banki homiyligida qashshoqlikka qarshi kurash dasturini amalga oshirib kelmoqda. Mamlakat eng yaxshi jihozlarni olib kelish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida paxta, aluminiy va boshqa qimmatbaho materiallarni eksport qiladi.

2000-yil fevralida Tojikistonda barcha partiyalar ishtirokida parlament saylovlari bo‘lib o‘tdi. I. Rahmonov saylangan parlament — Majlisi Oliyni

«Milliy totuvlik parlamenti» deb atagan bo‘lsa-da, YEXHT kuzatuvchilari saylovga hukumat aralashganligi haqida guvohlik berishdi. Mutlaq ko‘pchilik o‘rin Xalq demokratik partiyasiga nasib etdi. Ikkinchi o‘ringa SSSRni qayta tiklashga urinayotgan kompartiya chiqdi.

Murosaga kelmaydigan islom muxolifati qurolli otryadlari mag‘lubiyatga uchramoqda. Shunga qaramasdan, Tojikiston va Rossiya Federatsiyasining ko‘p rahbarlari fikriga ko‘ra, Rossiya qo‘shinlarining olib ketilishi kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

Mamlakat hududida afg‘onlardan yordam olayotgan va O‘zbekiston hamda Qirg‘izistonga bostirib kirayotgan islom aqidaparastlarining, giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchilarning baza va aloqa kommunikatsiyalari mavjud.

Tojikiston hukumati Rossiya Federatsiyasi bilan yaqin ittifoq tuzishga tayanadi, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston bilan hamkorlik qiladi. Hozirgi vaqtda Tojikiston agrar-industrial davlat bo‘lib, dunyodagi eng kambag‘al mamlakatlardan biridir. XVF hisobiga ko‘ra 63 foiz aholi kambag‘al yashaydi. Uzoq davom etgan urush iqtisodning tushkunligiga olib keldi. YAIM 1995-yilda 1991-yilga nisbatan 41 foizni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligida aholining 31, sanoatda 29, xizmat ko‘rsatishda 40 foizi banddir. 1 mln dan ortiq tojiklar Rossiyada ishlaydilar. Ular 2005-yilda rasmiy ravishda 247 mln dollar pulni Tojikistonga o‘tkazdilar. Ba’zi mamlakatlarga ko‘ra yuborilayotgan pul 1 dollargacha yetadi. Lekin bu

pullar investitsiya qilinmay, kundalik talablarga ishlatiladi. 2005-yilda aluminiy eksporti 550 mln dollarni tashkil etdi. Eksport importga nisbatan 250 mln dollar kam. 2007-yilda YAIM 3,353 mlrd dollarni tashkil etdi va aholi jon boshiga 522 dollardan to‘g‘ri keldi.

Tojikiston — MDH a’zosi, fuqarolik urushidan keyin ko‘p mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkilotida ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, MHD mamlakatlari tarixan qisqa muddatda bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini vujudga keltirishda xilma-xil qiyinchiliklarni boshdan kechirdilar. Ularning ba’zilarida bu muammo qisman hal bo‘lsa-da, ba’zilarida hamon davom etmoqda. Ushbu muammolar deyarli barchasida bir xil bo‘lib, quyidagilardir:

— ijtimoiy-siyosiy hayotni barqarorlashtirish, mamlakatda huquqiy demokratik davlat tuzish;

— bozor iqtisodiyotining uzluksiz ishlaydigan chinakam mexanizmini yaratish;

— aholini ish bilan ta’minlash, ularning normal yashashi uchun sharoit yaratish;

— dunyo hamjamiyatida mustahkam o‘rin egallash;

— mamlakat xavfsizligini ta’minlash, turli terroristik, diniy-ekstremistik guruhlardan xoli bo‘lish, ular xavfini bartaraf qilish;

— ekologiya tangligi, yerni asrash, toza suv muammolari va boshqalar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi qachon tuzildi? Sababi nima?
2. Ukrainada L. Kuchmaning hokimiyatdan ketishi va yangi prezidentning saylanishi qanday yuz berdi?
3. Belorussiyada Lukashenkoning ichki siyosati qanday?
4. Gruziyada «Hokimiyat almashuvi» qanday sodir bo‘ldi?
5. Armanistonda Kocheryanning hokimiyatga kelishini ta’riflang.
6. Ozarbayjonda G. Aliyev faoliyati qanday kechdi?
7. Qozog‘istonda bozor iqtisodiga o‘tish yo‘llari va uning muvaffaqiyatlari zamirida nima yotadi?
8. Qirg‘izistondagi «Lola inqilobi» sabablarini aytib bering.
9. Turkmaniston bozor iqtisodiga qanday o‘tmoqda?
10.Tojikistonda I. Rahmonov hokimiyatni mustahkamlash uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?

QUYIDAGICHA JADVAL TUZING VA SHARHLANG.

MUSTAQIL DAVLATLARNING 1990, 1995 VA 2005-YILLARDAGI YALPI ICHKI MAHSULOTI KO‘RSATKICHLARI (1990-yilda — 100%)

Yillar	1990	1995	2005
Estoniya			
Latviya			
Litva			
Moldova			
Gruziya			
Armaniston			
Ozarbayjon			
Rossiya			
Belorussiya			
Ukraina			
Qozog‘iston			
O‘zbekiston			
Qirg‘iziston			
Tojikiston			
Turkmaniston			

JADVALNI TO‘LDIRING. MDH MAMLAKATLARI HOZIRGI RAHBARLARI FAOLIYATINI YORITING

Davlatlar Rahbarlari	Hokimiyatga kelgan yili	Faoliyati

?

5-bob. BOLTIQBO‘YI RESPUBLIKALARI

36-§. Boltiqbo‘yi Respublikalarining mustaqillikka erishuvi va rivojlanishi

Estoniya Respublikasi
Aholining 61,5 foizini estonlar tashkil etgan Estoniyada vatanparvarlik harakati qo‘shiqlarini guruhlarga birlashib ijro etish — «kuylayotgan inqilob» dan boshlandi. Atrof-muhitni, mamlakat fuqaroligini, tili va madaniyatini, shuningdek, respublika iqtisodiyotini himoya qilishga da’vat etuvchi chiqishlarning kuchayib borishi 1988-yilda Milliy frontning tashkil etilishiga olib keldi. 1988-yil noyabrida Oliy Kengash Estoniya mustaqilligi to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qildi va Tallin osmonida milliy bayroq hilpiray boshladi. Kelasi yil yanvarida eston tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risida, may oyida esa iqtisodiy mustaqillik to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. 1990-yil mart oyida Oliy Kengash saylovlarida Milliy front va uning ittifoqchilarining g‘alabasi Savisaar boshchiligidagi koalitsion hukumat tuzilishiga olib keldi. Estoniyada joylashgan, SSSR hukumati tasarrufida bo‘lgan korxonalarning 90 foizi respublika boshqaruvi ostiga o‘tdi. Kuzda Estoniya Respublikasi mustaqilligini 60 dan ortiq davlatlar, jumladan, SSSR ham tan oldi.
1996-yilda L. Meri prezidentlikka qayta saylandi. Hokimiyatning mustahkamlanishi islohotlarni amalga oshirishga imkon yaratdi. Mulkni oldingi egalariga qaytarib berish to‘g‘risidagi qonunlar hamda, eng asosiysi, davlat korxonalarini sotish (64 foiz) va unda ishlayotganlarga topshirish yo‘li bilan amalga oshirilgan xususiylashtirish, yer, qurilishlar va korxonalarga mulkchilikning kengayishida yordam berdi. Bu katta kuch va vaqtni talab qildi. Davlat o‘zining ixtiyoridagi mulkning 15 foizinigina o‘z ixtiyorida saqlab qoldi. Ammo, shu bilan birgalikda, iqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashdi.
Faqat 1997-yildan boshlab investitsiyalar va yangi texnologiyalar oqimi ishlab chiqarishning, xususan, elektronikaning o‘sishini, mehnat unumdorligining ortishini jadallashtirdi. Estoniya aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarishning yangilanish va o‘sish sur’atlari, keyinchalik har bir fuqaro boshiga o‘rtacha daromad ko‘rsatkichlari bo‘yicha XX asr oxiriga kelib, mintaqadagi boshqa davlatlarni ortda qoldirdi.
Estoniya Yevropa Ittifoqi bilan shartnoma tuzib, iqtisodiyotni rivojlantirishning qisqa muddatli dasturini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ish olib bormoqda. U Yevropa Kengashiga qabul qilingach, YEXHT ishida faol ishtirok etmoqda va Rossiya Federatsiyasida imperiyachilik kayfiyati paydo bo‘lishidan xavfsirab, o‘z xavfsizligini NATOga a’zo bo‘lish orqali mustahkamlashga

intilmoqda. Lekin mamlakat oldida qator muammolar turibdi. Ulardan biri milliy masaladir.
Hozirgi vaqtda Estoniya rivojlangan sanoat va qishloq xo‘jaligiga ega. U xususiy xomashyo va yoqilg‘i resurslaridan foydalanish hamda qulay iqtisodiygeografik joylashuv hisobiga rivojlanmoqda. Mamlakatda iqtisod tezlik bilan liberallashtirilmoqda. Daromad solig‘i yildan yilga kamaytirilmoqda va 2010-yilga borib 18% bo‘lishi mo‘ljallanmoqda. 90-yillarda Sharqiy Yevropada eng ko‘p chet el investitsiyasini kiritgan davlat hisoblanadi. 2000–2007-yillarda yillik o‘sish 9,9 foizni tashkil etdi. YAIM ning 68 foizi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi. YAIM 23,93 mlrd dollarni, aholi jon boshiga 21860 dollarni tashkil etadi. Mamlakat Prezidenti T.X. Ilves.
Latviya Respublikasi
1990-yil arafasida mamlakat aholisining yarmidan xiyol ko‘prog‘ini latishlar tashkil etar va latish bo‘lmaganlar (asosan ruslar) ning atigi 19 foizi latish tilini bilardi. Mamlakatning SSSRga qo‘shib olinishiga, ruslashtirish va aholi manfaatlariga mos kelmagan sanoatlashtirish siyosatiga qarshi chiqishlar Riga va boshqa shaharlarda 1985-yildan boshlandi. 1988-yilda Xalq fronti Latviya suvereniteti uchun kurashayotgan turli tashkilot va harakatlarni birlashtirdi va ommaviylashdi.
1989-yilda SSSR xalq deputatligiga, 1990-yilda respublika Oliy Sovetiga bo‘lgan saylovlarda mamlakat mustaqilligi tarafdorlari bilan unga qarshi bo‘lganlar o‘rtasida keskin kurash ketdi va bunda mustaqillik tarafdorlari bo‘lgan kuchlar g‘alaba qildi. May oyida Oliy Sovet Latviyani mustaqil va suveren — Latviya Respublikasi deb atadi va mamlakatda liberal-demokratik islohotlar boshlab yuborildi. 1991-yil mart oyida bu tanlangan yo‘l sovet

siyosiy arboblari va harbiylarning faol qarshiligiga qaramay, referendum qatnashchilarining 77,6 foizi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.
Prezidentlikka Sovet hukumati tomonidan qatag‘on qilinib, surgunda vafot etgan Latviyaning urushdan oldingi prezidentining jiyani — G. Ulmanis saylandi. Ilgarigi boshqaruv tizimi va respublika qurolli kuchlari tiklandi. Hukumat latish madaniyatini rivojlantirish va latish tili monopoliyasini ta’minlash yo‘lida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Latishlar talabi bilan sovet qo‘shinlari 1994-yilda Rossiya Federatsiyasi tomonidan olib chiqib ketildi.
Uzoq muddat davomida I. Godmanis rahbarlik qilayotgan hukumat iqtisodiyotda bozor munosabatlarini joriy etishga intilayotgan edi. Latviyada ishlab chiqarishning kamayishi sabablarini bu yerda inflatsiyaning boshqa qo‘shni mamlakatlarga nisbatan pastroq bo‘lishi bilan izohlash mumkin edi. Ammo mamlakatda energiya manbalari va oziq-ovqat yetishmas edi. Rossiya Latviya bilan savdo-sotiqni cheklagandi, bu esa uni Shimoliy va G‘arbiy Yevropadan sheriklar izlashga majbur etdi.

1993-yilda milliy valuta — latni joriy qilish va barqarorlashtirish uchun Xalqaro Valuta Fondi va boshqa tashkilotlar kreditlari kerak bo‘ldi. Latviya oziq-ovqatga muhtoj edi va uni xalqaro tashkilotlardan olayotgan edi. Rossiya bilan savdo tranziti va investitsiyalar mamlakat uchun juda muhimligiga qaramasdan, ishlab chiqarish, eksport va import Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga qaratila boshlandi. Xalqaro Valuta Fondi tavsiyalariga ko‘ra, hukumat xarajat va daromadni qat’iy muvozanatga keltirdi, foyda keltirmaydigan korxonalarni yopishga harakat qilib, raqobatdosh korxonalarni qo‘llab-quvvatladi.
90-yillarning oxirida, Rossiyadagi inqiroz sababli yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramasdan, Latviyada ishlab chiqarish o‘sishi barqaror edi va u aholi turmush darajasining ko‘tarilishiga yordam berdi. Ayniqsa, kichik va o‘rta korxonalarning soni tez o‘sa bordi. Aholining ko‘pchiligi bu bilan ham qoniqmagan edi. Biroq 1999-yildagi prezident saylovlarida muhojirlikdan qaytgan V. Vike-Freyberg nomzodini ko‘rsatgan natsional-liberallarning g‘alabasi siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga yordam berdi.
Mustaqillik yillarida Latviyada chuqur iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi. Ko‘p o‘tmay yuqori natijalarga erishildi. 2007-yilda yillik o‘sish 10,3 foizni tashkil qildi. 2007-yil yakunlariga ko‘ra Latviya YAIM ning o‘shishi jihatidan sobiq Ittifoq respublikalari bo‘yicha Ozarbayjon va Armanistondan so‘ng uchinchi o‘ringa chiqdi. U Jahon savdo tashkiloti a’zosi. YAIM aholi jon boshiga 12,8 mln dollarni tashkil qilmoqda.
V. Zatlers – mamlakat Prezidentidir.
Latviya Respublikasi o‘zining Boltiqbo‘yi qo‘shnilari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda, 2004-yilda Yevropa Ittifoqiga kirdi, YEXHTda ishtirok etmoqda va Rossiyaning imperiyachilik kayfiyatidan himoyalanish maqsadida, NATOga a’zo bo‘ldi. Mamlakat parlamenti va hukumati Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish niyatida, ammo Rossiya Federatsiyasining Latviyadagi rus millatiga mansub bo‘lgan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga intilishi tufayli ikkala mamlakat o‘rtasidagi munosabat murakkabligicha qolmoqda.
Litva Respublikasi
Litvada jamiyatning yangilanishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun ommaning chiqishlari boshqa Boltiqbo‘yi respublikalariga nisbatan kechroq faollashdi, ammo 1988-yilning kuzidayoq «Sayudis» harakati paydo bo‘ldi. Avvaliga u ijtimoiy faollikni oshirish to‘g‘risidagi talablar bilan cheklandi. Ammo 1989-yilda ommaviylashib, SSSR xalq deputatligiga bo‘lgan saylovlarda ko‘p ovoz oldi va bastakor V. Landsbergis rahbarligida mavjud tuzumni o‘zgartirish va Litva mustaqilligini yoqlab chiqdi. Respublika Oliy Sovetida Sayudisning g‘alabasi tufayli 1990-yilda mustaqil Litva davlati va uning SSSR tarkibidan chiqishi to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Sayudis qo‘liga o‘tgan hukumat mamlakat suverenitetini himoya qilib, 90 foizi SSSR hukumati ixtiyorida bo‘lgan sanoatni o‘z qo‘liga oldi va uni davlat tasarrufidan chiqarishni rejalashtirdi. Kolxoz (jamoa xo‘jaligi) larni

fermer xo‘jaliklariga aylantirishga yo‘naltirilgan yer to‘g‘risidagi qonun, mulk egalari huquqlarini tiklash to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Hukumatning bu yo‘li mamlakatda paydo bo‘lgan ko‘pgina partiyalar va harakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

1990-yilning yanvar oyida sovet desantchilari mahalliy kommunistlar bir qismining yordami bilan qurol ishlatib va talafotlar ko‘rib, telemarkazni qo‘lga oldi va Vilnyusdagi asosiy nuqtalarni egallab olishga urindi. Ammo xalq chiqishlari bu mojaroni va Litva mustaqilligi dushmanlarining boshqa urinishlarini puchga chiqardi. 1990-yil 11-martda Litva mustaqilligi e’lon qilindi. 1991-yilda uni birinchi bo‘lib Islandiya tan oldi. Avgustda Rossiya hukumati ham Litva mustaqilligini tan oldi. Moskvadagi 1991-yilgi avgust fitnasi mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng SSSR Prezidenti ham shunday yo‘l tutishga majbur bo‘ldi.

1992-yilda referendum yo‘li bilan yangi hukumat tayyorlagan konstitutsiya qabul qilindi. Ijro etuvchi hokimiyat rahbari xalq tomonidan saylanadigan prezident va hukumat bo‘ldi.

Ilk Prezident — sotsial-demokratik partiya yetakchisi A. Brazauskas ham, liberal-vatanparvar ruhdagi bir qator partiyalarni tashkil etgan Sayudis a’zolari ham, ko‘pchilikni tashkil etgan hukumat ham asosiy e’tiborni xo‘jalikni yangilash va rivojlantirish uchun ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratdi. Litvada ilgari SSSRdan yetkazib beriladigan elektr energiyasi va xomashyo yetishmas edi. Rossiya bilan savdo va Kaliningrad tranziti to‘g‘risidagi bitim bu tanqislikni atigi bir oz yumshatdi. 1989-yildan 1993-yilgacha ishlab chiqarishning 50 foizga qisqarishi va yirik inflatsiya aholi ahvolini yomonlashtirdi va xalq noroziligini keltirib chiqardi. Litva Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo va moliyaviy-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga, xalqaro tashkilotlar va Xalqaro Valuta Fondidan kreditlar olishga majbur bo‘ldi. Hozirgi paytda tashqi savdo mamlakat YaIM ning uchdan ikki qismini tashkil etadi. Shu bilan birga eksportning 50 foizi Yevropa Ittifoqiga to‘g‘ri keladi.

1993-yilda milliy valuta — lit joriy qilindi. Uning barqarorlashuvi asosan vaucher (xususiylashtirish cheki) orqali korxonalarni xususiylashtirish va fermer xo‘jaliklarni oyoqqa turg‘izishga imkon berdi. 1994-yilda yerga xususiy mulkchilik asosida agrar munosabatlarni tartibga solish qoidalari belgilandi. 1996-yilga kelib davlat tasarrufida korxonalarning atigi 25 foizi, ya’ni energetika va transport qolgan edi. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi 80 ga yaqin mamlakatdan investitsiyani olib kirishga imkon berdi. Bu ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirishni ta’minladi, ammo xalq ommasining turmush darajasi unchalik ko‘tarilgani yo‘q.

90-yillarning oxiriga kelib ijtimoiy muammolarga yetarlicha e’tibor qaratmagan, ma’muriy-xo‘jalik xatoliklariga yo‘l qo‘ygan va korrupsiyaga

qarshilik ko‘rsatishni eplay olmagan G. Vagnoryus hukumati aholining noroziligiga sabab bo‘ldi. Umumxalq ovozi bilan saylangan yangi Prezident V. Adamkus 1999-yilda (2004-yilda qayta saylandi) oldingi hukumat yo‘l qo‘ygan xatoliklarga barham beruvchi yangi hukumatni xristian-konservatorlardan iborat qilib tuzdi. Yangi hukumat ham mamlakatda narx-navoning o‘sishini to‘xtata olmadi, ammo korxonalarni xususiylashtirishni tezlashtirdi va kengaytirdi. Lekin iqtisodiy qiyinchiliklar bartaraf qilinmadi.

Litva Boltiqbo‘yidagi qo‘shnilari, Polsha va Belorussiya hamda Rossiya bilan yaqin aloqalarni rivojlantirmoqda. Ammo uning uchun Yevropaning boshqa mamlakatlari, YEI bilan savdo va moliyaviy-iqtisodiy hamkorlik muhimroq ahamiyatga ega bo‘ldi. Litva eksportining 50 foizi YEIga to‘g‘ri keladi.

2004-yil 1-mayda Litva Yevropa Ittifoqiga va NATO ga a’zo bo‘ldi. Litva iqtisodida sanoat korxonalarini xususiy shaxslarga sotish katta rol o‘ynadi. 1996–1999-yillarda 1000 dan ortiq korxona sotildi. Tashqi savdoda oldin Rossiya asosiy rol o‘ynagan bo‘lsa, 2002-yildan Yevropa Ittifoqi davlatlari birinchi o‘ringa chiqdi. 2003-yilda YAIM 40,8 mlrd dollarga yetdi, aholi jon boshiga 11,4 ming dollarni tashkil etdi. Sanoatning to‘qimachilik, asbobsozlik, neftni qayta ishlash turlari rivojlanmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Estoniyadagi «Kuylayotgan inqilob» ning mazmunini tushuntiring.
2. Latviya bozor iqtisodiyotiga qanday o‘tdi?

3. Litvada mustaqillikning tiklanishi qanday kechdi?

6-bob. XX ASR — XXI ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI

37-§. Fan va madaniyat

Fan va texnika doimo taraqqiy etib keldi. Biroq bu taraqqiyot XX asrdan boshlab misli ko‘rilmagan darajada o‘sib ketdi. Shu tufayli adabiyotlarda ilmiy-texnika inqilobi (ITI) iborasi ishlatila boshlandi. Xo‘sh, ilmiy-texnika inqilobi nima o‘zi?

Ilmiy-texnika inqilobi — bu XX asrda fan va texnikada ro‘y bergan olamshumul kashfiyotlar tufayli fanning bevosita jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanganligi. Bu hodisa ITI mohiyatini tashkil etadi. ITI fan bilan texnikaning, fan bilan ishlab chiqarishning chatishib ketishiga olib keldi. Bu chatishuv, o‘z navbatida, kashfiyotlarning ishlab chiqarishga joriy etilishi muddatining qisqarishini ta’minladi.

ITI ishlab chiqaruvchi kuchlarning hamma komponentlarini (energiya, lazerlar, robotlar, texnika, mehnat materiallari, texnologiya) va, hatto,

?

Ilmiy-texnika inqilobi

odamning o‘zini ham o‘zgartirib yubordi. Chunonchi, energiya manbayiga oshib borgan ehtiyoj mutlaqo yangi manba — atom elektr stansiyalari barpo etilishiga olib keldi. Shuningdek, Quyosh, okean, chuqur yer osti energiyasidan foydalanishning ham kashf etilishini ta’minladi.

Ishlab chiqarish kompleks avtomatlashtirildi. 1946-yilda amerikalik olimlar J. Mashli va J. Ekkert birinchi kompyuterni yaratdilar. Tez orada kompyuter tizimlari bilan boshqariladigan texnologiya joriy etildi. Bu, aslida, odamsiz boshqariladigan texnologiya edi. Biroq ITI qanchalik qudratli bo‘lmasin, u inson omilini ishlab chiqarish jarayonidan siqib chiqara olmadi. Aksincha, u insonni o‘ta mukammal va murakkab texnika hamda texnologiyani o‘zlashtirib olishga undaydi.

Bu esa insonning o‘z bilimi, malakasini zamon talabi darajasida o‘stirib borishini zaruratga aylantirib qo‘ydi. Binobarin, insonning intellektual qobiliyati, ongi, dunyoqarashi jadal o‘zgarib bormoqda. Bugungi ishchi, muhandis XX asr boshlaridagi ishchi yoki muhandis emas. Bugungi ishchi (xodim) mashina elementi emas, balki mashinani nazorat etuvchisidir.

ITI, o‘z navbatida, ishlab chiqarishga mutlaqo yangi texnologiyaning (chunonchi, materialga lazer, gaz plazmasi, elektron-nur, ultra tovush yordamida ishlov berish) joriy etilishiga olib keldi. ITI, ayni paytda, axborot industriyasining yaratilishiga ham olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, fantexnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishning qudratli omiliga aylandi.

ITI kompyuterlarning mutlaqo yangi avlodlari yaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Bugungi kompyuter ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. ITI ilmiy bilimlar jamg‘arilishining misli ko‘rilmagan sur’atini ta’minladi. Masalan, XX asr boshlarida kimyo bo‘yicha millionta yangi ma’lumot 30 yildan ortiq vaqt ichida to‘plangan bo‘lsa, hozir shuncha ma’lumot to‘plash uchun 4 yil kifoya bo‘lmoqda.

Ishlab chiqarishdagi inqilobiy o‘zgarishlar, o‘z navbatida, aholi ijtimoiy qatlamida ham tub o‘zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Chunonchi, aholining ko‘pchilik qismi moddiy ishlab chiqarish sohasida emas, balki xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat qilishga o‘tdi.

Bundan tashqari, mehnat unumdorligi tobora o‘sib bormoqda. Bu esa ish vaqtini qisqartirishga, ta’tillar muddatini uzaytirishga, aholi mehnat daromadining o‘sishiga olib kelmoqda. Bu hol yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarishda amalda qo‘llashga mas’ul bo‘lgan insonning doimo qayta o‘qishiga, malakasini o‘zgartirishga, ishlab chiqarishning o‘zgaruvchi sharoitlariga tez moslashishiga imkon bermoqda.

Hukumat va xususiy ishlab chiqaruvchilar korxona ishchi va xizmatchilarining yuqori malakalarini saqlab qolishdan eng ko‘p darajada manfaatdordirlar. Shuning uchun ham AQSHda bir ishchining qayta tayyorlovdan o‘tishiga, o‘z malakasini yanada oshirishiga bir yilda sarflanadigan xarajat 400 ming dollarni tashkil etishi bejiz emas. O‘z navbatida, ishchiga

ta’lim berishga sarflanadigan har 35 ming dollar 965 ming dollar foyda ham keltirmoqda.
333
Ilmiy-texnika inqilobining asosini, birinchi navbatda, fizika fani tashkil etdi. XX asrda fizika fanida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirildi. Chunonchi, 1919-yilda tarixda ilk bor atom yadrosini parchalash, ikkinchi jahon urushi arafasida esa, uran atomlarining bo‘linishi zanjir reaksiyasi kashf etildi.
1942-yildan AQSHda yadro energiyasi olina boshlandi. Bu kashfiyotlar oxir-oqibatda atom bombasining yaratilishiga olib keldi. Shu tariqa yaxshilik yo‘lidagi barcha kashfiyotlar muallifi — inson dunyodagi barcha tirik mavjudotlarni, shu jumladan, o‘zini ham qirib yuborishga qodir qurol ham yaratdi.
(Bu qurol 1945-yilda ishlatildi ham.)
Elektr magnit to‘lqinlar fizikasining yaratilishi 20-yillarda televideniyening, 30-yillarda radiolokatsiyaning, 40-yillarda radioastronomiyaning, 50-yillarda kvant elektronikasining tug‘ilishiga olib keldi.
Kvant elektronikasi esa, o‘z navbatida, kosmik aloqani zarur kuchaytirgichlar bilan ta’minlovchi asbob kashf etilishini voqelikka aylantirdi.
Shuningdek, lazerning kashf etilishini ta’minladi. Radioelektronika sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar esa, 40-yillardayoq AQSHda dastlabki elektronhisoblash mashinalari (EHM) yaratilishiga imkon berdi.
1957-yilda sobiq SSSRda Yerning birinchi sun’iy yo‘ldoshi uchirildi.
1960-yilda Toman Neyman birinchi lazer qurilmasini yaratdi. 1961-yilda jahonda birinchi bo‘lib sobiq SSSR fuqarosi Yu. A. Gagarin raketada kosmosga parvoz qildi. Ayni chog‘da kosmonavtikaning xalq xo‘jaligiga xizmat qilishiga imkon yaratildi. 1969-yilda Neyl Armstrong (AQSH fuqarosi) Oyga qadam qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.
Fizika fani yutuqlari transport texnikasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Chunonchi, reaktiv dvigatelning samolyotga o‘rnatilishi samolyotning tovush to‘sig‘ini yengib o‘tishi muammosini hal etdi. Endi samolyotlar har qanday yuklarni minglab kilometr masofaga tashiy boshladi. 0,5 mln tonna neft sig‘adigan okean tankerlari yaratildi.
Kimyo fani taraqqiyotisiz ham ITI yuz bermas edi. Bu fan kashfiyotlari o‘ta toza va o‘ta qattiq, po‘latdek pishiq, ayni paytda undan 7—8 baravar yengil moddalar olishga imkon berdi, plastmassa, kauchuk, sintetik tolalar, dori-darmon yaratish mumkin bo‘ldi.
Biologiya fanida ham mislsiz kashfiyotlar amalga oshirildi. XX asr o‘rtalariga kelganda genetika yetakchi sohaga aylandi. Nuklein kislotalarning tuzilishi kashf etildi. Uning oqsil sintezidagi roli ham aniqlandi.
90-yillarda yangi fan — geninjeneriya (irsiyat muhandisligi) vujudga keldi. U katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Natijada vitaminlar, antibiotiklar va o‘g‘it hosil qilishga yordam beruvchi mikroorganizmlar yaratildi. Hayvonlarning zotli naslini urchitish, kasalliklarga chidamli o‘simlik navlarini yaratish mumkin bo‘ldi.
Biologik va biokimyoviy kashfiyotlar, o‘z navbatida, tibbiyotning reanimatologiya, anesteziologiya va immunologiya kabi yangi muhim
Fan — ITI asosi
334
Amerika astronavti, Oyda bo‘lgan birinchi odam.
Planetalararo «Mir» avtomatik stansiya.
335
tarmoqlarini vujudga keltirdi. Jarrohlik mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu hodisa inson tanasining dastlab buyrak, so‘ng yurak, o‘pka va boshqa a’zolarini ko‘chirib o‘tkazishda o‘z ifodasini topdi. Tibbiyotda sun’iy yurak yaratishga muvaffaq bo‘lindi.
Davolashning jarrohsiz usullari kashf etildi. Chunonchi, bugungi kunda buyrakdagi tosh ultratovush zarblari bilan maydalanmoqda. Insonning ko‘rish qobiliyati lazer yordamida tiklanmoqda. Yadroviy magnit tebranishlariga asoslangan kompyuter tomograflari yordamida bemorlarga tashxis qo‘yilmoqda.
Lekin ITI insoniyat oldiga o‘tkir muammolarni ham qo‘ymoqda. Tuproq, suv va havo zararlanmoqda. Atom tufayli ekologik falokat mintaqalari ko‘paymoqda. Birinchi jahon urushi va uning dahshatli oqibatlari tushkunlik kayfiyatini ham tug‘dirdi. Bu hol

20-yillar adabiyotida o‘z ifodasini topdi ham.
Dekadentlarning asarlari yoki umidsizlik ruhi bilan sug‘orilgan, yo bo‘lmasa, kitobxonni real voqelikdan, zamonning o‘tkir masalalaridan butunlay uzoqlashib ketgan xayoliy olamga chorlaydigan asarlar paydo bo‘ldi. Bunday asarlar kishilarni davr bilan hamnafas bo‘lishdan chalg‘itadi. Avstriya yozuvchisi Frans Kafka (1883—1924) dekadentlikning tipik namoyandasi edi. Biroq tushkunlikka tushgan inson hayotdan butunlay voz kechgan emas. Hatto, urushda majruh bo‘lgan va jirkanch jamiyatdan yuz o‘girgan jangchi ham o‘z insoniy qadr-qimmatini qanday bo‘lmasin saqlab qolishga intilgan. Chunonchi, nemis yozuvchisi E. Remarkning (1898—1970) «Uch o‘rtoq» romani qahramonlari najot yo‘lini frontdagi do‘stlikka sadoqatdan izlaganlar. Anri Barbyusning (1873—1935) ajoyib asari «O‘t. Bir vzvodning kundaligi» birinchi jahon urushi okoplarida yozilgan edi. Bu roman urush dahshatlarini tasvirlabgina qolmasdan, odamlar urushni qanday yenganliklari haqida ham hikoya qiladi.
Yoki ingliz yozuvchisi R. Oldingtonning asari («Hamma odamlar — dushman») qahramoni bu bema’ni dunyodan voz kechib, o‘zi sevgan ayol bilan xayoliy Ea orolida yashirinib bo‘lsa-da, hayot kechirish orzusi bilan yashagan.
20-yillardagi tushkunlik kayfiyati, hatto, E. Xemingueydek (1899—1961) shijoatli yozuvchini ham chetlab o‘tmagan. U ham umidsizlikka tushgan. Shu yillardagi asarlarining qahramonlarini o‘sha davr adovatli dunyosidan qutulish yo‘lini behuda izlayotgan kishilar obrazi tashkil etgan.
Biroq ijoddagi tushkunlik kayfiyati uzoq davom etmagan. Yevropada fashizmning

20—40-yillar adabiyoti

Ernest Xeminguey.

chuqur ildiz otishi, uning yangi jahon urushi manbayiga aylanishi mumkinligi taraqqiyparvar yozuvchilar ijodini bu xavfning oldini olish haqida bong urishga qaratgan. Bu borada ham yuqorida nomlari qayd etilgan uch mashhur yozuvchining asarlari muhim rol o‘ynagan. Ular fashizm insoniyatni yangi qirg‘inbarot urush girdobiga tortishi mumkinligini oldindan sezganlar.
1929-yilda R. Oldingtonning «Qahramonning o‘limi», E. Remarkning «G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q», E. Xemingueyning «Alvido, qurol» romanlari chop etilgan. Bu romanlar tez orada shuhrat qozongan.
Mualliflar urushning qonli va g‘ayriinsoniy mohiyatini zo‘r mahorat bilan tasvirlaganlar. Ayni paytda hukmron doiralarning muttahamligi, ikkiyuzlamachiligini fosh etganlar. Romen Rollanning (1866—1944) «Maftun bo‘lgan qalb» romanida fashizmning haqiqiy basharasi ochib tashlangan.
1935-yilda Parij shahrida dunyo yozuvchilarining madaniyatni himoya qilishga bag‘ishlangan butun jahon birinchi kongressi o‘tkazildi. Ikkinchi kongress 1937-yilda fashizmga qarshi kurashayotgan Ispaniyada o‘tkazildi.
30-yillar adabiyoti jamiyatning chirkin illatlarini fosh etish bilan ham sezilib turadi. Bu o‘rinda Amerika yozuvchisi J. Steynbekning (1902—1968) 1939-yilda nashr etilgan «G‘azab shingillari» romani katta shuhrat qozondi. Jahon iqtisodiy inqirozi amerika jamiyatining barcha salbiy tomonlarini ochib tashladi. Chunonchi, J. Steynbek xalqning yirik kompaniyalar tomonidan talanishini, boylar va kambag‘allarni ajratgan tubsiz jarlikni, inqiroz titratgan amerika jamiyatining barcha tabaqalari vakillariga xos xarakterlarni zo‘r mahorat bilan tasvirlagan. J. Steynbek romanining 1962-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganligi bejiz emas.

Steynbek qahramonining ko‘rinishi.

Ikkinchi jahon urushi tobora shiddat bilan yaqinlashmoqda edi. Fashizmning vahshiyligini birinchi bo‘lib ispan xalqi o‘z achchiq tajribasida sinab ko‘rdi. XX asrning mashhur dramaturgi Bertold Brext (1898—1956)

«Kuraj momo va uning farzandlari» pyesasida (1938) fashizm manbalarini ochib berdi va munofiqlik falsafasini fosh qildi. Fashistlar Brext kitoblarini yondirib tashladi. O‘zi chet ellarga muhojirlikka ketdi.

Jahonning mashhur yozuvchilari fashizmga qarshi kurashganlar haqida asarlar bitdilar. Shulardan biri, har yerda hozir-u-nozir E. Xeminguey edi. U Ispaniya fojiasini tinchlik va demokratiya uchun kurashning boshlanishi deb bilgan. Uning ispan xalqining fashizmga qarshi mardonavor kurashiga bag‘ishlangan romani «Qo‘ng‘iroq kimning motamini kuylayotir» deb ataladi. Bu roman 1940-yilda nashr etildi. Roman ayni paytda fashizmga qarshi jang qilish uchun Ispaniyaga ko‘ngilli bo‘lib jo‘nab ketgan yosh amerikalik fuqarolar haqida ham hikoya qiladi. AQSH rasmiy hukumati Ispaniya voqealariga aralashmasdan chetda turgan bir paytda bu yoshlarning Ispaniyaga borishi va antifashist kuchlar safida fashizmga qarshi kurashi katta jasorat edi. Ispaniya urushining o‘ziga xos bir jihati — bu, unda taraqqiyparvar ziyolilarning ham ishtirok etganligida edi. Ular Ispaniya misolida fashizmning mohiyatini anglab yetdilar.

Italiya va Germaniyada fashizmning g‘alabasiga ayrim yozuvchilar bardosh bera olmadilar. Chunonchi, mashhur yozuvchi Stefan Sveyg (1881—1942) o‘z joniga qasd qildi.

Lekin hamma ham bu yo‘lni tanlamagan. Aksincha, ular ishonchni yo‘qotmasdan fashizmga qarshi kurashchilar safiga qo‘shilganlar. Ular uchun fashizmga qarshi kurash Yevropa madaniyatini saqlab qolish vositasi edi. Ozodlik, insonparvarlik va demokratiyaga intilish esa ular hayoti va ijodining ma’nosiga aylandi.

Bu borada ingliz yozuvchisi B. Shou (1856—1950) ijodi alohida o‘rin tutadi. U o‘zining: «Faqat hayotning o‘zi va insonning yalpi farovonlikka erishishi uchun yashasa arziydi», — degan iborasini hayotiy shior qilib olgan edi. U «Jizzaki sotsialist», «Noteng nikoh», «Qalblar parchalanadigan uy» kabi asarlari bilan ijtimoiy drama janriga asos soldi. Bu asarlar B. Shouni jahon adabiyoti klassigi darajasiga ko‘tardi. 1925-yilda adabiyot sohasida xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Keyinchalik yozgan «Olma ortilgan arava», «Bayantning millionlari», asarlari ham jahon adabiyoti durdonasiga aylandi. 1948-yilda yozilgan «Olis kelajak haqida rivoyat» asarida B. Shou atom urushini qoralagan edi.

Yana bir mashhur ingliz yozuvchisi J. Golsuorsi (1865—1933) «Bu kunning komediyasi» asarida o‘sha davr Angliyasini «munofiqlar oroli» deb atagan. Shuningdek, hukmron doiralarning ikkiyuzlamachiligini, jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni fosh etgan. J. Golsuori 1932-yilda xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Demokratiya, tinchlik va ozodlik uchun kurash

Asarlari dunyoga mashhur bo‘lgan adiblar orasida amerika yozuvchilari ham bor edi. Ular ichida T. Drayzer (1871—1945) va U. Folkner (1897—1962) ijodi alohida tahsinga loyiq. T. Drayzer o‘z asarlarida («Baxtiqaro Kerri», «Amerika fojiasi» va boshqalar) AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini ko‘tarib chiqishga jur’at etgan edi.

1930-yilda «Amerika fojiasi» romani ekranlashtirildi. Bu kinofilm deyarli butun dunyoda namoyish etildi. Asarning bunchalik mashhur bo‘lib ketishining sababi unda ko‘pchilik yetishishi amrimahol bo‘lgan to‘q va dabdabali hayot haqidagi amerikacha orzu va millionlab amerikaliklar ustidan hukmron bo‘lgan qashshoqlik o‘rtasidagi ziddiyat qirralari butun borlig‘i bilan haqqoniy tasvirlanganida edi. T. Drayzer 1944-yilda AQSH san’at va adabiyot akademiyasi tomonidan faxriy oltin medal bilan taqdirlandi. Ushbu mukofot bilan taqdirlanganligi haqida muallifga yuborilgan xatda, jumladan, muallif haqiqiy Amerikani tasvirlashdagi jasorati va to‘g‘riso‘zligi uchun mukofotlanganligi qayd etilgan edi.

U. Folkner o‘z asarlarida qishloq hayotini aks ettirdi. U qishloqda inson qalbi uchun barcha zarur xislatlar mavjudligini ilg‘agan edi. Ayni paytda u mamlakat taraqqiyotining tabiiy omillari shaxs, oila, Vatan va jamiyat ekanligini

teran his etdi. U. Folknerga chinakam shuhrat keltirgan asar — «Sartoris» romani bo‘ldi (1929).
1932-yilda nashr etilgan «Avgustdagi nur» romanida amerika ijtimoiy hayotidagi eng jirkanch muammo — irqiy kamsitish muammosini ko‘tarib chiqdi. Uning keyinchalik yaratgan romanlarida ham («Avessalom! Avessalo!» «Bo‘ysunmaganlar», «Tushgin, Moisey») bu mavzuni davom ettirdi. Odamlarning ichki dunyosi va hayotini mayib qilayotgan jamiyatni fosh etdi. Irqiy mutaassiblik qurbonlariga esa hamdardlik bildirdi. Adolat g‘oyalari g‘alaba qozonishiga ishonch bilan qaradi. Uning keyingi asarlarida («Qishloqcha», «Shahar», «Qo‘rg‘on») ham insonparvarlik va rahmdillik g‘oyalari ruhi barq urib turgan. U. Folkner 1949-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.
Nemis yozuvchisi Tomas Manning (1875—1955) «Doktor Faustus» (1947) romanida natsistlar hukmronligi ostida qolgan Germaniyaning fojiali qismati uchun nemis ziyolilari qanchalik javobgar ekanligi ko‘rsatib beriladi. To‘g‘ri, 20—40-yillar ijodkorlarining hammasi ham taraqqiyotga xizmat qilgani yo‘q. Ularning ayrimlari fashizmdan, ayrimlari esa kommunizmdan najot izlaganlar.
Chunonchi, nemis faylasufi O. Shpengler (1880—1936) «Yevropaning zavoli» degan kitobida insoniyat taqdiri inson organizmi singari bolalik, yigitlik, yetuklik hamda keksalik bosqichlarini bosib o‘tuvchi sivilizatsiyalarning almashinuvidan iborat, degan g‘oyani ilgari surgan. U keksalikdan so‘ng o‘lim kelishiga ishora qilib, Yevropa keksalik davriga yetib keldi, binobarin, uning o‘limi yaqinlashmoqda, deyishgacha borib yetdi. Fikrini davom ettirib, Yevropani o‘limdan «kuchli shaxs» qutqarib qolishi mumkin, deb hisoblagan. U insonparvarlik va demokratiyani sivilizatsiyaning quy-qalari deb atagan.

Ingliz publitsisti T. Eliot (1888—1965) dekadent (tushkunlik kayfiyatidagi) ziyolilar davrasida juda mashhur bo‘lib ketgan edi. U ommani olomon, bilimsiz demokratiya, deb atagan. Alohida olingan shaxsga ham ishonchsizlik bilan qaragan, jamiyatni va sivilizatsiyani esa samarasiz, deb hisoblagan. U sivilizatsiyani qutqarib qoluvchi kuch sifatida goh ingliz mustamlakachiligini, goh katoliklikni olqishlaydi. O‘lim va mangulik, hayot mohiyati mavzularini metafizik nuqtayi nazardan tasvirladi.
SSSRda yangi jamiyat — «sotsializm» jamiyatining asosiy himoyachilaridan biri M. Gorkiy (1868—1936) yangi «sotsialistik realizm» iborasini o‘ylab topdi. Bu ibora mazmunini «davrning vijdoni» kommunistik partiya, uning rahbariyatini ko‘klarga ko‘tarib maqtash, kommunistik jamiyatni mutlaqlashtirish, uni eng adolatli jamiyat deb hisoblash, kommunizm g‘oyalariga sodiq bo‘lgan yangi insonni shakllantirish, sovet xalqi ongida kommunizmning muqarrar qaror topishiga cheksiz ishonchni qaror toptirish yotar edi.
Rossiyada 1917-yilgi oktabr to‘ntarishidan so‘ng qaror topgan bolsheviklar hokimiyatining o‘zboshimchaligi, hech qanday milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tan olmasligi ziyolilar o‘rtasida keskin norozilikni keltirib chiqardi. Davlat to‘ntarishining dastlabki yillaridayoq 75 mingdan ortiq atoqli adiblar, san’atkor, olimlar o‘z vatanlari — Rossiyani tark etdilar.
Mavjud tuzumni tanqid qilganlar, kommunistik partiya va sovet davlati rahbarlarining g‘ayriinsoniy siyosatiga nisbatan qarshi fikr bildirganlar qatag‘on qilindi. Ularning barchasiga bir xil — «sotsializmga tuhmat qildi», degan ayb qo‘yildi.
Kommunistik partiya o‘zi e’lon qilgan «madaniy inqilob» natijasida yangi jamiyat ziyolilarini shakllantirdi ham. Chunki adabiyot va san’atsiz kommunistik mafkurani omma ongiga singdirib bo‘lmasligini kommunistik partiya arboblari ham yaxshi tushunar edilar.
Shunday bo‘lsa-da, Rossiyada qalbi buyurmagan asarlar yozishdan o‘zini tiya olgan adiblar ham ijod qilgan. Ular orasida M. Sholoxov (1905—1984) alohida o‘rin tutadi. Uning «Tinch Don» (1928), «Ochilgan qo‘riq» (1932) romanlari dunyoda shuhrat qozondi. Bu asarlarda inqilob hamda kollektivlashtirish davri ziddiyatlari, inson fojialari haqqoniy tasvirlangan edi. M. Sholoxovning «Tinch Don» romani 1965-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

40-yillar rus sovet adabiyotida urush mavzusi bosh mavzuga aylandi. Bu mavzuda qalam tebratgan mashhur adiblar K. Simonov, V. Surkov, B. Polevoy va A. Safronov kabilar o‘z asarlari bilan xalqda fashizm ustidan g‘alabaga ishonch tuyg‘ularini qaror toptirishga munosib hissa qo‘shdilar.
Ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshlangan «sovuq urush» badiiy ijodga ham ta’sir etmay qolmadi.
Bu — ijodning g‘oyaviylik tomoni badiiylikdan ustun kela boshlashida o‘z ifodasini topdi. Bu davr badiiy madaniyatida

neorealizm (yangi realizm) oqimi paydo bo‘ldi. U adabiyotda ham o‘z ifodasini topdi. Neorealizm — o‘z oldiga «bo‘yab-bezalmagan», haqiqiy hayotni ko‘rsatishga intiluvchi oqim edi.
Neorealistlar (adabiyotda ham, tasviriy san’atda ham) tomoshabin yoki o‘quvchi ko‘z o‘ngida qashshoqlikda hayot kechiruvchi insonlarning butun hayotiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlab berdilar. Asarlarida ijtimoiy adolat uchun kurashni aks ettirishni o‘zlarining burchi, deb bildilar. O‘z asarlari qahramonlariga samimiy muhabbatlarini izhor eta oldilar.
Ulardan so‘ng nemis adabiyotining asosiy mavzusi Ikkinchi jahon urushi bo‘ldi. Fashistlar targ‘ibotiga aldangan, ma’naviy va jismoniy ezilgan avlod taqdiri taraqqiyparvar adiblar ijodini chetlab o‘tmagan. Chunonchi, adib X. Byoll va haykaltarosh F. Kremerlar urush yillaridagi konslager o‘rnida kompozitsiya bunyod etdilar. Kompozitsiyada mahbuslarning ruhiy holati, tug‘yoni va kuchi haqqoniy aks ettirildi.
«Kichkina» insonda insonparvarlik qarashlari boshlanishining tantanasi E. Xeminguey ijodida bosh mavzu bo‘ldi. Uning bu mavzuga bag‘ishlangan «Chol va dengiz» (1952) qissasi XX asr ikkinchi yarmi badiiy adabiyotining yuksak namunasi bo‘ldi. Bu asar Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.
Bu davr sovet adabiyotida dissidentlik ham kuchaydi. B. Pasternak, A. Soljenitsin bu adabiyotning yirik vakillari edi. Ular o‘z asarlarida xalqqa sovet tuzumining haqiqiy mohiyatini yetkazishga o‘zlarida jasorat topdilar. Bu o‘rinda A. Soljenitsinning «GULAG arxipelagi» asari keng shuhrat qozondi. Bu asar 1973-yilda chet ellarda chop etilgan edi. Sovet davlati rahbariyati A. Soljenitsinni mavjud tuzumga bo‘hton qilganlikda aybladi va uni 1974-yilda SSSRdan chiqarib yubordi.
Bu davr adabiyotiga Lotin Amerikasi davlatlari adiblari ham munosib hissa qo‘shdilar. Ular Lotin Amerikasi davlatlari hayotidagi illatlarni haqqoniy tasvirladilar. Chunonchi, J. Amadu (Braziliya), M. Asuel (Meksika), G. Markes (Kolumbiya) kabi adiblar o‘z asarlarida tub yerli aholining fojiali taqdirini, monopoliyalarning zo‘ravonligini, diktatorlik tartiblarining yovuzliklarini, dehqonlarning yer uchun kurashlarini badiiy bo‘yoqlarda va haqqoniy ko‘rsatib bergan edilar.
Bir so‘z bilan aytganda, taraqqiyparvar adabiyot bugungi kunda ham ezgulikka xizmat qilmoqda. 2002-yilda venger yozuvchisi Imre Kertesning (1929) xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlanganligi bu fikrning dalilidir. I. Kertesning bunday yuksak mukofotga munosib topilgan asarlari («Angliya bayrog‘i», «Izquvar») Ikkinchi jahon urushida jahannam fabrikalari — konslagerlardagi tutqunlar taqdiri haqida hikoya qiladi.
Muallifning o‘zi ham 1944-yilda konslagerga tashlangan, u fashizmning qay darajada vahshiy ekanligini ikki yil o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, Osvensim va Buxenvald konslagerlarida 60 ming nafar vengriyalik yahudiylarning o‘ldirilishiga guvoh bo‘lgan.

XX asr she’riyati unga faylasuf shoirlar kirib kelganligi bilan ajralib turadi. Bu XX asr she’riyatining o‘ziga xos xususiyati edi. Faylasuf shoirlar dunyoni yangilash jarayonida faol ishtirok etishni o‘zlarining ijtimoiy vazifalari deb hisoblaganlar. Faylasuf shoirlar she’riyat muxlislarini inson hayotining ma’nosi hamda inson mavjudligining asosiy qadriyatlari haqida chuqur mushohada qilishga undashdi. XX asr shoirlarining insoniyat oldidagi buyuk xizmatlari faqat bu bilangina cheklanmaydi. Ular urushlar va ijtimoiy inqirozlar davrida ham

insonlarni go‘zallik bilan oshno etdilar. Ularda kelajakka ishonch ruhini rag‘batlantirdilar.
Taraqqiyparvar shoirlar tinchlikni, ozodlikni, taraqqiyot va demokratiyani kuyladilar. Ular ichida, ayniqsa, nemis shoiri B. Brext va ispan shoiri F. Lorka (1898—1936) she’rlari katta shuhrat qozondi. B. Brext ijodining asosini she’riy pyesalar tashkil etgan. B. Brext she’riyati — dunyoni yangilash uchun kurashda o‘ziga xos jangovar chaqiriq vazifasini o‘tadi, deyish mumkin. Uning she’rlari taraqqiyparvar kuchlarni fashizm va diktaturaga qarshi kurashga chorlagan, oddiy mehnat ahliga muhabbat ruhi bilan sug‘orilgan edi.
U yaratgan «Uch kunlik opera», «Galileyning hayoti» va «Sichuanlik muruvvatpesha» kabi asarlar katta shuhrat qozondi. Ularda hayotning ma’nosi, oila, burch, muhabbat va inson qadr-qimmati haqida chuqur falsafiy fikrlar ilgari surildi. Ayni paytda hukmron doiralarning axloqsizligi fosh etildi. Insonparvarlik ulug‘landi. Urushga qarshi kurashga da’vat etdi. Quyidagi satrlar bu fikrlarni to‘la tasdiqlaydi:

Ey, dunyoning xalqlari,
Kulfat kuni qo‘zg‘oling!
Bu kurrai zaminni
Volidangiz deb biling.
Oq, sariq, qizil, qora!
Og‘a qonin to‘kmangiz!
Axir dunyo juda keng
Yetar bizga boshpana.

F. Lorka ispan she’riyatining faxri hisoblanadi. U ispan fashizmiga qarshi kurashganlar safida bo‘ldi. 1936-yilda u fashistlar tomonidan o‘ldirildi.
1917-yilgi to‘ntarishdan so‘ng Rossiyada ijodkor ziyolilar nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Ularning bir qismi chet ellarga ketishga majbur bo‘ldilar. Vatanida qolganlar esa vijdonlariga qarshi ish tutmaganlar. Ya’ni ular g‘ayriinsoniy jamiyatni — sovet jamiyatini, uning rahnamosi — bolsheviklar partiyasini tarannum etmaganlar.

She’riyat
Federiko Garsiya Lorka.
342

Ular orasida A. Axmatova (1889—1966), N. Gumilev (1886—1921), S. Yesenin (1895—1925), A. Blok (1880—1921), O. Mendelshtam (1891—1938) va boshqalar, ayniqsa, mashhur edilar. Ularning hayoti og‘ir kechdi. Chunonchi, N. Gumilev 1921-yilda otib tashlandi. S. Yesenin o‘z joniga qasd qildi. O. Mendelshtam 1938-yilda otib o‘ldirildi. Ommaviy qatag‘onlarga qaramay, rus adabiyoti totalitar tuzum sharoitida ham yashab qolishning uddasidan chiqdi. Ayni paytda uning shuhratini dunyoga taratishga ham muvaffaq bo‘ldi.
Taniqli Chili shoiri Pablo Nerudaning (1904—1973) «Ispaniya mening yuragimda», I. Bexerning «Asr o‘rtasidagi qadam», fransuz shoiri Jak Preverning (1900—1977) satirik va lirik she’rlari, shuningdek, R. Hamzatov, Q. Quliyev, Ye. Yevtushenko, A. Oripov, E. Vohidov, V. Visotskiy, Abdurahmon al-Homisiy va boshqalarning she’rlari insoniyatni olg‘a chorlab, yashashga ishtiyoq uyg‘otishga, Vatanni sevishga xizmat qilmoqda. Mana bu satrlar ular fikrini o‘zida ifodalaydi:

Ortimizdan kelar boshqalar,
Ko‘proq bo‘lar sabri ularning
Epchilligi va qat’iyati.
Ko‘rkamligi, kuchini ko‘rib,
Dunyo bo‘lur ularga taslim.
Yordam berar shunda ularga
Biz yaratib ketgan qo‘shiqlar.

Osiyolik yozuvchilardan Lu Sin (1896—1981) xitoy realistik adabiyoti asoschilaridan biri edi. Mao Dun (1896—1981), Ba Izin «So‘nggi quyosh», «O‘ychanlik», Li Sun Bao «Tog‘lar orasida o‘n to‘qqiz mozor» asarlari bilan tanildi. Hindistonlik Yashpalning (1903—1976) «Yolg‘on haqiqat»,

«Divya» romanlari, turkiyalik Nozim Hikmatning ajoyib she’rlari, Aziz Nesinning achchiq satiralari, afrikalik shoir va davlat arbobi A. Netoning ozodlikka undovchi she’rlari, Piter Abraxamsning «Tun hukmronligida» asari, Chili shoiri Pablo Neruda, braziliyalik yozuvchi Jorji Amadu asarlari dunyo xalqari tomonidan sevib o‘qilmoqda.

XX asr ikkinchi yarmida G‘arb tasviriy san’atida syurrealizm oqimi paydo bo‘ldi. Bunga hamma qatori o‘z farzandlarini sevuvchi, klassik musiqani qadrlovchi, o‘zining Vataniga, burchiga sodiq, odam qiyofasidagi odam, biroq insoniyat aqliga sig‘maydigan vahshiyona jinoyatlar sodir etgan fashistlar kirdikorlari fosh etilganligi sabab bo‘ldi.

Syurrealistlar tashqi ko‘rinish, tashqi qiyofa, tashqi dunyo ichki dunyo bilan mutanosib emas, u ichki dunyoni boricha aks ettira olmaydi, deb hisoblardilar. Shu tariqa ular realizmdan ham ustunroq, o‘ta realizmnisyurrealizmni yaratdilar.

San’at

343

Kino

Syurrealistlar fikricha, o‘ta realizm bizni o‘rab turgan real dunyo bilan mos emas. Oliy reallik (o‘ta reallik) insonlardan yashirinib turadi. Uni aqlidrok bilan anglab bo‘lmaydi. Ularning fikricha, rassomlar instinktlarga, tushlarga erk berishlari kerak edi. Syurrealizmning kubistik yo‘nalishidagi namoyandalari Pablo Pikasso (1881—1873), Mark Shogal (1899—1995), Salvador Dali (1904—1989) va boshqalar edi.

Aslida syurrealizm real voqelikdan uzilib qolish edi. Syurrealizmning ko‘rinishlaridan biri — abstraksionizm (mavhumlik — noma’lumlik, uzoqlashish) real voqelikdan uzilib qolishda syurrealizmdan ham o‘tib ketdi. Bu oqim tarafdorlari fikricha, tasviriy san’at voqelikni emas, balki rassom ongining holatini ifodalashi, rassom his-tuyg‘ularining in’ikosi bo‘lishi kerak edi. Abstraksionistlar ijodida (Ch. Novard, S. Devis, Retner, Morris va boshqalar) his, tuyg‘u, xayol borliqdan uzilgan chiziqlar, geometrik shakllarda namoyon etilgan. Ularda mazmun va shakl bir-biriga singib ketib, an’anaviy tushunchadagi mazmun va shakl o‘z mohiyatini yo‘qotgan.

XX asrning eng mashhur rejissori va aktyori Charlz Spenser Chaplinning (1899—1977) ijodi jahon kinosi tarixida tanqidiy realizmning porloq sahifasidir. U «Ulkan shahar chiroqlari», «Yangi zamonlar» filmida jamiyatdagi olchoqlikni tanqid qildi. «Diktator» filmida esa fashizmga qarshi pamflet bilan maydonga chiqdi. U «Nyu-Yorkdagi qirol» filmida jamiyatdagi axloqsizlikni fosh qildi. Chaplin achchiq satirasi tufayli mamlakatni tashlab, Yevropaga muhojir bo‘lib ketishga majbur bo‘ldi.

Fransuz rejissori Rene Kler «So‘nggi milliarder» nomli antifashistik filmida telba diktator «islohotlari»dan kuladi. Neorealizm oqimi namoyandalaridan italiyalik Roberto Rossellini, Vittorio de Sek, Juzeppe de Santis,

P. Pikasso. «Gernika».

344

Petro Jermilar shuhrat qozondi. «Rim — ochiq shahar», «Zaytun tagida dunyo yo‘q», «Velosiped o‘g‘rilari» va boshqa filmlar xalqning yashashga qobil ekanligini, ezguligini, adolat va birdamlikni aks ettirdi. Federiko Fillinining «Yo‘l», «Kabiriya tunlari» filmlarida parazitizm va axloqiy tanazzul ochib tashlanadi.

AQSH kinorejissori Stenli Kramerning «Bo‘yin egmaganlar» filmi irqchilikni tanqid ruhida bo‘lib, unda odamlarning tengligi va qardoshligi ochib beriladi.

O‘z ijodini xalq hayoti, demokratik madaniyat yutuqlari bilan bog‘lagan yirik kompozitorlar ajoyib badiiy asarlar yaratishdi. Artur Oneger, Paul Xindemit, Bela Bartoj, Jorj Gershvin, Benjamin Britten musiqada realistik yo‘nalish namoyandalari edilar.

Fransiyalik buyuk kompozitor A. Oneger hayoti va ijodi murakkabdir. U Romen Rollanning «14-iyul» pyesasiga musiqa yozdi va «Janna d’Ark gulxanda» oratoriyasini yaratdi. Oratoriya urush yillarida dushmanga qarshilik ko‘rsatuvchi fransuzlar harakatining musiqasi bo‘lib qoldi.

Ingliz kompozitori Benjamin Brittenning «Harbiy» marsiyasi Konventrining qaytadan tiklangan ibodatxonasida 1961-yilda birinchi marta ijro etildi. Kompozitor o‘z asarining g‘oyasini: «Marsiya kelajakka qaratilgan... Biz urush kabi falokatning oldini olishimiz kerak», — deb ta’rifladi. Nemis shoiri va kompozitori Gans Eysler, iste’dodli xonandalardan Pit Siger, Bob Dilan, Joat Baez (AQSH), Jan Ferra (Fransiya), grek kompozitori Mikis Teodorakis qo‘shiqlari butun dunyoga tarqaldi.

Charli Chaplinning «Yangi davrlar» filmi.

Dastlab XIX asr oxiri —XX asr boshlarida paydo bo‘lgan ommaviy madaniyat XX asr ikkinchi yarmida yanada rivojlandi. Bunga ommaviy axborot vositalarining nihoyat darajada rivojlanganligi sabab bo‘ldi. Uning janrlari (shou, triller, boyevik, shlyager, komiks) keng ommalashdi. Bu hol ommaviy madaniyatning maqsadi bilan izohlanar edi. Chunki ommaviy madaniyatning bosh maqsadini ko‘proq daromad olish tashkil etadi. Bu madaniyatning hammaga tushunarli hamda ko‘ngilocharligi uning asosiy sifat mezonini tashkil etadi. Pul topish uchun axloq normalaridan chekinildi.

Ommaviy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning asosini oddiy kishilar uchun mo‘ljallanganligi tashkil etishidir. Ommaviy madaniyat madaniy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Masalan, estrada qo‘shiqchiligida inglizlarning «Bittlz» ansambli dunyoda shuhrat qozondi. «Bittlz» va shu kabi boshqa ansambllar o‘z qo‘shiqlarida o‘ta muhim muammolar — yoshlarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topmaganligi, urush, militarizm, irqiy kamsitishlarga qarshi noroziliklarni namoyish etdilar. Ularning qo‘shiqlari mazmunan samimiyligi, o‘ta ta’sirchanligi, o‘tkir so‘zliligi bilan ajralib turadi.

Ayni paytda ijrochilarning yuksak qobiliyati, yuqori jarangdor ovozlari, mukammal maqomi, tovushlarning hamohangligi muxlislarga katta ruhiy ta’sir o‘tkazadi. Bu hol rok-musiqachilarni yoshlarning sevimli san’atkorlariga aylantirib qo‘yadi. Shuningdek, rok-musiqa yoshlarning turli harakatlari va guruhlarini birlashtiruvchi kuchga aylandi. «Bittlz» qo‘shiqlari o‘zining chuqur ta’sirchanligi, ijro mahorati, chuqur ma’nosi va samimiyligi bilan hamon yagonaligicha qolmoqda. Bu ansamblning tashkilotchisi Jon Lennon edi. Uning tug‘ilgan va halok bo‘lgan kuni barcha qit’a yoshlari va rok-musiqachilari tomonidan har yili nishonlab kelinmoqda.

60-yillar oxiridan boshlab rok-musiqa xalqaro siyosiy masalalarga ham jiddiy e’tibor berib kelmoqda. Chunonchi, u mintaqaviy urushlarni, irqchilikni, militarizmni va narkomaniyani keskin qoralaydi. Bugungi kunda u ekologiya va xayriya masalalariga ham katta e’tibor bermoqda.

Urushdan keyingi yillarda «pop-art» (ommabop) san’ati keng tarqaldi. «Popart » olg‘irlari turli buyumlarning parchalaridan «rasm» va «haykallar» yaratdilar. «Pop-art» musiqa, kino, teatrga ham kirib bordi. «Pop-art» chinakam san’atning ommaga yetib borishini zaiflashtirdi. Keyingi paytlarda «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yengil-yelpi, hayosizlikni targ‘ib qiluvchi san’at kuchaydi.

Shunday qilib, tarixan 100 yilga yaqin vaqtni o‘z ichiga olgan davrda adabiyot va san’atda buyuk o‘zgarishlar bo‘ldi. Chinakam, haqiqiy, xalqning ruhiga ta’sir etuvchi san’at o‘lmas bo‘lib qoldi. Yengil-yelpi, vaqtinchalik san’at tarix yo‘llarida sargardon bo‘lib qoldi. Dunyo xalqlari adabiyot va san’atning buyuk kuch ekanligiga ishonadilar. Chunki go‘zallikni, inson qalbiga ta’sir etadigan voqealarni hamma yaxshi ko‘radi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda fan va madaniyatning rivojlanishi insonni misli ko‘rilmagan yuksaklikka ko‘tardi. Fan yutuqlari ishlab chiqarishda inqilob yasashga olib keldi. Madaniyat globallashdi. Ko‘pgina joylarda milliy o‘zlikni anglash jarayoni tezlashdi va umumbashariy madaniyatning kishilar qalbi, ongiga chuqur singishi davom etmoqda.

Prezident Islom Karimov bu jarayon

haqida: «Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma’naviyat qutqaradi», — deb ta’kidlaganligi bejiz emas.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fan va ilmiy-texnika inqilobi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab ilm-fan va texnikaning gurkirab rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat?
3. Vaqtli matbuot materiallari asosida 2002 va 2004-yillarda xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan alloma va ijodkorlarni aniqlang.
4. XX asr 20—40-yillari adabiyoti haqida so‘zlab bering.
5. Buyuk yozuvchilar demokratiya va tinchlik ishiga qanday hissa qo‘shdilar?
6. XX asr ikkinchi yarmi adabiyoti haqida nimalar deya olasiz?
7. Ommaviy madaniyat haqida so‘zlab bering.
8. Musiqa va kinoda qanday yangiliklar bo‘ldi?
9. Madaniyatda globallashuv haqida o‘z fikrlaringiz asosida referat tayyorlang.

JADVALNI TO‘LDIRING. QAYSI YOZUVCHILARNING ASARLARINI O‘QIDINGIZ

Yozuvchining nomi	Asarning nomi	Qisqacha bayoni

BAHS YURITING

— Qaysi olimlar o‘zlarining qanday yangiliklari bilan jamiyat taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shdilar?
— Kelajakda qanday soha birinchi o‘ringa chiqadi? Nima bilan shug‘ullangan ma’qul?
«Bittlz» ansambli.

?

JAHON TARIXI SANALARDA
1918—2008-yillar

1918-yil

5—6-yanvar — Rossiyada Ta’sis majlisining chaqirilishi va tarqatib yuborilishi.
Yanvar — Turkiston mustaqilligi uchun qurolli harakatning boshlanishi.
3-mart — Rossiya tomonidan Germaniya bilan Brest sulhining imzolanishi. Rossiyaning urushdan chiqishi.
30-aprel — Turkistonning RSFSR tarkibidagi avtonom respublika deb e’lon qilinishi.
16-iyul — Yekaterinburgda Nikolay II va uning oila a’zolari otib tashlandi.
3-oktabr — Turkiyaning taslim bo‘lishi.
3-noyabr — Avstriya-Vengriyaning taslim bo‘lishi.
3-noyabr — Germaniyaning taslim bo‘lishi.
9-noyabr — Germaniyada monarxiyaning ag‘darilishi.
11-noyabr — Germaniya va Antanta davlatlari o‘rtasida Kompen yarash ahdining tuzilishi. Birinchi jahon urushining tugashi.
16-noyabr — Vengriyaning respublika deb e’lon qilinishi.

1919-yil

5-yanvar — Myunxenda Germaniya fashistlar partiyasining tashkil topishi.
23-mart — Milanda Mussolini tomonidan birinchi fashistlar «jangovar guruhi»ning tashkil qilinishi.
3-may — 3-iyun — Afg‘oniston xalqining ingliz qo‘shinlariga qarshi ozodlik kurashi. 8-avgustda Angliya va Afg‘oniston o‘rtasida sulh bitimi imzolandi.
28-may — turk xalqining Angliya-Gretsiya bosqiniga qarshi ozodlik kurashi boshlandi.
28-iyun — Germaniya tomonidan Birinchi jahon urushida g‘olib chiqqan Antanta davlatlari va mag‘lub Germaniya o‘rtasidagi sulh bitimining imzolanishi.

1920-yil

18—21-yanvar — Birinchi jahon urushida g‘olib chiqqan davlatlarning Parij tinchlik konferensiyasi ochilishi. Konferensiya davomida Millatlar Ligasi tashkil topdi.
1-mart — Vengriyada fashistlar diktaturasining o‘rnatilishi.
16-may — Stambulning Antanta qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi.

1921-yil

Mart — Rossiyada yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o‘tilishi.
20-oktabr — Anqarada Fransiya va Turkiya o‘rtasidagi urush holatini to‘xtatish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.

1922-yil

Aprel — may — Genuya konferensiyasi.
28-oktabr — Italiyada fashistlar diktaturasining o‘rnatilishi.

30-dekabr — SSSRning tashkil topishi.
1923-yil
8—9-iyun — Bolgariyada fashistlar to‘ntarishining amalga oshirilishi.
13-sentabr — Ispaniyada davlat to‘ntarishi. Primo de Rivera harbiy-monarxik diktaturasining o‘rnatilishi.
29-oktabr — Turkiya Respublikasining e’lon qilinishi.
8-noyabr — Myunxendagi «pivo isyoni». Gitlerning fashistlar diktaturasi o‘rnatishga urinishi.
1924-yil
2-yanvar — 1-fevral — Xitoyda Gomindan partiyasining tashkil topishi.
3-mart — Turkiyada xalifalikni bekor qilish to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi.
20-aprel — Turkiya Respublikasi konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1924—1927-yillar — Xitoydagi birinchi inqilobiy fuqarolar urushi.
1925-yil
12-mart — Sun-Yatsenning vafot etishi.
26-aprel — feldmarshal Gindenburgning Germaniya Respublikasi prezidentligiga saylanishi.
1-iyul — Guanchjou hukumatining Xitoy Respublikasi milliy hukumatiga aylantirilishi.
3-dekabr — Eron ta’sis majlisi tomonidan Kojarlar sulolasining ag‘darilishi va Rizoshoh Pahlaviyning shoh deb e’lon qilinishi.
1926-yil
24-aprel — hujum qilmaslik va betaraflik to‘g‘risidagi sovet-german bitimining tuzilishi.
1927-yil
12-aprel — Chan Kayshining aksilinqilobiy to‘ntarishi.
27-may — Buyuk Britaniya bilan SSSR o‘rtasida diplomatik munosabatlarning to‘xtatilishi.
1-avgust — Xitoyda ikkinchi fuqarolar urushining boshlanishi.
1928-yil
Yanvar — qishloqqa «g‘alla»ning ortiqchasini tortib olish maqsadida favqulodda choralar siyosati o‘tkazilishining boshlanishi. Rossiyada kollektivlashtirishga o‘tilishi.
349
2-aprel — yapon qo‘shinlarining Xitoydagi Shandun provinsiyasiga bostirib kirishi.
1929-yil
3-oktabr — Buyuk Britaniya bilan SSSR o‘rtasida diplomatik munosabatlarning tiklanishi.
24-oktabr — AQSHda birja tanazzuli. Jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi.
1930-yil
Yanvar — SSSRda «yalpi kollektivlashtirish» va «quloqlarni sinf sifatida tugatish » boshlandi.
25-yanvar — Hindistonda Mustaqillik kunining e’lon qilinishi.
1931-yil
14-aprel — Ispaniyada monarxiyaning ag‘darilishi. Respublikaning e’lon qilinishi.
8-sentabr — yapon qo‘shinlarining Manjuriyaga bostirib kirishi.
7-dekabr — ishsizlarning Vashingtonga birinchi milliy yurishi.
9-dekabr — Ispaniyada respublika konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1932-yil
9-mart — Manchjou-Go davlatining e’lon qilinishi.
29-noyabr — hujum qilmaslik haqida sovet – fransuz paktining imzolanishi.
1933-yil
30-yanvar — Gitlerning reyxskanslerlikka tayinlanishi. Germaniyada fashistik diktatura o‘rnatilishi.
27-fevral — Berlinda fashistlar tomonidan reyxstag binosining yoqib yuborilishi.
27-mart — Yaponiyaning Millatlar Ligasidan chiqishi.
14-oktabr — Germaniyaning Millatlar Ligasidan chiqishi.
16-noyabr — SSSR bilan AQSH o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi.
1934-yil
19-may — Bolgariyada davlat to‘ntarishi va fashistik diktatura o‘rnatilishi.
25-iyul — Avstriyada fashistlar fitnasi.
2-avgust — Gitlerning «german xalqining fyureri va reyxkansleri» deb e’lon qilinishi.
18-sentabr — SSSRning millatlar Ligasiga kirishi.
1935-yil
2-mart — Fors davlatiga yangi rasmiy nom — Eron nomining berilishi.
31-avgust — AQSHda «Betaraflik haqida qonun»ning qabul qilinishi.

11-oktabr — Millatlar Ligasi tomonidan Efiopiyaga bostirib kirganligi uchun Italiyaga iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash haqida qaror qabul qilinishi.
13-dekabr — Misrda 1923-yilgi konstitutsiyaning tiklanishi.
1936-yil
7-mart — Germaniya qo‘shinlarining Reyn viloyatiga bostirib kirishi va Germaniya tomonidan Lokarno bitimining buzilishi.
18-iyul — Ispaniyada 1936-yil iyuldan 1939-yil martgacha davom etgan fuqarolar urushi boshlanishiga olib kelgan fashistlar isyonining boshlanishi.
26-avgust — Angliya va Misr o‘rtasida ittifoqchilik va ingliz istilochi qo‘shinlarining Misrda qoldirilishi to‘g‘risidagi bitimning tuzilishi.
25-oktabr — «Berlin – Rim» ittifoqining rasmiylashtirilishi.
1937-yil
20-mart — Ispan respublikachi qo‘shinlari tomonidan Gvadalaxara ostonasida isyonchi va interventlarning tor-mor keltirilishi.
Iyun — Qizil armiyada ommaviy terrorning boshlanishi.
7-iyul — Yaponiyaning Xitoyga bostirib kirishi va yapon-xitoy urushining boshlanishi.
1937—1938-yillar — SSSRda ommaviy qatag‘on.
1938-yil
12-mart — Avstriyaning Germaniya qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi (Avstriyaning «anshlyus» qilinishi).
29-iyul — 11-avgust — SSSR hududiga bostirib kirgan yapon qo‘shinlarining Hasan ko‘lida tor-mor keltirilishi.
28-sentabr — Germaniyada harbiy safarbarlikning boshlanishi.
29—30-sentabr — Myunxen bitimining imzolanishi.
30-sentabr — Angliya va Germaniya o‘rtasida hujum qilmaslik va bahsli masalalarni tinch yo‘lga solish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning imzolanishi.
10-noyabr — Turkiya Respublikasi asoschisi va birinchi prezidenti Kamol Otaturkning o‘limi. Ismet Inenyuning prezident qilib saylanishi.
6-dekabr — Fransiya va Germaniya o‘rtasida hujum qilmaslik va bahsli masalalarni tinch yo‘lga solish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning imzolanishi.
1939-yil
27-fevral — Angliya va Fransiya tomonidan Ispaniyadagi Franko fashistlar hukumatining tan olinishi.
12-mart — Sovet – fin urushining tugashi.
15-mart — Germaniya qo‘shinlarining Chexiyani bosib olishi.
22-may — Yaponiyaning Germaniya va Italiya bitimiga qo‘shilishi («Po‘lat bitim»).
11-may — 31-avgust — Yaponiyaning Xalxin-Golda Mongoliya Xalq Respublikasi hududiga bostirib kirishi.

23-avgust — SSSR va Germaniya o‘rtasida hujum qilmaslik to‘g‘risidagi bitimning 10 yilga imzolanishi.
1-sentabr — fashistlar Germaniyasining Polshaga bostirib kirishi.
3-sentabr — Fransiya va Angliyaning Germaniyaga urush e’lon qilishi.
17-sentabr — SSSR qo‘shinlarining Polsha hududiga kiritilishi.
22-sentabr — Brest — Litovskda Polshani tor-mor keltirish operatsiyasining tugatilishi sharafiga sovet va nemis qo‘shinlarining qo‘shma paradi o‘tkazildi.
28-sentabr — SSSR va Germaniya o‘rtasida do‘stlik va chegaralar to‘g‘risida shartnoma imzolandi.
30-noyabr — Sovet-fin urushining boshlanishi. 1940-yil 12-martgacha davom etdi.
13-dekabr — Millatlar Ligasi SSSRni agressiyachi davlat deb e’lon qilib, uni Ligaga a’zolikdan chiqardi.
1940-yil
9-aprel — Germaniya qo‘shinlarining Daniya va Norvegiyaga bostirib kirishi.
19-may — Germaniya qo‘shinlarining Belgiyaga (28-mayda Belgiya armiyasi taslim bo‘ldi) va Gollandiyaga (14-mayda Gollandiya armiyasi taslim bo‘ldi) bostirib kirishi.
26-may — 3-iyun — Dyunkerkda ingliz va fransuz qo‘shinlarining evakuatsiya qilinishi.
14-iyun — nemis-fashist qo‘shinlarining Parijni ishg‘ol qilishi.
1-iyul — 19-avgust — Italiya qo‘shinlarining Shimoliy Afrikadagi hujumi.
13-avgust — Germaniya aviatsiyasining Angliyaga ommaviy hujumlarni boshlashi («Angliya uchun jang»).
16-sentabr — AQSHda umumiy harbiy majburiyat to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi.
27-sentabr — Berlinda Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan fashist davlatlari Uch tomonlama bitimining imzolanishi.

12-oktabr — fashist qo‘shinlarining Ruminiyaga bostirib kirishi.
28-oktabr — Italiyaning Gretsiyaga bostirib kirishi.
14—19-noyabr — Germaniya aviatsiyasining Birmingem va Koventrini bombardimon qilishi.
18-dekabr — Gitler tomonidan SSSRga qarshi urush to‘g‘risidagi 21-son direktiva («Barbarossa rejasi»)ning imzolanishi.
1941-yil
11-mart — AQSH kongressi tomonidan «Qurol-yarog‘ni qarzga yoki ijaraga berish (lend-liz) to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi.
5-aprel — Germaniya va ittifoqchilari qo‘shinlarining Yugoslaviya va Gretsiyaga bostirib kirishi.
13-aprel — Yaponiyaning SSSR bilan o‘zaro betaraflik to‘g‘risidagi bitimni imzolashi.
352
22-iyun — Germaniyaning SSSRga hujum qilishi. 1905—1918-yillarda tug‘ilgan harbiy xizmatga majburlarni safarbar qilishning boshlanishi.
12-iyul — SSSR va Buyuk Britaniya o‘rtasida Germaniyaga qarshi birga harakat qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.
29-sentabr — 1-oktabr — SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya vakillarining Moskvadagi konferensiyasi.
7-noyabr — AQSH prezidentining SSSRga lend-liz bo‘yicha harbiy va moddiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi.
6-dekabr — Angliyaning Finlandiya, Vengriya va Ruminiyaga urush e’lon qilishi.
7-dekabr — Yapon flotining Pirl-Xarborga hujumi.
8-dekabr — Angliyaning Yaponiyaga urush e’lon qilishi.
11-dekabr — Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan AQSH va Angliyaga qarshi urushda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.
1942-yil
1-yanvar — Vashingtonda 26 davlat tomonidan Uch tomonlama bitim davlatlari — Germaniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urushda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.
22-avgust — Braziliyaning Germaniya va Italiyaga urush e’lon qilishi.
23-oktabr — Angliya qo‘shinlarining Al-Alamayn (Misr) ostonasida hujumga o‘tishi.
8-noyabr — Angliya-Amerika qo‘shinlarining Shimoliy Afrika portlariga tushirilishi.
1943-yil
10-yanvar — Stalingrad ostonasida Paulyus qo‘mondonligidagi qo‘shinlar guruhining qurshovga va asirga olinishi.
13-yanvar — Germaniyada yalpi safarbarlikning e’lon qilinishi.
17-iyul — fevral — Stalingrad jangi. Ikkinchi jahon urushida hal qiluvchi burilishning yasalishi.
24—28-iyul — Italiyada fashist hukumatining ag‘darilishi va Mussolinining hibsga olinishi.
8-sentabr — Italiyaning taslim bo‘lishi.
13-sentabr — Italiya (Badolo hukumati)ning Germaniyaga urush e’lon qilishi.
19—30-oktabr — SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi konferensiyasi.
28-noyabr — 1-dekabr — SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya hukumat rahbarlarining Tehron konferensiyasi.
1944-yil
26-mart — sovet qo‘shinlarining Prut daryosi bo‘ylab SSSR davlat chegarasiga chiqishi.
4-iyun — ittifoqchilar qo‘shinlarining Rimga kirishi.
353
6-iyun — ittifoqchilar qo‘shinlarining Fransiyaga tushirilishi. Ikkinchi frontning ochilishi.
19-oktabr — Germaniyada 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan aholiga harbiy safarbarlikning e’lon qilinishi.
1945-yil
4—11-fevral — SSSR, Buyuk Britaniya va AQSH hukumat rahbarlarining Qrim (Yalta) konferensiyasi.
23-fevral — Turkiyaning Germaniya va Yaponiyaga urush e’lon qilishi.
1-aprel — 21-iyun — Amerika qo‘shinlarining Okinava orolini egallashi.
16-aprel — 8-may — Berlin uchun jang.
25-aprel — sovet va amerika qo‘shinlarining Torgau (Elba bo‘yidagi) shahri yaqinida uchrashuvi.
30-aprel — Gitlerning o‘z joniga qasd qilishi.
2-may — vermaxt Berlin gruppirovkasining tor-mor qilinishi.
8-may — Karlsxortda Germaniya qurolli kuchlarining so‘zsiz taslim bo‘lishi

to‘g‘risidagi hujjatning imzolanishi.
9-may — fashistlar Germaniyasi ustidan g‘alaba qozonilgan kun.
15-may — Yaponiya hukumati tomonidan Gitler Germaniyasi bilan tuzilgan bitimlarning bekor qilinishi.
24-may — AQSH prezidenti Trumen tomonidan Yaponiyaga qarshi atom bombasini jangovar ravishda qo‘llash to‘g‘risidagi buyruqning imzolanishi.
16-iyun — AQSHda atom bombasining sinov sifatida portlatilishi.
26-iyun — San-Fransiskodagi konferensiyada BMT Nizomining imzolanishi.
17-iyul — urush tugaganidan so‘ng demobilizatsiya qilingan askarlarning birinchi esheloni Toshkentga keldi.
17-iyul — 2-avgust — uch davlat — SSSR, Buyuk Britaniya va AQSH rahbarlarining Potsdam konferensiyasi.
8-avgust — AQSH, Angliya va Fransiya hukumatlari tomonidan Yevropa mamlakatlarining bosh harbiy jinoyatchilarini sud qilish uchun Xalqaro harbiy tribunalni ta’sis etish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.
9-avgust — SSSRning Yaponiyaga qarshi urushga kirishi.
21-avgust — AQSHning lend-liz bo‘yicha qurol-yarog‘ yetkazib berishni to‘xtatishi.
2-sentabr — Yaponiya vakillari tomonidan Tokioda yapon qurolli kuchlarining so‘zsiz taslim bo‘lishi to‘g‘risidagi hujjatning imzolanishi.
3-sentabr — Ikkinchi jahon urushining tugashi.
24-oktabr — BMT Nizomining kuchga kirishi. Bu kun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi.
1946-yil
1945-yil 20-noyabr — 1946-yil 1-oktabr — Asosiy harbiy jinoyatchilar ustidan Nyurenberg jarayoni.
10-yanvar — Londonda BMT Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasi ochildi.
31-yanvar — Yugoslaviyada federatsiya tarkibida oltita mustaqil respublika tashkil etildi (Serbiya, Chernogoriya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya).

5-mart — Fultonda U. Cherchillning «sovuq urush» boshlanishiga sabab bo‘lgan chiqishi.
27-aprel — Tokioda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi asosiy jinoyatchilar ustidan sud jarayoni boshlandi. 1948-yil 12-noyabrgacha davom etdi.
2-dekabr — Germaniyaning Bizonda okkupatsiya qilingan zonalarini 1947-yil 1-yanvardan qo‘shib yuborish haqidagi ingliz-amerika bitimi.
11-dekabr — BMTning bolalarga yordam berish jamg‘armasi (YUNISEF) tashkil topdi.
1947-yil
10-fevral — Parijda Ikkinchi jahon urushidagi g‘olib davlatlar o‘rtasida va Germaniyaning sobiq ittifoqchilari — Italiya, Ruminiya, Vengriya va Finlandiya bilan tinchlik shartnomasining imzolanishi.
12-mart — AQSHda Trumen doktrinasining e’lon qilinishi.
5-iyun — AQSH davlat kotibi J. Marshall Garvard universitetida so‘zlagan nutqida Amerika iqtisodiy yordami (Marshall rejasi) ko‘rsatish orqali Yevropani tiklash va rivojlantirish dasturini bayon qildi.
15-avgust — Mustaqillikning e’lon qilinishi va Hindistonning bo‘linishi (Pokistonning tashkil topishi). J. Neru Hindiston Bosh vaziri lavozimini egalladi.
18-sentabr — AQSHda Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB)ning tashkil topishi.
1948-yil
20-yanvar — Hindistonda Maxatma Gandini ekstremist-hind suiqasd qilib o‘ldirdi.
20-iyul — Li Sin Man Janubiy Koreya Prezidenti etib saylandi.
2-aprel — AQSH kongressi tomonidan «Marshall rejasi»ning qabul qilinishi.
14-may — Isroil mustaqil davlati tashkil topganligining e’lon qilinishi.
14-iyun — E. Beneshning iste’foga chiqishi. K. Gotvald Chexoslovakiya prezidenti etib saylandi.
2-oktabr — AQSH prezidentlik saylovlarida G. Trumenning g‘alabasi.
10-dekabr — BMT Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qildi.
1949-yil
25-yanvar — O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O‘IYOK)ning tashkil topishi.
4-aprel — Vashingtonda Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Kanada, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Portugaliyadan iborat Shimoliy Atlantika pakti (NATO) tashkil topdi.

8-may — GFR Konstitutsiyasining qabul qilinishi. GFRning tashkil topishi.
25-sentabr — SSSRda birinchi marta atom bombasi sinab ko‘rildi.
1-oktabr — Xitoy Xalq Respublikasi e’lon qilindi.
355
1950-yil
26-yanvar — Hindiston Respublikasi e’lon qilindi.
25-iyun — KXDR hududiga Janubiy Koreya qo‘shinlarining hujumi. Koreyada urush boshlanishi.
1951-yil
1-sentabr — San-Fransiskoda AQSH va Yaponiya o‘rtasida Xavfsizlik bo‘yicha Tinch okean paktining imzolanishi. Yaponiyadan AQSH qo‘shinlari olib chiqib ketildi.
1952-yil
18-fevral — Gretsiya va Turkiyaning NATOga qo‘shilishi.
26-fevral — Buyuk Britaniya atom bombasi yaratganligini e’lon qildi.
4-noyabr — AQSH prezidentlik saylovlarida D. Eyzenxauer g‘alabasi.
1953-yil
5-mart — I. V. Stalin o‘limi.
18-iyun — Misrning respublika deb e’lon qilinishi.
19-iyun — AQSHda atom bombasini yaratish sirlarini SSSRga sotganlikda ayblangan er-xotin Yulius va Emel Rozenberglar qatl qilindi.
20-avgust — SSSRda vodorod bombasi sinovi o‘tkazildi.
1954-yil
21-iyul — Jeneva bitimiga muvofiq Vetnam 17-parallel bo‘yicha bo‘lindi.
8-sentabr — Manilada Janubi-Sharqiy Osiyo (SEATO) mudofaasi to‘g‘risidagi Shartnoma imzolandi.
1955-yil
9-may — G‘arbiy Germaniya NATOga qabul qilindi.
14-may — Yevropadagi sotsialistik mamlakatlar o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida Shartnoma (Varshava shartnomasi) imzolandi.
1956-yil
25-fevral — N. S. Xrushyov shaxsga sig‘inish va uning oqibatlari to‘g‘risida ma’ruza qildi.
23-mart — Pokiston Islom Respublikasi e’lon qilinishi.
24-iyun — polkovnik Jamol Abdul Nosir Misr Prezidenti etib saylandi.
19-oktabr — Diplomatik munosabatlarni tiklash to‘g‘risida sovet-yapon Deklaratsiyasining imzolanishi.
30-oktabr — Isroil-Misr urushining boshlanishi.
30-oktabr — Vengriyadan sovet qo‘shinlarining olib chiqib ketilishi.
356
1957-yil
6-fevral — Isroil qo‘shinlari G‘azo sektorini BMT qurolli kuchlari nazorati ostiga topshirdi.
25-mart — Yevropa iqtisodiy kengashi («Umumiy bozor»)ni tashkil etish to‘g‘risida Rim protokollarining imzolanishi.
4-oktabr — SSSR birinchi sun’iy Yer yo‘ldoshini uchirdi.
1958-yil
8-yanvar — Fransiyada general Sharl de Goll Beshinchi respublika Prezidenti deb e’lon qilindi.
15-may — Angliyada birinchi marta vodorod bombasi sinab ko‘rildi.
14-iyul — Iroqdagi inqilob. Monarxiya qulab, respublikaning e’lon qilinishi.
1959-yil
1-yanvar — Kubada inqilob g‘alaba qozondi.
1960-yil
1-may — Amerikaning Garri Pauers boshqarayotgan o‘ta balandlikda uchuvchi U-2 razvedkachi samolyoti urib tushirildi (19-avgustda Pauers ayg‘oqchiligi uchun 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi).
8-noyabr — J. Kennedining AQSH prezidentlik saylovlaridagi g‘alabasi.
14-noyabr — neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti — OPEK tashkil topdi.
1961-yil
12-aprel — SSSRda Yu. Gagarin kosmik kemada uchirildi (insonning ilk bor fazoga uchishi).
17-aprel — Fidel Kastro dushmanlarining Play-Xiron rayoniga hujumi.
13-avgust — Sharqiy Germaniya Brandenburg darvozasi orqali o‘tiladigan Sharqiy va G‘arbiy Berlin o‘rtasidagi erkin o‘tish chegarasini yopib qo‘ydi.
29-sentabr — Suriya Arab Respublikasining e’lon qilinishi.
1962-yil
18-mart — Fransiya va Jazoir o‘rtasida o‘t ochishni to‘xtatish to‘g‘risidagi

Evian bitimi imzolandi.
22-oktabr — 28-oktabr — Karib tangligi.
1963-yil
15-oktabr — Konrad Adenauer iste’foga chiqdi.
22-noyabr — Dallasda (Texas shtati) AQSH Prezidenti Kennedi o‘ldirildi.
357
1964-yil
14-may — Misrda Asvon to‘g‘onining ochilishi.
16-oktabr — Xitoyda birinchi bor atom quroli sinab ko‘rildi.
3-noyabr — AQSHdagi prezidentlik saylovlarida Lindon Jonson g‘alabasi.
1965-yil
7-fevral — VDR hududining AQSH aviatsiyasi tomonidan ommaviy bombardimon qilinishining boshlanishi.
1966-yil
19-yanvar — Hindiston Bosh vaziri lavozimini Indira Gandi egalladi.
9-mart — Fransiya Prezidentining NATOdan chiqish to‘g‘risidagi arizasi.
1-dekabr — GFRda «katta koalitsiya» hukumati — XDI/XSI va GSDP tashkil topdi.
1967-yil
10-may — Harbiy tribunal Stokgolmda Vetnamga qarshi operatsiyada AQSHni aybladi.
5-iyun — Misr, Iordaniya va Suriyaga qarshi Isroil harbiy agressiyasi boshlandi (olti kunlik urush).
17-iyun — XXRda vodorod bombasining ilk bor sinovi o‘tkazildi.
1968-yil
21-avgust — Chexoslovakiyaga Varshava shartnomasi tarkibidagi beshta mamlakat qo‘shinlari kirib bordi.
5-noyabr — AQSHdagi prezidentlik saylovlarida Richard Nikson g‘alaba qozondi.
1969-yil
3-fevral — Yosir Arofat Falastin ozodlik tashkiloti raisi etib saylandi.
28-aprel — Fransiya Prezidenti Sharl de Goll iste’foga chiqdi.
15-iyun — Jorj Pompidu Fransiya Prezidenti etib saylandi.
1-sentabr — Liviya respublika deb e’lon qilindi.
1970-yil
29-sentabr — Anvar Sadat Misr Prezidenti etib saylandi.
24-oktabr — Chili prezidentligiga Salvador Alyende saylandi.
7-dekabr — G‘arbiy Germaniya va Polsha Oder-Neysa bo‘yicha chegaralarni tan olish to‘g‘risidagi Shartnomani imzoladi.
358
1971-yil
28-oktabr — Angliyaning «Umumiy bozor»ga kirishi.
3—17-dekabr — Hind-pokiston urushi. Bangladeshning tashkil topishi.
1972-yil
22-yanvar — Bryusselda Angliya, Daniya va Irlandiyaning 1973-yil 1-yanvardan YEIlga kirishi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi.
1973-yil
27-yanvar — AQSH tomonidan Shimoliy Vetnamga qarshi harbiy operatsiyalarning to‘xtatilishi.
17-iyul — Afg‘onistonda monarxiyaning ag‘darilishi va respublika deb e’lon qilinishi.
11-sentabr — Chilida general A. Pinochet boshchiligidagi harbiy to‘ntarish, Chili Prezidenti S. Alyende o‘ldirildi.
18-oktabr — G‘arbiy va Sharqiy Germaniya BMTga qabul qilindi.
1974-yil
25-aprel — Portugaliyada fashistlar rejimi ag‘darildi.
16-may — Broz Tito Yugoslaviya Prezidenti etib saylandi.
9-avgust — R. Nikson «uotergeyt ishi» sababli iste’foga chiqdi. Vitse-prezident Jerald Ford AQSHning 38-prezidenti etib saylandi.
1975-yil
1-avgust — Xelsinkida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Kengashning yakunlovchi akti imzolandi.
10-noyabr — Angolaning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi. Agostinyu Neto Prezident etib saylandi.
1976-yil
2-iyul — Ikkala Vetnam qo‘shilishining tugallanishi va VSRning tashkil topishi.
4-iyul — AQSH mustaqilligining 200 yilligi.
9-sentabr — Mao Szedun o‘limi.
2-noyabr — Jeyms Karter AQSH Prezidenti etib saylandi.

1977-yil
30-iyun — SEATOning rasmiy yopilishi.
7-oktabr — SSSR yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1978-yil
28-aprel — Afg‘onistonning respublika deb e’lon qilinishi. N.M. Taraqqiyning davlat rahbari etib saylanishi.
359
1979-yil
11-fevral — Eronda islom inqilobi g‘alaba qozondi. Shohlik rejimining ag‘darilishi.
4-may — Margaret Tetcher Buyuk Britaniya Bosh vaziri etib saylandi.
16-iyul — Saddam Husaynning Iroq Prezidenti etib saylanishi.
27-dekabr — H. Amin rejimining qulashi, mamlakat rahbari — Babrak Karmal.
28-dekabr — Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga olib kirilishi.
1980-yil
18-aprel — Rodeziyaning Zimbabve mustaqil respublikasi deb e’lon qilinishi.
iyul — Polshada siyosiy krizisning boshlanishi. «Solidarnost» kasaba uyushmasi tashkil topishi.
4-may — YUSFR prezidenti B. Tito vafot etdi.
4-noyabr — AQSHda prezidentlik saylovlarida Ronald Reygan g‘alaba qozondi.
sentabr — Eron va Iroq o‘rtasida urushning boshlanishi (8 yil davom etdi).
1981-yil
6-oktabr — Misr Prezidenti A. Sadat o‘ldirildi.
14-oktabr — Misr Prezidenti etib Husni Muborak saylandi.
17-noyabr — Chexoslovakiyada «bahmal inqilob»ning boshlanishi.
1982-yil
28-aprel — Argentina qo‘shinlari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan Folklend orollariga tushirildi.
25-aprel — Isroil qo‘shinlarining Sinay orollaridan olib chiqilishi yakunlandi.
30-may — Italiyaning NATOga qabul qilinishi.
1983-yil
10-noyabr — L. I. Brejnev vafot etdi. Uning lavozimini Yu. Andropov egalladi.
1984-yil
31-oktabr — Hindiston Bosh vaziri Indira Gandining o‘ldirilishi. Rajiv Gandi — yangi bosh vazir.
6-noyabr — Ronald Reygan AQSHda prezidentlik saylovlarida g‘alaba qozondi.
1985-yil
aprel — M. Gorbachyov tomonidan SSSRda qayta qurish siyosatining amalga tatbiq etilishi.
1986-yil
1-yanvar — Ispaniya va Portugaliya YEII a’zoligiga qabul qilindi.
fevral — SSSRda oshkoralik kampaniyasi boshlandi.
26-aprel — Chernobil atom elektrostansiyasidagi portlash.
360
1987-yil
1-iyun — Margaret Tetcher uchinchi marta Angliya Bosh vaziri etib saylandi.
30-noyabr — Najibulloning Afg‘oniston Prezidenti etib saylanishi. Mamlakat yangi konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1988-yil
15-may — Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistondan olib chiqib ketilishi.
8-noyabr — Jorj Bush AQSHda prezidentlik saylovlarida g‘alaba qozondi.
2-dekabr — Benazir Bxutto — Pokiston Bosh vaziri.
1989-yil
7-yanvar — Yaponiya imperatori Xiroxito o‘limi. Akixitoning taxtga o‘tirishi.
15-fevral — Sovet qo‘shinlari Afg‘onistondan olib chiqib ketilishining yakunlanishi.
19-iyul — general Yaruzelskiyning Polsha prezidentligiga saylanishi.
31-oktabr — Turg‘ut O‘zol Turkiya Prezidenti etib saylandi.
9-noyabr — Sharqiy va G‘arbiy Germaniya o‘rtasidagi chegaralarning ochilishi e’lon qilindi.
23-dekabr — Ruminiyada N. Chaushesku tuzumining ag‘darilishi.
29-dekabr — Vatslav Gavelning Chexoslovakiya Prezidenti etib saylanishi.
1990-yil
29-may — B. N. Yelsinning RSFSR Oliy Soveti raisi etib saylanishi.
3-oktabr — Germaniyaning qayta birlashishi, yagona german davlatining e’lon qilinishi.
9—10-noyabr — «Berlin devori»ning qulashi
28-noyabr — Buyuk Britaniya Bosh vaziri etib Jon Meyjorning saylanishi.
1991-yil
16-yanvar — AQSH va ittifoqdosh qo‘shinlarning Quvaytni Iroq bosqinidan

ozod etish bo‘yicha «sahrodagi bo‘ron» operatsiyasi boshlanishi.
12-iyun — B. N. Yelsin Rossiya Federatsiyasi Prezidenti bo‘ldi.
17-iyun — Janubiy Afrikada aparteidning bekor qilinishi.
25-iyun — Yugoslaviya tarkibidan Sloveniya va Xorvatiyaning chiqishi.
1-iyul — Varshava shartnomasi tashkilotining rasmiy tugatilishi haqidagi protokolning Pragada imzolanishi.
20-avgust — Estoniya mustaqilligining e’lon qilinishi.
21-avgust — SSSRda GKCHP isyonining tugatilishi.
21-avgust — Latviya mustaqilligining e’lon qilinishi.
24-avgust — Ukraina mustaqilligining e’lon qilinishi.
27-avgust — Moldaviya, Gruziya, Armaniston, O‘rta Osiyo respublikalari mustaqilligining e’lon qilinishi.
361
31-avgust — O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e’lon qilinishi.
22-dekabr — Armaniston mustaqilligining e’lon qilinishi.
8-dekabr — SSSRning parchalanishi — Belovej bitimining imzolanishi.
21-dekabr — MDH (sakkiz respublika) tashkil etilishi haqidagi bitimning imzolanishi.
25-dekabr — M. S. Gorbachyov SSSR Prezidenti vakolatlarini o‘zidan soqit qildi.
1992-yil
1-fevral — Rossiya Federatsiyasi va AQSHning «sovuq urush» holatini to‘xtatish haqidagi bayonoti.
2-mart — Bosniyada fuqarolar urushi boshlanishi.
1993-yil
1-yanvar — Chexiya va Slovakiya mustaqilligining e’lon qilinishi.
26-yanvar — Bill Klintonning AQSH Prezidenti etib saylanishi.
may — Sulaymon Demirelning Turkiya Prezidenti etib saylanishi.
3-oktabr — Moskvada Oq uyning ishg‘ol etilishi.
1994-yil
10-may — Nelson Mandela Janubiy Afrika Prezidenti sifatida qasamyod qildi.
31-avgust — Germaniyadan Rossiya qo‘shinlari kontingentining chiqarilishi.
1994—1996-yillar — Rossiya qo‘shinlarining Chechenistonda «Konstitutsiyaviy tartibni o‘rnatish bo‘yicha» harbiy harakatlari.
1995-yil
16-mart — Missisipi shtatida AQSH Konstitutsiyasiga 13-tuzatish kiritildi — qullik rasman man etildi.
7-may — Jak Shirak Fransiya Prezidenti etib saylandi.
1996-yil
2-aprel — Moskvada ikki mamlakat hamjamiyatini tuzish haqida Rossiya-Belorussiya shartnomasi imzolanishi.
1997-yil
fevral — Den Syaopin 92 yoshida vafot etdi.
dekabr — Gonkong yana XXR hududiga kirdi.
1998-yil
27-sentabr — Gerxard Shryoderning Germaniya kansleri etib saylanishi.
362
1999-yil
aprel — may — Hindiston va Pokistonda yadro quroli sinovi.
sentabr — Kosovo hududiga NATO qo‘shinining kiritilishi.
31-dekabr — B. N. Yelsinning iste’foga chiqishi.
2000-yil
mart — V. Putin Rossiya Federatsiyasi Prezidenti etib saylandi.
iyun — Janubiy va Shimoliy Koreya prezidentlari Pxenyanda sulh va Koreyaning ikkala qismini birlashtirish to‘g‘risida shartnoma imzoladilar.
2001-yil
yanvar — J. Bush AQSHning 43-Prezidenti deb e’lon qilindi. Hindistonda zilzila, Gujarat shtatida 20 ming odam halok bo‘ldi.
Eronda islohotchilarning sobiq yo‘lboshchisi Muhammad Hotamiy prezident etib saylandi.
avgust — Rossiya va Xitoy o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi.
11-sentabr — Nyu-Yorkdagi Jahon savdo markazi va Vashingtondagi Pentagonda terrorchilik harakatlari.
7-oktabr — Afg‘onistonda terrorchilikka qarshi kampaniya boshlandi. Kofi Annanga Xalqaro Nobel tinchlik mukofoti berildi.
2002-yil
mart — Prezident Islom Karimovning AQSHga tashrifi. J. Bush bilan muzokaralar.
iyun — Fransiyada prezident saylovi. J. Shirak Prezident etib saylandi.
sentabr — Germaniyada saylov. Germaniya Sotsial-demokratik partiyasi g‘alaba

qozondi. Gerxard Shryoder Germaniya kansleri lavozimida qoldi.
2003-yil
iyun — AQSH — Angliya Iroqqa hujum boshladi.
dekabr — Ozarbayjonda saylov. Ilhom Aliyev Prezidentlik lavozimiga keldi.
2004-yil
yanvar — Gruziyada M. Saakashvili saylovda g‘alaba qildi.
mart — Rossiyada saylov V. Putin o‘z lavozimiga qayta saylandi.
may – Hindiston Bosh vaziri etib Monmaxon Sinx saylandi.
oktabr — X. Karzay Afg‘oniston Prezidenti qilib saylandi.
dekabr — Ukrainada saylov. V. Yushchenko Prezident qilib saylandi.
363
2005-yil
aprel — Qirg‘izistonda «Lola inqilobi». A. Akayev Prezidentlikdan ketdi.
may — Eronda saylov. Mahmud Ahmadiy Najot prezidentlik lavozimiga keldi.
noyabr – GFR tarixida birinchi ayol Angela Merkel Kansler etib saylandi.
dekabr – Lex Kachinskiy Polsha Prezidenti bo‘ldi.
2006-yil
sentabr — Sindzo Abe Yaponiya Bosh vaziri etib saylandi.
noyabr — Roman Prodi Italiya Bosh vaziri lavozimiga keldi.
noyabr — Iroqning sobiq diktatori S. Husayn osib o‘ldirishga hukm qilindi.
dekabr — BMT Bosh sekretari lavozimini Pan Gi Mun egalladi.
dekabr – Turkmanboshi S. Niyozov vafot etdi.
2007-yil
fevral – Turkmaniston prezidenti qilib G. Berdimuxamedov saylandi.
may – N. Sarkozi Fransiya Prezidenti etib saylandi.
iyun – Gordon Braun Buyuk Britaniya Bosh vaziri lavozimini egalladi.
avgust – Abdulla Gul Turkiya Prezidenti qilib saylandi.
sentabr – Ya. Fukuda Yaponiya Bosh vaziri bo‘ldi.
2008-yil
yanvar – S. Berluskoni Italiya Bosh vaziri bo‘ldi.
fevral – Li Myon Bak Koreya Respublikasi Prezidenti lavozimiga keldi.
mart – D. Medvedev Rossiya Prezidenti etib saylandi.
avgust – Gruziya Janubiy Osetiyaga hujum qildi.
noyabr — B. Obama AQSH Prezidenti etib saylandi.
364

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. 1-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati. 1-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.
3. Karimov I. A. Mintaqada xavfsizlik va hamkorlik uchun. 4-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.
4. Karimov I. A. O‘tmishsiz kelajak, hamkorliksiz taraqqiyot bo‘lmaydi. 4-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.
5. Karimov I. A. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlari kengashida so‘zlagan nutq. 5-jild. T., «O‘zbekiston», 1997.
6. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. T., «O‘zbekiston», 1998.
7. Karimov I. A. Yevropa–Kavkaz–Osiyo (TRASEKA) transport tarmog‘ini rivojlantirishga bag‘ishlangan nutq. 7-jild. T., «O‘zbekiston», 1999.
8. Karimov I. A. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istambul sammitida so‘zlangan nutq. 8-jild. T., «O‘zbekiston», 2000.
9. Karimov I. A. BMT Bosh Assambleyasida so‘zlangan nutq. 9-jild. T., «O‘zbekiston», 2001.
10. Karimov I. A. Amerikalik ishbilarmonlar bilan bo‘lgan uchrashuvda so‘zlangan nutq. 10-jild. T., «O‘zbekiston», 2002.
11. Karimov I. A. Yevroatlantika hamkorlik kengashi sammitida so‘zlangan nutq. 11-jild. T., «O‘zbekiston», 2003.
12. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. T., «O‘zbekiston», 2005.
13. Karimov I. A. Mintaqada xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. 13-jild. T., «O‘zbekiston», 2005.
14. Karimov I. A. O‘zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar. 14-jild. T., «O‘zbekiston», 2006.
15. Karimov I. A. O‘zbek xalqining Islom madaniyati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasining yuksak e’tirofi. 15-jild. T., «O‘zbekiston», 2007
16. Karimov I. A. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlangan nutq. 15-jild. T., «O‘zbekiston», 2007.
17. Александров В. В. Новейшая история стран Европы и Америки. М., 1988.

18. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1918–1945 гг. (Под ред. Е. Ф. Языкова). М., 1989.
19. Капустин Б.Г. Глобальные проблемы мирового общественного развития. М., 1991.
20. Верт И. История советского государства. 1990–1991. М., 1992.
21. Из истории мировой цивилизации (Под ред Ш.М. Мунчаева). М., 1995.
365
22. Lafasov M. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. T., 1995.
23. Лурье Ф. М. Российская и мировая история в таблицах. СПб, 1995.
24. Кредер А. А. Новейшая история. XX век. М., 1996.
25. Всемирная история. С древнейших времен до наших дней (Под. ред. Г. Б. Поляка). М., 1997.
26. Алиева А. С. Всемирная история в таблицах и схемах. М., 1999.
27. Вейс Г. История цивилизации. Т. 1–3. М., 1999.
28. Загладин Н. В. Всемирная история. Век XX. М., 1999.
29. Моя энциклопедия событий (Сост. Мирошникова В.В. и др.). М., 1999.
30. Страны мира. Энциклопедический словарь (Сост. Богданович и др.). М., 1999.
31. Хидоятов Г. А. Всемирная история (1914–1945 гг.). Учебник для учащихся 10 класса. Т., «Шарі», 2000.
32. Хидоятов Г. А. Всемирная история (1945–1999 гг.). Т., «Шарі», 2000.
33. Ходжаев А. Х. Китайский фактор и Центральная Азия. Т., «Фан», 2004.
34. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar. T., «Akademiya», 2005.
35. Белоусов Л. С. и др. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1945–2000 гг. М., «Простор», 2003.
36. Родригес А. М. Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. М., «Владос», 2005.
37. Бузов В. И. История современного Востока XX–XXI вв.: страны и правители (Новейшая история Азии и Африки). М., «Март», 2008.
38. Родригес А. М. Стран Азии Африки в новейшее время в вопросах и ответах. М., «Проспект Велби», 2008.
39. Пономарёв М. В. История стран Европы и Америки в новейшее время в вопросах и ответах. М., «Проспект Велби», 2008.
40. Internet materiallari: Vikipedia elektron ensiklopediyasi. 2008.
366

MUNDARIJA

Kirish 3
Dunyo XX—XXI asr boshlarida 3
BIRINCHI BO‘LIM. DUNYO IKKI JAHON URUSHI ORALIG‘IDA
1-bob. G‘arb mamlakatlari 7
1—2-§. Xalqaro munosabatlar 7
3-§. Sovet davlati 22
4-§. Germaniya 36
5-§. Fransiya 47
6-§. Buyuk Britaniya 55
7-§. Italiya va Ispaniya 65
8-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari 77
9-§. Lotin Amerikasi davlatlari 85
2-bob. Osiyo va Afrika davlatlari 96
10-§. Xitoy va Hindiston 96
11-§. Turkiya. Eron. Afg‘oniston 105
12-§. Yaponiya 111
13-§. Arab davlatlari 115
14-§. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari 124
3-bob. Ikkinchi jahon urushi 128
15-§. Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari 128
IKKINCHI BO‘LIM. JAHON MAMLAKATLARI XX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XXI ASRNING BOSHLARIDA
1-bob. Xalqaro munosabatlar. G‘arb davlatlari taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari 145
16-§. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo siyosati va hayotidagi o‘zgarishlar 145
17-§. Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arb davlatlari ijtimoiyiqtisodiy va siyosiy taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlar 161
2-bob. G‘arb mamlakatlari 168
18-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari 168
19-§. Lotin Amerikasi davlatlari 178
20-§. Buyuk Britaniya 184
21-§. Fransiya 193

367
22-§. Germaniya Federativ Respublikasi 200
23-§. Italiya Respublikasi 208
24-§. Sovet davlati va uning parchalanishi 212
25-§. Markaziy va janubi-sharqiy Yevropa davlatlari 221
3-bob. Osiyo va Afrika davlatlari 234
26-§. Yaponiya 234
27-§. Xitoy Xalq Respublikasi 240
28-§. Hindiston va Pokiston 246
Pokiston Islom Respublikasi 252
29-§. Turkiya va Eron..... 259
Turkiya Respublikasi 259
Eron Islom Respublikasi 262
30-§. Afg‘oniston 268
31-§. Osiyoning yangi industrial davlatlari 275
32-§. Arab davlatlari 281
33-§. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari 293
4-bob. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi 296
34-§. Moldova, Ukraina, Belorussiya va Kavkazorti Respublikalari
mustaqilligining tiklanishi va rivojlanishi 297
Moldova Respublikasi 297
Ukraina Respublikasi 299
Belorussiya Respublikasi 302
Gruziya Respublikasi 305
Armaniston Respublikasi 308
Ozarbayjon Respublikasi 309
35-§. Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyot yo‘llarining
turli-tumanligi 312
Qozog‘iston Respublikasi 313
Qirg‘iziston Respublikasi 316
Turkmaniston Respublikasi 319
Tojikiston Respublikasi 322
5-bob. Bo‘ltiqbo‘yi Respublikalari 327
36-§. Bo‘ltiqbo‘yi Respubliklarining mustaqillikka erishuvi va
rivojlanishi 327
Estoniya Respublikasi 327
Latviya Respublikasi 328
Litva Respublikasi 329
6-bob. XX asr — XXI asr boshlarida fan va madaniyat taraqqiyoti 331
37-§. Fan va madaniyat 331
Jahon tarixi sanalarda 347
Foydalanilgan adabiyotlar 364

Moyli Lafasov

JAHON TARIXI

(1918—2008)

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik
To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr
«Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010.
Muharrir Sh. Mansurov
Badiiy muharrir E. Muratov
Texnik muharrir T. Smirnova
Musahhihlar: H. Zokirova, S. Abdunabiyeva
Kompyuterda sahifalovchi K. Goldobina
Bosishga 25.06.10 da ruxsat etildi. Bichimi 60S90$_{1}$/$_{16}$.
«Times» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 23,0.
Nashr t. 29,41. Adadi 5445 nusxa. 367- raqamli buyurtma.
«TURON-IQBOL» nashriyoti.
100182. Toshkent sh., H. Boyqaro ko‘chasi, 51-uy.
Telefon: 244-25-58, faks: 244-20-19.
«Toshkent Tezkor Bosmaxonasi» MCHJ da chop etildi.
100200. Toshkent, Radial tor ko‘chasi, 10-uy.